


T. TOSHMURODOV

# SOLIQLAR VA XALQARO SOLIQ TIZIMI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI

T. TOSHMURODOV

# SOLIQLAR VA XALQARO SOLIQ TIZIMI

$$\left\{ \begin{array}{l} Z(x) \sum_{i=1}^n c_{ij} x_{ij} \rightarrow \min \\ \sum_{i=1}^n a_{ij} x_{ij} \geq A_j \quad (i = 1, \dots, n) \\ \sum_{i=1}^m b_{ij} x_{ij} \leq B_j \quad (j = 1, \dots, m) \\ \sum_{i=1}^m d_{ij} x_{ij} \geq D_j \quad (j = 1, \dots, m) \\ x_{ij} \geq 0 \quad (i = 1, \dots, n; j = 1, \dots, m) \end{array} \right.$$

TOSHKENT — 2005

## Taqrizchilar:

1. **M. Jumaboyeva**, Toshkent menejment va texnologiya kollejining direktori, i.f.n., dotsent.
  2. **O. Shodmonqulov**, Oliy Harbiy bojxona institutining dotsenti, i.f.n., Soliq hizmatining III darajali davlat maslahatchisi.
  3. **E. Umarqulov**, ToshGEUning Xalqaro turizm kafedrasи dotsenti, i.f.n..
  4. **K. J. Odilov**, ToshTYMIning «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasи dotsenti, i.f.n.

T. Toshmurodov.

«Soliqlar va xalqaro soliq tizimi». Darslik davlat soliq xizmatining II darajali maslahatchisi, ToshTYMIning «Buxgalteriya hisobi va aydit» kafedrasining mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor T. Toshmurodov tomonidan yozilgan. «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2005-y. 320 bet.

Darslik oliv ta'limning kasb-hunar kollejlari uchun «Soliq va soliqqa tortish», «Iqtisodiyot», «Moliya» va boshqa iqtisodiyot yo'nalishlariда o'qiyotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, oliv o'quv maskanlariда soliq va soliqqa tortish fanlaridan tahsil oladigan talabalar uchun ham foydali hisoblanadi. Darslikda asosiy davlat soliqlari to'g'risida nazariy va amaliyotda tatbiq qilinayotgan soliqlari to'g'risidagi bilimlar berilgan. Boshqa darsliklarga qaraganda mazkur darslikda birinchi marta soliq nazariyasining rivojanishi uzoq muddatdag'i (makro vaqtidagi) soliq bo'yicha olim-larning fikrlari va rivojlangan davlatlardagi soliq amaliyoti tahlil qilingan. Soliq nazariyasi va tizimi darsligida mexanizm sifatida iqtisodiy o'sishga ta'siri va aholi daromadiga ta'sir qiluvchi omil sifatida ilmiy g'oyalarga bo'lib tahlil qilingan. Chet davlatlar soliq tizimi va chet davlatlarda (yoki ikki davlatda) faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va huquqiy shaxslarni soliqqa tortish tartibi, xalqaro soliq munosabatlari, soliqqa tortish usulublari, soliq stavkalari, soliqni hisoblash va to'lash tartiblari ifodalangan. Darslik soliq sohasida ishlayotganlarga, soliq to'lovchilarga, bojxona sohasidagi kadr-larga, bakalavr va magistratura darajasidagi talabalarga hamda malakasini oshirayotgan mutaxassislarga mo'ljallangan. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan aspirantlar va doktorantlar uchun ham foydali. Darslik tayyorlashda amaliy maslahatlar bergan hamkasblarimizga o'z minnat-dorchiligimizni bildiramiz va uning tarkibini hamda mazmunini boyitadi-gan har qanday taklif va mulohazalarni mammuniyat bilan qabul qilamiz. Manzilgoh: [www.tozabek.narod.ru](http://www.tozabek.narod.ru), E-mail: [tazabek@list.ru](mailto:tazabek@list.ru)

T  $\frac{1207000000 - 161}{M361(04) - 2005} - 2005$

© O'MKHTM, 2005-у  
© «Turon-Iqbol»  
nashriyoti, 2005-у.

KIRISH

Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirish maqsadida «Tuman soliq inspeksiyasining boshlig'i kamida 5 ta davlat soliq tizimini bilishi majburiy hisoblanadi». Shu sababli bu o'quv qo'llanmadagi 50 dan ortiq davlatlar soliq tizimi barcha tuman Davlat soliq inspeksiya boshliqlari uchun zarur hisoblanadi.

O'quv qo'llanma rivojlangan davlatlarning soliq turlari va soliqqa tortish usullari hamda soliq siyosatlari berilgan. Birinchi marta o'quv qo'llanmada 50 dan ortiq davlatlar soliq tizimi tahlil qilingan va ularning ijobjiy va salbiy taraflarini davlatimiz amaliyotida qo'llash zaruriyatini ifodalangan.

Xalqaro soliq tizimi, modeli va mexanizmining elementlari, ularni farqlovchi ko'satkichlar hamda soliqqa tortish amaliyotida foydalanish yo'llari ilk marta batafsil berilgan.

Birinchi marta o'quv qo'llanma ikkiyoqlama soliqqa tortish jarayonini optimallashtirish mezonlari berilib, davlat o'rtaсидagi eksport va import operatsiyalarini soliqqa tortishni minimallashtirish yo'llari ifodalangan.

O'zbekiston amaliyotida joriy qilingan soliqlar va bojxona bojlari batafsil berilgan bo'lib, soliqqa tortish usulublari ifodalangan.

O'quv qo'llanmaning boshqalaridan amaliy afzalligi shundaki, barcha davlatlar 5 guruhga bo'lib tahlil qilingan. Bu esa, o'z navbatida, ularning ijobiy va salbiy soliqqa tortish taraflarini aniqlashga imkon berdi.

Umuman, xalqaro soliq tizimi va xalqaro soliqqa tortish amaliyotidan o'zimizning soliq tizimini takomillashtirish, ulardan yaxshi tajribalarni kelajakda joriy cilish imkoniyatiga egamiz.

Xalqaro faoliyatni soliqqa tortish deb, barcha davlatlarga umumiy bo'lgan soliq turlarini undirish va iahon bo'yicha hammaga birday to'lash maj-

Soliq turmlarini undirish va joriy bo'lgan qurʼati hukumiga sharoʼit ko'rsatish  
buriy bo'lgan to'lovlarni olish, hozirgi davrda amalda bo'lgan huquqiy  
mayjud soliqlarni joriy qilish va xalqaro faoliyat qilayotgan subyektlardan  
soliq olish tartibiga rioya qilishga aytildi. Xalqaro faoliyat ko'rsatuvchi  
Huquqiy va Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga — ayrim davlatlar  
tomonidan joriy qilingan soliqlarni to'lagandan va xalqaro faoliyatdan kelib  
tushadigan tushumlardan soliq undirish jarayoni ancha murakkab bo'lib,  
ularni yanada takomillashtirish zaruriyati ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Xalqaro faoliyat ikki tomonlama, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning — tashqarida boshqa davlatlarda va boshqa davatlarning shaxslari respublikamizda yuritgan faoliyatlarini natijalarini soliqqa tortish jarayoni tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining turmush darajasini yaxshilash, iste'mol bozorini barqarorlashtirish. O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan jahon hamjamiyatiga qo'shilishi yuzasidan muhim qadamlar qo'yildi. Bu borada davlatning soliq siyosati, soliqlarning roli katta ahamiyatga molik bo'ldi. Iqtisodiy munosabatlar davrda soliqlar, yig'imlar va bojxona to'lovlari o'z vaqtida hamda to'la amalga oshirish respublika budgetini vujudga kelтирishda muhim rol o'ynaydi.

Soliqlar muammosi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Bugungi kunda juda keskin va jo'shqin munozaralarga sabab bo'layotgan masalalardan biri — jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalasi ekanligini tan olishimiz kerak.

Soliqqa alohida fuqaro yoki oila daromadlari tortilishi mumkin. Soliqqa tortish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Barcha manbalardan olgan daromadlari jamlanib hisoblanadi: ish haqi, yakka tartibdagi faoliyatidan olgan daromadi, mulkiy daromadi, qishloq xo'jaligidan olingan daromadlar, pensiya va nafaqalar (xususiy pensiya va sug'urta fondlar tomonidan to'lanadiganlar), davlat nafaqalarining belgilangan summadan ortiq qismi, qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlari, dividendlar va hokazolar.

Ushbu olingan daromadlar O'zbekistonda qonun hujjatlarida aks etirilgan jismoniy shaxslarning olishi mumkin bo'lgan daromadlar qismiga kiradi. Lekin ushbu olgan daromadlardan chegirmalar va imtiyozlarida katta farq qiladi.

Shu tarzda olingan jami yalpi daromaddan, daromad olish bilan bog'liq bo'lgan barcha qilingan xarajatlar chegirilib tashlanadi. Xarajatlar tarkibiga yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar, kapital aktivlarni sotib olishga, ya'ni yer uchastkalarni, bino-inshootlarni, asbob-uskunalarни ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar va hokazolar kiradi.

Qayd etilgan xarajatlar tarkibidan nafaqat yakka tartibdagi tadbirkorlar, balki boshqa har xil kasb egalari ham foydalanish huquqiga egadirlar. Shuningdek, maxsus kiyim-boshga sarflangan xarajatlar, transport va boshqa xarajatlar chegiriladi, albatta, bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lganlari.

Umumiy soliq imtiyozida esa barcha soliq to'lovchilarga qonun bilan belgilangan soliqqa tortilmaydigan daromad minimumi joriy etilgan. Ushbu imtiyozdan tashqari soliqqa tortiladigan bazadan xayriya fondlariga to'langan a'zolik badallari, to'langan mahalliy soliqlar, aliment summalarli, tibbiyot xizmatidan foydalanganligiga (soliqqa tortiladigan summa 15 % dan oshmagani miqdorda) qilingan xarajatlar barchasi daromadidan chegiriladi.

Davlatning bozor iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'pgina iqtisodiy tayanchlari o'ttasida soliqlar muhim o'rinn tutadi. Bozor munosabatlari sharoitida, va ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrda soliq tizimi davlatning siyosiy-iqtisodiy tomondan tartibga soluvchilaridan bira hamda moliyaviy-kredit mexanizmining asosidir. Davlat soliq siyosatidan bozorning salbiy ko'rinishlariga aniq ta'sir etish vositasi sifatida keng foydalaniladi. Har bir soliq butun soliq tizimidek, bozor sharoitida iqtisodiyotni boshqarishda kuchli ta'sir etuvchi vositadir. Butun xalq xo'jaligining samarali faoliyat ko'rsatishi soliq solish tiziminining qanchalik to'g'ri tuzilganligi bilan bog'liqdir.

Soliqlarni qo'llash iqtisodiy boshqaruvs usullari, mulkchilik turlari va korxonaning tashkiliy-huquqiy turlariga bog'liq bo'limgan holda tadbirkorlar va korxonalarining umumdaylat manfaatlarining biridir. Soliqlar yordamida tadbirkorlar, barcha turdag'i korxonalarining davlat va mahalliy budgetlari, banklar, shuningdek, yuqori tashkilotlar bilan o'zaro aloqalar aniqlanadi.

1-bob.

## XALQARO SOLIQ TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISH NAZARIYASI

### 1. Xalqaro soliq tizimini optimallashtirish modellari

Xalqaro soliq tizimi deb, jahon soliq tizimi tarkibini ifodalovchi, davlatlar soliq tizimini taqqoslovchi, soliq to'lovchining ikki davlat tomonidan soliqqa tortilishi, xalqaro iqtisodiy faoliyatni bojxona bojlari va jahon miqyosida soliqqa tortishni takomillashtirish tadbirlari hamda tuzilmasiga aytildi. Bizning fikrimizcha esa «Xalqaro soliq tizimi» alohida fan bo'lib, jahon miqyosida soliqqa tortish jarayonini rivojlanтирishning ilg'or yo'llarini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Bu fan o'z maqsadi, obyekti, uslubi va predmetiga ega bo'lib, mazkur qo'lingizdag'i darslikda yuqoridagilar batafsил ifodalangan.

Har qanday fan o'z nazariyasiga va amaliyotiga ega bo'lgani kabi, bu fanning ham o'z nazariysi va amaliyoti mayjud. Bu fanning murakkabligi shundaki, boshqa fanlar bir davlat miqyosida bilimlarni o'rgatsa, bu fan jahon bo'yicha ilg'or davlatlarning yaxshi tomonlarini ilg'or soliqqa tortish uslubi va yo'li kabi ifodalashga intiladi.

Xalqaro soliq tizimi nazariyasidan boshlab, soliqqa tortish nazariyasi ning rivojlanish evolutsiyasiga kengroq to'xtalib o'tamiz. Chunki nazariya barcha davlatlarda vujudga kelgan soliq bo'yicha g'oya va fikrlar asosida amalga oshirilgan tadbirlar bilan ifodalanadi.

Har qanday davlat, birinchi navbatda, soliqqa tortishning optimal yo'lini topish maqsadida olimlarning fikr va g'oyalardan foydalangan. Albatta, har qanday davlat odamlari soliqning og'irligi kam va soliq tushumining ko'p bo'lishi yo'llarini topishga intilganlar. Mana shu maqsad sari intilgan davlatlardagi soliqqa tortish jarayoni to'g'risida to'xtalib, soliqqa tortishning ilk bir ko'rinishidan boshlashdan oldin soliqqa tortishning optimal yo'li mazmuniha to'xtalamiz.

**Soliq nazariyasi** — soliqlar va soliqqa tortish to'g'risidagi olimlarning ilmiy g'oyalari, konsepsiylari va ta'limotlar majmuasi. Soliq nazariyasi tushunchasiga soliqlar va soliqqa tortish to'g'risidagi olimlarning ilmiy g'oyalari, konsepsiylari va ta'limotlar majmuyi, tadqiqotchilarining soliq va soliqqa tortishga bo'lgan munosabatlari to'g'risidagi fikrlari hamda soliq bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy qonuniyatlar, bog'liqliklar majmuyi kiradi. Bu tushuncha o'z ichiga ma'lum davr oralig'idagi soliq tizimining rivojlanishini ifodalovchi nazariy fikr-mulohazalar natijasida kelib chiqqan qonunlar va qonuniyatlardir. Tarixda har xil soliqqa nisbatan fikr va g'oyalar mavjud bo'lib, uiarining evolutsion rivojlanishini ko'rib chiqamiz.

6  
Avt. 46-5et

**Optimal** — bu ratsional, samarali, rentabellik foydasi ko'p va kamxarajatlari mezonlarga erishgan natijaga aytildi. Soliq bo'yicha «**soliqqa tortishni optimallashtirish**» tushunchasi quyidagi mezon va talablarni bajarishni o'z ichiga oladi:

- Soliq og'irligini kamaytirish (soliq tushumining yalpi ichki mahsulotga nisbati)ni yil sayin kamaytirish.
- Soliq yig'ish xarajatlarini kamaytirish (ming so'm soliqni yig'ish uchun ketgan xarajatni yil sayin kamaytira borish).
- Soliq tushumining iqtisodiy o'sishga ijobji ta'sir qilishini ko'paytirish (soliq imtiyozlarini joriy qilish).

- Soliqqa tortish jarayonida aholi real daromadini yil sayin ko'paytirish (soliqqa tortilmaydigan aholi daromadlarini joriy qilish).

Optimallashtirish deb, iqtisodiy ko'rsatkichning maksimal va minimal qiymati o'rtasidan eng samarali qiymatini aniqlash uslubiga aytildi. Soliqqa tortishni optimallashtirish deb soliq stavkasi, bazasi, obyekti, imtiyozlari, chegirmalari, soddalashtirilgan soliq turlarini va qat'iy belgilangan soliqlarni joriy qilish yo'llari bilan davlat miqyosida soliq og'irligini minimallashtirish jarayonlariga aytildi.

**Soliqqa tortishni optimallashtirish** tushunchasi faqat soliq og'irligini kamaytirish bilan o'chanmaydi va u har bir davlat bo'yicha soliqni yig'ish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish mezoniga javob beradigan bo'lishi lozim. Demak, soliqqa tortishni optimallashtirish deb soliq og'irligining kamayishi soliq imtiyozlarini va ratsional soliq stavkalarini hamda soliq bazalarini aniqlab, ularni joriy qilish, soliq tushumi yig'imi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish jarayoniga aytildi.

**Optimal soliqqa tortish yo'llarini aniqlashda oxirgi ilg'or uslublardan** biri iqtisodiy-matematik modellashtirish hisoblanadi. Bu uslubning yechimi kompyuter yordamida maxsus algoritma asoslangan holda aniqlanadi. Albatta, bu uslubdan foydalanish soliqqa tortishning samarali yo'llarini aniqlash bilan yakunlanadi. Bu masalani yechishda quyidagi iqtisodiy masalalarni matematik modeldan foydalanish natijasida kompyuterda maxsus algoritm yordamida eng samarali variantini, ya'ni **optimal soliqqa tortish yo'lini aniqlab**, davlat miqyosida uni joriy qilish mumkin:

1. Davlat miqyosida soliq og'irligini minimallashtirish mezonini quydagicha ifodalanadi (soliq tushumining yalpi ichki mahsulotga nisbati):

$$Z(x) \sum_{i=1}^n c_{ij} x_{ij} \rightarrow \min, \quad (01)$$

$c_{ij}$  — tarmoqlar bo'yicha soliq og'irligini ifodalovchi koefitsiyent;

$x_{ij}$  — soliq tushumi yalpi ichki mahsulotga nisbatidan.

2. Soliq tushumi davlat budjeti daromad qismini to'ldirish uchun zarur bo'lgan mablag'dan kam bo'lmashiga quyidagi shartlar bilan erishiladi:

$$\sum_{i=1}^n a_{ij} x_{ij} \geq A_j \quad (i = 1, \dots, n) \quad (02)$$

Bu yerda:  $a_{ij}$  — rejalshtirilgan mahsulotga nisbatan soliq tushumining koeffitsiyenti;

$A_j$  — rejalshtirilgan faoliyatdan soliq tushumi.

3. Soliq tushumini yig'ish uchun zarur bo'lgan xarajatlar ma'lum summadan yuqori bo'lishi mumkin emas. Bu shart quyidagicha ifodalanadi:

$$\sum_{i=1}^m b_{ij} x_{ij} \leq B_j \quad (j = 1, \dots, m) \quad (03)$$

Bu yerda:  $b_{ij}$  — soliq tushumini yig'ib olish bilan bog'liq xarajatlar koeffitsiyenti;

$B_j$  — limit asosida ajratilgan soliq yig'ish xarajatlari.

4. Soliq imtiyozlarini joriy qilish natijasida soliq bazasining ko'payishi natijasida soliq tushumining oshishi va shu bilan birga soliq yig'ish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning kamayishi quyidagicha ifodalanishi mumkin.

$$\sum_{i=1}^m d_{ij} x_{ij} \geq D_j \quad (j = 1, \dots, m) \quad (04)$$

Bu yerda:  $d_{ij}$  — soliq og'irligining imtiyozlar joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyenti;


$D_j$  — soliq og'irligini tushurish bilan bog'liq bo'lgan imtiyozlarning umumiy summasi.

5. Barcha tarmoqlar bo'yicha soliq tushumi yo'q bo'lmasligi sharti bu optimallashtirish modelida quyidagi shart bilan amalga oshiriladi:


$$x_{ij} \geq 0 \quad (i = 1, \dots, n; j = 1, \dots, m) \quad (05)$$

Yuqoridagi iqtisodiy matematik model yordamida davlat miqyosida quyidagi masalani yechish mumkin: birinchidan, soliq og'irligini iloji boricha kamaytirish imkoniyatini aniqlaydi; ikkinchidan, davlat budgetining daromad qismini to'ldirish maqsadida rejalshtirilgan ( $A_j$ ) soliq tushumidan kam bo'lmasligini aniqlaydi; uchinchidan, soliq tushumini yig'ish bilan bog'liq bo'lgan umumiy xarajatlar summasidan ( $B_j$ ) oshib ketmasligini ta'minlaydi; to'rtinchidan, soliq imtiyozlarini joriy qilish natijasida soliq og'irligini kamaytirish ( $D_j$ ) rejasini aniqlaydi; beshinchidan, soliq tushumining barcha tarmoqlar bo'yicha rejaga teng bo'lishini ta'minlaydi va undan kam bo'lmasligiga yo'l qo'yaydi.

Davlat miqyosida bu masalani yechishni (01)–(05) modellar yordamida amalga oshirish mumkin. Albatta, uning natijalarini amaliy rejalshtirishda foydalanish soliqqa tortish samaradorligini oshiradi. Buning uchun maxsus algoritm mavjud bo'lib, unga kerakli ko'rsatkichlarni kiritish natijasida optimal soliqqa tortish yo'li aniqlanadi. Shunday qilib, davlat miqyosida soliqqa tortishning optimal yo'li iqtisodiy manfaatlarga bog'liq ekan. Bu jarayonni quyidagi chizmadagi o'zgarishlar kabi ifodalanash mumkin.





Albatta, optimallash ma'lum bir chegara ichida aniqlanadi va bu chegarani aniqlashda iqtisodiy qonuniyatlar yordam beradi. Ana shu chegarani aniqlaymiz. Soliq stavkasi va soliq tushumi o'ttasidagi iqtisodiy va funksional bog'liqlik quyidagi chizmadagi bog'liqlik asosida ifodalanishi mumkin:



Bu qonuniyat quyidagi teorema bilan ifodalanadi: soliq stavkasi ( $c$ ) qancha past bo'lsa, soliq tushumi ( $y$ ) shunchalik ko'payadi. Buni isbotlash maqsadida ikki omil ta'sirini ko'rib chiqamiz: birinchidan, soliq stavkasining ( $c$ ) tushushi soliq to'lovchilar faoliyatini rivojlantirib, iqtisodiy natijalarini o'stiradi, ya'ni soliq stavkasi tushganligi hisobiga olingan pul mablag'i iqtisodiy o'sishga sarflanadi, soliq bazasi ko'payishi esa soliq tushumini ko'paytiradi; ikkinchidan, soliq stavkasi kamligi qo'shimcha faoliyat ko'rsatuvchilar sonini ko'paytiradi hamda ular budgetga qo'shimcha soliq tushumini vujudga keltiradi.

B chizmadagi  $Y_2$  soliq tushumiga erishish uchun soliq stavkasini ikki xil kamaytirish jarayonida bir xil tushumga  $C_1$  va  $C_2$  erishilish mumkin, agar soliq bazasi har xil bo'lsa. Demak, soliq og'irligi har xil bo'lishi natijasida bir xil natijaga erishilishi mumkin.


Soliq stavkasi qancha ko'paysa, shu soha va faoliyat bilan yashirin shug'ullanuvchi shaxslar soni ko'payadi. Bu bog'liqlik qonuniyat sifatida quyidagi teorema bilan ifodalanadi:



Demak, soliq stavkasi qancha yuqori bo'lsa, yashirin faoliyat ko'rsatuvchi soliq to'lovchi shaxslar soni shunchalik ko'paya boradi. Chizmada ularning soni  $C_1$  da  $Q_1$  ga teng bo'lsa, soliq stavkasi  $C_2$  ga ko'payganda soliq to'loving yashirin jarayoni shunchalik  $Q_2$  ga ko'payadi. Albatta, tarmoq va faoliyat turlariga qarab, soliq tushumining yashirin jarayoni turlicha stavkalarda ( $C_2$  yoki  $C_3$ ) sodir etilishi mumkin. Bu holat stavkaning qanchalik darajada ko'tarilishi emas, qancha vaqt ichida ( $t$ ) kamaytirishga ham bog'liq. Chizmadagi  $W_2$  iqtisodiyot tarmoqlarining qanchalik katta va kichikligiga bog'liq bo'ladi. Agar oldingi chizmadagi  $W_1$ ning hajmi tarmoqlar bo'yicha soliq stavkasining tushishi indikatori bo'lsa,  $W_2$  soliq tushumining yashirish indikatori hisoblanadi.

Soliq stavkasini soliq tushumiga va soliq to'lovchilar soniga bog'liqligi (yuqoridagi chizmalar) kesishgan joy bilan o'lchash mumkin. Quyidagi chizmada yuqoridagi bog'liqliklar yaxlit mujassamlantirilgan bo'lib, o'rtagdi ( $Y_1 Y_2$  va  $C_1 C_2$ ) chegara soliq tushumini optimallashtirish maydoni hisoblanadi. Tahlillar natijasida  $W_1$  va  $W_2$  bilan bog'liqligini bir tashkilot misolida hisob-kitob qilsak, chizmada optimallashtirish chegarasi quyidagicha ifodalanadi:

Optimallashtirish chegarasi (mak. va min.)




Chizmada yuqoridagi bog'liqliklar natijasida soliq stavkasi va soliq tushumining har bir tarmoq hamda faoliyat turlari bo'yicha optimal chegarasi aniqlanadi. Bu chegara  $C_1 - C_2$  va  $Y_1 - Y_2$  ichidagi vaqt, stavka va imtiyozlar hamda soliq bazalari intervali yordamining optimal nuqtasi bilan aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu joy soliq tushumini ko'paytirish va soliq to'lashdan bo'yin tov lashgacha bo'lgan miqdorni bildiradi. Bu joyning katta-kichikligi iqtisodiy tarmoqlarda soliq tushumi, soliq stavkasi va yashirilgan soliq tushumining bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Chizmadagi joy hajmi soliq organlarining erkin faoliyat chegaralarini bildirib, uning hajmi quyidagi bog'liqlik bilan ifodalanashi mumkin:

$$W = f(C \cdot Y)$$

Bu yerda:  $W$  — optimallashtirish (erkin) faoliyat chegarasi,  $C$  — soliq stavkasi, %;  $Y$  — soliq tushumi, so'm.

Yuqoridagi formula yordamida faoliyat turiga qarab, erkin optimal faoliyat yurgizish chegarasini aniqlash mumkin. Bu bog'liqlik ayrim tarmoqlarda to'g'ri va boshqasida egri va yana boshqasida logarifm chiziqli bog'liqliklarda bo'lishi mumkin:




Tarmoqning xususiyati, korxona va faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar soni hamda tarmoq xususiyatiga qarab  $W$  — optimal faoliyat o'zgarishi ham mumkin.

Shunday qilib, yangi iqtisodiy optimal soliqqa tortish zonasini soliq tushumi, soliq stavkasi va soliq tushumini yashiruvchilar o'rtasidagi optimal (sof) chegara ichida aniqlandi. Bu chegara har bir iqtisodiyot tarmog'ida va faoliyat turida har xil bo'lishi mumkin. Bu chegara  $W$  doirasida aniqlanadi. Unga amal qilgan soliq to'lovchi samarali faoliyat ko'rsatadi, ya'ni yashirin soliq tushumi, soliq stavkasi hamda soliq tushumining miqdori zararsiz iqtisodiy o'sishga ijobji ta'sir qiladi. Demak, soliq stavkasi qancha yuqori bo'lsa, yashirin faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar shunchalik ko'paya boradi.

Soliq stavkasi hamda bazasining maksimal va minimal darajasiga qarab samarali qiymatini aniqlash optimallashtirish uslubi deyiladi. Har qanday soliq stavkasining 50 % dan ortiq qismi yashirin daromadning ko'payishiga olib kelar ekan. **Bu bog'liqlik** — Leffer bog'liqliligi deb nom olgan. Kaliforniya universitetining professori Artur Leffer foydadan olinadigan soliq stavkasining 50 % dan ortib ketishi soliq tushumining kamayishiga olib


kelishi qonuniyatini yaratgan. Bu qonuniyat bog'liqlik nazariyasi hisoblanib, unga ko'ra soliq stavkasining oshirilishi bilan budgetga tushadigan mablag' ortadi, ayni paytda, ishlab chiqarishni rag'batlantirish pasayadi. Bu soliq tushumining ortishi, o'z navbatida, soliq obyektini kamaytiradi. O'zaro nomutanosiblikning bunday ko'rinishi me'yoriy yondashuvlarda o'ta zukkolikni talab etadi. Chunki har bir obyekt o'ziga xos original subyekt. Uning o'z istiqbol yo'nalishi hamda maqsadlari mayjud.

**Artur Leffer** — Amerikaning Kaliforniya universiteti professori, XX asrning 70—80-yillarda soliq tushumining soliq stavkasi bilan bog'liqligini aniqlagan, soliq nazariyasi bo'yicha mutaxassis olim. Bu bog'liqlik samsarsi — soliq stavkasi 50 % gacha bo'lsa, soliq tushumi oshishini, 50 % dan yuqori bo'lganda esa soliq tushumi davlat budgetiga tushishi kamayishini aniqlagan. Olimlar o'rtasida bu bog'liqlik Artur Leffer nomi bilan ataladi:



**Artur Leffer bog'liqligi — soliqdan budgetga tushuvchi daromadning soliq stavkasiga bog'liqligi.**

Ko'p iqtisodchilar soliq to'lovchilarining daromadini budgetga olishning chegarasi borligi va soliq yukini ko'paytirib yubormaslik haqida yozganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishining o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va budget xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Amerika iqtisodchisi **Artur Leffer** soliqlarni kamaytirish natijasida iqtisodiyot va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergen. Bu tarixda Leffer egri chizig'i deb ataladi va ko'pchilik adabiyolarda yuqoridagidan o'zgacha talqin qilinadi:




$R$  — soliqlar miqdori,  
 $r$  — foiz stavkasi, %

Agar  $R=0$ , bo'lsa, davlat hech

Agar  $r=100\%$  bo'lsa, natija davlat  
ki ishlab chiqaruvchilarning ham  
lab chiqarishga hech qanday qiziq  
hamma holatlarida davlat u yu  
( $0 < r < 100\%$ ). Soliq stavkasi  $r^*$   
jaga yetadi ( $R^* R_{max}$ ). Xulosa  
jaga yetishi soliq tushumlarini  
cha, soliq tushumlarini kama  
sining dinamikasiga ta'siri  
o'tgandan so'ng seziladi. Leffer e  
soliq stavkalarining kamayishiga obyektiv


Stavkalardagi yuqoridagi noma'qul ko'rsatkichlar  
qo'yilishini ta'minlaydi, «nafas olishga» imkon bermaydi. O  
soliq obyektining kamayishi — ijtimoiy inqirozning kafolatidir. Bozor  
sodiyoti nazariyasining asoschilaridan biri **A. Smit** ta'rifiga asosan talab va  
taklif qonuni faoliyat ko'rsatadigan joylarda to'g'ri va egri soliqlarning joyi  
aniq ifodalangan (chizmaga qarang).



Soliq tushumini optimallashtirish deb, unga ta'sir qiluvchi omillarning  
rational qiymatini aniqlash jarayoniga, uslubiga va yo'llariga aytildi.  
Aholining soliq to'lash qobiliyati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan  
asosiysi — aholining real daromadlari evaziga moddiy ne'matlar va xiz  
matlar xarid qilish imkoniyati hisoblanadi; aholining real daromadlari qan  
chalik ko'p bo'lsa, to'lov qobiliyati ham shuncha yuqori bo'ladi. Quyidagi  
chizmada ko'rsatilganidek, aholining pul va boshqa daromadlari ( $C$ )  
ko'payib ( $D_1 - D_4$ ), ma'lum darajaga (E nuqtiga) yetgandan keyin tovarga  
sarflana boshlaydi va boshqa to'lovlarini, shu jumladan, soliq va yig'im  
to'lash qobiliyati ham paydo bo'ladi. Daromadning  $D_3$  nuqtasidan keyin


kelishi qonuniyatini yaratgan. Bu qonuniyat bog'liqlik nazariyasi hisoblanib, unga ko'ra soliq stavkasining oshirilishi bilan budgetga tushadigan mablag' ortadi, ayni paytda, ishlab chiqarishni rag'batlantirish pasayadi. Bu soliq tushumining ortishi, o'z navbatida, soliq obyektni kamaytiradi. O'zaro nomutanosiblikning bunday ko'rinishi me'yoriy yondashuvlarda o'ta zukkolikni talab etadi. Chunki har bir obyekt o'ziga xos original subyekt. Uning o'z istiqbol yo'naliishi hamda maqsadlari mavjud.

**Artur Leffer** — Amerikaning Kaliforniya universiteti professori, XX asrning 70—80-yillarida soliq tushumining soliq stavkasi bilan bog'liqligini aniqlagan, soliq nazariyasi bo'yicha mutaxassis olim. Bu bog'liqlik samarsi — soliq stavkasi 50 % gacha bo'lsa, soliq tushumi oshishini, 50 % dan yuqori bo'lganda esa soliq tushumi davlat budgetiga tushishi kamayishini aniqlagan. Olimlar o'rtasida bu bog'liqlik Artur Leffer nomi bilan ataladi:



**Artur Leffer bog'liqligi — soliqdan budgetga tushuvchi daromadning soliq stavkasiga bog'liqligi.**

Ko'p iqtisodchilar soliq to'lovchilarning daromadini budgetga olishning chegarasi borligi va soliq yukini ko'paytirib yubormaslik haqida yozganlar. Davlat milliy ishlab chiqarishining o'sishi yoki pasayishiga soliq stavkalarini o'zgartirish va budget xarajatlari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Amerika iqtisodchisi **Artur Leffer** soliplarni kamaytirish natijasida iqtisodiyot va davlat daromadlarining o'sishini isbotlab bergen. Bu tarixda Leffer egri chizig'i deb ataladi va ko'pchilik adabiyolarda yuqoridagidan o'zgacha talqin qilinadi:




$R$  — soliplar miqdori,

$r$  — foiz stavkasi, %


Agar  $R=0$ , bo'lsa, davlat hech qanday soliq tushumiga ega bo'lmaydi. Agar  $r=100\%$  bo'lsa, natija davlat uchun yana shunga teng bo'ladi, chunki ishlab chiqaruvchilarning hamma daromadi budgetga olib qo'yiladi. Ishlab chiqarishga hech qanday qiziqish bo'lmaydi. Soliq stavkasining boshqa hamma holatlarida davlat u yoki bu miqdorda daromadga ega bo'ladi ( $0 < r < 100\%$ ). Soliq stavkasi  $r^*$  bo'lganda soliq tushumlari maksimal daramaga yetadi ( $R^{max}$ ). Xulosa shuki, soliq foizi stavkasining ma'lum daramaga yetishi soliq tushumlarini ko'paytiradi, uning yanada oshirilishi aksinchcha, soliq tushumlarini kamaytiradi. Iqtisodiy subyektlarning soliq stavkasining dinamikasiga ta'siri bir ondayoq sezilmaydi, balki ma'lum vaqt o'tgandan so'ng seziladi. Leffer egri chizig'i davlat daromadlarining o'sishi soliq stavkalarining kamayishiga obyektiv bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Stavkalardagi yuqoridagi noma'qul ko'rsatkichlar uning faoliyatiga chek qo'yilishini ta'minlaydi, «nafas olishga» imkon bermaydi. O'z navbatida, soliq obyekting kamayishi — ijtimoiy inqirozning kafolatidir. Bozor iqtisodiyotni nazariyasining asoschilaridan biri **A. Smit** ta'rifiga asosan talab va taklif qonuni faoliyat ko'rsatadigan joylarda to'g'ri va egri soliplarning joyi aniq ifodalangan (chizmaga qarang).



Soliq tushumini optimallashtirish deb, unga ta'sir qiluvchi omillarning ratsional qiymatini aniqlash jarayoniga, uslubiga va yo'llariga aytildi. Aholining soliq to'lash qobiliyati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan asosiysi — aholining real daromadlari evaziga moddiy ne'matlar va xizmatlar xarid qilish imkoniyati hisoblanadi; aholining real daromadlari qanchalik ko'p bo'lsa, to'lov qobiliyati ham shuncha yuqori bo'ladi. Quyidagi chizmada ko'rsatilganidek, aholining pul va boshqa daromadlari ( $C$ ) ko'payib ( $D_1 - D_4$ ), ma'lum darajaga ( $E$  nuqtiga) yetgandan keyin tovarga sarflana boshlaydi va boshqa to'lovlarini, shu jumladan, soliq va yig'im to'lash qobiliyati ham paydo bo'ladi. Daromadning  $D_3$  nuqtasidan keyin


xo'jalik yurituvchilarning soliq to'lash qobiliyati tez o'sib, tadbirkorlikka qo'shimcha sarmoya jalg qila boshlaydilar:



**Aholi daromadining ko'payishi natijasida to'lov qobiliyatining o'sishi.**

Birinchi navbatda aholining kerakli tovarlarga bo'lgan talabi daromadning bir qismi bilan qoplanib, qolgan qismi soliq to'lashga va keyinchalik biznesga, dam olish va hordiq chiqarishga sarflanadi. Olimlarning hisobkitoblari shuni ko'rsatmoqdaki, aholi o'rta hisobda, qariyb 20–30 foiz daromadini tovar sotib olishga sarflaydi va undan keyin soliqni to'lay boshlaydi.

Bozor mexanizmi asosan soliq mexanizmiga bog'liq bo'lib, bozorda mahsulot, xizmatlarga nisbatan shakllangan taklif darajasiga qarab, narxnavoni muvofiqlashtirishga erishadi. Bu ko'rinnmas kuch va yashirin qo'l ham deb ataladi. Bu jarayonni tezlashtirish talab va taklifdan tashqari soliq og'irligiga ham bog'liq bo'ladi. Bu jarayon quyidagi chizmada ifodalangan.




**Ma'lum soliq stavkada tovarning eng maqbul bahosini aniqlashning bozor mexanizmi.**

Mahsulotlarga bo'lgan baho, talab va taklif o'zgarishi bilan ularning bozordagi miqdori soliq mexanizmiga asosan, eng maqbul optimal holatga keltiriladi. Ushbu chizmadan ko'rinish turibdiki, ma'lum vaqt o'tishi bilan mahsulot yoki xizmat bahosining asta-sekin ratsional holatga kelishi, ya'ni optimallashuv jarayoni sodir bo'ladi. Talab ( $K_1$ ,  $K_2$ ,  $K_3$ ) va taklif

o'zgarishi natijasida baho asta-sekin eng maqbul ( $E_1$ ,  $E_2$ ,  $E_3$ ,  $E_4$ ) nuqtaga keladi. Soliq mexanizmi talab va taklifga qarab, narx-navoning hamda sotiladigan tovarlar hajmining ko'rinnmas kuch yordamida o'zgartirib turilishidir.

Soliq to'lashda aholi yoshi va daromadi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning taqsimlanishi yoshiga qarab har xil bo'lar ekan. Jismoniy shaxsnинг daromadi va uning qobiliyati o'rtasida bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik aholining turli qatlamlarining daromadlari bilan qobiliyatları o'rtasida mavjud. Uni aniqlash uchun aholi daromad qobiliyatları (intellekti) bo'yicha har bir guruh yosh uchun bo'lib chiqiladi. Rivojlangan davlatlarda aksariyat biznesmen soliq to'lovchilar quyidagicha taqsimlangan:



**Tadbirkorlarning yoshi, daromadi va ularning aql-idrokiga (intellektiga) bog'liqligi.**


Tadbirkorlarning qobiliyatini daromadlari bo'yicha taqsimlashda (intellekt koeffitsiyenti aholi daromadi), ularning umumiyl daromad ko'rsatkichlari hisobga olinagan bo'lib, bu ko'rsatkichlar har xil amplitudaga ega, ya'ni maksimal daromadli aholi  $D$  nuqtaga to'g'ri keladigan aholining  $D_1$  nuqtadagi qobiliyatlariga to'g'ri keladi. Eng yuqori qobiliyatli aholi  $K_1$  nuqtaga to'g'ri keladigan daromadga ega bo'lar ekan, chizmadan ko'rinish turibdiki,  $C$  nuqtasidan boshlab yuqori qobiliyatli aholi soni daromadlilar sonidan kamayib borgan. Demak, pastroq qobiliyatli aholi ham nisbatan yuqori daromadga ega bo'lishi mumkin ekan.

**Aql-zakovat** aholi intellekt qobiliyatining asosiy qismi bo'lib, undan tashqari hisobga olinmagan daromad keltiruvchi qibiliyatlar ham mavjud. Demak, daromad, intellekt va yosh omili soliq to'lashga ijobjiy ta'sir qilib, ular o'rtasida bog'liqlik mavjud ekan.

Investitsiya va soliq tushumi o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, har qanday davlat iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida turli sarmoyalarni jalg qiladi. Bu esa soliq tushumini ta'minlaydi.


Qo'shimcha investitsiya, o'z navbatida, davlat budgetiga soliq tushumi ta'minlaydi ( $C$ ). Chunki investitsiya hajmini talabga nisbatan  $T_2$  nuqtaga yetkazilmasa, mahsulot va soliq tushumi barqaror o'smaydi. Soliq tushumi  $T_1$  nuqtadan boshlab o'sa boshlaydi va  $T_2$  nuqtagacha mutanosib ravishda yuksalishda davom etadi. Undan keyin investitsiya kamaysa ham soliq tushumi mahsulot ko'payishi hisobiga oshib boradi.

Olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasida bu bog'liqlikning quydigicha o'zgarishlari aniqlangan. Soliq tushumining barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida investitsiyaning  $T_0$  dan  $T_2$  gacha bo'lgan «lag» omilini hisobga olish zarur.<sup>1</sup> Demak, ma'lum vaqt ( $T_2$ ) o'tishi bilan investitsiya qiymati kamaysa ham, mahsulot hajmi o'sishi hisobiga soliq tushumi ko'payib boradi.



Iqtisodiy sohaga qilingan investitsiyaning soliq tushumi o'sishi.

Mahsulot tannarxining tarkibi soliqqa tortish bazasi sifatida tarkibida tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishdagi barcha xarajatlarning puldag'i ifodasidir. Mahsulot tannarxi sarf qilingan barcha xarajatlar yig'indisi bo'lib, pul sarfi umumiy xarajat ( $V$ ), doimiy xarajat ( $D$ ) va o'zgaruvchan xarajat ( $Y$ ) kabi ma'lum xarajat guruhlariga bo'linadi. Yil davomida xarajatlarni kamaytirish yo'llari izlanib, foydani ko'paytirish maqsadida xarajat turlarini tahlil qilib boriladi.




Mahsulot tannarxuning tarkibi.

<sup>1</sup> Lag — har qanday investitsiyaning qurulish boshlanishidan mahsulot chiqara boshganigacha bo'lgan vaqt.

Ayrim soliqlar tannarxning chizmadagi  $A$  qismiga, ya'ni o'zgarmas xarajatlariga kirsa, boshqalari tannarxning  $V$ , ya'ni o'zgaruvchan xarajatlariga kiradi.


**Modelning** sifati va mexanizmlari qanchalik yaxshi ishlasa, davlat miqyosida iqtisodiy o'sish ham shunchalik tez va yuqori bo'ladi. Bu makro-model ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha fazalarida soliqdan tushgan tushum harakatini ko'rsatadi (chizmaga qarang): F—V—O—D.

**Soliq tushumi aylanishining optimallashtirish makromodeli (davlat miqyosida quydagi chizmada ifodalangan):**



Soliq tushumining makro darajadagi harakati ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning davlat miqyosidagi holatini va soliqdan tushgan mablag'dan samarali foydalanish darajasini aniqlashda ishlataladi hamda maxsus tartib bo'yicha davlat tadbirlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

**Soliq tushumining soliq stavkasiga va soliq to'lovchilar soniga bog'liqligi** — soliq tushumining miqdorini belgilovchi umumiy qonuniyat hisoblanadi. Bu bog'liqliknii tahlil qilib, davlat miqyosidagi o'zgarish qonuniyatlarini quydagi chizma orqali ifodalash mumkin. Soliq stavkasini 2 foiz oshdi deb faraz qilsak, davlat miqyosida xo'jalik yurituvchi subyekt soni 5000 bo'lgan bo'lsa, soliq stavkasini 10 % ga ko'targanda ular soni 500 ga tushib qolgan; ikkinchidan, soliq stavkasi 5 % da turganda, soliq tushumi soliq to'lovchilar hisobiga o'sa borgan. Bu bog'liqliknii davlat miqyosida aniqlashda, chizmadagi o'zgarish bilan ifodalash mumkin. **Chizmaning mazmuni** — ma'lum soliq turi bo'yicha soliq stavkasi 2 foizdan 10 foizgacha ko'paysa, soliq tushumi kamayib ketadi va soliq to'lovchilar soni ko'paysa ham umumiy soliq tushumi ko'paymaydi. Chapdag'i chizmaning ma'nosi — soliq stavkasini 10 % dan 2 % gacha tushsa, soliq tushumi soliq to'lovchilar sonining o'sishiga qarab ko'payadi. Demak, soliq stavkasi soliq tushumini belgilovchi asosiy omil bo'lib, soliq to'lovchilar soni esa ikkilamchi mavqedagi omil hisoblanar ekan.




**Soliq tushumi, soliq stavkasining soliq to'lovchilar soniga bog'liqligi.**

Yuqorida chizmalardagi ayrim bog'liqliklar va soliqqa tortish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar bizning oldingi ko'pchilik ilmiy ishlarmizda bat afsil o'rganilan. Albatta, soliq nazariyasidan amaliyotga o'tish davrida yuqorida qonuniyatlarni hisobga olingen holda soliq turlarini, soliq stavkalarini va soliqqa tortish uslublarini joriy qilish samarali yo'i bo'lib hisoblanadi. Barcha ilm-fan yangiliklaridan samarali foydalanish kerak. Soliq tushumini rejalashtirishda, asosan, amaliyotda quyidagi uslublardan keng foydalaniladi: iqtisodiy tahlil, ekspertlar baholashi, «so'rash» uslubi, iqtisodiy matematika uslubi, omil uslubi va boshqa uslublar.

**Soliq tushumini** eng aniqlik bilan hisoblab, rejalashtirish iqtisodiy ko'rsatkichlarga va uslublarga bog'liq. Soliq rejalaridan foydalanish uslublarga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- shaxsiy soliq rejasi;
- xo'jalik yurituvchilarning soliq rejasi;
- xalqaro faoliyatni soliqqa tortish rejasi;
- davlat soliq tushumi rejasi.

**Rivojlangan davlatlarda soliq tushumi rejasini tuzishda foydalaniladigan uslublarning quyidagi asosiy guruhlari mayjud (chizmaga qarang):**



**Soliq tushumini bashorat qilish usullari.**

Soliq tushumini rejalashtirishning makro maqsadi mo'ljallangan va kelasi yilga rejalashtirilgan budjet xaratjatlarining ma'lum bir qismini soliqlar, yig'imlar va to'lovlar hisobida qoplash tadbirlarini tuzish hisoblanadi. Bu tadbirlar davlat soliq inspeksiysi tomonidan olib boriladi.

Umumiy soliq tushumi rejasiga bojxonadan tushadigan bojlar va soliqlar kiradi. Soliq to'lash rejasi hayotga va amaliyotga yaqinlashtirish kabi maxsus tadbirlarni hisobga olib rejalashtiriladi.

Bu uslublardan foydalanish soliq turlariga, xo'jalik yurituvchi subyektlarga, iqtisodiy soha turiga bog'liq.

Misol tariqasida, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) dan tushadigan soliq tushumini «prognozlash» ning omil modelidan foydalanish tartibini ko'rib chiqamiz.

QQS bo'yicha soliq tushumi  $Y_t$  — natijaviy omil bo'lsa, unga ta'sir qiluvchi  $X_t$ , omillarga soliq to'lovchilar soni, soliq bazasi, soliq stavkasi, bahoning o'zgarishi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lishi mumkin. Hisob-kitob uchun bir omilli modelni ko'rib chiqish maqsadida soliq tushumi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi bog'liqliknani aniqlaymiz. Yuqorida qidagi modelga boshqa omillarni ham qo'yish mumkin edi, lekin hisob-kitoblar murakkablashib ketishini va «shartli» misol ekanligini e'tiborga olib, boshqa omillarni bashoratlashda qo'shmadik.

**Davlat, viloyat va tumanlar bo'yicha QQSni bashoratlash maqsadida quyidagi «shartli» sonlardan foydalanib, bashorat qilish usulini ko'rsatamiz (jadvalga qarang):**

Yil	$Y_t$ — QQS, mln	$X_t$ — mln	$XY$	$Y_t$	$X_t$
1995	310	1200	372000	96100	1440000
1996	350	1400	490000	122500	1960000
1997	375	1600	600000	140625	2560000
1998	420	1800	756000	176400	3240000
1999	430	1900	817000	184900	3610000
2000	460	2200	1012000	211600	4840000
2001	48	2800	1344000	230400	7840000
2005	510	2900	1479000	260100	8410000
JAMI	3335	15800	52693000	1112225	249640000
	$\Sigma Y_t$	$\Sigma X_t$	$\Sigma XY$	$\Sigma Y_t$	$\Sigma X_t$

Agar, davlat miqyosida QQS ( $Y$ ) va soliq to'lovchi shaxslar ( $X$ ) ma'lum bo'lsa, oxirgi 1995–2005-yillarda QQS dan haqiqiy olingen mablag' va xo'jalik yurituvchi huquqiy hamda jismoniy shaxslar soniga qarab, 2006–2010-yillarda QQS dan tushadigan soliq tushumini davlat miqyosida aniqlash mumkin. Bu hisob-kitoblarni maxsus algoritm asosida EHMda bajarish uchun quyidagi misoldan foydalanish mumkin.

Ikki ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri chiziqli, deb hisoblab quyidagi model qiymatidan foydalanish mumkin:

$$Y_t = a + b \cdot X_t$$

bu yerda:  $Y_t$  — QQS dan tushgan soliq mablag'i summasi, so'm;

$X_t$  — QQS to'lovchi xo'jalik yurituvchi huquqiy va jismoniy shaxslar soni, kishi;

$a, b$  — hisoblangan koeffitsiyentlar bo'lib, maxsus algoritm asosida aniqlanadi.

Bu modelning ko'rsatkichlarini topishda quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$\begin{cases} n \cdot a + \Sigma x \cdot b = \Sigma y \\ \Sigma y \cdot a + \Sigma x \cdot b = \Sigma x \cdot y \end{cases}$$

Iqtisodiy modelning koeffitsiyentlarini hisoblash uchun tenglamadan  $a$  va  $b$  koeffitsiyentlarni topish uchun yuqoridagi jadval ko'rsatkichlari yetarli bo'lib, quyidagi  $D$ ,  $D_1$ ,  $D_2$  ko'rsatkichlarni aniqlash zarur:

$$D = \begin{vmatrix} \Sigma x & \Sigma y \\ \Sigma y & n \end{vmatrix} = xN - \Sigma x \cdot \Sigma y =$$

$$D_1 = \begin{vmatrix} \Sigma yx & \Sigma x \\ \Sigma y & n \end{vmatrix} = \Sigma yx \cdot N - \Sigma x \cdot \Sigma y =$$

$$D_2 = \begin{vmatrix} x & \Sigma yx \\ \Sigma x & \Sigma y \end{vmatrix} = x \cdot \Sigma y - \Sigma yx \cdot \Sigma x =$$

Asosiy koeffitsiyentlarni topishda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$a = \frac{D_1}{D}, \quad b = \frac{D_2}{D}.$$

Yuqoridagi ko'rsatkichlarga asosan koeffitsiyentlar qiymati  $a = 12,456$  va  $b = 0,172$  ga teng bo'ladi. Demak, QQS ni kelajakka bashorat qilish modeli quyidagi qiymatga ega bo'ladi:

$$Y_t = 12,465 + 0,172 \cdot X_t$$

Bu modelga asosan, 2010-yilda soliq to'lovchilar soni 2900 kishidan 3400 kishiga ko'paysa, boshqa omillar o'zgarmasa, QQS ning 2010-yildagi qiymati 597,3 ga teng bo'ladi:

$$Y_t(2006) = 12,465 + 0,172 \cdot 3400 = 597,3 \text{ mlrd so'm.}$$

$$Y_t(2010) = 12,465 + 0,172 \cdot 4500 = 786,4 \text{ mlrd so'm.}$$

$$Y_t(2015) = 12,465 + 0,172 \cdot 7800 = 1354,1 \text{ mlrd so'm.}$$

Demak, 2006-yilda oldingi yilga qaraganda faqat bir omil — soliq to'lovchilar sonining oshishi hisobiga 510 mlrd dan 597,3 mlrd ga ko'payishi mumkin ekan. Bu modelning yaxshi imkoniyati — ko'p omillarni hisobga olishi mumkin:

$$Y_t = f(X_1, X_2, X_3, \dots, X_n)$$

Masalan, soliq to'lovchilar sonining oshishi soliq stavkasining o'zgarishi, soliq bazasining ko'payishi inflatsiyaning ta'siri xalqaro iqtisodiy faoliyatning o'zgarishi kabi omillarni umumiyligi soliq tushumiga ta'sirini hisobga olgan holda «prognoz» qilish mumkin.

Demak, yuqoridagi hisob-kitoblarni amaliyatda rejalshtirish uchun qabul qilish mumkin. Bu uslubning natijalaridan foydalanishdan oldin maxsus ko'rsatkichlar hisoblanib, ular bu modelni natijalarining haqiqatga yaqinligini va olingan natijalarning aniqligini bilish mumkinligini talab qiladi. Bu ko'rsatkichlarga: « $R_{xy}$  — koeffitsiyent mnojestvennaya korrelatsiya», « $F$  — kriteriya» va « $t$  — kriteriya»lar kiradi.

Yuqoridagi misolimiz bo'yicha olingan modelning  $R_{xy}$  — ko'rsatkichi —  $R_{xy} = 0,895$  ga teng bo'ldi. Bu esa QQS bilan soliq to'lovchilar sonining o'sishi o'rtasida 90 % li bog'liqlik mayjudligini ifodalaydi. Fisher kriteriyasi ( $F$  — kriteriya) har qanday bashoratlash modeliga kirgan omillar va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikning mayjudligini bildiradi. Yuqoridagi misolimiz bo'yicha hisoblangan  $F$  — kriteriyasi  $F_r = 24,5$  ga teng bo'ldi. Uning jadvaldagi qiymati  $F_t = 3,6$  ga teng. Ularning jadval qiymati maxsus matematik jadvallardan olinib, omillar soniga qarab har bir omilga alohida-alohida olinadi. Shart bo'yicha hisoblangan  $F_r$  qiymat jadvaldagi  $F_t$  qiymatdan ko'p yoki teng bo'lishi shart:

$$F_t < F_r, \text{ ya'ni bizning misolimizda: } F_r = 24,5 > F_t = 3,6$$

Demak, bu modelning QQS ni bashoratlashda, faqat shu omilga asosan kelasi yillarga  $y_t$  ning qiymatini aniqlash mumkin ekan.

Keyingi asosiy ko'rsatkich «Styudent» kriteriyasi bo'lib, bu kriteriya asosida har bir omilning natijaviy ko'rsatkichga bog'liqlik darajasini ifodalaydi. «Styudent» kriteriyasi har bir omil uchun hisoblanib, uning qiymati, albatta, jadval qiymatidan kichik bo'lishi kerak. Yuqoridagi modeldagidagi omil uchun  $t$  — kriteriya uchun hisoblanganda  $t_t = 3,1$  ga teng bo'libdi. Uning jadval qiymati:  $t_r = 4,4$ . Jadval qiymati maxsus matematik jadvallardan davrga (yilga) va omillar soniga qarab hisoblanadi. Demak, bu shart misolimizda bajarilayapti:


$$t_r > t_t, \quad t_t = 3,1 < t_r = 4,4,$$

Ko'pchilik olimlarning tahlil va ilmiy izlanishlariga asosan soliq tushumiga ta'sir qiluvchi omillarning asosiysi iqtisodiy va ijtimoiy omillar bo'lishi

mumkun. Bu omillarning ta'sir qilish darajasini ta'sir qiluvchi aniq misollar tariqasida maxsus hisoblash usullardan amalda foydalanish mumkin. Soliq tushumini o'zgaruvchi omillarning ta'sirini aniqlashda matematik uslublar va algoritmlar yordamida maxsus dastur asosida hisoblash mashinalaridan foydalaniladi.


Soliq tushumiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasida iqtisodiy bog'liqlik har xil o'zgarishga ega bo'lib, ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. «**Parabola**» shaklida. Soliq tushumiga ( $y$ ) ta'sir qiluvchi ( $x$ ) omil o'rtasidagi o'zgarish quyidagi chizmadagi kabi o'zgarishi mumkin:



Agar bu ikki omil o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lsa, bu parabolaning o'zgarish yuqoridagi chizmadagi kabi bo'ladi. Soliq tushumiga ta'sir qiluvchi omillar iqtisodiy, sotsial va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'lishi mumkin.


2. Soliq tushumi va uni belgilovchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik «**giperbol**» shaklida o'zgaruvchan bog'liqlikda bo'lishi ham mumkin:




Albatta, hozirgi amaliyotda qo'llanilayotgan uslublar qator kamchiliklarga ega va ularni yangi ilg'or (ko'p omillar, iqtisodiy matematik) uslublar bilan bashoratlash soliq tizimining davlat miqyosidagi samaradorligini va aniqligini oshiradi.

Bu kabi bog'liqliklar soliq tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasida sodir bo'lishi ham mumkin. Soliq tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashda matematik formuladan foydalanish ham mumkin. Bu omillarga ijtimoiy va iqtisodiy omillar kiradi.

3. «**Eksponient**» bog'liqligiga ega bo'lgan omillar bo'lsa, ularning o'zgarishi quyidagi chizmadagi kabi bo'ladi.



4. Ayrim hollarda soliq tushumi va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasida quyidagi «toza» bog'liqliklar ham mavjud bo'lishi mumkin:



Soliq tushumiga yuqoridagi kabi bog'liqlikda ta'sir qiladigan omillarga asosan iqtisodiy omillar kiradi va soliq tushumiga ma'lum davr ichida ijobiy, ma'lum davrga borgandan keyin salbiy ta'sir qilishi ham mumkin. Shuning uchun bunday omillarning soliq tushumiga ta'sirini o'rganish kerak va amaliyotda hisobga olish zarur. Lekin hozirgi amaliyotda soliqchilar faqat ekstropolatsiya qilish bilan cheklanadi (ya'ni oldingi yillar sur'atini keyingi yillarga tatbiq qiladi). Bu o'z navbatida aniq natijalarini belgilamaydi va Soliq qo'mitasi ma'muriy jazo choralarini nohaq qo'llaydi.

**Rivojlanayotgan davlatlarda soliq tushumini bashoratlashda, asosan, iqtisodiy — matematik modellardan foydalanishadi.** Bu modellar soliq tushumiga ta'sir ko'rsatadigan barcha omillarni oldindan hisobga olib, haqiqiy tushum hajmini belgilashga yordam beradi va hisob-kitob natijalarini ilmiy asoslashga imkon yaratadi. Rivojlangan davlatlarda soliq tushumini kelajakda aniqlash (hisoblash) quyidagi **maqsadlarda** hisoblanadi:

- budgetning xarajat qismida mo'ljallangan mablag'ning qanchaligini soliqlar, yig'imlar va to'lovlar hisobiga to'lash mumkinligini aniqlashda;
- soliq to'lovchilardan qanchalik soliq tushumi bo'lishini vaqt bo'yicha, tarmoqlar bo'yicha va regionlar bo'yicha aniqlash;
- soliq tushumining rejalashtirilgan mablag'ini bajarish maqsadida qo'shimcha tadbirlar tuzish va ularni amalda joriy qilish.

Yuqoridagi maqsadlar davlat miqyosida soliq tushumlarini hisoblashda asosiyari bo'lib hisoblanadi.

Davlat miqyosida soliq tushumini belgilovchi ichki omillardan tashqari xalqaro iqtisodiy faoliyat ham mavjud. Bu omilning soliq tushumiga ta'sirini aniqlashda tashqi savdo hajmini hisoblash muhim omil hisoblanadi.

Tashqi savdo faoliyatini tariflash va notarif usullar asosida tartibga solish natijalari respublikamizda tashqi savdo islohotlarini chiqurlashtirish imkonini beradi. Tashqi savdo tuzilishi va hajmini oshirishda ma'muriy tadbirlardan tashqari iqtisodiy omillar ham bor. Ularni hisobga olishda iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish mumkin.

Tashqi savdoning asosiy omillarini modellashda ta'sir etuvchi omillar ni hisobga olish lozim. Shu ma'noda ikki omilni — eksport va importni o'zaro almashtirib yubormaslik kerak.

Tashqi savdoga ta'sir qiluvchi omillar mexanizmini tanlashda EHM imkoniyatlaridan foydalanib modellash mumkin. Bu model asosida eng ta'sirchan omilni aniqlab olish imkoniyati bor. Aytaylik, bizga tashqi savdo hajmi ma'lum —  $Y_t$  va aholining 1992—2004-yillardagi pul daromadi —  $X_t$  ham aniq. Ular o'rtaсидаги bog'liqliк quyidagi model bilan ifodalanishi mumkin:

$$Y_t = a + b \cdot X_t$$

$a, b$  — koeffitsiyent korrilatsiya, ya'ni o'zaro bog'liqlik darajasi.  
Bu koeffitsiyentlar quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$\begin{cases} n \cdot a + \Sigma x \cdot b = \Sigma y \\ \Sigma y \cdot a + \Sigma x \cdot b = \Sigma x \cdot y \end{cases}$$

Korrelatsiya koeffitsiyentini hisoblash uchun ushbu ko'rsatkichlarni aniqlab olish lozim —  $D, D_1, D_2$ . Bu ko'rsatkichlar qiymati yuqoridagi tenglama asosida aniqlanadi:

$$D = \frac{\left| \begin{matrix} \Sigma x \cdot \Sigma x \\ \Sigma x \cdot n \end{matrix} \right|}{\left| \begin{matrix} n \\ \Sigma x \end{matrix} \right|} = x_1 \cdot N - \Sigma x \cdot \Sigma x =$$

$$D_1 = \frac{\left| \begin{matrix} \Sigma x \cdot \Sigma x \\ \Sigma x \cdot n \end{matrix} \right|}{\left| \begin{matrix} n \\ \Sigma x \end{matrix} \right|} = \Sigma yx \cdot N - \Sigma x \cdot \Sigma y =$$

$$D = \frac{\left| \begin{matrix} x_1 \cdot \Sigma yx \\ \Sigma x \cdot \Sigma y \end{matrix} \right|}{\left| \begin{matrix} \Sigma x \\ \Sigma y \end{matrix} \right|} = x_1 \cdot \Sigma y - \Sigma yx \cdot \Sigma x =$$

Asosiy koeffitsiyentlar qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$a = \frac{D_1}{D}, \quad b = \frac{D_2}{D}$$

Bu uslub asosida ko'p omillarning ta'sirini aniqlab olish mumkin.

$$Y_t = f(X_1, X_2, X_3, \dots, X_n).$$

Albatta hisob-kitob murakkab va ko'p bo'lganligi uchun maxsus algoritm kompyuterda hisoblanadi.

Tashqi savdoga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'ladi. Shu sababli o'zaro bog'liqlik turlicha bo'lishi mumkin: to'g'ri va egri chiziqli. Ularni aniqlashda, albatta, modellardan va matematik mezonlardan foydalanish mumkin.

Tashqi savdo ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida quyidagi modelning yechimini ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. 1992—2005-yillarda umumiy tashqi savdo hajmini prognoz qilamiz. Bu — omilni modellash uchun natijali omil hisoblanadi ( $Y_t^e$ ) va keyin ham «natijali omil» deb yuritiladi va bunga ta'sir qiluvchi omil «ta'sir qiluvchi omil» ( $X_t^e$ ) deb yuritiladi.

2. 1992—2005-yillarga davlat bo'yicha tashqi investitsiya hajmi ( $X_{t,1}$ ).

3. Soliq tushumi hajmi ( $X_{t,2}$ ).

4. Bojxona boji ( $X_{t,3}$ ).

5. Paxta va uning tolasi eksport hajmi ( $X_{t,4}$ ).

Mana shu omillar yordamida biz narx, tariflar, boj va tarifsiz usullarning o'zgarmaslik shartida tashqi savdo hajmining o'sishini quyidagicha modellashtirdik:

$$Y_t^e = a_0 + X_{t,1}^{a_1} \cdot X_{t,2}^{a_2} \cdot X_{t,3}^{a_3} \cdot X_{t,4}^{a_4}.$$

O'zaro aloqadorlik omillar o'rtasida mayjud, chunki «Fisher» va «Student» kriteriyalari talablariga javob berdi. Hisob-kitob natijasida shunday natijaga erishdik, ya'ni 1992—2004-yillar uchun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ushbu modeldan foydalanish mumkin:

$$Y_t^e = 0,845 \cdot X_{t,1}^{2,456} \cdot X_{t,2}^{7,345} \cdot X_{t,3}^{1,245} \cdot X_{t,4}^{24,345}.$$

Respublikamizda kelajakda tashqi savdoni rivojlantirish uchun ushbu omil modeling ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$Y_{ny} = 0,845 + 2,456 \cdot \ln X_{t,1} + 7,345 \cdot \ln X_{t,2} + 1,245 \cdot \ln X_{t,3} + 24,345 \cdot \ln X_{t,4},$$

$$(F_{xy}^p = 28,5 \text{ jadvalagi qiymati } F'_{xy} = 5,4).$$

Quyidagi model esa, respublikada yillik o'rtacha eksport o'sishini aniqlashda foydalilanadi, chunki umumiy o'sish 100% qilib olingan (o'rtacha oxirgi yillar uchun):

$$Y_{ny} = 3,4 + 1,36 + 11,3 + 18,4 + 53,3 = 100 \text{ \%}.$$

Bu hisob-kitoblardan tovar eksportiga ta'sir etuvchi quyidagi xulosa-larga kelish mumkin:

1. Iqtisodiy o'sishdagi tashqi savdo hajmining o'sishiga paxta va paxta omili eng yuqori ta'sir qilar ekan. U yillik eksport o'sishining 53,3 foizini tashkil qiladi. Keyingi paytlarda dunyo bozorida paxta xomashyosining

narxi tushdi. Lekin bu tashvishli emas. Bizning respublikamiz uchun asosiy omil ekan.

2. Respublikamizda tashqi savdoning o'sishiga yana bir omil ta'sir ko'rsatadi, bu — xorij investitsiyaning ko'payishi va uning ishtirokida tashkil etilayotgan qo'shma korxonalaridir. Qo'shma korxonalar yillik tashqi savdo o'shining 18,4 foizini bermoqda. Eksportning o'sishi iqtisodiyotga investitsiyaning keng jalb etilishiga ham bog'liq. Yangi investitsiyalar respublikamizda eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

3. Soliq og'irligi va uning eksport-import jarayoniga ta'siri yuqoridaq modelimizda 11,3 % ni tashkil qilgan, ya'ni soliq tashqi savdo imtiyozlari va yangi kamaytirilgan stavkalari bilan tashqi savdoning har yili o'rtacha 11,3 % o'sishini ta'minlagan.

4. Bojxona bojlari va to'lovlari tashqi savdoga o'rtacha 1,36 % ta'sir qilib, joriy qilingan imtiyozlar samarasini unchalik bilinmagan. Bu esa bojxona mexanizmini qayta ko'rib chiqish va aniq tadbirlar qabul qilishni taqozo qiladi.

Demak, ilmiy va amaliy tadbirlarda yuqoridaq iqtisodiy-matematik modellardan unimli foydalanish samarali natijalar beradi.

## 2. Soliq nazariyasini optimallashtirish evolutsiysi

Insoniyat oqilona yashashga jur'at qilgandan beri soliq mavjud bo'lib, inson oldida uni optimallashtirish vazifasi hozirgacha mavjud.

Rim davlat xodimlari tomonidan yig'ilgan soliqlar ichida eng muhimmi yet solig'i edi. **Qadimgi Rim** ma'muriyati belgilagan soliqlar bevosita va bilvosita turlarga bo'lingan — bilvosita soliqqa: oborot solig'i, (1 %), qullar savdosi solig'i (4 %), meros solig'i (5 %) kabilarga faqat fuqarolar tortilgan bo'lib, bundan yig'ilgan soliq tushumi maqsadli yo'naltirilgan, ya'ni malakali askarlarning pensiya ta'minotiga sarflangan.

**Qadimgi Gretsiyada** soliq tizimiga ega bo'lganlar: «daromad» solig'i stavkasi 10 % dan 20 % gacha bo'lgan. **Afinadagi** erkin fuqarolar soliq to'lashdan ozod bo'lganlar, ammo ixtiyoriy xayriya to'laganlar.


Rim fuqarolari uchun mol-mulk hamda amaldagi daromadlari bo'yicha, ixtiyoriy ravishda har 5 yilda bir marta deklaratsiya berish joriy etilgan bo'lib, uning asosida soliq ko'rsatkichlaridan kelib chiqadigan to'lovning hajimi belgilangan (ya'ni «senz» — soliq me'yori aniqlangan). Rim imperiyasiga qaram bo'lgan davlatlar yoki imperiyaning chekka viloyatlari mahalliy soliqlardan tashqari alohida markaz (Rim) uchun ham soliqqa jalb etilganlar.

Jahon miqyosida soliq va soliqqa tortish jarayonining (nazariya va amaliyotining) shakllanishi va rivojlanishi quyidagi chizmada soliq munosabatlarining bosqichlari bo'yicha ifodalangan. Soliq nazariyasining rivojlanish tarixiga nazar tashlasangiz soliq va soliqqa tortish bo'yicha yangi g'oyalardan amaliyotda foydalanganligiga qarab biz tartibga solgan chizmani tahlil qilamiz<sup>1</sup> (chizmaga qarang).

<sup>1</sup> T. Ташимуродов. Международный опыт налогообложения, Т., Налоговая академия, 2002 год, 485 стр.

Soliqqa tortish maqsadi, soliq tushumidan pul mablag' nimalarga sarf bo'lishi va maqsadlarining o'zgarishi hamda soliqlarni yig'ib olish xalqlarini o'zaro biriktirib, yaxshi yashashga harakatlantirilgan. Eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan davr ichida soliq funksiyalari va soliq so'lislari mezonlarining o'zgarishi evolutsiya shaklida ifodalangan (chizmaga qarang):

### Soliq nazariyasining evolutsion rivojlanish bosqichlari:



Ibtidoiy zamonda qabila boshliqlari ovchilar o'ljasidan bir qismini soliq sifatida majburan olib, qariyalarga, ayollarga va bolalarga qayta taqsimlab bergan vaqtidan boshlab, to shu kungacha soliq amaliyotda qo'llanilib kelmoqda. Qayta taqsimlanish tartibi tarixchi, arxeolog, iqtisodchi<sup>1</sup> va genetik olimlarning fikricha 280—300 ming yil oldin paydo bo'lib, insoniyat hayotida muhim o'zgarishlarga olib kelgan asosiy mexanizm hisoblangan. Keyinchalik xonlik, beklik va davlatlar paydo bo'lgach, muomala vositasi bo'lib, avvaliga tovar, mol va keyinchalik pul birligi yuzaga keldi.

**Soliq** — kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. Shu sababli soliqning ilk bor paydo bo'lishiga kishilik hayotining oqilona yashashiga asosiy ta'sir ko'rastuvchi omil sifatida qaraladi. Insoniyat yashash uchun bir o'zini emas, atrofidagilar bilan birga yaxshi yashash muammosini yechish yo'lida ilk bor tadbir yo'l sifatida soliqni o'ylab topgan. Soliq to'lash (ovchilar o'ljasidan bir qismini bolalarga va qariyalarga hamda ayollarga bo'lib berish natijasida) zaruriyat, keyinroq esa majburiyat tusiga kirgan.

<sup>1</sup> Maycal Maknalti. Tat and Laft. London. 2004-y, 320 p.

Insoniyatning yaxshi yashash yo'lida qilgan ilk aqlli qadamlaridan biri soliq tushunchasini o'ylab topib, amaliyotda qo'llanilganligi, bu yo'nalishga qarab dadil qadam tashlaganligi bo'lib hisoblanadi. Odamlarning alohida-alohida ongsiz yashash jarayonidagi hayotini olimlar hozirgi hayvonlarning yashash tarziga taqqoslashsa, undan keyingi davrga o'tishda qabilaqabila bo'lib, har bir qabila o'zining odamlarini boqish jarayonida vujudga kelgan tadbir — ovchilarning o'jasidan ma'lum qismini soliq sifatida olib, qayta taqsimlash jarayoni hisoblanadi. Bu qadam insonning aqlli yashash yo'lida birinchi qadami, dadil qadam hisoblanadi.

Bu tadbir qabila ichida yaxshi yashashning asosiy manbayi bo'lib qolgan. Avvaliga ovchilar o'jasidan, keyinchalik — dehqonlarning hosilidan bir qismini va undan ham keyin chovachilik bilan shug'ullanganlar molining bir qismini olib, aholining boshqa qismiga qayta taqsimlashgan. Bu jarayon insoniyatning oqilona yashash jarayonini rivojlanitirdi va nihoyat ovchilar, dehqonlar va chovvadorlar mahsulotidan olingan mablag' aholining yashashiga yetmagandan keyin, aholining aqlli qismi texnika taraqqiyotiga qo'l urdi va nihoyat hozirgi davrga qadar bu asosiy muammo bo'lib keldi. Insoniyatga texnika taraqqiyoti oldingiga qaraganda bir necha baravar ko'p boylik olib keldi va soliq tushumi davlat budgetining asosiy daromadi bo'lib qoldi.

Umuman, soliq nazariyasining rivojlanishiga asos solgan zaruriyatlar dinamikasini yaxlit bir jarayon deb hisoblasak hamda soliq bo'yicha g'oya va nazariy bilimlarning rivojlanishini keltirib chiqqan omillarning rivojlanish evolutsiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Demak, soliqqa tortish jarayoni insonning oqilona yashashiga sababchi bo'lib, uning tub mohiyatida bolalarini, qariyalarni, ayollarni himoya qilish, aholini qo'riqlaydigan askarlarni boqish, nogironlarni qo'llash, xonlar va beklarning boshqarish xarajatlarini qoplash va nihoyat — davlat bo'yicha ijtimoiy xarajatlarni qoplash zaruriyatiga aylangan. Bu zaruriyatlar orqali soliq turlari va soliqqa tortish jarayoni vujudga kelgan.

Keyinchalik soliqdan tushgan iste'mol mollari va tovarlar o'rniga pul mablag'i olishga o'tilib, bu mablag' aholining bir qismini ijtimoiy himoya

qilish, kadrlar tayyorlash va ilm-fanni rivojlantirish maqsadlariga sarflana boshlangan. Lekin soliq tushumini samarali sarflash muammosi paydo bo'ldi va u hozir ham insoniyat oldida muammoligicha qolgan. Masalan, soliq jismoniy shaxslar daromadidan bolalarni tarbiyalashga sarflangan barcha xarajatlarni soliqqa tortilmaydigan chegirmalarga qo'shish kerak deb hisoblaymiz.

Endilikda hamma uchun soliq to'lash majburiy hisoblanadi, u davlat budjeti xarajat qismining aksariyatini qoplab, davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. Bu jarayonning rivojlanishiga qator olimlar va rivojlangan davlatlar tajribasi hamda davlat boshqarishida qatnashgan soliqqa tortuvchi amaliyotchilarning ham fikrlari muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Soliqlar davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan stavka bo'yicha olinadigan majburiy pul yig'imlaridir. Jahon miqyosida soliq va soliqqa tortish jarayonining shakllanishi va rivojlanishi maqsadlari olimlar tomonidan har tomonlama tahlil qilingan.

Hozirgi davrga kelib, bolalar, ayollar, qariyalar va nogironlarni boqishdan tashqari aholining ijtimoiy talablarini qondirish ham soliq tushumi hisobiga (maorif, tibbiyot va boshqa) moliyalashtiriladi. Insoniyatning yaxshi yashashga bo'lgan ezgu tuyg'ularidan bo'lak boshqa omil soliq nazariyasining bu qadar rivojlanishini ta'minlamagan bo'lar edi. Soliq munosabatlarining tarixiy bosqichlari «evolutsion» rivojlanish bosqichlariga ega. Bizning fikrimizcha ular quyidagilardan iborat.

Soliqqa tortish jarayonining paydo bo'lishi va bu jarayon ma'lum **nazariyalarga asoslanganini** hisobga olsak, qadimgi dunyodan hozirgi vaqtgacha bo'lgan nazariyalarning quyidagi asosiy **bosqichlari** olimlar tomonidan tahlil qilinib, quyidagicha talqin qilinadi:

1. «**Soliqqa natural ko'rsatkichlarda tortish**» nazariysi — natural soliq sifatida olinib, ayrim olimlar bu nazariyani boshlang'ich g'oyalarni sifatida «naturasoliq» nazariysi deb hisoblashadi va u har tomonlama ilmiy tahlil qilingan. «**Naturasoliq**» nazariysi deb nom olgan bu nazariya soliqqa tortishning ilk turi bo'lgan va insonlarning tarqoq holatidan birlgilikda yashash tartibini vujudga keltirgan (280—300 ming yil oldin). Ya'ni insoniyat aqlli hayot kechirish davridan, salom-alik qilib, bir-biri bilan birlgilikda, o'zaro muomala qilib yaxshi yashashga intilgan davrdan boshlab. Bu nazariya ko'pchilik adabiyotlarda soliqning natural ayriboshlash nazariysi ham deb talqin qilinadi. Lekin bu soliq turi aholining oqilona yashashiga asosiy sababchi bo'lib qolgan. Bu nazariya iqtisodchilar, tarixchilar, antrapologlar, arxeologlar va boshqa davlat arboblarining nazariy g'oyalari asosida aniqlangan. Ularning fikriga ko'ra qadimdan (300 ming yil oldin) ovchilar o'jasidan va keyinchalik barcha aholidan jon boshidan olinadigan soliq sifatida undrilgan. Ovchilardan o'janing yoki dehqonlardan yetishtirilgan mahsulotning bir qismini jamoa boshlig'i yig'gan va qabila o'rtasida qayta taqsimlagan.

2. Soliqqa tortishning «**Xun olish**» g'oyasi qabilalar o'ttasida to'qnashuvlar natijasida vujudga kelgan. Urushdan keyingi holatda urushda halok bo'lganlar hisobiga xun (maxsus to'lov) olish bilan soliqning yangi turi paydo bo'lgan. Soliqning «Xun olish» nazariyasi qabilalar, keyinchalik elatlar va guruh bo'lib yashagan odamlar o'ttasida ko'p yillar davomida amalga oshirilgan. Bu g'oya amalda ko'p masalalarni echishga va tarqoq holda yashagan aholining birlashishiga va shu bilan birga insonlarning aqlliyoq yashashiga olib kelgan. Soliqqa tortishning bu nazariyasi ko'p yillar o'z samarasini bergen va insoniyatning tarqoq holda yashashidan ma'lum joyda birgalikda yashashga majbur qilgan. «Xun olish» g'oyasi soliq nazariyasinining keyingi turlariga asos solgan. Chunki bu uslubning soliq olish jarayoniga tarqatilishi aholining birlashib, ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikga o'tshiga majbur qilgan (50—100 ming yil oldin). Birlashgan ko'p sonli aholi ovchilik bilan o'zini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmay qolgan va aholining aqli qismi boshqa faoliyat o'ylab topgan, natijada inson rivojlanishning oqilona yo'liga o'tgan. Ya'ni chorvachilik paydo bo'ldi, aholi yovvoyi hayvonlarni o'ziga o'rgatib oldi, ularni ko'paytira boshladi va keyinroq ularning bir qismini soliq sifatida bera boshladi.

3. Soliqqa tortishning «**Qurbanlik berish**» g'oyasi paydo bo'lgach, ayrim chorvadorlar va dehqonlar aholining ma'lum qismini boqish maqsadida o'z molidan bir qismini qurbanlik bera boshlagan. Bu soliqdan tushgan moddiy boyliklar aholining qari-yu, yosh va nogiron qismiga tarqatilgan. Bu davrda chorvachilik va dehqonchilik yuqori sur'atlar bilan rivojlangan va ayrim aholi to'q, ayrimlari esa och yashagan. Ular asosan o'zlarini oziq-ovqat bilan ta'minlash maqsadida dehqonchilik bilan birga chorvachilikni ham rivojlanishga majbur bo'lishgan. Mana shu davrda «Qurbanlik berish» usuli bilan ayrimlardan olingen mablag'ni aholining boshqa qismiga bo'lib berishgan. Qurbanlik uchun berilgan mol-mulkni asosan aholi boshliqlari — knyazlar, xonlar, to'ralar va beklar olib, o'z aholisiga qayta taqsimlashgan. Bu nazariya ko'p vaqt amalda qo'llanmadi, chunki qayta taqsimlash mexanizmi buzilgаниligi sababli bir guruh aholi yaxshi yashashning boshqa yo'llarini o'ylay boshladi va ma'lum davrdan keyin soliqning boshqa nazariyasi o'ylab topildi va uning asosida mumtoz nazariya kelib chiqdi (40—50 ming yil oldin). Chunki qurbanlikni hamma ham bera olmagan va o'zidan orttirgan oziq-ovqatlarni berish mexanizmi ixtiyoriy bo'lgan. Olimlarning fikricha bu davrda dehqonchilik rivojiana boshlagan va hosilning ma'lum qismini soliq sifatida olishgan.

4. Soliqqa tortishning «**Mumtoz nazariyasi**» — soliqlarni to'lash evaziga soliq to'lovchi ma'lum resurslar va xizmat olishgan. Shu nazariya natijasida «ijaraga yoki foydalanishga berish» g'oyasi paydo bo'lgan. Bu nazariyaga asosan yer ularning egalari tomonidan aholiga ijara sifatida berilgan va ma'lum darajada soliq olingen. Bu nazariyaning asosida «Ijaraga berish» vujudga kelib, mumtoz nazariya paydo bo'lgan, soliqqa tortish jarayoni resurslardan foydalanganlik<sup>1</sup> uchun amalga oshirilgan. Bu g'oyaga asosan

yerni ijaraga berish evaziga soliq olingen. Aholining aksariyat qismi yer dan foydalanganligi uchun soliq to'laganlar. Yer egalari bo'lib o'sha joydagi knyazlar, xonlar, beklar va elatlar boshliqlari hisoblanib, soliq yig'ishni amalga oshirishgan. Yerni ijaraga berish natijasida olingen soliq hisobiga o'z aholisini boqqa olmagan jamoa boshliqlari tomonidan boshqa g'oya o'ylab topilgan. Lekin yerni ijaraga berib, soliq olish jarayoni hozirgacha davom etib kelayapti. «Ijaraga berish» nazariyasida insonlarning resurlardan foydalanganlik uchun soliq to'lash kerakligi ilmiy asoslangan. Bu nazariya 20—40 ming yil oldin paydo bo'lgan va Misr davlati mexanizmida ko'p yillar juda samarali foydalanishgan.

5. «**Ijaraga berish**» g'oyasiga asosan olingen soliqlar tushumi aholining aksariyat qismini boqishga yetmaganligi sababli yangi g'oya vujudga keldi — «Dehqonchilik va chorvachilikdan olingen daromaddan bir qismini soliq sifatida olish» g'oyasi, ya'ni faoliyat natijasini soliqqa tortish. Bu g'oya «Faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni soliqqa tortish» jarayonini vujudga keltirdi va natijada faoliyat bilan shug'ullangan aholi soliq to'lash uslubiga o'tdi. Bu g'oya davrida asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar tomonidan soliq to'langan va aholining qolgan qismi hukmronlik qilish hamda o'z aholisini boqish maqsadida askar to'plab, urushlar olib borilgan. Bu askarlarni davlat miqyosida boqish zaruriyatini tug'ilgan va soliqqa tortishni yangi g'oyalari paydo bo'lgan.

6. Har bir yurt boshliqlari qo'l ostidagi askarlarni boqish uchun yangi qonunlar o'ylab topdilar. Ular davlat xarajatlari soliq miqdorini aniqlay boshladilar va soliq tushumining davlat xarajatlarini qoplash g'oyasini amalga oshirish maqsadida — fiskal maqsad paydo bo'ldi, yangi pul yig'ishga soliq turlari xizmat qila boshladi. «**Fiskal nazariya**» soliq turlari va soliq olish bazasining kengayishiga olib keldi. Xonliklar va ayrim davlatchiliklar o'rtasidagi janglarda qatnashish uchun kerak bo'lgan xarajatlarni qoplash maqsadida soliqlarning stavkalari va turlari ko'paya bordi.

7. Keyinchalik davlatlar o'ttasida ma'lum darajada turg'unlik aloqalari paydo bo'lganda soliqqa tortishning yangi g'oyasi «**soliq majburiyatlar**» asosida soliqqa tortish jarayoni amalga oshirila boshladi. Bu g'oya asosan soliq majburiy bo'lib, joriy qilingan soliqlarni to'lash majburiy qilib qo'yildi. Ya'ni soliq to'lash majburiy tus oldi va to'lamaslik jinoyat sifatida talqin qilina boshladi. Bu g'oya ham o'z davrida samarali bo'lgan va keyinchalik davlat xarajatlari boshqa yo'nalish olgan. Shu sababli soliqqa tortishning yangi nazariyasi vujudga keldi. «Soliq to'lash majburiyatlar», bu bosqichda bojxona bojlari ham joriy qilina boshladi.

8. Soliqqa tortish davlat miqyosida amalga oshirilib, soliq tushumlari ijtimoiy xarajatlarga qarab aniqlana boshladi. Bu nazariya «Ijtimoiy xarajatlar» yoki «**Soliqni ijtimoiylashtirish**» nazariyasi ham deb ataladi va soliq majburiyatlar bu xarajatlarga bog'langan holda amalga oshirila boshladi. Davlatning jami ijtimoiy xarajatlari soliqqa tortish asosi bo'lib hisoblana boshladi. Bu nazariyada ko'p yillar ijtimoiy maqsad asosiy mezon bo'lib keldi.

<sup>1</sup> Пеатон. Избранные сочинения. М., 1990.

9. Rivojlangan davlatlar soliq mexanizmidan foydalanib, iqtisodiyotni rivojlantira boshladi va soliqqa tortish jarayoni xarajatlarga qarab emas iqtisodiy rivojlanishni birlamchi qilib olgan holda soliqqa tortish jarayoni amalga oshirila boshladi. Bu nazariya «**Soliqni liberallashtirish**» nazariyasi deb atala boshlandi. Bu nazariyaga asosan soliq iqtisodiy mexanizm sifatida iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladigan omil sifatiga aylantirildi. Ko'pgina rivojlangan davlatlar bu nazariyadan unumli foydalanib, o'z iqtisodiyotini yuqori darajalarga ko'tardi va samarali natijalarga erishdi. Lekin jamiyatning asosiy vazifasi iqtisodiy rivojlanish asosida aholining yashash darajasini ko'tarish bo'lgan va natijada ayrim rivojlangan davlatlarda aholining qashshoq yashay boshlaganligini bilgan olimlar soliqqa tortishning yangi g'oyasini topishdi va undan amalda foydalanishdi.

10. Soliqqa tortishning «**Soliqni gumanizatsiyalash**» nazariyasi oldin ga surildi hamda soliqqa tortish va soliq turlarini joriy qilish tadbirlari aholining yashash darajasiga qarab olib boriladigan bo'ldi. Bu nazariya hozirgi davrda ko'pgina rivojlangan davlatlarda hali ham amalga oshirilayapti. Bu g'oya tarafdarlari soliqqa tortish vaqtida aholi daromadi oshishiga va barcha ishlab chiqarish aholi real daromadlariga qaratilgan bo'lishi lozim deb hisoblashadi. Haqiqatan ham rivojlangan davlatlardagi soliqqa tortish amaliyoti aholi real daromadlarini himoya qilgan holda amalga oshira boshladi.


11. Soliqqa tortishning kelajakdagi mezonlaridan biri — «**Soliq og'irligini kamaytirish**» g'oyasi zamirida jamiyat miqyosida soliq og'irligini me'yorashtirish yotadi. Ayrim davlatlarda bu yo'nalish bo'yicha dadil qadamlar qo'yildi. Olmoniya, AQSH, Yaponiya va Irlandiya davlatlarida bu mezon kelajakda davlatlar o'rtasida keng rivojlanib, asosiy rivojlanish mezoniga aylanadi. Chunki iqtisodiy mexanizm yordamida aholi boyligini ko'paytirishga harakat qilishadi. Soliq og'irligi soliq tushumining yalpi ichki mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi.

12. Soliq mehanizmining mezonni rivojlangan davlatlarda olimlar tomonidan «**Optimallashtirish**» deb hisoblanmoqda. Bu davr 2005-yillardan keyin yer qit'asidagi o'nlab davlatlarda amalga oshirilayapdi. Bu nazariya asoschilarining fikriga ko'ra, optimal soliq tushumi faqat soliq og'irligini kamaytirish emas, balki soliq tushumini ko'paytirish va imtiyozlar yordamida ayrim tarmoqlarni rivojlantirish maqsadi ham amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, barcha g'oya va nazariyalarni ko'p olimlar yuqoridagi bo'limlarga bo'lган holda tahlil qilganlar va soliq nazariyasining rivojlanishi insoniyatning oqilona yashashiga imkoniyat berib, asosiy mexanizm bo'lib qoladi deb hisoblaydilar.

Bu spiral kabi soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishi ko'p davlat boshliqlari, tarixchi, arxeolog, genetik, antrapolog va iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar asosida tasdiqlangan va har bir davrning o'ziga xos soliq modeli, tizimi va mexanizmi mavjud bo'lgan.

Soliqqa tortish to'g'risidagi g'oya, fikr va tushunchalar asosida soliqqa tortish nazariyasining 300 ming yillik rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish natijasida va tarixiy yozilgan ilmiy ishlar asosida rivojlanish evolutsiyasini quyidagi spiral asosida ifodalash mumkun:



Ma'lumki, soliqchilik davlat rivojlanishini va uning vazifasi hamda faoliyatini rivojlantirishning amaliy jarayonining ibtidosini tashkil etadi. Chunki har qanday ustqurma muayyan iqtisodiy bazisdan oziqlanadi. O'z navbatida, bazisning fundamental asosini yaratuvchi omillar ayni paytda uning qismatini ham belgilaydi.

Soliqqa tortish fanining asosiy predmeti nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatish bo'lsa, soliq nazariyasining predmeti — soliq to'g'risidagi qonunlar, nazariya hamda iqtisodiy bog'liqliklarni o'rgatish hisoblanadi. Olimlarning g'oyalarini va nazariyalarini birinchi bo'lib spiral sifatida ifodalash natijasida ko'rinish turibdiki, soliq to'g'risidagi g'oyalar va nazariyalar inson rivojlanish tarixi bilan birga boshlangan bo'lib hisoblanadi. Asrlar osha har bir davrda xazinani to'ldirishning birdan bir yo'li olingan soliq va bojxona bojlari asosiy manba hisoblangan.

Tafakkur darg'alarining qarashlari sohaning jamiyatda tutgan o'rni va roli xususida aniq nazariy asoslarni shakllantirdi. Uning o'ziga xos fundamental tahlil mexanizmi muayyan bog'liqliklarning yaxlit monitoringini namoyon qiladi. Chunki har qanday haqiqat amaliy yondashuv hamda tahliliy jarayonda yuzaga keladi.

Insoniyatning 300 ming yillik tarixida soliq olish g'oyasi uning yaxshi yashashga intiluvchi kuchi bo'lib hisoblangan va kelajakda, bizning fikrimizcha, soliq yordamida yanada yaxshi yashash imkoniyatiga erishadi.

### 3. Soliqqa tortish bo'yicha iqtisodchi olimlarning nazariy fikrlari

Iqtisodchi olimlarning soliq bo'yicha g'oyalarini ifoda etish uchun ularning soliq haqida aytgan fikrlarini berishni lozim topdik.

**Platon va Aristotel** eramizdan oldin yashagan olim va davlat arboblari hisoblanib, soliqqa tortish bo'yicha o'zlarining o'rni va nazariyalari mavjud.

Qadimdan birinchi olim sanalgan Aristotel soliqqa tortish bo'yicha o'z nazariyasini yaratib, unga asosan — soliq to'lovchi o'z davlatining fuqarosi bo'ladi va unga ma'lum darajada huquq beriladi, degan.<sup>1</sup> Aristotelning fikricha, soliq davlat fuqarolarini kambag'allashtirishga olib kelmasligi zarur va soliq yig'ishda bu ko'rsatkich asosiy mezon bo'lishini isbotlagan.<sup>2</sup> To'g'ri va egri soliqqa tortish joylari bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishdan olinayotgan daromad va foyda o'sish chizig'ida amalga oshiriladi.

Bevosita soliqlarning asosiy massasini jon boshiga solingen soliqlar va daromad solig'i tashkil etgan, bu soliq stavkasi 10 % dan 15 % gacha miqdorni tashkil etgan. Dvoryanlar va ruhoniylar bu soliqlarni to'lashdan ozod etilgan. Soliq og'irligi asosan burjuaziya ahli va dehqonlar zimmasiga tushgan. Aksiz solig'i bilvosita soliqning asosini tashkil etib, uning miqdori 5 % dan 25 % gacha o'zgargan. Bu yerda ham qarama-qarshilik vujudga kelgan.

Soliqdan tushgan tushumdan unumli foydalanish maqsadida Aristotel davlat xodimlarining maosh oladigan qismi va keraklisigina belgilanishi zarurligini isbotlagan.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Аристотель. Избранное собрание сочинений, М., Мысль, 1983, том — 4, стр. 435.

<sup>2</sup> Аристотель. Избранное собрание сочинений, М., Мысль, 1983, том — 4, стр. 578—578.

<sup>3</sup> Аристотель. Избранное собрание сочинений, М., Мысль, 1983, том — 4, стр. 582—583.

Platon va Aristotelning birlamchi fikrlari asosida soliqqa tortishning maqsadli nazariyasi yaratildi, ya'ni soliqdan tushadigan tushum maqsadli xarajatlarga mo'ljallanishi hamda tejamlili foydalanilishi aniqlangan.

Soliq nazariyasining asoschilaridan biri — ingliz iqtisodchisi, keynschilikning asoschisi **Keyns Jon Meynard** (1883—1946). Iqtisodiyotdagi 1929—1933-yillarda Buyuk inqirozni tahlil etib, jamoat ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida davlatning kapitalistik iqtisodiyotni boshqarishga asoslangan o'z nazariyasini yaratdi. Birmuncha muddat Keyns Buyuk Britaniya moliya vaziri bo'lib ishladi. Milliy daromad, kapital mablag', ish bilan bandlik, iste'mol, jamg'arish va boshqa iqtisodiy qiymatlarning tahliliga alohida e'tibor berdi. «Boshqariladigan kapitalizm»ning tarafdori, marksizmning ashaddiy dushmani, «aralash iqtisodiyot»ning otasi va multiplikator formulasini taklif etgan, investitsiyalarning o'sishi, bandlik va daromadlarning o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatgan, masalan, AQSH uchun o'sha davrda bu ko'rsatkich 2,5 bo'lган, ya'ni investitsiya qilingan 1 dollar 2,5 dollar daromad keltirgan.

**Avust Oktavian** Rim davlati yirik moliyaviy xo'jaliklarida moliyaviy o'zgartirishlar kiritdi. U barcha provinsiyalarda moliyaviy idoralarni tashkil qildi, ular soliq to'lovlarini nazorat qilib turar va har bir fuqaro ma'lum kunda o'zining deklaratsiyasini ko'rsatishi kerak edi.

Qadimda aksizlarni boshqa nomlar bilan — boj, to'lov, yig'im yoki sodda qilib soliq deb ataganlar. Aksizlarning o'sha davrda amal qilgan soliqqa tortish mexanizmi to'g'risida taxminiy ma'lumotlar mavjudligi uning ilk paydo bo'lган davrini aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, xalq tribunlari **Tiberiy** va **Gay Graxkov** (er. av. 162—133 va 153—121-yy.) davrlarida Rim g'aznasiga qullarni ozod etishdan, shu bilan birga o'z shaxsiy iste'moli uchun zarur bo'lмаган tovarlarni dengiz orqali Rimga olib kelinishdan yig'imlar tushib turgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Angliyada Kromvel davrida respublikaning yigirma yil amal qilishi davomida aksizlarning ikki yuzga yaqin turi joriy etilgan. XIX asrda Gollandiyada egri soliq turlari shunchalik ko'p ediki, tarixchi de-Vitta so'zlariga qaraganda, mehmonxonada tortiq qilingan baliq bo'lagiga 34 xil aksiz to'g'ri kelgan. Demak, aksizlar, bojlarni hisobga olmaganda soliqqa tortishning eng qadimgi shaklidir.

**Adam Smitning** soliqqa tortish tamoyillari 1776-yilda chop etilgan «Xalqlar boyligining tabiatini va sababi haqida tadqiqot» asarida berilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. **Adolatlilik tamoyili.** «Davlat fuqarolari imkoniyat darajasiga, qobiliyati va kuchiga yarasha davlat homiyligi va himoyasi ostida topgan daromadiga mos ravishda davlatni boqmog'i, quvvatlamog'i lozim».

2. **Aniqlilik tamoyili.** «Har bir fuqaroning to'laydigan solig'i aniq ko'rsatilgan bo'lishi, o'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasligi kerak. To'lash vaqtin, to'lash usuli, to'lov summasi — bularning barchasi soliq to'lovchi

uchun aniq va ravshan bo'lishi kerak. Noaniqlik soliqqa tortishda surbetlik, bezbetlikni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, shundoq ham xalq orasida shuhratga ega bo'Imagan — o'zlari surbet bo'Imasalar-da, soliqqa tortish bilan shug'ullanadigan kishilarda poraxo'rlikni vujudga keltirishi mumkin.

**3. Qulaylik tamoyili.** «Soliq undirilishi har bir soliq to'lovchi uchun qulay bo'lgan vaqt va tarzda amalga oshirilishi lozim».

**4. Tejamkorlik tamoyili.** A. Smit o'zining asarida «Har bir soliq shunday ishlab chiqilishi va tashkil etilishi kerakki, soliq vositasida xalq cho'ntagidan olinadigan, daromaddan ushlab qolinadigan ulush uni davlat xazinasiga keltiradigan daromad hajmidan kam bo'lishi lozim. Fuqarolarni og'ir soliqlarni to'lashga majbur qilish to'lovlarni yengilgina amalga oshirishga imkon beruvchi mablag'larni qisqartirishi va hatto yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin. Nooqilona soliq kishilarda noqonuniy ravishda davlat chegarasidan mol o'tkazishgacha (kontrabanda) bo'lgan ishtiyoqni tug'diradi» deb, soliqni minimallashtirish sur'atini ifodalagan.

Arab olimlarining soliqlarni budgetlashtirish nazariyasiga asosan «Daramad va xarajatlarni tartibga soluvchi, kechiktirish mumkin bo'Imagan qator tadbirlarni o'z ichiga oluvchi moliyaviy qayta qurish» dasturi ishlab chiqilgan. Bu nazariyaning ifodalari arab olimlaridan **Hoji Nazarmat, Tashmurad Oybosh** o'g'li va Ibn Xaldunlarning ilmiy asarlarida «Yig'iladigan soliq tushumi davlatning asosiy xarajatlariga tenglashtirilsa, o'z samarasini beradi» degan g'oyani isbotlashgan. Arab olimlarning «Xarajatlarni daramadlarga moslashtirish» nazariy fikrlariga asoslangan holda soliq organlari tomonidan soliqqa tortish vaqtida davlat xarajatlariga qarab soliq tushumining rejalashtirilishi zarur degan xulosaga kelishgan. Shuning uchun rejalashtirayotgan xarajatga mos keladigan daromad manbayi topilmas ekan, hech qanday yangi xarajat belgilanishi mumkin emas deb ta'kidlashgan. Arab olimi **Hoji Nazarmat** fikricha xarajatlar quyidagilarga bo'linishi shart:

- 1) muassasalar bo'yicha;
- 2) zaruriyat darajasiga qarab — zaruriy, foydali, ortiqcha, keragidan ortiq, keraksiz (ayniqsa oxirgisiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi);
- 3) joylar — umum davlat, guberniya (viloyat), okrug, tuman va volost (bo'lim) bo'yicha. Hukumat vakolatisiz hech qanday yig'ilmarni tashkil qilish mumkin emas, chunki hukumat hamma narsani bilishi shart: xalqdan qanday yig'ilmalar yig'ilyapti va xarajatlarga aylantirilyapti;
- 4) maqsadli belgilanishiga qarab odatdagi va favquloddagi xarajatlar. Favqulodda xarajatlar uchun zaxirada pul emas, balki ularni undirish usullari mavjud bo'lishi kerak;
- 5) doimiylik darajasi bo'yicha — barqaror va o'zgaruvchan xarajatlar. Davlat xarajatlarini Hoji Nazarmat va Ibn Xaldun guruhlariga bo'lish soliqni maqsadli sarflashga yo'naltirilgan va soliq og'irligini kamaytirib borishga imkon yaratgan.

Soliq undirishning oltin qoidasi deb nom olgan arab olimlarining nazariyasi hozirgacha o'z kuchini yo'qotmadidi. Arab olimlari **Hoji Nazarmat** (1383—1374), **Oybosh o'g'li Tashmurad** (1289—1277) o'zining 1248-yilda chop etgan «Soliq nazariyasi» va Ibn Xaldunning (1332—1406) ilmiy asarlarida, keyinchalik Adam Smit va boshqa g'arb iqtisodchilarining g'oyalalarida rivojlantirildi. Ular soliq undirishning «Oltin qoidasi» ni aniqlashdi va quyidagicha ajratib ko'rsatishdi:

1) **soliqlarni hammaga bir xil miqdorda taqsim qilish** — soliqlar barcha fuqarolar orasida bir xil mutanosiblikda taqsim qilinishi lozim: «Har bir kishining umummanfaat yo'lida beradigan xayr-ehsoni (solig'i) uning kuchiga, ya'ni oladigan daromadiga mos bo'lishi kerak. Fuqarolar o'rtasida soliqlarning nomutanosib taqsimlanishi oqibatida bir sinfning ikkinchi sinfga nisbatan nafratini qo'zg'iydigan holat vujudga keladi, buning oqibatida esa, hukumatga nisbatan dushmanlik paydo bo'ladi. Fransuz inqilobi har ikkovining ham dahshatli namunasi edi»;

2) **soliqlarning aniqligi** — bu soliqning miqdori, to'lovning vaqtini va tarzi aniq belgilangan, soliq to'lovchiga oldin ma'lum qilingan bo'lishi hamda soliq undiruvchilar hokimiyatidan mustaqil holda mavjud bo'lishi kerak;

3) **soliqlarni yig'ishning eng qulay vaqtini** — yer solig'i yoki uy daromadidan soliq shu daromadlar vujudga kelgan vaqtida va soliq to'lovchi uchun qulay bo'lgan paytda amalga oshirilishi lozim. Iste'moldan olinadigan soliqlarning barcha afzalligi ham shundaki, ularni har bir kishi o'zi xohlagan paytida to'laydi;

4) **soliqlarni yig'ishda kam xarajatlilik, tejamkorlik** — aholi tomonidan qilinadigan xayr-ehsonlarning (soliqlarning) miqdori undan hukumat oladigan daromadga tenglashishi kerak. Mazkur qoida hukumatning soliqlarni yig'ish jarayonini imkoniboricha yanada kam xarajatli, tejamli amalga oshirishga da'vat qiladi;

5) **soliqlarni undirishda eng umumiyy qoida** — soliq doimo daromadidan, to'g'riroq'i sof daromaddan undirilishi lozim. Sharoit ba'zan ushbu qoidani buzishni zaruriy, ba'zan kechirimli qiladi: umum ish joyi manfaati uchun fuqarolar o'zlarining barcha narsalarini qurban qilishni talab qiladigan favqulodda holatlarda zaruriy, mulk bir qo'ldan ikkinchi qo'liga o'tganda esa kechirimlidir.

Fransuz filosofi **Pol Anri Golbax** (1723—1789) o'zining «Hukmdorlar haqida», «Erkinlik haqida» va «Umumiyy siyosat» asarlarida<sup>1</sup> soliqqa jalb qilish muammosini ko'rib chiqadi: «Millatlar yuqori hukmronlikka bo'ysunishda uning zarur vositasini so'zsiz ta'minlamoqligi lozim, toki u, to'lovchilarning baxti uchun mehnat qilishiga imkon topsin; Uning fikricha, soliq to'lagan shaxs ma'lum naf olishi va soliqni olgan hukmron unga xizmat ko'rsatishi lozim.

Ingliz olimi **F. Benon** (1561—1626) soliq olishda aholining roziligi me'yor darajasini hisobga olish — ijtimoiy holat rezonansini to'g'ri belgi-

<sup>1</sup> A. Гольбах. Полное собрание сочинение, М., Мысль, 1983 г., стр. 405.

lash masalasining muvaffaqiyati garovi ekanligini tahlil etib beradi. Mazkur yondashuv davlat miqyosidagi ixtiyoriy rivojlanishning samarali usuli ekanligini ta'kidlaydi. Davlat strategiyasini belgilashda qulay taktik yondashuv bo'lishligini asoslaydi.

**Tomas Gobbs** (1588—1676) o'z nazariyasida soliqlar davlat ehtiyojlarini aholi tomonidan ongli yondashish asosida qabul qilish zarur deb hisobladi. Uning fikricha, umuman, jamiyat miqyosida manfaatlarga qaratilgan xarajatlar soliq to'lash yo'li bilan muayyan muddatga sotib olinadi. Jamg'arilgan mablag' hisobiga davlat aholini turli xatar hamda salbiya'sirlardan muhofaza qilish mas'uliyatini o'ziga oladi, deb hisoblagan. Mazkur amalni shakllantirish muayyan iqtisodiy potensial asosiga qurilishining nazariy asoslarini yaratgan iqtisodchi olimning fikriga ko'ra, xazinani to'ldirish — «**Fiskal**» siyosati deb nomlanadi. Unda soliqlar qat'iy hajm va me'yor asosida rasmiylashtirilishi belgilab berilishi zarur deb hisoblagan.

Angliyalik iqtisodchi olim **U. Petti** (1689—1755) o'zining «Soliq va yig'imlar haqida» asari (1662)da soliqqa jalb etiluvchi boyliklarni baholash muammosini bosh rejaga qo'yadi. Uningcha, soliqqa jalb qilish hamda hajmini belgilash, albatta, soliq bazasidagi o'zgarishga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Fransuz yozuvchisi hamda mutafakkiri **Sh. Monteske** (1689—1755)ning fikricha, davlat miqdorlari to'lovchilarning faoliyatiga ta'sir etmasligi hamda ular uchun malollik keltirmasligi lozim. Xuddi shu nazariyaga asosan soliqlarning «samarali» deb hisoblash uslublari aniqlangan. Monteskening nazariysi bo'yicha davlat aholi hisobiga boyligini to'liq shakllantiradigan bo'lsa, fuqarolarning iqtisodiy potensialini qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bu hol, o'z navbatida, davlat uchun kelgusi qahatchilik — inqirozni keltirib chiqaradi. Natijada davlatni muayyan fursat soliq tushumidan mahrum qiluvchi holatga olib keladi deb hisoblagan.

Ingliz iqtisodchisi **D. Yum** (XVIII asr) o'zining «Soliqlar to'g'risida» (1752) asarida birinchi bo'lib soliq salmog'i xususida o'z fikrlarini bergen. Uning nazariysi bo'yicha soliqqa tortishda aholi daromadini ko'tarish, boy va badavlatlardan ortiqroq soliq undirish ta'kidlanadi, bir paytning o'zida, soliq orttirib borish kambag'allarning ortib ketishiga olib keladi, deyiladi. Uning nazariysi amaliy isbotiga ega. Chunki burjua ustqurma-ning ratsional asoslarini mazkur nazariya asosiga shakllantirildi.

O'z navbatida, bu o'zining mevasini berdi. **T. Oybosh** (1289—1277) O'zining soliq va soliqqa tortish bo'yicha fikrlarini «Soliq nazariyasi» asarida bergen:

- Soliq tushumi davlatni boshqarishga, bolalar, qariyalar va nogiron-larnigina boqishga yetarli darajadan yuqori bo'imasligi isbotlangan.
- Soliq og'irligi daromadning 10 % dan ortmasligi va soliq soluvchi mexanizmi bo'lishi zarurligi isbotlangan.
- Soliqqa tortish aholi darajasiga ta'sir qiluvchi mexanizm bo'lishi va uning daromadining 10 % dan oshmasligi zarurligini isbotlab, soliqqa

tortilmaydigan minimum yashash uchun yetarli bo'lishi zarurligi bildirilgan.

- Soliq to'lanadigan summani aniqlash sodda va tushunarli hamda uzoq davr ichida soliq stavkalari o'zgarmas bo'lishi zarur deb hisoblagan.

**Ibn Xaldun** (1332—1406) — soliq nazariyasining asoschilaridan bo'lgan arab olimi Ibn Xaldun Abdu Rahmon Zayd o'zining «Ibratli misollar» kitobida (1370) soliq bo'yicha iqtisodiy g'oyalari jamlagan. Uning fikricha, jamiyat moddiy qiymatlar ishlab chiqaruvchilar jamoasidan iborat. Asarda, shuningdek, moddiy zarurat tarixni harakatlantiruvchi asosiy kuch ekanligi hamda mehnat unumдорligi, zaruriy va qo'shimcha mehnat, qiymat haqidagi tushunchalar keltirilgan. Soliq to'g'risidagi fikriga ko'ra, daromaddan tashqari, qiymat, xarajat, mehnat natijalari ham soliqqa tortilishi zarur. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Ibn Xaldun Amir Temur bilan muloqotda bo'lgan.

Mustamlaka siyosatining shakllanishi hukmdor faoliyatining rivojlanish bosqichini ta'minlaydi, deya o'z qarashlarini mustahkamlagan **N. Makiavelli** (1469—1527) mustamlakalarning hosil qilinishi davlat daromadlarining yangi chashmalari bo'lishligini, ayni paytda, bu ijtimoiy voqelet zaminida nazarda tutilishini isbotladi.

Tadqiqotchilarning soliq munosabatlari to'g'risidagi fikrlari va ma'lum davr ichida soliq tizimining rivojlanishini ifodalovchi nazariy fikr-mulohazalar har bir davr uchun o'ziga xos soliq nazariyasini shakllantiradi.<sup>1</sup> **Quyida soliq bo'yicha aytilgan fikr va mulohaza hamda nazariyalar jadvalda birinchi marta bizning ilmiy izlanishlarimizga asosan tartibga solin-gan:**

Soliq nazariyasi to'g'risida olimlarning g'oya, fikrlari va nazariyalar	
Iqtisodchi olimlar va davlat xodimlari	Soliq bo'yicha g'oyaviy nazariyasi
Qabila bo'lib yashagan davrdagi soliq to'g'risidagi asosiy fikrlar	Natural soliq olish tarafdori bo'lganlar va 30—50% o'la qayta taqsimlangan
VII asrlargacha Vizantiya	Soliqni natural tariqasida olish tarafdori bo'lgan, 10—20% soliq olingan
Syun Szi (miloddan avvalgi 313—238-yillarda yashagan)	Ijaraga berish. Hosilning 10—15% soliq sifatida olingan
Aristotel (m.av. 384—322)	Ijaraga berish va faoliyat turidan soliq olishni taklif qilingan
Qadimgi Rim (IV—I eragacha)	Soliq va boj olish g'oyasi oldinga surilgan
Sokrat (Suqrot) va uning shogirdlari	Xun olishni joriy qiligan
Platon (Aflatun, miloddan avvalgi 428/427—348/347-yillarda yashagan)	Majburiy soliq olishni joriy qilangan
Shoh Dariy (miloddan avvalgi IV asr)	Qurbanlikni joriy qilangan
Kun-Szin (miloddan avvalgi 551—479-yillarda yashagan)	Ijaraga berish natijasida dehqonchilikni rivojlantirgan
Avgust Oktavian (miloddan avvalgi 63-mil. 14)	Chorvachilik mahsulotlarini soliqqa tortish asoschisi

<sup>1</sup> T. Taishmuradov. Международный опыт налогообложения, Т., Налоговая Академия, 2002 г., стр.485.

Shoh Umar II (717–720)	Xun olish va bojlarni joriy qilgan
Nasr ibn Muhammad (870–950)	Qurbanlik berish tarafdoi bo'lgan
Forobi — Abu Nasr ibn Muhammad (870–950)	Qurbanlik berish tarafdoi
Ismoil ibn Ahmad (892–907), Hoji Nazarmat, T. Oybosh o'g'li	Fozil soliq tarafdoi va Islom soliqlarining asoschilarini
Beruniy — Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad (973–1048)	Ijaraga berish va Islom soliqlarining asoschisi
Ibn Xaldun (Ibn Xaldun Abdu Rahmon Zayd — 1332–1406-yillarda yashagan)	Islom soliqlarining asoschisi va yordam berish g'oyasi tarafdoi, soliq stavkalarini joriy qilgan
Amir Temur (Movarounnahrda yirik davlat asoschisi — 1336–1405)	Islom soliqlarining asoschisi, armiyani boqish uchun soliq joriy qilingan
Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394–1449)	Yordam berish va Islom soliqlarining asoschisi
Nikolo Maknavelli (1469–1527)	Yordam berish va davlat soliqlarining asoschisi
Tomas Gobbs (1558–1679)	Ijtimoiy xarajatlarga qarab soliqqa tortish tarafdoi
Ingliz olimi F. Benon (1561–1626)	Shartnomaga asosida soliqqa tortish tarafdoi
Gobbs (Tomas Gobbs — 1588–1676)	Kafolat berish tarafdoi
Uilyam Pett (1623–1687)	Kafolat berish va bojxona tarafdoi
Sh. Montesk'e (1689–1755)	Ijtimoiy va davlat xarajatlari qarab soliqqa tortishni joriy qilgan (faoliyatiga qarab)
Kene Fransua (1694–1774)	Iqtisodiy o'sish mexanizatsiyasiga bog'langan
Jak Russo (1712–1778)	Xarajat nazariyasini asoschisi
Adam Smit (1723–1790)	Davlat xarajati soliq turlariga bog'langan
Pol Anri Golbax (1723–1789)	Talab nazariyasining asoschisi
Batis Seya (1767–1832)	Aholi real daromadini soliqqa tortish
Ouen Robert (1771–1858)	Yangi tovar soliq tushumining oshirishini isbotlagan
David Rikardo (1772–1858)	Daromaddan soliq olish tarafdoi
Nikolay Turgenev (1789–1871)	Soliqqa tortishning 5 ta usulini bergan
Jon Meynard Keyns (1883–1946)	Soliq tushumiga bo'lgan talab va taklif nazariyasining asoschisi
Fridmen Milton (1912)	Soliq tushumining iqisodiyot o'sishiga ta'siri borligini isbotlagan
Gunnar Myurdal, Avgust Fon Xayek (1974)	Nobel mukofotini olgan va soliq jarimalarini kamaytirish tarafdoi
Yan Tinbergen (1969)	Nobel mukofotini olgan (soliq olinishi omillarini taklif qilgan)
Pol Samuelson (1970)	Nobel mukofotini olgan (soliqni gumanizatsiyalash nazariyasini asoschisi)
Kantorovich, T'yalling Kupmans (1975)	Soliqni optimallashtirish tarafdoi
S.Parkinson, A.Marshall, J.Gelbreyt, L. Dernberg, K.Makkonnel, F.Lesner, M.Berns, G.Stayn, A.Leffer, L.Xarrat, N.Kaldor, A.Xansen	Soliqqa tortishni iqtisodiy o'sishga qaratish nazariyasini yaratgan

**M. Fridmen** — soliq nazariyasining asoschilaridan biri, iste'mol, pulning tarixi va nazariyasi sohalaridagi tadqiqotlari uchun 1976-yilda Nobel

mukofoti bilan taqdirlangan olim. Fridmen Milton (1912, Nyu-York)ning pul to'g'risidagi g'oyalari (monetarizm) AQSHda R. Reyan, Buyuk Britaniyada M. Tetcher iqtisodiy siyosatida qo'llanilgan.

**Amir Temur** o'zining «Tuzuklari»da soliqqa tortishning to'rt tamo-yilini ishlab chiqqan. Jumladan, amalda hosil yig'ib olingandan so'ng soliq solinishi zarurligi, bunda sug'oriladigan yerlardan xazinaga hosilning uchdan bir qismi, sug'orilmaydigan maydonlardan esa to'rtadan bir qismini undirish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, daromadlarni haddan ortiq soliqlar bilan qamrab olmaslik xususida ish olib borib, amaliyotda qo'llagan.

Bizning fikirimizcha soliqqa tortishni tubdan o'zgartirib, insonga qaratish zarur, ya'ni soliqqa tortilmaydigan minimum joriy qilinib, aholi daromadi muhofazalangan bo'lishi zarur, soliqlar nojo'ya harakatlarga, bezorilikga, davlat odamlarining iqtisodiy boyligiga va inson huquqlarining buzilish holatlariga qaratilishi lozim.

### Nazorat savollari:

1. Soliq siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq islohotlarini kim o'tkazadi?
3. Soliq siyosati kim tomonidan o'tkaziladi?
4. Soliq tizimini isloh qilishning qanday yo'nalishlari mayjud?
5. Soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga qanday ta'siri bor?
6. Iqtisodiy o'sishda qanday soliq mexanizmidan foydalilanadi?
7. Soliq nazariyasining rivojlanish asoslari nimalardan iborat?
8. Soliq nazariyasining rivojlanish bosqichlaridagi soliqqa tortish g'oyalari ni ifodalab bering?
9. Iqtisodchi olimlarining soliq bo'yicha nazariyalari deganda nimani tushunasiz?
10. Platon va Aristotelning soliqqa tortish haqidagi nazariyalari asosida nimalar yotadi?
11. Adam Smitning soliqqa tortish nazariyasi soliqqa tortishning qaysi tamoyillariga e'tibor bergan?
12. Soliqqa tortishning budgetlashtirish nazariyasining mohiyati nimadan iborat?
13. Rim imperiyasi soliq tizimining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
14. Iqtisodchi olimlaring soliq bo'yicha nazariyalari deganda nimani tushunasiz?
15. Platon va Aristotellarning soliqqa tortish haqidagi nazariyalari asosida nimalar yotadi?
16. Adam Smit soliqqa tortish nazariyasi orqali qaysi soliqqa tortish tamoyillariga e'tibor bergan?

2-bob.

## XALQARO SOLIQ TIZIMI, MODELI VA MEXANIZMI

### 1. Soliq modellarining elementlari

Har qanday davlatning o'ziga xos soliq tizimi modeli va soliqqa tortish mexanizmi mavjud.

**Soliq modeli** — davlat miqyosidagi soliq tizimi, mexanizmi va siyosati unsurlarining umumlashgan ko'rinishini ifodalaydi; davlat miqyosida soliq unsurlarining umumiyligi mujassamlashgan harakatini hamda ayrim soliq unsurlarining uyg'unlashgan faoliyatini ifodalovchi davlat miqyosida soliqqa tortish jarayonini ifodalaydi. Har bir davlatning o'ziga xos soliq modeli bo'ladi va u asosiy o'ziga xos hamda bir-biridan farq qilgan unsurlardan iborat bo'ladi. Har xil soliq modellari bir-biridan soliq tizimi va mexanizmlari bilan tubdan farq qiladi. Soliq modeli uch turga bo'linadi: **Saksono-Amerika, Yevropacha-musulmoncha**. Amalidagi soliq turlariga qaramay soliq modeli aksariyat olimlar tomonidan uchga bo'lib o'rganiladi (jadvalga qarang).

**Soliq modellari** olimlar tomonidan asosan quyidagi guruhlarga bo'lib tahlil qilinadi: **amerikacha, yevropacha va sharqiy-musulmoncha modelar**. Rivojlangan davlatlarda bizga ma'lum bo'lgan soliq modellari, tizimi va mexanizmlari quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi va ularning maxsus unsurlari va ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:


Soliq modeli	Amerikacha	Yevropacha	Yaponcha-musulmoncha
Soliq tizimi	Liberallashgan	Markazlashgan	Insonparvar (gumanizatsiyalashgan)
Soliq mexanizmi	Fiskal	Imtiyozi	Maqsadli (ijtimoiy)

Davlat soliq modeli fiskal mexanizmdan maqsadli mexanizmga sekinasta o'tish tadbirlariga asosan rivojlanayapti. Masalan, Germaniya soliq tizimi yevropacha soliq modeliga kirib, markazlashgan soliq tizimiga ega, soliq tushumini yig'ish bo'yicha soliq inspektorlari fiskal mexanizmdan foydalananadilar. Germaniya siyosiy va iqtisodiy rivojlanishda bir necha bos-qichlarni bosib o'tdi va jahon urushlaridan keyin kuchli federativ davlatga aylandi. **Germaniyaning soliq modeli** — ijtimoiy muammolarni yechishga to'liq qaratilgan. Federativ mamlakatlarda asosiy muammolardan biri markaziy hukumat va federatsiya subyektlari orasida vakolatlarni chegaralash hamda moliya manbalarini taqsimlash hisoblanadi.

**Soliq modellari** — soliq tizimi, mexanizmi, soliq turlari va soliqqa tortish uslublari bilan farqlanadi. Bu unsurlarning o'zaro bog'liqlikdagi harakatini

ifodalovchi jarayon soliq modeli deyiladi. Soliq modeli davlat miqyosida bir necha soliq unsurlarining birkalikdagi umumiy ko'zga ko'rinish harakati bilan ifodalananadi. Har qaysi davlat soliqni hisoblashning o'ziga xos uslubi, soliqqa tortish yo'llari, soliq olish tartibi, muddati va soliq turlari bo'yicha stavkalariga ega. Soliqlarning rivojlanish modeli davlatning soliq siyosatini ifodalaydi.

**Soliq modeli** — davlat miqyosida soliq unsurlarining umumiy mujassamlashgan ko'rinishini hamda ayrim soliq unsurlarining birkalikdagi harakatini ifodalovchi soliqqa tortish jarayoni. Har bir davlatning o'ziga xos soliq modeli bo'ladi va u asosiy unsurlardan iborat. Bu unsurlarni birkalikda amaliyotdagi harakatini ifodalovchi jarayon soliq modeli deyiladi. Soliq modelini quyidagi chizma bilan ifodalash mumkin:



Chizmadan ko'rrib turibdiki, soliq modeli davlat miqyosida bir necha soliq unsurlarining birkalikdagi umumiy faoliyati natijasi bilan ifodalanaadi. Har bir davlatning o'ziga xos soliqni hisoblash uslubi, soliqqa tortish yo'llari, soliq olish tartibi, muddati va soliq turlari bo'yicha qo'yilgan stavkalarini amaliyotda joriy qilish natijalari bilan soliq modelining samarasini belgilanadi. Soliq modeli har bir davlatning soliq siyosati, soliq turlari, stavkalarini, soliq tizimi, soliq solish tartibi va muddati bilan ifodalananadi.

Ko'pgina mamlakatlar uchun jamiyatning iqtisodiy hayotiga davlat ta'sirining kuchayishi soliq mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotini «**aralash iqtisodiyot**» sifatida tavsiflash mumkin, unda erkin tadbirkorlik iqtisodiy jarayonlarning davlat tomonidan faol tartibga solib turilishi sharoitida taraqqiy etgan.

Barcha davlatlarda soliq modeli olimlar tomonidan quyidagi asosiy turlarga bo'lib o'rganiladi va har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Soliq modeli	Amerikacha	Yevropacha	Yaponcha-musulmoncha
--------------	------------	------------	----------------------

Amerika davlatlarining soliq modeli rivojlangan ko'pgina davlatlarning modeliga o'xshab ketadi. **Yaponcha-musulmoncha** soliq modellari esa arab davlatlarida keng tarqalib, o'z xususiyatiga ega.

Soliq siyosatining tadbirkorlik faoliyatiga moliviyati ta'sir ko'rsatish davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasidir. Jahonda amaliy faollarning tanazzuli, iqtisodiyotning turg'unlik holati davrlarida nisbatan barqaror rivojlanish davriga va «ulkan sakrashlar» paytlariga o'tishda soliq siyosatidan unumli foydalish yuzasidan tajriba to'plangan.

Markazlashtirilgan tarzda rejalashtiriladigan davlat iqtisodiyotiga ega O'zbekiston rivojlangan mamlakatlarning soliqqa tortish tizimidagi afzaliliklardan foydalangan.

Mamlakat davlat budgetining daromad qismida jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyalar daromadlaridan olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i eng ko'p salmoqqa ega bo'lgan.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega va ayni vaqtida bir-biridan soliq modeli, tizimi va mexanizmlari bilan farq ham qiladi.

#### **Quyidagilarni barcha soliq modellarining umumiy belgilari sifatida ko'rsatish mumkin:**

- rivojlangan qonunchilik bazasi, vujudga keladigan munozaralar, vazifalar va vaziyatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari;
- soliq organlari tashkil etilishining yuksak darajasi (texnika vositalari bilan jihozlanganlik; yuqori ish haqi; zamonaviy aloqa vositalari, poligrafiya bazasi; jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari bilan aloqa);
- soliq idoralarining soliq to'lovchilar oldida ishonchga va yuksak obro'ga egaligi;
- vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralab qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi;
- hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorining) katta ahamiyatga va obro'ga egaligi;
- kadrlarni tahlil etish, o'rganish, oldindan belgilash, o'qitish, soliq to'lovchilar (jamoatchilik) bilan aloqalar bo'yicha institutlarning mavjudligi;
- soliqqa tortish tizimini tashkil qilish va rivojlantirish nazariysi hamda amaliyotining yuksak darajada o'zaro bog'liqligi, qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligi;
- soliq idoralarining, ayniqsa, axborot bilan almashinish sohasida moliya organlari va bank tizimi bilan chambarchas bog'liqligi.

Amerikacha model quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi: butun soliq tizimining soliq to'lovchilarining tushunishi uchun murakkabligi (shu sababli mamlakatda 50 mingdan ortiq mustaqil soliq maslahatchilari ish olib boradi); mamlakatning soliq tizimida juda katta boshqaruva va ijrochilik organlarining mavjudligi; soliq organlari umumiy tuzilishining mamlakat miqyosida qat'iy markazlashtirilishining yo'qligi. Mamlakat soliq idoralarining uch darajali federal, shtat va shahar (ba'zan ayrim grafliklar darajasiagi tuman) darajalarining har bir vakilining to'liq muxtorligi va mustaqilligi; naqd pul bilan ishlaydigan kichik biznesning (lotokdan savdo qiluvchilar, ko'chadagi savdo va xizmatlar, shularga o'xshagan faoliyat turlari) daromadlarini nazorat qilishning samarali usullari yo'qligi; noqonuniy daromad manbalari (o'z daromadlarini yashiruvchilar va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlovchilar) to'g'risida xabar beruvchi ko'ngilli «axborotchilar» (bunday shaxslar ba'zan soliqdan yashirilgan summaning 10 % gacha rag'batlantirish haqi oladilar) keng tarmog'ining mavjudligi.

**Yaponcha soliq modelining** asosiy belgilari quyidagilar kiradi: bitta hukumat muassasasi Yaponiya Moliya vazirligi nazorati ostidagi yagona, ancha qat'iy markazlashgan moliyaviy, soliq, bank va bojxona tizimlari; juda yuksak vatanparvarlik va mamlakatga, vazirlikka, mehnat bitimini imzolagan kompaniyaga, firmaga, muassasaga (yaponiyaliklarning mehnat bitimlarining ko'pchiligi umrbod amal qiladi) soliqlik hissi, natijada kadrlar qo'nimsizligining yo'qligi, shu jumladan, soliq organlari tizimida ham; quyidan to yuqorigacha bo'lgan boshqaruva apparati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda subordinatsiya prinsipiga qat'iy rioya qilinishi; olis istiqbol uchun oldindan belgilangan ko'rsatkichlarning tuzilishi (masalan, yaponlar 20 yildan so'ng — 2025-yilga borib, yaponiyaliklarning o'rtacha yoshi taxminan 50 yoshga teng bo'lishidan xavotirlanmoqdalar, bu pensionerlar sonining haddan tashqari oshib ketishini va soliq to'lovchilar sonining keskin kamayishini anglatadi).

**Soliq modellarining asosiy xususiyatlari** quyidagi jadvalda ifodalanib, har biriga kerakli ta'riflar berilgan.

**Soliq modelining guruhlariga tegishli asosiy xususiyatlari<sup>1</sup>**

Amerikacha soliq modeli	Yevropacha soliq modeli	Sharqiy Yaponcha-musulmoncha soliq modeli
Davlatning minimal darajada soliqqa tortish jarayoniga aralashishi	Soliqqa tortish jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy rivojanishga qaratilishi	Soliqqa tortish jarayonining inson rivojanishiga qaratilishi
Soliqqa tortish natijasida boy va kambag'allikning farqi juda yuqoriligi	Soliq imtiyozlari yordamida ijtimoiy birlikka yo'naltirilganligi	Aholining kambag'al qismiga yordam tariqasida soliq imtiyozlari berilishi
Shaxsiy natijaning iqtisodiy o'sishdagi birlamchi qaralishi	Milliy guruhlar va an'analarining rivojanishiga birlamchi qaralishi	Diniy talablar va inson qadriyatlarining o'sishiga soliq imtiyozlari berilishi
Foya solig'iga kam stavka joriy qilinishi	Foya hajmiga bog'langanligi	Foya solig'ining asosiy «oklad» hisoblanishi
Birjaga asosiy o'rinn berilganligi	Asosiy o'rinning markaziy bankka berilishi	Asosiy o'rinn diniy talablarga qaratilganligi
Asosiy ish joylari xizmat ko'rsatish jarayonida ekanligi	Davlat yangi ish joylarini tashkil qilishda faol qatnashishi	Soliqlar bo'yicha yangi ish joylarini tashkil qilganlarga imtiyoz berilishi
Amerika korxonalari uchun asosiyi ko'rsatkich foya hisoblanadi	Yevropa korxonalari uchun asosiyi sifatlari tovar va xizmat ko'rsatish hisoblanadi	Arab davlatlari uchun asosiyi ishchilar birligi va farovonligi hisoblanadi
Ishchilar va xizmatchilar kompaniyalarda faqat pul orqali aloqa qilishadi	Ishchilarning umumiy quziqishi kompaniyalar bo'yicha iqtisodiy yutuqlarga bog'langanligi	Ishchilarning kompaniyalarini boshqarishda ishtirok etishi va kompaniya rivojanishi birlamchi hisoblanadi
Yuqori sur'atlar bilan aholining ahvoli yomonlashishi mumkin	Aholining ahvoli tobora yaxshilanishi mumkin	Aholi ahvoli ijtimoiy himoyalanishi mumkin
Budget deficitsiti va tashqi qarz mavjudligi	Iqtisodiy barqaror o'sish ta'minlanganligi	Past iqtisodiy o'sish sur'atlari mavjudligi
Amerika «liberal» soliq modeli	Yevropacha markazlashgan soliq modeli	Sharqcha-musulmoncha — inson parvarlik soliq modeli

<sup>1</sup> T. Tashmuratov. Международный опыт налогообложения. Ташкент, Налоговая Академия, 2002 г. стр. 438.

Shu bilan birga bu modellarning har biri ularning tafovutlarini belgilab beradigan o‘z belgilariga ega. Soliq modelining yuqoridagi ko‘rsatkichlari ayrim davlatlar soliq tizimining farq qilishini ifodalaydi.

Yevropacha model quyidagicha belgilar bilan aniqlanadi: yevropadagi mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy birlashishga doimiy intilish; soliq faoliyatining bir xillashtirilgan shakllari; yagona ish prinsiplari; ayrim davlatlarda soliq tizimini birdan boshqarish tarkibi.

«Noandazaviy» («moslashgan») modellar, odatda, ayrim kichik hududli (yoki orollarda joylashgan), erkin iqtisodiy zonaga ega (offshore zonal) davlatlarda va qator boshqa davlatlarda (masalan: Kipr, Luksemburg, Seyshel orollari, Maldiv orollari) amal qildi. Ular uchun turli soliq imtiyozlari va yengilliklari, «soliq ta‘tillari» deb ataladigan zonalar xarakterlidir.

**Sharqiy-Yaponcha** soliq modelining asosiy mohiyati soliq to‘lash tarbibi, intizomi va to‘g‘riligi insонning vijdoniga, dinga bo‘lgan e‘tiqodiga va to‘g‘riligiga bog‘liq bo‘ladi. Kelajakda qaysi soliq modelini qaysi davlatda tafbiq qilish ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

## 2. Soliq tizimi unsurlari

**Soliq tizimi** — ma’lum bir davlatga yoki ayrim davlatlar guruhida asosiy xususiyatlari va ko‘rsatkichlari bilan farq qiladi. Davlat soliq tizimi — joriy qilingan soliq turlari, stavkalari, imtiyozlari, soliqqa tortish uslublari, soliq bo‘yicha hisobot berish vaqtin, soliq to‘lash vaqtin, soliq inspeksiyalari va ularni boshqaruv tizimi hamda soliq to‘lovlarning budgetga o‘z vaqtida tushishini nazorat qiladigan yagona pog‘onama-pog‘ona tarzda tuzilgan tashkilotlar. Soliq tizimi quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi: soliqqa tortishning subyekti; soliqqa tortishning obyekti; soliq stavkasi; soliq imtiyozlari; soliqlarni hisoblash qoidalari va to‘lash tartiblari; to‘lanmagan soliqlar uchun jarima va boshqa chorallarni joriy qilish.

**Soliq tizimi** — boshqarish tartibi bo‘yicha birlashirilgan, ikki yoki uch darajali tizimdan iborat. Masalan, O‘zbekistonda soliq tizimi 3 pog‘onali tizimdan iborat soliq organlari mavjud: umum davlat, viloyat va mahalliy soliq tizimlari. Bu tizimga asoslangan holda 3 tabaqali soliqlarni joriy qilin-  
gan. Demak, har bir davlat uchun soliq tizimining tuzilish organlari to‘g‘ri kelsa ham soliqlarni va soliq stavkalarni to‘g‘ri kelmaydi. Faqat ma’lum soliq tizimining unsurlari to‘g‘ri kelishi mumkun. Shuning uchun ham ayrim davlatlar soliq tushumi o‘xshashligi inkor qilinmaydi va aynan o‘xshash bo‘lmaydi.


Quyidagi chizmadan ko‘rinib turibdiki soliq tizimi bir necha soliq elementlarining o‘zaro aloqada va bir-biri bilan bog‘liq holda bira birining o‘rnini to‘ldirib, «yaxlit» holatdagi harakatini bildiradi. Shuning uchun ham soliq tizimi tushunchasi rivojlangan davlatlarda ko‘proq soliqqa tortish usullari, tamoyillari, imtiyozlari, soliq stavkalari, siyosati, obyektlari, subyektlari bilan ifodalanadi. Soliq tizimining natijaviy samarasini soliq tushu-

ming o‘sishi bilan ifodalanib, davlat iqtisodiy o‘sishiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi.

**Soliq tizimi** — davlat miqyosida bir necha soliq elementlarining o‘zaro aloqada bo‘lgan holda bir-biri bilan bog‘liq va yaxlit holatdagi soliq organlarining harakati bilan ifodalanadi. Har bir davlat bo‘yicha soliq tizimi bo‘lib, ularning soliq tizimining mezonlari har xil bo‘lishi bilan farq qiladi.

Soliqlardan foydalanish xususiyatiga qarab, umumiy va maxsus soliqlar hamda yig‘imlarga bo‘linadi. Umumiy soliq tushumlari umum davlat va mahalliy budgetga tushsa, maxsus soliq va yig‘imlar deyarli budgetdan tashqari ma’lum maqsadlar uchun yig‘ilib sarflanadi.

**Soliq tizimi** — tushunchasi ayrim adabiyotlarda soliq turlari tushunchasi bilan chegaralanib qolgan va qisqa ma’noga olib kelingan. Lekin soliq tizimining asosiy belgilari quyida berilgan.



**Davlat soliq tizimi** — soliq to'lovlarining budgetga o'z vaqtida tushishi ni nazorat qiladigan yagona pog'onama-pog'ona tarzda tuzilgan tashkilotdir. Davlat soliq tizimi o'z tarkibiga DSQni, Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasini, viloyatlar va Toshkent shahri Davlat soliq boshqarmalarini, tuman, shahar va shaharlardagi tuman davlat soliq inspeksiyalarini o'z ichiga oladi.

Soliq tizimi davlat miqyosidagi soliq elementlari orqali davlat miqyosida iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi va quyidagi asosiy soliq elementlarini o'z ichiga oladi:



**Soliq tizimining asosiy elementlari.**

**Soliq tizimi** — bir necha o'zaro aloqador bo'lgan kategoriyalarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, soliq tizimi esa soliq munosabatlarini keltirib chiqaruvchi va uning amal qilish mexanizmini tashkil etuvchi turli xil elementlarning o'zaro bog'liq holdagi yaxlit harakatini ifodalaydigan ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda soliq deganda bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bo'lib, markazlashtirilgan pul fondini tashkil etadigan soliqlar va yig'imlar turlarining yig'indisi tushuniladi degan ta'riflar beriladi. Bizningcha, soliqlar va yig'imlarning o'zi soliq tizimini tashkil etolmaydi, bu soliqlar va yig'imlar soliq tizimining bir elementini tashkil etadi, xolos. Soliq tizimiga ular dan tashqari uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladigan soliq siyosati, soliq va yig'imlarni undirishni tashkil etish, ularni takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari majmuyi ham kira di, ularning barchasining yaxlitligi va o'zaro bog'liqligi soliq tizimini tashkil etadi.

Har bir davlatda soliq tizimini yil sayin takomillashtirish strategiyasi va taktikasi tuzilgan, bu tadbirlar ma'lum davrga mo'ljallangan bo'lib, ularning biri — soliq yashirishning natijalarini jazolash bilan bog'liq.

Soliq tizimi soliq to'lovlarining budgetga o'z vaqtida soliq to'lashlarini nazorat qilish maqsadida tuzilgan organlar va tashkilotlardagi soliqqa tortish usulularini, joriy qilingan soliqlar va yig'imlarni hamda ko'proq soliqqa tortish tamoyillarini, imtiyozlarni, soliq stavkalarni, siyosatini, obyektlari hamda subyektlarining umumiylarini harakati va ishini ifodalaydi. Albatta, soliq tizimi har bir davlatda boshqa-boshqa bo'lib, biri-biriga juda kam o'xshaydi.

Olimlarning ko'p yillik tahlili va izlanishlari natijasida bir-biriga o'xshagan soliq tizimlarining guruhlarini aniqlashgan va ularning quyidagi turlari mavjud:

Soliq tizimi:	Liberallahgan	Markazlashgan	Insonparvar
---------------	---------------	---------------	-------------

Bu soliq tizimlarining maqsadi har xil bo'lib, ularning samarali harakatlari soliq tushumi bilan o'chanadi va amalda bu tizimlar mavjud.

Soliq tizimining mumtoz nazariyasiga asosan barcha soliq tizimlari unsurlarini quyidagi guruhlarga va belgilarga bo'lish mumkin (soliq tizimi chizmasiga qarang). Bu chizmada soliq tizimi farqlovchi mezonlarga asosan soliq to'lovchilarga, soliqqa tortish mezoniga, soliq olish obyektiga, boshqarish darajasiga, maqsadiga, hisoblash usuliga, soliqqa tortish tartibiga va boshqa mezonlariga qarab soliq tizimining ko'rsatkichlari ifodalangan.

**Soliq tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi** — davlat soliq siyosatining o'zgarishi, soliq turlari, o'sish sur'ati, uning asosiy elementlari hisoblanadi va sifati o'chanadi (kitobning brinchi betida O'zRda joriy qilingan soliqlar tizimi daraxt sifatida ifodalangan). Bu ramz respublika miqyosida soliq tizimini qaysi yo'llar bilan rivojlanishi mumkunligini ifodalaydi.<sup>1</sup> Soliq tizimini takomillashtirishda soliqlar turi va ularning guruhlari, majburiy yig'ilmarning turlari, soliqqa tortish usulublari, soliq to'lash vaqtini, guruhlari ifodalanishi zarur.

### 3. Soliq mexanizmining kuchi va mohiyati

**Soliq mexanizmi** tushunchasi — davlat soliq siyosatini ro'yobga chiqarish, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining daromadlarini oshirish maqsadida joriy qilingan soliq olish tadbirlari; davlat miqyosida joriy qilingan soliq modeli, tizimi va siyosati yordamida amalga oshiriladigan ishlar majmuyi; qonunda belgilangan soliq turlari, stavkalari, imtiyozlarining amalda qo'llanilishi. Soliq qonuni doirasida tadbirlarni amalga oshirish natijasida soliq tushumi orqali davlat va mahalliy budgetlarning daromad qismini to'ldirish me'yori. Soliq siyosatining hayotga joriy etilishi va soliqqa tortish natijasida budgetga tushadigan tushum miqdori va salmog'ini shakllantiradigan iqtisodiy jarayon. Soliq mexanizmi amalda qanchalik samarali ishlasa, soliq tushumlari ham shunchalik barqaror bo'ladi. Demak, soliq mexanizmining kuchi uch ko'rsatkich bilan o'chanar ekan: soliq tushumining o'sishi, iqtisodiy o'sish va aholi daromadlarining o'sishi. Soliq mexanizmi davlat miqyosida bir necha soliq unsurlarining birgalikdagi faoliyatida ifodalanadi (chizmaga qarang).

**Soliq mexanizmi** — davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshiriladi hamda moliya va kredit mexanizmlari qatorida soliq mexanizmi kuchli omil bo'lib hisoblanadi. Misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkin: valutaga bo'lgan


<sup>1</sup> T. Toshmurodov. «Soliqlar: izohli lug'at», Toshkent, «Mehnat» nashriyoti, 2003-y., 187-bet.

qora bozorni yo'q qilish maqsadida ko'p jinoiy jazolarni joriy qilib ko'rishdi va nihoyat soliq va to'lov mexanizmi yordamida chetdan kelayotgan (no-oziq-ovqat tovarlariga) 70 % va oziq-ovqat tovarlariga 40 % majburiy boj to'lovi joriy qilingandan keyin valuta qora bozorida AQSH dollarining qiymati birja bahosidan ham kamayib ketdi. Bu ko'rinnmas soliq mexanizmining iqtisodiy ko'rsatkichlarini boshqarish yo'li bo'lib hisoblanadi. Shu uslub bilan jamiyatdagi ko'p nuqsonlarni yo'q qilish mumkin: poraxo'rlik, millatchilik, mahalliychilik, shovinistlik va fohishabozlik kabi jamiyatdagi illatlarni yo'q qilish mumkin.

**Soliq mexanizmi** — olimlarning fikricha, ko'zga ko'rinnmas kuch bo'lib, uni davlat o'z iqtisodiy siyosatining soliq mexanizmi asosida amalga oshiradi va ayrim sohalar bo'yicha aniq iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishiladi.

Soliq mexanizmi qanchalik yaxshi bo'lishi chizmada ko'rsatilgan baracha soliq elementlarining birgalikda harakat qilishiga, ularning jahon andozalariga javob berish va hayotiy moslashuviga bog'liq bo'ladi. Davlat miqyosida ularning samaradorligi soliq tushumining o'sishi bilan o'chanadi.<sup>1</sup>

Soliq qonuni doirasida tadbirlarni amalga oshirish natijasida soliq tushumi orqali davlat va mahalliy budgetlarning daromad qismi to'ldiriladi. Soliq siyosatining hayotga joriy etilishi va soliqqa tortish natijasida budgetga tushadigan tushum bilan o'chanadigan iqtisodiy jarayon. Soliq mexanizmi qanchalik yaxshi ishlasa, soliqdan tushgan mablag' shunchalik tez va ko'p bo'ladi. Agar soliq mexanizmining tadbirlari aniq va maqsadli bo'lmasa, uning samarasini kam bo'ladi. Soliq mexanizmi davlat miqyosida bir necha soliq elementlarining birgalikdagi faoliyati bilan ifodalanib, soliq tushumining o'sishi bilan o'chanadi. Albatta, soliq mexanizmining kuchini davlat miqyosida ilmiy tahlil qilsak, u uchta o'sishning qo'shilgan qiymati bilan o'chanishi mumkin. Soliq mexanizmining davlat miqyosida belgilovchi asosiy soliq elementlari quyidagi chizmada ifodalangan:



**Soliq mexanizmining elementlari.**

**Soliq mexanizmi** — soliqqa tortish uslubining, imtiyozlarning, soliq siyosatining hayotda qo'llanishi asosiy tadbirlar tarkibiga kiradi.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarning soliq mexanizmini tahlil qilish natijasida quyidagi soliq mexanizmlari mavjud ekanligi aniqlangan bo'lib, ularning maqsadi har xil.

<sup>1</sup> Пол Самуэльсон. Экономикс, М., 1998, стр. 489.

**Soliq obyekti** — xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bo'lib, soliq to'lash majburiyatining paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi huquqiy dalillar va iqtisodiy ko'rsatkichlar (harakat, faoliyat, hodisa, holat). Soliqqa tortish obyekti faqat davlat tashkilotlarda, soliq organlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan holatda mavjud bo'ladi.

**Soliq yuki** — xo'jalik yurituvchi subyekt yoki fuqaro to'laydigan barcha soliqlar va to'lovlar yig'indisining daromadga nisbati. Soliq yuki soliqlar, yig'imlar va to'lovlar yig'indisining xo'jalik yurituvchi moliyaviy ahvoliga qanchalik ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi. Bu ko'rsatkich ilmiy tahlil-lardagina ishlataladi. Soliq yuki qanchalik og'ir bo'lsa, soliq to'lashdan qochish shuncha ko'payadi. Soliq to'lovchilar gardaniga tushadigan soliq va yig'imlarning jami miqdori soliq to'lovchilar uchun moliyaviy majburiyat hisoblanadi. Soliqlar yordamida davlat budjetini mablag' bilan ta'minlaydi va soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Soliq mexanizmining asosiy elementlaridan biri bo'lib soliq kadrlari hisoblanadi va ularning bilimi, amaliy tajribasi soliq sohasining samaradorligini ko'tarishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Soliq modeli, tizimi va mexanizmi asosida soliqqa tortish vazifalari, maqsadlari, tamoyillari aniqlanib, davlat miqyosida aniq tadbirlar tuziladi va amalda joriy qilinadi. Boshqacha qilib aytganda davlat miqyosida ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun soliqlarning vazifalari, funksiyalari va soliqqa tortish tamoyillari aniq belgilanadi.

#### 4. Soliqqa tortish vazifalari, tamoyillari, usullari va funksiyalari

Soliqlarning funksiyalari va vazifalarining o'xshash jihatlari shundaki, ikkalasi ham soliqlar mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Ularning farqli jihatlari esa doimiylik va o'tkinchilik xususiyatiga egadir. Bundan tashqari soliqlarning funksiyalari obyektiv amal qiladi, ya'ni ularning mayjudligi ilmiy kashf etiladi, soliqlarning vazifalari esa bevosita davlat iqtisodiy siyosatini, aniqrog'i, soliq siyosatining mazmun-mohiyati va yo'nalishiga bevosita bog'liq bo'ladi, ya'ni ularning qanday bo'lishi davlatga bog'liqidir.

**Soliq vazifalari** — davlat miqyosida ma'lum davrda bajarilishi zarur bo'lgan asosiy ishlar va tadbirlar (soliq tushumini ta'minlash) majmugi. Soliq vazifalari o'zgaruvchan va o'tkinchi xususiyatga ega bo'lib, davlatning iqtisodiy, soliq siyosati mohiyatiga, mazmuni va yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Soliq vazifalari davlatning iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq qilishda asosiy mexanizm vazifasini o'tashi lozim.

**Soliqqa tortish predmeti** — (soliq predmeti)ni soliq to'lovchi xo'jalik subyektlari faoliyatining moddiy mahsuli tarzida ta'riflash soliq predmeti kategoriysi iqtisodiy mohiyatining cheklanishiga olib keladi. Har qanday soliqqa tortiladigan predmet tegishli qonun normalari doirasida soliqqa tortiladi. Shu nazariy qoidanining amaliy ko'rinishini quyidagicha tavsiflab,

asoslash mumkin. Masalan, yakka tartibdag'i mehnat faoliyati natijasida tadbirkor jismoniy shaxsning olgan daromadi moddiy predmet nuqtayi nazaridan soliq qonunchiligining umumiy qoidalariga binoan soliqqa tortish predmeti hisoblanadi, lekin bu daromad olingan mablag'larga qarab har xil stavkada soliqqa tortiladi. Bu holat soliqning moddiy predmeti tegishli soliqqa tortish tartiblariga binoan soliq munosabatlari predmetiga aylanganidan dalolatdir. Bundan shunday xulosa chiqadiki, soliq munosabatlari vujudga kelishi uchun, albatta, ikki tomonlama huquqiy maqomga ega bo'lgan rasmii obyektlar shakllangan bo'lishi lozim. Bunda bir tomondan davlat rivojlanishining ehtiyojlari va ikkinchi tomondan soliqqa tortiladigan obyektga egalik qilayotgan subyektning mavjudligi soliq munosabatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. **Demak, soliq obyekti bu — obyektiv moddiy munosabatlardan qonun asosida kelib chiqadigan real fikrlar asosida soliq obyektining qoidasini ifodalaydi.**

Soliqlar funksiyasi orqali davlat xalq xo'jaligi taraqqiyoti rag'batlantiriladi, bu bilan fiskal funksiyalarini bajarish bazani kengaytiradi. Ishlab chiqarishni soliqlarning iqtisodiy funksiyasi orqali rag'batlantirib va rivojlanrib, davlatning oqilona soliq siyosatini o'tkazish bilan soliq yukini kuchaytirmsandan turib faoliyat ko'rsatish va yashash shart-sharoiti ta'minlanadi.

Soliqlarning barcha funksiyalarini bir-biriga uyqashib bir vaqtning o'zida ikkalasi amalga oshirilishi ko'pincha ular o'rtasida ziddiyatlarni tug'dirishga olib keladi. Soliq funksiyalarining mazkur tasnifi shartli, shuning uchun munozaraviy tus kasb etadi.

Masalan, davlat keyinchalik budget orqali iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlanirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida o'z qo'lida moliya resurslarining iloji boricha katta hajmini jamlashga intilsa, u soliqlarni oshiradi va bu bilan ularning fiskal funksiyasidan faolroq foydalanadi. Biroq daromadning qanchalik ko'p qismini davlat soliq sifatida olib qolsa, daromad (foyda) olish maqsadida faol ishslash uchun rag'batlar shunchalik kam bo'ladi.

Rag'batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlanirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek, moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlanirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi.

Nazorat funksiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan ba'zi imtiyozlar singari va hokazo tegishli ko'rsatkichlarning hisob-kitoblarini tekshirishda murakkab jarayon dan iborat. Soliq hisobi soliq idoralari belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi. Mazkur funksiya amaldagi qonunlarga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishlari shart bo'Imagan shaxsler uchun soliq majburiyatlarini to'g'ri hisoblashga doir zarur

soliq axborotini yig'ish va qayta ishslash imkonini beradi. Masalan, soliqqa tortiladigan jismoniy shaxsler yil davomida olgan daromadlari va qilgan xarajatlarini hisobga olishlari shart. Jismoniy shaxsler buxgalteriya hisobini yuritishlari shart bo'Imagan uchun barcha hisob funksiyalari soliqqa tortish maqsadlari uchun hisobga, ya'ni soliq hisobiga yuklanadi.

Soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqish soliq moliya resurslarini jamlash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihat dan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Shu sababli, soliq siyosatini o'tkazayotganda soliqlar ancha nozik quroq ekanligini hamda ulardan ehtiyojkorlik bilan va puxta o'ylab foydalanish lozimligini esda tutish kerak, chunki ular nafaqat sof fiskal funksiyani, balki taqsimlash va rag'batlantirish funksiyalarini ham bajaradi.

Shunday qilib soliqlarning **funksiyalari** haqida ham yagona fikr yo'qligini e'tirof etib, yuqoridaqilarga tayangan holda ularning quyidagi funksiyalarini keltirish mumkin.

**1. Fiskal (xazina) funksiyasi.** Bu funksiya deyarli barcha iqtisodchilar tomonidan tan olingan bo'lib, buning mohiyati budget tizimiga kiruvchi davlat va mahalliy budgetlarni pul daromadlari (tushumlari) bilan ta'minlab turishni xarakterlaydi. Soliqlarning bu funksiyasi ularning eng muhim ilmiy ma'ruza funksiyasi hisoblanib, soliqlarning mavjudligini ham xarakterlaydi. Chunki, soliqlarni joriy etishdan maqsad ham aslida budget tizimi daromadlarini shakllantirishdan iboratdir.

**2. Qayta taqsimlash funksiyasi.** Ma'lumki, muayyan davrda yaratilgan yalpi milliy (ichki) mahsulotning jamiyat ixtiyoriga sof mahsulot sifatida qoldig'an qismi, ya'ni milliy daromad uni yaratuvchi (ishlab chiqaruvchi)lar — real sektorda taqsimlanadi. Bunda milliy daromad huquqiy jismoniy shaxsler tomonidan foyda, daromad, ish haqi, divedend, renta, ijara va shu kabilar sifatida qo'yilgan hissasiga muvofiq o'zlashtiriladi. Biroq, jamiyat faqat ishlab chiqarish sohasida emas, balki noishlab chiqarish sohasidan ham iboratdir. Demak, milliy daromadni qayta taqsimlash zaruriyati kelib chiqadi, bu esa amalda soliqlar orqali amalga oshiriladi, ya'ni soliqlar tufayli real sektorda noishlab chiqarish sektoriga daromadlarning bir qismi o'tkazilishi (qayta taqsimlanishi) sodir bo'ladi. Biroq, ayrim iqtisodchi adabiyotlarda soliqlarni taqsimlash funksiyasi haqida gap boradi. Ammo, shakllangan budget daromadlarini taqsimlash soliqlarning emas, balki moliya funksiyasiga kiradi, shu jihatdan soliqlarni qayta taqsimlash funksiyasi ham aslida tom ma'noda emas. Chunki, bu yerda soliqlar orqali milliy daromadning qayta taqsimlanishini nazarda tutish lozim, ya'ni soliqlar budgetning daromadlarini shakllantiradi, xolos, uning qanday va qancha taqsimlanishi moliya kategoriyasi orqali ta'minlanadi.

**3. Rag'batlantirish (ishlab chiqarishni qiziqtirish) funksiyasi.** Soliqlarga rag'batlantiruvchi funksiya ham xosdir, chunki sof fiskallikka asoslangan soliqlar mohiyati aggressiv xarakterda bo'lib qoladi va jamiyat tomonidan tan olinmaydi. Hozirda jahonda bironta davlat yo'qki, soliq qonun-

chiligida ishlab chiqarishni rag'batlantirish ko'zda tutilmagan bo'lsa. Soliqarning rag'batlantiruvchi funksiyasi asosan soliq bo'yicha beriladigan imtiyozlar orqali yuzaga chiqadi. Demak, soliq mavjud ekan, uni bar-chadan bir xil tartibda, bir xil miqdorda (stavkada) undirib bo'lmaydi chunki soliq to'lovchilarning o'zi, ular qaysi davrda bo'lmasin, ijtimoiy jihatdan bir xil mavqega ega emas.

**Soliqqa tortishning nazorat funksiyasi quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:**

- soliq to'lovchilarni to'liq ro'yxatga olishni ta'minlash;
- soliq to'lovchilarning moliyaviy hisobotlarini nomeral, ya'ni xo'jalik subyekti obyektlariga chiqmasdan o'tkaziladigan tekshiruvlar olib borish;
- xo'jalik subyektlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatining hujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar va ular uchun belgilangan soliq turlari bo'yicha kompyuterda shaxsiy varaqalar yuritish orqali soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini nazoratga olish;
- soliq to'lovchilar tomonidan davlat budgetiga to'lanayotgan soliq tushumlarining kunlik miqdori haqida axborot olib, tahlil qilish va shu nazorat orqali soliq to'lovchilar proqnoz ko'rsatkichlarining bajarilishini kuzatib borish;
- soliq turlari bo'yicha tushumlar va soliq xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarning natijalari to'g'risida maxsus shaklda statistik-hisobot yuritish.

Nazorat funksiyasi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlardan ko'rinish turibdiki, uning asosiy mohiyati O'zbekiston Republikasi Oliy Majlisi qarori bilan joriy etilgan soliq turlari bo'yicha tegishli xo'jalik subyektlari to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini belgilangan muddatda va miqdorda davlat budgetiga undirilishini ta'minlashdir.

Soliqqa tortish funksiyalari nazorat funksiyasining ta'minlanishi bilan chegaralanmaydi, balki uning intihosi bo'lmissolik to'lovlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish maqsadida soliqqa oid huquqbuzar xo'jalik subyektlariga va ularning mansabdar shaxslariga ma'muriy yoki jinoiy chora ko'rishni aks ettiruvchi soliq qonunchilining ustuvorligini ta'minlash funksiyasi bilan yakunlanadi.

Soliqqa tortish funksiyalari o'zining iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatlari jihatidan juda serqirra bo'lib, davlat budgeti daromad qismining manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan huquqiy munosabatdir.

Soliqqa tortiladigan obyektni aniqlash uchun yalpi daromad tushumidan chegirmalar va imtiyozlarni ayrib tashlash zarur, ya'ni quyidagi formulaga asosan aniqlash zarur:

$$O = D - (A + I).$$

Bu yerda:  $O$  — soliqqa tortiladigan obyekt,

$D$  — yalpi daromad tushumi,

$A$  — soliq kodeksiga asosan berilgan chegirmalar,

$I$  — soliq kodeksida berilgan imtiyozlar.

Soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda yalpi daromad tushumidan chegirmalar va imtiyozlarni ayirgandan keyin aniqlangan soliq obyektiga soliq stavkasini ko'paytirsak kelib chiqadi, ya'ni quyidagi formulaga asosan:

$$O = \{ \{ D - (A + I) \} \cdot C \} : 100$$

Bu yerda:  $C$  — soliq stavkasi.

Ikkinchi formulaning natijasi bo'yicha aslida budgetga to'lanadigan soliq summasi kelib chiqadi. Buni soliqqa tortiladigan baza deyish mutlaqo noto'g'ri. Endi formuladagi stavkani chiqarib tashlasak, yana soliqqa tortiladigan obyekt kelib chiqadi. Shu yerda tabiiy savol tug'iladi. Buning o'rniga soliqqa tortiladigan daromad tushunchasining kiritilgani iqtisodiy nuqtayi nazardan to'g'ri atama bo'lgan bo'lar edi. **Soliqqa tortish obyekti** — hamma daromad (foyda), soliqqa tortiladigan daromad esa, soliq qonunchiliga belgilangan chegirmalar, imtiyozlar va soliq obyektining ma'lum qoidalarga ko'ra kamayishi inobatga olingan qoldig'idan iborat.

Olimlarning soliq to'g'risidagi yaratgan qonuniyatlarini va soliqqa tortish tamoyillari hozirgi davrda qayta amaliyotda tatbiq qilinyapti. Masa-lan, XII—XIII asrda yashagan olim **T.Toza** o'zining «Soliq asoslari» asarida quyidagi **tamoyillarni** bergen:

1. Soliq oladigan davlat odamlari amalda qisqa vaqt ishlashi lozim, ya'ni 4 yil va yaxshi ishlasa, yana 3 yil. Undan keyin amali ko'tariladi yoki davlat tashkilotida ishlamasligi zarur.

2. O'g'ri, muttaham, qallob, tamagir va poraxo'r odamlar ishga qo'yilmasligi maqsadida kadrlar maxsus ekspertlar tomonidan tavsija etilishi va aniqlanishi zarur. Ular soliq tushumidan umuman foydalanshiga yo'l qo'yilmasligi lozim, hatto ish haqi ham berilmasligi zarur.

3. Soliq tushumi davlat xarajatini qoplashi kerak. Davlat xarajatiga, davlatni boshqarish, maktab va qariyalar tibbiyotidan boshqa xarajatlarga sarf qilinmasligi zarur.

4. Maxsus dasturlarga qo'shimcha aholining xohishiga qarab soliq joriy qilinishi lozim (urush, falokat yoki aniq maqsad uchun). Bu soliqlar vaqtincha joriy qilinib, sarf natijasi davlat odamlari tomonidan xalqqa hisobot berishi lozim.

5. Soliqni yashirsa, soliq tushumidan maqsadsiz foydalansa, albatta, jazolanishi zarur. Soliq to'lovchi qanday jazolansa, soliq tushumidan noto'g'ri foydalanuvchi ham shunday jazolanishi zarur.

6. Soliq og'irligi har qanday korxona va shaxsning foydasidan olinishi zarur bo'lib, uning og'irligi 10—13% dan ortmasligi zarur.

7. Soliqqa tortish tamoyillari bo'lib tenglik, anqlik, yengillik, aholini real daromadini ko'paytirishga qaratilgan, ayrim tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilganligi hisoblanadi.

Bu tamoyillar XIII asrda arab davlatlarida foydalanilgan bo'lib, keyinchalik Yevropaga tarqalgan. Bu qoidalar ayrim tarixiy adabiyotlarda soliqqa tortishning 7 ta oltin qoidasi deb ham ataladi. Bu qoidalarning ayrimlarini birlamchi qilib **A. Smit, Ulug'bek** va boshqa olimlar o'z asarlarida yozib o'tganlar.

Hozir esa O'zbekistondagi soliq tizimida umumiy tamoyillar quyida-gilardan iborat:

- har bir shaxs qonun bilan o'rnatilgan yig'imlarni to'lashi shart;
- olingan manbalardan qat'i nazar, barcha soliqqa tortilishi shart;
- soliq imtiyozlarini belgilash ijtimoiy prinsiplarga mos bo'lishi kerak;
- soliq solish — yuridik shaxslarga nisbatan shakklardan qat'i nazar,

qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshirilishi zarur;

Keyinchalik olimlardan **Jon Styuart, B. Yozif, E. Shtigels** va boshqalar o'z asarlarida asosan yuqoridagilarga o'xshash tamoyillarni belgilab berdi-lar. Kyoln soliq huquqi instituti doktori, professor **Yoxim Lang** soliqqa tortishning zamonaviy tamoyillarini o'rganib chiqib, ularning ijobiy va zaif jihatlarini taqqoslab, soliqqa tortishning besh tamoyilini **Kodeks loyi-hasiga kirdti. Ular quyidagilardir:**

**1. Tenglik va samaradorlik** — iqtisodiy faoliyat obyektlarining teng miqdorda soliqqa tortilishini va ular uchun soliqlar yukining teng taqsim-ланishini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha huquqiy va jismoniy shaxslar teng huquqli bo'lgani uchun ularga soliq solinishi va soliqlar yuki ham teng bo'lishi lozim. Bir shaxsning soliqqa tortishdan ozod qilinishi budget daromadlarining taqchilligi sharoitida soliq yukini bozor munosabatlarining boshqa ishtirokchilar zimmasiga yuklaydi.

**2. Soliqqa tortishning aniqligi va maqbulligi** — qarzlar yuzasidan o'zar munosabatlarga nisbatan talablar huquqiy davlatchilik nuqtayi nazaridan aniq belgilab qo'yishi kerak. Bundan soliq to'lovchilar (shu jumladan, fuqarolar) to'lanishi zarur bo'lgan soliqlar summasini aniq bilishlari, ular zimmasiga soliqlar yukining solinishi uchun asos bo'ladigan siyosiy qarorlar tadbirlar xususida xabardor qilingan bo'lishi zarur.

**3. Soliqqa tortishning arzonligi** — soliq qonunlari iloji boricha sodda ifodalangan bo'lishi, soliqlarni undirish qoidalari nisbatan arzonligi bilan farqlanib turishi kerak. Bunday tamoyil, o'z navbatida, soliqqa tortishning shartlari, qulayligi, oddiyligidan kelib chiqadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, soliqlarning undirilishi oson bo'lishi lozim. Qonunchilik materiallarini tayyorlash, soliqlarni hisoblash, boqimandalardan soliqni undirishni tashkil etilishi uchun mehnat va moddiy xarajatlar juda kam bo'lishi zarur.

**4. Soliqqa tortishning xazina (fiskal) samaradorligi va qayishqoqligi** — o'z samaradorligi bilan ajralib turishi va iqtisodiy vaziyatlarning o'zgarishiga qonuniy choralsiz to'g'ri javob berishi lozim. Bu o'rinda **Yoxim Lang** soliqqa tortishning xazina samaradorligi — iqtisodiy yuksalishga soliqlar yukining og'irligi nomuvofiq bo'lishi bilan bog'liq ekanligi haqida ogohlantiradi. U, soliq yukining og'ir bo'lishi iqtisodiy o'sish uchun zarardir, deb ta'kidlaydi. Faqat Yaponiya, Germaniya singari iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar iqtisodiy yuksalishga to'sqinlik qiladigan soliq tizimiga amal qilishlari mumkin.

**5. Soliqqa tortishning ijtimoiyadolatliligi** — ijtimoiy davlatlarda zarur bo'lgan qayta taqsimlashning amalga oshirilishini va ijtimoiy g'oyalari, jum-

ladan, atrof-muhitni muhofaza etish, sog'liqni saqlash va oila manfaatlarini himoya qilish borasida yordam berishi lozim. Yuqorida aytilgan soliqqa tortish tamoyillari soliqlarning iqtisodiy kategoriya sifatida olingen qonunlardir. Ba'zi iqtisodchilar ularning ahamiyatini pasaytirib, tamoyillarni tarbiylar, talablar, deb tushuntiradilar. Tartib va talab boshqa, iqtisodiy qonun boshqa.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tamoyilli-  
lari soliq qonunchiligi tamoyillari sifatida nomlanib, uning **besh tamoyi-  
li(4-modda) belgilab qo'yilgan**:

1. Har bir shaxs Kodeksda belgilangan soliq va to'lovlarni to'lashga majburdir, ya'ni soliq to'lash qonun bilan majbur qilib qo'yiladi. Aslida, majburiylik soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi.

2. Huquqiy shaxslarni soliqqa tortish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

3. Belgilangan soliqlar va yig'imlar O'zbekiston hududida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yoki pul mablag'larining erkin harakatini bevosita va bilvosita cheklamaydi, yoki soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini cheklash, yoki to'sqinlik qilishga yo'l qo'ymaydi.

4. Manbalaridan qat'i nazar, hamma daromadlar majburiy ravishda soliqqa tortiladi.

5. Belgilangan soliq imtiyozlari ijtimoiy adolat tamoyiliga mos kelishi shart.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivoj-lantirishning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan belgilangan soliqlar va shu bilan bog'liq, soliq qonunchiligining bajarilishini ta'minlovchi **soliqqa tortish tamoyillari quyidagilardan iborat**:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining bajarilishini ta'minlashga moliyaviy muvosiflik tamoyili;

- qonun ustuvorligini ta'minlanish tamoyili (soliq to'lovchilarning majburiylik tamoyili);

- me'yoriy hujjalarning o'tgan hisobot davriga ta'sirini inkor qilish tamoyili;

- soliqqa tortishning bir martaliylik tamoyili;

- soliqqa tortishning imtiyozlilik tamoyili;

- soliq to'lovchilar va davlat manfaatlarining tenglik tamoyili;

- soliqqa tortishda rezidentlik tamoyili;

- soliqqa tortishda adolat ustuvorligi tamoyili;

- soliqqa tortishda nazoratning doimiylik tamoyili;

Soliqqa tortishning yuqorida keltirilgan tamoyillarining nazariy tafsilotlari juda muhim bo'lishiga qaramay, iqtisodiy adabiyotlarda va umuman soliqqa oid qonun hamda boshqa rasmiy hujjalarda yetarli darajada yoritilmagan.

## 5. Soliqqa tortishning huquqiy asoslari

**Soliq huquqi** — bu, soliq to'lovchining faoliyatida sodir etilgan huquqbazarliklarni uning bo'yning qo'yish yoki ularning umuman mavjud emasligini asoslab berish zahmati zimmasiga yuklangan yagona soha emas. Soliq munosabatlaridagi huquqlar himoyasi sud jarayonida fuqarolik-protsessual tamoyillariga riona qilgan holda munozara usulida haqiqatni yuzaga chiqarish va tomonlarning talab hamda e'tirozlarini asoslovchi holatlarining mukammalligi ta'minlanishiga bog'liq.

**Soliqqa tortish munosabatlarning huquqiy asoslari** — o'z xususiyatiga ko'ra, davlat ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lman, soliq to'lovchi xo'jalik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga qaram va soliq to'lovchilar faoliyatidan hosil bo'lgan qo'shimcha qiymatning bir qismini jamiyatning taraqqiyoti uchun mo'ljallangan tadbirlarga sarflanishi muqarrarligidan kelib chiquvechi huquqiy mezonlar, tartib-qoidalar.

**Soliq turini erkin tanlash huquqi** — faoliyat ko'rsatuvchi shaxsning soliq to'lashda qo'llaniladigan maqomini o'zi tanlash imkoniyati; xo'jalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa, kichik korxonalarga ko'p sonli soliqlar o'rniya yagona soliq to'lash tartibini erkin tanlash imkoniyatining berilishi. Bu soliqni to'lash tartibi, stavkalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Soliq huquqi** — soliq, yig'im va to'lovlar bilan bog'liq huquqiy qarorlar soliq sohasidagi huquqiy munosabatlari va soliq bilan bog'liq huquqiy javobgarlik masalalarini o'z ichiga oluvchi qonun me'yordi majmuyi. Soliq huquqi fan sifatida huquqiy tartibotlardan bo'lib, O'zR hududida soliq sohasidagi munosabatlarni qonun asosida tartibga soluvchi tizimga ega:



## 6. Soliq huquqining manbalari

Soliq to'lashning va soliqqa tortishning maxsus huquqiy me'yoriy hujjatlari yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan. Davlat oldidagi o'z majburiyatlarining bajarilishini tasdiqlovchi hujjatlari soliq qonunchiligi doirasida rasmiylashtirilishi huquqiy muhofazalanishning asosiy omillariidan hisoblanadi va faqat shu yo'l bilan soliq organlari yoki boshqa nazorat qiluvchi tashkilotlar noqonuniy harakatlarning oldini olishi mumkin. Soliq to'lovchi tekshiruv jarayonida soliq xizmati xodimlari tomonidan soliqqa tortish munosabatlari bo'yicha bildirilgan tanqidiy mulohazalarga, qoidalarga binoan, hujjatlari, ashyoviy dalillar va mukammal hisob-kitoblarni asos qilgan holda javob berishga doim tayyor bo'lishi lozim.

**Davlat soliq inspeksiyalarining vazifalari va funksiyalari** — ular jumlasiga quyidagilar kiradi: 1) soliq to'lovchilar(xorijiy va fuqaroligi bo'lman shaxslar)ning to'liq hisobga olinishini ta'minlash; 2) soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisoboti va balanslari, soliq hisob-kitoblari, hisobtlari, bayonnomadeklaratsiyalar hamda to'lovlarni hisoblash va to'lash bilan bog'liq barcha hujjatlarning o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish, shuningdek, foyda, daromad, soliqqa tortishning boshqa obyektlarning aniqlanganligi va hisoblanganligiga oid hujjatlarning to'g'riligini tekshirish; 3) budjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiya (jazo)lar qo'llanilishini ta'minlash; 4) soliq inspeksiyasi mas'ul shaxsining asoslangan qarori korxona, tashkilot va muassasalarning foyda (daromad) yoki soliqqa tortishning boshqa obyektlari pasaytirilganligi (kamaytirib ko'rsatilganligi) dan dalolat beruvchi hujjatlarni ko'rib chiqish soliq inspeksiyasi mansabdor shaxsining asoslangan qarori ularning mazmunini qayd etish va olib qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi); 5) musodara qilingan va egasiz mulklarni, shuningdek, meros qilish huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tkazilgan mulklarni hamda topilmalarni hisobga olish, baholash va sotish; 6) budjetga tushishi lozim bo'lgan va haqiqatdan tushgan soliqlar hamda boshqa to'lovlariga operativ buxgalteriya hisobi yurgiziladigan hujjatlarni banklar, moliya organlari, korxona, tashkilot va muassasalardan olish; 7) davlat soliq inspeksiyalariga va ularning mas'ul shaxslariga buxgalteriya hisobotlari, balanslar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va budjetga soliqlar hamda majburiy to'lovlarni hisoblash, shuningdek, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar taqdim etilmaganda yoki ularni taqdim etishdan bo'yin tovlangan hollarda korxona, tashkilot, muassasalarning bank hamda boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob va boshqa hisob varaqlari bo'yicha bank muomalalarini to'xtatib qo'yish; 8) ortiqcha to'langan yoki undirilgan soliq va yig'imlar qaytarilishini ta'minlash; 9) belgilangan hisobotni yuqori soliq organlari uchun budjetga amalda kelib tushgan soliq va boshqa to'lovlarining summasi haqidagi ma'lumotni tuzish, tahlil qilish hamda tuman va shahar moliya organlariga taqdim etish; 10) xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan naqd pul muomalasi va nazorat kassa mashinalarining qo'llanishi borasidagi nisbatan qonunchilik talablarining bajarilishini nazorat qilish.


**Soliq qonunchiligi** — tushunchasini shaklan va mazmunan tuzilishini tahlil qilgandagina to'liq anglash mumkin. O'zbekiston Respublikasida faqat uning eng yuqori organi bo'lgan Oliy Majlis qonun chiqarish vakolatiga ega. Soliq qonunchiligi shaklan soliqlar va soliqqa tortish bo'yicha Oliy Majlis qarori bilan qabul qilingan qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga kiritilgan rasmiy o'zgartirishlar majmuasidan iborat. Mazmunan soliq qonunchiligi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi sifatida ifodalanadi. Soliq qonunchiligining shaklan va mazmunan tashkil topishining mohiyatiga asoslangan holda uning tamoyillik qoidasini quyidagicha ifodalash mumkin.

**Soliq qonunuchiligi bu** — vakolatli organlar tomonidan rasmiy e'lqn qilingan soliqlar va yig'imlar tizimi, soliqqa tortishning umumiy tamoyillari, davlat va xususiy mulk egasi o'rtasidagi soliq va yig'im to'lovlari munosabatlarining kelib chiqish asoslari, o'zgartirilishi va bekor qilinishi, soliq nazoratining shakllari va uslublari hamda soliq majburiyatini buzanlik uchun javobgarlik normalari yig'indisidir.

Soliq qonunchiligi shaklan qonun chiqaruvchi va qonunlarning bajarilishini ta'minlovchi organlar rasmiy hujjatlarining to'plami va mazmunan davlat budgeti daromadlarining manbayi bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bilan bog'liq qonun, tartib-qoda normalari sifatida ta'riflanganligi asosida soliq qonunchiligining nazariy shaklini piramida toifasida izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun normalarini buzanlik uchun soliq to'lovchiga nisbatan moliyaviy jazo choralarining qo'llanilishini tartibga soladi.

#### **Soliq qonunlarining qabul qilinishi tartibi:**



**Soliqda huquqiy munosabatlar** — davlat soliq idoralari va soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasidagi munosabatlar, davlat budgetining majburiy to'lovarini bajarish soliq sohasidagi huquqiy me'yorlar

bilan tartibga solinadi. O'zR bo'yicha soliqqa tortishga oid qonunlarni qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Yangi soliq, to'lov, boj va yig'imlar maxsus tartibda yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi va joriy qilinadi.

**Soliq to'lovchilarning huquqi.** Soliqlar va soliqqa tortish munosabatlari qonunchiligi va umuman, soliq tizimining funksiyalari birgina maqsadga, ya'ni davlatning mablag'larga ehtiyojini qondirishga, soliq yig'imlari orqali soliq to'lovchilar tasarrufidagi moddiy qiymatliklarning bir qismi hisobidan budget daromadlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jamiyat rivojlanishining davlat qurilishi tamoyillaridan kelib chiqqan mumtoz qonuniyat.

**Soliq to'lovchilarning majburiyatları** — soliqqa tortish munosabatlari markaziy o'rinni egallaydi. Chunki soliq munosabatlarining moddiy natijasi, ya'ni soliq to'lovchilar majburiyatlarining bajarilishi davlat budjeti manfaatlari bilan bevosita bog'liq. **Soliq to'lovchilar majburiyatları** O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 12-moddasida quyidagi tartibda berilgan:

1) belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, yuridik manzili o'zgargan taqdirda esa, bu haqda soliq organiga o'n kunlik muddat ichida xabar berish;

2) soliqlar va yig'imlarning tegishli summasini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash;

3) buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish;

4) moliyaviy hisobotni, soliqlar turi bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish;

5) soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek, soliqlar va yig'imlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish;

6) soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlari mansabdar shaxslarining daromad olish yoki soliq solish obyektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kiringiga ruxsat berish;

7) soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish holalarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

Soliq to'lovchilar yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlardan tashqari boshqa qonun hujjatlarida ularning zimmalariga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradilar.

Soliq to'lovchilar majburiyatlarining eng asosiyisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida quyidagicha belgilangan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar».

Soliq qonunchiligi va soliqqa tortish munosabatlari majburiyatlarining ijrosini ta'minlash uchun soliq to'lovchilar davlat talab qiladigan quyidagi uchta amalni bajarishlari lozim:

1) xo'jalik subyekti tomonidan soliqqa tortiladigan obyektlarni aniqlash;

2) davlat budgetiga o'tkaziladigan soliq summasini mustaqil hisoblab chiqarish;

3) soliqlarni to'lash.

**Soliq to'lovchi tomonidan ado etiladigan har bir amal soliq to'lovchilarning toifasiga qarab belgilangan tartibda bajariladi.** Masalan, yuridik maqomdagi soliq to'lovchilar davlat budgetiga to'lanadigan soliq to'lovlarini o'zlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatlarini natijalaridan kelib chiqib hisoblaydilar va budgetga to'laydilar. Soliq to'lovchilar toifalari bo'yicha soliqqa tortish amallarining bajarilishini jadvalda quydagicha tasvirlash mumkin.

Soliq to'lovchilar toifalari	Soliqqa tortishning majburiy bajariladigan amallari		
	Soliqqa tortiladigan obyektlarni aniqlash tartibi	Soliq summasini hisoblab chiqarish tartibi	Davlat budgetiga soliq to'lash tartibi
Yuridik shaxslar Jismoniy shaxslar a) mahalliy soliq to'lovchi fuqarolar b) tadbirkorlar	Mustaqil ravishda Davlat soliq organi tomonidan Deklaratsiya taqdim etish	Mustaqil ravishda Davlat soliq organi tomonidan Davlat soliq organi tomonidan	Mustaqil ravishda Mustaqil ravishda yoki uchastka soliq inspektori tomonidan Mustaqil ravishda
d) asosiy ish joyidan boshqa manbadan daromad oluvchilar	Deklaratsiya taqdim etish	Davlat soliq organi tomonidan	Mustaqil ravishda

Soliq to'lovchilarning soliqqa tortish amallariga doir majburiyatlarining tarkibi va ularning bajarilishini tavsiflovchi yuqorida keltirilgan jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, soliqqa tortish amallari O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilanganidek, soliq to'lovchilar zimmasiga to'liq yuklatilmagan. Yuridik maqomga ega soliq to'lovchilarga soliqqa tortish bilan bog'liq hamma amallarni mustaqil bajaradilar.

Davlat o'z manfaatlarining manbayi bo'lgan soliqqa tortiladigan obyektlarning xo'jalik faoliyatidagi ichki hisobini yuritishni, bu hisob-kitoblarga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning javobgarliklari, qonunda belgilangan soliqlarni hisoblash va davlat budgetiga to'lash ishlarini qonuniy majburiyat sifatida soliq to'lovchilar zimmasiga yuklagan. Bundan maqsad shuki, xo'jalik subyektlarining faoliyatini nazorat qilishda aynan shu hisob-kitoblarni, tegishli buxgalteriya hujjatlariga asoslangan holda tekshirish orqali soliq to'lovlarining to'g'ri bajarilganligini aniqlashdir.


**Soliq to'lovchilarini muhofaza qilish huquqlari.** Soliq to'lovchilarning huquqlari ularning nima maqsadda berilishi, ta'sir qiluvchi miqyosi va qaysi darajadagi rasmiy hujjatlarda qayd etilishiga qarab bir necha toifaga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, Fuqarolik va Mehnat kodekslarida belgilangan huquqlarda bevosita xo'jalik subyekti faoliyati bilan bog'liq huquqlar soliq to'lovchilarga ham tegishlidir. Soliqlar va soliqqa

tortish munosabatlariiga oid qonun normalarida berilgan huquqlar soliq to'lovchilarning to'g'ridan to'g'ri faoliyati doirasida ta'sir ko'rsatadi.

Soliq qonunchiligidagi qayd etilgan huquqiy normalar soliq to'lovchilarga bevosita va bilvosita vakolat beruvchi huquqlarga bo'linadi.


Soliqlar va soliqqa tortish munosabatlarining eng muhim jihatlari soliq to'lovchilarni soliq qonunchiligiga tegishli bo'lgan, to'g'riroq'i soliq to'lovlar bilan bog'liq qonunlar, tartib-qoidalar, yo'riqnomalar, Davlat Soliq qo'mitasining rasmiy hujjatlari bilan o'z vaqtida ta'minlanishi hisoblana-di. Soliq organlarining tashkiliy ishlar bo'limlari orqali tegishli hamma rasmiy hujjatlar soliq to'lovchilarga yetkaziladi.

**Soliq sohasidagi huquqiy javobgarlik** — bu soliq qonunlarini buzganlik uchun quyidagi davlat majburloving qo'llanishidir:



Moliyaviy jazo choralar quydagilardan iborat soliq to'lash qonunlarini buzganlik uchun ko'rildigan moliyaviy, ma'muriy yoki jinoiy chora. Soliq to'lamaslik holatida qo'llaniladigan jazo choralar soliq to'lashdan bosh turgentan, yalpi daromadi mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarga joriy qilinadi.

**Soliq to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash** — soliq to'lanadigan daromad yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirgan, kamaytirib ko'rsatgan, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'imlarni, boj yoki boshqa to'lovlarini to'lamagan mansabdor shaxslar yoki jismoniy shaxslar uchun qonunda belgilangan aybnoma. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash davlat iqtisodiyotiga ziyon keltiradi. Bu jinoyatning obyekti davlat moliya faoliyati sohasida amal qiladigan ijtimoiy munosabatlardir. Soliq to'lashdan bo'yin tov lash — soliq qoidabuzarliklarining eng keng tarqalgan xavfli turi.



Odatda, korxonaning soliq imtiyozlaridan g‘ayriqonuniy foydalanish, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik va daromadni yashirish, soliq hisoblash va to‘lash uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni bermaslik yoki o‘z vaqtida bermaslik shaklida namoyon bo‘ladi. Natijada, qonun bo‘yicha soliq to‘lovchilar bo‘lgan korxonalar va jismoniy shaxslar qonunda bevosita yoki bilvosita taqiqlangan usullardan foydalanib, o‘z soliq majburiyatlarini kamaytiradilar yoki soliqlarni umuman to‘lamaydilar.

Soliq to‘lovchi uchun ajratilgan 10 kunlik muddat ichida davlat soliq xizmati organlariga rasmiy e’tiroz bildirilmagani, soliq to‘lovchining tekshiruv materiallarida qayd etilgan aybnomaga roziligini anglatadi va soliq organining boshlig‘i tomonidan qabul qilingan qarorga binoan soliq organi xo‘jalik subyektining tegishli bank muassasasidagi hisob varag‘idan, soliq to‘lovchining bunga munosabatidan qat‘i nazar, inkassa to‘lov talabnomasi bilan davlat budgetiga tegishli mablag‘ni undirib olishga haqli. Mansabdar shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan moliyaviy jarima esa ularning shaxsiy jamg‘armalari hisobidan tegishli bankka mustaqil ravishda to‘lanishi lozim.

Soliq organlarining qarorlari va ular mansabdar shaxslarining xatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish huquqi.

**Soliqqa doir jinoyat** — soliqqa tortiladigan obyektlarni qasddan yashirish usullaridan foydalanib, davlat budgeti daromadlariga zarar keltiruvchi g‘ayriqonuniy harakat. Soliq sohasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning quydagiicha alomatlari mavjud: soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan, takroran yoki ko‘p miqdorda bo‘yin tov lash; hujjatlarni qalbakilashtirish; soxta buxgalteriya hujjatlardan foydalanish; ishlab chiqarishda ishlatilmagan moddiy boyliklarni hisobdan chiqarish, shtat birligida hisobda turgan, lekin korxonada ishlamayotgan xodimlarga ish haqi hisoblash yo‘li bilan xarajatlarni ko‘paytirish; savdo tushumini va daromadni qasddan kamaytirish; moddiy va yoqilg‘i energiya resurslar va amortizatsiya xaratjatlarini sun‘iy ravishda ko‘paytirish yoki me‘yoriy hujjatlar (limitlar) dan noto‘g‘ri foydalanish; hujjatlarni yo‘q qilib yuborish yoki taqdim etishni rad qilish; savdo qilish joylarida buxgalteriya va boshqa hujjatlarda belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan mahsulot (tovar) larni saqlash; davlat ro‘yxatidan va soliq organida ro‘yxatdan o‘tmasdan turib xo‘jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirish; davlat soliq organining ogohlantirishiga qaramasdan ikki va undan oshiq manbalardan daromad oluvchi jismoniy shaxslar tomonidan daromad to‘g‘risida deklaratsiyani taqdim etmaslik; savdo yoki vositachilik faoliyatini bilan qonunga xilof ravishda takroran, ko‘p miqdorda yoki bir guruh shaxslar tomonidan shug‘ullanish; savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini takroran yoki ko‘p miqdorda buzhish; litsenziyasiz takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan faoliyat ko‘rsatish; soxta tadbirkorlik; alkogoll va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ravishda takroran yoki ko‘p miqdorda ishlab chiqarish yoxud muomalaga kiritish; qiymati belgilangan eng kam ish haqining bir baravari miqdoridan oshgan mulkni talon-taroj qilish.

Davlat soliq xizmati organlari zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq Davlat Soliq qo‘mitasi, uning hududiy va mahalliy bo‘linmalari quyidagi **funksiyalarni** bajaradilar:

- soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliqlar to‘g‘ri hisoblanishi, o‘z vaqtida to‘liq to‘lanishi ustidan nazoratini amalga oshiradilar;
- yagona umum davlat soliq siyosatini amalga oshirishda ishtirot etadilar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni himoya qiladilar, soliq solish va soliq qonunchiligining buzilishi masalalari bo‘yicha shikoyat va arizalarni belgilangan tartibda ko‘chirib chiqadilar;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlaridan kelib chiqib va soliq qonunchiligini qo‘llash amaliyotini hisobga olib, davlat soliq xizmati organlari ishining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydilar, ular faoliyatini takomillashtirish kompleks dasturlarini ishlab chiqaradilar va amalga oshiradilar, qonun hujjatlari va boshqa me‘yoriy hujjatlarning loyihalarni belgilangan tartibda ishlab chiqadilar va kiritadilar;
- huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda soliqqa doir huquqbuzarliklarga qarshi kurashning muddatli va joriy dasturini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;
- soliq qonun hujjatlarini buzishlar to‘g‘risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradilar;
- o‘z xizmat va vazifalarini bajarish chog‘ida davlat soliq xizmati organlari mansabdar shaxslari faoliyatining xavfsizligini ta‘minlaydilar;
- qonunga muvofiq soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning sir saqlanishiga doir ishni tashkil etadilar;
- tobe bo‘linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar, ularning kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish ishini tashkil etadilar. Soliq to‘lovchilar — yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reyestrini shakllantiradilar va yuritadilar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradilar.

#### **O‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq Davlat Soliq qo‘mitasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

1. Qonun hujjatlariga rioya qilinishi, soliqlar to‘g‘ri hisoblangani, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratini amalga oshiradi, ana shu maqsadda:

- soliq solish obyektlari va subyektlarini hisoblangan, to‘langan soliqlarni to‘liq hamda o‘z vaqtida hisobga olishni, jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatini bilan shug‘ullanishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta‘minlashga doir;
- soliq qonun hujjatlarini buzish faktlarini to‘plash, tahlil qilish va baholashga hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritishga doir;
- yuridik va jismoniy shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni ro‘yxatga olish (identifikatsiya) raqamlarini bergen holda soliq to‘lovchilar sifatida ularni hisobga qo‘yish haqida hujjatlarni berishga doir;

- soliqlar tushishini ta'minlash ishida topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilishga doir;
- jismoniy shaxslar daromadlarini yalpi deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishga doir;
- xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini soliqlar yordamida tartibga solish choralarini ishlab chiqishga, hukumatlararo bitimlar va shartnomalarni tayyorlash va tuzishga, soliq siyosatini, shuningdek, ikki tomonlama soliq solishni bartaraf etish bo'yicha bitimlarni muvofiqlashtirishga doir;
- muddatida to'langan soliqlarni undirishga, musodara qilingan, egasiz mol-mulk, xazinalarni, shuningdek, meros qoldirish huquqi bo'yicha davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tgan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotish ustidan nazorat qilishga doir ishlarni tashkil etadi.

2. Yagona umumdavlat soliq siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi, ana shu maqsadda:

- soliq qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha uslubiy ishlarni olib boradi;
- Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasining boshqa vazirlik hamda idoralari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etish uchun majburiy bo'lgan soliq qonun hujjatlarini qo'llash masalalari bo'yicha yo'riqnomava boshqa me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda e'lon qiladi;
- budjetga soliqlar tushishi prognozini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- soliqlarni hisoblash yozish va to'lash bilan bog'liq hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi;
- soliq qonun hujjatlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'lanmalarini tayyordaydi va nashr etadi. O'z qo'l ostidagi organlarni qonun va yo'riqnomaviy materiallar, soliq to'lovchilarni hisobga olish shakllari bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi.

3. Juridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonunlarida muhofazalanadigan manfaatlarini himoya qiladi, soliq solish masalalari va soliq qonun hujjatlarini buzishlar bo'yicha shikoyat va arizalarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ana shu maqsadda:

- soliq qonun hujjatlari masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazilishini;
- soliq qonun hujjatlari to'g'risidagi axborotni nashr etish, ko'paytirish va qo'l ostidagi tashkilotlarga yetkazish uchun servis markazlar faoliyatini, soliq to'lovchilarning soliqlarini to'g'ri hisoblash, hisobot va deklaratsiyalarni taqdim etishga o'rgatishni, shuningdek, konsultatsiya xizmatlari ko'rsatishni tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish yo'naliшlaridan kelib chiqib va davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qonun hujjatlari qo'llanishi amaliyotini hisobga olib, davlat soliq xizmati organlari

ishining ustun yo'naliшlarini belgilaydi, ular faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlar loyihalarni ishlab chiqadi hamda belgilangan tartibda kiritadi.

5. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda soliqqa doir huquqbazarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

6. Soliq qonun hujjatlarini buzishlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshiradi.

7. Xizmat vazifalarini bajarayotganida Davlat soliq xizmati organlari mansabdar shaxslari faoliyatining xavfsizligini ta'minlaydi.

8. Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanishiga doir ishlarni tashkil etadi.

9. Qo'l ostidagi bo'linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

10. Davlat soliq xizmati hududiy organlarining kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha ishini tashkil etadi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirishni yo'iga qo'yadi, ana shu maqsadda Davlat soliq xizmati organlari idoralarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha markazlar tashkil etadi.

11. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyalashni, ularga belgilangan tartibda maxsus unvonlar berilishini amalga oshiradi.

12. Davlat soliq xizmati organlari ishining samarali bo'lishini ko'zlab:

- soliq axborotini qabul qilish, qayta ishslash, uzatish va saqlashning eng sermehnat jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida soliq tushumlari, barcha soliq to'lovchilar yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini yaratadi va undan foydalanadi, soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reyestirni shakllantiradi va yuritadi;

- Davlat soliq xizmati organlarining moddiy-teknika ta'minotini, materiallar va uskunalarga ajratilgan fondlardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Davlat soliq xizmati organlarining ijtimoiy rivojlanish va moddiy-teknika ta'minoti maxsus fondini to'g'ri shakllantirish, taqsimlash va ishlatish ustidan nazorat qiladi;

- soliqlar va soliq to'lovchilarni hisobga olishning yagona kompyuter tizimini yaratish, Davlat soliq xizmati organlarni moddiy-teknikaviy ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshiradi va xorijiy soliq organlari bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

13. Juridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish hamda taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtiradi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik subyektlari moliya-xo'jalik faoli-

yati tekshirilishi va taftish qilinishini to‘xtatish to‘g‘risida takliflar kiritadi. Qonun hujjatlarida boshqa funksiyalar ham ko‘zda tutilgan.

**Dalvat soliq xizmati organlari o‘z vakolati doirasida quyidagilarni amalga oshirish huquqiga ega:**

1) soliq to‘lovchilarning (shu jumladan, soliq to‘lovchi bilan bog‘langan subyektlarning muqobil tusdagi) moliya hujjatlari, shartnomalari (kontraktlari), reja smetalari, daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalari hamda soliqlarni hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni, shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq hujjatlarni topshirish, tekshirishlarda paydo bo‘ladigan masalalar bo‘yicha zarur tushuntirishlar, ma’lumotnomalar va axborotlar olish;

2) yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to‘lovchilar faoliyatiga taalluqli ma’lumotnomalar, axborotlar, hujjatlar va ulardan ko‘chirma nusxalar olish;

3) belgilangan tartibda:

- soliq qonun hujjatlarini buzishga yo‘l qo‘yan yuridik va jismoniy shaxslardan daromad (foyda) va soliq solishning boshqa obyektlari yashirilganidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek, huquqbazarlik ashyolarini;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish tartibini buzgan jismoniy shaxslardan keyinchalik mazkur faoliyat bilan shug‘ullanish uchun ruxsat bergan organlarga huquqbazarlik to‘g‘risidagi materiallarni bergan holda litsenziyalar, patentlar yoki ro‘yxat guvohnomalarini olib qo‘yish;

4) kasallar va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni muhrlash, tovarlar, mahsulotlar, xomashyo materiallari va yarim tayyor mahsulotlar namunalarini, shuningdek, hujjatlarini olib qo‘yish hamda ularni tahlil, tadqiq va ekspertiza qilish uchun yuborish;

5) savdo-sotiq, tovarlarni berish va xizmatlar ko‘rsatish qoidalariga riyoja qilinishini tekshirish;

6) yuridik (shu jumladan, alohida ish rejimiga ega korxonalar) va jismoniy shaxslarning daromad (foyda) olish uchun foydalaniladigan yoki joylashgan yeridan qat‘i nazar, soliq solish obyektlarini tutib turish bilan bog‘liq ishlab chiqarish. Ombor, savdo yoki boshqa binolari hamda joylarini tekshirish, bajarilgan ishlari, ko‘rsatilgan xizmatlarning nazorat o‘chovlarini amalga oshirish hamda tovar-moddiy boyliklarni inventarlash. Soliq tekshiruvini amalga oshirayotgan soliq xizmatining mansabdar shaxslari mazkur binolari yoki joylarga kiritilmagan taqdirda Davlat soliq xizmati organlari o‘zlarida mavjud bo‘lgan axborot (shu jumladan, soliq to‘lovchining xarajatlari to‘g‘risidagi axborot) asosida yoki boshqa shu singari soliq to‘lovchilarga o‘xshatib soliq summalarini mustaqil belgilash huquqiga ega;

7) yuridik va jismoniy shaxslardan aniqlangan qonunbazarliklarni bartaraf etishni talab qilish;

8) ular hujjatlar asosida (sanoq) tekshiruvni o‘tkazishdan yoki Davlat soliq xizmatining mansabdar shaxslarini daromad (foyda) olish uchun foydalaniladigan yoki soliq solish obyektni tutib turish bilan bog‘langan binolari va joylarni tekshirish uchun kiritishdan bosh tortgan, Davlat soliq xizmati

organlari va ularning mansabdar shaxslariga moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va soliqlarni hisoblash hamda to‘lash bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni taqdim etmagan (yoki bundan bosh tortgan) hollarda yuridik shaxslarning, shuningdek, qonunlarda ko‘zda tutilgan hollarda jismoniy shaxslarning banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob va boshqa schotlari bo‘yicha operatsiyalarini to‘xtatib qo‘yish;

9) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

- soliqqa doir huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazo choralar qo‘llash;
- ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish va ma’muriy jazo choralar qo‘llash;

10) soliqqa doir huquqbazarliklarning aniqlangan faktlari bo‘yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan holatlar va tartibda musodara qilish;

11) soliqlar bo‘yicha boqimandalarni, shuningdek, jarima sanksiyalarini summalarini qonun hujjatlariga muvofiq, so‘zsiz tartibda undirish;

12) Qonunga xilof ravishda olgan mablag‘larini daylat daromadiga undirish to‘g‘risida yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan da‘vo qo‘zg‘ab, sudga murojaat qilish;

13) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo‘jalik faoliyatini belgilangan tartibda tekshirish va taftish qilishni muvofiqlashtirish, nazorat qiluvchi organlar o‘tkazayotgan xo‘jalik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishlarni to‘xtatish to‘g‘risida takliflar kiritish;

14) daromad (foyda) ni yoki soliq solish boshqa obyektlarini yashirish faktlari aniqlanganda surishtiruv o‘tkazish, jinoiy ish qo‘zg‘ash va ularni qonun hujjatlariga muvofiq tergov organlariga topshirish.

Davlat soliq xizmati organlari qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega. Davlat soliq xizmati organlarining 1—7-bandlarda ko‘zda tutilgan huquqlari Davlat soliq xizmati organlarining barcha mansabdar shaxslariga, 8—14-bandlarda ko‘zda tutilgan huquqlar esa faqat Davlat soliq xizmati organlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlariga beriladi. Davlat soliq xizmati organlari davlat statistika, axborot, arxiv, ma’lumotnomalar berish va boshqa tashkilotlari tomonidan soliq to‘lovchilar to‘g‘risida ma’lumotlarni bergenlik uchun xizmat (ish) haqi to‘lashdan ozod etiladi.

Soliq to‘lovchilar ushbu Kodeksda va boshqa qonun hujjatlarida o‘z zimmalariga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradilar.

**Surishtiruv departamentining huquqlari.** Soliq xizmatining surishtiruv organlarining huquqlari O‘zR «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonunda (1997-yil 29-avgust), O‘RMJTK va JPK larda belgilangan.

**Ular quyidagilardan iborat:**

- soliq sohasida amalga oshirilgan tekshiruv materiallarini tekshirib chiqib, surishtiruv va tergov o‘tkazib, ular asosida ma’muriy yoki jinoiy chora ko‘rilishi (rad etilishi) haqida xulosa rasmiylashtiradi;

• O'RMJTK va O'RJP da belgilangan qonun asosida sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha tegishli ma'muriy chora ko'riliши (rad etilishi) yoki jinoyat ishi qo'zg'atilishi (rad etilishi) haqida qaror qabul qiladi;

• soliq sohasida huquq buzilishi holatlarining kelib chiqish sabablarini bartaraf etilishi bo'yicha surishtiruv organlari tomonidan tavsyanomalarning bajarilishini talab qiladi;

• soliq sohasida huquq buzilish holatlarining kelib chiqishiga daxldor mansabdar shaxslarni surishtiruv va tergov jarayonida vaqtinchalik ushlab turishi mumkin;

• Davlat soliq xizmatining funksional tuzilmalari xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv materiallaridagi yo'l qo'yilgan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish borasida tavsyanoma taqdim etadi;

Jinoyat ishi qo'zg'atilgan va huquqni muhofaza etish organlariga jo'natilgan tekshiruv materiallari bo'yicha tegishli organlar tomonidan chora ko'riliшини nazorat qiladi.

#### **Surishtiruv va tergov ishlarini yurituvchi departament soliq xizmati xodimlarining funksiyalari:**

1. Taftish yoki tekshiruvlar natijasida rasmiylashtirilgan hujjatlar to'plamini ko'rib chiqish, dalolatnoma va unga ilova etilgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini, soliq sohasida huquq buzilish alomatlарining to'g'ri aniqlanganligini va ularni tegishli hujjatlar, hisob-kitoblar hamda ashovyiy dalillar bilan tasdiqlanganligini tekshirib ko'rish.

2. Soliq sohasidagi huquq buzilish holatlari bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirish, qaror qabul qilish va uni tasdiqlash uchun surishtiruv organining boshlig'iga taqdim etish.

3. Soliq sohasida huquq buzilishlari bo'yicha gumondor mansabdar shaxslarni tergov qilish.

4. Soliq sohasida huquq buzilish oqibatida davlat budgetiga to'lanmagan moddiy zararni undirish choralarini ko'rish.

5. Soliq sohasida huquq buzilishining kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ularning bajarilishini ta'minlash haqida xo'jalik subyektlarining rahbariga tavsyanoma taqdim etish va ularning bajarilishini nazoratga olish.

6. Soliq sohasida huquq buzilish alomatlari va ularning kelib chiqish sabablarini bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plab borish.

7. Soliq qonunchiligiga ta'sir ko'rsatmagan jinoiy huquqbuzarliklar bo'yicha rasmiylashtirilgan tekshiruv materiallarini ro'yxatga olish va ularning harakatini nazoratga olish.

#### **Surishtiruv va tergov yuritish departamenti xizmatining asosiy vazifalari**

Funksional bo'lim xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv materiallari bo'yicha surishtiruv va tergov o'tkazib, qonun ustuvorligida xulosa va qaror chiqaradi.

Soliq qonunchiligining buzilishiga sababchi bo'lgan xo'jalik subyektlarining mansabdar shaxslariga va jismoniy shaxslarga nisbatan belgilangan ma'muriy yoki jinoiy ishlarining bajarilishini nazorat qiladi.

Tekshiruv materiallari bo'yicha rasmiylashtirilgan ma'muriy va jinoiy ishlarni ro'yxatga oladi va tahlil qiladi.

Soliq to'lovchilar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablarini aniqlash, oldini olish va ularning sodir bo'lishiga daxldor omillarni bartaraf etish choralarini ko'radi.

Soliq siyosatini ro'yogha chiqarish va takomillashtirilishini amalga oshradi, targ'ibot va amaliy tadbirdarda faol qatnashadi.

Soliq sohasida huquqbuzarliklar haqidagi ariza, xabar, tekshiruv materiallari hal etish, ular yuzasidan surishtiruv yuritish usuli va uslubini o'zlashtirish borasida, sud, Prokratura, IIB tergov xizmati xodimlari ishtirokida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etadi.

**Surishtiruv organi boshlig'i quyidagi** masalalarda protsessual qarorlar ni shaxsan qabul qilish yoki surishtiruvchining chiqargan qarorini tasdiqlash vakolatiga ega:

- jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ishini qo'zg'atishni rad etish;
- olib qo'yish, tintuv o'tqazish, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalar orqali olib boriladigan so'zlashuvni eshitish;
- gumondor va guvohlarni majburiy keltirish;
- mol-mulkni xatlash;
- jinoyat ishini taalluqliligi bo'yicha tergovga yuborish.

Surishtiruv organi boshlig'ining quyidagi qarorlari prokuror tomonidan tasdiqlanishi zarur:

- tintuv o'tqazish;
- telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalar orqali olib boriladigan so'zlashuvni eshitish.

**Surishtiruv yurituvchi shaxs:**

- soliq sohasida huquqbuzarlik haqidagi ariza, xabar va tekshiruv materiallari yuzasidan tekshiruv tashkil etib, surishtiruv yuritadi, uning yuzasidan protsessual hujjatlar rasmiylashtiradi va qaror qabul qiladi;
- ishlab chiqarishdagi jinoyat ishlari yuzasidan har tomonlama, to'liq va xolisona ravishda zaruriy tergov harakatlarini bajaradi;
- qonun bilan belgilangan tartibda keltirilgan mulkiy zararni to'liq undirish choralarini ko'radi;
- soliq sohasida huquqbuzarliklarni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlab, ularni bartaraf etish to'g'risida surishtiruv organi boshlig'iga takliflar kiritadi;
- surishtiruv protsessual qonun talablariga rioya etilgani holda, sifatli va muddatida yuritishiga, uning yuzasidan qonuni va asoslantirilgan protsessual qaror qabul qilishda shaxsan javob beradi;
- qo'zg'atilgan jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv yuritishga kirishadi va bu haqda darhol prokurorni xabardor qiladi;

• jinoyat ishini taalluqliligi bo'yicha tergovga yuborish haqida qaror chiqaradi;

• tergovchi yuritayotgan ish bo'yicha uning ayrim tergov va qidiruv harakatlari o'tqazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajaradi, tergovchiga tergov harakatlari bajarishda ko'maklashadi.

Davlat soliq xizmati tuzilmalarining rahbarlari qo'l ostidagi xodimlari tomonidan surishtiruv organining topshiriqlari ko'rsatmalarini o'z vaqtida sifatli va belgilangan muddatda ijro etilishini ta'minlaydilar va nazoratga oladilar.

**Soliq sohasidagi huquq buzilishlariga qarshi** tezkor kurashishi, hududiy boshqarmasining tekshiruv hujjatlari bo'yicha esa uning boshliqlari (boshliq o'rinnbosari) tomonidan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish ko'rib chiqish natijasida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

1. Ma'muriy jazo qo'llash haqida.

2. Ish yuritishni tugatish to'g'risida.

**Davlat Soliq organlari faoliyatida ma'muriy javobgarlik.** Ma'muriy javobgarlik — yuridik javobgarlik turi bo'lib, vakil qilingan organ yoki mansabdor shaxsning qonunbazarlik qilgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorrasini qo'llashda ifodalananadi.

Ma'muriy javobgarlik, umuman, yuridik javobgarlikka xos bo'lgan belgilarga egadir. Shu bilan birga u bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lib, ular ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning boshqa turlaridan ajratib turadi.

**Davlat Soliq organlari ko'rib chiqadigan qonunbazarlik uchun ma'muriy javobgarlikning xususiyatlarini hisobga olgan holda ana shu belgilarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:**

1. Ma'muriy javobgarlik jinoiy javobgarlikdan farqli o'laroq, faqat O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilangina emas, balki Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarning qarorlari bilan (jamoat tartibini saqlash masalalari, agar bu masalalar MJK bilan tartibga solingen bo'lmasa, shuningdek tabiiy ofatlar va epidemiyalarga qarshi kurash masalalarida — MJK 56-moddasi) belgilanadi.

2. Ma'muriy huquqbazarlik, ya'ni shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aylbi (qasddan yoki ehtiyoitsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy javobgarlik uchun amaliy asos bo'ladi (MJK 10-moddasi). Ushbu ta'rifda ma'muriy huquqbazarliklarning umumiyo obyekti ko'rsatilgan. Davlat Soliq organlari ko'rishga vakil qilingan huquqbazarlik obyekti soliq solish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi, shuningdek tadbirkorlik sohasidagi munosabatlardir.

3. Ma'muriy huquqbazarliklar uchun ma'muriy jazolar nazarda tutilgan. Ularning ba'zilari jinoiy fuqaroviylar mehnat huquqining normalarida belgilangan sanksiyalar bilan bir xil nomlanishga ega, lekin miqdori va qo'llanish tartibi bilan ajralib turadi.

4. Ma'muriy jazoning qo'llanilishi sudlanishga va ishdan bo'shatishga olib bormaydi. Basharti, ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbazarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilgan deb hisoblanadi (MJK 37-moddasi).

Ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning boshqa turlaridan ajratib turadigan ayrim farqlar ana shulardan iborat bo'lib, davlat soliq organlarning qonunlarni qo'llash faoliyatida hisobga olish zarur.

**Soliq qonunchiligidagi moliyaviy sanksiyalar.** Moliyaviy sanksiyalar sifatida jismoniylar va huquqiy shaxslarga nisbatan quyidagi jazolar qo'llanilishi mumkin. Jumladan:

• Soliqdan yashirilgan daromadni, tegishli hollarda uning ikki barobar miqdordagi summani davlat daromadiga tortib olish.

• Jarimalar solish.

• Penalar undirish.

• Soliq qonunchiligidagi buzilishiga sabab bo'lgan predmetlarni muddodara qilish.

Moliyaviy sanksiyalarini qo'llash tartiblari va muddatlari soliq kodeksining «**Moliyaviy jazo choralarini**» deb nomlanuvchi 135-moddasida ko'rsatib o'tilgan. **Moliyaviy sanksiyalarini qo'llash**, qilingan qonunbazarliklarga nisbatan turli xil bo'ladi. Jumladan:

1. Yuridik shaxslarning soliq organida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovashi quyidagi miqdorda jarima solishga olib keladi;

• agar faoliyat 30 kungacha amalga oshirilgan bo'lsa — eng kam ish haqining 50 barobari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olgan daromadning 10 % dan kam bo'limgan miqdorda;

• agar faoliyat 30 kundan ortiq muddatda amalga oshirilgan bo'lsa — eng kam ish haqining 100 barobari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olingan daromadning 50 foizidan kam bo'limgan miqdorda.

2. Daromad yashirilgan taqdirda soliq to'lovchidan yashirilgan daromadning butun summasi va yana shuncha miqdorda jarima undiriladi. Soliq solinadigan boshqa obyektlar yashirilgan taqdirda soliq to'lovchidan yashirilgan soliq solish obyekti uchun olinadigan soliq summasi va yana shuncha summa miqdorida jarima undiriladi. Soliq to'lovchi yuqoridagi xatti-harakatlarni moliyaviy chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil ichida takroran sodir etgan taqdirda undan tegishli summa va yana shu summaning ikki barobari miqdoradi jarima undiriladi.

3. Soliqlar va yig'imiylarni hisoblab chiqarish va to'lash zarur bo'lgan deklaratsiyalar, hisob-kitoblar va hisobotlar taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki belgilanmaganlik shaklida taqdim etganlik uchun soliq to'lovchidan to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun tegishli summaning bir foizi miqdorida, biroq tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblanib chiqarilgan to'lovlar chegirilib tashlangan holda

belgilangan to'lov muddatiga tegishli to'lov summasining o'n foizidan ko'p bo'Imagan miqdorda jarima undiriladi.

4. Buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki uni belgilangan tartibni olib borilmaganligi, soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblarning buzilishiga olib keladigan tarzda buxgalteriya hisobini olib borish, buzgan holda yuritganlik uchun soliq to'lovchidan qo'shimcha hisoblab chiqarilgan summaning o'n foizi miqdorida jarima undiriladi.

5. Faoliyat turlari bilan litzenziyasiz shug'ullanlanganlik uchun shu faoliyatda olgan butun daromad (foyda) va yana shu miqdoda jarima undiriladi;

6. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar hisob-kitob aks ettirmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish operatsiyalarini o'tkazganligi uchun ulardan ana shu tovarlar qiyati miqdorida jarima undiriladi.

7. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha to'lov muddatini o'tkazib yuborgan har bir kun uchun 0,7 % miqdorda pena undiriladi, to'lov kuni ham shunga kiradi. Pena undirish soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8. Schot-fakturalar belgilangan tartibda rasmiylashtirilmaganligi uchun realizatsiya qilingan tovarlar summasidan 10 % miqdorida mol yetkazib beruvchi hisobidan undirib olinadi.


Soliq to'lovchi soliq haqidagi qonun hujjatlarini bir necha bor buzgan taqdirda har bir qonunbuzarlikka nisbatan alohida moliyaviy jazo chorralari qo'llaniladi.

### Nazorat savollari:

1. Soliq siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq islohotlarini kim o'tkazadi?
3. Soliq siyosati kim tomonidan o'tkaziladi?
4. Soliq tizimini isloh qilishning qanday yo'nalishlari mavjud?
5. Soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga qanday ta'siri bor?
6. Iqtisodiy o'sishda qanday soliq mexanizmidan foydalilanadi?
7. Soliq nazariyasining rivojanish asoslari nimalardan iborat?
8. Soliq nazariyasining rivojanish bosqichlaridagi soliqqa tortish g'oyalari nimalardan iborat?
9. Iqtisodchi olimlarning soliq bo'yicha nazariyalari deganda nimani tushunasiz?
10. Platon va Aristotelning soliqqa tortish haqidagi nazariyalari asosida nimalar yotadi?
11. Adam Smitning soliqqa tortish nazariyasini soliqqa tortishning qaysi tamoyilari e'tibor bergan?
12. Soliqqa tortishning budjetlashtirish nazariyasining mohiyati nimadan iborat?
13. Rim imperiyasi soliq tizimining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
14. Iqtisodchi olimlarning soliq bo'yicha nazariyalari deganda nimani tushunasiz?

quyidagi guruqlarga bo'lgandi shaxsiy daromaddan olinadigan soliq turlari, toshishdan teslan uchun belgilangan hisob-kitoblar chiqarilishi yoki jayonning nayansiqa qarsh tizradigan so'yleti, moliyaviy tajribalar asosan olinadigan soliq turlari (foytal, qaytib).

### Bojaxona sohasini takomillashtirish yo'llarida ishlataladigan tadbirlar va bojlar guruhi



*3-bob.*

## IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMALLASHTIRISH

### 1. Xalqaro soliq siyosati

Xalqaro iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish deb xo'jalik yurituvchi shaxslarning ikki yoki undan ko'p davlatlardagi faoliyatlaridan olgan daromadidan, mulkidan va boshqa soliq obyektlaridan ikki davlat soliq kodeksiga asosan 2 marta olinadigan soliqlarga va soliq olish jarayoniga aytildi.<sup>1</sup>

Rivojlangan davlatlarning asosiy daromad keltiruvchi manbayi xalqaro iqtisodiy faoliyatdan olinadigan soliqlar va tushumlar hisoblanadi. Albat-ta, davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirsagina bunday manbalarga ega bo'lishi mumkin. Bu omilli soliqlar, to'lovlar va yig'imlarning optimal va ikkiyoqlama samarali bo'lishini talab qiladi.

Davlatlarning ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlantirish, investitsiya siyosatining to'g'ri hal qilinishini ta'minlash, ishbilarmonlikni rag'batlantirishda soliq tushumlari asosiy o'rinni egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda moliya tizimida taqsimotning vujudga keli-shida, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda milliy soliq tizi-mining ahamiyati kattadir. Milliy soliq tizimi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda asosiy kafolat vazifasini bajaradi.

Davlatlararo aloqalarning yaqinlashuvi har xil iqtisodiy guruhlar va uyushmalarning tashkil topishi, soliq tizimining ixtisoslashiga olib kelishi bilan bir qatorda xalqaro muomalalarni xalqimizda uning ravon va moyilik darajasini oshirishga hamda mehnat, kapital va sarmoya bo'yicha bo'ladigan soliq siyosatini to'g'ri hal qilishga imkon yaratadi.

Rivojlangan davlatlarda foydadan olinadigan soliq stavkalari 10 % dan\* ortmaydi, chunki bu stavka iqtisodiy mexanizmga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblanadi. Mahalliy soliqlar tarkibi ayrim rivojlangan davlatlarda har xil stavkada bo'lib, 30 % dan (Yaponiya) 60 % gacha (AQSH) o'zgargan.

Xalqaro faoliyatni soliqqa tortishda bir necha soliq turlari, tizimlari va uslublaridan foydalanish hamda shaxsga ikki davlat soliq tizimi ham qo'llanilishi mumkin.

Xalqaro soliq tizimida<sup>2</sup> ishlatalidigan barcha soliqlarning turlari maxsus guruhlarga bo'linadi. Bu soliq turlari soliqni to'lash manbayiga qarab

<sup>1</sup> T. Toshmurodov. «Soliqlar va soliqqa tortish». Toshkent, «Mehnat» nashriyoti, 2003-yil, 301-bet.

<sup>2</sup> Jahon soliq koddeksi, Garvard universitetining professorlari tomonidan tuzilgan va YUNESKO tomonidan rivojlanayotgan davatlarga soliq kodeksi tuzishda foydalanish tavsiya qilingan.

quyidagi guruhlarga bo'linadi: shaxsiy daromaddan olinadigan soliq turlari, sotishdan tushgan pul tushumidan olinadigan soliqlar; ishlab chiqarish jarayonining natijasiga qarab olinadigan soliqlar, moliyaviy natijalrga asosan olinadigan soliq turlari (foyda, daromad).

Xalqaro faoliyat davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga bog'liq bo'ladi. Xalqaro faoliyatni yurgizishda, birinchi navbatda, quyidagi davlatlarning siyosiy yo'nalishiga amal qilinadi (jadvalga qarang).

#### Xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ko'ra qabul qiluvchi davlatlar siyosatining yo'nalishlari<sup>1</sup>

Tashqi savdo	Texnologiya almashinivi	To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari
I. Davlatdan olib chiqish a) tayyor mahsulotlar eksporti (+)	Tovar va xizmatlar eksportini kengaytirishga yordam beradigan texnologiyalar eksporti (+)	Milliy tovar va xizmatlar bozorni kengaytirish (+)
b) Komponent va yarim tayyor mahsulotlar eksporti (?)	Texnologiyalar eksporti (?)	Milliy korxonalarни xomashyo bilan ta'minlash (+)
d) mashina va uskunalar eksporti (?)	Chet el investorlarining bozorini kengaytiruvchi texnologiyalar importi (-)	Korxona samaradorligini oshirish (?)
II. Davlatga olib kirish a) tayyor mahsulotlar importi (+)	Milliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologiyalar importi (+)	Chet el investorlarining bozorini kengaytirish (-)
b) komponent va yarim tayyor mahsulotlar importi (+)	Milliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologiyalar importi (+)	Tabiiy resurslarni qazib olish va foydalanish
d) mashina va uskunalar importi (+)		Korxona samaradorligini oshirish (+)

To'g'ri soliqlar soliq to'lovchilarning o'zidan va ular faoliyatining natijasiga qarab olinadi. Bu soliqlarning mohiyati boshqa o'quv qo'llanmalarda batafsil ifodalangan. Bu soliq turlari davlatlar bo'yicha har xil stavkalarda olinadi. Masalan progressiv soliq «shkala»lari Fransiyada 10 % dan 56,8 % gacha, Germaniyada 19 % dan 53 % gacha, Ispaniyada 20 % dan 56 % gacha, Yaponiyada 10 % dan 50 % gacha. AQSHda 15 % dan 33 % ishlatalidi.<sup>2</sup> Ayrim Yevropa davlatlarida «Qo'shilgan qiymat» solig'inining stavkasi har xil bo'lib, 15 % dan (Ispaniya, Germaniya) 25 % gacha (Daniya, Shvetsiya) belgilangan.

Soliq to'lash har bir huquqiy shaxslar uchun alohida tuziladi va xalqaro soliq shartnomalari soliqqa tortish yo'llarini belgilaydi. Har bir davlat o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatini ma'lum siyosat orqali amalga oshiradi. Bu siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> T. Toshmurodov. «Soliqlar: izohli lug'at», Toshkent, «Mehnat» nashriyoti, 2003-yil, 187-bet.

<sup>2</sup> Налоги в системе международных экономических отношений (Жук Н. Международные финансы, Минск, БГЭУ, 2001 г., 65 с.)

Yuqoridagilardan tashqari, xalqaro iqtisodiy faoliyatni yurgizish xalqaro menejerlarning talablariga ham ancha bog'liq.

Qabul qiluvchi davlatlarning iqtisodiy siyosati<sup>1</sup> xalqaro iqtisodiy faoliyatni yurgizishda ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

**Qabul qiluvchi davlatlarda xalqaro menejerlar tomonidan biznes to'sqinliklaridan o'tish yo'llari:**

Chet el biznesining cheklantirish turlari	Muammolarni hal etish yo'llari
Bojxona to'soqlari Qo'shma korxona va chet el doiralarining mahsuloti tarkibida mahalliy komponentlar bo'lishining talabi Davlat buyurtmalarga imkoniyatni cheklantirish	Qabul qiluvchi davlatda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil etish. Maxalliy firmalar bilan qo'shma korxonalarining tashkil etilishi. Mahalliy firmalar subpostavkalariga kontrakt tuzish. Qimmatbaho tovar va xizmatlarni eksport qilishga o'tish (eksport kvotalarini kiritgan holda)
Qabul qiluvchi davlatda chet el firmalarining mulki va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni shakllantirish	Mahalliy firmalar bilan qo'shma korxonalarini tashkil etish Mahalliy firmalar bilan litsenziya va franchayzing bitimlar tuzish Mahalliy firmalar bilan texnologiya almashishi va NIOKR korporatsiyasi
Chet el mulkini milliylashtirish xavf-xatari	Mahalliy firmalar bilan korporatsiya
Bosh kompaniyada yoki qabul qiluvchi davlatda yuqori soliqlar	Sarmoyani chegaradan o'tkazish. Mahalliy agentlar orqali savdo qilish

Xalqaro menejerlar davlat miqyosida boshqa davlatlardan kelgan yuridik va jismoniy shaxslarni faoliyat yurgizishiga qarab, ularga ruxsat beradi va soliq turlarini belgilaydi.

## 2. Ikkiyoqlama soliqqa tortishni optimallashtirish yo'llari

Xalqaro faoliyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil ikki davlat soliq tizimiga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlarning daromadidan bordaniga ikki davlat tomonidan soliq olinishi hisoblanadi. Hozirgi soliqqa tortish tizimida bir davlat miqyosida ham, xorijiy investorlarni sof daromadini o'z davlatiga olib ketishda ham olinadigan to'lov hisoblanadi.

Davlat qonuniga asosan ishlatilayotgan yo'riqnomaga asosan xorijiy biznesmen sof foydasini bir davlatdan ikkinchi davlatga olib borish va davlatda yangi daromad sifatida soliq olish jarayoni xalqaro faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim hollarda xorijiy investorlar tomonidan olingan foydani qayta investitsiya qilish maqsadida ayrim davlatlar olib chiqib ketadigan valutalardan maxsus to'lovlar joriy qilinadi. **Bu tadbirlarni ham davlat miqyosida amalga os-hirishda O'zbekiston Respublikasida maxsus shartnomalardan foydalananadi.**<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Т. Ташимуратов. «Международный опыт налогообложения», Ташкент, Налоговая Академия РУз., 2002 г., 438 стр.

<sup>2</sup> T. Toshmurodov. «Xalqaro iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish», Toshkent, O'zR Soliq Akademiyasi, 2002-y. 87-bet.

Davlatlar nomi	Qo'l qo'yilgan vaqt	Kuchga kirgan vaqt
1. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi	15.10.93-y.	10.06.94-y.
2. Hindiston	29.07.93-y.	25.01.94-y.
3. Rossiya	02.03.94-y.	27.07.95-y.
4. Ukraina	10.11.94-y.	13.07.95-y.
5. Belarus	22.12.94-y.	11.01.97-y.
6. Polsha	11.01.95-y.	29.04.95-y.
7. Moldova	30.03.95-y.	28.11.95-y.
8. Pokiston	22.05.95-y.	12.09.96-y.
9. Turkmanistan	16.01.96-y.	27.11.96-y.
10. Vietnam	28.03.96-y.	16.08.96-y.
11. Fransiya	22.04.96-y.	
12. Turkiya	08.05.96-y.	30.09.97-y.
13. Ozarbayjon	27.05.96-y.	02.11.96-y.
14. Gruziya	28.05.96-y.	20.10.97-y.
15. Qozog'iston	12.06.96-y.	21.04.97-y.
16. Rumiiniya	06.06.96-y.	17.10.97-y.
17. Xitoy	03.07.96-y.	03.07.96-y.
18. Indoneziya	27.08.96-y.	11.11.98-y.
19. Belgiya Qirolligi	14.11.96-y.	08.07.99-y.
20. Qирг'изистон	24.12.96-y.	17.03.2000-y.
21. Gretsiya	01.04.97-y.	15.01.99-y.
22. Luksemburg	02.07.97-y.	02.09.2000-y.
23. Malayziya	06.10.97-y.	10.08.99-y.
24. Koreya	11.02.98-y.	25.12.98-y.
25. Finlandiya	09.04.98-y.	07.02.99-y.
26. Latviya	03.07.98-y.	23.10.98-y.
27. Isroil	15.09.98-y.	09.03.99-y.
28. Tailand Qirolligi	23.04.99-y.	21.07.99-y.
29. FRG	07.09.99-y.	14.12.2001-y.
30. Misr	21.09.99-y.	
31. Kanada	17.06.99-y.	14.09.2000-y.
32. Chexiya	02.03.2000-y.	15.01.2001-y.
33. Avstriya	14.06.2000-y.	01.08.2001-y.
34. Italiya	21.11.2000-y.	
35. Portugaliya	14.09.2001-y.	
36. Niderlandiya	18.11.2001-y.	
37. Yaponiya (Ittifoq kelishuvi)	18.01.1986-y.	27.11.1986-y.
38. FRG (Ittifoq kelishuvi)	24.11.1981-y.	15.06.1983-y.
39. Slovakiya		04.10.97-y.
40. Mongoliya		20.09.95-y.
41. Birlashgan Arab Amirliklari		18.02.98-y.
42. Armaniston		27.02.98-y.
43. Bolgariya		02.02.99-y.
44. Shvetsariya Konfederatsiyasi		29.03.2000-y.

O'zbekiston Respublikasi ikkiyoqlama soliqqa tortishdan ozod bo'lish maqsadida chet el mamlakatlari bilan tuzgan shartnomalari yuqoridagi jadvalda ifodalangan.<sup>1</sup>

O'zbekiston fuqarolarining yuqoridagi davlatlardagi iqtisodiy faoliyati ikki marta soliqqa tortilmaydi. Soliq qonunlariga amal qilish borasida o'zaro yordam ko'rsatish va hamkorlik qilish haqida yuqorida qayd etilgan davlatlar bilan shartnoma tuzilgan. Soliq qonunchiligini buzishga qarshi kurash borasida mahsulot ayirboshlash va hamkorlik qilish haqida yuqoridagi tuzilgan shartnomalarga qarab olingan.

Ikkiyoqlama soliqqa tortishni optimallashtirish maqsadida tuzilgan shartnomalar O'zR ning xo'jalik yurituvchi subyektlari va chet el sarmoyadorlarining davlatimizda faoliyat yurgizish natijalarini yanada rivojlantirish jarayoniga ijobjiy ta'sir qiladi. Bu hujjatlarda ikkiyoqlama soliq to'lamaslikni amalga oshirish maqsadida, boshqa davlatlardan kelgan investorlarni faoliyat yurgizish uchun mumkin bo'lgan soliq shartlari davlatlar o'rtasida kelishilgan. Albatta, ikkiyoqlama soliq to'lash murakkab jarayon bo'lib, bu muammo DSQ tomonidan ko'p tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

### 3. Xorijiy shaxslar faoliyatini soliqqa tortish

Soliq to'lash maqsadlarida xorijiy yuridik shaxsning doimiy muassasasi deganda O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida vakillik funksiyalarini amalga oshirayotgan yuridik shaxslar orqali daromad olish faoliyati amalga oshirishi tushuniladi. **Yuridik shaxs** — norezidentning doimiy muassasasi daromadlar solig'iga qo'shimcha ravishda ushbu doimiy muassasaning xorija o'tkazadigan daromad (foyda) dan 10 % miqdorida soliq to'laydi.

Xorijiy yuridik shaxslar tomonidan xorijda to'langan soliq summalarini O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan O'zbekiston Respublikasida to'langan daromad (foyda) solig'i summasini hisob-kitob qilish chog'ida hisobga olinmaydi.

Chet ellik yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida daromad (foyda) oladigan xorijiy yuridik shaxsning soliq solinadigan bazasini hisoblash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

**Bevosita usul;** doimiy muassasaning O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan olgan daromadi (foyda) soliqqa tortiladi, u O'zR ning Soliq Kodeksiga muvofiq jami daromad bilan unga doir, xorijiy yuridik shaxsning O'zR da faoliyatni amalaga oshirish bilan bevosita bog'liq chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> T. Toshmurodov. «Xalqaro iqtisodiy faoliyatini soliqqa tortish», Toshkent, O'zR Soliq Akademiyasi, 2002-y. 87-bet.

<sup>2</sup> T. Toshmurodov. «Xalqaro iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish», Toshkent, Soliq Akademiyasi, 2002-y. 87-bet.

**Hisob-kitob usuli:** soliq solinadigan daromadni (foydan) belgilashda quyidagi xususiyatlarni hisobga olish kerak.

a) xorijiy yuridik shaxs daromadi (foydasining) O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan olingen qismigina soliqqa tortiladi. Soliq solish maqsadida xorijiy yuridik shaxsning faqat mazkur xorijiy yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan va O'zbekiston Respublikasida mahsulot (ishlar, xizmatlar) xaridi bilan, yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra, u O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini kesib o'tishga O'zbekiston Respublikasiga mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportiga doir operatsiya bilan bog'liq tashqi savdo operatsiyalaridan olingen daromadi (foydasini) hisobga olinmaydi:

b) xorijiy yuridik shaxs o'z faoliyatini nafaqat O'zR da amalga va bundan O'zR dagi doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan faoliyatidan olinadigan daromadni belgilash imkonini beradigan alohida hisob-kitob yuritmasa, soliq solinadigan daromad (foyda) summasi xorijiy yuridik shaxsning rentabellik darajasidan kelib chiqib, soliq to'lovchi soliq organi bilan kelishilgan hisob-kitob asosida belgilanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxs — rezident O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kabi jismoniy shaxslar daromadidan soliq to'laydi.

**Norezident** — chet ellik jismoniy shaxsning, to'lov qayerda to'langanidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadidan soliq to'laydi. **Norezident** — jismoniy shaxslarga soliq solish maqsadida O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan norezident yoki doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan norezident deb qaraladi.

Soliq solish maqsadida doimiy muassasa deganda O'zbekiston Respublikasi hududida daromad olish uchun har qanday yuridik shaxs orqali, shu jumladan, agar O'zbekiston Respublikasi ishtiroy etayotgan xalqaro shartnomalar va bitimlarda boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida vakolat vazifalarni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar orqali faoliyatini amalga oshirishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshirayotgan norezident — jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi manbalardan oladigan daromadlaridan, bunday daromadlar xususida yuqorida ko'zda tutilgan chegirmalar miqdori kamaytirilib, jismoniy shaxs daromadidan soliq to'lovchi hisoblanadi.<sup>1</sup>

Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan norezident jismoniy shaxsning daromadidan, shu daromad to'lanadigan manbada, agar bu manba O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lsa, hech qanday chegirmalar amalga oshirilmay soliq olinadi.

Tegishli xorijiy davlat bilan o'zaro kelishuv asosida O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarga nisbatan soliq undirish to'xtatilsa yoki cheklab qo'yilsa, chet ellik jismoniy shaxslardan soliq olish to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin.

<sup>1</sup> T. Toshmurodov. «Xalqaro iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish», Toshkent, O'zR Soliq Akademiyasi, 2002-y. 87-bet.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar o'tkazish chog'ida, bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'imlar to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi ishtirok etayotgan xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasida soliq to'lashdan qisman yoki to'la ozod qilinishi mumkin, jismoniy shaxs bu haqda tegishli shaklda ariza berishi mumkin.

Hisobot yili uchun soliq solinadigan daromad (foyda)ni hisoblashda soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadigan daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi deklaratasiyani rasmiy ravishda ma'lum qiladi. Soliq solinadigan daromad (foyda) ni hisoblashda qabul qilingan usulning Davlat soliq xizmati organlari bilan kelishilgan holda o'zgartirish mumkin. O'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan xorijiy yuridik shaxs doimiy muassasa orqali yillik buxgalteriya hisobotini topshirish uchun belgilangan muddatlarda doimiy muassasa joyleshgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyati turi to'g'risida hisobot, shuningdek, belgilangan shaklda daromad va xarajatlar to'g'risida deklaratasiya taqdim etadi. Kalender oy tugashiga qadar faoliyati to'xtatilganda ko'rsatilgan hujjatlar u to'xtatilishidan bir oy oldin taqdim etilishi kerak.

Davlat soliq xizmati organi daromadlar va xarajatlar to'g'risida deklaratasiya taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kun davomida xorijiy yuridik shaxsnинг daromad (foyda) solig'i summasini hisoblaydi va to'lov xabar nomasini yozadi, bunda soliqni to'lash muddati to'lov xabarnomasida uni yozish sanasi bilan bir oyda ko'rsatiladi. Hisoblangan soliq summasiga to'lovchiga berilgan shakl bo'yicha to'lov xabarnomasi beriladi. To'lov xabarnomasining koreshogi (bir qismi) shaxsiy hisob varaqlar kartochkasini yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Daromad (foyda) solig'i Davlat soliq xizmati organlari tomonidan milliy valuta — so'mda hisoblanadi va xorijiy yuridik shaxsnинг doimiy muassasi yoki xorijiy yuridik shaxsnинг o'zi tomonidan so'mda, to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

#### **Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqdan to'liq ozod etilgan soliq to'lovchilar:**

- xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a'zolari hamda konsullik muassasalarining mansabdar shaxslari, ularning o'zlarib bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'Imagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zlarib bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa

yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'Imagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

- xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;


- hukumatga qarashli bo'Imagan xalqaro tashkilotlarning mansabdar shaxslari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha.

Jismoniy shaxslarning imtiyozlarga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganida vujudga keladi.

#### **4. Xalqaro iqtisodiy faoliyatdan olingan soliqni taqsimlash tartibi**

Xalqaro faoliyat yurituvchi shaxs har qanday huquqiy va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda davlat ichidagi va tashqaridagi faoliyatiga, ya'ni boshqa davlatdagi soliqqa tortish bazalariga qarab amalga oshiriladi. Ular har bir davlat soliq kodeksidagi belgilangan to'lovlarni, yig'imlarni va soliqlarni to'laydilar. Agar ikki davlat o'rtasida maxsus soliqqa tortish bo'yicha shartnoma yoki xo'jalik yurituvchi shaxslar bilan alohida shartnomalar mavjud bo'lmasa, ikki tomonlama soliqqa tortish amalga oshiriladi. Ko'pchilik davlatlar xalqaro faoliyat yurgizuvchi shaxslar bilan alohida shartnoma tuzib, soliqqa tortish jarayonini oldindan kelishib olishadi.

Aksariyat davlatlarda xalqaro iqtisodiy faoliyat yurgizuvchi shaxslarning foydasini davlatlar o'rtasida taqsimlash va ularni soliqqa tortish tarbi quyidagicha amalga oshriladi (chizmaga qarang):



Bu chizmadan ko'riniib turibdiki, xo'jalik yurituvchi shaxsning chet eldag'i firmasi maxsus soliqlarni to'lab, qolgan foydani «Reinvestitsiya» qilishi mumkin va qaytarib o'z hukumatidagi tashkilotiga berishi mumkin. Lekin, chizmadan ko'riniib turibdiki, kirib kelgan va chiqib ketayotgan foyda ikki yoqlama ikki davlat tomonidan soliqqa tortilayapti. Ikki davlatda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi shaxs olgan foydasini O'zR da va chet davlatda taqsimlanishi chizmada ko'rsatilgan, lekin chizmadagidan boshqacha ham bo'lishi mumkin (agar maxsus shartnomasi bo'lsa). Xo'jalik yurituvchi firma o'z davlatida va chet davlatda olgan foydasini yuqoridagi chizma kabi taqsimlash samarali hisoblanadi. Xalqaro faoliyat yurgizish shart-sharoitlari davlatlarda har xil bo'lib, soliqqa tortish uslublari, soliq bazalari, soliq turlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Bojxona faoliyatini soliqqa tortishning jahon andozalari nimalardan iborat?
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatda qanday soliq va bojlar mavjud?
3. Tashqi savdo shartnomalariga qo'yiladigan xalqaro talablar bormi?
4. Tashqi savdoning rivojlangan davlatlarda ishlatalidigan shartnomalar turlarini bilasizmi?
5. Bosh mexanizmining asosiy elementlariga nimalarni kirkizish mumkin?
6. Bojxona bojlar deganda nimani tushunasiz?
7. Resurslarni tejashda bojning o'rnini qanday?
8. Bojxona qiymatini aniqlashning qanday usullarini bilasiz?
9. Qaysi yillardan boshqaruvning tarifsiz choralariga past e'tibor berila boshlandi?
10. Bojxona organlari huquqni himoya qilishda qaysi normativ — huquqiy hujjatlardan foydalanishadi?
11. Bojxona siyosati deganda nimani tushunasiz?
12. Boshqaruvning tarifli va tarifsiz uslublarining mohiyati nimada?



4-bob.

## XALQARO SAVDODAN OLINADIGAN BOJXONA BOJLARI

### 1. Boj mexanizmining elementlari

Boj mexanizmi va soliq mexanizmi iqtisodiy mexanizm tarkibiga kirib, ularning ma'nosi birinchi marta 1975-yil olimlar tomonidan chop etilgan.<sup>1</sup>

Xalqaro iqtisodiy faoliyatning boj to'lovchisi va soliqqa tortish barcha davlatlarga umumiy bo'lgan soliq turlarini undirish va jahon bo'yicha ham-maga birday to'lash majburiy bo'lgan to'lovchini olish, hozirgi davrda amalda bo'lgan huquqiy mavjud soliqlarni joriy qilish va xalqaro faoliyat ko'rsatayotgan subyektlardan soliq olish tartibiga rioya qilishga va bojxona orqali tovar va xizmatlarni olib o'tayotganda olinadigan bojlar mablag'i ini undirish jarayonini o'z ichiga oladi. **Xalqaro faoliyat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar** — ayrim davlatlar tomonidan joriy qilingan soliqlarni to'lash va xalqaro faoliyatdan kelib tushadigan tushumlarni undirish jarayoni ancha murakkab bo'lib, ularni yanada takomillashtirish zaruriyati ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Bojxona bojlarini va to'lovchisi tushunchasiga o'tishdan oldin bojxona ko'rsatkichlarining ayrim turlarining ma'nosini ko'rib o'tamiz.

**Boj** (arab. o'lpon, soliq ma'nosida) — qadimdan bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatga to'lanadigan yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga, viloyatdan viloyatga o'tish uchun, shuningdek, shahar va qishloq bozorlarida savdogarlardan olingan maxsus to'lov, o'lpon vazifasini bajarib kelgan. Boj oluvchi «tusqovul» deb atalgan. Hozirgi paytda boj bojxona chegarasidan olib o'tilgan har qanday tovar va transport vositasi uchun qonunda belgilangan stavkalar asosida undiriladigan maxsus to'lov.<sup>2</sup> Bojxona bojlarining import, eksport, mavsumiy va alohida (maxsus, kompensatsiya, dem-pingga qarshi) turlari mavjud<sup>3</sup> (**boj turlari** 75-ru betda berilgan).

**Boj tarifi** deb — bojxona chegarasidan olib o'tilishida iste'mol xususiyatlariga muvofiq, bir tizimga solingen tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan

<sup>1</sup> T. Tashmuradov. Международный опыт налогообложения, Т., Налоговая академия, 2002 г., стр. 448; Soliqlar: Izohli lug'at, T., «Mehnat», 2002-й., 187-бет.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Boj to'lovchisi «Bojxona tarifi to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga va boshqa qo'shimcha yo'riqnomalarga asosan amalga kiritilgan.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga asosan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston hududida va undan tashqarida faoliyat ko'rsatayotgan hamda O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashuvchilari sifatida ro'yxatdan o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el, xalqaro tashkilotlar tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari bo'lishlari mumkin.

boj to'lov stavkalariga aytildi. Boj tariflari har bir tovarning bojxona qiyomatiga nisbatan qo'llaniladi. Ular oddiy va murakkab tariflarga bo'linadi. Oddiy boj tariflarda mahsulotlar kelib chiqqan mamlakatidan qat'i nazar, ularga yagona stavkalarni belgilash ko'zda tutiladi. Murakkab boj tariflarda mahsulotga nisbatan bir necha boj stavkasi muayyan mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy vaziyat hisobga olinib va DBQ tomonidan chiqarilgan qo'shimcha yo'riqnomalarga ko'ra qo'llanishi mumkin.

**Boj** — ichki bozor, milliy sanoat va qishloq xo'jaligi manfaatlarini himoya qilish maqsadida ayrim tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan olinadigan pul yig'imlari, iste'mol soliqlari tarkibiga kiradi. Davlat ulardan iqtisodiy siyosatining vositasi sifatida foydalanadi. Bojlar import qilinadigan tovarlar bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash tovarlar bahosini tenglash-tirishga xizmat qiladi. Odatda, tovarlar bahosidan olinadi. Buning uchun ayrim hollarda maxsus mezonlar (og'irlik, hajm kabi) ham qo'llanishi mumkin.

Boj to'lovlar tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazishda, shuningdek, qonunda belgilangan boshqa holatlarda olinadigan to'lovlarning barcha turlari: bojlar, aksiz solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i, bojxona yig'imlari va jismoniy shaxslardan undiriladigan yig'imlar.

Bu to'lov va bojlarni undirishda bojxona organlari va postlari muhim ahamiyatga ega.

**Bojxona** — bojxona chegarasi orqali o'tkaziladigan, olib kelinadigan va olib chiqiladigan barcha yuk, tovarlar va transport vositalarining nazoratini amalga oshiruvchi, shuningdek, yuk egalaridan belgilangan tartibda bojlar va bojxona yig'imlari undiruvchi davlat muassasasi. Pochta jo'natmalari va jami yuklar, shu jumladan, mamlakat hududi orqali olib o'tkaziladigan (tranzit) yuklar ham bojxona organlari xodimlari tomonidan nazorat qilinadi. Odatda, bojxona chegara hududlarida xalqaro aeroportlar, temir yo'l stansiyalari, dengiz va daryo portlarida va boshqa joylarda tashkil etiladi.

Albatta, bojxona xodimlari chegaraga kelgan tovarning bojxona qiyamatini aniqlaydilar. Bojxona qiymati tovar yoki xizmatning chegaragacha olib kelish xarajatlarini o'z ichiga olib, ayrim yo'riqnomalarda bojxona bahosi ham deb ataladi.

**Bojxona bahosi** — olib kirilayotgan mahsulotning muayyan bir o'chov miqdoriga (kg, tonna, m. metr kub) nisbatan bojxona xodimlari tomonidan belgilangan qiymati. Bojxona qiymatining puldag'i ifodasi bojxona bahosi deyiladi.


**Bojxona brokeri** — o'zini vakil qilgan shaxs hisobidan va uning topshirig'iga binoan bojxona rasmiylashtiruviga oid amallarni hamda bojxona ishi sohasida boshqa vositachilik vazifalarini o'z nomidan bajarishga bojxona tashkiloti litsenziyasini olgan yuridik shaxs.

**Bojxona deklaratsiyasi** — chegaradan olib o'tiladigan tovarlar (eksport va import tovarlar, yuk-bagaj, qo'lda olib ketiladigan yuk, valuta, boshqa moddiy-ma'naviy boyliklar), transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar

qonun talablari asosida rasman qayd etilgan, bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yozma yoki og'zaki bayonot. Bojxona deklaratsiyasi belgilangan muddatlarda to'ldirilib, bojxona organlariga topshirilishi shart.

**Bojxona siyosatining** asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida samarali bojxona nazoratini amalga oshirishni hamda tovar ayirboshlashni tartibga solish, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va respublika ichki bozorini himoya qilish ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Demak, bojlar va to'lovlar yordamida davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshiriladi va iqtisodiy o'sishga bojlar va to'lovlarning miqdori va boxona organlarining harakati asosiy ta'sir qiladigan mexanizm bo'lib qolgan. Bu mexanizmning tarkibiga bojlar, to'lovlar, dempingga qarshi to'siqlar, bojxona organlarining ishi va tarifsiz boshqaruv jarayoni kiradi. Boj tarif mexanizmi tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy «indikatori» bo'lib, bojxonaning bir necha elementlari majmuasi hisoblanadi. Bu mexanizmni ayrim olimlar **«Boj mexanizmi»** ham deb atashadi, ya'ni bojlarni ko'paytirish va kamaytirish faqat iqtisodiyotga emas, siyosatga ham ta'sir qiladi. Bu elementlarning asosiyлari o'rtasidagi bog'liqlik va yaxlit mexanizm holatida ishslash qobiliyati quyidagi chizmada berilgan:



Boj mexanizmining asosiy elementlari.

**Boj mexanizmi** — davlat bojlarini tartibga solib, tashqi iqtisodiy foaliyatni rivojlantirish, bojxona qonunlari, tartibi, tarifi, boj to'lovlarini va boshqa asosiy elementlarining bog'langan holdagi harakati. U davlat miqiyosida bojxona to'lovlaridan tushgan tushumning o'sishi, tashqi savdo o'sishi bilan ifodalanadi.

Bojxona tizimini takomillashtirish va bojxona tariflarini muvofiqlash-tirish natijasida, iqtisodiy o'sishga va bojxona to'lovlar tushumining o'sishi boj mexanizmi orqali ro'yobga chiqadi. Boj mexanizmi tashqi iqtisodiy aloqalarni taribga solishda va davlatlar orasida savdo-sotiq jarayonini rivojlantirishda ishlatiladigan asosiy mexanizm bo'lib hisoblanadi. Boj mexanizmini bojxona ishida davlat budgetiga tushadigan mablas'ni ta'minlab beruvchi kuch va imkoniyatlarni ifodalaydi va rivojlangan davlatlarda ko'p yillardan beri bojxona sohasida samarali ishlatiladi.

Xalqaro savdo mustaqillik davrida yuqori sur'atlar bilan o'sayapti, eksport va import operatsiyalaridan albatta bojxona bojlari olinadi.

Ekspordda uzoq xorij mamlakatlarning salmog'i o'sib bormoqda. 2003-yilda ularning eksportdag'i ulushi 72 foizdan ziyodroqdir.

#### O'zbekistonning eksport hajmida rivojlangan mamlakatlар ulushi:

	Mamlakatlар	Ko'rsatkichlar %
1.	Buyuk Britaniya	10,5
2.	Shvetsariya	8,5
3.	Janubiy Koreya	5,0
4.	Turkiya	4,2
5.	Niderlandiya	4,1
6.	AQSH	3,7
7.	Italiya	2,4
8.	Belgiya	2,3
9.	Germaniya	1,0

O'zbekistonning tovarlarni eksportga chiqarish hajmi bo'yicha Rossiya, Shvetsariya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya davlatlari yuqori pozitsiyalarda turgan bo'lsa, qolgan rivojlangan davlatlardan Janubiy Koreya, Turkiya, AQSHga ham eksportga tovar chiqarish hajmi ortib bormoqda. Demak, qanday tovarni qaysi davlatdan sotib olish va sotish jarayonini boshqarish boj stavkasiga bog'liq ekan.

## 2. Bojxona bojlari va to'lovleri

**Boj to'lovleri** — tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasidan o'tishida, shuningdek, bojxona organlari tomonidan olinadigan to'lov larning barcha turlari. Hozir 30 ga yaqin bojxona yig'imlari mavjud. Bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov larga qu'yidagilar kiradi:

### 1. Davlat budjetiga o'tkaziladigan bojxona to'lovleri:

- Import boji O'zbekistonda (eksport bojini undirish 1997-yil. 10-oktabrdagi PF-1871ga ko'ra, 1997-yil 1-noyabrdan boshlab to'xtatilgan).
- Import tovarlaridan undiriladigan QQS.
- Import tovarlaridan undiriladigan aksiz solig'i.
- Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat maqsadida import qilinayotgan tovarlardan undiriladigan yagona bojxona to'ovi.
- Jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyoji uchun import qilinayotgan tovarlardan undiriladigan yigim.
- Uchinchi mamlakatda ishlab chiqarilgan, chegaradosh mamlakatlardan reeksport qilinib, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga tijorat maqsadida import qilinayotgan, nooziq-ovqat iste'mol tovarlaridan undiriladigan bojxona to'ovi.
- Bojxona ombori, erkin omor va boj olinmaydigan savdo do'konini ta'sis etish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)ni bergenlik va uning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig'im.
- Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha musodara qilingan tovarlarning sotilishidan tushgan mablag'larning 80 % (50 % respublika budjetiga, 50 % mahalliy budjetga).

- Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha undirilgan jarimalardan tushgan mablag'larning 85 % (50 % respublika budjetiga, 50 % mahalliy budjetga).

- Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha musodara qilingan chet el valutasidan tushgan mablag'larning 85 % (50 % respublika budjetiga, 50 % mahalliy budjetga).

### 2. Davlat bojxona qo'mitasining maxsus hisob raqamiga o'tkaziladigan bojxona to'lovleri:


- Tovarlarni bojxonada rasmiylashtirganlik uchun yigim (tranzit, davlat foydasiga voz kechish, vaqtincha saqlash, bojxona rejimlaridan tashqari 12 ta bojxona rejimlari bo'yicha).
- Tovarlarni tranzit bojxona rejimida rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- Egasi bojxona organi bo'lgan bojxona omborida tovarlar saqlaganlik uchun yig'im.
- O'ZR hududi bo'ylab barcha turdag'i transport vositalarida olib o'tilayotgan tovarlarni bojxona kuzatuviga organlik uchun yig'im.
- Dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun yig'im.
- Bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini bergenlik uchun yig'im.
- Bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini qayta rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- Bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha mutaxassis malaka attestatining amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig'im.
- Bojxona brokeri sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)ni bergenlik uchun yig'im.
- Bojxona brokeri sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)ni qayta rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- Bojxona brokeri sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)ning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig'im.
- Boj olinmaydigan savdo do'konini ta'sis etish uchun ruxsatnoma (litsenziya) berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im.
- Boj olinmaydigan savdo do'konini ta'sis etish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)ni qayta rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- Boj olinmaydigan savdo do'konini ta'sis etish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya) dublikatini bergenlik uchun yig'im.
- Erkin omborni ta'sis etish uchun ruxsatnoma (litsenziya) berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im.
- Erkin omor yoki bojxona omborini ta'sis etish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziya)ni qayta rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- Bojxona omborini ta'sis etish uchun ruxsatnoma (litsenziya) berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im.
- Bojxona hududida qayta ishslash uchun ruxsatnoma (litsenziya) bergenlik uchun yig'im.

- Bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash uchun ruxsatnomalar (litsenziya) beraganlik uchun yig'im.
- Bojxona tashuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar (litsenziya)ni beraganlik uchun yig'im.
- Bojxona tashuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar (litsenziya)ni qayta rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- Bojxona tashuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar (litsenziya)ning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig'im.
- Bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha mutaxassisni o'qitganlik uchun yig'im.
- Bojxona organlari tomonidan bojxona rasmiylashtiruvchi uchun mo'ljallanmagan joylarda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirganlik uchun yig'im.
- Yuridik shaxslar tomonidan import qilinayotgan naqd xorijiy valutani bojxonada rasmiylashtirganlik uchun yig'im.
- O'zRGA import qilinayotgan (vaqtincha olib kirilayotgan) transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish huquqini beruvchi guvohnomani beraganlik uchun yig'im.
- Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha musodara qilingan tovarlarning sotilishidan tushgan mablag'larning 10 %.
- Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha undirilgan jarimalardan tushgan mablag'larning 15 %.
- Bojxona sohasidagi huquqbazarliklar bo'yicha musodara qilingan chet el valutasidan tushgan mablag'larning 15 %.
- Erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda undirilgan xorijiy valutadagi bojxona yig'imlarining 85 % (ularni birjdadan tashqari bozordagi erkin kursda sotish sharti bilan).

Qonun hujjalarda boshqa bojxona to'lovleri ham belgilanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonunida boj tarifini shakllantirish va qo'llanish tartibini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlardan boj undirish qoidalari belgilangan. Qonunning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyoti bilan samarali integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iboradir.

Savdo iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoki qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi aniqlanmagan tovarlar uchun undiriladigan import bojining stavkalari ikki baravar oshiriladi, ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi tomonidan tarif preferensiyalari beriladigan hollar bundan mustasno.

**Davlat miyosida amaliyotda joriy qilinadigan boj turlari quyidagi chizmada ifodalangan (chizmaga qarang):**



Joriy qilingan bojlarning ma'nosini ko'rib chiqamiz:

**Maxsus bojlar** — o'xshash yoki bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududida O'zbekiston Respublikasidagi tovar ishlab chiqaruvchilariga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va shartlarda olib kirilayotgan bo'lsa, javob chorasi sifatida qo'llaniladi.


Tovarlar bojxona hududidan uning O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtida amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib chiqilayotgan bo'lsa, bunday olib chiqish O'zbekiston Respublikasining turdosh tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfi tug'ilsa, yoxud O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilari o'rtasida me'yoriy raqobat o'rnatilishiga to'sqinlik qilsa.

**Dempingga qarshi bojlar** — tovarlar bojxona hududida ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtida amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib kirilsa, agar bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasining tovar ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfini tug'dirsa, yoxud O'zbekiston Respublikasida tovar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa.

**Konfiskatsiya bojları** — O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytda bevosita yoxud bilvosita subsidiyalardan foydalilanigan tovarlar olib kirilsa, agar bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasining o'xshash tovarlar ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazish xavfi bo'lsa, yoxud O'zbekiston Respublikasida turdosh tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa.

**Mavsumiy bojlar** — vaqtincha mavsumiy tovarlar uchun yoki ayrim davlatlar uchun joriy qilingan boj to'lovleri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasida qayd etilgan. Bunda mavsumiy bojlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkor tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojlar belgilangan vaqtidan olti oy o'tgandan so'ng o'z kuchini yo'qotadi.


**Bojxona boji** — bu davlat pul yig'imi bo'lib, bojxona xizmatlari tomonidan u yoki bu turdag'i tovarlarning bojxona chegarasidan yuridik va jismoniy shaxslar deklaranti, bojxona brokerlari hamda tovari olib o'tuvchilar tomonidan harakatlantiriladigan vaqtida ulardan undiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqariladigan qarorlar asosida belgilanadi. «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonun asosida quyidagi chizmadagi boj shakllari qo'llaniladi.



**Mavsumiy bojlar** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkor tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalarini qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojlar ular belgilangan vaqtadan e'tiboran 6 oy dan ortiq amal qilishi mumkin emas.

**Maxsus bojlar** o'xshash yoki bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududiga O'zbekiston Respublikasidagi tovar ishlab chiqaruvchilarga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va tartibda olib kirilayotgan bo'lsa, himoya chorasi sifatida, shuningdek, boshqa davlatlar tomonidan qilinayotgan O'zbekiston Respublikasining huquqlarini cheklovchi va manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlarga javob chorasi sifatida qo'llaniladi. Ushbu bojlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har bir holat uchun maxsus komissiyaning xulosasiga binoan belgilanadi.

**Dempingga qarshi** bojlar quyidagi hollarda qo'llaniladi. Tovarlar bojxona hududiga ular olib chiqilgan davlatda ayni vaqtida amalda bo'lgan asl qiymatidan past narxda olib kirilsa, bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasidagi turdosh tovarlarni ishlab chiqaruvchilarga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfini tug'dirsa, yoxud O'zbekiston Respublikasida aynan tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa.



Boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foiz (%)larda hisoblanadigan advalor stavkalar.

**Misol:** Tadbirkor shaxs Belgiyadan tijorat maqsadida O'zbekistonga gilamlar olib kelmoqda, ushbu tovardan boj undirishimiz uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 31-maydagi 189-qaroridan gilam uchun belgilangan stavkani, ya'ni 30 % ni topamiz, bu — gilamning bojxona qiymatidan 30 % import boji undirilishini ko'rsatuvchi advalor stavkadir.

Tovarlar bojxona hududidan ularning O'zbekiston Respublikasidagi ayni vaqtida amalda bo'lgan asl qiymatidan past narxda olib chiqilayotgan bo'lsa, agar bunday olib chiqish O'zbekiston Respublikasining turdosh tovarlarni ishlab chiqaruvchilarga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfini tug'dirsa, yoxud O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilari o'rasisida me'yoriy raqobat o'rnatilishiga to'sqinlik qilsa.

**Demping** — tashqi bozorni egallash uchun tovari ishlab chiqarish xarakatlardan past (arzon) baholarda chetga eksport qilish va tovarlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon bahoda sotish, raqobatchini sindirish vositalaridan hisoblanadi.

**Kompensatsiya** — qoplash, rag'batlantirish yoki bir majburiyat to'lovini ikkinchisi bilan to'lash; biron narsa uchun to'lanadigan pul, haq, tovon, badal.

**Subsidiya** iqtisodiyotga budget orqali ta'sir etish vositalaridan biri bo'lib, qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratishdir. Shuningdek, u bahoni quvvatlashning samarali usuli hisoblanadi. Davlat baholar o'rasisidagi farqni pul yoki natura ko'rinishidagi yordam, nafaqa tarzda to'laydi. Boj stavklarining turlari. O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

Boj undiriladigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar.

**Misol:** Tadbirkor shaxs Germaniyadan «Mersedes-Benz»-600 (dvigatel hajmi 6000 kub sm) rusumli yengil avtomobilni O'zbekistonga olib kelmoqda. Ushbu avtomobilni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda, aksiz solig'i ini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarorida belgilangan, dvigatel hajmi 3000 kub sm dan yuqori bo'lsa, 1 kub sm uchun 3,1 AQSH dollarini miqdorida aksiz solig'i undirishni qo'llaymiz. Bu tovarning birligi uchun, ya'ni 1 kub sm dvigatel hajmi uchun 3,1 AQSH dollarida ko'rsatilgan stavka xos stavkadir. Bojning advalor hamda xos stavkalarini o'z ichiga oladigan aralash stavkalar. Misol: Yuqoridagi misolimizda ko'rsatilgan yengil avtomobilidan import bojini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 189-sonli qarorida ko'rsatilgan, dvigatel hajmi 3000 kub sm dan yuqori bo'lgan yengil avtomobillardan 30 %, 1 kub sm uchun 3,0 AQSH dollaridan kam bo'lmasdan stavkalar qo'llaniladi. Ushbu olingan stavkalarning qaysi birida bojning miqdori yuqori chiqsa, shu qiymat rasmiylashtirishda foydalaniлади. Ushbu olingan 30 % hamda 1 kub sm uchun 3,0 AQSH dollarini aralash stavkalardir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida «Boj tarifi to'g'risida»gi qonun hujjatlarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

Qonunda import va eksport boji, mavsumiy bojlar, maxsus bojlar dempingga qarshi bojlar, kompensatsiya bojlar, alohida turdag'i bojlar belgilangan bo'lib, O'zbekiston hududida hozirgi kunda asosan tovarlarga nisbatan import boji qo'llaniladi.

### 3. Bojxona bojlarini hisoblash va undirish tartibi

Import bojlarini undirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida, Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 27-avustorda 782-raqm bilan ro'yxitga olingan «Import bojlarini hisoblash va undirish» tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalar unga qo'shimcha 2000-yil 27-dekabrdagi 782-1-sonli qo'shimcha qo'llanma asosida tartibga solinadi va amalga oshiriladi.

Bojxona bojlarini hisoblash va undirish tartibi Bojxona Kodeksi va «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonun asosida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlarni erkin muomalaga chiqarishda import bojlarini hisoblash va undirish prinsiplarini belgilab beradi.


Qo'llanmada bojxona bojlarini to'lovchi shaxslar, bojxona rasmiylashtiruvchi uchun taqdim etiladigan hujjatlari, boj to'lovchilariga qaysi holatlarda boj to'lovlarini to'lashda imtiyozlar berilishi va qanday holatlarda boj undirilmasisligi, bojxona bojlarini hisoblash tartibi va ularni to'lov shartlari, bojxona bojlarini undirish tartibi va ulardan bojxona bojlarini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun undiriladigan ustama haqlari hamda uning hajmi,

bojxona bojlarini budget daromadlari hisobiga o'tkazilish tartibi, vaqt, bojxona to'lovlarini BYUDda kodlarga bo'linib ko'rsatilishi va qo'llanmaning ishga tushish vaqt va boshqa masalalarni o'z ichiga olgan.

Bojxona boji tovar (yuk) ning egasi yoki deklarant tomonidan to'lanadi. Har qanday manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovchining o'rniga bojxona to'lovlarini to'lashga haqli.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlar uchun olib kelingan tovarlarning bojsiz olib kirish me'yordan yuqori bo'lgan qismidan bojxona boji undiriladi.

**Import tarifi stavkaları** — O'zbekiston Respublikasiga nisbatan tashqi savdoda qulay sharoit yaratadigan mamlakatlardan tovarlariga, eksportchi va jo'natuvchi davlatdan qat'i nazar belgilangan stavkalar bo'yicha qo'llaniladi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 31-martdaги 137-sonli «O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan:

- «Erkin savdo» kelishuvi o'rnatilgan davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan va olib kirilgan (import) tovarlardan import bojlar olimmaydi.
- O'zbekiston Respublikasi bilan «Qulay savdo» kelishuvi o'rnatilgan davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan va olib kirilgan (import) tovarlardan import boji belgilangan stavkalar bo'yicha olinadi (80-qarorning 1-ilovasi, DBQning 1F8—02041sk sonli xatiga asosan).

O'zbekiston Respublikasi bilan «Qulay savdo» kelishuvi o'rnatilmagan davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan va olib kirilgan (import) tovarlardan import boji belgilangan stavkaning ikki barobar miqdorida olinadi.

*Izoh: import qilinayotgan tovarlarning kelib chiqish sertifikati bo'Imagan taqdirda, tovar kelib chiqish mamlakati aniqlanmagan deb qaraladi hamda belgilangan stavkaning ikki barobar miqdorida boj undiriladi.*

Bojaxona rasmiylashtiruvni vaqtida kelib chiqish mamlakati aniqlanmagan tovarlarga, bojaxona rasmiylashtiruvni muddatidan bir yildan ortiq bo'Imagan vaqtida kelib chiqish sertifikati taqdim etish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasiga nisbatan qulay sharoit yaratuvchi va erkin savdo bitimiga ega mamlakat tartiboti qaytadan tiklanishi mumkin.

Bojaxona bojlarini O'zbekiston Respublikasi bojaxona chegarasidan tovarlarni harakatlantiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar ularga taqdim etilgan hisob varaqlari, unga ilova qilingan BYUDlarnining nusxalari asosida to'laydilar.

Zarurat tug'ilgan vaqtarda mayjud qonunchilikka binoan bojaxona bojlarini to'lovchilari Bojaxona xizmatining mansabdor shaxsi talabiga binoan importga taalluqli barcha buxgalteriya-moliyaviy hujjalarni taqdim etishlari shart.

#### 4. Bojaxona bojlarini to'lash bo'yicha imtiyozi

**Boj imtiyozi** — yuridik va jismoniy shaxslarga boyliklar, shaxsiy buyumlar, boshqa predmetlarni olib kirish, olib chiqish yoki o'tkazishda beriladigan afzalliklar. O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonunning 33-moddasiga binoan quyidagilar boj to'lashdan ozod etilgan:

- xalqaro yo'nalishdagi yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashiydigan transport vositalari, shuningdek, ularning yo'lda, oraliq to'xtash joylarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki transport vositalarida yuz berган avariyalarga (nosozliklarga) barham berish uchun chet ellarda sotib olingan moddiy-teknika ta'minoti buyumlari va asbob-anjomlari, yonilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mol-mulk;
- qonun hujjalari muvofiq O'zbekiston Respublikasining valutasi, chet el valutasi (numizmatika uchun ishlataladigan valuta bundan mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlar;
- dengiz ovi bilan band bo'lgan O'zbekiston Respublikasi kemalarini hamda O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijara olingan (fraxt qilingan) kemalarni ta'minlash maqsadida bojaxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-teknika ta'minoti buyumlari va anjomlar, yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa tovarlar, shuningdek, ularning O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotlari;
- qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlar;

- chet davlatlar vakil (konsullik, diplomatiya vakolatxonalarini ularning texnik xodimlari) laring O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq, jismoniy shaxslarning rasmiy yoki shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishga mo'ljallab bojaxona hududiga olib kirilgan buyumlar;

- insonparvarlik yordami sifatida, davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan beg'araz yordam tariqasida yoki hayriya maqsadlarida, shu jumladan, texnik yordam ko'rsatish tarzida avariylar va halokatlar, tabiiy ofatlarning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga olib kiriladigan tovarlar;


- bepul o'quv, davolash va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmalar;

- uchunchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojaxona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududidan tranzit tartibida olib o'tiladigan tovarlar;

- bojaxona qonun hujjalari muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan bojaxona chegarasi orqali olib o'tiladigan, o'z ehtiyoji uchun mo'ljallangan tovarlar.

**Boj to'lov imtiyozi** — xo'jalik yurituvchi subyektlar bojaxona to'lovlarini to'lashda beriladigan yengilliklar. Bu yengilliklar eksport va import uchun joriy qilinishi mumkin va u bojlar advalor, maxsus, dempingga qarshi va boshqa guruhlarga bo'linadi. Bu imtiyozlarning xalqaro guruhlari quyidagi chizmada ifodalangan:

#### Boj to'lovlar bo'yicha beriladigan imtiyozi:



Boj to'lovlar davlat tomonidan belgilanib, ma'lum davrga qo'yiladi va qayta ko'rib turiladi. Bu bojlar imtiyozi iqtisodiy o'sishni davlat miyosida ta'minlash maqsadida va tadbirkorlarning yangi texnologiyalar kiritishiga imkoniyat yaratishga olib keladi.

**Bojaxona tarif imtiyozi** — bojaxona orqali o'tadigan tovar va xizmat turlari uchun beriladigan yengilliklar va imtiyozi. Bu imtiyozi tashqi

iqtisodiy aloqalarni jahon andozalariga javob berishga, tovar va xizmat sotuvchilarning davlatimizga valuta olib kirishiga va iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobji ta'sir qilishi uchun joriy qilinadi. Bojxona tariflarining imtiozli turlari quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

#### **Bojxona tariflari imtiozlarining guruhlari:**



Yuqoridagi imtiozlar davlat tomonidan belgilanib, ma'lum davrdan keyin, albatta, qaytadan ko'rib chiqiladi. Bojxona tariflarining jahon andozalariga javob berishi tashqi iqtisodiy aloqalarning samaradorligini oshirishga olib keladi va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy integratsiya bo'lishiga imkon beradi.

Hozirgi paytda eksportning o'sishiga xalaqit qilayotgan asosiy omil — so'm kursining ko'tarilgani bo'lib qolmoqda. Lekin chet el valutasi stimullarining o'sishiga olib kelmadi. Bu choralar eksportchilarning ixtiyorida qolgan chet el valutasining 50 % ni yuqoriqoq almashtirish kursi bo'yicha sotish huquqini qonunlashtirdi xolos. Shuning bilan bog'liq bo'lgan 50 % ni sotib olish va birjadan tashqari ayrboshlash kursi bo'yicha naqd valutani sotish majburiyligi qarori nihoyatda muhimdir. Markazlashgan eksportdan rasmiy kursi bo'yicha sotib olingan valuta faqat davlat tashqi qarzi uchun xizmat qiladi. Bunday yondashish markazlashgan tartibda eksport qilayotgan tovarlarlarning ro'yxatini toraytirishga yo'l qo'yadi. Bu ro'yxatga faqat ayrboshlash kursining o'zgarishlariga moslashishi qiyin bo'lgan tovarlar kiradi.

#### **5. Xalqaro iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boj yordamida boshqarish**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, turli davlatlarda ham ma'muriy, ham iqtisodiy usullarni qo'llash orqali olib boriladi. Har bir davlat tashqi iqtisodiy aloqalarda o'z siyosatini olib boradi va o'z milliy manfaatlarini ko'zlagan holda xalqaro mehnat taqsimotida nechog'liq sa'marali ishtirok etishni maqsad qilib qo'yadi.

#### **Tashqi aloqalarni davlat tomonidan notarif tartibga solish choralariga quyidagilar kiradi:**

- Litsenziyalash.
- Kvotalash.
- Embargo.
- Texnik to'siq.
- Deklaratsiyalash va h.k.

Boshqaruvning tarifsiz choralariga, sodda qilib aytganda, tovarlarning ayrim turlarini olib chiqishni taqiqlash, shuningdek, eksportni litsenziyalash va kvotalashga katta e'tibor berildi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzuksiz ta'minlash uchun ko'pgina o'zimizda yetishtirilgan tovar-moddiy boyliklarini olib chiqishga qattiq cheklovlar qo'yilgan (O'zbekiston Respublikasi VMning PF 1871-sonli Farmoni bilan 11 xil mahsulotlarni olib chiqish taqiqlangan<sup>1</sup>).

Tovarlarni eksport qilishda tarif choralarini ham qo'llangan, ularga eksport bojlari, bilvosita soliqlar, aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlarini kiritish mumkin.

Davlat va jamiyatda bojxona eng muhim va zarur vazifalarni bajarib keladi. Tashqi savdo va tashqi-iqtisodiy aloqalarni takomillashtirishda bojxonaning tutgan o'rni va mavqeyi o'sib bormoqda. Ya'ni davlat boshqa chet el mamlakatlari bilan o'zining iqtisodiy aloqalarini muvofiqlashtirishda bojxona qonun-qoidalarini yaratib, shu qonun-qoidalarga tayanib, tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatadi va tartibga soladi. Bu qonun-qoidalarga bojxona bojlarini, soliqlarni, har xil yig'ilmarni qo'llash hamda tovarlarni olib kirish va olib chiqishning alohida shartlari belgilab qo'yiladi, jumladan, ko'rgazma eksponatlar o'tkazish uchun tovarlarni olib kirish va olib chiqish, xomashyo va materiallarni respublika hududiga yoki respublika hududidan tashqarida qayta ishslash uchun harakatlantirish, bojxona omborlari, erkin bojxona hududlari va ularda tovarlarning harakati va boshqa shartlar.

Hozirgi vaqtida tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarishning notarif usullaridan tarif usullariga o'tib boshqarish borasida bojxona to'lovlari katta ahamiyat kasb etadi va bu tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning notarif usullaridan tarif usullari sari qo'yilgan qadamlarning yana biri, deb hisoblasa ham bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan asoslangan bojxona tarifining joriy etilishi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan iqtisodiy usullariga o'tishda muhim qadam bo'ldi.

Hozirgi sharoitda tarif choralarini import va eksport bo'yicha qo'llash sohasi va maqsadi o'zaro farq qiladi. Bundan buyon tarif choralarining markaziy tortish kuchi importni tartibga solish va uning mexanizmlarini, eksportni qisman yoki to'la bekor qilinishi sharoitida bosqichma-bosqich

<sup>1</sup> 1992-yilda litsenziyalash barcha asosiy eksport qilinadigan tovarlar bo'yicha amalga oshirildi, 1994-yilda ushbu ro'yxat 13 tagacha qisqardi, so'ngra 11 taga tushdi.

ishlab chiqishga, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish tomon o'zgarishi lozim.

**Bojxona tarifi** — bu bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning muhim qurolidir. Bojxona tarifi vositasida tartibga solishning huquqiy asosini tashkil etuvchi «Bojxona Kodeksi» va «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonunlar bojxona tarifining asosi bo'lib xizmat qiladi. Tovar nomenklaturasi, bojxona qiymatini aniqlash va boj undirish metodologiyasi, ularni joriy etish, o'zgartirish yoki bekor qilish mexanizmi, tovarning kelib chiqish mamlakatini aniqlash qoidasi, bojxona tarifi vositasida tartibga solish sohasida ijroiy hokimiyatning amal qilish mezontarini belgilovchi me'yorlar — tarifning negizini tashkil etadi. Tovarni olib kirish huquqi uchun soliq hisoblangan boj stavkasi — bojxona tarifining faol qismini tashkil etadi.

Tashqi iqtisodiy aloqlar rivojlanib borgani sari respublikada bojxona tarifining vazifasi va tutgan o'rni o'sib boraveradi. Kelajakda mas'uliyatning asosiy qismi tarif boshqaruvi zimmasiga yuklanadi va importni tartibga solish hamda eksportni amalga oshirishda bosqichma-bosqich imtiyozlarini qo'llash zarurati tug'iladi.

**Bojxona siyosatini** amalga oshirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositalari quyidagilardir:

- Tarif bilan tartibga solish choralar.
- Notarif tartibga solish choralar.
- Davlat bojxona nazoratini amalga oshirish.
- Xalqaro ittifoqlarda qatnashish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim sohalaridan biri respublika iqtisodiyotiga chet el kapitallarini jalb etishdir. Biroq shu o'rinda bu investitsiyalardan birinchi navbatda foydalanish lozim bo'lgan ustuvor tarmoqlar va sohalarni aniqlash, shuningdek, buning uchun zarur iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish va bu kapital jamg'armalarning huquqiy kafolatlarini ta'minlash o'ta muhimdir. Binobarin, biz xorijiy investitsiyalarni jalb etish to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, bu borada ustuvor tarmoqlar sifatida eksport strukturasi va yo'nalihsiga ega bo'lgan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etish jarayonida ma'lum darajada raqobatbardoshlikka erisha oladigan sohalar ustuvor sohalar deb tushunilishi kerak.

## 6. Xalqaro savdo shartnomalarini bojxonada rasmiylashtiruv tartibi

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy asoslari to'g'risida»gi Qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarida, Vazirlar Mahkamasining Qarorlarini bajarish borasida Adliya vazirligi 2000-yil 21 -dekabrda 911-son bilan «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida eksport-import shartnomalarini qayd etish» tartibida xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatida quyidagi shartnomalar joriy qilin-

gan: Eksport, Import, Konsignatsiya, Markazlashtirilgan, Birja va yarmarka, Nizom fondi, Barter, Lizing, Fyuchers, Kliring, Tolling, Ta'sislovchi, Hukumatlararo.

**Eksport shartnomasi** — bojxona hududiga qayta olib kirish majburiyatini olmagan tovarlar uchun tuziladi.

**Import shartnomasi** — bojxona hududiga olib kiritilgan tovarlarni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatizsiz doimiy qolib ketadigan tovarlar uchun tuziladi.

**Konsignatsiya shartnomasi** — konsignant va konsignator orasida tuziladigan shartnoma bo'lib, bunda tovarga egalik qilish huquqi tovar xardorga sotilishiga qadar konsignantga tegishli bo'ladi. (Konsignant — bu jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lib, o'zining ombordan tovarlarni konsignatsion savdoga qo'yishga topshiriq beruvchi shaxsdir. Konsignator — konsignatsion savdoni uyuştirish majburiyatini olgan jismoniy yoki yuridik shaxs (dallo).

**Markazlashtirilgan shartnomalar** — hukumat nomidan yoki uning kafolati bilan davlat ehtiyojlari uchun olib keladigan tovarlarga tuziladigan shartnomalardir.

**Birja va yarmarka shartnomasi** — birja va yarmarka savdolarida milliy valutaga sotib olingan barcha tovarlar uchun tuziladigan shartnomalardir.

**Nizom fondi shartnomalari** — ta'sis etuvchi shaxslar tomonidan beriladigan tovarlar va pul mablag'lari uchun tuziladigan shartnomalar.

**Barter shartnomasi** — ekvivalent (teng qiymatli) miqdorda o'zaro hisob-kitoblarsiz tovar almashinish uchun tuziladigan shartnomalar.

**Lizing shartnomasi** — qaytib berish sharti bilan ijara olish shartnomalari.

**Fyuchers shartnomasi** — buyurtma asosida ma'lum bir muddatga qisman oldindan pul to'lash yo'li orqali olinadigan tovarlarga tuzilgan shartnomalar.

**Kliring shartnomasi** — naqd pulsiz o'zaro kelishilgan holdagi majburiyatlarni va hisob-kitoblar orqali beriladigan tovarlarga tuzilgan shartnomalar.

**Tolling shartnomasi** — tovarlarni qayta ishlash uchun tuziladigan shartnomalar.


**Ta'sislovchi shartnomasi** — yuridik shaxs (firma, qo'shma korxona) tashkil etish uchun tuziladigan shartnoma. (Bunda firma yoki qo'shma korxonaning maqsadi va vazifalari yoritiladi).

**Hukumatlararo shartnomalar** — hukumatlararo tashqi savdo natijasida hosil bo'lgan o'zaro hisob-kitoblarni (qarzlarni) tovar tariqasida hal etishga qaratilgan shartnomalar.

Bojxona tariflarining o'zi, umuman, iqtisodiyotni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

**Bojxona muvofiqlashtiruvi** — bu tashqi iqtisodiy aloqalarni: birinchidan, tarif, ikkinchidan, notarif usulda tartibga solishdir. Notarif usuli bilan TIF ni boshqarish tarkiblari chizmada ko'rsatilgan.

## Tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif usullar bilan boshqarish:



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi 1871-sloni Farmoni ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini oshirish, eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatni me'yorlashtirishni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu Farmon bilan eksport qilish taqilangan tovar va buyumlarning yangi ro'yxati tasdiqlandi.<sup>1</sup>

### Eksport qilish taqilangan buyumlar va mahsulotlar

Nº	Tovarning qisqacha nomi	TIF TN bo'yicha kodi
1.	Don mahsulotlari: bug'doy, arpa, suli, guruch, makkajo'xori, grechka	10
2.	Non mahsulotlari (undan tayyorlangan konditer mahsulotlaridan tashqari)	1905
3.	Un va yorma	1101—1106
4.	Chorva va parranda	0101—0106 (010600990 dan tashqari)
5.	Go'sht va go'shtli iste'mol mahsulotlari	0201—02010
6.	Badiiy, ilmiy, madaniy, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi buyumlar (Madaniyat ishlari bo'yicha vazirligining xulosasi bo'yicha)	97-guruhg'a kiruvchilar
7.	O'simlik moyi	1507, 1512, 1516 (texnik yog'lardan tashqari 151211100, 151221100)
8.	Teri xomashyosi va qorako'l terisi	4101—4103, 4301—4302
9.	Rangli metal va uning parchalari (1999-yil 5-fevraldagi 2212-sloni Prezident Farmoniga asosan)	740400, 760200, 780200000, 790200000, 800200000, 810191900, 810291900, 810310900, 810410900, 810500100, 810610900, 810710900, 810810900, 810910900, 811000190, 811100190, 811211900, 811220390, 811230400, 811240190
10.	Pilla va uning chiqindilari <sup>2</sup>	790200000, 800200000

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi 1871-sloni Farmonining 4-ilovasiga 2002-yil 20-maydaga 3077-sloni Prezident Farmoni bilan o'zgartirish kiritildi.

<sup>2</sup> «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi Farmonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoni bilan chiqarib tashlangan.


Bundan tashqari, respublika hukumati tomonidan ayrim mahsulotlarni chetga chiqarish — eksport qilish ma'lum muddatga taqiqlanishi mumkin.

Bojxona ishida eksport nazorat va notarif boshqarish jarayonlarini boshqarish, aniq tovarga nisbatan cheklashni man etish va ruxsat berish xarakterli choralarini qo'llash masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiy siyosat choralarini mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga taxlika solgan sharoitlarda tovarlarni olib kirishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Notarif tartibga solish va eksport nazorat masalalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar bojxona ishida boshqarishning ajralmas qismi bo'lib qoladi va murakkab tizimlantirilgan jarayon bo'lib namoyon bo'ladi.

Sistemaviy sintez jarayonida yangi hodisa o'rganiladi: qismlar butun sifatida o'zaro ta'sir qiladi. Rasmida notarif boshqarish va eksport nazorati bo'yicha boshqarma qarorlarining sintezlashgan chizmasi namoyish etilgan. Bu chizma parallel va ketma-ket operatsiyalardan yoki bosqichlardan iborat.


**Notarif boshqaruv** tadbirlar tizimi va eksport nazorati dastavval chizmadagi ko'rinish asosida bo'lgan.

### Notarif boshqaruv chora-tadbirlari va eksport nazorati tizimi



Xalqaro savdoni rivojlantirish uchun bojxona marosimlari sharoitiga mumkin qadar mos tadbirlarni yaratishda kengash 20 dan ziyod xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, mintaqaviy iqtisodiy guruhlar organlari, ko'proq nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

### Tarifsiz boshqaruvning asosiy usulublari quyidagi chizmada ko'rsatilgan



Yuqorida qayd etilganlar asosida, bojxona operatsiyalarining har bir qismining to'la tasavvuriga ega bo'lib, notarif boshqarish va eksport nazorati barcha bojxona tizimining harakatlarini tizimli ravishda tahlil qilish va shu vaqtida qismalarning bog'liqligini va butunligini saqlab qolish mumkin. Shundan keyin boshqarishning maqsadli modeli tizimining sinteziga o'tiladi. Sintez tushunchasida qismalarning o'zaro ta'siri va bog'lanishini tiklash, bu predmet yagona bir butun sifatida tanilishi tushuniladi.

Ayrim hollarda, nostandard kirish muammolari bor bo'lganda, bojxona organlarining xodimlari alternativ qarorlar yig'indisidan to'g'riroq'ini tanlab olishlari kerak. Boshqa hollarda bojxona xodimi qarorni boshqarmanning yuqori organiga yoki eksport tashkilotlariga murojaat etishi kerak.

Bojxona faoliyatida litsenziyalash, kvotalash, sertifikatlash va boshqa ruxsat berilgan hujjatlar bilan bog'liq aniq choralarni bilish katta ahamiyatga ega, shuningdek, yuqori texnologik eksport tovarlarni hujjatlashtirishda uchraydigan xato va yetishmovchiliklarga ham bog'liq. Bular notarif usullar bilan boshqarish hisoblanib, davlat miqyosida maxsus tadbirlar tuzilib, amalga oshiriladi

## 7. Bojxonada tovar va xizmatlarni rasmiylashtirish tartibi

**Bojxona rasmiylashtiruvi** — tovar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash borasida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmuyi bo'lib, ular bojxona rejimlari bilan uzyiy bog'liq.

Ma'lumki, bojxona rasmiylashtiruvi tovar va transport vositalarini muayyan bir rejim ostiga joylashtirish hamda bu rejim harakatlarini tugallash jarayonidir.

**O'zbekiston Respublikasining qonun va normativ hujjatlarida, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida bojxona organlarining o'rni va ahamiyati aniq ko'rsatib o'tilgan:**

1) **bojxona rasmiylashtiruvi** — tovar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmuyi;

2) **bojxona rejimi** — O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmuyi;

3) **chiqishga ruxsat berish** — bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvidan o'tgan tovar yoki transport vositalarini shaxsning to'la ixtiyoriga berish;

4) **shartli chiqarib yuborish** — shaxsning belgilangan cheklashlar, talablar yoki shartlarga rioya qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi bilan bog'liq holda tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish;

5) **iqtisodiy siyosat choralari** — tovar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasi-

dan olib chiqishga doir cheklolvar bo'lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek, respublika iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solib turuvchi boshqa choralarni o'z ichiga oladi.

6) **dastlabki qaror** — tovarning tasnifi, uning bojxona qiymati, qaysi mamlakatda tayyorlanganligi, bojxona to'lovlaring miqdoriga hamda bojxona ishiga oid boshqa masalalarga taalluqli bo'lgan bojxona organi chiqargan qaror.

**Bojxona rasmiylashtiruvi** bojxona ishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lganligi tufayli uni qonuniy tarzda amalga oshirish bojxona nazoratini samarali tarzda olib borilib, tegishli bojxona to'lovlarini to'g'ri undirishga olib keladi.

**Bojxona organlariga** yuklatilgan bir qator vazifalarni bajarish uchun, avvalo, bojxona chegarasini kesib o'tayotgan tovar va transport vositalari ustidan samarali bojxona nazoratini o'rnatish va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirmoq darkor. Ushbu vazifalarni bojxona organlariga yuklatilishining sababi sifatida tovar va transport vositalarining bojxona chegarasidan o'tishida ular to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlarni bir bojxona organida to'plash va ularga nisbatan to'g'ri qaror qabul qilishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruvining **asosiy mazmuni** va **maqsadi** tovarlarni hujjatlar asosida qayd etish, uni bojxona chegarasidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish, tovarlarning kelgusi harakatlarida bojxona nazoratini o'rnatish va erkin muomalaga chiqarishdir.

Barcha (yuridik va jismoniy) shaxslar uchun istisnosiz tarzda tovar va transport vositalarini olib kirish hamda olib chiqishini taqiqlash eksport, import va tranzitga taqiqlangan tovarlar ro'yxatni bo'yicha amalga oshiriladi.

Bular quyidagilardan iborat:

**Eksporti taqiqlangan tovarlar** — don va don mahsulotlar, non va non mahsulotlari, un, qora mol, go'sht va go'sht mahsulotlari, tilla, o'simlik yog'i, teri xomashyosi, qadimgi ishlab chiqarilgan buyumlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-may 2002-yil PF—3077-sonli Farmoniga binoan «Tovar (ish, xizmat) lar eksportini rag'batlan-tirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi ayrim tovarlar eksporti taqiqlangan tovarlar ro'yxatidan chiqarib tashlandi.

**Importi taqiqlangan tovarlar** — O'zbekiston Respublikasining davlat qurilish siyosatiga, chegara sarhadlarining butunligiga, siyosiy mustaqilligiga va suverenitetiga qarshi qaratilgan hamda urushni talqin qiluvchi, terrorizm, zo'rash va milliylikka qarshi yo'naltirilgan diniy ekstremizm va fashizmni propaganda qiluvchi nashrlar, qo'lyozmalar, rasmlar, fotosurat, fotoplunkalar, ularning negativi, kino, video va audio mahsulotlar, grammoplastinkalar hamda parnografik materiallar hisoblanadi.

**Tranziti taqiqlangan tovarlar** — o'q dorilar, o'q otar va harbiy qurollar, uchuvchi apparatlar ularning qismlari va bo'laklari, ularni ishlab chiqaruvchi stanoklar va mashinalar, portlovchi moddalar, tez ta'sir etuvchi zaharli moddalar hamda O'zbekiston Respublikasiga import qilinishi taqiqlangan ro'yxatdagi tovarlar.

O'zbekiston Respublikasi tovar va transport vositalarini bojxona huddidan olib chiqishda respublikadagi vaziyat va manfaatlarni hisobga olgan holda ba'zi bojxona cheklari ham qo'llanilishi mumkin.

**Bojxona hududi deganda** — davlatga tegishli bo'lgan muayyan maydonga egalik qiluvchi hamda shu maydonda bojxona qonunlari bir xil amal qiladigan davlat chegarasining maydoni tushuniladi.


Bojxona hududlarida davlat bojxona ishini yuritadi va shu hududga qonuniy egalik qildi. Bojxona ishi O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvini va bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi, shartlari hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir.

Bojxona siyosatini to'la tushunish uchun bojxona ishining mazmunini o'rganib chiqish zarur masala hisoblanadi.

**Bojxona ishi** — bojxona siyosatining tarkibiy ajralmas qismi bo'lib, unda bajariladigan ishlarning quyidagi majmuyi tushuniladi:

- tovar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazish tartib qoidalari;
- bojxona to'lovlarini undirish;
- bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish;
- bojxona nazoratini amalga oshirish;
- bojxona rejimlari;
- bojxona ta'minlovi;
- bojxona statistikasi va TIF TNni yurgizish;
- bojxona ekspertizasi;
- kontrabanda va BQBga qarshi kurash ishlari.

**Quyidagi chizmada bojxona rasmiylashtiruvining ushbu ikki yo'nalishi ko'rsatib o'tilgan:**



**Dastlabki operatsiyalar** davrida bojxona organi mansabdor shaxslari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Tovar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tganligi haqidagi xabarni qabul qilish.

2. Tovar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish vaqtida ularning bojxona rasmiylashtiruvini belgilangan tartibda me'yoriy hujjalatlar asosida amalga oshirish.

3. Tovar va transport vositalarining belgilangan joyga yetib kelganligi to'g'risidagi xabarni qabul qilish.

Bojxona organining talabiga binoan ko'rsatilgan tovar va transport vositalari amalda ana shu organga taqdim etiladi.

Tovarlar ko'rsatilganidan keyin ularga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish maqsadida bojxona organining ruxsati bilan ulardan namuna va nusxalar olishlari mumkin.

4. Tovar va transport vositalarini vaqtinchalik saqlash va bojxona ombori rejimiga, bojxona omborlariga joylashtirishni nazorat qilish va rasmiylashtirish.

5. Qisqa deklaratsiyani qabul qilish Bojxona Kodeksining 87-moddasi keltirilgan bo'lib, ushbu deklaratsiya shakli va unda qanday ma'lumotlar ko'rsatilishi lozimligi Davlat Bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Tovar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgungina qadar qisqa deklaratsiya qo'llanilishi mumkin.

Bojxona organining ruxsati bilan qisqa deklaratsiya sifatida transport, tijorat va boshqa hujjalardan, shu jumladan, xalqaro tashishlarni amalga oshirish chog'ida qo'llaniladigan chet tillarda tuzilgan hujjalardan foydalanilishi mumkin.

6. Bojxona rasmiylashtiruvini va davlatning boshqa nazorat organlari faoliyati uchun namuna va nusxalar olish jarayoni nazoratini o'rnatish, shuningdek, ushbu operatsiyalarni amalga oshirishning huquqiy tomonlari Bojxona Kodeksining 79 va 182-moddalarida ko'rsatib o'tilgan.

Tovarlarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxsnинг tashabbusi bilan bojxona organlari tomonidan tovarlardan namunalar va nusxalar olish, shuningdek, namunalar va nusxalarni tekshirish natijasida yuzaga kelgan harajatlarni aynan shu vakolatga ega bo'lgan shaxs to'laydi. Namunalar va nusxalar olish tartibi, ularni tekshirish va tasarruf etish muddatları, shuningdek, tartibi qonun hujjalarda belgilanadi.

7. Vaqtinchalik saqlash rejimida bojxona omborlarida tovar va transport vositalarini saqlash sharoitlarini nazorat qilish va hisob-kitob daftarini olib borish.

8. Dastlabki jarayonlarda rasmiylashtirilgan hujjalatlar to'plamini asosiy bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga taqdim etish.

9. Bojxonaga taalluqli bo'lgan zarur hujatlarni qonun talablariga binoan, bojxona organlarining maxsus bo'limlariga tayyorlash va ularni yetkazib berish.

Bojxona rasmiylashtiruvni bojxona nazorati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, **bojxona nazorati** — O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadidagi bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi-gan chora-tadbirlar yig'indisi hisoblanadi.

Bojxona chegarasidan o'tayotgan tovar va transport vositalarini nazoratdan hamda ko'rikdan o'tkazishning maqsadi ularning bojxona chegarasidan o'tishlarining qonuniyligini aniqlash va tasdiqlashdir.

Tovar va transport vositalari yetkazib keltirilgan joyida bojxona organiga ko'rsatiladi, ularga tegishli hujjatlар taqdim qilinadi. Tovar va transport vositalari keltirilganidan so'ng ularni ko'rsatish, kechi bilan 30 daqiqaga qadar (tovar va transport vositalari bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda yetkazib keltirilgan taqdirda, bojxona organining ish vaqt boshlanganidan keyin ko'pi bilan 30 daqiqaga qadar) ularning keltirilgani haqida xabar qilishdan iborat bo'ladi.

#### **Tovar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

- deklarantdan og'zaki ma'lumotlarni, bojxona rasmiylashtiruvni uchun hujjatlari va elektron nusxalarni olish;
- bojxona yuk bayonnomasi va bojxonaga taalluqli bo'lgan hujjatlarga qonunda ko'zda tutilgan shartlar asosida bojxona rejimiga tegishli ma'lumotlarni kiritish hamda ularni bojxona nozirining muhri va imzosi bilan tasdiqlash;
- bojxonaga taalluqli har xil hujjatlari (yetkazib berish nazorat varaqasi kabilar)ni tuzish;
- omborlarda vaqtincha saqlash uchun tovarlarning kelib tushish hujjatlarni rasmiylashtirish, ularning hisobini olib borish va tovarlarni omborxonadan chiqarish;
- tovar va transport vositalaridan ekspertiza hamda boshqa maqsadlar uchun namuna va nusxalar olish, hujjatlarni to'ldirish;
- tovarlarga nisbatan tegishli qarorlarni qabul qilish;
- bojxona hujjatlarida bojxona rasmiylashtiruvining va bojxona nazoratining tugallanganligini tasdiqlash.

**Tovarlarning asosiy bojxona rasmiylashtiruvni bosqichi.** Asosiy bojxona rasmiylashtiruvni bosqichining maqsadi tovar va transport vositalarini ma'lum bir bojxona rejimiga joylashtirish bo'lib, bu operatsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Bojxona deklaratsiyalarini qayd qilish va hisobga olish.
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi qoidalariga binoan tovarlar xalqaro kod raqamining to'g'ri aniqlanishini nazorat qilish va tovarning kelib chiqish davlatini aniqlash hamda notarif boshqarish cholarining amal qilinishining nazorati.
3. Valuta va tovarlar bojxona qiymatining nazorati.
4. Bojxona to'lovlarini undirish bosqichi.

5. Tovar va transport vositalarini bojxona ko'riganidan o'tkazish hamda erkin muoamalaga chiqarish bosqichi.

#### **Valuta va tovarlar bojxona qiymatining nazorati.** Bu bosqichda:

- valuta nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni tekshirish;
  - valuta nazorati talablariga asosan tashqi savdo shartnomalari ijrosi sharoitlarining mosligini tekshirish;
  - bojxona yuk deklaratsiyasida valuta nazorati uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishini tekshirish;
  - deklarantlar tomonidan qo'llanilgan tovarlarning bojxona baholash usulini tekshirish;
  - deklaratsiyada ko'rsatilgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash usulining hujjatlari asosida to'g'ri tanlanganligi va bunda qo'llanilgan hujjatlarning to'la hamda haqqoniyligini tekshirish;
  - tovarning bitim qiymatini unga ta'sir etuvchi sharoitlarni o'rganib chiqish uchun qo'shimcha ma'lumotlar to'plash;
  - tovarning bojxona qiymati va bojxona to'lovlarini tuzatish (qayta aniqlash, korrektirlash) hamda bojxona deklaratsiyasi va uning elektron nusxasiga tuzatishlar kiritish;
  - deklarant tomonidan taqdim etilgan bojxona qiymatini tasdiqlash uchun tegishli qo'shimcha hujjatlari mavjud bo'limgan vaqtida tovari shartli ravishda baholash va bojxona qiymatiga tegishli tuzatishlar kiritish;
  - O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibga binoan, bojxona qiymati bo'yicha bojxona hisobotlari uchun maxsus bojxona qismlariga ma'lumotlar berish;
  - bojxona qiymatining to'g'ri qabul qilinganligini nazorat qilish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish;
  - DBQ tomonidan belgilangan tartibda tovarlarning bojxona qiymati sohasida tegishli qaror qabul qilish uchun bojxona rasmiylashtiruviga taqdim etilgan to'la hujjatlari to'plamini maxsus bojxona organlariga berish;
  - bu organlar qabul qilgan qarorlar asosida bojxona qiymatiga nisbatan qaror qabul qilish;
  - bojxona rasmiylashtiruvni jarayonda aniqlangan va bojxona organi vakolatiga kirmagan valuta qonunchiligining buzilish holatlari haqida maxsus bojxona organlariga ma'lumot berish kabi ishlar amalga oshiriladi.
- O'zbekiston Respublikasi eksport va import yuklarini rasmiylashtirishda bojxona organlariga taqdim etiladigan hujjatlari ro'yxati keltirilgan.
- Unga ko'ra, eksport yuklarni rasmiylashtirishda:**
1. Shartnoma (bitim).
  2. Bojxona yuk deklaratsiyasi.
  3. Mahsulot qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi sertifikat.
  4. Litsenziyaning nusxasi (o'ziga xos tovarlarni eksport qilishda).
  5. Zarur hollarda vakolat berilgan organlarning ruxsatnomalari.

### **Import yuklarini rasmiylashtirishda esa:**

1. Shartnoma (kelishuv, bitim).
2. Mahsulotning muvofiqlik sertifikati.
3. Mahsulot qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi sertifikati (tez buziladigan mahsulotlardan tashqari).
4. Import shartnomaning Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan shartnomalariga vakolatli bankda hisobga olinganligi to'g'risida belgilangan tartibda yozilgan sertifikat.
5. Import bitimi pasporti.
6. Import qiluvchining majburiyatlaridan xoli valutadagi va so'mlardagi mablag'lari mavjudligi haqidagi ma'lumotnomma yoki vakolatli bankning import qiluvchining ushbu shartnoma haqini to'lashga qobiliyatli ekanligining kafolati (ma'lumotnomma, topshiriqnomma).
7. Bojxona yuk deklaratsiyasi.
8. Xorijiy firmaning yuk xati (invoys).
9. Fitosanitariya, karantin, veterinariya sertifikatlari.
10. Litsenziyaning nusxasi (o'ziga xos tovarlarni import qilishda).
11. Zarur hollarda vakolat berilgan organlarning ruxsatnomalari talab qilishlik ko'rsatib o'tilgan.

Bojxona deklaratsiyasini taqdim etish bilan bir vaqtida bojxona organiga boshqa zarur hujjatlar ham topshiriladi. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasi va taqdim etilgan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarni teksirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.


Bojxona organi tovar va transport vositalarini rasmiylashtirish uchun yetishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilashga haqlidir.

**Bojxona deklaratsiyalarini qayd qilish va hisobga olish.** Ushbu bosqichda:

- bojxona yuk deklaratsiyasini va dastlabki operatsiyalarni o'tkazish tartibi bajarilish shart-sharoitlarining nazorati;
- bojxona deklaratsiyasi va bojxonaga taqdim etilishi shart bo'lgan hujjatlarning hamda deklaratsiyaning elektron nusxasini qabul qilish;
- bojxona deklaratsiyasini qayd etish;
- bojxona deklaratsiyasi va uning elektron nusxasining belgilangan rejam talablariga mos kelishini nazorat qilish (bunda qog'ozdag'i bojxona deklaratsiyasi bilan elektron nusxasining o'zaro mosligini nazorat qilish);
- bojxona rasmiylashtiruvi tugallangandan so'ng bojxona deklaratsiyalari va unga ilova qilingan hujjatlarni yig'ish hamda bojxona organining maxsus bo'limlariga topshirish;
- bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan bojxona yuk deklaratsiyalarini hisobga olish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jismoniy shaxslar o'z statusiga ko'ra, bojxona chegarasida bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkaziladi va shu sababli ular rasmiylashtiriluv vaqtida o'z xususiyatlari egadirlar.

### **YURIDIK SHAXSLAR UCHUN**



### **Jismoniy shaxslar (yo'lovchilar) atamasi haqida tushuncha.**

#### **Avvalo, jismoniy shaxslar atamasini kengroq tushunush zarur:**

1. Sayohatchilar — turistlar — sayohatchi — savdogar turistlar.
2. Xizmat safariga boruvchilar.
3. Tranzit yo'lovchilar.
4. Shaxsiy taklif bilan boruvchilar.
5. Diplomatik maqomga ega bo'lgan shaxslar.
6. Elchixonha texnik xodim va xizmatchilar.
7. Xalqaro tashkilot vakolatxona xodimlari.
8. Chet el firma va vakolatxona vakillari.
9. Hukumat va vazirliklar miqyosidagi rasmiy delegatsiyalar.
10. Konferensiya, madaniy va ilmiy anjumanlarga kelgan shaxslar.
11. Deputatlar, O'zbekiston Respublikasi VM a'zolari.

12. Xalqaro sport musobaqlari qatnashchilar.
13. Doimiy yashash joyiga boruvchilar.
14. Haj safariga ketuvchilar.
15. Departatsiya qilingan shaxslar.
16. Qochoqlar.

Tashqi iqtisodiy tovar nomenklaturasi qoidalariga binoan tovarlar xalqaro kod raqamining to‘g’ri aniqlanishini nazorat qilish va tovarning kelib chiqish davlatini aniqlash hamda notarif boshqarish choralarining amal qilinishining nazorati.

#### **8. Olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash**

**Bojxona qiymati** — tarif stavkalar bo‘yicha bojni hisoblash uchun asos bo‘lgan tovar qiymati. Tarif stavkasi tovar narxiga nisbatan foiz hisobida belgilanadi va bu Davlat Bojxona qo‘mitasi tomonidan chiqarilgan qo‘shimcha ravishda yo‘riqnomalarga asosan amalga oshiriladi. Tovarning bojxona qiymati — tovarning bojxona organlari tomonidan maxsus uslublardan foydalanib aniqlangan qiymati. Chegara orgali tovar yoki xizmat qiymati shartnomaga binoan belgilangan bo‘lsa, shartnomada kelishilgan qiymat asos qilib olinadi. Agar shartnomada bo‘lmasa, yuridik va jismoniy shaxslar tovari bojxona tekshiruvidan o‘tkazilib, maxsus uslub yordamida qiymati aniqlanadi. «Bojxona Kodeksi»ga asosan, hozirgi paytda tovarning bojxona qiymatini aniqlashda olti xil uslub qo‘llanishi mumkin. O‘zRda «Boj tarifi to‘g’risida»gi Qonunga asosan, bojxona qiymatini aniqlashning olti usuli mavjud, ya’ni: olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga ko‘ra bojxona qiymatini aniqlash (1-usul). Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymati asosida aniqlash (2-usul). O‘xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymati asosida aniqlash (3-usul). Qiymatlarni chegirib tashlash asosida aniqlash (4-usul). Qiymatlarning o‘xshashi asosida bojxona qiymatini aniqlash (5-usul). Zaxira usuli (6-usul). Hozirgi kunda amaliyotda 1, 2, 4 va 6-usullardan foydalani moqda, vaholanki, rivojlangan davlatlarda 90—95 foiz holatda 1-usuldan foydalani ladi, chunki bu usul bojxona qiymatini hisoblashning eng to‘g’ri va haqiqatga yaqin usulidir. Aksariyat hollarda olib kirilayotgan tovar bitimlaridagi narxlarining past ko‘rsatilishi bu usuldan foydalanishga xalal beradi. Bojxona qiymatini aniqlashning 2- va 3-usullarini amaliyotda qo‘llash uchun aynan bir xil yoki o‘xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitimning ikki va undan ortiq narxi mavjudligi aniqlansa, olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun ularning eng past narxi qo‘llanishi lozim.

O‘zaro bog‘liq shaxslar o‘rtasidagi bitim qiymatining qabul qilish uchun maqbul deb e’tirof etilishi va unga nisbatan 1-usulning qo‘llanishi mumkin bo‘lishi uchun deklarant u bayon qilgan qiymatning haqiqatan ham to‘langanligi yoxud baholanayotgan tovarlar bo‘yicha bitim qiymatining quyidagilarga juda yaqinligini **hujjatlar asosida tasdiqlashi lozim**:

- xaridorlar bilan bog‘liq bo‘lman (ya’ni, o‘zaro bog‘liq bo‘lman shaxslar) sotuvchilar tomonidan xuddi shuningdek yoki shunga o‘xshagan tovarlar sotilishidagi bitim qiymatiga;
- xuddi shuningdek yoki shunga o‘xshagan tovarlarning 4-usulga ko‘ra hisoblab chiqilgan bojxona qiymatiga;
- xuddi shuningdek yoki shunga o‘xshagan tovarlarning 5-usulga ko‘ra hisoblab chiqilgan bojxona qiymatiga;
- shu paytgacha bojxona organi qabul qilgan «nazoratli» qiymatga.

Bunday taqqoslashlar faqat deklarant tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladi va baholanadigan tovarlarga doir bitim shartlariga solishtirib ko‘rish maqsadida qo‘llaniladi.

**Bitimning tuzilishida**, agar baholanadigan tovarlar qiymatini belgilashga va binobarin, bitim qiymatining bojxona maqsadlari uchun qabul qilinishiga to‘sinqlik qiladigan shartlar bitim shartlari sifatida ilgari surilgan bo‘lsa, 1-usulni qo‘llash mumkin bo‘lmaydi.

#### **Bu shartlarga quyidagilar kiradi:**

- sotuvchi import qilinadigan tovarlarga narxni xaridor, shuningdek, muayyan miqdorlardagi boshqa turdag tovarlarni ham tovarning har bir turiga narx ko‘rsatilmasidan sotib oladi degan shart asosida belgilaydi. Masalan, 5000 pul birligi summasidagi charm buyumlari yetkazib berilyapti. Yetkazib beruvchi import qiluvchining qiymati noma‘lum bo‘lgan 2 ming juft poyafzalni ham qo‘shimcha ravishda sotib olinishini shart qilib qo‘yadi;
- import qilinadigan tovarlar narxi ana shunday tovarlar xaridorining import qilinadigan narxlariga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, sotuvchi 1000 pul birligi summasidagi elektr tovarlarini sotayapti. Xaridor esa ushbu sotuvchiga bunday tovarlarni ishlab chiqarish uchun releni sotayapti. Bunda sotuvchi relening narxi — 10000 pul birligi degan shartni qo‘yadi. Shunday qilib, elektr uskunalarining narxi rele narxining ta’siri «sinovidan o‘tadi»;
- narx import qilinadigan tovarlarga aloqasi bo‘lman haq to‘lash shakli negizida belgilanadi;
- oldi-sotdi shartnomasi faqat ushbu sotuvchidan sotib olish shartini nazarda tutadi.
- oldi-sotdi shartnomasi bitim qiymatini tovarlarni o‘zaro sotish (yetkazib berish) sharti asosida belgilaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha xarajatlar faqat ular bitim qiymatiga kiritilmagan va deklarant tomonidan hujjatlar asosida tasdiqlangan holdagini bitim narxiga qo‘shib hisoblanishi mumkin.

Agar bitimni tuzishda tomonlar tovar O‘zbekiston Respublikasi huddida joylashgan joygacha sotuvchi tomonidan yetkazib berilishi haqidagi shartlarni qo‘llashsa, unda bojxona qiymatini belgilash uchun quyidagi **to‘lovlar ular qiymatidan chiqarib tashlanadi**:

- sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalar kabi import qilingan tovarlar olib kelgingandan keyin amalga oshirilgan qurilish, tiklash, yig‘ish, xizmat ko‘rsatish yoki texnik hamkorlik ko‘rsatish xarajatlari;

- O'zbekiston Respublikasiga import qilinganidan keyingi transport xarajatlari;
- O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan bojlar va soliqlar. Yagona bojxona to'lovi joriy etilishi bilan xarajatlarni chegirish usuliga ko'ra bojxona qiymatini aniqlashda yangi formulalardan foydalanish (4-usul).

Ushbu tartibga binoan, aksiz solig'i undiriladigan tovarlardan esa, yagona bojxona to'lovlardan tashqari tegishli miqdorda aksiz solig'i ham undiriladi.

Ushbu qarorda tovarlar uchun qo'llaniladigan xalqaro kod raqamlari hamda tovar qayerda ishlab chiqarilganidan qat'i nazar, tovarning bojxona qiymatidan undiriladigan to'lovlarning foizlardagi miqdori belgilab berildi. Aholi manfaatlarini inobatga olib oziq-ovqat mahsulotlari uchun alohida imtiyozlar belgilandi. **Tijorat maqsadlari uchun chetdan olib kelungan oziq-ovqat mahsuloti un uchun yagona bojxona to'lovi undirilmaydi.** Boshqa oziq-ovqat tovarlarining bojxona qiymatidan 40 %, nooziq-ovqat tovarlari uchun esa, tovarning bojxona qiymatidan 70 % miqdorda undirilishi belgilab berildi.

#### *Nazorat savollari:*

1. Bojxona to'lovlarning turlari nechta?
2. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kelinayotgan tovarlardan qanday yig'imlar undiriladi?
3. Bojxona bojlarining turlari nechta?
4. Bojxona to'lovlarni to'lash tartibi?
5. Kompensatsiya bojlar qanday hollarda qo'llaniladi?
6. Bojxona to'lovlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Bojxona bojlarini hisoblash va undirish qanday amalga oshiriladi?
8. Bojxona bojlarini to'lash bo'yicha qanday imtiyozlar bor.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to'g'risida» 2002-yil 6-maydag'i 154-soni qaroriga asosan jismoniy shaxslar tomonidan olib kelinayotgan tijorat maqsadidagi tovarlardan import bojlar, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslardan undiriladigan yig'imlar o'rniiga 2002-yil 1-iyundan yagona bojxona to'lovlari joriy etildi.

#### **5-bob.**

### **AMERIKA DAVLATLARINING SOLIQ TIZIMI**

#### **1. AQSH soliq tizimi**

AQSH soliq modeli amerikacha-sakson modeli deb ataladi va u liberallashgan soliq tizimi bo'lib, maqsadli soliq mexanizmiga ega bo'lgan davlat hisoblanadi.

**Benjamin Franklin** — buyuk davlat arbobi, AQSH mustaqillik Deklaratsiyasining mualliflaridan biri shunday degan edi: «Hayotda o'limdan va soliqlardan muhim narsa yo'q».

Ikki yuz yillik tarix davrida AQSH soliq tizimi sezilarli darajada o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Hozirgi zamonda bu tizim federal shtatlar va mahalliy budgetlarni to'ldiradigan asosiy manbalardan biri bo'lib qoldi va ularning ahamiyati keskin o'sib bormoqda.

AQSHda katta va doimiy soliq tushumlari federal budgetga yuboriladi. Federal budgetga 65—70 % daromadlar va xarajatlar kiradi.

AQSH iqtisodiyotida bozor munosabatlari rivojlangan va xo'jalik mexanizmini yuritadigan elementlardan biri, soliq siyosati va moliya tadbirlari davlatning tadbirkorlikka ta'sir o'tkazish mexanizmiga kiradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda federal hukumatdan tashqari mahalliy boshqaruv organlari faol qatnashdi.

Oxirgi 15—20 yil davomida AQSH mahalliy organlarining moliya mablag'lar miqdori oshmoqda. Shu bilan birga mahalliy hokimiyatlarga xarajatlarning seziladigan qismi yuklanadi.

Mahalliy boshqaruv organlarining resurslariga shtatlar, munitsipalitetlar, maktab va maxsus okruglar, qishloqlarning moliya zaxiralari kiradi. Mahalliy moliya zaxiralari tizimiga mahalliy budgetlar, maxsus jamg'armalar, mahalliy korxonalarning pullari kiradi. Mamlakatda 83 mingdan ortiq o'zining moliya manbalariga ega bo'lgan mahalliy boshqaruv organlari mavjud. Ilmiy izlanishlar AQSHda quyidagi soliqqa tortishning ustuvor tizimini aniqladi:

- soliqlar obyektlarini rivojlantirish;
- ishlab turgan korxonalar va ish joylarini saqlab qolish;
- iqtisodiyot sifatining o'sish muvozanatini saqlash;
- industrial va tijorat manbalarini rivojlantirish;
- qoloq tumanlarga yordam ko'rsatish.

Soliqlar mahalliy va markaziy budget daromad qismining asosiy ulushi ni tashkil etadi va iqtisodiyotga xarajat qismi orqali ta'sir o'tkazadi.

AQSH soliq tizimi xususiy kapitalni iqtisodiyotga jalb etishga mo'ljallangan. Soliq imtiyozlari bilvosita usullar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aholidan olinadigan daromad solig'i eng katta bo'lib, u progressiv shkala bo'yicha hisoblanadi. Soliqning eng kam miqdori va beshta soliq stavklari mayjud. Soliqqa yagona shaxs yoki butun oila tortiladi. Bu holda oilaning daromadlari qo'shiladi. Umumiylar daromad miqdoridan xarajatlar ayirib tashlanadi. Bunga kapital aktivlarni sotib olish va ishlatish xarajatlari, yer maydoni, imoratlar, uskunalar, ishlab chiqarish joriy xarajatlari va boshqalar kiradi. Bu xarajatlar tadbirkorlar va ijod sohasi mutaxassislarida hisobga olinadi.

**Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar** — bu federal budgetning hajmi bo'yicha ikkinchi modda, ish beruvchi yoki ishchining o'zi to'laydi. To'lov stavkasi har yili o'zgaradi. Korporatsiya solig'i — bu uchinchi katta soliq. Korporatsiyalar birinchi 15 ming dollar soliqqa tortish daromadilardan 15 % to'laydi, 25 % keyingi, 34 % qolgan daromadga.

Bundan tashqari 100—335 ming AQSH dollari daromadga qo'shimcha yig'imi bo'lib, 5 % ni tashkil etadi. Bu qoida kichik va o'rta korxonalarga juda qulay bo'ladi. Korporatsiyalardan soliqni shtatlar budgeti ham olishadi. Odat bo'yicha uning miqdori 3 % dan 12 % gacha bo'ladi. Bu soliq turi ham bir qator imtiyozlarga ega. Masalan, asosiy kapitalistik amortizatsiya qilish uchun, investsiya qilinganda, ilmiy izlanish va tajriba-loyihalash-tirish ishlari bajarilganda, kompaniyalar, quyosh yoki shamol kuchini ishlab chiqish jarayonida qo'llanganda ularga 50 % soliq krediti beriladi.

Yirik korporatsiyalar va firmalar soliqlari juda katta bo'lsa, bu holda monopoliyaga qarshi qonun ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoyitidagi bozor mehanizmi, tadbirkorlikning erkinligini ta'minlaydi va resurslarni taqsimlashda, narxlarni tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar asosida foydaning o'rta miqdorini hisobga olgan holda aniqlaydi. Raqobat kuchli bo'lgan holda kompaniyalar ixtiyoriy baholar o'rmatda olmaydi. Ular boshqa kompaniyalarning mahsulotlari qo'yilgan baholarni inobatga olishi shart. Xaridorga tovarni tanlashga va unga eng yaxshi, arzon tovarni olishga imkoniyat beriladi. Bu holda, raqobat natijasida baholar ishlab chiqarish narxlarga yaqinlashadi. Monopoliyalar bozorda faqat bitta firma tovarni ishlab chiqarsa va hukum-dorlikni o'tkaza olsa bo'ladi. U xohlagan bahoni qo'ydiradi va unga kerakli miqdorda tovar yetkazib beradi.

Monopoliya quyidagi holda bo'lishi mumkin. Kuchli raqobat bozordan kichik va ojiz firmalarni siqb chiqaradi. Bu hol bozorda bitta kuchli firma qolquncha davom etadi. Boshqa holatda bir nechta kompaniyalar qo'shib, katta kompaniya bo'ladi va tarmoqda o'zining ta'sirini o'tkazadi. AQSHda «monopoliya» termini firma yoki firmalar guruhi»ga qo'llanadi. Ular o'zining ta'siri bilan bozorda tovarlarning miqdorini, shartlarini va baholarini belgilaydi. Sotilgan kapital aktivlardan daromad qiyamatidan olinadigan soliq stavkasi 34 % dan oshmaydi. Ammo daromad olingan holda, zarar summasi soliqqa tortiladigan daromaddan olib tashlanmaydi. Meros yoki sovg'a qilingan mulk solig'i 25 % ga oshdi va 148 mldr doll tashkil

etdi. 10 ming dollargacha bo'lgan mulk qiymati bu soliqdan ozod etilgan. Bu miqdordan oshgan qiymatlar progressiv shkala bo'yicha 18 % dan 50 % gacha soliqqa tortiladi. Eng katta soliq stavkasi meros qiymati 2,5 mln dollardan ortiq bo'lsa qo'llanadi, ammo bu holda qarindoshlik daramasi inobatga olinadi. Bosh to'lovlar 90-yillar ohirida 20 mln dollardan oshib ketdi va o'sib bormoqda.

Mamlakatda inflatsiya darajasi 2%—3% oshmagani holda bu o'sish salmoqlidir. Har bir shtat federal tizimdan tashqari, o'zining soliq xizmatiga ega. Shtat korporatsiyalardan va fuqarolardan daromad solig'ini yig'adi. Bu ishda ko'pgina muammolar bor. Shtatda joylashgan kompaniyalar binolari yoki kompaniya xizmatchilari bu hududda ishlab turgan bo'lsa, faqat bu holda daromaddan soliq shtat budgetiga tushadi. Aks holda, kataloglar bo'yicha sotish jarayonida firmalar daromad olganda, ularni qanday qilib soliqqa tortish kerak? Binolar, uskunalar, xizmatchilar ish bajarmaydilar-ku?

Shtatlarning daromad manbalaridan biri — **bu sotuvlardan soliq** olish, ular bu daromad miqdorini shaharlar budgeti bilan bo'lishadi. Bu soliq — bilvosita bo'lib, bizning qo'shimcha daromad solig'iga yaqin keladi. Oziq-ovqatlar tovarlari bu soliqqa tortilmaydi. 90-yillarda AQSHda 50 ta shtatdan 44 tasida sotuvlardan soliq qo'llanardi. Koliforniya shtatida tadbirkorlar ishchanlik faoliyatiga ham soliq to'lashadi. Unga korxonaning yillik oboroti (1—2,5 %) va ish haqi fondiga soliq (1,6 %) kiradi. Amaliyotda mulk egasi soliq xizmatidan 4 yilda bir marta to'lovlar bo'yicha xat oladi. Bu soliq shtat, shahar, maktab okrugiga tushadi. AQSHda mulk solig'i o'rta hisobda 1,4 % ni tashkil etadi. Bundan tashqari, AQSHda mahalliy soliqlarga mehmonxonalarda xizmatlar ko'rsatish solig' (hisobdan 5 %), kommunal xizmatlarga (telefon, gaz, elektr hisobidan 3 %); shartnomalardan (ko'chmas mulk oldi-sotdi operatsiyalari) 2,5 dollar har 1000 dollar mulk qiymatiga, mahalliy soliqlardan tushumlar shtatlar budgetlariga kungiya yetarli bo'lmaydi. Ularga federal budgetdan katta miqdorda hukumat subsidiyalari beriladi (20—30 %). Mahalliy soliqlarning tarkibi va stavkalarini to'rtta guruhga bo'linadi:

**Birinchi guruh** — xususiy soliqlar, ular faqat shu hududda yig'iladi. Bevosita soliqlar ichida — mulk solig'i, yer solig'i, sovg'alardan va mero-slardan mahalliy soliq. Bilvosita soliqqa tortish xilma-xil. Asosan u sotuvlardan soliq va maxsus aksizlar.

**Ikkinci guruhga** — umum davlat soliqlarga qo'shimcha, ma'lum foiz mahalliy budgetga ajratiladi.

Mahalliy soliqlardan ular faqat shakli bilan farq qiladi.

**Uchinchi guruh** — transport vositalariga, mehmonxonalarga, ko'r-satuvlarga, kommunal yig'imlarga soliqlar. Iste'mol soliqlariga avtomashinalarni ro'yxatga olish, avtomashinalarning turar joyiga soliq, yoqilg'iga aksiz, yo'llarga soliqlar kiradi;

**To'rtinchi guruh mahalliy soliqlarni** — hududni boshqarish organlarning siyosatini anglatadi. Bunga ekologik soliqlar kiradi. Ular atrof-muhitni

himoya qilishga va tozalashga sarf etiladi. Korporatsiya soliqlari natijasida «xavf-xatar» chiqindilar aniqlanadi. Maxsus soliqqa bir marta ishlatiladigan konserva idishlari qo'llaydigan korporatsiyalar tortiladi.

Rivojlangan mamlakatlar uchun markaziy budgetga yig'iladigan soliqlar mahalliy soliqlarga nisbatan ustun bo'ladi. Ammo urbanizatsiya jarayoni shaharliklar budgetlarining o'sishiga olib kelmoqda. Shu sababdan mahalliy soliqlar miqdori o'smoqda. **Savol tug'iladi** — nima uchun rivojlangan mamlakatlarda soliq turlari juda ko'p? Soliq turlari ko'p bo'lganda, ular daromadlarning ko'p turlarini soliqqa tortadi, yig'ish va iste'mol orqali soliqlar og'irligini kamaytirishga harakat qiladi. **Umumiy yo'nalish** — soliqlar miqdorini va ularning hajmini aholi uchun kamaytirish. Shu sababdan AQSHda yalpi ichki mahsulot hajmida soliqlarning miqdori 27 % ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlariga nisbatan anchagina past ko'rsatkich.

#### AQSHning federal budgetini shakllantiruvchi daromadlar (tuzilishi)

Daromadlar turi	1998-yil		2000-yil		2004-yil	
	Mldr AQSH dollarri	Jami summada hajmi, salmog'i, %	Mldr AQSH dollarri	Jami summada hajmi, salmog'i, %	Mldr AQSH dollarri	Jami summada hajmi, salmog'i, %
Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i	716,79	49,22	742,8	48,8	774,96	48,63
Ijtimoiy sug'urta fondlariga ajratmalar	485,38	33,33	516,0	33,9	543,42	34,1
Korporatsiyalar daromadiga soliq	151,16	10,38	142,16	9,34	153,1	9,6
Aksiz solig'i	43,1	2,96	44,44	2,92	46,85	2,94
Meros va sovg'a-larga solinadigan soliq	21,26	1,46	22,22	1,46	23,42	1,47
Bojxona bojlari	16,16	1,11	14,91	0,98	15,61	0,98
Boshqa daromadlar, davlat bojlari shular jumlasidan	22,45	1,54	39,57	2,6	36,33	2,28
Jami	1456,3	100	1522,1	100	1593,6	100

AQSH da mamlakat iqtisodiyotini davlat monopoliyasi orqali boshqa-rish konsepsiysi inqirozga yuz tutdi va undan chiqib ketish yo'llarini hukumat ma'muriyati ishlab chiqdi. Shunga ko'ra, taklif qilingan dastur davlatning iqtisodiyotini boshqarishdagi rolini kamaytirish va erkin tadbirdorlikka keng yo'l ochib berishdan iborat edi. Buning uchun, birinchi navbatda, budget mexanizmini qayta qurish, ya'ni soliq tizimini, budgetning xarajatlar qismini o'zgartirish va kengaytirilgan ishlab chiqarishga takliflar prinsipi bilan emas, balki budget tamoyillari vositasidan ta'sir qilish amalga oshirildi. Natijada budget yetishmovchilagini birmuncha qisqartirishga muvaffaq bo'lindi.

Umuman olganda, ASHda soliq tizimi aniq yo'lga qo'yilgan bo'lib, u jamiat a'zolari ehtiyojlarining to'la-to'kis shakllanishiga xizmat qiladi.

Federal budget salmog'ini tahlil qilsak, quyidagi jadavldagi holatni (2004-yilga) tasavvur qilishimiz mumkin:

Daromad turlari	Foiz
1. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	41
2. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar	34
3. Korporatsiya daromadidan soliq	10
4. Aksiz yig'implari	3
5. Zayom mablag'lari	8
Boshqa daromad (mulk solig'i, meros va hadyalardan olinadigan soliq)	4
Jami:	100

Amerika Qo'shma Shtatlarida soliq tizimi turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlarning ta'siri oqibatida vujudga kela boshlagan. Ularning tarkibi soliqqa tortish tartibi, soliq stavkalari, hokimiyatning turli tabaqasiga mansub moliyaviy holatlar, soliq tizimi, soliq imtiyozlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatda 83 mingdan ortiq mahalliy boshqaruv organlari mavjud bo'lib, ular o'z shaxsiy mablag'lari bazasiga ega.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromiad solig'i. Soliqlar progres-siv shkala usulida undiriladi. Soliqqa tortilmaydigan daromad minimumi va to'rtta soliq stavkasi mavjud.

Soliqqa alohida fuqaro yoki oila daromadlari tortilishi mumkin. Oila daromadlarini soliqqa tortish misolida ko'rib chiqsak. Oila a'zolarining barcha turlaridan olgan daromadlari jamlanadi. Soliqqa tortish quyidagi tartibda amalga oshiriladi, avvalo, barcha olingan daromadlar jamlanib hisoblanadi: ish haqi, yakka tartibdagi faoliyatidan olgan daromadi, pensiya va nafaqalar (xususiy pensiya va sug'urta fondlar tomonidan to'lanadiganlar), davlat nafaqalarining belgilangan summada ortiq qismi, qimmatli qog'ozlardan olgan daromadlari va h. k.

Soliqqa tortilmaydigan daromad minimum miqdori o'zgaruvchan bo'lgan, u o'sish an'anasisiga ega. 1990-yillar boshida u 3000 AQSH dollariga teng bo'lgan, oilaviy deklaratsiya topshiruvchilarga esa 5000 AQSH dollariga va 2005-yildan boshlab 10.000 dollardan iborat.

AQSHda hozirda mavjud bo'lgan daromad soliq stavkalarini ko'rishimiz mumkin.

#### Daromad solig'i stavkasi

Soliqqa tortiladigan daromad miqdori. (AQSH dollarida)				Soliq stavkasi (% da)
Er-xotinning birgalikdagi jami daromadi	Er-xotinning alohida olgan daromadlari	Yolg'iz oila boslig'i daromadi	Yolg'iz fuqaro daromadi	
0-29750	0-14875	0-23900	0-17850	15
29751-71900	14876-35950	23901-61500	17851-43150	28
71901-149250	35951-113300	61501-123790	43151-89560	33
149251-yuqori	113301-yuqori	123791-yuqori	89561-yuqori	28

Qiziqish bilan AQSH daromad solig'i evolutsiyasini kuzatishimiz mumkin. 1986-yilgacha u yerda 14 ta soliq stavkasidan iborat murakkab sistema amal qilgan, ya'ni 11 % dan 50 % gacha, 1986-yildagi islohotlardan so'ng 5 ta soliq stavkalari joriy qilingan: 11 %, 15 %, 28 %, 35 % va 38,5 %. Ushbu soliq stavkalari soliq to'lovchining daromadiga va oilaviy sharoitiga qarab qo'llanilardi. Yuqoridaq soliq stavkalari 1988-yildan joriy qilingan.

**Ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalar** — 2-kattaligi bo'yicha federal budget daromadi bo'lib hisoblanadi, ular ish beruvchilar va ish oluvchilar tomonidan to'lanadi. AQSH da ijtimoiy sug'ortalashning 2 ta davlat sistemasi amal qiladi: federal pensiya sistemasi va federal-shtatlik ishsizlik bo'yicha sug'ortalash sistemasidir. A'zolik badallarini to'lash majburiy hisoblanadi va ular teng miqdorda ish beruvchi va ishlovchi o'rtasida bo'linadi.

Budjetni shakllantirishda uning stavkalari o'zgarib turadi, lekin tutgan yo'li, g'oyasi bo'yicha u oshishga intilgan, 1980-yillarda birqalikdagi justifik stavrasi 12,3 % (teng 6,15 % dan to'lanardi); 1988-yilda — 15,02 %; 1990-yilda — 15,3 %; 2000-yillar boshida esa 16 % ish haqi fondidan hisoblangan.

Lekin ish haqi fondidan hamma qismi tortilmaydi, ya'ni birinchi 50,1 ming AQSH dollaridan bir yil hisobida ortgan qismigina tortiladi (har bir ishchi soniga).

**Korporatsiya daromad solig'i.** Uchinchi o'rinda budgetning daromadlik darajasi bo'yicha korporatsiyalardan undiriladigan daromad(foyd) solig'i turadi. Joriy etilgan asosiy soliq stavkasi — 34 % belgilangan, lekin o'sib boruvchi tartibda qo'llaniladi. Birinchi 50,0 ming AQSH dollari miqdorida olgan daromadiga 15 % li soliq stavkasi, keyingi olgan 25 ming AQSH dollarga 25 % li va qolgan daromad qismiga asosiy 34 % li soliq stavkasi amal qiladi. Shunday usulda soliqqa tortish nihoyatda kichik va o'rtalbiznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni qo'llab-quvatlaydi.

**Kapital aktivlarni sotishdan olgan daromadlariga soliq** — korporatsiyalar daromadlariga joriy etilgan (maksimal 34 %) soliq stavkasi bo'yicha undiriladi. Lekin sodir etilgan operatsiyadan daromad o'rniga zarar bo'lgan taqdirda, ushbu ko'rilgan zarar summasi soliqqa tortiladigan daromad qisimidan chegirilmaydi.

**Federal aksiz solig'i (yig'imlari)** — davlat budgeti oldida kamtar o'rinni egallaydi, ya'ni chegaralangan ahamiyatga ega. Federal aksiz soliqlari quyidagi tovarlarga — spirtli va tamaki mahsulotlarga, benzin, neft, qimmat-baho taqinchoqlarga, mo'ynalarga, qimmat avtotransport vositalariga, shaxsiy samolyotlarga, yo'l va havo orqali tashish xizmatlariga o'rnatilgan. Aksiz soliqlarning asosiy qismini shtatlar va mahalliy organlar tomonidan undiriladi. Federal aksiz solig'i stavkalari quyidagi tartibda undiriladi: spirtli ichimliklarga 12,5 AQSH dollar 1 gallon uchun,pivoga 9 AQSH dollar 1 barrel uchun. Neft uchun stavkalari deferensial tarzda hisoblanadi. Yangi

aniqlangan konlar bo'yicha 15 % qiymatidan, ishlayotgan konlardan esa 3 pog'onali soliq stavkasi o'rnatilgan (30,60 va 70 %).

Bundan tashqari eng kichik aksiz stavkalari o'q otish qurollariga, baliqchilik anjomlariga va gugurtlarga joriy etilgan.

**Meros va sovg'alar uchun soliq** — soliqqa tortilmaydigan minimumga ega 10000 dollar miqdorida belgilangan. Qimmatroq sovg'a yoki mero progressiv shkala bo'yicha 18 % dan 50 % gacha soliqqa tortiladi. Eng yuqori soliq stavkasi merojni qiymati 2500000 dollardan oshgan holda qo'llaniladi, lekin qarindoshlik darajasi inobatga olinadi.

**Sotuvlardan soliq olish** — bilvosita iste'molchidan undiriladigan soliq, bizning QQS ga yaqin keladi, bu esa shtatlar budgetining asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Oziq-ovqat mollari soliqqa tortilmaydi, restoran xizmatlari bundan mustasno. Ushbu soliq AQSHning 44 ta shtatlarida qo'llaniladi. Sotuvdan soliq Alyaska, Delever, Nyu-Djersi kabi shtatlarda undirilmaydi. Qolgan shtatlarda stavkalar o'zgaruvchan hisoblanadi, sababi soliq stavkalari shtatlar boshqaruv organlari tomonidan joriy etiladi. Eng kichik soliq stavkalar Kolorado va Vayomingda 3 %. Alabama, Luiziana, Michigan, Jorjiya, Janubiy Dakota, Ayova shtatlarida 8 %, Nyu-Yorkda — 8,25 %.

Illinoys shtatida esa sotuvdan olinadigan soliq quydagicha taqsimlanadi: shtat budgetiga 6 %, katta shaharlar budgetiga 1 %, qolgan 1 % temir yo'l departamenti extiyojlari uchun o'tqaziladi.

**Ishchanlik faoliyatiga soliq** — ushbu turdagilari soliqlar AQSHning ayrim shtatlarida qo'llaniladi, masalan, Kaliforniyada. Ishchanlik faoliyatiga soliq 2 ta elementda mayjud:

- Korxonaning jami yillik oborotidan 1 % dan 2,5 % gacha;
- Ish haqi fondiga 1,6 % soliqlar belgilangan.

Shunday qilib, shtatlar, shtatlar moliya bazasi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, korporatsiyalar daromadiga soliq, sotuvdan olinadigan soliq, ishchanlik faoliyatiga soliqlarni tashkil etadi.

**Mol-mulk solig'i.** AQSHning munitsipalitetlari o'zlarining shaxsiy soliq manbalariga ega, shundan eng asosiy bo'lib mol-mulk solig'i hisoblanadi. Masalan, Nyu-York shahrida ushbu soliq budgetning 40 % daromadini tashkil etadi. U taxminan 900 ming bino va inshootlar egalaridan undiriladi. Tijorat maqsadida foydalangan mulk egalari difirensial tartibda soliq stavkalari tortiladi.

**Maxsus kasbiy soliq.** (MKS) AQSHda ilk bor MKS 200 yil ilgari joriy etilgan edi. 1817-yilda u bekor qilindi, ammo XIX asrning 60-yillarida yuz bergan fuqarolar urushi davlat xazinasiga qo'shimcha to'lovlarini talab etdi va MKS qaytadan joriy etildi.

AQSH soliqqa tortish tizimida soliqlarning asosiy turlari hokimlik va kolatlarining barcha pog'onalarini bo'yicha bir xilda qo'llaniladi, ya'ni aholi 3 ta daromad solig'i, korporatsiyalar 3 ta foya solig'i, 2 ta mol-mulkdan olinadigan soliq va hokazo tartibda soliq to'laydilar.

### AQSH soliq tizimining tarkibi va tuzilishi

No	Federal soliqlar	Shtatlar soliq'i	Mahalliy soliqlar
1.	Daromad solig'i	Daromad solig'i	Daromad solig'i
2.	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq	Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq
3.	Ijtimoiy sug'urta solig'i		
4.	Aksizlar	Aksizlar	Aksizlar
5.	Bojxona boji		
6.	Meros va hadya solig'i	Meros va hadya solig'i	Meros va hadya solig'i
7.		Sotuvdan olinadigan soliq	Sotuvdan olinadigan soliq
8.		Mol-mulk solig'i	Mol-mulk solig'i
9.		Avtotransport egalaridan olinadigan soliq	
10.			Ekologiya solig'i

Federal budjet daromadlarining asosiy qismini aholidan olinadigan daromad solig'i tashkil qiladi. Uning subyekti bo'lib jismoniy shaxslar, yuridik shaxs statusiga ega bo'limgan yakka tartibdagi korxonalar va sheriklikka asoslangan korxonalar hisoblanadilar.

Daromadni soliqqa tortish tizimidagi yana bir muhim bosqich — 1980—1990-yillardagi soliq islohotlari natijasida korporatsiya foydasidan olinadigan soliqning kiritilishi bo'ldi. AQSHda korporatsiyalarni soliqqa tortishning asosiy tamoyili bo'lib, soliqqa tortishning yakuniy obyekti bo'lgan sof foydadan soliq olish hisoblanadi. Ushbu soliqni to'lovchilar, eng avvalo, aksioner kompaniyalardir. Soliqning taxminan 85 % federal darajada, 15 % esa shtatlar va mahalliy hukumat organlari darajasida undiriladi.

**Yakuniy bosqich** foydadan dividendlarni to'lashga sarflanadigan qismi bilan bog'liq. Soliq imtiyozlariga ko'proq fermerlar egadirlar. Ular tufayli bir qator hollarda (asosan qurg'oqchilik yillarida) ayrim kompaniyalar soliq manbasini yo'qqa chiqaradilar. «Fermer» imtiyozlaridan so'ng kichik innovatsion biznesga sarmoyalarni kiritadigan yakka tartibdagi sarmoyachilarni imtiyozli soliqqa tortish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Davlatning ularni qo'llab-quvvatlashdagi manfaatdorligi aniq, chunki daromad solig'i stavkalari 28, 31, 36 va 39,6 % bo'lgan shaxslar uchun kapital o'sishning haqiqiy soliqqa tortiladigan stavkasi 14 % darajasida bo'ldi. Odatdagi stavkasi 15 % ga teng bo'lgan investorlar uchun esa haqiqatda stavka faqatgina 7,5 % dan iborat bo'ldi. Korporatsyaning asosiy soliq stavkasi 34 % miqdorida va ular quyidagi ko'rinish bo'yicha soliq to'laydilar: korporatsiya bиринчи soliqqa tortiladigan daromadning 50 ming dollari uchuń 15 % to'laydi, keyingi 25 ming dollari uchun — 25 %, 75 ming dollardan yuqorisiga uchun esa 34 foiz to'laydi. Bundan tashqari, 100 ming dollardan 35 ming dollargacha oraliqdagi daromadlarga 5 % miqdorida qo'shimcha yig'im o'rnatilgan. Bunday pog'onali soliqqa tortish o'rta va kichik korxonalar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy sug'urta badallari tushumini ta'minlovchi daromadlar esa o'sish an'anasiga ega. Yollanma ishchilar va ish bilan ta'minlovchilar uchun aralash stavka 15,3—25 % joriy qilingan. Jismoniy shaxslar meros va hadyadan 18 dan 55 % gacha (agar mulk qiy-

mati 600 ming dollardan oshsa) stavkada soliq to'laydilar. Jami federal soliqlar tushumi hajmida ularning ulushi 1—2 % ni tashkil qiladi va mahalliy darajada ushbu soliq ahamiyatining oshishi hisobidan pasayish an'anasiga ega.

AQSHning 51 ta shtatidagi soliq daromadlari tuzilmasi federaldan jiddiy farq qiladi. To'lig'icha xususiy tushumlar umumiy daromadlarning taxminan 80 % ni tashkil qiladi, qolgan 20 foizi esa federal subsidiyalardir. Umumiy hajmda sotuvdan olinadigan soliq tushumlari ulushi 30—40 % ga yetadi. Uning soliqqa tortish obyekti bo'lib, tovar va xizmatlarning qiymati hisoblanadi. Soliq stavkalari shtatlar tomonidan belgilanadi va 4—8 % oraliqda bo'ladi. Aholidan olinadigan daromad solig'i 44 ta shtatda olinadi, qolganlarida u mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga o'tadi. Soliq stavkasi 2—10 % gacha oraliqda bo'ladi; ushbu soliqning soliqqa tortish obyektlari farqlanadi. Ammo foydalanishning bir xil va qulay bo'lishi uchun ko'pchilik shtatlar o'z stavkalarining manbayi sifatida, federal soliqning ma'lum foizini asos qilib oladilar. Bunda shtatlarda soliq deklaratsiyasining o'z shakli bo'lib, ularda to'langan soliq summasi subyektlarning federal soliq bo'yicha soliqqa tortish majburiyatları aniqlanganda chegirib tashlanadi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda biz quyidagi takliflarni berishni lozim topdik: o'rganib chiqqan AQSH soliq tizimidan jismoniy shaxslar daromadlarini majburiy deklaratsiyalash soliqqa torish amaliyotida keng qo'llaniladi. Fuqarolarning o'z daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyalar, ular daromadlari manbalarining qonuniyligi va oshkoraliqi soliqqa tortish borasidagi ayrim muammolar kelib chiqishining oldini oladi. Shuningdek, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, ular uchun soliqqa tortilmaydigan minimum joriy etilgan va u yildan yilga o'sib borish an'anasiga ega.

### 2. Kanadada soliq tizimi

Kanada **amerikacha-sakson soliq** modeliga, liberal soliq tizimiga va maqsadli soliq mexanizmiga ega. Boshqa federativ davlatlardan Kanada mahalliy organlarni yuqori mavqeyi bilan boshqa davlatlardan ancha yuqori darajasi bilan farq qiladi. Federal hukumat bo'linmalarining ahamiyatli ta'siri ostida provinsiyalar milliy iqtisod strategiyasi shakllanishida jiddiy rol o'ynaydi. Kanada hukumati xarajatlarining yarmidan ko'proq qismi va ta'lim, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy sug'urtani ta'minlash funksiyalari provinsiyalar ulusiga to'g'ri keladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, provinsiyalar rolini oshirish an'anasiga oxirgi yillarda ham davom etmoqda. **Kanada soliq tizimi** quyidagi uchta asosiy darajada taqdim etiladi:

- Federal (davlat daromadlarining qariyb 50 %);
- provinsiya (qariyb 40 %);
- mahalliy (10 %).

Federal budgetning asosiy qismini quyidagilar tashkil qiladi: aholidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiya solig'i, tovar va xizmatlar solig'i, aksizlar, bojxona boji va ijtimoiy sug'urta jamg'armasi badallari. Provinсиya daromadlari: aholidan olinadigan daromad solig'i, korporatsiya foydasidan olinadigan soliq, sotuvdan olinadigan soliq, aksizlar, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi badallari, hadya solig'i, renta to'lovlar, turli ro'yxatga olish yig'imlaridan iborat. Tushumlarning asosiy qismi daromad solig'i va egri soliqlarga to'g'ri keladi. Mahalliy budgetlar soliq tushumlari ko'chmas mulk solig'i va tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliqlardan iborat.

**Kanada soliq tizimini** takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan soliq islohoti tufayli zamona viylashdi. Uning qoidalariiga asosan Kanadada federal darajada daromad solig'inin o'nta stavkasi o'rniga uchta stavka, har bir regionda esa o'zlarining mahalliy stavkalari qo'llanila boshlandi.

#### Kanadada asosiy soliq stavkalari

Provinsiya, hudud	Asosiy stavka		Federal-provinsial stavka	
	Daromad solig'i	Foyda solig'i	Daromad solig'i	Foyda solig'i
Nyufaundlend	21,0	14,0	52,3	43,12
Yangi Shotlandiya	19,0	16,0	50,3	45,12
o.Prins Eduarda	19,0	15,0	50,3	44,12
Nyu-Bransuik	20,1	17,0	51,4	46,12
Kvebek	21,6	8,9—16,2	52,9	38,0—45,0
Ontario	21,6	15,5	52,9	44,6
Manitoba	19,1	17,0	50,4	46,1
Saskachevan	20,6	17,0	51,9	46,1
Alberta	14,8	15,5	46,1	44,6
Britanskaya Kolumbiya	22,9	16,5	54,2	45,6
Yukon	15,3	15,0	46,6	44,1
Shimoli-g'arbiy hududlar	13,0	14,0	44,4	43,1

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar federal va provinsial stavkalardan tashkil topgan integrallashgan stavka hisob-kitob usulini ko'rsatadi. Kanadada kichik biznes faoliyatini rag'batlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bunday kichik firmalar (100 kishidan kam yollanma mehnat ishchilari bo'lgan firmalar) ulushi barcha kompaniyalar (xizmatlar, chakana savdo, qurilish) hisobining 97 % ga yetadi va ularning daromadlariga yagona stavka — 12 % qo'llaniladi. Umuman Kanadaning soliq tizimida to'g'ri soliqlar yuqori turadi. **Egri soliqlar** — yagona 7 % stavka bo'yicha tovar va xizmatlarga qo'yiladigan federal soliq hamda sotuvdan olinadigan mahalliy soliqlarga kiradi. Ba'zan provinsiyalarda ushu ikki soliq qo'shma stavkada birlashib, 15 foizni hosil qiladi. Birlashgan soliq chakana narxlarga qo'shiladi. Soliq yig'ishda keng vakolatga ega bo'lishiga qaramasdan provinsiyalar federal hukumat tomonidan ularning barcha daromadining 28 % ni tashkil qiladigan transferlar ko'rinishidagi moliyaviy yordam oladilar.

Asosiy tushumlarni aholi daromadidan olinadigan soliq va bilvosita soliqlar tashkil etadi. Oxirgi davrda foyda solig'iidan tashqari moddalar provinsiyalar budgetida o'sib bormoqda.

Mahalliy budgetlar ko'chmas mulk solig'iidan va tadbirkorlikka to'lanadigan soliq tushumlaridan iborat. Kanadada soliq tizimi yaxshi rivojlangan. Soliq siyosati Moliya vazirligining budget siyosati va iqtisodiy tahsilil bo'limda ishlab chiqiladi. Hamma loyihibar «Obshina» palatasida muhokama qilinadi. Soliqlarni Milliy daromad vazirligi yig'adi. Soliq sudi barcha muammolarni hal qiladi. Ilmiy izlanishlar uchun mintaqaviy imtizozlar saqlangan. Atlantik hududlarga investitsiya kreditlari 15 %, maxsus rayonlarda — 10 % ni tashkil etadi. Kapital qo'yilmalar kreditlarga ilmiy izlanishlar bo'yicha 30 %, qayta ishlash kompaniyalar uchun 4,5 % bo'ladi. Ularning asosiy maqsadi fermerlarning farzandlarini qishloq xo'jalik sohasiga jalb etishdan iborat. Ota-onalardan keyin bolalarning ulushi fermer xo'jaligida bozor qiymati o'sish solig'ini to'lamasdan o'tadi. Bu to'lov farzandlar boshqa mulkka ega bo'lguncha olinmaydi. Boshqa imtiyoz — besh yillik daromad miqdorini o'tracha olish va baholar o'zgarishlarining ta'sirini fermerlar uchun kamaytirish. Uchinchi imtiyoz — fermerlar va baliqchilar uchun daromadni hisoblash usuli bilan bog'liq. Bu usul ularga daromadlarni yillar bo'yicha taqsimlab, qolgan foydani kuchaytirish yoki kamaytirish bilan faoliyat yuritish.

**Kichik biznesni** rivojlantirishga mamlakatda katta ahamiyat beriladi. Bu kategoriyaga yillik sotuvlari 2—20 mln dollarga teng bo'lgan va daromadlari 200 ming dollardan oshmag'an va tarkibi 100 kishidan ortiq bo'lgan kompaniya va firmalar kiradi. Mayda firmalar miqdori 97 % ni tashkil etadi. Ularning asosiy faoliyati — chakana savdo, xizmatlar, qurilish, fan sohasi. Soliq islohoti o'tkazilgandan keyin kichik biznes kompaniyalariga 12 % soliq stavkasi belgilangan. Kanada hukumati aholini ish bilan ta'minlashga bu sohada katta umidlar qiladi.

Soliq tizimida bevosita soliqlar ustunlik qiladi, bunda aholi daromadidan olinadigan soliq asosiy qismni tashkil etadi. Eng ko'p soliq kompaniyalar foydasidan olinadigan soliq hisoblanadi. **Sotuvlardan olinadigan soliqlar** — soliqlar ichida qulay bo'lib, ikki xususiyatga ega:

- faqat iste'molga qaratilgan, ishlab chiqarishni soliqdan ozod qilib, uning rivojlanishiga ko'maklashadi;
- anchagina keng doiraga tayanadi.

Sotuvlardan olinadigan federal solig'i chakana sotuvlardan 10 % olinadi. Yig'imlar chakana sotuvlardan ko'pchilik tovarlardan olinadi, faqat oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar, yoqilg'i tovarlaridan olinmaydi.

Soliqlar stavkasi provinsiyalar fiskal talablariga muvofiq o'zgarib turadi. Vritan Kolumbiya provinsiyasida u 6 %, Nyuvaundlen provinsiyasida esa — 12 %. Bu tadbir Kanada soliq tizimini yaxshilashga olib keldi, ammo bir necha muammolar paydo bo'ldi. Kanada soliq tizimi iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 1990-yillarda soliqni tartibga solish tadbirlari talabni kuchaytirishga qaratilgan edi, ammo asosiy masala — bu davlat xarajatlari bo'lgan. Olingan aholi daromad solig'i soliq tushumlardan 45 % edi (37 % — jismoniy shaxslardan daromad solig'i, 8 % korporatsiyalardan soliq,

iste'molga soliq — 30 %). Provinsiyalarda yig'ilgan soliqlar ulushi sezilarli va katta.

Kanada markazlashtirilgan mamlakat emas. Federal hukumat kuchli bo'lsa ham, provinsiyalarning ahamiyati katta, ayniqsa ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta sohalarida.

Federal hukumat soliqqa tortish manbalarini imtiyozlar, eng katta soliq stavkalari, daromad darajasini aniqlab beradi. Provinsiyaga esa o'zining soliq stavkasini bu yig'indiga asoslanib soliq mas'uliyatini hisoblaydi. Bu bitim federal va provinsiya soliq tizimlarining kelishuvini yuqori darajada saqlab qolib, provinsiyalarga o'zining soliq tushumlarini nazorat qilishga imkoniyat berdi. Soliq to'lovchilar yagona soliq tizimi va yagona soliq deklaratsiyasi formasiga ega bo'lishdi. Ammo federal hukumat soliq siyosati bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega. Shu sababdan soliq yig'imlar bo'yicha bitim bir necha marta o'zgarib turibdi.

### Nazorat savollari:

1. AQSH soliq tizimining o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
2. Shtatlar solig'i va mahalliy soliqlar, daromad solig'i va uning stavkalari, korporatsiya foyda solig'i to'g'risida tushuncha bering.
3. Aksizlar, bojxona boji, meros va hadya solig'i to'g'risida tushuncha.
4. AQSHda aholidan olinadigan daromad solig'i va mulk soliqlarining O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan taqqoslaganda qanday farqlar mavjud?
5. AQSH Federal budgetining tarkibi qanday?
6. Fuqarolardan qanday daromad solig'i olinadi?
7. Korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i qanday farq qiladi?
8. Hududlarni monopoliyalashda mahalliy soliqlarning roli qanday?

6-bob.

## YEVROPA DAVLATLARI SOLIQ TIZIMI

### 1. Germaniya Federativ Respublikasining soliq tizimi

Germaniya o'zining iqtisodiy quvvati bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda bo'lib, tashqi savdo-sotiq bo'yicha 2-o'rinda turibdi.

Yalpi ichki mahsulot bo'yicha 2004-yil Germaniya — 2421 mlrd bo'lsa, AQSH — 6982 mlrd, va Yaponiya — 4969 mlrd dollar bo'lgan. Iqtisodiy o'sishi o'rtacha 7—9 % (milliy daromad bo'yicha) ni tashkil qilgan. Ya'ni eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.

Germaniya soliq kodeksi va ularga berilgan soliq instruksiyasi hozirgi kunda 2652 betdan iborat (mayda 10 o'Ichamda yozilgan shiriftda).

Germaniyada soliq tushumi salmog'ining Milliy daromadga nisbati quyidagicha o'zgargan: 1970-yil — 22,8 %, 1980-yil — 24,6, 1985-yil — 23,7, 1990-yil — 22,9, 1995-yil — 22,2, 2000-yil — 22,1, 2005-yil — 22 % (Loyiha). Yil sayin soliq og'irligini kamaytirishga harakat qilishayapti.

Germaniya soliq tizimi Yevropacha soliq modeliga — markazlashgan soliq tizimiga kirib, soliq tushumini yig'ish bo'yicha fiskal mexanizmga ega<sup>1</sup>.

**Otto Fon Bissmark** — «Temir kansler» tarixga Germaniyani birlashiruvchi sifatida kirib keldi. Shu bilan birlashtiruvchi uni siyosiy ikkiyuzlamachi va Germaniya militarizmining asoschisi hisoblashadi. 1862-yilda Bosh Vazir etib tayinlangan **Bismark** Prussiya parlamenti fikrlarini bekor qildirib, katta xaratjatlar dasturiga qarshi chiqdi va o'zining farmoni bilan soliqlarni ko'tardi. 1871-yilda Germaniya imperiyasi tashkil topishida asosiy to'g'ri soliqlarning o'rnatilishi unga kirgan davlatlar uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Imperiyaga esa faqatgina bojxona bojlarini va tamaki, pivo, aroq, shakar, tuzga bo'lgan ehtiyoj uchun umumimperiyaga soliqlarni o'rnatish huquqi berilgan edi.

**Soliq siyosatining maqsadi.** Ularni o'z vaqtida Germaniya kansleri Otto Bismark qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bojxona bojlarini kiritish haqidagi masalani hal qilishda aniqlab bergan. U o'zining 1879-yil 2-maydag'i nutqida shunday degan edi. «Hozirgi ahvolimiz haqida shuni aytishim mumkinki, bunda to'g'ri soliqlardan ko'proq narsa talab qilamiz va egri soliqlardan esa juda kam narsa talab qilamiz. Men to'g'ri soliqlarni bekor qilib, ulardan tushadigan tushumlarni egri soliqlar hisobidan qoplashga

<sup>1</sup> P. A. Дернберг. Международное налогообложение. М., ЮНИТИ, 1997 г., стр. 127.

**erishaman».** 1919-yilning dekabrida Germaniya imperiyasi tomonidan moliya ministri Ersbergerom tomonidan soliq reformasi tuzilgan. Uning bosh maqsadi yer solig'i moliya tizimida mustaqil bo'lishidir. Davlat o'z qo'liga soliqlarni nazorat qilish huquqini olgan. O'sha vaqtida oborot solig'i oshdi, qo'shimcha soliq to'lashga o'tdilar. Oldiniga 26 ta yer qonuni bo'lib daromad solig'i o'rniqa imperiya daromad solig'i joriy qilindi va uning stavkasi 60 % qilib belgilandi. Bu va boshqa choralar hisobiga qisqa vaqt davomida davlat xarajatlari ijtimoiy ta'minotlari 5 marta kengayib ketdi.

**II jahon urushidan keyin.** Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi bilan urushdan keyin ko'pchilik iqtisodchilar va davlat xodimlari, oldin qishloq xo'jalik ministri, keyin esa FRG kansleri professor **Lyudvig Erxord** shug'ullangan. L. Erxord erkin bozor iqtisodiga o'tish asoschisi sifatida **kichik bo'limgan xo'jalik subyektlarini yaratish uchun qattiq nazorat o'tkazish va ekonomika resurslarini markazlashtirish zarurligini belgilab, soliq reformasini o'tkazgan**. Germaniyada II jahon urushidan keyin qonunchilik o'rnatildi, negaki davlat oldidagi vazifa yer solig'ini federatsiya tarkibiga kiritish edi.

Bu soliq tartibga solinadigan bo'lib, taqsimlash uslublari har xil bo'ladi. Germaniyada va yana bir necha mamlakatlarda vertikal va gorizontal usul daromadlarni tenglashtirganda qo'llanadi. Yuqori rivojlangan, katta daromad oladigan yerlar, masalan, Bavariya, Vyurtemberg, Shimoliy Reyn-Vestfaliya o'zining daromadlarining ma'lum bir qismini kamroq rivojlangan yerkarga — Saksoniya, Shlezvig-Golshteynga o'tkazadi. Bu soliq tizimining va soliq tushumanidan samarali foydalanishning ko'p yillik yutug'i. Lyudvig Erxard fuqarolarning soliq og'irligini kamaytirish tilaklarini juda to'g'ri tushungan.

#### L. Erxard paytidan boshlab Germaniyada soliq tizimning asosiy tamoyilari quydagilardan iborat:

- imkoniyat qadar soliqlar minimal bo'lishi kerak;
- soliqlarni yig'ish uchun xarajatlар minimal bo'lishi kerak;
- soliqlarni o'zgartirmasligi va teng sharoit yaratib berishi kerak;
- soliqlar tarkibiy siyosatga rioya qilishi kerak;
- soliqlaradolatli taqsimlanishi shart;
- soliqlar odamlarning shaxsiy hayotiga xizmat qilishi kerak;
- soliqqa tortish munosabati fuqarolar shaxsiy hayotining minimal darajasini ta'minlab berishi kerak;
- tijorat siri saqlanishi kafolatini ta'minlash kerak;
- soliq tizimi 2 martali soliqqa tortishga yo'l qo'ymasligi kerak;
- soliqlar tushumi davlat xarajatlari miqdoriga to'g'ri bo'lishi kerak.

Ikkinchи jahon urushidan keyingi Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi taniqli iqtisodchi, professor, kansler Lyudvig Erxard bilan bog'liq. U erkin iqtisodiy bozor munosabati tarafdoi edi.

**Soliqdan tushgan umumiy tushum strukturasi 2004-yilga nisbatan quydigicha o'rinn olgan:**

Budjet turlari	Yil	
	1980	2004
Federatsiya	48,3	48,0
Yer	34,8	35,4
Mahalliy	14,0	11,6
EH	2,9	4,9

Mahalliy budjet daromad qismining 95 % mahalliy soliq hisobiga to'ldirilgan va ayrim soliqlar uchga, ayrimlari ikki budjetga taqsimlanadi.

Soliq tushumining o'sishini tahlil qilsak, federal budjetga tushgan soliq tushumi 65 % ga, yer budjetiga tushgan soliq tushumi 35 % ga va mahalliy budjetga tushgan soliq tushumi 33 % ga o'sgan.

#### Soliq tushumi strukturasi:

	1970	1985	1995	2004
	%%	%%	%%	%%
1. Jami soliqlar:	100	100	100	100
Shu jumladan:				
Daromad solig'i	35,4	41,7	40,7	32,6
QQS	24,7	25,1	33,6	30,2
Kasb-hunar solig'i (промысловый)	6,9	7,0	4,7	8,1
Korporatsiya solig'i	5,6	7,3	4,1	6,4
Aksizlar	14,7	10,5	9,4	15,1
Boshqalar	12,7	8,4	7,4	8,6

Davlatga soliqlardan eng katta daromadni qo'shimcha qiymat solig'i keltiradi. Uning ulushi budjet tarkibida 28 % — daromad solig'idan so'ng ikkinchi o'rinda. Mahalliy budjetlar stavkasi 15 % ni tashkil etadi.

Asosiy oziq-ovqat tovarlari, kitob va ro'znomalar pasaytirilgan — 7 % stavkasida soliqqa tortiladi. Bu stavka kafe va restoranlar aylanmasiga kirmaydi.

**Germaniyada amalda 40 dan ortiq soliq, yig'im va to'lovlar bo'lib, ularning asosiyлари quydagilardan iborat:**

Soliqlar:	
Nomi	Tushuntirilishi
Qishloq xo'jalik solig'i	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini muvofiqlashtirish
Kuzatuv kengashi a'zolaridan olinadigan soliq	Ushlab qolinadigan soliq
Pivo solig'i	Soliqqa tortiladigan daromad summasidan
Birja kelishuvlari oborotidan olinadigan soliq	Kapital aylanishidan olinadigan soliq
Spirli ichimliklar solig'i	Aksiz solig'i
Import QQS	QQS olish shakli
Daromad solig'i	Daromad va mulk solig'i
Meros va sovg'a solig'i	Daromad va mulk solig'i
Yong'indan saqlash solig'i	Sug'urtaning alohida solig'i
Savdo va sanoat jamiyatni solig'i	Kapital aylanishidan olinadigan soliq
Ichimliklar solig'i	Mahalliy soliq
Tadbirkorlik bilan shug'ullanish	Daromad va mulk shakli

Ko'chmas mulk solig'i	QQSning alohida shakli
Yer solig'i	Mahalliy soliq
It egasidan olinadigan soliq	Mahalliy soliq
Ovchilik va baliq tutish solig'i	Mahalliy soliq
Qahva solig'i	Aksiz solig'i
Kapital daromadidan soliq	Daromad solig'i olish shakli
Kapital aylanishidan soliq	Kelishuv-bitim solig'i
Foyda solig'i	Daromad solig'ining alohida shakli
Avtotransport vositalardan soliq	Kelishuv-bitim solig'i
Oylikdan olinadigan daromad solig'i	Daromad olish shakli
Neft mahsulotlari solig'i	Aksiz solig'i
Ot o'yini, lotoreya va totalizator solig'i	QQSning alohida shakli
Spirlli ichimliklardan olinadigan soliq	Mahalliy soliq
Shampan vinosi solig'i	Aksiz solig'i
Kazino solig'i	Mulk va kelishuv-bitim solig'i
Tamaki mahsulotlari solig'i	Aksiz solig'i
Choy solig'i	Aksiz solig'i
QQS	Kelishuv-bitim solig'i
Tomosha va kuldiruvchi faoliyat bilan shugullanadigan korxonalar solig'i	Mahalliy soliq
Mulk solig'i	Mulk va kelishuv bitimi solig'i
Sug'urta solig'i	QQSning alohida shakli
Veksel yig'imi	QQSning alohida shakli

**Germaniyaning asosiy soliqlari.** Germaniyada asosiy soliq turlari bu jismoniy shaxslar daromad solig'i, korporatsiya solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, meros solig'i, avtomashina solig'i, qahva uchun aksiz solig'i, shakar, mineral yog', aroq-vino va tamaki mahsulotlari, bojxona bojlari hisoblanadi. Davlatga eng yuqori daromadlar, yuridik shaxslardan, ya'ni qo'shimcha qiymat solig'idan tushadi. U budget daromad qismining 28 % ni tashkil etadi va daromad solig'idan keyin 2-o'rinda turadi. Umumiy soliqlar stavkasi hozirgi vaqtida 15 % ni tashkil etadi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari 7 % li stavkada, korporatsiya daromad solig'i stavkasi 45 % da. Kredit, ssudalarga va dividendlardan foyda uchun o'tacha stavka 42 % ni tashkil etadi. Soliq mexanizmini davlatning ijtimoiy ishlab chiqarishiga, uning tuzilmasiga hamda ilmiy-teknika rivojlanish holatiga iqtisodiy ta'siri sezilarlidir.

**Jismoniy shaxslar daromadidan soliq.** JSHDSning davlat budgetidagi salmog'i yil sayin oshib borayapti va 1970-yili 35,4 % bo'lgan bo'lsa, 2004-yilga kelib — 40,7 % ni tashkil qilgan. Bu soliqning tarkibiga: ish haqi, gonararlar, yollanma ishlaydiganlarning daromadidan olinadigan, sarmoya va kapitaldan olingan daromad, arenda, bank foizlaridan tushgan daromad, xususiy tadbirdorlikdan tushgan daromad kiradi.

Aholi daromadini soliqqa tortishda soliq olinmaydigan minimum joriy qilingan va u 4762 marka va 9505 marka uylanganlarga berilgan. Ish haqidagi olinadigan kam stavka 19 % bo'lib, yuqori stavkasi — 50 % gacha boradi. Oilasi tarkibida ko'p bolalilarga maxsus jadval asosida soliqqa tortish tizimi mavjud bo'lib, imtiyozlar joriy qilingan.

## Yollangan jismoniy shaxslarning daromadidan quyidagi asosiy xarajatlar chegirilib, keyin soliqqa tortiladi:

- Oila uchun qilingan xarajatlar.
- Diniy to'lovlari.
- Transport xarajatlari.
- Sug'urta to'lovlari.
- Bilim va o'qish uchun qilingan xarajatlar.

**Fuqarolarning asosiy soliqlari haqida.** Germaniyada daromad solig'i o'sib boruvchi, uning minimal stavkasi — 19 %, maksimal stavkasi — 53 %. Soliqqa tortilmaydigan minimum yakka fuqarolarga 1536 marka, oilaviy juftliklar uchun 3072 marka. Undan keyin imtiyozlar, bolalarga, yoshiga qarab imtiyozlar, favqulodda holatlar bo'yicha imtiyozlar (kasallik, baxtsiz voqeja). Masalan, 64 yosh va undan yuqori shaxslarga soliqqa tortilmaydigan minimum 3700 markagacha ko'payadi, yer uchastka kassasiga ega bo'lgan shaxslarning 4750 markasi soliqqa tortilmaydi. Soliqning maksimal stavkasi fuqaroning daromadi 120 ming marka yoki oilaviy juftliklarning daromadlari 240 markaga ko'paygan fuqarolarga qo'llaniladi.

Germaniyada gerb uchun yig'im, qimmatli qog'ozlar, veksel, karta o'yinlari uchun soliqlar joriy qilingan. 1906-yil meros solig'i, 1913-yil mol-mulk solig'i bilan bir vaqtida mulk solig'i joriy qilingan. 1916-yildan Germaniyada to'g'ri soliqlardan faol foydalanilgan: boj va aksiz soliqlar xarajatlarini qoplasmagan harbiy aloqalar bilan bog'liq to'lovlari. 1918-yilning iyulida Germaniya aylanma solig'i 0,5 % li stavkada bo'lgan, 60-yillargacha shu stavka qo'llanilgan.

**Milliy tovar ishlab chiqaruvchilardan soliq.** Bu soliq mahalliy soliqqa kiradi va milliy tovarlar ishlab chiqarish, baliq ovlash bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar, o'rmon xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullananganlar, kema va yaxtalar ishlab chiqaruvchi hamda ulardan foydalanuvchilardan yuridik va jismoniy shaxslar soliqqa tortiladi.

Bu soliq bo'yicha ham soliq olinmaydigan minimum 1995-yildan boshlab yuridik shaxslarga 48000 marka belgilangan va 144000 markagacha imtiyozli soliq stavkalari joriy qilingan. Bu soliq stavkalari 1995-yili 5 % foydadan va 0,2 % sarmoyadan. Hunarmandchilik solig'i asosiy mahalliy soliq hisoblanaadi. Unga korxonalar, shirkatlar, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo va boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan fuqarolar tortiladi. Soliq hisoblash asosi deb olinadigan foyda va kompaniya sarmoyasi. Soliq stavkasi mahalliy (munitsipal) organlar tomonidan aniqlanadi. Misol: foyda soliq stavkasi — 5 %, asosiy fondlar qiymatidan 0,2 %. Soliqqa tortilmaydigan minimal daromad miqdori — 36 ming marka, sarmoya qiymatidan 120 ming marka. Germaniyada hunarmandchilik solig'i ko'p vaqtidan beri muhokama qilinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagi taqsimlangan: 42,5 % federal budgetga yo'naltirilgan; 42,5 % yer budgetiga va 15 % mahalliy budgetlarga yo'naltirilgan.

**Yer solig'i.** Bu soliqqa tortishda asosiy o'rinni yer qiymati va uning ahamiyati hal qiladi. Bu soliq har yili davlatga o'rtacha 15 mlrd marka tushum beradi. Yer solig'ini to'lovchi obyektlar aholi uchastkalari, qishloq xo'jalik yerkari, kompaniyalar yeri, qurilayotgan yerlar hisoblanadi. Yerga soliq miqdori aniqlanganda munitsipalitetlar tomonidan maydonlar chegaralanadi (qishloq xo'jaligiga, o'rmonchilikka, va h. k.). Mulk soliq stavkasi jismoniy shaxsga 1 % gacha ko'tarildi, oldin u 0,5 % edi. Sanoat korxonalarini va kompaniyalar 0,6 % to'lashadi.

Yer resurslarini soliqqa tortish bo'yicha Davlat qonuniga asosan soliqqa tortishning «A» va «B» usulublari joriy qilingan Birinchisi, qishloq va o'rmon xo'jaliklariga tatbiq qilinsa, ikkinchisi, yer uchastkalariga, korporatsiya yerkari, qurilayotgan yerlarga hamda jismoniy va yuridik shaxslarning xususiy yerkarini soliqqa tortishda ishlataladi.

#### Soliq stavkalari:

- 0,6 % — qishloq va o'rmon xo'jalik yerkari;
- 0,35 % — qurilish tamom bo'laman yerkarini soliqqa tortishda;
- 0,34 % — qurilayotgan xususiy yerkara;
- 0,26 % — bir oila turgan yerga;
- 0,35 % — bir oila turishi me'yordan ortiqcha yerkara;
- 0,31 % — ikki oila turadigan uchastka yerkari.

Yer solig'idan cherkovlar, davlat idoralari, kasalxonalar va maktabgacha bo'lgan bolalar bog'chalari ozod qilingan.

**Korporatsiya solig'i.** Bu soliqdan tushgan soliq tushumi federal va yer budgeti o'rtasida bo'linadi va u to'g'ri soliqqa kiradi. Soliq stavkasi ikki xil bo'lib, umumiy foydadan (soliqqa tortiladigan foydadan) — 56 %, agar foya qayta taqsimlanmasa — 36 % (qayta aksiyadorlar o'rtasida taqsimlansa). EH bo'lgandan keyin yuqorida soliq stavkalari 2002-yildan boshlab quyidagicha o'zgargan: 46 % va 26 %.

Korporatsiya solig'i federal va mahalliy budgetiga teng bo'lingan. Germaniyada korporatsiya solig'iga 2 asosiy stavka belgilangan. Foyda taqsimlanmasa, unda stavka 50 % bo'ladi. Dividendlar shaklida taqsimlangan foydaga soliq stavkasi 36 % bo'ladi, dividendlar aksionerlarning shaxsiy daromadiga kiradi, shu sababli soliqqa tortiladi. O'rta hisobda, imtiyozlar bilan stavka 42 % dan oshmaydi.

Kapital va sarmoyalardan olingen daromaddan olinadigan soliq. **Joriy qilingan aksiya va obligatsiyalardan olinadigan dividendlardan, bank qo'yilmalaridan, zayomlardan olingen yutug'lar soliqqa tortiladi.** Soliq stavkalari:

- 25 % — aksiyalardan olingen daromadga;
- 24 % — obligatsiyalardan olingen daromadga;
- 30 % — zayomlardan yutuqlarga;
- 30 % — bank operatsiyalaridan olingen daromadga.

Yuridik soliqlardan eng katta daromadni davlatga qo'shimcha qiymat solig'i keltiradi. Uning ulushi budget tarkibida 28 % — daromad solig'idan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Soliq stavkasi 15 % ni tashkil etadi.

Ammo asosiy oziq-ovqat tovarlari, kitob va ro'znomalar pasaytirilgan — 7 % stavkasida soliqqa tortiladi. Bu stavka kafe va restorantlar aylanmasiga kirmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i Germaniyada o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tadbirkorlikning o'tkan yilgi aylanmasi 20 ming markadan oshmagan bo'lsa, joriy yilda esa bu miqdor 100 ming markadan oshmasa, bu soliqdan ular ozod qilinadi. Tadbirkor kalender yilda daromad miqdorini 60 ming markadan oshirmagan bo'lsa, u regressiv usul bo'yicha soliqqa tortiladi va budjetga qo'shimcha qiymat solig'i hisobidan 80 % to'laydi.

**Mol-mulk solig'i.** Bu soliq tushumi yer budgetiga tushadi va soliq minimumi soliq to'lovchilarga 70 ming marka bo'lsa, oilaga 140 ming markani tashkil qiladi, bu summa soliqqa tortishda bazadan chegrilib tashlangan holda soliq olinadi. Bu soliq bo'yicha ko'p imtiyozlar bo'lib, ulardan davlat idoralari, bolalar bog'chalari, nogironlar, 60 yoshdan oshgan qariyalar va er-xotinlar foydalanadilar.

#### Soliq stavkalari:

- 0,6 % — yuridik shaxslar uchun;
- 0,5 % — jismoniy shaxslar uchun.

**Yer sotib olganlardan soliq.** Yer sotib olish qiymati uchastka sotib olish va merosga qoldirilgan uchastka yerkari ham soliqqa tortiladi. Soliq stavkasi 0,2 % yer qiymatidan hisoblanadi.

**Qo'shilgan qiymat solig'i.** Hamma tovar va xizmatlar uchun qo'yilgan soliq hisoblanib, bahoga yoki tarifga qo'shimcha to'lov hisoblanadi. QQS 14 % oborotdan hisoblanib, oziq-ovqat va kanselyariya, kitob tovariariiga 7 % belgilangan. Qo'shilgan qiymat solig'i ham uch budgetga teng taqsimlanadi. Qo'shimcha qiymat solig'idan qishloq, o'rmon xo'jaliklaridan eksportga jo'natiladigan tovarlar ozod qilinadi. Germaniyada korporatsiya solig'iga 2 asosiy stavka belgilangan. Foyda taqsimlanmasa, unda stavka 50 % bo'ladi. Dividendlar shaklida taqsimlangan foydaga soliq stavkasi 36 % bo'ladi (dividendlar aksionerlar shaxsiy daromadiga kiradi, shu sababli soliqqa tortiladi). O'rta hisobda, imtiyozlar bilan stavka 42 % dan oshmaydi. Tezkor amortizatsiya usuli keng qo'llanadi. Qishloq xo'jalikda birinchi yil ichida uskunalarning qiymatini 50 % olib tashlash mumkin. Birinchi 3 yilda — 80 % gacha. Ssdalar bo'yicha foizlar soliqqa tortilmaydi.

**Sug'urta sarmoyasidan soliq.** Kompaniya kapitallaridan olinadigan soliq turiga kiradi va u birja oborotlaridan, veksellardan va sug'urta badallaridan olinadi. Soliq stavkalari:

- 15 % — yong'inga sug'urta qilingan mablag'dan;
- 10 % — inshootlarni sug'urta qilingan mablag'dan;
- 13,75 % — uy xo'jalik mollarini sug'urta qilgan mablag'dan;
- 14 % — sudna va kemalarni sug'urta qilgan mablag'dan;
- 2 % — baxtsiz hodisadan sug'urta qilingan mablag'dan.

**Iste'mol qilinadigan tovarlarga soliq.** Bu soliqni 3 guruh tovarlarga bo'lib byudjetga tushiradi:

- neft, neft mahsulotlari, qand, choy va spirtli ichimliklar federal budgetga;

- pivo va import tovarlaridan olinadigan soliqlar yer budgetiga;
- alkogolsiz tovarlar sotishdan tushgan soliq, quyib sotishdan tushgan soliq, mahalliy budgetga tushiriladi.

**Cherkovlar faoliyatidan olinadigan soliqlar.** Dinga ishongan aholi daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan 8 % olinib, har bir bola uchun 300 markaga kamaytiriladi. Dinga ishonmaydigan aholidan soliq olinmaydi.

**Ilmiy-teknika progressiga berilgan imtiyozlar.** Har qanday texnika qiyomatini tovarga tez aylantirish imkoniyati yaratilgan.

Soliq tizimlarini takomillashtirish har qanday rivojlangan mamlakatlarning birinchi darajadagi ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalar sifatida oldinga suriladi. Germaniya ham bundan mustasno emas. 1998-yilda o'tkazilgan saylovlar natijasida Germaniya hukumatining almashinuvidan so'ng, 2005-yildan boshlab «Korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortish islohoti» boshlandi. Ushbu islohotni o'tkazish bo'yicha tayanch nuqtasi kuchayib borayotgan nemis soliq huquqi ahvolining tanqidi bo'ldi. Bu tanqid, birinchi navbatda, soliq stavkalarining xalqaro miqyosga nisbatan juda ham yuqoriligi, tadbirkorlik faoliyatining har xil tashkiliy-huquqiy shaklini soliqqa tortishning turli-tumanligi hamda soliq tartibotidagi o'zgartirishlarni amalga osdirish muqarrarligi edi. Soliq huquqi tartibsiz ravishda va soliqni rejalashtirishga qiyinchilik bilan bo'ysunadigan ahvolda bo'ldi.

**Tadbirkorlik faoliyatini** soliqqa tortishni isloh qilish maqsadlarini quydagicha tasavvur qilish mumkin. Korxonalar va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishni isloh qilishning siyosiy belgilangan maqsadi shunday soliqni yaratishdan iborat ediki, bu soliq tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, korxonaning xo'jalik faoliyat natijasini soliqqa tortadi. Bu soliq 35 % dan oshmasligi kerak edi. Ushbu **islohot natijasida**:

- Germaniya tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan qulay investitsion davlatga aylanishi kerak.

- Korxonalarning investitsion faolligi oshadi.

- Soliq huquqi soddalashadi.

- Davom etayotgan Yevropa va global integratsiya bilan bog'liq o'zgarishlar inobatga olinadi.

#### 2004-yil soliq stavkasi

Soliqqa tortiladigan baza	Daromad solig'iga tortiladigan zona
7,664 yevrogacha	Soliqqa tortilmaydigan minimum
7,664 yevro dan 55,007 yevrogacha	Murakkab progressiya (19,9 dan 48,49% gacha)
55,007 yevro dan boshlab	Yuqori soliq stavka miqdori 48,5% (9,872 yevro chegirilgan holda)

Bundan tashqari, islohotlar butunicha adolatli soliq tizimini yaratishga olib kelishi kerak. Bu maqsadga, eng avvalo, 2005-yilgacha davr ichida jismoniy shaxslar daromad solig'ini soliqqa tortish stavkalarini sezilarli

pasaytirish natijasida erishilishi kerak. 2005-yilgacha soliq stavkalarining bosqichma-bosqich pasayishi bilan, eng avvalo, Germaniya ichki bozoridagi iste'mol tovarlariga talabning oshishi ko'zda tutilmoqda. Bu bilan nemis hukumati nemis konyukturasi (ahvoli) ga yangi impulslar bermoqchi. Korxona va tadbirkorlar faoliyatini soliqqa tortishning isloh qilinishini birgalikda olib borishga majbur qiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish doirasida, minimal va chegaraviy yuqori soliq stavkalarini kamayadi, soliqqa tortilmaydigan minimum esa quydagicha oshadi:

#### Germaniya soliq dinamikasi

	2001 va 2002-yy.	2003 va 2004-yy.	2005-y. boshlab
Minimal stavka	19,9%	17%	15%
Eng yuqori stavka	48,5%	47%	42%
Soliqqa tortilmaydigan minimum	7,235 yevro	7,426 yevro	7,664 yevro

Korporatsiya hamda ularning aksionerlari, ishtirokchilarini soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlar asosida dividendlarni soliqqa tortish bilan korporatsiyalar va ularning aksionerlari, ishtirokchilarini soliqqa tortish o'zar mustahkam bog'liq. Nemis adabiyotlarida doromad solig'i bilan foydani taqsimlashdagi korporatsiya solig'i orasidagi bu bog'lanish korporativ soliq tizimi tushunchasi bilan belgilanadi.

Korporativ soliq tizimi daromad solig'i hamda korporativ soliqning o'zar ta'sir usuli va darajasi bilan aniqlanadi.

Daromad miqdoriga bog'liq holda, qo'llanladigan soliq stavkasi soliqqa tortiladigan bazaning 9 % dan (7,235 yevro, past daromadda) 48,5 % gacha miqdorini tashkil qiladi. Soliqqa tortish darajasi, bundan tashqari, ishtirokchining oilaviy ahvoliga ham bog'liq. Agar u oilali bo'lsa, soliqqa tortishning imtiyozli stavkasi qo'llaniladi. Keltirilgan misolda 2002-yilda daromad solig'i quydagini tashkil qiladi. (V oilali deb hisoblaymiz):

#### Daromad solig'ini hisoblash

	Soliqqa tortiladigan baza (yevro)	Daromad solig'i (yevro)	O'rtaча soliq stavkasi	Eng yuqori soliq stavkasi
A	250000	111378	44,55	48,5
B	250000	101514	40,61	48,5

Germaniyada paychilik va korporatsiyalar daromadini teng bo'limgan soliqqa tortish holati olimlar va tadbirkorlar, ularning ittifoqi va birlashmalari tomonidan davom etayotgan tanqidga uchramoqda. Hozirgi kunda korporatsiya foydasi 38 % miqdorida soliqqa tortiladi (korporativ soliq va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash soliq ustamasi miqdori 26,38 % va nedra solig'i 16,67 % miqdor atrofida), shu vaqtning o'zida paychilik ishtirokchilar daromadiga qo'llaniladigan daromad solig'ining chegaraviy stavkasi sifatida 51,6 % ni tashkil qiladi (hamkorlikni qo'llab-quvvatlash soliq ustamasi qo'shilgan holda).

Soliq stavkasi oshganda soliqqa tortilmaydigan minimal miqdor soni ham ko'tariladi. Oldin 70 ming markaga ega bo'lgan mulk qiymati soliqqa tortilmagan bo'lsa, endi esa bu 120 ming markaga ko'tarildi. Soliq to'lovchi 60 yoshga kirsa, bu miqdor yana 50 ming markaga oshiriladi. Oiladagi bolalar soniga qarab belgilangan chegirmalar joriy qilingan.

Oila a'zolarining soniga qarab chegiriladigan miqdor oltita guruhga bo'linadi (jadvalga qarang). Ko'pchilik hollarda ish haqi oz va ko'p bolali oilalar soliqdan ozod qilinadi.

#### Bolalar soniga qarab soliqqa tortish jadvali

Soliq bosqichlari	Bolalar soni						
	0	1	2	3	4	5	6
I	15453	14399	13368	12363	11385	10436	9516
II	—	12450	11469	10517	9595	8704	7847
III	9636	8960	8306	7674	7066	6480	5916
IV	15453	14923	14399	13881	13368	12863	12363
V	25820	—	—	—	—	—	—
VI	26432	—	—	—	—	—	—

Yuridik shaxslar uchun soliqqa tortilmaydigan miqdor 20 ming marka. Qishloq va o'rmon xo'jaliklariga imtiyozlar bor. Yuridik shaxslar soliqqa tortiladi — ko'chmas mulk bank hisoblari, qimmatli qog'ozlar, sug'urta kompaniyalariga qo'yilgan hissalar, sanoat buyumlari, yaxtalar, shaxsiy samolyotlar va h. k.

## 2. Fransiya Respublikasida soliq tizimi

Fransiya davlati budgetining 90 % ni soliq va yig'imlar tashkil etadi. Yig'imlar yagona tizim bo'yicha undiriladi. Asosiy soliq turlari 3 xil, to'g'ri, egrini va gerbi yig'imlaridan iborat. Egrini soliqlarning 50 % ni QQS tashkil etadi. Soliqlar 2 ga bo'linadi: mahalliy va respublika soliqlari. Mahalliy va respublika budgetiga soliqlarning taqsimlanishi qat'iy belgilangan.

#### Asosiy umum davlat soliqlariga:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
  - jismoniy shaxslarning daromad solig'i;
  - yuridik shaxslarning daromad solig'i;
  - neft mahsulotlari uchun bojxona bahosi;
  - aksiz solig'i;
  - mulk solig'i (jismoniy shaxslardan);
  - bojxona bojlari;
  - qimmatli qog'ozlardan olinadigan foyda solig'i va boshqalar kiradi.
- Mahalliy soliqlar quyidagilardan iborat:**
- turistlar yig'imi;
  - oila solig'i, u 3 qismdan iborat: daromad, yer va uy joy solig'i;
  - yer solig'i;

- mutaxassislik solig'i;
- atrof-muhitni tozalash uchun soliq;
- kommunikatsiyadan foydalanganlik uchun soliq;
- imoratlarni sotganlik uchun soliq.

Mahalliy soliqlar umumiy soliq og'irligining 30 % ni tashkil qilib, mahalliy budgetning 40 % daromadini qoplaydi.

Hozirda Fransiyadagi soliqni uch xil guruhga ajratish mumkin: daromad solig'i, shaxslarning daromad olgandan keyingi to'lanadigan solig'i (ish haqi), iste'mol solig'i. Soliq tizimi asosan iste'mol yo'nalishiga qaratilgan bo'lib, uning asosiy ko'rsatkichi olingan foyda (daromad)dir. Hozirda qo'shilgan qiymat solig'i ustida gap ketganda barcha ishlab chiqarish va iste'mol uchun qilingan hamma sarf-xarajatlar ko'zda tutilib, barcha yo'nalishlar bo'yicha soliqqa tortilishi tushuniladi. Tashqi bozor bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi. Import bo'yicha bajariladigan barcha operatsiyalar QQSga tortiladi. QQS bajariladigan ishning turlariga bog'liq bo'lib, u soliq to'lovchining moliyaviy holatiga bog'liq bo'lmaydi. Soliq stavkasi tovarning bahosiga bog'liq bo'lmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i obyekti sotilgan tovarlarning qiymati va ko'rsatilgan xizmatlarni tashkil etadi. Bundan tashqari boshqa qilingan xarajatlar ham hisobga olinadi (yuklarni tashish, ortish, tushirish, boj va h. k.). Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblaganda, xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi.

**Soliqning asosiy stavkasi** — 18,6 % ni tashkil etib, eng yuqori stavka esa 22 %. Bu stavka asosan ayrim tovar turlariga (avtomobil, kinofotovarlar, tamaki mahsulotlari, atir-upa, qimmatbaho mo'yna) qo'llaniladi. Eng past soliq stavkasi (ya'ni 5,5 %) oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kitoblar, dori-darmonlar uchun qo'llaniladi.

#### QQS dan ozod etiladi:

- ma'muriy-ijtimoiy, tarbiyaviy, madaniy, sport sohalari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi davlat muassasalarini;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi;
- yakka tadbirkorlik, yakka faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar;
- diniy yo'nalishda xizmat qilayotganlar.

Bilvosita soliqqa qo'shimcha ravishda elektroenergiyadan foydalanganlik, televizion reklama qilinganlik uchun soliqqa tortiladi. Ayrim hududlarda dam olish maskanlarini tashkil etish imkoniyatlari bo'lsa, u holda mahalliy hokimiyat turistik yig'imlar yig'ib olishni joriy etadi. Bojxona boji ham iste'mol solig'i hisoblanib, uning asosiy maqsadi ichki bozorni, ishlab chiqarishni, qishloq xo'jaligini himoyalashdan iborat. U davlat siyosati bo'lib, asosiy yo'nalishini ichki bozorni himoyalash tashkil etadi. Bojxona boji keltirilgan tovarlar bahosini ichki bozor bahosiga tenglashtirishdan iborat. Bojxona boji tovar bahosiga qarab olinadi. Ayrim hollarda boj olishda tovarning og'irligi, hajmi hisobga olinadi. Bunday boj ichimliklar, tamaki mahsulotlari, kinofilmlar uchun ham qo'llaniladi. Korxonaning

sof foydasi daromad solig'iga tortiladi. Olinadigan soliq miqdori daromad va xarajat o'rtasidagi farqqa tenglashtiriladi. Daromad solig'i stavkasi — 34 % ni tashkil etadi.

Hisobotning asosini korxonalarining yillik foyda ko'rsatkichi tashkil etadi. Buning uchun har bir korxona yillik daromad bo'yicha deklaratsiyani 1-aprel joriy yilgacha soliq organlariga taqdim etadi.

Daromad solig'iga asosiy o'rnlardan birini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etadi. Jismoniy shaxs barcha oladigan daromadlarini hisobga olgan holda daromad deklaratsiyasini soliq organlariga taqdim etadi (davlat budgetining 18 % ni jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tashkil etadi).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv xarakterga ega bo'lib, stavkalar 0 % dan 56,8 % gacha soliqqa tortilmaydi, agar olinadigan daromad 18140 frankdan oshmasa va daromad 246770 frankni tashkil etsa, unda yuqori stavka qo'llaniladi. Fransiyada ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'oz va boshqa mulklar bo'yicha qilingan operatsiyalardan olinadigan daromadni soliqqa tortishning boshqacha qoidalari mavjud.

Agar ko'chmas mulk qancha narxda sotilgan bo'lsa, shu baho miqdorida sotilgan yilda soliqqa tortiladi. Uy-joyni sotishdan olgan daromad (foyda) soliqdan ozod etiladi. Agarda uy-joyga egalik qilish muddati 32 yildan ortiq bo'lsa. Ish haqi fondi ham soliqqa tortilish obyekti hisoblanadi. Mahalliy soliq Fransiya soliq tiziminining anchagini qismini tashkil etadi. Mahalliy organlar budgeti 80 ming mustaqil budgetdan tashkil topgan, (komunalalar, birlashgan kommunalar, departamentlar, regionlar va h. k.) Mahalliy hokimiyat — iqtisodiy hayotning asosiy subyekti hisoblanadi. Mahalliy hokimiyatga qilingan umumiylar xarajat 90-yillarning boshida ichki yalpi mahsulotning 10 % ni tashkil etgan. Bu miqdor 1970-yilda 7,3 % ni tashkil etgan. Davlat budgetining 60 % ni mahalliy byudjet tashkil etadi. Mahalliy byudjet dinamikasi quyidagicha ifodalanadi. **Mahalliy soliq tizimi** to'rtta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

- yer solig'i qurib bitirilgan uchastkalar uchun;
- yer solig'i qurib bitirilmagan uchastkalar uchun;
- turar-joy solig'i;
- mutaxassislik solig'i.

Bu soliq stavkalari mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi (bosh kengash va mahalliy kengash).

Olingan summalar mahalliy organlar tomonidan belgilangan soliq stavkaliga ko'paytiriladi. Hisoblangan soliq miqdori 3,5 % li yaratilgan qo'shilgan qiymatdan oshmasligi kerak, bu qonun yo'li bilan chegaralangan. Mahalliy boshqaruvi organlari yuqorida keltirilgan soliq turlariga **qo'shimcha ravishda soliqlar** va yig'imlarni joriy etishi mumkin, ya'ni:

- maydonlarni tozalash solig'i;
- qishloq xo'jalik palatalarini ta'minlash boji;
- hunar ta'lif palatalarini ta'minlash boji;

- konlarni o'zlashtirishdagi mahalliy yig'imlar;
- elektr yoritkichlar o'rnatganlik uchun mahalliy yig'imlar;
- uskulalardan foydalanganlik uchun olinadigan boj;
- binolarni sotishdan olinadigan soliq;
- transport vositalari uchun olinadigan boj;
- limit darajasidan oshib ketgan qurilishlar uchun soliq;
- maydonni band qilish chegarasi limit darajasidan oshib ketganligi uchun to'lanadigan soliq;

• departament budgetiga o'tkaziladigan ko'kalamlashtirish solig'i.

Mahalliy soliqqa tortish tizimi ham Fransiyada ancha rivojlangan. Mahalliy budgetning umumiy hajmi mamalakat budgetining 60 % ni tashkil etadi. Mahalliy hokimiyat tashkilotlari o'z hududlarida quyidagi qo'shimcha soliq va yig'imlarni kiritishi mumkin:

- hududlarni tozalash solig'i;
- qurilgan joylar uchun yer solig'i;
- qurilmagan uchastkalar uchun yer solig'i;
- uy-joy solig'i;
- kasb solig'i;
- qishloq xo'jalik palatasini ta'minlash boji;
- savdo-sotiq va tovar ishlab chiqaruvchilar palatasini ta'minlash boji;
- hunarmandlar palatasini ta'minlash boji;
- konlarni o'zlashtirish uchun mahalliy yig'imlar;
- elektr yorug'ligini o'rnatish uchun yig'imlar;
- binoni sotish uchun olinadigan soliq;
- avtotransprot vositalari boji;
- maydonning solishtirma bandlik chegarasidan oshishidan olinadigan soliq;
- ko'kalamzorlashtirish solig'i.

Mahalliy hokimiyat tashkilotlari budget daromadlarini rejalashtirayotganda ularga tegishli bo'lgan soliqlar bo'yicha mustaqil ravishda soliq stavkalari belgilaydilar, ammo ularning yuqori miqdori markaziy hokimiyat tashkilotlari tomonidan belgilangan yuqori darajadan oshmasligi lozim. Amaliyotda mahalliy budgetlarning asosiy daromad manbayi bo'lib quydagilar hisoblanadi: qurilgan joylar uchun yer solig'i; qurilmagan joylar uchun yer solig'i; uy-joy solig'i va kasb solig'i. Qurilgan joylar uchun yer solig'i, tijorat yoki sanoatda foydalish uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk va joylarning qiymatidan olinadi. Soliqqa tortiladigan qismi joy kadastridagi ijara qiymatining yarmiga teng bo'ladi.

**Qo'shilgan qiymat solig'i.** QQSni ko'radigan bo'lsak, u butun soliqning 45 % ni tashkil qiladi. QQSning 4 ta stavkasi mavjud:

1. 18,6 % — barcha tovar va xizmatlar uchun.
2. 33,3 % — eng yuqori stavka (avtomobil, alkogol, tamaki maxsulotlari).
3. 7 % — qisqartirilgan stavka, madaniy buyumlar uchun (kitoblarga).

4. 5.5 % — navbatdagi ehtiyot tovarlari va xizmatlariga (oziq-ovqatlar (alkogol va shokoladdan tashqari), dori-darmonlar, binolarga va transport xizmatlari).

QQSdan ozod qilishning 2 xil ko'rnishi bor:

- Batamom ozod qilish;
- QQS — kompensatsiya, eksport qilingan tovarlarga beriladi.

QQSdan 3 xil xizmatlar ozod qilinadi:

- Tibbiyot xizmatlari.
- Ta'lif.
- Xayriya va umumiy tadbirlar.

Shu bilan birga barcha sug'urta qilish faoliyati, lotoreya, kazinolar ozod qilinadi.

Fransiyada 3 mln nafar QQS to'lovchilar mavjud. Hisobotlar oylik muddatda taqdim etiladi. Tovar aylanishiga qarab choraklik topshirilishi ham mumkin. Agar kichik korxonaning QQS 1350 frankni tashkil etsa, u holda QQSdan ozod qilinadi. Mahalliy hunarmandlarning solig'i 20000 frankdan kam bo'lsa, u holda ularga chegirmalar beriladi.

**Daromad solig'i.** Bu soliq davlat budgetining 20 % ini tashkil etadi. Soliq to'lovchilarning daromadi 7 ta turga bo'linadi:

1. Ish haqi bo'yicha.
2. Yerdan olingen daromad (ijara).
3. Dividend va foiz oborotlaridan olinadigan daromad.
4. Sotishdan olinadigan daromad (bino, qimmatbaho qog'ozlar).
5. Ishlab chiqarish va savdo faoliyatidan olingen daromad, faqat aksionerlik jamiyatlaridan tashqari.
6. Tadbirkorlik faoliyatidan tashqari daromad.
7. Qishloq xo'jaligidan olingen daromad.

Har bir daromaddan tashqari soliq undirishning o'z usullari mavjud. Sof foydani aniqlashda chegirmalarning faqat ishlab chiqarish bilan bog'liq qismi chegiriladi.

Aksionerlik jamiyatlaridan olinadigan soliqlar. Aksionerlik jamiyatlar daromad solig'ining ulushi jami soliq tushumining 10 %ini tashkil etadi. Bu — soliq stavkalaring kamayib borishi bilan bog'liq. Bu soliqqa tortish usuli faqatgina aksionerlik jamiyatlariga tatbiq etiladi. Aksionerlik jamiyat bo'lmagan yuridik shaxslarning daromad solig'i jismoniy shaxslarning daromad solig'ini hisoblash kabi hisoblanadi. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, barcha faoliyatlar bo'yicha sof foya bo'lib hisoblanadi.

Fransiyada soliq tizimi o'ziga xos soliq va yig'imlar majmuasidan iborat. U ko'p yillar davomida shakllanib kelmoqda. Hozirgi vaqtida soliqlar ni hisoblash tartibi o'zgarmay kelmoqda.

Soliq stavkalari har yili davlatning iqtisodiy holati va siyosatiga qarab qaytadan ko'rib chiqiladi. Fransiya soliq tizimining asosiy belgilari sifatida quyidagilarni aytish mumkin, ijtimoiy himoyaga qaratilganligi, egri soliqlarning ustunligi, daromad solig'ining asosiy o'rni, hududiy xususiyatlarini inobatga olish, soliqlarning qat'iyligi bilan birga uning egiluvchanligi, im-

tiyoq va chegirmalarning mavjudligi. Fransiya soliq sistemasini ko'rib chiqar ekanmiz, O'zbekiston soliqlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, fransuz soliq tizimi ko'proq samarali ekanligini aytishimiz mumkin.

### 3. Avstriya Respublikasida soliq tizimi

Avstriya ham boshqa Yevropa davlatlari kabi murakkab soliq tizimiga ega. Ko'pgina soliq Federal xizmat orqali yig'iladi. Mahalliy soliq miqdorining kam qismini tashkil qiladi. Avstraliyaning hamma joyida soliqqa tortish deyarli bir xil.

Soliq solish obyekti huquqiy va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Uyushmalar o'zlarini olgan barcha daromadlari hisobidan soliq to'laydilar. O'rtoqlik uyushmalari Avstraliya soliq qonunchiligiga binoan bundan mustasno. Shuning uchun ham o'rtoqlik uyushmalar soliq obyekti bo'lib hisoblanmaydi. Har bir o'rtoqlik a'zolari o'zlarini alohida olgan daromadlari hisobidan soliq to'laydilar. Korporatsiya daromadi to'g'ridan to'g'ni soliq olish obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Avstraliya soliq qonunchiligi barcha huquqiy va jismoniy shaxslarni soliq to'lash bo'yicha turlarga ajratadi. Ayrim yo'nalishlar bo'yicha soliq to'lash majburiy va ayrim hollarda chegaralangan bo'lishi mumkin. Javobgarlik chegaralanmagan hollarda uyushmalar barcha daromadlaridan soliq to'lashga majburdirlar.

Agar mulkning oxirgi bahosi aniqlanmagan bo'lsa, u holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi, bunda baho bozor bahosidan past bo'ladi. Soliq stavkasi — 3,5 %. Agarda ko'chmas mulk aksiya hisobidan biridan ikkinchi uyushmaga o'tkazilsa, bu holda ham mulk bahosi soliq organlari tomonidan belgilanadi. Bu holat ko'chmas mulk bilan faoliyat ko'rsatayotgan uyushmalarga o'tkazilganda ham qaytariladi.

Soliq solishni hisoblashning birinchi bosqichida daromadni aniqlashda tannarxga asoslanadi. Barcha Avstriya uyushmalarida daromad balansiga qarab aniqlanadi. Bunda barcha aktivlar birinchi qiymat ko'rsatkichi bilan ifodalanishi kerak bo'ladi, amortizatsiya ajratmasi farqi bilan nomoddiy aktivlar bir vaqtning o'zida tannarxga o'tkazib yuborilishi mumkin bo'lmaydi, bularning hammasi amortizatsiya ajratmasiga o'tkaziladi. O'rmonchilik va qishloq xo'jaligi hamda sanoat ishlab chiqarish, tijorat uyushmalar nomoddiy aktivlarni 15 yil davomida bir xil miqdorda amortizatsiya ajratmasiga o'tkazadilar.

Avstriya qonunchilida eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun ayrim imtiyozlar ko'zda tutilgan. Bunday korxonalar barcha xarajatlarning 15 % ni mahsulot tannarxiga debitorlik qarziga o'tkazishi mumkin. Daromad olgan vaqtidan boshlab xarajatlar yana foydaga qo'shiladi.

Daromadning bir qismini soliqqa tortilmasdan ham korxonalarga, qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik xo'jaligiga berish mumkin. Bunday zaxiralalar foydalanining 10 % ni tashkil etadi. Investitsiya zaxiralari maqsad yo'nalishida foydalanilmagan bo'lsa, u holda qoldiq summasiga 20 % qo'shiladi.

Xuddi shu shaklda pensiya rezervi shakllanadi. Ish beruvchi o'zgartirmaslik majburiyati, qonunda ko'rsatilgan va kelishilgan majburiyatlar asosida pensiyalarni belgilaydi. Pensiya hajmi ishchining oxirgi ish haqining 80 % dan oshmaslik kerak. Sug'ortalash qoidalari asosida pensiya rezervi hisoblanadi. Uni hisoblashda yillik 6 % daromadlik stavkasi hisoblanadi. Pensiya rezervi va dam olish nafaqa to'lovi qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun ishlatilishi mumkin.

#### Daromad solig'i haqidagi Avstriya qonuni daromaddan soliq undirishning 7 ta kategoriyasini ko'zda tutadi:

- o'rmon xo'jaligi va qishloq xo'jaligi faoliyati;
- mutaxassislik va boshqa xizmatlarni ko'rsatish;
- sanoat va tijorat faoliyati;
- yollanma ish;
- kapital qo'yilmalar;
- mulkni ijaraga berish;
- boshqa manbalar.

Oshgan kapital qiymatidan olgan daromadiga daromad solig'i to'lanadi. Bunday daromaddan faqatgina kapital mulk sotilganda soliq undiriladi (agar asosiy fondlarni sotib olish uchun ishlatilmasa).

Kapital daromadining aniq turlaridan daromad solig'i undiriladi. Agar kompaniya yo firmaning Avstriyada yuridik manzili, ofisi bo'lsa va boshqaruvni shu davlatda olib borilsa, 25 % stavka qo'llaniladi. **Kapital daromadi turlariga Avstriya qonunchiligi asosida quyidagilar kiritiladi:**

- qimmatli qog'ozlar, sertifikat, aksiyalardan olingan daromad;
- firmada faol faoliyat ko'rsatmaydigan hamkorlik a'zolarining daromadi.

#### Kapital daromadining ayrim turlaridan 10 % stavka asosida soliq undiriladi. Bularga:

- depozit qo'yilmalar va boshqa bank operatsiyalardan foizli daromad;
- aniq summaning to'lanishini ifodalovchi talabnomalar, to'lov qaydnomasi, qimmatli qog'ozlar, veksellar;
- obligatsiya daromadi.

#### Avstriya hududida daromad manbayidan 20 % soliq undiriladi. Bularga:

- Avstriyada ishlaydigan yoki daromad oladigan yozuvchi, rassom, lektorlarning gonorarlari, mualliflik mukofotlari;
- litsenziya sotishdan olingan daromad;
- kompaniya kengashi a'zolariga to'lanadigan mukofotlar;
- Avstriya hududida ko'rsatilgan maslahat xizmatlaridan olingan daromad.

Yuqoridaqlar soliq mas'uliyati cheklangan soliq to'lovchilarga tegishli.

Daromad darajasiga qarab daromad solig'ining 5 ta stavkasi qo'llaniladi. Ayrim vaziyatlarda daromadning bir qismidan pasaytirilgan stavka bo'yicha soliq undiriladi. U soliq to'lovchining yalpi daromadining o'ttacha soliq stavkasining yarmiga teng.

#### Kichiklashtirilgan stavka quyidagilarga qo'llaniladi:

- ustav fondining pay va aksiyalar bo'yicha to'lovlar;
- kapital uchun to'langan dividendlar;
- kompaniya yoki uning ayrim qismining sotilishidan olingen sarmoyanining o'sishidan daromad, shu shart bilanki, korxona ochilishiga (yoki sotib olingeniga) 7 yildan kam o'tmagan bo'lsa;
- asosiy ishlab chiqarishda foydalilaniladigan kompaniyaning aktivib'Imagan ayrim qo'yilmalarining sotilishidan olingen daromad.

Kompaniyaning kapital qo'yilmalaridan olingen daromadiga korporativ soliq belgilanmaydi. Bunday imtiyoz daromadning har qanday qismini soliqdan ozod qiladi, shu bilan bir qatorda bitta kompaniya boshqa kompaniyaga to'laydigan dividendlar ham kiritiladi.

Barcha zararlarni tannarxga o'tkazishda quyidagi qoida amal qiladi. Barcha ishlab chiqarish va tijorat yo'nalişidagi ko'rilgan zararlar maxsus xarajatlar bo'limiga o'tkaziladi. Huquqiy statusning bo'lishi va bo'imasligidan qat'i nazar, tadbirkorlikning barcha turlari soliqqa tortiladi. Bunday soliq, daromad solig'idan farqli o'laroq, barcha korporatsiya va o'rtoqlik uyushmalar uchun taalluqli. Bunday soliq turidan birgalikda tuzilgan uyushmalar mustasno. Ular tadbirkorlik solig'iga tortilmaydi. Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha daromad solig'i 13 % ni tashkil etadi. Tadbirkorlik faoliyati bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan tuzilgan deklaratsiyaga asosan hisoblanadi. Soliq to'lovchi avans to'lov to'lashga majbur. Bu soliq miqdori oldingi yildagi soliq miqdoriga bog'liq bo'ladi. Avans har chorakda to'lanadi (10-mart, 10-iyun, 10-sentabr va 10-dekabr), yillik summaning 1/4 qismini tashkil etadi. Ish haqi fondidan to'lanadigan soliqqa barcha kompaniyalar a'zolarining olgan ish haqi miqdori hisobga olinadi. Ish haqi fondidan olinadigan soliq stavkasini mahalliy hokimiyat organlari belgilaydi. Ammo bu miqdor soliq olish bazasining 2 % dan oshmasligi kerak. Soliq to'lovchilar soliq to'laydigan mulk qiyamatini har uch yilda soliq organlariga deklaratsiya ko'rinishida taqdim etishlari kerak.

Qo'shilgan qiyomat solig'iga tovarlar va xizmatlar sotuvlari hamda soliq to'lovchining shaxsiy ehtiyojlari va import tortiladi. Shaxsiy ehtiyojlari deb tovarlarning tekinga berib yuborish. Qo'shimcha qiyomat solig'i tovarlar ishlab chiqarishning hamma jarayonida ushlab qolinadi. Aksiyada qo'shimcha qiyomat solig'i uchta asosiy stavkaga bo'linadi. Standart stavkasi 20 % ga teng, 10 % stavka ko'chmas mulk ijara berilganda, oziq-ovqat tovarlar sotilganda qo'llanadi. 32 % stavka transport vositalari sotilganda ishlatiladi.

Qo'shilgan qiyomat solig'ida ko'pgina imtiyozlar mavjud. Misol: guruh uyushmalar xolding yo'nalişida tashkil etilgan bo'lsa, u holda soliq olishda bir xil yagona subyekt bo'lib ro'yxatdan o'tishi mumkin. O'zining ichida mavjud oborotlar soliqqa tortilmaydi. Nazorat qilish kompaniyalari Avstriyaga qarashli bo'imasligi mumkin. Bunday vaqtida sho'ba firmalar QQSga tortilmasligi mumkin.

Bundan tashqari soliq va yig‘imlarning boshqa turlari mavjud. Ekvivalent soliq meros miqdoriga qarab olinadi.

Yer solig‘i ham choraklar bo‘yicha to‘lanadi. Mulk meros va sovg‘a tariqasida berilsa, u soliqqa tortiladi. Soliq stavkasi meros qiymatiga va qarindoshlik darajasiga bog‘liq.

Bundan tashqari Avstriyada ichimliklarga, neftga aksizlar, shaxsiy mulk boshqa shaxslarga sovg‘a qilinsa, to‘lovlar, gerb, notarial yig‘inlari (0,8 %—1,5 % stavkasi bo‘yicha) va sud to‘lovlari mavjud.

Avstriyada ko‘plab shaxsiy firmalar aksiyadorlik jamiyatiga aylantiriladi yoki ularning tarkibiga o‘tkaziladi.

Bu kompaniyalarga Avstriya hukumati nafaqat soliqlardan aniq imtiyozlar, balki daromad va foyda soliqlardan ham ozod bo‘lishlariga imkoniyat beradi. Bu tadbirlar ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keladi. Ammo bu soliq imtiyozlari tarkibiy o‘zgarishlarga bog‘lanadi va chegaralanadi.

#### 4. Belgiyada soliq tizimi

Soliq tizimida asosiy rolni korporatsiyalardan olinadigan soliq tushumlari tashkil etadi. Korporatsiyalarning sof daromadlari soliqqa tortiladi. Har qanday tashkilot, uyushma assotsiatsiyalar soliqqa tortiladilar. **Agar ular huquqiy shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lsalar va bu shaxslar davlat tashqarisida faoliyat ko‘rsatsalar ham, ya’ni:**

- bosh boshqarma va shtab-kvartiralari Belgiyada bo‘lsa;
- foyda keltiruvchi faoliyatning amalga oshirilishi (ishlab chiqarish, tijorat, qishloq xo‘jaligi) da tugatilayotgan uyushmalar soliqqa tortilmaydi, agar ular faqat tugatishga oid bo‘lgan jarayon ustida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa. **Kompaniyalarning sotilgan ko‘chmas mulklari soliqqa tortiladi:**
- soliqqa tortish subyekti bo‘lib quydagilar hisoblanadi;
- tijorat shakliga ega bo‘lgan, barcha korporativ tashkilotlar;
- ochiq va yopiq aksionerlik jamiyatlar va faoliyati chegaralangan jamiyatlar;
- kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari;
- tadbirdorlik yo‘li bilan foydaga ega bo‘lgan tashkilotlar;
- Belgiyada ro‘yxatdan o‘tmagan, ammo ularning shtab-kvartirasi shu davlatda joylashgan uyushmalar va tadbirdorlar, bunday hol juda kam uchraydi. Chunki chet el uyushmalarida foyda solig‘iga faqat norezidentlar jalb etiladi.

#### Korporatsiyalardan soliq olinmaydi, agar:

- korporatsiya huquqiy shaxs bo‘lib ro‘yxatdan o‘tmasa (bunday holtda bu tashkilotlarning foydasi, har biri uchun individual soliq deklaratsiyasi qayd etilgan bo‘lishi kerak);
- foydaga ega bo‘lidan tashkilotlar tadbirdorlik bilan shug‘ullanmasa.

Umumiyl foyda miqdoriga qarab soliq belgilanadi. Soliq deklaratsiyasida olingan foydadan soliq miqdori hisoblanganda ikki qismga bo‘linadi.

Uning bir qismi aksioner jamiyatlariga, qolgan qismi uyushma a’zolarini rag‘batlantirishga sarflanib, xarajatlar tannarxga qo‘shilmaydi.

Jamiyatning soliqqa tortiladigan daromadi foydadan tashkil topgan va jamiyat ixtiyoriga qoldirgan qismiga va investitsiyalardan olingan daromaddan.

Korporatsiyalar beradigan dividendlarning umumiy summasidan soliq olinadi. Jamiyatda foydaning bir qismi dividend hisoblanib, qo‘yilgan kapitaliga qarab taqsimlanadi:

- qo‘yilgan sarmoyaga (investitsiya) qarab kamaytirishga foiz to‘lanadi. Jamiyatning umumiy majlis qarori bo‘lidan taqdirda qo‘yilgan kapital miqdorining 6 % ni tashkil etadi.

Mukofotlar va beriladigan moddiy rag‘batlantirishlar asosan soliqqa tortiladigan foyda qismidan beriladi.

Korxona foydasi qo‘shimcha foyda miqdorida o‘sadi. Soliq to‘lov yildagi barcha operatsiyalar uchun qilingan zarar kelgusi yil hisobotiga o‘tkazilishi va 5 yil davomida foyda hisobidan qoplanishi mumkin. Kapitalning o’sishi soliq to‘lanadigan daromadning bir qismini tashkil etadi.

Sotilganda olingan foyda baholangan summadan ortiq bo‘lsa, u holda ortiq qismi soliqqa tortiladi va bu 21,5 % ni tashkil etadi. Asosiy fondlarni sotishdan olingan tushum uch yil davomida qayta sarmoyalansa, bundagi kapitalning o’sishi soliqqa tortilmaydi.

Belgiya kompaniyalari, boshqa uyushmalarning aksiyalariga ega bo‘lsa, u holda uyushmaning soliqqa tortiladigan daromadini 95 % divident summasiga pasaytirish mumkin. Uyushma 50 % dan ortiq aksiya kapitaliga egalik qilsa, u holda 90 % dividendga egalik qilish mumkin.

Belgiyada uyushmalarning tugatilishi hisobiga ham daromad olish mumkin. Kompaniyalarga 95 % (yoki 90 %) sof daromaddan ayirib tashlashga ruxsat etiladi. Bundan tashqari 33,33 % soliq krediti olingan daromad hisobidan beriladi. Soliqning ortiqcha to‘langan qismi qaytarilmaydi.

Belgiyada buxgalteriya hisobi qonun prinsiplari asosida boshqariladi. Soliq tashkilotlari soliq va buxgalteriya qonunchiligi bir-biriga to‘g‘ri keli-shini ta’rif etadi. **Korporatsiyalardan olinadigan soliq foyda miqdoriga bog‘liq bo‘ladi (Belgiya franki):**

- olingan foyda miqdori 1000000 dan oshmasa — 30 %;
- kam bo‘lmasa — 38 %;
- olingan foyda miqdori 3600000 dan yuqori, 16600000 kam bo‘lmasa — 45 %;
- olingan foyda miqdori 16600000 dan yuqori bo‘lsa — 43 % yagona soliq stavkasi qo‘llaniladi.

Xolding kompaniyalari o‘zlarining xususiy kapitallarining 50 % ni boshqa firmalarga berishi tufayli oladigan dividendlaridan hosil bo‘lgan daromadlarining 90 % soliqlardan ozod etilgan. Sho‘ba uyushmalarning 50 % aksiyalari boshqa kompaniyalarga qarashli bo‘lgani uchun, soliq miqdorini

kamaytirish uchun uyushmalarining bo'linib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Chet mamlakatlarda olingan daromad uchun soliq stavkalari 75 % kamayti-  
rilishi mumkin.

Kompaniyalarning o'z aksiyalarini sotib olish hisobiga xarid narxini oshishdan olgan kapital miqdori 43 % stavkada soliqqa tortiladi. Bu qo'shimcha soliqqa kiradi (agar uyushma o'zining tijorat ishlarini to'xtatgan bo'lsa). Buning uchun uyushmalarining barcha qo'zg'almas mulklari qaytadan baholanadi. Ayrim hollarda baholash soliqdan ozod etilishi mumkin.

Aksioner jamiyatlarini tugatish jarayonidagi barcha to'lovlar ularning qo'ygan kapitalidan (bodalidan) yuqori bo'lsa, yuqori bo'lgan qismi maxsus stavkalar orqali 43 % yoki 21,5 % soliqqa tortiladi. Belgiya rezidentlari barcha olgan daromadlari hisobidan personal daromad solig'i to'laydilar. Soliq stavkasini belgilashda er va xotinning topgan umumiy daromadi hisoblanganda ularning professional topgan daromadlarining umumiy summasi soliqqa tortilmaydigan darajada bo'lsa, u holda qaysi birining olgan daromadi yuqori bo'lsa, biridan ikkinchisiga o'tkaziladi.

Soliqqa tortishdagi o'zgaruvchan shkaladan ham foydalaniladi. Bunda quyidagi soliq shkalalaridan amalda bo'ladi. Ya'ni 25 % dan — 55 % gacha (munitsipal soliq va 3 % qo'shimcha krizis to'vlari).

Munitsipal soliq 6—10 % stavkalarda belgilangan. Oilaviy soliq to'lash majburiyatlari qaramog'idagi odamlar soni uchtadan yuqori bo'lsa kamayadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i 21 % qilib belgilangan. Qo'shilgan qiymat solig'inining pasayishi uy-joy quruvchi tashkilotlarga joriy qilinib, bu ko'rsatkich — 12 % ni tashkil etadi. Hayotiy ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan mahsulotlar va dori-darmonlar 6 % ni tashkil etadi. Bank sug'urtalari, moliyaviy xizmatlar, ta'lim va salomatlik xizmatlari, davlat soliq xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'iga (QQS) tortilmaydi.

Egri soliqlar Belgiya davlati uchun ham katta ahamiyatga egadir. Qo'shilgan qiymat solig'inining qat'iy stavkasi 21 % ga teng. Bundan tashqari bu soliqda uy-joy qurilishida, qishloq xo'jaligi xomashyosi, dori-darmonlar, kitoblar, gazetalar, kommunal xizmatlar, yo'lovchi transport xizmatlari, mehmonxona biznesiga kamaytirilgan stavka belgilangan. Banklar, sug'urta kompaniyalari, yuristlar, o'qituvchilar, vrachlar va kasalxonalar xizmati hamda xalqaro tashish ishlar, samolyot va kemalarning yetkazib berish ishlari QQS dan ozod qilingan.

Aksiz solig'i Belgiyada neft mahsulotlari, elektr energiya, tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar, vino, pivo, alkogolsiz ichimliklar, qahva hamda tashqi reklamadan va qimor o'yinlaridan olinadi.

To'g'ridan to'g'ri merosxo'rlar uchun meros va hadya solig'i stavkalari 3 % dan 30 % gacha, boshqa merosxo'r toifalari uchun 20 % dan 80 % oralig'ida bo'ladi.

Ro'yxatga olish solig'i yer va imoratlarni ijara olish yoki sotish hujjatlarini rasmiylashtirishda olinadi. Soliqning qat'iy stavkasi 12,5 % ga teng. Uncha katta bo'Imagan yer joylari va imoratlarni uchun imtiyozlar ko'zda

tutilgan (sotish vaqtidagi yig'im stavkasi — 6 %, ijara vaqtida-1000 belgiya franki yoki bitim qiymatining 0,2 %).

Transport vositalarini ro'yxatga olish solig'i avtomobillar, yaxtalar, samolyotlar va boshqa transport vositalarini davlat ro'yxatiga olinayotgan paytda undiriladi; soliq stavkasi transport vositasiga va ishlab chiqarilgan sanasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, avtomobil uchun soliq summasi 2,5 mingdan 100 ming frankni tashkil etadi.

Avtotransport vositalaridan olinadigan mahalliy soliq barcha avtomobil egalaridan olinadi. Undan tushadigan tushum umumiyligini magistral yo'llarni ta'mirlashga sarflanadi. Soliqni hisoblash dvigatel quvvatiga (avtomobil uchun) yoki yuk ko'tarish quvvatiga (yuk transportlari uchun) asosan amalga oshiriladi. Dvigatel quvvati 20 ot kuchidan yuqori bo'lgan yengil avtomobil uchun, Belgiya qonunchilikiga asosan, soliq summasi 481000 frank hamda unga keyingi har bir ot kuchiga 26000 frank qo'shilgan holda hisoblanadi; yuk avtomobil uchun turiga qarab har bir 100 kilogramm yuk ko'tarish qobiliyatidan 150 dan 346 frankkacha (eng kam stavka 854 frank) hisoblanadi.

Soliqlarning keyingi guruhi daromad soliqlaridir. Jismoniy shaxslardan olinadigan davlat daromad solig'i rezidentlardan (Belgiyada va chet elda olingan daromaddan) tashqari norezidentlardan (Belgiyada olingan daromaddan) ham olinadi. Soliq mulkdan, qimmatli qog'ozlardan va boshqa manbalardan tushgan tushumdan hamda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan imtiyoz va xarajatlar summasi chegirilgan holda, ish haqidan undiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv xususiyatga ega bo'lib, daromad hajmiga bog'liq holda o'zgaradi. Minimal stavka 25 % — 253 ming frank yillik daromad summasiga qo'llaniladi, maksimal stavka 55 % bo'lib, bu 2420 ming frankdan oshgan daromadga nisbatan qo'llaniladi. Davlat daromad solig'i dan tashqari ushbu soliq bazasidan mintaqaviy daromad solig'i ham undiriladi, qaysiki uning soliq stavkasi umummiliy soliq stavkasining 6—10 % ni tashkil qiladi va 3 % ga teng bo'lgan krizis badali undiriladi.

Belgiya daromad soliq tizimi amaliyotida oila daromadlarini soliqqa tortish usulini qo'llamoqda, bunda er va xotin daromadlari jami qo'shilgan holda soliqqa tortiladi. **Bu soliq bo'yicha qonunchilikda ikkita imtiyoz ko'zda tutilgan:**

- agar oilaning ikkala oila a'zosini ham kasbiy faoliyatdan daromad olinan taqdirda (kam daromad olgan oila a'zosining daromadi alohida soliqqa tortiladi);
- agar oila a'zolarining faqat bittasi kasbiy daromad olsa, uning daromadining 30 % soliqqa tortiladi, xolos (297000 frank atrofida).

Korporatsiyalarning foyda solig'i Belgiya qonunchilikiga asosan barcha yuridik shaxslardan, boshqaruv tashkilotlari ega bo'lgan, mamlakat hududida joylashgan kompaniya va tashkilotlardan olinadi. Soliqqa tortiladigan daromaddan kompaniyalar ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni chegirish huquqiga

egadirlar. Uning qat'iy soliq stavkasi 39 % ga teng bo'lib, bir qator boshqa stavkalar ham ko'zda tutilgan.

#### Korporatsiyalarning foyda solig'i stavkaları

Nº	Kompaniyalarning foyda miqdorlari, BEF	Stavka, %
1	1 mln BEF gacha	28
2	1 mln BEF dan 3,6 mln BEF gacha	36
3	3,6 mln BEF dan 13 mln BEF gacha	41
4	13 mln BEF dan yuqori	39

#### Belgiyadagi korporatsiya va jismoniy shaxslar foydasini soliqqa tortishning ayrim asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- agarda foyda chet eldan kiritilgan va foyda olingen mamlakatda soliqqa tortilgan bo'lsa, korporatsiya foyda solig'i 25 % ga kamayadi;
- norezidentlardan olinadigan soliq norezident jismoniy shaxslarning daromadidan undiriladi (daromad solig'i stavkasiga nisbatan 6 % qo'shimcha ustama bilan);
- Belgiyada doimiy vakilligi bo'lmagan yuridik shaxslar, chet el hukumatlarining tashkilotlari va boshqa toifadagi norezidentlarning foydasi, 43 % soliq stavkasi bilan soliqqa tortiladi;
- kompaniya tomonidan to'langan vositachilik haqi, mukofot va gonorlarlar (agar ularning oluvchilari aniq bo'lsa) soliqqa tortish maqsadida tannarxga qo'shiladi. Agarda pul mablag'larining oluvchilari nomi sir tutilgan taqdirda, ushbu xarajatlar chiqimga qo'shilib, maxsus 200 % soliq stavkasi bilan soliqqa tortiladi.

#### 5. Finlandiya Respublikasining soliq tizimi

Iqtisodiy rivojlanishda bo'lgan va Yevropa Hamkorligida faoliyat ko'rsatayotgan rezidentlar uchun Finlandiyada hech qanday chegaralash yo'q. Chet el sarmoyadorlari uchun Finlandiyada chegaralash bo'lmaydi. Agarda chet el fuqarosi dam olish maqsadida Finlandiyada ko'chmas mulkka ega bo'lsa, u holda Davlat Administratsiya palatasidan ruxsat olishi kerak. Shunday qilib, chet el sarmoyalarining Finlandiyaga kirib kelishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Finlandiyada ko'proq tadbirkorlik rivojlangan bo'lib, ular chegaralangan yo'naliш bo'yicha faoliyat olib boradilar. Tadbirkorlar o'z faoliyatlarini, shuningdek, savdo registrlarida qayd ettilishlari kerak. Ustav kapitalining minimal miqdori 5000 Finlandiya markasini tashkil etadi. Finlandiyada chet el davlatlarining vakolatlarini ochish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak, uyushmaning yarmisi YES davlatlarining soliq rezidenti bo'lishi lozim. Finlandyaning rivojlanayotgan rayonlarida kapital qo'yilmalar ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan. Turizm maxsus soliqdan ozod etish yo'li bilan rag'batlantiriladi. Mahalliy hokimiyat tashkilot va korxonalarни rag'batlantirib, imtiyozli kreditlar beradi. Davlat miqyosida maxsus fond tashkil etilib, maslahat

yordami bergenligi uchun xo'jalik subyektlarini moliyaviy rag'batlantiradi. Barcha daromad korporativ soliqqa tortiladi. Norezidentlar faqat Finlandiyada olgan daromadlari hisobidan soliq to'laydilar. Uyushma Finlandiya qonunchiligi asosida ro'yxatdan o'tsa, u holda Finlandiya rezidenti hisoblanadi.

#### Amaldagi qiymatga asosan amortizatsiya ajratma summalarini stavkalarini belgilangan:

- 30 % ishlab chiqarish mashinalariga;
- 4 % ofis binolariga;
- 7 % bino va inshootlarga;
- 20 % burg'ulash qurilmalariga.

Nomaterial aktivlar uchun 10 yil ichida teng holda amortizatsiya ajratmasi belgilanadi. Bu muddatni qisqartirish ham mumkin. Sotilgandan olin-gan foydani hisoblash quyidagicha: sotilgan mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish xarajatlarining ayirmasi foyda miqdorini belgilaydi. Shu miqdor soliqqa tortiladi. Rezident uyushmalarning barcha daromadlari soliqqa tortiladi. Bir xil foydadan ikki marta soliq olishning oldini olish maqsadida soliq shartnomalari tuziladi yoki bo'limasa joydag'i qonun bayonnomasi bilan reglamentланади.

Norezident uyushmalarni soliqqa tortish chegaralangan bo'lib, ular faqat Finlandiya hududida olgan foydalaridan soliq to'laydilar.

Mahalliy soliq stavkasi 15 va 20 % qilib belgilangan, bu asosan mahalliy qonunchilikka bog'liq bo'ladi. Mahalliy soliqlarga: fin cherkovi 1—2 % da, ijtimoiy fondga — 1,9 %, budgetga 80000 fin markasidan yuqori bo'lgan daromaddan — 3,35 %, nafaqa jams'armasiga — 4,3 %, mehnat birjasiga — 1,5 %.

Davlat miqyosida jismoniy shaxslarning ish haqi daromadi solig'ining stavkasi progressiv stavkalar bo'yicha undiriladi: 7 % dan 39 % gacha. Bunda asosan olingen daromad miqdori soliqqa tortiladigan baza hisoblanadi. Davlat miqyosida ishhaqi daromadidan soliq olinmaydigan daromad joriy qilinib, 43000 fin markasigacha soliq olinmaydi.

#### 6. Niderlandiya soliq tizimi

Niderlandiya davlat qonunchiligidagi soliq to'lovchilar ikki kategoriya bo'linadi: rezidentlarga va norezidentlarga. Huquqiy shaxs rezident hisoblanadi, agar uning boshqaruvchisi mamlakatda bo'lib, ularning nizomi shu davlatda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa.

Rezidentlar soliq to'lovchi hisoblanib, daromadlaridan soliq to'laydilar. Norezidentlar Niderlandiya davlatida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.

#### Xarakterli daromad — bu olingen foyda bo'lib, u:

- doimiy faoliyatiga va doimiy «predstavitelstva»siga qarab;
- ko'chmas mulk;
- kompaniya tomonidan sotilgan aksiya, agarda norezident shu aksiyaning uchdan bir qismiga ega bo'lsa;

- tadbirkorlikda qatnashsa, ammo aksioner sifatida bo'limasa.

Rezident uyushmalar o'zlarining qo'l ostidagi sho'balarini biriktirish hisobiga moliyalash uyushmalarini tashkil etib, soliqqa tortishning yagona obyektiqa aylantirishlari mumkin.

Chet el investitsiya strukturalarini aniqlashda Niderlandiya qonunchiligidagi farqlarni e'tiborga olish kerak bo'ladi. Chunki rezident uyushmalar va nerezident uyushmalarini soliqqa tortishda ma'lum tafovutlar mayjud.

#### Bu tafovutlar shundan iborat:

- rezident uyushmalar kapitali soliqqa tortiladi;
- rezident va nerezidentlar uchun soliq stavkalari bir xil dividend to'lash uchun yuboriladigan foyda soliqqa tortiladi, agar bu foyda sho'balar va ularning bo'lmlariga tarqatilsa, soliqqa tortilmaydi;
- niderland uyushmalariga berilgan aksiyalar soliqqa tortilmaydi, sho'ba va jamiyatlarga sotishdan olingan foyda soliqqa tortiladi;
- niderland uyushmalari o'z bo'lim va sho'balariga ega bo'lish huquqiga egadir, ammo ular konsolidar foydadan moliya guruhlariga soliq to'lash huquqiga ega emaslar.

Aksioner jamiyatlarni mukofotlashdan xarajatlarni tannarxga o'tkazishda bir qancha chegaralar mayjud. Shuning uchun bunday xarajatlarni qoplash uchun olingan foydadan 25 % ajratiladi. Foiz to'lanadigan xarajatlariga, qarz bilan bog'liq bo'lgan hamda chet el sho'ba korxonalarini moliya bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, dividendlar soliqdan ozod etilgan.

Aksioner jamiyatni tugatish jarayonida ular barcha aktivlarini bozor bahosida sotadilar. Pul mablag'i aksioner jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlanadi. Taqsimlangan foyda dividend bo'yicha soliqqa tortiladi.

Aksioner jamiyatlar foydasini davlat tomonidan aniqlash mumkin, agar barcha bajarilgan shartnomalar, mol-mulk bozor bahosida hisoblanmagan bo'lsa, bu holatda foyda aniqlansa, yashirilgan dividend deb qaralib, dividend bo'yicha soliqqa tortiladi.

Niderlandiya soliq siyosatiga oid savollarni tashkilotlar va uyushmalar o'rtasida muhokama qilish odad tusiga kirib bormoqda.

#### Bunday soliq siyosatiga oid masalalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- soliqqa tortiluvchi chet el sho'ba uyushmalari o'rtasida foyda me'yorlarining taqsimlanishi;
- sho'ba va asosiy firmalarga qilingan xizmatlar uchun olingan komission.

Bunday mahsulot savdo bo'yicha ixtisoslashgan uyushmalar uchun o'tkazilmaydi.

Foydaning ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha soliq omilining imtiyozlari mayjud:

- dividendlar to'lanadigan soliq uchun, soliq krediti, bu dividendlar soliq to'lashdan ozod etilgandan keyin kuchga kiradi. Agar soliq krediti olingan soliq summasidan yuqori bo'lsa, u holda ortiqcha qismi uyushma a'zolariga beriladi;

- chet el dividendlari to'lash uchun berilgan soliq krediti — bu foiz va mualliflik gonaralaridir. Soliq to'lovchi rivojlanayotgan davlatning rezidenti bo'lsa, u holda kredit miqdori chegaralangan bo'lib, 25 % ni tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlikda amortizatsiya ajratmasi berilgan imtiyoz stavkasi — 18 %. Bu imtiyozlar davlatlararo qilingan kelishuvlarga ham bog'liq bo'ladi. **Bu esa quyidagi kategoriyalarda ko'rildi.**

- chet elda ko'rsatilayotgan doimiy faoliyat uchun olingan foyda;
- chet eldag'i ko'chmas mulkdan olinayotgan daromad;
- chet el qarzi uchun olinadigan foiz.

Davlat organlari joriy yil tugashi bilan, uch yillik soliq miqdorini uzilkesil aniqlashi lozim. Soliq yo'nalishidagi faoliyatni o'tgan 5 yillik davomida tekeshirish mumkin, agar bunday yashirin soliqqa tortish obyekti aniqlansa. Chet el daromadidan aniqlangan bunday hol 20 yil mobaynida ko'rib chiqilishi mumkin. Soliq to'lovchini soliq inspektorining qarori qoniqtirmasa, u holda 2 oy ichida apelatsion sudga murojaat qilishi mumkin. Soliq to'lovchi va davlat organlari apelatsion sud qarori ustidan shikoyat qilishga haqlidirlar va bu to'g'risida Oliy sudga 2 oy ichida murojaat qilishlari mumkin. Agar soliq to'lovchi o'zini jabrlangan hisoblasa, unda tekshiruvni boshqatdan o'tkazishni talab qilishi kelishuvga asosan amalga oshiradi.

#### Soliq qonunchiligidagi soliq solishning uch xil turi mavjud:

- ish haqi fondidan soliq;
- yutuqdan soliq;
- dividend solig'i.

O'yin o'tkazadigan muassasalardan olingan yutuq uchun 33 %, lotoreya o'yinidan 25 % soliq undiriladi. Foydani yoki kapitalni taqsimlashda u holda qanday ko'rinishda ochiq yoki yopiq bo'limasin dividendlardan soliq ushlanadi. Ustav fondi yoki kapitalning pasayish holati vujudga kelsa, u holda soliqdan ozod etish mumkin. Agar aksiyalarni sotib olish bahosi aksioner kapitalidan yuqori bo'lsa, u holda bu oraliqdagi farq dividend hisoblanadi. Ulushli obligatsiyalar ham soliqqa tortiladi. Nerezident uyushmalar bo'lmlarining foydasini taqsimlashda dividendlardan soliq undirilmaydi. Ayrim hollarda dividend oluvchi soliqdan ozod etilish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

Nerezidentlarning Niderlandiya davlatida olgan daromadlari foiz hisobida ayrim kategoriyalar bo'yicha soliqqa tortilishi mumkin. Niderlandiyada royalty, renta, gonorlar bo'yicha alohida soliq turlari mayjud emas. Soliq solish summasi dividendlar tomonidan to'langan to'liq miqdor hisoblanadi. Bundan hech qanday chegirma qilishga ruxsat berilmaydi. Dividendlar uchun soliq stavkasi — 25 %. Bu stavka 15,5 % gacha, hatto 0 % gacha qaytarilishi mumkin, agarda oluvchi YES rezidenti bo'lsa yoki davlatlarning Niderlandiya davlati bilan shartnomasi bo'lsa, so'z summadan 33 % stavkada soliq olinadi. Soliq to'lovchilar soliq stavkalarini kamayti-

rish yuzasidan Niderlandiya soliq organlariga murojaat etishlari, bunda soliq stavkalari 15 % gacha kamaytirilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 17,5 % ni tashkil etadi, oziq-ovqat mahsulotlari, spirtsiz ichimliklar, mehmonxona xizmati, yo'lovchi transport xizmatlari uchun 6 % stavka qo'llaniladi. Qo'shilgan qiymat solig'idan (QQS) ayrim tijorat faoliyatlar, bank xizmati, sug'urta, moliya xizmati, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlari ozod etiladi.

Meros yoki sovg'a sifatida berilgan buyum va ko'chmas mulkdan soliq to'lanadi. Meros va sovg'adan olinadigan soliq stavkalari qarindoshchilik darajasiga qarab belgilanadi. Oilada bolalari va turmush o'rtog'i bo'lsa, ularning daromadi 5 % stavkada soliqqa tortiladi. Jismoniy shaxslar daromadining eng yuqori stavkasi 27 % ni tashkil etadi. Agarda daromad 1564718 gollandiya guldengidan oshiq bo'lsa, soliq stavkalari 68 % tashkil etishi mumkin.

## 7. Norvegiya qirolligida soliq tizimi

Budgetning daromad qismini to'ldirishda fuqarolardan olinadigan daromad solig'i asosiy o'rinni egallaydi. Norvegiyada olti oydan ortiq yashagan barcha jismoniy shaxslar Norvegiya rezidenti hisoblanib, barcha olgan daromadlaridan daromad solig'i to'laydilar. Chet el fuqarosi va Norvegiya fuqarosi rezident statusiga ega bo'lsa, u holda milliy va mahalliy soliqlar to'laydilar.

Norezidentlar faqat Norvegiyada olgan daromadlaridan soliq to'laydilar. Davlat rezidentlari uchun to'liq soliqdan ozod etish kafolatlangan. Agar shaxs Norvegiya davlati bilan soliq shartnomasini imzolagan bo'lsa va soliq yilda bu shaxs 183 kundan kam bo'lsa, uning daromadidan soliq olinadi. Agarda chet el fuqarosini huquqiy shaxs mamlakati soliq rezidenti tomonidan qabul qilingan bo'lsa, xalqaro shartnoma bo'yicha Norvegiyada ikki tomonlama soliqqa tortishdan himoya qilish uchun shartnoma mavjuddir.

Agar chet el fuqarosi Norvegiya ishlab chiqarish korxonasi orqali ishga qabul qilingan bo'lsa, u holda kelgan kunidan boshlab Norvegiya davlatining soliq rezidenti hisoblanadi va barcha soliq turlari bo'yicha soliq to'laydi. Chet el kompaniyalarining olgan dividendlari soliqqa tortiladi. Yakka tartibda olingan daromad (yalpi daromad hisoblangan tadbirkorning mehnat faoliyatidan nafaqa) soliqqa tortish predmeti hisoblanadi. Ishchilar o'z ish haqidan ijtimoiy fondga 7,8 % miqdorida badal to'laydilar. Ozod tadbirkorlar uchun bu miqdor 10,7 % ni tashkil etadi. Agar olingan daromad miqdori 447600 Norvegiya kronasidan oshmag'an bo'lsa, soliq stavkasi 7,8 %, nafaqalardan ham ijtimoiy fondga 3 % miqdorida soliq to'lanadi.

Olingan daromad qilingan xarajatlar hisobiga kamayishi mumkin. Bu kamayish olingan barcha daromad qismining 20 % dan oshmasligi kerak. Shu bilan bir qatorda, yana birinchi guruh soliq to'lovchilar uchun soliqqa

tortish minimumi 36000 Norvegiya kronasini tashkil etsa, ikkinchi guruh soliq to'lovchilar uchun bu raqam 29800 Norvegiya kronasini tashkil etadi.

Daromadning qolgan qismi soliq olish bazasiga nisbatan foydalarda kamaytirilishi mumkin, bu — alimentlar va boshqa xaratjalr. Agar jismoniy shaxs chet elda o'zining ko'chmas mulkiga ega bo'lsa, u holda soliq solish chegaralangan bo'ladi. Ko'chmas mulkning 30 % chet elda bo'lsa, u holda olingan foydaning (daromadning) 70 % gina daromad solig'iga to'lanadi.

Aksiya va obligatsiyalardan keladigan daromad 28 % stavka bilan investitsiyadan olingan daromad kabi soliqqa tortiladi.

Daromad deklaratsiyasi joriy yilning 31-yanvarigacha taqdim etilishi kerak. Yakka tadbirkorlar soliq to'layotganliklarini taqdim etuvchi kartochka olishlari lozim, bunda olingan ish haqidan ushlangan soliq miqdorini qayd etish shart. Bunday tartibni tadbirkor har ikki oyda bajarishi kerak bo'ladi. Soliq bo'yicha yakuniy hisob-kitob kelgusi soliq yilining boshida amalga oshiriladi, bunda joriy yilda soliq miqdori ko'proq to'langan bo'lsa, u holda ortiqcha to'langan soliq summasi qaytariladi, agar kam to'langan bo'lsa, u holda ham to'langan summa miqdorida soliq to'lanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydigan barcha korxonalar QQS to'lovchilar bo'lib, davlat registrlaridan o'tadilar.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 23 % ni tashkil etadi (bunda sotilgan tovarlar, xizmatlar va eksport tovarlar). Bir necha xizmat turlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan. Bunga: moliyaviy faoliyat, sug'urta xizmati, ta'lim, sog'liqni saqlash va bir qancha malakali xizmat ko'rsatish turlari va eksport operatsiyalari kiradi. Ayrim ishlab chiqarish mashinalari uchun soliq stavkasi 7 % ni tashkil etadi. Kapital mablag'dan olinadigan bu 7 % soliq summasi QQS ga qo'shib olinadi.

Ayrim faoliyat turlari, qishloq xo'jaligi va boshqa turdag'i ishlab chiqarish faoliyatlarini davlat tomonidan himoyalanadi. Ayrim korxonalarga eksport faoliyatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatiladi. Tarqoq holda joylashgan ishlab chiqarish korxonalarini rag'batlantirish bilan bir qatorda bu ularning mamlakat ijtimoiy qismlarida joylashishiga ham imkoniyat yaratadi, bu bilan qonunchilik organlari korxonalar tomonidan ijtimoiy fondga to'lanadigan soliq stavkalarini kamaytiradilar. Ayrim hollarda bu soliq stavkalari 0 % ni tashkil etishi mumkin (shimoliy viloyatlarda). Markaziy viloyatlarda bu stavka 14,1 % dan tashkil topadi.

Soliq rezidenti hisoblangan uyushmalar soliq to'lovchilar hisoblanadi. Ular umumiyligi olingan daromaddan soliq to'laydilar. Norezident uyushmalar esa faqat Norvegiya daromad omillaridan olgan daromadlari hisobidan soliq to'laydilar. Agar uyushmaning boshqarish organi yoki bosh ofisi Norvegiyada joylashgan bo'lsa, u holda kompaniya Norvegiyaning to'liq soliq rezidenti hisoblanadi. Chet el rezidentlarining Norvegiyada olgan daromadlari ham soliqqa tortiladi, agar faoliyat yuritayotgan davlat bilan soliq to'g'risida shartnoma imzolanmagan bo'lsa.

Korporatsiyalar tomonidan hisob-kitob qilingan hamda tasdiqlangan foyda solig'i to'g'risdiagi deklaratsiya hisoblanib, yilning 28-fevraligacha soliq organlariga taqdim etilishi kerak.

Birinchi yil Norvegiyada bo'lgan chet el fuqarosi ham soliqqa tortilishi majburiy hisoblanadi. Agarda chet elliq Norvegiyaning doimiy rezidentiga aylansa, u holda barcha soliq turlari bo'yicha soliqqa tortiladi.

Barcha huquqiy va jismoniy shaxslar har yili soliq to'lashga majburdirlar (barcha mulklarning haqiqiy xizmati bo'yicha). Aksioner jamiyatlar soliqning bu turidan ozod etilgan.

### 8. Skandinaviya davlatlari va Daniya qirolligida soliq tizimi

**Daniya** — soliqlarning yuqori darajasi qo'llaniladigan davlat hisoblanadi. Budget tushumlarining tuzilmasida qariyb 50 % ni jismoniy shaxslar daromadidan soliqlar tashkil etadi. Soliq majburiyatlarining hajmi soliq to'lovchining statusiga va daromad keltirish manbayiga bog'liq (rezident yoki norezident). Daniya hududida doimiy yashovchi fuqarolardan tashqari, doimiy turar joyi bo'Imagan, 6 oy mobaynida Daniya territoriyasida yashab turgan fuqarolar rezident deb hisoblanadi. Rezidentlar o'z davlatlarida yoki undan tashqarida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar. Daromadning har xil turlariga turli stavkalar qo'llaniladi. **Soliq undirish maqsadida daromadlar quyidagi guruhlarga differensiatsiya qilinadi:**

- shaxsiy daromadlar, sarmoya daromadi, oddiy soliq olinadigan daromad va aksiyalardan daromad.

Shaxsiy daromadga ish haqi, qaytarilgan soliqlarning hajmi, turar joy narxi, shaxsiy maqsadda foydalangan avtomobil xarajatlari, nafaqalar, tadbirdorlik faoliyatining sof foydasi (xarajatlari va foizli daromadni hisoblamasdan).

Daromad solig'iga davlat, mahalliy hokimiyat va cherkov soliqlari kiradi. Mahalliy hokimiyat va cherkov soliqlarning o'rtacha stavkasi birgalikda 29,5 % ni tashkil etadi.

Daniya hududida doimiy vakolatga ega bo'lgan chet el fuqarolari Daniya rezidenti bo'lib, shu davlat ish beruvchisi tomonidan ishga qabul qilingan taqdirda 6 oydan 3 yilgacha o'z xohishlari bo'yicha ish haqini naqd pul to'lash shaklida maxsus soliq rejimi asosida olishlari mumkin. Maxsus soliq rejimi asosida daromadlardan 25 % soliq undiriladi. Bunday daromadlardan hech qanday chegirmalar qilinmaydi. 3 yillik muddat o'tganda chet el fuqarosiga Daniyada 48 oygacha yana qolishga ruxsat etiladi va uning daromadidan Daniyaning soliq qoidalari asosida soliq undiriladi.

Yillik soliq deklaratsiyasi turar joyga qarashli soliq organlariga hisobot yilidan keyingi yilning 31-may oyigacha, faoliyat bilan shug'ullansa, deklaratsiyani taqdim etish muddati 30-iyungacha.

Oldindan ro'yxatga olgan holda daromad solig'i avans to'lovlar sifatida yil davomida to'lanib boriladi.

Daromad haqida deklaratsiya mahalliy soliq organlariga taqdim etilishiga ko'ra, shu mahalliy soliq organiga may yoki iyun oyigacha to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasi haqida xabarnoma yuboradi.

Agar kompaniyaning bosh boshqaruv organi Daniya hududida joylashgan bo'lib, shu davlat qonunchiligi asosida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, kompaniya Daniya rezidenti bo'lib hisoblanadi. Daniya hududidagi va undan tashqaridagi huquqiy shaxslar — Daniya rezidenti sifatida butun daromadi bilan soliq majburiyatiga ega. Norezident kompaniyalar faqat Daniya hududida joylashgan daromad manbalaridan soliqlar to'lashadi. Bularga yer uchastkalari, mualliflik gonorarlari, dividendlar va boshqa daromad manbali kiradi. Soliq yuki moliya hisobot yilda olingan daromadlarga taqsimlanadi. Endigina tashkil etilgan korxona uchun moliyaviy yili ro'yxatdan o'tish muddatidan boshlanadi.

Daromaddan soliq undirish qoidalari birmuncha murakkab. Soliq undiriladigan daromad — yakuniy hisobotdan olingan bu hisobot davrida korxonaning moliyaviy natijalari ko'rsatilgan daromad. Biznes faoliyati davomida amalda qilingan xarajatlari hajmida kamayib boradi (tadbirkorlikni davom ettirish, saqlab qolish va qo'llab-quvvatlash maqsadida). Lekin dam olish, madaniy hordiq chiqarish maqsadida qilingan xarajatlarning 25 % bazasidan ayirilishi mumkin.

Kapital xarajatlari, odatda, soliq undirish bazasini kamaytirmaydi. Lekin biznes faoliyatini boshlash kengaytirish, marketing tadqiqotlar xarajatlari, ekspertlarga to'langan gonorarlar, ro'yxatdan o'tish uchun boj to'lovi xarajatlari korxonaning soliq undirish bazasini kamaytirishi mumkin. Dividend va foizlar to'liq hajmda chegiriladi.

Eskirgan va sotilishi qiyin bo'lgan obyektlarning soliq undirish bazasi bir yilda 12 % ga kamayishi uchun korxonaning buxgalteriya kitoblari bo'yicha moddiy zaxiralarning sof qiymati hajmini kamaytirish mumkin.

Bu chegirma keyingi moliyaviy yilning yalpi daromadiga qo'yilishi kerak, keyingi chegirma soliq bazasini kamaytirish zaruriyati bo'lganda qilinadi. Bunday imtiyoz keyingi yilning daromadi hisobidan daromaddan soliq undirishni kamaytirishda qo'llanilishi mumkin.

Kapital daromadidan umumiyo qo'llaniladigan stavkalar asosida 34 % korporativ solig'i undiriladi. Sotish qymatini sotib olish qiymati farqini kamaytirish yo'li bilan daromad hisoblanadi.

Ish beruvchi to'liq ish kun ishlagan har bir ishchi uchun nafaqa fondiga har oy Daniya kronasida to'lovlarini to'lashi shart. Korporativ salmog'ini hisoblash vaqtida nafaqa fondiga to'lanadigan to'lovlarining hammasi chegiriladi.

Hamma kompaniyalar va ularning chet eldagi sho'balari daromad solig'i hisobotining avans to'lovdag'i shakli majburiy hisoblanadi. Boshqa kompaniyalar olgan daromadidan hisoblashadi yoki avans shaklida to'lashni tanlashi mumkin. Olgan daromadidan soliqlarni to'laydigan kompaniyalar agar soliqlarni to'liq to'lamagan bo'lsa, to'lanmagan soliq summasidan 11,75 % hajmida pena to'lashga majbur bo'ladi.

Moliyaviy yilning 6 oyidan kechiktirmsandan korporatsiyalarning daromad solig'i haqida «Soliq deklaratsiyasi» soliq organiga topshirilishi shart. Agar moliyaviy yilning yakunlanish muddati 1-yanvardan 31-martga to'g'ri kelsa, bunday deklaratsiyani taqdim etishning oxirgi muddati — 1-iyul. Taqdim etilgan deklaratsiyalarning qayta ko'riliши va qayta hisoblanishi 31-iyulgacha o'tkazilishi mumkin.

QQS bo'lgan moddiy zaxiralalar bilan operatsiya olib boradigan va yillik daromadi 20000 Daniya kronasidan oshgan korxonalar QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishlari kerak. QQS stavkasi 25 % belgilangan. Tovarlarni eksport qilish, tibbiy, maorif, yo'lovchi transport, moliya, sug'urta va hokazo xizmatlar QQSdan ozod qilinadi. Import tovarlardan QQS 25 % stavkada undiriladi. Hisobot chorak yakunlanishiga qadar 10 kun muddatligida soliq organlariga har chorakda QQS deklaratsiyasi taqdim etiladi. Agar QQS to'lanmagan yoki qisman to'lanmagan bo'lsa, jarima undiriladi. Agar QQS ortiqcha summa bilan to'langan bo'lsa, qo'shimcha foiz to'lovi bilan qoplanadi.

Er-xotin juftligining mulk solig'i har biridan alohida undiriladi. Mulkka merosxo'rlikdan soliq bor mulkdan undiriladi, qachonki vafot qilgan shaxs Daniya rezidenti bo'lsa, faqat Daniya hududida joylashgan mulkdan undiriladi, qachonki, vafot qilgan shaxs Daniya norezidenti bo'lsa, rezidentlik statusi soliq undirish bazasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'chmas mulkka merosxo'rlik vafot qilgan shaxsga qarindoshlik darajasi asosida 15 % dan 36,25 % gacha stavkada to'lanadi.

Sovg'alardan sovg'a oluvchining daromadi sifatida soliq undiriladi. Lekin o'z turmush o'rtog'iga, ota-onasiga yoki farzandlariga qilinadigan sovg'alar maxsus soliq bilan 15 % stavkada undiriladi. Sovg'a qiluvchi va sovg'ani oluvchi Daniya rezidenti yoki mulk Daniya hududida joylashgan bo'lsagina, bunday soliq to'lanadi. Farzandlarga sovg'alarining bir yillik hajmi 41000 Daniya kronasidan oshmasa, soliq undirilmaydi.

## 9. Italiya soliq tizimi

Italiyaning hozirgi soliq tizimi 1980-yillar oxirida shakllangan. Odadagi vazifalarni amalga oshirishdan tashqari u ma'lum milliy xususiyatlar ni saqlab qolgan holda Italiya iqtisodiyotining G'arbiy Yevropa umumiyo bozoriga kirishi uchun zarur moliyaviy sharoit yaratishi kerak edi.

Dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani singari Italiyada davlat daromadlarining muhim manbalaridan biri — jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i hisoblanadi. U progressiv xususiyatga ega bo'lib, kalendar yil davomida jismoniy shaxslar oladigan sof daromad yig'indisini hisobga oladi. Bunda fuqarolarning shaxsiy yeridan olgan daromadlari, shaxsiy kapitaldan, yollanma ishlardan, tadbirkorlik faoliyatidan va boshqa manbalardan tushgan daromadlari jamlanadi.

O'z navbatida, shaxsiy yerdan olgan daromadlari, yer uchastkalaridan va qurilishdan tushgan daromadlardan tashkil topadi. Birinchisi, yerga

egalik qilishdan yoki agrar faoliyat yuritishdan kelib tushadi. Ikkinchisi, binolar va inshootlarni bevosita egasi tomonidan ekspluatatsiya qilishi va ularni ijara berish natijasida olingan daromadlardan tashkil topadi.

Yerga egalik solig'ini hisoblashda faqat qishloq xo'jaligi faoliyati uchun yaroqli yerlar inobatga olinadi. Qurilish solig'ini hisoblaganda shahardagi uylar, dala hovlilar hisobga olinadi, biroq qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash inshootlari, ishlab chiqarish va savdo korxonalar uchun yordamchi qurilish inshootlari, omborlar va qo'riqxonalar hamda molxonalar bundan mustasno.

Tadbirkorlik faoliyatidan daromad aholining shu faoliyat bilan shug'ullanuvchilariga tegishli bo'lib, soliqlar sof foydadan hisoblanadi. Faqat kasbiy faoliyat bo'yicha, masalan, vrachlik yoki advokatlik amaliyoti va ijodiy mashg'ulotda haqiqiy xarajatlar chegirib tashlanadi. Jismoniy shaxslardan daromad solig'i stavkalari progressiv xususiyatga ega. Ularga inflatsiya indeksini hisobga olib, har yili o'zgartirish kiritiladi.

1993-yilda — 7,2 mln liragacha daromadga 10 % stavkasida, 7,2 mln liradan — 14,4 mln liragacha 22 %, 14,4 mln liradan 30 mln liragacha 27 % va undan yuqorilariga 50 % gacha soliq solinadi. 1980-yillarda daromad solig'inining mutlaq stavkasi 62 % ga yetgan.

Olasida boqimandalari bor yoki 5,1 mln liradan kam oluvchilar soliq imtiyozlaridan foydalanadilar.

Daromad solig'ini to'lovchilarning o'zlarini soliq to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish yo'li bilan hisoblaydilar va soliq tashkilotlariga taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan daromad solig'i daromadliligi bo'yicha ikkinchi bevosita soliq hisoblanadi. Bu soliq mutanosib bo'lib, budjetga 36 foiz belgilangan stavkada to'lanadi. Daromad solig'ini aniqlashda ish haqi yalpi daromaddan chegirilib, foydaning sherigi, ya'ni kompaniya direktorining to'lovleri hisobga olinmaydi. Ilmiy teshkirish ishlariga sarflar to'la chegiriladi. Zarur bo'lganda zararni keyingi yil foydasiga qo'shib yuboriladi, bu 5 yil davomida amalga oshiriladi. Bu soliq — umumiy davlat solig'idir.

Italiyaning egri soliqlaridan qo'shilgan qiymat solig'ini birinchi navbatda ko'rsatish mumkin. Soliqqa tortish uchun qo'shimcha qiymat tovar va xizmatlar sotuvidan tushgan foyda, tovar hamda xizmatlar tannarxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Soliq tadbirkordan ishlab chiqarish yoki kommersiya doirasiga o'tish davrida olingan tovarlar qiymatining o'sishi miqdorida undiriladi.

Iste'mol uchun zarur tovarlarning ayrim turdag'i egri soliqlar (aksiz solig'i) tovarlarga qo'llaniladi. Masalan, ularga o'tkir alkogol ichimliklari, pivo, gugurt, bananlar, qurilish materiallari, elektroenergiya, neft va neft mahsulotlari kiradi. Shunday qilib, jismoniy va yuridik shaxslardan daromad soliqlari, yer va ko'chmas mulklarni soliqqa tortish bitimlari hamda iste'mol tovarlari uchun egri soliqlar mamlakat daromadining asosiy qismini ta'minlaydi.

Ko'chmas mulk qiymatini oshirganligi uchun soliqlar 1970-yillarning o'talarida joriy qilindi. Bu soliqlar o'sib boruvchi shkala bilan pog'onama-pog'ona qo'llaniladi. Soliqqa tortish obyekti sifatida Italiyada ko'chmas mulklarning (bino, inshoot, bo'sh qurilish maydonlari va boshqalar) dastlabki qiymati va pirovad bahosi o'rtasidagi farq xizmat qiladi.

Mamlakatning turli joylarida mahalliy organlarning moliyaviy ahvoliga qarab hamda reklama faoliyatining maqsadi va turlariga ko'ra soliq stav-kasi turlichaydi.

Avtotransport solig'i ham davlat, ham mahalliy tarzda mavjud. Bunga barcha yuridik va jismoniy shaxslar — avtotransport egalari tortiladi. Soliq stavkasi silindr hajmi va motor quvvatiga (ot kuchiga) qarab farqlanadi. Jamoat maydonlaridan foydalanganlik uchun soliq mahalliy hokimiyatga qarashli jamoat joylarining hajmi, joylashgan yeri va foydalanish maqsad-lariga qarab mahalliy hokimiyat tomonidan o'rnatiladi. Soliq stavklarini aniqlash uchun jamoat maydonlari sinf va kategoriyalarga ajratiladi.

Tamg'a yig'imi har qanday davlat va ma'muriy dalolatnoma, hujjat va reyestrlarni olishda to'lanadi. Uni olish turlichay: tamg'ali qog'oz yoki suv belgisi bor qo'szlardan foydalanganda, tamg'ali markalarni undirishda, pochta yig'imirini to'lashda va boshqa to'lovlar. Uning stavkasi hujjat va bitim summasiga bog'liq.

Ro'yxatdan o'tkazish yoki rasmiylashtirish yig'imirni reyestr tashkilot-lari tomonidan o'rnatiladi va rasmiylashtirish uchun, ya'ni ma'lum dalolat-nomalarini davlat reyestrlariga yozish uchun xizmat qiladi.

Davlat komission yig'imirni ayrim ma'muriy dalolatnomalarga joriy qilinadi: pasport berish, haydovchilik guvohnomasini berish, muzlatgich-larga egalik qilish uchun ruxsatnama berish va boshqalar. Yig'imirni hujjat-larni berishda va yangilashda amalga oshiriladi. Yig'imirni uchun odatda maxsus markalar qo'llaniladi.

Mahalliy litsenziya yig'imirni jamoat joylarida mavsumiy savdo qilish huquqini olish uchun joriy qilinadi.

Vorislik va hadya qilish uchun soliq ikki qismdan iborat bo'lib, ular bir vaqtida qo'llaniladi. Birinchi qism yangi mulk egasiga o'tish qiymatiga bog'liq. Soliqqa tortilmaydigan minimum bu yerda 120 mln lirani tashkil etib, keyin 3 foizli minimal va 27 foizli maksimal stavkali o'sib boruvchi shkala bo'yicha amal qiladi.

Ikkinci qism qarindoshliliga bog'liq bo'lib er-xotin, bolalari va otanonlari undan ozod qilinadilar.

Maqsadli yig'imir ham mavjud. Masalan, maktab uchun soliq yig'imi, davlat yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yig'imir va boshqalar.

Italiyada soliq undirishda soliq reyestri shunday hollarda foydalani-ladiki, qachonki soliq to'lovchi bevosita soliqni to'lamaganda yoki yig'imirni to'lashda undan ushlab qolganda. Bunday holatda soliq boshqar-masi maxsus reyestralro ro'yxatga olib, to'lovni ta'minlaydi. Reyestr mahalliy soliq byurosi ishchilari tomonidan tuzilib, unda ro'yxatga olingan dalil-

lar hudud soliq boshqarmasiga beriladi. Soliqlarni soliq reyestriga kiritish bilan foizlar, qo'shimcha yig'imirni va pul jarimalari undiriladi. Agar to'lov o'z vaqtida kelmasa, unda soliq to'lovchiga ogohlantirish yuboriladi, keyin majbur qilish chora-tadbirlari qo'llanilib, to'lamasa jarima qo'llaniladi. Bunday hollarda soliq tashkilotlari soliq qonunchiligini buzgan shaxsnинг mol-mulkini musodara qilib, auksionda oshkorra sotishi mumkin.

Bularдан tashqari, Italiya qonunchiligidagi soliqqa tortiluvchi daromadni yashirsa, jinoiy xususiyatga ega bo'lgan alohida huquq me'yorlari joriy qilinadi.

**Soliq xususida qonunbuzarlik quyidagi holatlarda juda og'ir hisoblanadi:**

- daromadi 50 mln liradan oshganda deklaratsiya to'ldirmas;
- buxgalteriya yozuvlari bo'lmasa;
- soxta jarayon hisob raqamlaridan foydalansa va ko'chirma olsa;
- daromadini ataylab past ko'rsatsa.

Bunday dalillar ishni sudga uzatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Italiya — soliqqa tortish sohasidagi iqtisodiy qonunbuzarliklari.** Italiya-da iqtisodiy, shu jumladan, soliqqa tortish sohasidagi qonunbuzarliklarni ochish va surishtirish ishlarini olib borish Davlat politsiyasi va Karibinellar Korpusi bilan birgalikda Moliya vazirligi strukturasiga kiradigan Moliyaviy Gvardiya Bosh Qo'mondonligi shug'ullanadi. **MGBQning asosiy funksiyalari quyidagilar:**

- 1) moliyaviy maxinatsiyalarni ogohlantirish;
- 2) moliyaviy qonunbuzarchilik bo'yicha surishtirish ishlarini olib borish.

MGBQ mustaqil faoliyat olib boradi, shuningdek, operativ qidiruv ishlarini olib borish doirasida o'z faoliyatini politsiyaga mos ravishda yuritadi. MGBQning boshqa bo'limlardan farqi — bu qator qonunchilik aktlari tomonidan berilgan cheklanmagan huquqlar, bular orasida 07.01.1929-yil Qonunda ko'rsatilgan iqtisodiy qonunbuzarlikni to'xtatish normalari asosiy o'rinni egallaydi.

MGBQ ofitserlariga soliq inspeksiyasini fiskal funksiyasi, operativ ishlarini o'tkazish va jinoiy ishlarni surishtirish borasida politsiya huquqlari berilgan.

**Ular quyidagi huquqlarga ega:**

- 1) hech qanday to'siqsiz korxona, firma va banklardagi hujjatlarga sud rozilgisiz soliqqa tortish obyektni tekshirish huquqiga ega;
- 2) quyidagi qonunbuzarlikka qarshi mustaqil operativ surishtirish ishlarini olib borish:
  - soliqqa tortishdan daromadni bekitish;
  - faktiv bankrotlik;
  - chet elga va chet eldan pul vositalarini o'tqazish bo'yicha maxinatsiyalar va boshq.

Daromadlarni soliqqa tortishdan berkitish faktlari ochilgan holda uning summasi 50 mln liradan ko'p bo'lsa, MGBQ ofitseri mustaqil ravishda

ma'muriy jarima belgilashi va materiallarni ma'muriy byuroga jo'natish huquqiga ega.

## 10. Ispaniya soliq tizimi

Ispaniya ma'muriy bo'linish jihatidan 17 ta avtonom hududga bo'lingan bo'lib, o'z navbatida, ular — 56 ta viloyatni o'ziga birlashtiradi. Lekin avtonom hududlar o'zining mavqeyi darajasi bir xil emas. Mamlakatda Navarra va Baskov boshqa avtonomiyalar ichida kattaroq avtonomiya huquqiga ega bo'lib, bu hol ularga turli xil hududiy va mahalliy soliqlarni joriy qilish huquqini berdi. Shuningdek, ular o'zlar federal soliqlarni yig'ib, qonun bilan belgilangan foizini o'z vaqtida federal budgetiga o'tkazib beradilar. Ulardan keyingi guruhga Kataloniya hududi kiritilib, ularga ham soliq stavkalarini tartibga solish huquqi berilgan. Uchinichi guruhga esa o'z hududlarida mustaqil soliq siyosatini yurgizish huquqi berilmagan. Ular Federal soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilib boradilar.

Ispaniya o'zining ma'muriy-hududiy bo'linish jihatidan 3 pog'onali soliq tizimiga ega. Mamlakat aholisi va korporatsiya federal, mintaqaviy va mahalliy soliqlarni to'laydilar. Federal soliqlarni nazorat qilish avtonomiyalar va viloyatlarda joylashgan Davlat soliq xizmati xodimlariga yuklatilgan.

Hududlar moliyaviy manbayini mustahkamlash maqsadida 1994-yilda Ispaniyada qisman soliq islohotlari o'tkazildi va ayrim federal soliqlarni hududlarda joriy qilish belgilandi. Shundan so'ng Federal soliqlarning besh turi qoldi.

Ispaniya budgetining asosiy daromad qismini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ta'minlaydi. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar Federal budget daromadining 38 % ni tashkil qiladi.

Soliqqa tortish bazasidan oiladagi har bir bola uchun va 65 yoshdan katta bo'lgan har bir qariya uchun 20 ming pesetgacha chegirib tashlanadi. Shuningdek, bir yillik daromaddan ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasi uchun to'lovlar summalarini 250 ming peset yoki 5 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda, dori-darmon uchun esa hujjatlashtirilgan xarajatlarni qisimi chegirib tashlanadi.

Daromaddan soliq hisoblanayotganda ko'chmas mulk qiymatining 2 foizi qo'shib hisoblanadi.

Daromad solig'i yakka tartibda yoki oilaviy juft bo'lib to'lanadi. Soliqqa tortilmaydigan minimum yillik daromaddan birinchi holatda (yakka tartibda) 400 ming peset, ikkinchi holatda (er-xotin) 800 ming pesetni tashkil qiladi. Daromadning o'sib borishini hisobga olib, 16 stavkali progressiv shkala joriy qilingan. Uning minimal stavkasi 20 %, maksimal stavkasi 56 % ni tashkil etadi. Yakka tartibda fuqaroning olgan daromadi bir yilda 9550 pesetdan oshganda; oilaviy juftlikning daromadi 11000 pesetdan oshganda eng yuqori soliq stavkasi qo'llaniladi.

Federal budgetga tushgan daromad solig'inining 15 % hududiy budgetga o'tkazib beriladi.

Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq asosiy to'g'ri soliqlardan biri bo'lib, uning stavkasi 35 % ni tashkil qiladi. Kooperativlar uchun soliq stavkasi 26 % gacha kamaytiriladi. Investitsiya jalb qilinganda 5 % soliq imtiyozi qo'llaniladi. Qo'shimcha tashkil etilgan har bir ishchi o'rinn uchun soliqqa tortish bazasi 15 ming pesetga kamaytiriladi. Shuningdek, madaniyat sohasiga ayniqsa, kino ishlab chiqarish, ta'lif va kadrlarni kasba tayyorlash sohalariga sarf qilingan sarmoya uchun ham imtiyozlar belgilangan. Korporatsiya foydasidan olinadigan soliqlar federal budget daromadining 8,2 % ni tashkil qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i Ispaniya federal soliq tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Hozir qo'shilgan qiymat solig'i 16 % qilib belgilangan. Lekin oziq-ovqat mahsulotlari, madaniy va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlari, yotoqxona va transport xizmatlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i 7 % miqdorida qo'llaniladi. Asosiy ehtiyojlar uchun zarur mahsulotlar: non, sut, tuxum, don, meva, sabzavot, dori-darmon, kitoblar, ro'znomalar, davlatga qarashli binolar uchun QQS 4 % gacha tushiriladi.

Ko'pgina mamlakatlar singari Ispaniyada ham ichki tovar oboroti mahsulotlari (eksport operatsiyalaridan tashqari) qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Kasalxonalarda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar, moliyaviy, bank va sug'urta operatsiyalari, ta'lif sohalari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i federal budget daromad qismining 24,9 % ga teng.

Ispaniya federal budgeti bilvosita soliqlardan ikkinchi asosiy soliq bo'lib, aksiz solig'i hisoblanadi, u federal budget daromad qismining 13,2 % ni tashkil qiladi. Yevropa mamlakatlaridagi kabi aksiz solig'i alkogol ichimliklaridan, tamaki mahsulotlari, yoqilg'i, avtomobillar va boshqa ayrim mahsulotlardan to'lanadi.

Yuqorida qayd etilgan to'rt xil soliq Ispaniya federal budgetining 84 % dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Qolg'anini bojxona bojlar, soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lamaganliklari uchun pena va soliq bo'lmagan to'lovlar tashkil qiladi.

Hududiy soliqlar tarkibini Kataloniya budgetining 1995-yil holatida misol qilib ko'rish mumkin. Kataloniya budgeti daromadlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Kataloniya hukumat tomonidan o'rnatilgan xususiy soliqlar hududning moliyaviy ahvolini mustahkamlash maqsadida o'tkazilgan.

Meros yoki sovg'a tarzida o'tgan mol-mulk soliqlari budgetda 34200 mln peset yoki 2 % ni tashkil qilgan. Soliq stavkasi — 7,65 % dan 34 % gachani tashkil qiladi. Soliq miqdorini aniqlashda eng katta imtiyozlarga to'g'ri keladigan merosxo'rlar belgilangan.

Federal hukumat bilan kelishilgan holda viloyatlar boshqa mayda soliqlarni kiritish huquqiga ega. Masalan, hayotni sug'urtalash solig'i. Uning stavkasi bir yilga 0,2 % ni tashkil qiladi. Agar sug'urta summasi 17000 pesetdan oshib ketsa, soliq stavkasi 0,5 % gacha oshiriladi.

Tahlil natijalari yuzasidan aytish mumkinki, mintaqalarga ayrim daromad manbalari berilishiga qaramay Ispaniyada soliqlarni «tepadan pastga» qayta taqsimlash sodir bo‘lmoqda. Mahalliy soliqlar ichida Kataloniya viloyatlarida o‘rnatilgan uchta asosiy soliqlarni ko‘rsatish mumkin. Bu, eng avvalo, ko‘chmas mulk solig‘i: mintaqqa hudud chegarasidagi yer joylari va imorat qurilishlariga joriy qilinadi. 1995-yil Kataloniya mahalliy budgetida shu soliqdan 74069 mln peset tushishi ko‘zda tutilgan, bu mintaqqa daromadining 14,9 % ni tashkil etadi. Mulklarni baholash ishlarini kadastr boshqarmasi amalga oshiradi. Stavkalarni differensiyalashgan munitsipalitet tomonidan tartibga solish ishlari amalga oshirib boriladi.

Bu soliq turi mahalliy budgetning 3,4 % ni yoki 16677 mln pesetni keltirishi rejalashtirilgan. Bu soliqni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydilar. Bu soliq miqdori ko‘pgina omillarga: faoliyat turiga, egallangan bino yoki imorat maydonining kattaligiga, energiyaning iste’mol miqdoriga, korxonaning joylashish yeriga mintaqqa koeffitsiyentiga va boshqalarga bog‘liq.

Mahalliy soliqlardan yer va joylarning narxi o‘sib borishi tufayli joriy qilinadigan soliqni aytib o‘tish mumkin. Bu soliq yer joylarining egasi o‘zgarganda, kadastr narxining oshirilgan qiymati hisobidan olinadi.

Jamiyat ahamiyatidagi binolarni qurish solig‘i xarajatlarni qoplash uchun joriy qilinadi. Shaxsiy xususiyatdagi xizmat xarajatlarni qoplash uchun ushbu soliqlar kiritilgan. Masalan, chiqindilarni olib ketish solig‘i, aholi yashaydigan uylar atrofini asfalt qilish xarajatlari shu joyda yashovchi uy egalariga bo‘linadi.

Qo‘shimcha mintaqaviy soliqlar faqat yuqori boshqaruv organlarining ruxsati bilan kiritiladi.

Ispaniya soliq tizimi 3 darajadan iborat: davlat, viloyat va mahalliy (munitsipal).

Davlat budgeti bir necha manbadan shakllanadi. To‘g‘ri soliqlar davlat xazinasi tushumlarining 47,2 % ni tashkil etadi, shu jumladan, daromad solig‘i — 38 %, kompaniyalardan soliq — 8 %, jismoniy shaxslarning mulkiga soliq (nerezidentlardan tashqari). Egri soliq davlat xazinasi tushumlarining 40,3 % ni tashkil etadi, shu jumladan, QQS — 25 %, maxsus soliqlar (spiritli ichimlik va tamaki mahsulotlarga aksizlar, ayrim transport vositalari), boj to‘lovlar.

Boshqa daromadlar ham muhim o‘rin egallaydi, jumladan, to‘lov muddati o‘tkazib yuborilganligi uchun pena to‘lovi. Daromadi 1 mlrd pesetdan oshiq bo‘lgan soliq to‘lovchilar «yirik» deb hisoblanadi. Eksporti 20 mln pesetdan oshiq bo‘lgan soliq to‘lovchi eksportchilar davlat reyestriga kiritiladi. Ularning ro‘yxati har bir soliq inspeksiyasida bor.

Ko‘chmas mulkka, iqtisodiy faoliyatiga, transport vositalariga, yerga, imoratlarga, qurilish ishlarini olib borishga, ma’muriy faoliyat uchun soliqlar mahalliy hokimiyatlar bilan o‘rnatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish bir xil bo‘lmaydi. Agar ayrim korxonalar va tarmoqlarda ko‘tarilish kuzatilsa, ayrimlarida esa depressiya

davri kechishi mumkin. Shu vaziyatda tezkorlik bilan butun nazorat ishini, birinchi navbatda, tekshiruvlarning samaradorligini ta’minlaydigan, soliq yig‘imlari hajmi ko‘zda tutilgan tarmoqlarda, korxonalarda jamlash kerak. Kadrlar bilan ishlash tajribasi juda qiziqarli. Soliq xizmatining personal inspektorlari va soliq agentlariga bo‘linadi. Soliq agenti o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘ladi. U mutaxassislik darajasi uncha yuqori bo‘lmagan ishlarni bajaradi, masalan, maxsus vazifaga tegishli fakti aniqlash, axborot yig‘ish, soliq to‘lovchilar haqida axborot yig‘ish va maxsus blankalarni to‘ldirish.

## 11. Shvetsariya soliq tizimi

**Shvetsariya** — konfederatsiya (markaziy shtat) va 3000 munitsipalitetlardan (tumanlardan) iborat bo‘lgan 26 ta kantonlardan (viloyatlardan) tuzilgan konfederativ davlatdir. Shvetsariya federalizmi prinsipiiga asosan mamlakatda uch pog‘onali soliqqa tortish joriy qilingan.

### Soliqlarning taqsimlanishi

Daromad va mulk solig‘i Konfederatsiya	Iste’mol va egalik qilishni soliqqa tortish
Daromad solig‘i Kapital va foyda solig‘i To‘lov manbayidan olinadigan soliq Tamg‘a yig‘imi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i Tamaki solig‘i Pivo solig‘i Bojxona boji
Kantonlar	
Daromad solig‘i Jon boshi solig‘i Kapital va foyda solig‘i Meros solig‘i Ko‘chmas mulk solig‘i	Transport vositalari solig‘i It egalaridan olinadigan soliq Tomoshadan olinadigan soliq Tamg‘a yig‘imi
Munitsipalitetlar	
Daromad solig‘i Jon boshi solig‘i Kapital va foyda solig‘i Meros solig‘i Ko‘chmas mulk solig‘i	Transport vositalari solig‘i It egalaridan olinadigan soliq Tomoshadan olinadigan soliq Tamg‘a yig‘imi

Soliq huquqini aniqlash konstitutsiya orqali boshqariladi. Uning qoidalari asosan, uchala organ ham bir-biroviga xalaqit bermasdan faoliyat yuritadi, soliq to‘lovchilar bo‘ynidagi yuk esa soliqqa tortishning iqtisodiy chegaralaridan o‘tmaydi. Konfederatsiyaning har tomonlama huquqi hisoblangan yig‘imlarni joriy qilishdan tashqari, kantonlarga ham har qanday soliq turlari bo‘yicha soliq solishga ruxsat berilgan. Ular o‘zlarining soliq qonunchiliginini yaratish huquqiga egalar. Munitsipalitetlarga esa o‘z soliqlarini yig‘ib olish huquqini kantonlarning konstitutsiyasi aniqlaydi.

### Konfederatsiyaning soliq daromadlari strukturasi quyidagicha edi:

- qo‘shilgan qiymat solig‘i — 29,1 %;
- to‘g‘ri soliqlar — 23,6 %;

- bojxona bojlari — 14,9 %;
- hisob-kitob solig'i — 10,1 %;
- tamg'a yig'imi — 4,5 %;
- boshqalar — 5,5 %;
- soliqlardan tashqari yig'imlar — 12,3 %.

Shvetsariyada QQS — umumiy foydalanish va iste'mol uchun soliq bo'lib, tovar importi taqsimoti va ishlab chiqarishning barcha bosqichlari da olinadi. Bu soliq bo'yicha uchta stavka mavjud: qat'iy — 6,5 %, mehmonxona sektoridagi xizmatlar uchun maxsus stavka — 3 % va oziq-ovqat, spirtsiz ichimliklar, qushlar, baliq, don, tibbiyot tovarlari, poligrafiya mahsulotlari uchun pasaytirilgan — 2 %. Bojxona bojlari import tovarlar kabi eksport operatsiyalaridan ham qat'iy stavkalar bo'yicha olinadi.

To'g'ri soliqlardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda yuridik shaxslardan olinadigan foyda va kapital solig'i muhim ahamiyatga ega. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini Shvetsariyada foydali faoliyatni amalga oshiradigan barcha shaxslar to'laydilar. Maksimal stavka 11,5 % ni tashkil qiladi. Foydadan olinadigan federal soliq esa progressiv soliq bo'lib, uch darajali shkala bo'yicha undiriladi. Manba solig'i 3,63 % stavka bo'yicha undiriladi. Maksimal stavka jami foydaning 9,8 % dan oshmasligi kerak. Kapital soliq proporsional soliq hisoblanadi. U olingan kapitaldan hamda balansda ko'rsatilgan va ko'rsatilmagan zaxiralardan olinadi. Soliq stavkasi soliqqa tortiladigan kapital summasining 0,08 % ga teng.

Daromaddan olinadigan soliq va sof aktivlar — davriy soliqlar, shuning uchun ular ma'lum bir aniq vaqtda yig'ilishi kerak. Kantonlarda federal baza stavkasi bo'yicha va kantonlar hamda munitsipalitetlarning qo'shimcha stavkalari bo'yicha hisoblangan soliq summasidan ham jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lanadi. Barcha kantonlar vaqtinchalik Shvetsariyada «manba»da ishlayotgan chet el fuqarolari daromadlaridan mulk o'sishidan olinadigan daromaddan soliq to'lashlari kerak. Jismoniy shaxslar lotoreya solig'ini to'laydilar. Shu bilan birga barcha kantonlar meros va hadya solig'i hamda transport vositalaridan olinadigan soliqni undiradilar.

## 12. Luksemburgda soliq tizimi

Luksemburgdan soliq tizimida budjetni daromad qismining foydadan olingan soliq tushumi tashkil etadi. **Foya solig'ini to'lovchilar:**

- ochiq va yopiq turdag'i aksionerlik jamiyatlar;
- mas'uliyati cheklangan jamiyat;
- kooperativlar;
- ayrim boshqa turdag'i huquqiy shaxslar;
- soliq to'lamaydiganlar;
- to'la jamiyat;
- kommandit jamiyat;

- foya olmagan tashkilotlar.

Korporatsiya solig'i va boshqa soliqlarni barcha tashkilot a'zolari to'laydilar. Xolding uyushmasiga alohida soliq turi qo'llaniladi.

Rezident uyushmalarning barcha daromadlari u qayerda olinganligiga qaramasdan soliqqa tortiladi. Nerezident uyushmalar esa faqatgina Luksemburgda olgan foydalari hisobidan foya solig'i to'laydilar. Rezidentlangan uyushmalarga quyidagilar kiradi. Ular Luksemburgda ro'yxatdano'tgan bo'lishligi yoki bo'limasa shtab kvartirasiga ega bo'lganlar kiradi. Rezident bo'limagan uyushmalar yuridik manzilga va shtab kvartiraga ega bo'limagan tashkilotlardir.

Soliqqa tortiladigan daromad miqdori ichki imkoniyatlar va qilingan hisobot orqali amalga oshiriladi. Olib boriladigan hisobot yagona bo'lmay, har bir firmalar uchun alohida olib boriladi, agar u yagona Yevropa uyushmasi talablariga zid bo'limasa.

Luksemburg qonunchiligidida foydadan olinadigan soliq uchun foydani taqsimlash va uni qayta taqsimlash jarayonlari yoki bo'limasa, korxonalarini tugatishdan oladigan foya farqlanmaydi. Soliqqa tortiladigan foya miqdoriga olinadigan mukofotlar summasi ham kiradi. Agar ular uyushmalarda mehnat shartnomasi asosida ish yuritayotgan bo'lsa, bundan mustasno.

Luksemburgda kapitalning ortishi yoki kamayishini foydaning ortishi yoki kamayishida muhim ko'rsatkich deb qaralmaydi. Demak, uning ortishi yoki kamayishida alohida soliqqa tortish ko'rsatkichlari amal qilmaydi. Dividendlar va foydani taqsimlashda hamda shunga o'xshash to'lovlarida bir rezident uyushmalarning shakllanishi bilan ikkinchisining yo'q bo'lib ketishlikdagi olingan foya soliqqa tortilmaydi. Agarda xarid qiluvchi uyushma to'lovchi uyushmalar aksiyasiga ega bo'lsa va bu umumiy ko'rsatkichni 10 % tashkil qilsa, yoki bo'limasa, xarid qilinadigan aksiyaning bahosi 50 mln Luksemburg frankiga ega bo'lsa. Bunday imtiyoz rezident uyushmaliga ham taalluqli, agar ular 10 % rezident bo'limagan uyushmalarning aksiyasiga ega bo'lsa.

Chet el aktivlari bo'yicha foydadan (daromaddan) to'lanadigan soliq (dividend, qarz, kredit va obligatsiya uchun to'lanadigan foiz)da soliq to'lovchi «global usuldan» foydalanishi mumkin. Buning ma'nosi shuki, soliq to'lovchi chet mamlakatda olgan daromadining umumiy summasini va bunga soliq to'lanmagan qismini ham hisobga olinadi. Bu usul faqatgina chet elda olinadigan omillari uchun qo'llaniladi.

Buning uchun soliq to'lovchi chet elda to'lanadigan soliq miqdorida soliq krediti oladi. Ammo olinadigan soliq krediti 25 % stavkasi to'langan soliq miqdoridan yuqori bo'lmaydi. Agar undan yuqori bo'lsa, xarajatga kiritiladi. Beriladigan soliq krediti Luksemburgda to'lanadigan daromad solig'ining 20 % dan oshmasligi kerak.

Aksiyalarni sotishdan kapital o'shining hosil bo'lishi soliqdan ozod qilinadi (rezident va nerezidentlar uchun). Bu imtiyoz shu paytda beriladiki, unda har bir uyushma 25 % aksiyaga ega bo'lib, uning qiymati 250

mln Luksemburg frankidan kam bo'lmaydi. Xarajatlarning tarkibiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi: kredit miqdoriga bog'liq bo'lmagan stavkalar, ish-chi va xizmatchilarning ish haqi, sug'urta to'lovi, majburiy sug'urta bazasini o'tkazish, pensiya jamg'armasiga to'lov, ijara to'lovi, soliqlar, chet davlatlarda to'langan soliqlar, agarda ularga soliq kreditlari berilmagan bo'lsa, Luksemburg munitsipal solig'i, ko'chmas mulk solig'i va h. k. yig'imlar.

Obligatsiya, veksel va uzoq muddatga mo'ljallangan har xil qo'shimchalardan olinadigan daromaddan avans solig'i to'lanmaydi. Avans soliq stavkalari dividend uchun 15 %, asosiy manbadan 17,65 % olinadi. Royalti solig'ini faqat nerezidentlar to'laydilar. Soliq boshqarmalari Luksemburgda nerezidentlar oladigan foydalarning barcha turlariga soliq solishi mumkin.

Korporatsiya ham munitsipalitetlarga daromad solig'i to'laydi. Mam-lakatda stavkalarning hammasi differensiallashtirilgan. Eng yuqori stavka 10 % ni tashkil etadi. Jismoniy shaxslar olgan daromadiga nisbatan soliqqa tortiladilar. Nerezidentlar uchun faqat Luksemburgda olgan daromad qismi soliqqa tortiladi. Soliq manbayini aniqlashda er va xotin daromadlari birgalikda hisoblanadi va soliqqa tortiladi.

Jismoniy rezidentlar o'z buyumlariga 0,5 % stavka asosida soliqqa tortiladilar. Ko'chmas mulk esa rasmiy qiymat asosida belgilanib, soliqqa tortiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i standart bo'lib, u 1 % ni tashkil etadi. Malakali xizmat ko'rsatish sohasida bu miqdor — 12 %, gaz va elektr energiya ta'minotida — 6 %, iste'mol mahsulotlari, gazeta va jurnallar, mehmonxona nomerlari va passajirlarga xizmat ko'rsatish sohalari — 3 % li stavkalarda soliqqa tortiladi. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydigan tashkilotlar: bank xizmatlari, sug'urta va moliyaviy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa turdag'i tijoratsiz faoliyatlar.

### 13. Buyuk Britaniya soliq tizimi

Soliqqa tortish ilmiy nazariyasi ilk bor G'arbda — Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan. Bu 17-asrda jamiyatda soliqlarning o'rni va ahamiyati to'g'risidagi bahslardan boshlangan. Soliq nazariyasiga eng katta hissa qo'shgan inson — Adam Smit. U aytgan edi — «**Soliq to'lovchi uchun bu quldorlik emas, ammo ozodlik**».

1990-yildan boshlab Buyuk Britaniyada «jonli» soliq kiritildi, bungda 18 yoshga yetgan aholi kiradi. Bu soliq miqdori mahaliy hokimiyat xarajatlariga bog'liq. Ammo bu tajriba natijasi yaxshi chiqmadi va 1993-yilda yangi munitsipal soliqlari joriy qilindi. U mulkning bozor qiymatiga va balog'atga yetgan oila a'zolarining soniga qarab hisoblanadi. Bir qator oilalar kategoriyasiga sezilarli imtiyozlar beriladi.

Mulk sakkizta baholash kategoriyalardan birida aniqlanadi va differensial stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Federal soliqlar budgetlarning xarajat

qismining asosiy manbayi hisoblanadi. Mahalliy budgetlarda federal soliqlar chegirmasi 70—90 % ni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada soliq tizimi 19-asrdayoq shakllangan edi. Biroq u ham tanaffuslarni boshidan kechirdi. Soliq islohotlari 1965 hamda 1973-yillarda amalga oshirilgan bo'lib, 90-yillarda soliqqa tortishda jiddiy o'zgarishlar qilindi. Buyuk Britaniya soliq tizimi ikki pog'onali bo'lib, ular umum davlat va mahalliy soliqlarni tashkil etadi. Umum davlat soliqlarining asosini jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqlar, kapital o'sishidan olinadigan soliqlar, neftdan olinadigan daromad soliqlari, mero slardan olinadigan soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, boj, aksiz solig'i, tamg'a yig'implari tashkil etadi. Ular soliqlar orqali undiriladigan tushumlarning 90 % ni tashkil etadi. Mahalliy soliqlar hissasiga asosan mol-mulk solig'i to'g'ri kelib, ushbu soliq turi umumiyl undiriladigan soliqlar miqdorining 10 % ni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada aholidan undiriladigan daromad solig'i davlat budgetining 3/2 qismini to'g'ri soliqlar ko'rinishida tashkil etadi. Yuqori soliq turi 1799-yilda Napoleonga qarshi olib borilgan urushni moliyalashtirish maqsadida vaqtinchalik joriy etilgan bo'lib, 1842-yildan boshlab ingliz soliq amaliyotida uzil-kesil tasdiqlandi.

Buyuk Britaniyada daromad solig'i qismlarga bo'lib to'lash shaklida qabul qilingan, qaysiki daromad solig'i manbalariga qarab olti qismga bo'linadi, har bir qism alohida tartibda undiriladi (dividendlar, renta, ish haqi va boshqalar). Daromadlardan undiriladigan soliqlarni taqsimlashdan asosiy maqsad daromadlar manbayini aniq hisobga olishni tashkil etadi. **Olti qismli daromad quyidagi tartibda belgilanadi:**

A — qism. Bu — mulkdan olinadigan daromad, ayniqsa, yer, qurilish va inshootlar, kvartira to'lovlar, yashash joylarini ijaraga olish kabilarni o'z ichiga oladi.

B — qism. O'rmon xo'jaligidan tijorat maqsadlarida foydalanishdan olinadigan daromadlar.

D — qism. Davlat qimmatbaho qog'ozlaridan olinadigan daromadlar.

E — qism. Ishlab chiqarish tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar. **Ushbu qism tarkibiga daromadlarning bir qancha turlari kiradi va ulardan olinadigan soliq ham olti qismga bo'linadi:**

- savdo va tijoratdan olinadigan daromad solig'i (misol uchun do'kon xo'jayinining foydasidan olinadigan soliq);

- o'z kasbiy xizmatini ko'rsatishda olinadigan daromaddan olinadigan soliq (misol uchun advokat yoki vrachning daromadlari);

- olinadigan foizlar yoki aliment to'lovlarining qabul qilinishini soliqqa tortish;

- xorijiy davlatlarda mavjud bo'lgan qimmatbaho qog'ozlardan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish;

- xorijiy davlatlarda mavjud bo'lgan mulkdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish;

• yuqorida ko'zda tutilmagan daromadlarning boshqa turlaridan olinadigan soliq.

F — qism. Ish haqi, nafaqa va boshqa mehnat daromadlaridan olinadigan soliqlar.

G — qism. Buyuk Britaniya kompaniyalaridan olinadigan dividendlar va boshqa to'lovlardan undiriladigan soliqlar.

Daromad solig'i yalpi yillik olinadigan daromaddan qonun bilan belgilangan imtiyoz va chegirmalarni olib tashlagandan so'ng undiriladi. Shu sababli ular ishlab topilgan va investitsion (ishlab topilmagan) turlarga bo'linadi.

Daromad solig'ining undirilishi ish haqi ko'rinishida bo'lsa, oylik mosh bunga manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli soliq deklaratsiyasi to'ldiriladi.

#### 14. Irlandiya soliq tizimi

Odamlar Irlandiya to'g'risida o'ylaganlarida, birinchi navbatda, elflar, to'q «Ginnes» bilan to'ldirilgan katta krujkalar ko'z oldilariga keladi. Faqat imtiyozli soliqqa tortish tizimi emas. Shunga qaramay, Irlandiya Yevropa davlatlari orasida eng imtiyozli soliqqa tortish tizimiga ega. Soliq nazoratchilardan bekinishni xohlagan kishilarga Irlandiya fuqaroligini qabul qilish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Ko'p hollarda bu jarayon ushbu davlat hududida muqim yashashga intilishni tasdiqlaydi. Lekin Irlandiya sizni muqobil offshor zonangiz bo'lishi sizning holatingizga bog'liq.

Agar siz ijod egasi bo'lsangiz unda bu holat siz uchun juda qulay. Ko'p yillar mobaynida ijod egalari uchun Irlandiya soliq jannati bo'lib hisoblangan, chunki ular o'z ijodlaridan olgan daromadlaridan soliq to'lamaydilar.

Agarda siz ko'chmas mulk sohasidagi soliqdan bojxona izlayotgan bo'lsangiz, unda oxirgi 20 yil mobaynida Irlandiya hukumati qator soliq sxfemalarini qabul qildi. Bu loyihalar o'sha davrda turib qolgan iqtisodiy sektorlarni jonlantirish maqsadida qabul qilingan. Amerikalik ishbilarmon sarmoyadorlar ayrim tijorat loyihalari bilan tanishga o'xshaydilar: masalan, Dublin bojxona terminidagi xalqaro moliyaviy xizmatlar markazi loyihalari. Lekin boshqa loyihalar oddiy yashash joyi sektoriga aynan yo'naltirilgan.

Yevropa davlatlarining soliq tizimlari bir-biridan tubdan farq qiladi. O'tgan asrning 80-yillariga kelib soliq islohotlari o'tkazilib, ularni bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qilindi. Misol uchun Italiya umumiyl bozorga kirish uchun o'zining soliq tizimini keskin o'zgartirdi, ya'ni boshqa Yevropa davlatlari soliq tizimiga yaqinlashtirdi. Iqtisodiy birlashish an'anasi va xalqaro xo'jalik aloqalarining kengayishi ularning ikkiyoqlama soliq solish siyosatidan voz kechishlariga olib keldi. Yevropa davlatlarining iqtisodiyoti va aholisining yashash tarzidan kelib chiqib, umumiy xususiyatlari o'rganildi. Ularda o'ziga xos turdagilari soliqlardan to'g'ri va egri soliqlar,

ya'ni bevosita yoki bilvosita soliqlar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i hamda fuqarolardan undiriladigan daromad soliqlari mavjud.

Amaliyatda barcha davlatlarda soliqlar uch darajali ko'rinishga ega bo'lib, ular umum davlat soliqlari, federal soliqlar, shuningdek, hududiy soliqlar ga bo'linadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, har bir davlatning soliq tizimi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

#### 15. Shvedsiya soliq tizimi

Shvedsiyada barcha kompaniyalar Patent va Ro'yxatdan o'tish bo'limida yuridik shaxs maqomini olish uchun ro'yxatdan o'tishlari shart. Odatta, kamida 50 % boshqaruvchi direktorlar va bosh direktorlar Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa davlatlari rezidentlari bo'lislari shart. Shunga qaramay direktorlar kengashining ko'pchiligi Shvedsiya rezidenti bo'limagan shaxslarga va Patent bo'limlari tomonidan qoidaga mustasno tarzda berilishi mumkin.

Eng ko'p uchraydigan tashkiliy huquq shakli — bu faoliyati cheklangan kompaniyalardir. Ularning ikki turi mavjud: ochiq faoliyati cheklangan kompaniyalar va xususiy faoliyati cheklangan kompaniyalar.

Daromaddan olinadigan milliy soliq rezidentlardan barcha foydadan, rezident bo'limaganlardan esa Shvedsiya manbalaridan olingan foydadan chegiriladi. Kompaniya soliq rezidenti hisoblanadi, agar u Shvedsiyada tashkil topib (ro'yxatdan o'tib) yoki Shvedsiya hududida doimiy vakolatxonasiga ega bo'lsa.

Soliq stavkasi korporatsiya foydasidan 28 % miqdorida belgilangan. Kompaniyaning taqsimlangan va taqsimlanmagan foydasini soliqqa tortishda farq yo'q. Shuningdek, korporatsiyalar uchun boshqa hech qanday mahalliy soliqlar mavjud emas. Foya umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi prinsiplariga binoan soliqqa tortish maqsadida ozgina tartibga solish bilan aniqlanadi.

Amortizatsiya ajratmalari summasi vositalar, patentlar, savdo markalari, firma imidlari uchun yiliga 20 % stavkali to'g'ri chiziq usuli bilan yoki balans qiymatini kamaytirish usuli bilan 30 % stavkada hisobdan chiqariladi.

Shvedsiya kompaniyalaridan olingan dividendlar soliqqa tortilishdan ozodlar. Shuningdek, chet eldag'i filiallardan olingan dividendlar ham (minimal aksiya paketi 25 % dan kam bo'limasa), agar filial 15 % dan kam bo'limagan stavka bo'yicha soliqqa tortilsa, soliqqa tortishdan ozod etilishi mumkin.

Ish beruvchi o'z ishchilari (shvedsiya rezidentlari) uchun ijtimoiy fondlarga yalpi ish haqidan qo'shimcha to'lovlar va imtiyozlar qiymatini qo'shgan holda 33 % miqdorida to'lovlar to'lashga majbur. Shvedsiyada ishlayotgan Yevropa ittifoqi fuqarolari Yevropa ittifoqi qonunchilik aktlari bilan boshqariladi. Kamaytirilgan to'lovlar stavkasi yoshi 65 yoshdan oshgan fuqarolar

uchun mehnat va tadbirkorlikda olingen daromadidan 21,39 % miqdorida belgilangan. Shvedsiyaning ba'zi bir shimoliy qishloq rayonlarida amalda-gi stavka 5—10 % gacha kamaytirilishi mumkin.

Chet elda to'langan daromad solig'i kapitaliga qonunchilikda soliq krediti o'rnatilgan. Chet el dividendiga nisbatan soliq krediti faqat manbadan olingen soliq summasiga beriladi, chet el korporativ solig'i summasiga emas.

Soliq deklaratsiyasi har yili taqdim etiladi. Soliqlar moliyaviy yil davomida hisoblaniladi. Soliq xabarnomasi moliyaviy yil yakunida beriladi va soliqdan bo'lgan barcha qarzlar eng kechi bilan aprelda to'lanishi kerak. Sug'urta to'lovlarini ijtimoiy fondlar organlaridan ro'yxatdan o'tgan chet el kompaniyalari yiliga bir marta to'lashlari mumkin (bir to'lov bilan). Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i har xil qatlampagi budget daromadida salmoqli o'rinn tutadi. Jismoniy shaxslar soliqqa tortish uchun Shvedsiya rezidenti hisoblanadilar, agar ular shu davlatda yiliga 183 kundan ziyyod bo'lsalar.

Shvedsiya rezidentlari shu yerda va undan tashqarida olgan daromadlaridan, norezidentlar esa faqat Shvedsiya hududida olgan daromadlaridan mahalliy va munitsipal daromad solig'ini to'lashlari shart.

Shvedsiya norezidentlari shu yer manbalaridan olingen daromadlari dan, shuningdek, ko'chmas mulk operatsiyasidan olingen daromaddan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlardan, pensiya va boshqa ko'rinishdagi kapital daromaddan daromad solig'i to'laydilar.

Jami daromadga qo'shiladigan oylik maosh barcha to'lovlar, nafaqa va natural ish haqidan iborat (bozor qiymatida baholanadigan). Chet el to'g'ri soliqlari, chet elda to'langan har xil soliq turlari bo'yicha Shvedsiya milliy va munitsipal daromad solig'i summasi chegarasida soliq krediti olinishi mumkin. Soliq krediti soliq bitimlariga binoan chet elda to'langan soliqlar miqdorida munitsipal daromad solig'i hisobidan kafolatlanadi. Er-xotinlar alohida-alohida soliqqa tortiladi.

209100 shved kroni miqdorida oshmagan daromad munitsipal soliq stavkasi bo'yicha taxminan 32 ta soliqqa tortiladi. Shu summadan oshgan daromad 25 % stavkada soliqqa tortiladi. Shunday qilib daromad solig'inining maksimal stavkasi (milliy va munitsipal) — 57 %.

Kapitaldan olingen daromad alohida — 30 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Shvedsiya hududida faoliyat vaqtiga to'liq 6 oydan kam bo'lsa, cheklangan soliq javobgarligiga ega bo'ladi. Ish beruvchi tomonidan Shvedsiyada ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlardan 25 % stavka bo'yicha soliq ushlab qolinishi shart. Yollanib ishlayotgan norezidentlar soliq organlariga daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etishga majbur emaslar. Ijtimoiy fondlarga soliqning asosiy qismini ish beruvchi to'laydi, ammo yoshi 65 yoshgacha bo'lgan ishchilar 3,95 % individual tibbiyot sug'urtasini va 1 % nafaqa ta'minoti to'lovlarini to'lashlari shart.

Kapital o'sishi realizatsiya narxi va xarid narxi o'rtasidagi farq kabi hisoblanadi va 30 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Odatda, ko'rilgan zararni 70 % chegiriladi. Norezidentlar Shvedsiyada joylashgan ko'chmas mulkdan olingen daromaddan soliq to'laydilar. Agar Shvedsiya rezidenti rezidentlikdan chiqsa, unda Shvedsiya aksiyalaridan olingen foydadan jo'nab ketish kunidan boshlab 10 yil mobaynida ayrim hollarda kamaytirilgan stavka bo'yicha soliqqa tortilishi mumkin. Sarmoyadan olingen daromad (foiz va dividendlar) odatda yagona 30 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Hech qanday imtiyozlar mavjud emas.

Barcha fuqarolar yollanib ishlashdan olgan daromadiga, amaliyotda soddallashtirilgan deklaratsiya formalari qo'llanilishiga qaramasdan, deklaratsiya tuzishlari shart. Fuqarolarning ko'p qismi uchun deklaratsiya topshirish muddati avgust oyi qilib belgilangan. To'lanishi kerak bo'lgan summa uchun soliq xabarnomasi, soliq organlari tomonidan sentabrda jo'natiladi. To'lanmagan soliq summasi keyingi yil birinchi oy maoshlaridan ish beruvchi tomonidan undiriladi. Individual tadbirkorlar qoldiq soliq summasini aprelgacha mustaqil ravishda to'laydilar. Ortiqcha to'langan soliq summasining qoplanishini tartibga solish maqsadida, soliq xabarnomasi yana besh yil saqlanadi.

Shvedsiyaning qo'shilgan qiymat solig'ini soliqqa tortish tizimi Yevropa hamjamiyati ichida soliqqa tortish tizimiga mos. QQS ga tortiladigan 1 mln shved kronidan ortiq oboroti bo'lgan korxonalar mahalliy soliq organlaridan QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishlari shart. Agar oboroti 1 mln shved kronidan kam bo'lsa, ro'yxatdan o'tishlari shart emas. Oddiy QQS stavkasi — 25 %. Kamaytirilgan stavka oziq-ovqatlar va turizm xizmatlari uchun 12 %. Gazeta nashrlari uchun past stavka — 6 %. QQS hisoboti uning to'lovini tasdiqlovchi hujatlar bilan birgalikda har oyda taqdim etiladi.

Turmush o'rtog'i tomonidan meros qilib olingen mulk 280000 shved kronigacha bo'lgan va har bir bolalari uchun 70000 shved kroni (qo'shimcha 1000 shved kroni 18 yoshgacha bo'lganlar uchun) miqdorida mulk soliqdan ozod etiladi. Shunga o'xshash qoidalar sovg'alarga nisbatan ham qo'llaniladi. Bahosi 10000 shved kronidan oshmagan sovg'alar soliqqa tortilmaydi. Rezidentlar 800000 shved kronidan yuqori bo'lgan, Shvedsiyada joylashgan va undan tashqaridagi mulklarning sof qiymatidan 1,5 % stavkada soliq to'lashlari shart. Aylanma kapitalni tashkil etadigan mulk soliqqa tortilmaydi. Har xil fondlar va xayriya tashkilotlari 25000 shved kronidan oshgan sof mulk qiymatidan har bir mulk uchun 0,15 % stavkada soliq to'laydilar.

Norezidentlari shu soliqni faqat Shvedsiyada joylashgan mulk uchun to'laydilar. Aksiyalar foydasini hisoblashda eng past bozor bahosi bilan baholanadi. Baholashning alternativ usuli — xarid narxining 97 % ni tashkil etib, u barcha aksionerlar portfelini baholashda qo'llaniladi. Soliqqa tortish bazasi — biznesni yuritish, kredit foizlari, filialni investitsiyalash yoki

yangi jihozlar sotib olishni qo'shgan holdagi xarajatlariga kamayadi. Soliqqa tortish maqsadida amortizatsiya ajratmalarini me'yori, odatda, buxgalteriya amortizatsiya me'yorlariga to'g'ri keladi.

Foydalanish muddati 3 yildan kam bo'lgan yoki bahosi 2000 shved kro-nidan kam bo'lgan vositalar xarid qilingan yil hisobidan chiqarilishi mum-kin. Lekin amortizatsiya ajratmalarini hisobdan chiqarishning me'yoriy che-garasi belgilangan, yillik oboroti 200 million shved kroni bo'lgan kompaniyalar uchun yoki yollanma ishchilar miqdorining yillik o'rtacha ro'yxati 200 kishi bo'lgan kompaniyalar uchun 10000 shved kronidan oshmasligi kerak.

Binolar tebranuvchi stavka — 2 % dan 5 % gacha xarid narxidan amortizatsiyalanadi (ularning sifatini yaxshilashga qilingan xarajatlarni qo'shmagan holda). Amortizatsiya stavkalari, asosan, binoning qanday maqsadda foydalilishiga bog'liq. Yer amortizatsiya qilinmaydi, ammo yerning rekultivatsiya xarajatlari yiliga 5 % stavka bo'yicha amortizatsiya qilinishi mumkin. Material va nomaterial asosiy vositalar hamda boshqa aktivlar realizatsiyasidan olingen foyda korxonaning jami soliqqa tortish daromadiga qo'shiladi va u o'z-o'zidan 28 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Kapital aktivlarning realizatsiyasidan olingen zarar hech qanday vaqt chegaralanmasdan jami foya hisobidan undiriladi. Lekin investitsiya ak-siya portfeli va shunga o'xshash moliyaviy instrumentlar realizatsiyasidan olingen zarar shunga o'xshash mulkdan olingen foya hisobiga olinishi mumkin.

Amaldagi stavka dividendlarining ikki marotaba soliqqa tortilishining oldini olish uchun xalqaro bitimlar bilan tartibga solinadi. Foydalilman-gan soliq krediti 3 yil muddatgacha o'tkazilishi mumkin. Chet el vakolat-xonasidan olingen daromad Shvedsiya bo'limi soliqqa tortish bazasiga qo'shilishi shart, agar soliq bitimiga o'zgartirishlar kiritilmagan bo'lsa.

Olingen daromad chet el mamlakatida soliqqa tortilishidan qat'i nazar, Shvedsiya rezidentiga soliq krediti Shvedsiya soliqlari summasi miqdorida taqdim etilishi mumkin, agar quyidagi shartlar bajarilsa: agar u bir yil davomida bir mamlakatida va bir korxonada ishlasa, olingen daromadga chet el mamlakatda barcha chegirma va imtijozlari shu mamlakat rezidentlariga umum qabul qilingan qonunchilik qoidalari qo'llanilsa, lekin xalqaro soliq bitimlarida reglamentlanmagan bo'lsa, ish beruvchi Shvedsiya hukumati hisoblanadi.

Asosan soliqqa tortish bazasidan chegirmalar shu daromadni olishda qilingan xarajatlarning ayrimlarini o'z ichiga oladi. Shvedsiya sug'ur-tachilariga nafaqa sug'urtalari uchun to'lanadigan mukofotlar, shuningdek, soliqqa tortish bazasining kamayish (belgilangan me'yorlar chegarasida) vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Fuqarolar ish haqidan 1000 shved kroni va ish joyiga yetib olish xarajatlari uchun 6000 shved kroni miqdorida chegirishga haqlidirlar. Personal chegirmalar daromaddan kelib chiqqan holda tebranuvchi 8600 dan to 18000 shved kronigacha bo'lgan munitsipal soliq to'langandan so'ng taqdim etiladi.

Meros bo'lib o'tgan mulk, olingen mulk bahosi miqdoriga, qarindoshlik darajasiga qarab progressiv stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Soliqni mulkni oluvchi to'laydi. Agar mulk oluvchining tur mush o'rtog'i yoki bo-lasi bo'lsa, soliq stavkalari 10 % dan (meros 300000 shved kroni yoki un-dan kam baholansa) 30 % (600000 shved kroni) gacha tebranadi. Boshqa holatlarda stavkalar 10 % dan 30 % gacha differensiallangan.

## 16. Federativ va konfederativ davlatlar soliq tizimi xususiyatlari

**Federatsiya** — bir qator davlatlar birikishi shakli bo'lib, bunda aniq huquqiy davlat mustaqilligini saqlagan holda birikuvchi a'zo davlatlar yangi yagona davlat tuzumini vujudga keltiradilar. Federatsiya shakli yagona: ittifoq fuqarolikni, armiyani, ittifoqdosh davlat organlarini ko'zda tutadi. O'z navbatida, konfederatsiya — mustaqil yashash huquqiga ega bo'lgan holda, alohida davlatlar ittifoqi bo'lib, ular bitta yoki bir nechta yagona boshqaruv organlari bilan birlashganlar. Jahon amaliyotida federativ davlatlar misoliga AQSH, GFR, Kanada, Rossiya, konfederativ davlatga — Shvetsariya kiradi.

Soliq federalizmi ahvolini tahlil qilishdan oldin, zamonaviy federalizmning hokimiyat tizimi sifatidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash lozim. Zamonaviy federalizmni raqobatlil federalizm sifatida baholash qabul qilingan. Uning asosini «subsidiarnost tamoyili» tashkil qiladi. Bu tamoyilning ma'nosi shuki, uncha katta bo'Imagan jamoalarning aniq vazifalari hokimiyatning imkon qadar past pog'onalarida hal qilinishi lozim. Faqat shunday munosabatgina yuqori darajadagi mustaqillikni ta'minlay oladi va shuning bilan birga boshqaruvning haqiqiy demokratizatsiyasiga erishiladi. O'z navbatida, hokimiyatning «anonimlashuvi» kuchayganda, markazlash-tirishga tomon yo'nalgan har qanday harakat, aholining fuqarolik va ovoz berish huquqlarini chegaralashga olib keladi.

«Subsidiarnost» tushunchasi bir qator tamoyillarda namoyon bo'ladi. **Bulardan birinchisi** — «kelib chiqish» tamoyilidir. U tovarlar va xizmat-larning erkin savdosiga tegishli bo'lib, mamlakatning o'zga tumanlarida litsenziya olgan ta'minlovchilarining mahalliy hokimiyat tomonidan tek-shirilishi mumkin emasligini bildiradi. Shunda mahalliy hokimiyatlarda «begona» tadbirdorlarni jalb qilish yo'li bilan soliqqa tortish manbayini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. **Keyingi tamoyil** — «yagonalik», ya'ni hokimiyatning ushbu pog'onasida uyushgan harakatlar uchun eks-kluziv, aniq, muayyan javobgarlikning yuklatilishi. Raqobatdosh federalizmning samarali ish yuritishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uchinchi tamoyil — «xazina ekvivalentligi» hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, har bir ma'muriy hudud, unga topshirilgan yoki o'zi bo'yniga olgan hokimlik vazifalarini, o'zi javobgar bo'lgan soliqlar, yig'imalar, o'zlashtirgan mablag'lar hisobidan ta'minlashi lozim. Davlat xarajatlari soliq yig'ish zarurligi yoki qarz olish tufayli tartibga solinadi. O'zaro kelishuvlarning natijasizligi,

parazitizm va ko'plab siyosiy kelishmovchiliklardan saqlanish uchun, hukumat tashkilotlari orasidagi transferlarni tugatish lozim. Va faqat xazina ekvivalentligi bilan birga markazlashmagan xazina (barcha davlat xizmatlarining pulliligi) mahalliy hukumat organlari uchun daromad manbalarini kengaytirish uchun turtki bo'ladi. Shu bilan birga bu tamoyil hukumatning barcha pog'onalari o'zlarining soliq tizimlarini yaratish va rivojlantirish huquqiga ega bo'lishlarini bildiradi. Yuqorida aytib o'tilgan raqobatdosh federalizm xususiyatlarni birligida belgilaydigan barcha tamoyillar bir-birovini kuchaytirish an'anasisiga ega. Ularning bittasi buzilgan taqdirda ham hududlar orasidagi raqobat zavol topadi. Masalan, markazning barcha soliq stavkalarini belgilash mahalliy hukumatlarning mustaqilligi va javobgarligiga jiddiy zarar yetkazadi va hokazo. Shunday qilib, haqiqiy raqobatdosh federalizmni o'zaro bog'langan bir butun deb tushunish kerak. Federativ davlat tuzumida soliq tizimi aytib o'tilgan tamoyillardan kelib chiqqan holda tuzilishi kerak. Shu sababli u unitar davlat soliq tizimidan tubdan farq qiladi.

Unitar davlatlarda siyosiy erkinlik yagona markazga qaratilgan. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish korporatsiyalari esa davlat suvereniteti statusiga ega emaslar. Federativ davlatda kamida ikkita haqiqiy davlat suverenitetiga ega bo'lgan pog'ona mavjud — markaziy va regional. Ammo davlatning bir butunligini saqlash uchun ikki tarmoqli tizimli yagona soliq qonunchiligini ta'minlash zarur. Ushbu holatlarni ko'rib chiqish uchun birlashgan federativ davlatlarning aniq soliq tizimi bilan tanishish lozim.

#### *Nazorat savollari:*

1. Fransiya budgetidagi soliq tushumining strukturasи.
2. Korporatsiya foydasidan olinadigan soliq stavkalarining o'zgarish tendensiyalari.
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining asosiy xususiyatlari.
4. Mahalliy soliq strukturasing o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Huquqiy va jismoniy shaxs mulklaridan olinadigan soliq deganda nimani tushunasiz?
6. Soliqqa tortish daromadlarining turlari qanday?
7. Korporatsiyalarning soliqqa tortish xususiyatlari qanday?
8. Fuqarolarni soliqqa tortishda qanday imtiyozlar bor?
9. Qo'shimcha qiymat solig'ini qo'llashda qanday xususiyatlar bor?
10. Mahalliy soliqlarni tafsifini bering.
11. Benilyuksa soliq tizimiga umumiy xarakteristika bering.
12. Rezident va norezidentlarni soliqqa tortishdagi asosiy ko'rsatkichlar.
13. Bilvosita soliqning strukturaviy tahvilini bering.
14. Mahalliy soliqning roli.
15. Qanday soliq imtiyozlari mavjud?
16. Soliq tizimida korporatsiya solig'i.
17. Hamkorlik tashkilotlaridan olinadigan daromad solig'i.

7-bob.

## OSIYO DAVLATLARINING SOLIQ TIZIMI

### 1. Yaponiyada soliq tizimi

Yaponiyada budget daromad qismining 64 % dan ko'prog'ini davlat soliq tizimi orqali amalga oshiriladigan soliqlar tushumi tashkil etadi. Uning qolgan qismi mahalliy soliqlardan tashkil topadi. Ko'pgina soliq tushumi davlat budgeti orqali taqsimlanib va qayta taqsimlanib, mahalliy tashkilotlar budgetiga qisman o'tkazish yo'li bilan to'ldirib boriladi. Mamlakatda 47 ta prefaktur bo'lib, ular 3045 ta shahar va qishloq tumanlardan tashkil topgan, har biri alohida mustaqil budgetiga ega.

Soliq tushumining uchdan ikki qismi mahalliy ehtiyojlarni qondirishga sarflanib, qolgan qismi davlat miqyosidagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Yaponiyada budgetning daromad qismi faqatgina soliqlardan tashkil topgan bo'lmay, boshqa davlatlar budgeti singari boshqa daromad manbalarini o'z ichiga oladi. Demak, davlat budgetini 100 % deb olsak, uning 85 % ni soliq tushumlari tashkil etib, qolgan 15 % soliqqa oid bo'lмаган daromadlardan tashkil topgan. Mahalliy tashkilotlar daromad qismining to'rtadan bir qismini tashkil etadi. Bular asosan: ariza to'lovi, yer sotilgandagi to'lov va boshqa ko'chmas mulklar sotishdan olingan daromad, jarima, qimmatli qog'ozlar, lotoreyalarni sotishdan olingan daromad, zayomlar.

Yaponiyadagi soliq tizimi o'zining ko'p qirrali soliq yo'nalishlari bilan xarakterlanadi. Undan barcha territorial tashkilotlar foydalanishi mumkin. Barcha soliq tushumi daylat tomonidan hisobga olinib, qonun yo'nalishi bo'yicha hujjalarni asosida qayd qilganligi bilan ajralib turadi. Har bir davlat soliq tizimi qonun asosida boshqariladi.

Mamlakatda 25 taga yaqin davlat va 30 ga yaqin mahalliy soliq tizimlari faoliyat ko'rsatadi.

#### Ularni faoliyat ko'rsatishi bo'yicha uch guruhga bo'lish mumkin:

- huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- iste'mol solig'i.

Budgetni tashkil qilishning asosini to'g'ridan to'g'ri olinadigan soliqlar tashkil etib, unga bo'lgan e'tibor yildan yilga oshib bormoqda.

Davlat budgetiga yuqori daromad keltiradigan ko'rsatkichni huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etadi. Bu miqdor barcha davlat budgetiga kelib tushadigan soliq tushumining 56 % idan yuqorisini tashkil etadi. To'g'ridan to'g'ri budgetga kelib tushadigan soliqlar miqdori ko'p bo'lishiga qaramasdan ayrim imtiyozli tomonlari ham mavjud. Daromad solig'ini undirishda soliq to'lovchining oilaviy ahvoli hisobga

olinadi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchining davolash uchun sarf qilgan daromad qismi soliqdan ozod etiladi. Mamlakatdagi ko'p bolali oilalar ham soliq sohasida ayrim imtiyozlarga egadirlar. Ayrim kam ta'minlangan oilalar uchun daromad solig'ining 30 % iga kamaytirilgan stavkalar bo'yicha soliq undiriladi.

Mol-mulkka solinadigan soliq, Rossiyadagidan farqli o'laroq, bir xil stavka ko'rsatkichi asosida amalga oshiriladi, mamlakatda mol-mulkni qayta baholash har uch yilda bir marta o'tkaziladi va bu mol-mulk qiymatining taxminan 1,4 % ni tashkil etadi. Soliq tushumi hajmiga quyidagilar kiradi: barcha ko'chmas mulk, yer, qimmatli qog'ozlar va bank depozitlari foizi. Bundan tashqari mulklarni sotish va sotib olish jarayonlarida ham soliq to'lanadi. Soliq turlarining guruhlanishi quyidagilarda ham o'z ifodasini topadi: litsenziyalarni ro'yxatdan o'tkazishdagi soliq, merosdan undiriladigan soliq, irrigatsiya ishlari uchun soliq, yer unumdorligini oshirish uchun qilingan sarf-xarajatlardan undiriladigan soliq va h. k.

Mamlakatda xizmat ko'rsatish yo'naliishi bo'yicha soliqqa tortish tadbirdi amal qiladi. **Misol:** restoranlarda ovqatlanish uchun sarflangan xaratjatlar soliqqa tortilmaydi, agar u 7,5 ming iyendant oshmagan bo'lsa, aksincha esa har bir 1 ming iyenga 3 % soliq solinadi.

Yaponiya soliq siyosatida ko'zda tutilgan asosiy tadbirdi mahalliy organlar moliyasini mustahkamlashga qaratilganligidir. Hozirgi vaqtida xususiy soliq tushumi har xil soliqlar yig'indisidan tashkil topsa ham mahalliy budget qismining 40 % ni tashkil qiladi.

Bu shuni ko'rsatadiki, mahalliy soliqlar, mahalliy budgetdan ustunlik qilmaydi. Shu bilan Yaponiya soliq tizimi Shimoliy Amerika soliq tizimidan farq qiladi, chunki bu yerda mahalliy soliqlar mahalliy budgetdan bir necha barobar yuqoridir.

Shunday qilib, mahalliy soliq strukturasi shunday qiziq tuzilganki, unda yarmidan ko'pini daromad solig'i, ikkinchi o'rinda mulkiy soliq, uchinchi o'rinda iste'mol solig'i tashkil etadi.

Umum davlat solig'idagi nisbat birmuncha boshqachadir, bunda 1993-yilda daromad solig'i 56,5 %, mulkiy — 25 % va iste'mol — 18,5 % ni tashkil etadi. Bunda shuni alohida ta'kidlash kerakki, mulkiy soliq tushumi to'g'ridan to'g'ri mahalliy budgetga o'tadi.

Yaponiyada soliqlarning har xil guruhlarga taqsimlanishini quyidagi cha ifodalash mumkin. Ya'ni davlat budgeti daromad qismining uchdan ikki qismini davlat soliqlari to'ldiradi, uning uchdan bir qismi mahalliy soliqlarga to'g'ri keladi.

Yaponiyada 64 % soliq tizimi davlat soliq hisobidan, qolgan qismi mahalliy soliq hisobidan tushadi. Soliq vositalarining ko'p qismi davlat budgetidan davlat solig'ining mahalliy budgetiga o'tkazish yo'li bilan qayta taqsimlanadi. Mamlakatda 3045 shahar, rayon, qishoqlarni birlashtiruvchi 47 prefektura mayjud. Ularning har biri o'zlarining mustaqil budgetlariga egalar. Soliqni taqsimlash ularni yig'ishning ko'zgudagi aksiga qiyoslana-

di. Taxminan, moliyaviy resurslarning uchdan ikki qismi mahalliy ehtiyojlar uchun sarflanadi. Qolgan qismi davlat funksiyasini bajarishga ketadi. Mamlakat budgetining va prefektura budgetining daromad qismi faqat soliqdan tashkil topmagan. Yaponiyada boshqa davlatlarga nisbatan soliqdan tashqari tushumlarning ulushi katta. Shunday qilib davlat budgetining 85 % ni soliqlar va 155 % ni soliqdan tashqari tushumlar tashkil qiladi. Budget asosini to'g'ri soliqlar tashkil etadi, ularga e'tibor katta.

Davlatga katta daromadni jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i keltiradi. U barcha soliq tushumlarining 56 % dan oshadi. Korxona va tashkilotlar foydasidan to'lanadi: davlat daromad solig'i 33,48 % miqdorida, prefektura daromad solig'i 5 % davlatnikidan, u 1,67 % stavka foydadan va shahar daromad solig'i — 12,3 % davlatdan yoki 4,12 % foydadan.

Jismoniy shaxslar davlat daromad solig'ini progressiv shkalada 5 stavka bo'yicha to'laydilar: 10, 20, 30, 40 va 50 %.

Bundan tashqari, amalda daromaddan uch stavka bo'yicha prefektura solig'i ham bor: 6, 10 va 15 %, shuningdek, mahalliy daromad soliqlari ham mayjud. Buning ustiga daromad miqdordan qat'i nazar, yashovchi yiliga 3200 iyena soliq to'laydilar.

Chet el soliq qonunchiligini o'rganuvchilar uchun Yaponiya soliq tizimi alohida qiziqish kasb etadi. Yaponianing barcha soliq daromadlarining 64 % dan ortig'in hukumatning moliyaviy qudratini ifodalovchi federal soliqlar tashkil etadi. Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq, Yaponiya davlatida daromadning ko'proq qismini daromad soliqlari — korporatsiyalarning foya solig'i va jismoniy shaxslarning daromad soliqlari tashkil qiladi.

Korporatsiyalarning foya solig'i Yaponiyada milliy, prefektura va munitsipalitet budgetlar hisobiga kelib tushadi. Soliqning milliy stavkasi 33,48 % ni, prefektura solig'i milliy soliqning 5 % ni, munitsipalitet solig'i esa — milliy soliq stavkasining 12,3 % ni tashkil etadi. Shunday qilib, ushbu soliq bo'yicha olingan soliqlarning umumiy hajmi korporatsiya foydasining qariyb 40 % ni tashkil qiladi. Yaponiyada kichik biznes uchun ushbu soliqning imtiyozli stavkalari ham ko'zda tutilgan. Bu — soliq bo'yicha soliqqa tortiladigan baza bo'lib, xalqaro buxgalteriya hisobi qoidalariga asosan anilanadigan korporatsiya foydasi hisoblanadi. Oxirgi yillar davomida korporatsiyalar foydasi solg'idan tushadigan tushum hajmi milliy budget umumiy daromad hajmining, barcha tushumlarning chorak qismini tashkil etadi.

#### **Yaponiyada qabul qilingan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari**

Soliqqa tortiladigan daromad mln iyen	Soliq stavkasi, %			
	Milliy	Prefektura	Municipalitet	Jami
1,6 dan kam	10	2	3	15
1,6—3,0	10	2	8	20
3,0—5,5	20	2	8	30
5,5—6,0	20	4	11	35
6,0—10,0	30	4	11	45
10,0—20,0	40	4	11	55
20,0 dan yuqori	50	4	12	76

**Izoh:** Soliqqa tortiladigan summalar olinadigan chegirma darajalari turli soliq imtiyozlari tufayli barcha guruhlar uchun ko'plab belgilari bilan farqlanadi. Shu sababli guruhlar bo'yicha soliq stavkasi va soliqqa tortiladigan daromad jadvalida ko'rsatilgan kabi to'g'ri kelishi shart emas.

Daromad solig'i ish haqi, dehqonlar va erkin kasb egalari daromadlari, ko'chmas mulkdan kelgan daromad (ijaraga berish) hamda dividendlar, foizlar, nafaqa va boshqalardan olinadi. **Soliqqa tortiladigan daromadlar**

#### **Yaponiyada 10 toifaga bo'linadi:**

1. Pul omonatlari bo'yicha foizlar.
2. Dividendlar.
3. Ko'chmas mulkdan olingan daromad.
4. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.
5. Ish haqi.
6. Pensiya va nafaqalar.
7. Bir martalik daromadlar.
8. Aralash har tomonlama kelgan daromadlar.
9. Kapitaldan olinadigan daromad.

Bularning ko'pchiligi (foiz va dividendlardan tashqari) soliq to'lashdan ozod etilgan yoki ularga soliq imtiyozlari belgilangan. Bundan tashqari, daromadning kam-ko'pligiga qaramasdan, har bir Yaponiya fuqarosi *yashash solig'ini* (bir yilda 3200 iyen) to'lashi shart. Yaponiya amaliyotida oddiy yapon soliq to'lovchisi me'yordan ortiq soliq yukini ko'tarmayaptimi? degan savol tug'iladi. Ammo shuni ham inobatga olish kerakki, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda katta imtiyozlar ham ko'zda tutiladi.

O'rta darajadagi soliq to'lovchi foydalanadigan asosiy soliq imtiyozlari «bazaviy imtiyoz» (soliq to'lovchi daromadining soliqqa tortilmaydigan minimal qiymati 350000 iyenga teng) va xuddi shunday imtiyozlarning xotin yoki er hamda qaramog'ida bo'lgan barcha oila a'zolari uchun berilishi hisoblanadi. Bundan tashqari, quyidagi daromad turlari: ish haqi, nafaqa, ijtimoiy sug'urta kabi daromad turlari maxsus soliq ozodliklariga ega. Yaponiya Moliya vazirligi har bir soliq to'lovchi uchun soliqqa tortiladigan bazani hisoblashda 5 ta imtiyoz va ozodliklarni taqdim etadi. Jismoniy shaxslar uchun daromad solig'iga nisbatan soliqqa tortiladigan eng kam miqdorni hisoblash tizimi quyidagi jadvalda berilgan.

#### **Yaponiyada jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan eng kam miqdorni hisoblash tartibi**

Soliq to'lovchi	Milliy budget	Mahalliy budget
Bitta odam uchun	1075 ming iyen	1032 ming iyen
Er-xotin	1928 ming iyen	1738 ming iyen
3 ta a'zosi bo'lgan oila uchun	2484 ming iyen	2230 ming iyen
4 ta a'zosi bo'lgan oila uchun	3198 ming iyen	2801 ming iyen

Daromad solig'ini hisoblash uchun, soliq to'lovchining turli manbalardan olgan daromadlari qo'shiladi va so'ngra daromadning umumiy summasidan turli chegirmalar (ijtimoiy sug'urta badallari, hayotni sug'urta

qilish va nafaqa fondi, tibbiy xizmatga ketadigan xarajatlar hamda nogironlar, qariyalar, bevalar uchun maxsus chegirmalar) inobatga olingan holda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor chegirib qolinadi. Yaponiyada 4 kishidan iborat bo'lgan oila uchun soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad qiymati AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi mamlakatlarga nisbatan ancha yuqoridir.

Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini mulk qiymatining 1,4 % ni tashkil qiladigan yagona stavka bo'yicha to'laydilar. Yaponiyada mulkka egalik huquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tish jarayonini soliqqa tortishga katta e'tibor beriladi. Mulknini boshqa shaxsga egalikka berish, meros, sovg'alar hamma vaqt soliqqa tortiluvchi obyektlar bo'lib kelgan.

Farzand, ota-onas, aka-uka yoki opa-singil bo'Imagan meroxo'rlar uchun mero solig'i stavkasi qo'shimcha 20 % ga oshadi, umumiy soliq stavkasi esa, ushbu qo'shimchalar qo'shilgan holda meroxo'ning 75 % haqiqiy ulushidan oshmasligi kerak.

#### **2. Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimi**

Ayni paytda XXRdagи barcha **soliqlar uch guruhga bo'linadi**, markaziy soliqlar, qo'shma soliqlar, mahalliy soliqlar:

- **markaziy soliqlar** — bojxona bojlari, iste'mol solig'i, bojxona undiradigan QQS, shuningdek, banklar, moliyaviy tashkilotlar, davlat korxonalar va xorijiy savdo korporatsilaridan undiriladigan soliqlarni o'z ichiga oladi;
- **qo'shma soliqlar QQS**, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq, qimmatli qog'ozlarga solinadigan soliq hamda boshqa bank va tashkilotlardan undiriladigan biznes solig'ini birlashtiradi;
- **mahalliy soliqlar korxonalar** foydasiga solinadigan soliq, boshqa manbalardan undiriladigan biznes solig'i, ko'chmas mulkka solinadigan soliq, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, tamg'a yig'imlari, mero soliq, yer qiymatini oshirganlik uchun soliq va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Davlat soliq boshqarmalari Davlat soliq ma'muriyatining nazorati ostida faoliyat ko'rsatsa, mahalliy soliq boshqarmalari esa mahalliy hokimiyat nazoratida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu tuzilmalar xo'jalik faoliyatini yuritishga litsenziya olgan kundan boshlab 30 kun ichida soliq tashkilotlarda ro'yxatdan o'tishi kerak bo'lgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar to'laydigan barcha soliqlar bilan shug'ullanadi. Ro'yxatdan o'tkazish chog'ida muddatni keyinchalik uzaytirish huquqi bilan 12 oyga ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risida guvohnoma beriladi.

#### **Xo'jalik faoliyati uchun soliq (biznes solig'i) quyidagi hollarda qo'llanadi:**

- soliq solinadigan xizmatlar ko'rsatish;
- nomoddiy aktivlar sotish;
- ko'chmas mulknini sotish.

U tovar aylanmasiga asoslanib hisoblanadi. Unga doir hisobotlarni topshirish va to'lash davriyligi har oyda amalga oshiriladi. **Faoliyat turlariga ko'ra, soliqning quyidagi stavkaları belgilangan:**

- transport xizmati — 3 %;
- qurilish-muhandislik ishlari — 3 %;
- pochta va telekommunikatsiyalar — 3 %;
- madaniyat va sport — 3 %;
- hordiq chiqarish sanoati — 5–20 % (barlar, restoranlar — 5 %);
- nomoddiy aktivlar xarid qilish — 5 %;
- ko'chmas mulkni sotish — 5 %.

Korxonalar foydasiga solinadigan soliq Xitoya daromad oluvchi barcha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy kompaniyalariga nisbatan qo'llaniladi. Uning miqdori har yili yil tugashidan keyin besh oy ichida belgilanadi. Choraklik to'lovlar choraklik hisobotlar taqdim etilishi chog'ida amalga oshiriladi. Belgilangan soliq miqdoridan ortiq to'langan har qanday summa qaytariladi yoki kelgusi davrlar hisobiga o'tkaziladi. Soliq tannarx, xarajat va zararlar ayirlgan holda yil davomida olingan yalpi foydaga asoslanib yuanlarda hisob-kitob qilinadi. Xitoya ro'yxatdan o'tkazilgan korxonalar uchun soliq stavkasi 30 % ni, ro'yxatdan o'tmaganlar uchun 20 % ni tashkil etadi (bu soliqlar ko'pincha «ishlab qolinadigan soliq» deb ataladi), Xitoya buxgalteriya hisoboti mavjud bo'limganda, u shartnomaning umumiy summasiga asoslanib hisob-kitob qilinadi.

Xitoyning ayrim tumanlarida ta'sis etilgan va muayyan faoliyat bilan shug'ullanadigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan 15 % va 24 % li stavkalar ham mavjud. Mazkur soliq bo'yicha 5 yil muddatga soliq ta'tili berilishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i stavkasi ish haqining hajmiga bog'liq holda progressiv sanaladi. Mazkur soliqni hisoblab chiqarish, unga doir hisobot topshirish va to'lov har oyda amalga oshiriladi. Ayrim mintaqaviy tafovutlar, ba'zi hollarda esa, hatto soliq tashkilotlari bilan munozaraga kelish ehtimoli mavjud. Biroq, umuman, olganda **Xitoya ishlovchi xorijliklar uchun quyidagi stavkalar qo'llaniladi:**

- 4000 XXR yuani miqdoridagi oylik daromad soliqqa tortilmaydi;
- 4000 yuandan 4500 yuangacha — 5 %;
- 4501 yuandan — 6000 yuangacha — 10 %;
- 6001 yuandan — 9000 yuangacha — 15 %;
- 9001 yuandan — 24000 yuangacha — 20 %;
- 24001 yuandan — 44000 yuangacha — 25 %;
- 44001 yuandan — 64000 yuangacha — 30 %;
- 64001 yuandan — 84000 yuangacha — 35 %;
- 84001 yuandan — 104000 yuangacha — 40 %;
- 104001 yuan va undan yuqori — 45 %.

Qo'shilgan qiymat solig'i 17 % miqdorida hisoblanadi va tovarlar sotilganda hamda ayrim xizmatlar ko'rsatilganda undiriladi. Oqibatda soliq

yakuniy iste'molchi tomonidan to'lansa ham, u ishlab chiqarish va sotishning barcha bosqichlarida undiriladi. QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuk xatining taqdim etilishi bilan darhol vujudga keladi (u to'langandan keyin emas). Bu ehtimoliy umidsiz qarzga ham qaramay QQS undirilishi lozimligini anglatadi.

Ayrim erkin savdo zonalari ulardan tashqarida sotiladigan tovarlar uchun QQSning bir qismini qoplaydi. Biroq bunday amaliyat markaziy hukumat tomonidan ijobiy qarshi olinmaydi. Shu sababli yaqin orada mazkur imtixonni bekor qilish imkoniyati mavjud.

QQSga qo'shimcha ravishda ayrim maxsus iste'mol tovarlari: sigaretalar, alkogollik ichimliklar, kosmetika, zargarlik buyumlari, benzin, avtomobillar va boshqalar iste'mol solig'iga tortiladi. U barcha korxonalar va huquqiy shaxslar tomonidan yuqorida ko'rsatilgan tovarlar import qilinayotganda, ishlab chiqarilayotganda va qayta ishlov berilayotganda to'lanishi lozim. Ushbu soliq faqat bir marta biznes jarayonida undiriladi va yakuniy iste'molchi tomonidan to'lanadi. Soliq stavkasi iste'mol toifalariga qarab 3 % dan 50 % gacha bo'lishi mumkin.

Vakolatxona ro'yxatdan o'tish sertifikatini olgach, soliq boshqarmasidan soliq ro'yxatida hisobga olinganligi to'g'risida guvohnoma olishi kerak. Bunda vakolatxona Xitoydagagi o'z xarajatlarini qoplash uchun o'ziga berilgan mablag'lar ko'rinishida soliqqa tortiladigan daromad olish manbayi tushuniladi. Mazkur holatda biznes solig'i va xorijiy korxonalar foydasiga solinadigan soliq qo'llaniladi. Vakolatxona ularga doir har oylik yoki choraklik hisobotni (ayrim mintaqaviy tafovutlar mavjud) hatto soliqlar to'lashdan ozod qilingan taqdirda ham taqdim etishi kerak. Aks holda vakolatxonani yopishgacha bo'lgan jiddiy jazo choralar qo'llaniladi. Umuman olganda, vakolatxonadan undiriladigan soliqlar summasi u amalga oshirgan xarajatlarning qariyb 10 % ni tashkil etadi.

Hech bir hukumat soliqlarni to'lashdan bosh tortishni oqlamaydi. Xitoy ham bundan mustasno emas. Soliqlarni to'lash muddatini o'tkazib yuborganlik, to'lamasdan yoki boshqa qonunbuzarliklar uchun jarima choralar qattiq nazoratga olingan. Xitoya qarzni undirish asosiy majburiyat summasining besh barobariga yetadi. Qonun yaqqol buzilgan holatda esa litsenziyalar olib qo'yilishi va mablag'lar musodara qilinishi ham mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasining soliq tizimi Xitoyning tashqi dunyoga ochilishiga qaratilgan bo'lib, u tez sur'atlarda milliy iqtisodiyotning rivojanishiga ko'maklashadi.

XXR ning soliq turlari quyidagi guruhlarga bo'linadi.

**Hozir Xitoya soliqning 25 turi mavjud bo'lib, u o'z tabiatи va vazifasiga qarab 8 guruhga biriktirilishi mumkin:**

**Oborotdan soliq.** Bu guruh soliqning quyidagi 3 turini o'z ichiga oladi: QQS, iste'moldan soliq (savdodan soliq), tadbirkorlik faoliyati solig'i. Ushbu soliqlarning yig'ilishi tovar aylanma hajmi yoki ishlab chiqarish sohasidagi realizatsiya, ko'rsatilgan xizmat va muomalaga bog'liq.

**Foyda (daromad) solig'i.** Bunga quyidagilar kiradi; mamlakatdagi korxonalaridan olinadigan foyda solig'i, chet el sarmoyasi bo'lgan korxonalar va chet el korxonalari foyda solig'i hamda jismoniy shaxslardan daromad solig'i. Bu guruhdan tushadigan soliqlar yuridik shaxslar foydasi yoki jismoniy shaxslar daromadi summasi miqdoriga bog'liq.

**Resurs to'lovlariga** yer va resurs soliqlari kiradi. Ushbu soliq tabiatdan, shuningdek, shahar va rayon yerlаридан foydalanuvchilardan undiriladi. Resurs to'lovlariga Davlat mulkidagi tabiiy resurslardan foydalanish tortiladi. Ularning maqsadi turli sharoit va joylarda tabiatdan foydalanishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilarning daromadlarini tenglashtirish.

**Maqsadli yig'imlar va soliqlar:** ta'mirlash va shahar qurishdan soliq, qishloq xo'jaligidan foydalanganligi uchun soliq, asosiy kapitalga qilingan sarmoyadan soliq, yer realizatsiyasidan soliq.

**Mulk solig'i:** mulkdan soliq, ko'chmas mulkdan soliq, merosdan soliq (hali kiritilmagan).

**Operatsiyadan (faoliyat) soliq.** Bu guruhga quyidagilar kiradi: suv va yer transportidan foydalanganligi uchun soliq, gerb solig'i, mulk berganligi uchun soliq, qimmatli qog'ozlar muomalasi uchun soliq (hali kiritilmagan). Bu soliqlarga belgilangan operatsiyalar (faoliyat) tortiladi.

**Qishloq xo'jaligi solig'i:** yerdan foydalanganligi uchun soliq, hayvonlarni boqish va ko'paytirish uchun soliq. Dehqonchilik va chorvachilik faoliyatidan daromad olinadigan yuridik yoki jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar sifatida qatnashadilar.

**Bojxona poshlinsi.** Xitoy hududiga olib kirilayotgan yoki olib chiqiylayotgan tovarlar bojxona poshlinasiga tortiladilar.

**Soliq qonunchiligi.** Soliq qonuni va soliq siyosatini ishlab chiqarish vakolati berilgan davlat organlari quyidagilar: milliy jamoa kongressi va uning doimiy qo'mitasi, Davlat kengashi, Moliya vazirligi, Davlat soliqqa tortish kotibiysi, Davlat kengashining tarifikatsiya va klassifikatsiya qilish qo'mitasi va Bosh bojxona boshqarmasi.

Soliq qonunlari milliy jamoa kongressi tomonidan ishlab chiqiladi, masalan, XXRning jismoniy shaxslardan daromad solig'i to'g'risidagi qonun yoki doimiy kongress qo'mitasi tomonidan, masalan, XXRning soliqlar va ularni ushlab qolishni boshqarish qonuni.

**Markaziy soliqlar:** mamlakat ichidagi oborot iste'molidan soliq, bojxona poshlinsi, QQS va iste'mol solig'i, bojxona organlari tomonidan ushlab qolnadi.

**Mahalliy soliqlar:** daromad solig'i, shahar va rayonlar yerlаридан foydalanganlik uchun to'lovlar, qishloq mahsulotlaridan foydalanganlik uchun soliq, yer realizatsiyasidan soliq, mulk solig'i va avtotransport vositalalaridan foydalanganlik uchun soliq, dehqonchilik va chorvachilikdan soliq.

Tartibga soluvchi soliqlar mamlakat ichidagi oborotdan QQS: 75 % markaziy budgetga 25 % mahalliy budgetlarga.

**Tadbirkorlik faoliyatidan soliq.** Temir yo'l departamenti banklar va sug'urta kompaniyalari tomonidan to'lanadigan soliqning bir qismi markazlashtirilgan. Shuningdek, qo'shimcha moliya va sug'urta kompaniyalari tomonidan 3 % to'lanadigan soliq markaziy budget daromadiga, qolgan qismi mahalliy budget daromadiga o'tkaziladi.

**Korxona foydasidan soliq.** Davlat korxonalarini, mahalliy banklar va bank bo'Imagan moliyaviy institutlar tomonidan to'lanadigan soliq. Soliqning bir qismi temir yo'l departamenti, turli banklar va sug'urta kompaniyalari tomonidan to'lanadi va markaziy budget departamentiga, qolgan qismi esa mahalliy budget daromadiga o'tkaziladi.

Chet el investitsiyasi bo'lgan korxona va chet el korxonalaridan foyda solig'i: chet el banklari tomonidan to'lanadigan soliq markaziy budgetga va boshqa subyektlardan olinadigan soliq mahalliy budgetga tushadi.

**Resurs solig'i:** sohillardan neft qazib olishda tushadigan soliq markaziy budgetga, boshqa obyektlardan olinadigan soliq mahalliy budgetga yo'naltiriladi.

Shaharni ta'mirlash va qurishdan soliq: konsolidatsiyalashgan soliqning bir qismi temir yo'l departamenti, turli banklar va sug'urta kompaniyalari tomonidan to'lanadi, uning bir qismi markaziy budget daromadiga, qolgan qismi esa mahalliy budget daromadiga o'tkaziladi.

Gerb yig'imi: 88 % markaziy va 12 % mahalliy budgetga.

**Chet el sarmoyasini soliqqa tortish.** Hozirgi vaqtida chet el sarmoyasi bo'lgan korxonalar, chet el korxonalarini va chet el fuqarolari quyidagi soliqlari to'laydilar:

QQS, iste'mol solig'i, tadbirkorlik faoliyati solig'i, chet el sarmoyasi bo'lgan korxonalar va chet el kompaniyalari foydasidan soliq, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, resurs solig'i, yer realizatsiyasidan soliq, ko'chmas mulk solig'i, gerb yig'imi, suv va avtotransport vositalalaridan foydalanganligi uchun soliq, mulkni berishdan soliq, dehqonchilik solig'i va bojxona poshlinsi.

Chetdan pul mablag'larini, chet el texnologiyalarini va yangi ixtiolarini jaib etish maqsadida Xitoyda chet el jismoniy va yuridik shaxslarni soliqqa tortishda ko'pgina imtiyozlar nazarda tutilgan.

**Bojxona bojlari:** Bojxona bojlarini to'lovchilar — yukni oluvchilar, ruxsat etilagan tovarlarni inkor qiluvchilar va yuk jo'natuvchilar, qonunchilikda ruxsat etilagan tovarlarni eksport qiluvchilar. Birinchisi import, ikkinchisi eksport bojxona poshlinasini to'laydilar.

**Bojxona klassifikatorlarida 6940 ta import tovarlari hisoblangan.** 20 dan ortiq turli boj stavkalari qo'llaniladi 0 %, 8 % dan 270 % gacha va 50 dan ortiq imtiyozli stavkalar — 0 %, 1 % dan 121,6 % gacha. Import bojiga kelsak, 36 ta eksport tovarlari uchun 5 xil stavka qo'llaniladi. 20 dan 50 % gacha bojxona bojini hisoblash: bojxona bojini hisoblashda qiymat va donali usul bilan qo'llanilishi mumkin.

### 3. Hindiston davlatining soliq tizimi

**Hindiston norezidentlarini soliqqa tortish.** Norezidentlar Hindiston hududida soliqqa tortiladilar, bu hududdan tashqarida Hindiston soliqlaridan ozod etiladilar.

1. Chet eldan olingen mablag'lar hisobiga sotib olingen aksiyalardan daromad 20 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

2. Norezidentlar va chet el firmalarini Hindistonda quyidagi soha faoliyatidan olgan daromad summasini soliqqa tortish miqdori 5 % dan 10 % gacha.

3. Ikki marotaba soliqqa tortilishdan ozod etish Hindiston hukumati qator mamlakatlar bilan ikki tomonlama soliqqa tortilishdan qutilish uchun ikki tomonlama bitim tuzgan. (shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Avstriya, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Ispaniya, Shvedsiya va boshqalar). Shuningdek, boshqa mamlakatga soliq sifatida to'langan summa chegirmasi ko'rinishida bir tomonlama soliqqa tortilishdan ozod etiladi.

**Hindiston rezidentlarini soliqqa tortish.** Soliqqa tortishning to'g'ri soliqlar bo'yicha yuqori organ departamenti bu — markaziy kengash. U Hindiston hukumati Moliya vazirligi tarkibiga kiradi. Soliqqa tortish bo'yicha qonunlarga to'g'ri amal qilinishini kengash nazorat qiladi, asosan mulk daromadi solig'ini va merosdan soliqni. Hindistonda yagona soliqqa tortish to'g'risida qonun amalda, u 1961-yili soliqqa tortish bayonnomasi bo'yicha qabul qilingan.

Hindiston Konstitutsiyasi bo'yicha shtatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotilishidan olingen daromaddan tashqari daromadni soliqqa tortish man etilgan.

Hindiston rezidentlari barcha boshqa davatlardan olingen daromadlaridan soliq to'lashlari shart. «Ordinar bo'limgan rezident» statusiga ega rezidentlar Hindiston va undan tashqaridagi faoliyatidan olingen daromadidan soliq to'laydilar. Barcha fuqarolar maosh to'lovchilar, foiz, joy uchun ijara, ko'rsatilgan texnik va kasbiy xizmatlar uchun to'lovchilarni to'lovchilar manbasidan, shartnomalar va dividendlardan soliq ushlab qolishlari shart.

Aniqlanmagan stavka va daromadlarning minimal miqdorlari mavjud, ular soliqqa tortilmaydilar. Jami soliqqa tortiladigan daromad miqdori ko'riliishi mumkin bo'lgan zarar va beriladigan imtiyozlari chiqarilib tashlangandan so'ng aniqlanadi.

Daromadlarning ko'p turlari soliqqa tortilmaydi va jami soliqqa tortish daromad summasiga qo'shilmaydi.

#### Daromad quyidagi besh manba orqali aniqlanadi:

- ish haqi;
- ko'chmas mulkdan daromad;
- kapital oborotidan daromad;
- boshqa manbalardan daromad;
- tijorat va kasbiy faoliyatdan olinadigan foydadan daromad.

Ushbu soliqni o'tkazishda ko'pgina soliq imtiyozlari mavjud.

1. Amortizatsiya imtiyozlari; Ishlab chiqarish binolariga, mebellarga, jihozlarga, kemalarga nisbatan qo'llaniladi. Jihozlar amortizatsiyasi kategoriyalar bo'yicha uch guruhga bo'linadi. Jihozlar uchun amortizatsiya yiliga 50 % dan oshmaydi.

2. Patent olish xarajatlari, huquqlar va mualliflik huquqi soliqqa tortilmaydi va u 14 yil mobaynida teng taqsimlangan bo'lishi kerak.

3. Nou-xaularni sotib olish xarajatlarining 1/6 qismi soliqqa tortilmaydi va uning qolgan qismi keyingi besh yilga teng taqsimlanadi. Agar nou-xau Hindiston hukumati ko'rsatmasi bilan institutda ishlab chiqilgan bo'lsa, unda birinchi yilda 1/3 qismi soliqqa tortilmaydi, qolgan qismi keyingi ikki yil mobaynida soliqdan ozod etiladi.

Sanoat ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ko'tarish va Hindiston hukumatini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga turli imtiyozlar va soliq bo'yicha «dotatsiyalar» beriladi, shuning hisobiga soliqlar tez sur'atlarda kamayadi.

1. Erkin savdo zonalarda (ESZ) yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini uchun imtiyozlar.

Bunday korxonalardan olingen foyda, (ESZ da tashkil qilingan texnologik liniyalarda kompyuter va programma ta'minoti ishlab chiqarish), agar 75 % mahsulot eksportga mo'ljallangan bo'lsa, besh yil mobaynida soliqqa tortilmaydi.

2. Chet el ishlab chiqaruvchilaridan olingen gonorar va komission to'lovlari uchun imtiyozlar joriy qilingan. Shunga o'xshash daromadlar, chet elda ko'rsatilgan xizmat uchun olingen daromadlar, Hindistonga keilib tushganda imtiyoz ko'rinishida 50 % chegirmalar beriladi.

3. Dastur ta'minoti eksporti uchun imtiyozlar:

- hindiston hududidan tashqarida dastur ta'minotini tuzish bo'yicha ko'rsatilgan texnik xizmatlar uchun olingen foyda, shuningdek, dastur ta'minoti eksportidan olingen foyda, belgilangan sharoitlarda soliqqa tortilmaydi;

- qolgan boshqa regionlarda tuzilgan korxonalar, shuningdek, elektroenergiya ishlab chiqarish va taqsimlash bilan band bo'lган korxonalar besh yil mobaynida foyda solig'i to'lashdan 100 % ozod etiladilar, keyingi besh yil uchun 30 % imtiyoz oladilar;

- infrastruktura xizmatlarini ta'minlash, xizmat ko'rsatish va rivojlantirish bilan band bo'lган korxonalar besh yil mobaynida soliq to'lashdan 100 % ozod etiladilar va keyingi besh yil uchun 30 % imtiyoz beriladi, agar o'n yillik vaqt ishlab chiqarish faoliyatini boshlash vaqtidan o'n ikki yildan oshib ketmasa.

#### Nazorat savollari:

1. Yaponiya budjeti strukturasida daromad qismi.
2. Huquqiy va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning alohida xususiyatlari.
3. Yaponiyada mahalliy soliqning alohida xususiyati.
4. Mulk solig'ini ta'riflab bering.

5. Bilvosita soliqlarning xususiyatlari.
6. Yaponiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Yaponiyadagi soliqqa tortiladigan daromad kategoriyalari to'g'risida nima-larni bilasiz?
8. Yashash solig'ini to'lovchilar kimlar?
9. Jismoniy shaxslarning daromad solig'idagi imtiyozlari.
10. Oila daromadidan olinadigan soliq miqdori qanday?
11. Meros va hadya soliqlari to'g'risida tushuncha bering.
12. XXRda soliqqa tortish sohasidagi vakolat qaysi tashkilotlarga berilgan?
13. XXRda soliqlarni necha guruhanishi qanday?
14. Qo'shilgan qiymat solig'i, iste'mol solig'i, ushlab qolinadigan soliqlar bo'yicha tushunchalar.
15. Xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini soliqqa tortish qanday amalga oshiriladi?

**8-bob.**

## AFRIKA DAVLATLARINING SOLIQ TIZIMI

### 1. Afrika soliq tizimi

Afrika davlatlari soliq tizimi tuzilishi kolonial o'tmish chiziqlarini hali ham saqlab qolmoqda. Bu sobiq metropoliya soliq qonunlarining hozirgi soliq qonunchiligi bilan mos kelishi, xorijiy kompaniyalarning erkin soliqqa tortilishida, bojxona bojlarning soliq tushumlari tarkibiga kiritilganida aks etadi. Shu bilan birga mustaqil rivojlanish yillarda soliqlar yordamida milliy iqtisodiyot ehtiyojini qondirishga moslashgan o'zgarishlar ro'y berdi.

Har qanday soliq tizimi o'z ichiga egri va to'g'ri soliqlarni oladi. Bosh kreteriy bo'lib ularning qay tartibda undirilishi hisoblanadi. To'g'ri soliqlar soliq to'lovchi daromadi yoki mol-mulkidan bevosita undiriladi, egri soliqlar har bir mahsulot (tovar) birligidan ma'lum summa sifatida yoki tovarlar narxiga nisbatan foizlar hisobida undiriladi.

Soliq to'lovchi soliq to'lashdan qochishi mumkin, agar u yoki bu tovarni iste'mol qilmasa. Kapitalistik mamlakatlarda egri soliqqa iste'mol tuzilmasida salmoqli vaznni egallovchi keng iste'mol predmetlari tortiladi. Bu esa aholining quyi qatlamiga nisbatan adolatsizlikdir. Ko'p narsa davlatning soliq siyosatiga bog'liq, bu degani, egri soliq sferasiga qanday tovarlar tushadi va yaratilgan iste'mol tuzilmasi bilan qanday moslashadi.

Hozirgi paytda hamma Afrika davlatlarida advalor bojlar keng qamrov oлган. Bu, birinchidan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda tovar narxining doimiy o'sishi sharoitidagi importni soliqqa tortishdan foydani ko'paytirishga intilish; ikkinchidan esa kengaygan import nomenklaturasi sharoitida spetsifik stavkalarni qo'llash murakkabligi, bu asbob-uskunalar ulushining oshishi bilan tushuniladi.

Shu bilan birga bir qator tovarlar spetsifik stavkalarda undiriladi. Bu bojlarni undirish fiskal holatda bo'lganda qo'llaniladi. Spetsifik bojlar ko'pincha Afrika davlatlari ekspertidan undiriladi, lekin ular import tovarlariga (alkogol ichimliklar, sigaretlar) ham qo'llanilishi mumkin. Ayrim paytlarda spetsifik bojlar advalor bojlar bilan birga qo'llaniladi: asosiy stavka sifatida advalor bo'ladi, spetsifik boj esa minimal sifat bo'ladi.

An'anaviy qishloq xo'jaligi eksporti haqida gap ketganda eksport boji to'lovchisi bo'lib Afrika ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Narxlarning tushishiga olib keluvchi taklifning talabdan doimiy ustun bo'lishi chet ellik iste'molchilarga bu bojlarni o'tkazishga imkon yaratadi. Afrikaliklar odatta qandaydir boshqa mahsulot ishlab chiqarishga vositalarning yetishmasligi, ma'lumotning yo'qligi, qishloq xo'jaligi tovarlariga past narx bo'

tufayli tezda moslashish imkoniyatiga ega emaslar. Shuning uchun ular eksportchi mahsulotini jahon bozori narxlariga nisbatan ancha arzon narxlarda sotishga majburlar. Afrika davlatlari bojxona tariflarida asosan import bojlari stavkalarining to'rt asosiy guruhi mavjud:

**Birinchi guruh** — maksimal stavkalar yoki 70—100 % va ortiq. Ular dabdaba predmetlariga nisbatan qo'llaniladi va unga quyidagilar kiradi: qimmatbaho buyum, soatlar, alkogol ichimliklar, tamaki mahsulotlari, uzoq foydalanish predmetlari (shu jumladan, qimmatbaho avtomobillar), delikates (shirinlik, konservalangan go'sht) va h. k.

Spirli ichimliklardan soliq undirishda Tanzaniyada maksimal soliq stavka 100—200 %, Sudanda — 600 %, Somalida — 129—7366 % qo'llaniladi (maksimal stavkalar iste'molni cheklash maqsadida, xorij valuta iqtisodi maqsadida qo'llaniladi, ammo bu mamlakatning potensial foydasini yo'qotishga va jamg'arma me'yori oshishiga olib keladi. Bunday yuqori stavkalarga ega bojlar man qilingan turga kiritiladi).

**Ikkinci guruh** — ko'tarilgan stavkalar (30—50 %, bir qator mamlakatlarda 70 %). Ular ko'pincha milliy ishlab chiqarishni himoyalash maqsadida qo'llaniladi. Bunday bojxonalar proteksionistik nomini oladi.

**Uchinchi guruh** — standart stavkalar — keng iste'mol tovarlarga nisbatan qo'llaniladi (kiyim, poyafzal, velosipedlar, radiopriyomniklar), shuningdek, imtiyozli rejimdan foydanilmagan xomashyo va uskunalar ning importiga qo'llaniladi. Stavkalar 25—30 % darajasida, ayrim mamlakatlarda 40—50 % tovar narxiga nisbatan bo'ladi. Undirish fiskal maqsadalariga asoslangan.

Va nihoyat, eng past, imtiyozli stavkalar (to'rtinchchi guruh) birinchi ehtiyoj predmetlaridan undirish uchun, masalan, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, tovarlar, davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhimdir. Ko'pincha bu tovarlar importi bojxonalardan butunlay ozod etiladi.

Eksport bojlarining stavkalarini aytib o'tilganidek, import bojlariga nisbatan tovar birligining qat'iy summa ko'rinishida belgilanadi. Advalor eksport stavkalarini tovar narxining 20—30 % emas, balki 10 % dan kamroq bo'ladi. Misol qilib Efiopiyanı keltirsa bo'ladi. 70-yillar oxirida shakar eksporti (80—90 %) va paxta urug'i 60 % ga yuqori soliq bo'lgan.

Eksport bojlarini fiskal maqsadlarda xazinani to'ldirish maqsadida undiriladi. Ularning yuqori bo'limgan stavkalarini Afrika davlatlarining dunyo bozorida milliy tovarlar raqobatbardoshligiga jiddiy ta'sir etmaslikka intilishi bilan tushuntiriladi. Ilgari yuqori eksport boji mineral xomashyodan undirilgan, ammo oxirgi paytlarda davlat daromadlarida o'rincutuvchi bu boj, qazib oluvchi kompaniyalar foydasiga foyda solig'i salmog'i oshgani hisobiga kamaydi. Ichki savdoga soliqlar (yoki ichki egri soliqlar) Afrika davlatlarida tovar-pul munosabatlari rivojlanishiga, ichki bozor kengayishi darajasiga qarab kiritilgan. Tovarlar ishlab chiqarish sur'ati oshishi (ichki iste'mol uchun mo'ljallangan) soliq solishning yangi obyektlarni vujudga keltirdi.

Afrika davlatlarida sanoatning rivojlanishi bilan import tuzilmasi o'zgardi, bunda imtiyozli stavka bo'yicha undiriladigan uskunalar ulushi oshgan. Bu esa bojxona daromadlari qismi yo'qotilishiga olib keldi. Import bojlaridan tushumni qisqartirishga, shuningdek, Afrika davlatlari ichida ishlab chiqarish yo'nga qo'yilgan tovarlarni bu hududga olib kirishga proteksiopistik stavkalarning yuqoriligi ham sabab bo'lgan. Bu Afrika davlatlarining yalpi daromadlari manbayini izlashga majbur qildi.

Ichki savdoda ikki asosiy soliq turi — aksizlar va savdoga umumiyl soliq yoki oborotdan soliq mavjud. Bu ikki soliq orasidagi farqni aniqlab bilish qiyin. Kriteriy sifatida soliqni qo'llash sohasi va stavkani olish mumkin. Aksizni undirishda har bir aksiz uchun alohida stavka qo'llaniladi. Ko'pchilik Afrika davlatlarida aksiz solig'i solingan birinchi tovarlar bu sigaretlar va alkogol ichimliklardir. Keyinroq ular qatoriga shakar, gugurt,sovun va boshqa shu kabi mahsulotlar qo'shildi.

Afrika mamlakatlari aholisining hamma qatlamlariga aksiz osti tovarlarning katta qismi teng qismida zarur bo'lgani uchun daromaddagi soliqlar ulushi ekspluatator qatlami va daromad darajasi juda past bo'lgan ishchilar orasida taqsimlanadi. Bunga egri soliqqa tortishda nohaq regressiv xarakter yaqqol namuna bo'ladi.

Afrika davlatlarida to'g'ri soliqqa tortish darajasi pastligi sharoitida ichki egri soliqlar Afrika aholisining salmoqli qismiga daromadlarni yo'naltirishga imkon beruvchi yagona yo'l bo'lib hisoblanadi.

Ichki egri soliqlardan tushumni ko'paytirishga intilish Afrika davlatlari 60-yillar oxiri 70-yillar boshida universal aksiz — savdoga umumiyl soliqni kiritishga majbur bo'ldilar. Bu soliqning universal xarakteri shundaki, milliy sanoat ishlab chiqaradimi yoki chet eldan import qilinadimi hammasi soliqqa tortiladi.

Savdoga soliqning turli turlari mavjud.

Kaskad solig'i, bu tovarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga bo'lgan harakatning hamma bosqichida undiriladi.

Ulgurji savdoga soliqni ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi ishab chiqaruvchilar yoki kompaniyalar to'laydi.

**Chakana savdoga soliq.** Qo'shilgan qiymat solig'i, bu kaskad solig'idek undiriladi, ammo har bir bosqichda soliq to'lovchiga keskin bosqichda to'lanadigan soliq miqdorida chegirma beriladi.

Afrika mintaqasining ko'pchilik davlatlarida ulgurji savdoga soliq keng qo'llaniladi. Bu soliq obyektini aniqlash oson, chunki Afrika davlatlarida mahsulotlar hajmi ko'p bo'lgan korxonalar kam. Ichki bozorda sotiladigan import tovarlarni soliqqa tortish ham oson, chunki ular bojxonadan o'tkaziladi. Savdoga soliqning salmoqli qismi import mahsulotlaridan daromad solig'i bo'lib hisoblanadi.

Chakana savdoga soliq ishlatiladigan yagona mamlakat bu — Zimbabve. U yerda bu soliq oziq-ovqat, dorilar, urug'lar va o'g'itlardan tashqari chakana savdoda sotiladigan barcha tovarlarga solinadi. Birinchi qo'llaniladigan stavka — 5 % bo'lgan ikki xil stavka mavjud edi — umumiyl — 15 % va 18 % — dabdaba predmetlarga (spirti ichimliklarga).

Qator Afrika mamlakatlarida (Senegal, Madagaskar) qo'shilgan qiyomat solig'i ishlatsila, ayrim farangzabon mamlakatlarida Fransiyadagi ishlab chiqarishga soliq kabi sotishdan soliq qo'llaniladi. Tayyor mahsulotning bu soliq bilan 2 marta, 3 marta va h. k. soliqqa tortilishining oldini olish uchun soliq to'lovchiga sotib olingen narxdan xomashyo, yarimfabrikatga qo'llanilgan soliq summalarini chiqarishga ruxsat beriladi.

Ushbu soliqlarni qo'llashda chegirmalarni aniqlash uchun hisob tizimi yetarli darajada aniq bo'lishi kerak.

Sotishdan soliqning aksizdan ustunligi, u kengroq mahsulotlarga qo'llaniladi. Chet elda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni soliqqa tortishga, aholining har xil tabaqasi iste'mol qiladigan tovarlarga stavkalarning differensiyasi hisobiga ba'zi elementlarni kiritish mumkin. Xalqaro Valuta Fondi ekspertlari fikricha Tropik Afrika mamlakatlarining ko'pchiligidagi davlat budgetiga keladigan tushumlarning oshishiga ushbu soliq turi muhim rol o'ynaydi.

Ushbu differensiyalashgan sotishdan soliqning hamma Afrika mamlakatlarida amalga oshirilmaydigan ko'pchiliklarda 2 ta yoki 3 ta stavkalar mavjud. Masalan, Zambiyada soliq stavkasi 10 %, Keniyada 2 ta stavka 15 va 20 % mavjud edi. O'sha davrda Ugandada 19 ta oddiy va bir necha maxsus stavkalar, Tanzaniyada esa 24 ta maxsus va 24 ta oddiy stavka joriy qilingan. Bu kompaniyalar foydasi, odatda, eksportdan tushum bilan rasmiy sotib olingen narxlar o'rtaqidagi farq hisoblanadi.

To'g'ri soliqlar shaxsiy real soliqlarga bo'linadi. Real soliqlar soliq to'lovchining to'lov qobiliyatini hisobga olmagan holda haqiqiy mulkidan undiriladi. (Masalan, uy solig'i derazalar soniga, umumiy maydonga nisbatan hisoblanadi). Shaxsiy soliq esa soliq subekti daromadlariga bog'liq. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda hozirgi kunda real soliq o'z muhimligini yo'qotgan. Afrika mamlakatlarida esa umuman keng yoyila olmadi.

Shaxsiy soliqlarga aholi daromadiga soliq va korporatsiya foydasiga soliq, qo'shimcha foydaga soliq, meros va sovg'aga soliq; kapitalga, mulkiy va jon solig'i kiradi. Real soliqlarga esa yer, uy, qimmatbaho qog'ozlarga, kasb-hunarga soliqlar kirib ketadi.

Hozirgi kundagi Afrika mamlakatlaridagi to'g'ri soliqlar to'g'risidagi qonunchilik oldingi mustamlaka davridagi qonunchilikning tom ma'nodagi aslidir. Soliqqa tortish texnikasini ishlatish nuqtayi nazaridan qaralganda mamlakatlar ikkiga bo'linadi: soliqqa tortishning ingliz usullariga asoslangan (Angliya mustamlakalari) va soliqqa tortishning Fransuz usullariga asoslangan. Ularning yaqqol farqini biz daromad solig'ini undirishda ko'rishimiz mumkin.

Sobiq Fransiya mustamlakalarida aholidan daromad solig'ini undirish uchun shedular daromad solig'i qo'llaniladi. Bu soliq bilan soliq to'lovchining barcha daromadlari emas, balki aniq bir daromadi (manbadan undirish) dan undiriladi. Masalan, Ivuar degan respublikada 3 ta shedular solig'i mavjud. Birinchisi — sanoat, qishloq xo'jalik va savdodagi tadbirkorlar faoliyatidan daromadga soliq. To'lovchilar — mayda ishlab chiqaruvchilar, milliy kapi-

tal qo'yilmalar fondiga ajratiladi. Ikkinchisi — tijorat daromadlariga soliqlar (bunga renta, ko'chmas mulkdan daromadlar kirib ketadi). Stavkasi 35 %. Agar olingen foyda mahalliy banklar chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga sarflansa, stavkasi 15 % ga tushirilishi mumkin. Uchinchisi — ish haqi, nafaqa va boshqa to'lovlardan soliq. Stavkasi 1,5 %.

Bundan tashqari, Ivuarda umumiyligi yoki global daromad solig'i ham mavjud. Stavkasi progressiv (yuqori — 60 %). Barcha daromadlar emas, balki aniq bir turdag'i daromadlar bu soliqqa tortiladi. Har xil mamlakat-larning soliq qonunchiligidagi bu kategoriya har xil turdag'i daromadlar, imtiyozlar mavjud emas. Buning o'rniga soliqqa tortiladigan daromad soliq to'lovchining oila a'zolarining soniga bo'linadi. (Er-xotinga bir birlik qism to'g'ri kelsa, bolalarga yarmi to'g'ri keladi. Masalan, er, xotin va 2 ta bolasi bo'lsa, daromad 3 ga bo'linadi). Har bir daromad qismiga alohida aggressiv stavka qo'llanilib, soliq summasi aniqlanadi.

Soliqni bunday hisoblash tizimi judayam qiyinligi tufayli soliq deklaratsiyalarini qo'llash umuman mumkin emas. Shu tufayli bu soliq yirik kompaniyalar ishchi va xizmatchilarini norozi qildi. Bu esa soliqqa tortish mumkin bo'lgan obyektni qisqartiradi. Aholi daromadlarini ikki marta soliqqa tortish, ya'ni shedular va umumiy daromad solig'iga, tegishli ma'muriy apparat xarajatlarini oshirishga to'lov nazoratini murakkablashtirib, shu bilan birga to'lovdan qochishga yo'l ochib beradi.

Sobiq Angliya mustamlakalarida, qonunga ko'ra, progressiv shkala bo'yicha undiriladigan global daromad solig'i ishlataladi. 80-yillarda boshida **Nigeriyada ular quyidagicha bo'lgan:**

Birinchi	2000 nayr	—	10 %
Keyingi	2000 nayr	—	15 %
	2000 nayr	—	20 %
	2000 nayr	—	25 %
	2000 nayr	—	30 %
	5000 nayr	—	40 %
	5000 nayr	—	50 %
	10000 nayr	—	55 %
Barcha daromad summasi		—	70 %

Angliya soliq qonunchiigiga asosida soliqqa tortiladigan daromadni aniqlashda soliq to'lovchiga shaxsiy imtiyozlar beriladi. Masalan, Nigeriyada shaxsiy chegirma 1200 nayr yoki soliqning 10 %; bolalar uchun chegirma — 250 nayrdan (mahsulot 1000 nayr); xotin uchun chegirma 3000 nayr miqdorida belgilangan.

Uzoq vaqt davomida barcha Afrika mamlakatlarida jon boshiga soliq undirilar edi. Bu mustamlakachi hokimiyatning Afrika aholisiga, daromadlarni olib qo'yish va yollanma mehnatni rag'batlantirish uchun solingan birinchi soliq edi. Soliq summasi aniq belgilanib qo'yilgandi. Undan tushadigan tushum esa juda kam bo'lgan. Chunki to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan aholi soni ham juda katta edi. Bu soliq hozirda faqat Liberiya,

Gvineya — Bisau, Mali, Chad, Markaziy Afrika Respublikalarida va ba'zi bir boshqa Afrika davlatlarida saqlanib qolgan.

Afrika qit'asidagi qator davatlarda Afrika shaxsiy solig'i jon boshiga soliqdan daromad solig'iga o'tish uchun vosita bo'lib kelgan.

Jon boshiga soliq kabi bu «Afrika shaxsiy solig'i», fiksirlashtirilgan summada undirilar, lekin soliq summasini aniqlashda soliq to'lovchining daromadlarini hisobga olishga harakatlar bo'lardi. Bu soliqning «Afrikaviy shaxsiy soliq» deb nom olishiga qarab qora tanli aholi ushbu soliqni to'lar edilar, lekin oq tanli kelgindi mustamlakachilar daromad solig'ini to'lar edilar. Shunga o'xshash soliq rivojlangan mamlakatlarda (Angliya, Fransiya) ham bo'lib, quyidagilardan undiriladi: kichik va o'rta savdogarlardan, taksist, poyabzal ustalari, sartarosh, erkin kasb egalari (o'zi uchun mashg'ul bo'lganlar kategoriysi).

Rivojlanayotgan va kapitalistik mamlakatlarda aholisi, ayniqsa, o'zi uchun mashg'ul bo'lganlar kategoriyasiga kiruvchilar, daromad va bilimliliqi darajasidan ajralib turadi. Soliqqa tortish nuqtayi nazaridan, ularning umumiy tomonlari quyidagicha:

A. Buxgalteriya hisobining doimiy yuritilmasligi (Afrika mamlakatlari-dagi bu kategoriya tegishli aholi buxgalteriya hisobini umuman yuritmaydi).

B. Soliq deklaratsiyalarida tegishli daromad ko'rsatilmaydi. Natijada ulardan oddiy daromad solig'ini undirish juda qiyin. Bu kategoriya daromadlari taxminan o'lchanadi.

Bu tizimning kamchilik tomoni — soliqlar fiksirlashtirilgan summada bo'lishi. Ko'pincha to'lovchining haqiqiy, real daromadi hisobga olinmaydi. Bu narsa asosan o'z ichida differensiya katta bo'lgan aholi guruhida ko'rindi. Jumladan, bu kamchilik Afrikadagi (Gana) mayda savdogarlar daromadini soliqqa tortishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. U yerda soliq to'lovchilar 3 guruhga bo'linib, soliq stavkalari quyidagicha edi: 50, 100 va 200 sed. Biroq, aniqlanishi bo'yicha, ular soliq to'lovchi imkoniyatlarini aniq aks ettirmas edi. Shuning uchun soliq to'lovchilar norozi edilar.

Soliq solinadigan foydani aniqlash uchun, tashkilot sof foydasidan ruxsat berilgan chegirmalar ayiriladi. Ularga davlat oblegatsiyalaridan foizlar, maqsadli xarakterga ega bo'lgan summalar, faqat ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va yo'qotishlar, hukumat aytgan fondlarga qo'yilmalar, umidsiz qarzlar va ba'zi bir xarajatlar kiradi. Bu chegirmalardan tashqari foya yana imtiyozlarga (investorlarga beriladigan) qisqartilishi mumkin. Ular — foydaning bir qismini soliqdan ozod bo'lishi investitsiya chegirmalari, o'tgan yili ko'rilgan zararni qoplash xarajatlari va reinvestitsiya va shunga o'xshashlar.

Afrika mamlakatlarda soliq stavkalari o'rtacha 45—50 % ni tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarda progressiv stavkalar qo'llaniladi.

Afrika mamlakatlarda qator mulk bilan bog'liq soliqlar ishlataladi. Lekin ular hozircha daromad manbayi sifatida ahamiyatga ega emas. Sababi undirilishi qiyin.

Afrika mamlakatlarida jamg'armani rag'batlantirish uchun yillik kaptalga soliq undirilmaydi. Soliqqa faqat kapitalning o'sgan qismi tortiladi. Ushbu soliq qiyoslanganda yaqinda qo'llanilgan va ko'pchilik mamlakatlarda haligacha mavjud emas. Masalan, Ganada 1975-yildan mavjud. Bu yo'nalihsda chayqovchilikning oldini olish uchun stavkalar shaxs qo'lidi aktivning muddatiga qarab tabaqalashtirilgan.

Ushbu soliqni qo'llash Afrika uchun ancha qiyin. Biroq ko'proq moliyaviy resurslarni yig'ish choralaridan ko'ra, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarga taqliddir. Soliq mexanizmining muhim qismi bo'lib, soliq to'lovchilarning hisobini o'z ichiga oluvchi soliqlarni boshqarish, soliqlarni hisoblash va yig'ish, soliq to'lovleri ustidan nazorat hisoblanadi. Afrika mamlakatlari uchun soliqlarni boshqarish tizimini mukammallashtirish katta ahamiyatga ega, chunki soliqdan qochish juda ham ko'payib ketgan. Ko'pchilik mutaxassislar fikriga ko'ra, qit'adagi ko'p mamlakatlarda barcha to'g'ri soliqlar imkoniyat darajasida emas. Yig'ish mumkin bo'lgan soliqlarning 50 % dan kami yig'ilayotgan ekan.

Alovida mamlakatlarda soliqni to'lamaslik bo'yicha aniq ma'lumotlar yo'q, albatta. U haqda ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra fikr yuritsa bo'ladi. G'arbiy Nigeriyada o'tkazilgan tekshiruvlarga ko'ra erkaklarning 1/3 qismi soliq to'lamas ekan.

Afrika mamlakatlarida nafaqat daromad solig'ini to'lashdan, balki egri soliqlarni to'lashdan qochishlar ko'p bo'ladi. Masalan, Liberiyada 70-yillar boshlarida yig'ilishi kerak bo'lgan bojxona yig'imlarining 40—70 % yig'ilgan edi. Sotishdan soliq bo'yicha daromadning jami 40—50 % butun Afrika bo'yicha davlat xazinasiga tushadi. Sababi tadbirkorlar o'z daromadlarini yashirishlaridir.

Qator Afrika davlat hukumatlari oxirgi yillarda soliqlarni boshqarishga katta ahamiyat bermoqdalar. 70-yillar oxirida Nigeriyada, soliqqa tortish tashkilotlarini yanada yaxshilashga qator takliflar kiritilgan va maxsus guruh faoliyat ko'rsatgan. Ushbu takliflarga binoan, barcha tadbirkorlar standart stavka bo'yicha soliq to'laganlar. Soliqqa tortishga bog'liq axborotlar banki yaratilgan. Soliqni o'z vaqtida to'lamaganlik uchun jarima soliq summasidan 10 % qilib belgilangan. Agar soliq 2 yil ichida to'lanmasa, soliq to'lovchi ustidan sud ishlari boshlab yuborilgan.

Soliq to'lovchilarning to'g'riligi ustidan nazorat — soliq siyosati masalalari yechimining muhim shartidir. Ko'rini turibdiki, Afrika mamlakatlari hukumatlari bu masalaga katta ahamiyat beradilar.

## 2. Misr Arab Respublikasi soliq tizimi

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan, hududi 1,0 mln kv kilometr, aholisi 70,0 mln kishidan iborat. Ishga yaroqli aholisi 18,5 mln kishini va ishsizlik 9,3 % ni tashkil etadi.

Davlat budgeti to'g'risidagi kodeksi 1973-yilda qabul qilingan va hozirga qadar amal qiladi.

Soliqlar ikki turga bo'linadi:

Jismoniy va yuridik shaxslar daromad yoki foydasiga bevosita soliqlar; tovarlar, xizmatlar va moliyaviy natijaga bilvosita soliqlar.

Misrda yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi qo'shma korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, yopiq aksiyadorlik jamiyatlar, chet el korxonalarini va chet el korxonalarini filiallarga (agar filialning assosiy ofisi chet elda joylashgan bo'lsa) nisbatan qo'llaniladi.

Korxonalarining foydasidan olinadigan soliqning standart stavkasi 40 % dan iborat. Ayrim faoliyat turlari bo'yicha **maxsus soliq stavkalari** qo'llaniladi:

- yoqilg'i kompaniyalarida — 40—55 %;
- eksport qiluvchi korxonalarida — 32 %;
- sanoat korxonalarida — 32 %.

Kapitalni sotishdan kelgan foyda oddiy foyda sifatida soliqqa tortiladi. Rezident korxonalarining chet el manbalaridan olgan dividendlari 32 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi, lekin ularning chet elda to'lagan soliqlari hisobga olinadi (che-giriladi). Misr fond birjasida ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlardan olingan foizlar soliqdan ozod qilingan. Korxona zarar ko'rsa, shu ko'rgan zarari keyingi yilda olingan foydasidan chegirib qolinadi va soliqqa tortilmaydi. Misr soliq qonunchiligi bo'yicha sheriklik jamiyatlar hamda mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soliqdan ozod qilingan. Sheriklik jamiyatlarining har bir a'zosi alohida jamiyatning umumiy foydasidagi hissasiga qarab soliqqa tortiladi.

Bir nechta jismoniy shaxs birlashib, sheriklik korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Ushbu korxona yuridik shaxs emas, balki jismoniy shaxs deb qaraladi. Sheriklik korxonasining har bir a'zosi o'z olgan daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshiradi va soliq to'laydi.

Soliq qonuniga asosan jismoniy shaxslar quyida keltirilgan beshta manbadan olgan daromadlari uchun **har xil soliq stavkalarida soliq to'laydilar**:

- harakatlanuvchi kapitaldan olingan daromadlar. Uning stavkasi yalpi daromaddan 32 %, to'lov manbayida ushlab qolinadi. U asosan foizlarga (depozitdan olingan foizlardan tashqari), manbasi chet elda bo'lgan dividendlari (chet el soliqlari to'langanidan keyin), AJ boshqaruvi tashkilotlari ning gonorarlari va xizmatlar uchun gonorarlarga nisbatan qo'llaniladi;
- ko'chmas kapitaldan olingan daromadlar. U 20 % dan 48 % gacha stavkada undiriladi. Soliq solish obyekti yer va ko'chmas mulkdan kelgan sof daromaddir;
- tijorat va sanoat daromadlari. U 20 % dan 48 % gacha bo'lgan tabaqalashgan stavkada undiriladi. Soliq solish obyekti bo'lib korporatsiya solig'i solinmaydigan korxonalarining sof tijorat va ishlab chiqarish foydasi hisoblanadi;
- kasb mahorati gonorarlari. Stavkasi 20 % dan 48 % gacha. Soliq solish obyekti bo'lib mustaqil kasb egalarining (yuristlar, muhandislar, buxgalterlar va hokazolar) sof gonorarlari hisoblanadi;
- mehnat haqi. Mamlakat ichida yoki mamlakat tashqarisida to'langan ish haqi soliq obyekti bo'lib hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan ish haqiga

chet ellik ekspertlarga beriladigan oilaviy chegirmalardan tashqari hamma daromadlar kiritiladi. Soliq stavkasi progressiv bo'lib, sof daromadning 50000 funtigacha 20 %, qolgan qismidan 32 % miqdorida soliq undiriladi.

Misrda quyidagi boshqa soliqlar ham mavjud:

**Real mulk solig'i.** U mulkning yillik ijara haqidani 10—40 % oralig'ida undiriladi. Ijara haqiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi: markazga uzoq yoki yaqinligi, uyning mebel bilan jihozlanganligi, yo'lga yaqin yoki uzoqligi.

**Tamg'a yig'imi.** Uning obyekti bo'lib ko'p turdag'i hujjalalar, kafolat xatlari, turli bank muomalalari, ro'yxatga olinmagan qimmatli qog'ozlar harakati, lizing va boshqalar hisoblanadi. Masalan, kompaniya tashkil qilinayotganda 150—300 funt miqdorida; u tijorat ro'yxatiga olinganligi uchun esa 15 funt miqdorida tamg'a yig'imi olinadi.

**Meros va hadya solig'i.** Ushbu soliq meros va hadyalardan 3 % dan 15 % gacha bo'lgan stavkada undiriladi. 10.000 funtigacha bo'lgan meros soliqqa tortilmaydi. Ushbu soliq obyekti bo'lib chet ellik rezidentlarning ko'chmas va harakatlanuvchi mulklari bo'lishi mumkin. Norezidentlar esa faqat Misrda joylashgan ko'chmas mulklaridan soliq to'laydilar.

Yillik soliqqa tortiladigan daromadi 18000 misr funtidan oshgan jismoniy va yuridik shaxslar 2 % miqdorida rivojlantirish yig'imi to'laydilar.

Ishchilar va ish beruvchilar ijtimoiy sug'urta ajratmalarini to'lashlari lozim. Bu taomil yordamga muhtojlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ajratma stavkasiga ishchilarning oylik ish haqi asos qilib olingan va uni ish beruvchilar 26 %, ishchilar esa 14 % stavkada to'laydilar. 1991-yilda «Tijorat solig'i to'g'risida» Qonun qabul qilingan. Ushbu soliq ko'p turdag'i tovarlar va ayrim turdag'i xizmatlarga (asosan turizm, telekommunikatsiya xizmatlari va ko'ngilochar xizmatlarga) nisbatan qo'llaniladi. Xorijdan tijorat maqsadlarida import qilingan tovarlar ham soliq solish obyekti bo'ladi. Uning stavkasi 10 % dan (assosiy stavka) 50 % gacha (ayrim turdag'i tovarlar uchun). Soliq tovarlar va xizmatlarning bahosiga qo'shiladi va iste'molchilar tomonidan savdo joyining o'zida to'lanadi. Tijorat korxonasini esa soliqni soliq idoralariga o'tkazib beradi.

Ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik uchun Misr Arab Respublikasi 30 ga yaqin mamlakat bilan shartnomalar tuzgan. Yana bir necha mamlakat bilan shartnoma tuzish rejasiga mavjud.

Chet eldag'i manbalaridan daromad olgan soliq to'lovchi o'zining xorijda to'lagan soliqlari to'g'risidagi ma'lumotnomani ilova qilib, xorijda to'langan soliqlarni chegirib, Misr qonunlari bo'yicha hisoblangan soliq summasi o'rtasidagi farqni to'lashi mumkin.

#### Nazorat savollari:

1. Misr Arab Respublikasi soliq tizimining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
2. Yuridik va jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan foya solig'i stavkalari qanday?
3. Misrda qanday soliq imtiyozlari mavjud?

## MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STligiga A'ZO DAVLATLAR SOLIQ TIZIMI

### 1. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Sobiq sovet ittifoqining yagona xalq xo'jalik majmuasi inqirozga uchragandan so'ng, ittifoqdosh respublikalar mustaqillikka erishdilar va sifat jihatidan yangi davlatlararo tashkilot — MDH barpo etildi. Inqirozning asosiy iqtisodiy asoratlaridan biri MDH mamlakatlari orasida tovarayir-boshlashning qisqarishi bo'ldi. Bu, o'z navbatida, hamdo'stlik davlatlari chegaralaridagi iqtisodiy aloqalarning bo'shashishiga olib keldi. Ammo ushbu salbiy oqibatlarga qaramasdan, MDH a'zo davlatlarining iqtisodiy darajadagi o'zaro bog'liqligi saqlanib qolindi.

MDH ichidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi ushbu mamlakatlardagi iqtisodiy inqirozdan chiqish, iqtisodni ko'tarish va ularning samaradorligini oshirishning shartlaridan birdir. Integrallashgan hamkorlikning muhim vazifasi — o'zaro foydali savdo-iqtisodiy aloqalarni boshqarish mexanizmini yaratishdir. Soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish muammolari ham hozirgi kundagi dolzarb masalalardan birdir.

MDH davlatlaridagi soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish quyidagi **maqsadlarga erishishni ko'zda tutadi**:

- MDH ichki bozorini birlashtirish, unifikatsiyalash va integratsion jarayonni kuchaytirish;
- soliq chegaralarini yo'qotish va tovarlarning erkin ko'chishini ta'minlaydigan sharoitni yaratish;
- soliq tizimlari strukturasini ratsionalizatsiya qilish va soliq to'lovlarini hisoblash hamda undirish tartibini yaqinlashtirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish doirasida bir qator hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, yagona «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashqi iqtisodiy faoliyati tovar nomenklaturasi», o'zaro savdo-sotiqa egri soliqlarni undirish tamoyillari haqida Bitim; daromad va mol-mulkni ikki marta soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik maqsadida MDHga a'zo davlatlar o'rtaisdagi ikkiyoqlama bitim; soliq qonunchilikiga rioya qilish masalalari bo'yicha hamkorlik va o'zaro yordam; xo'jalik yuritishda cheklashlarni bekor qilish va boshqalar.

Milliy qonunchilikdagi mavjud farqlar yagona bozor kengligini yartishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun MDHga a'zo davlatlarning yagona soliq kodeksini ishlab chiqishda ushbu mamlakatlarda soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq tushumlari MDH davlatlari budgeti umumiy daromadining 75—87 % ga yaqinini tashkil

qiladi. Shu bilan birga MDHga a'zo davlatlarda undiriladigan soliqlarning asosiy turlari jahon amaliyotida keng tarqalgan soliq to'lovlariga mos keladi.

Soliq manbalarining parallel ravishda qisqarishi va korxonaga qo'yilgan katta soliq yuki oqibatida soliq to'lashdan ommaviy bosh tortish barcha MDHga a'zo bo'lgan davlatlardagi davlat budgetining daromad qismini shakllantirishdagi jiddiy muammodir. Aytib o'tilgan omillar bozor munosabatlariga o'tish davridagi budget defitsitining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Defitsitni yo'qotish maqsadida barcha mamlakatlarda turli darajadagi samaradorlik bilan soliq tizimlari islohotlari olib borilmoqda.

MDHning ko'pchilik mamlakatlarning budget daromadidagi katta ulushi aynan egri soliqlarga to'g'ri keladi. Shu sababli egri soliqlarni undirishda soliq qonunchiliklarining uyg'unlashuvni muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy egri soliqlardan biri — bu qo'shilgan qiymat solg'i. QQS hisoblashning umumiylari tartibi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasidan o'zlashtirilgan, ammo MDHning har bir mamlakatida uning to'lovchilari ro'yxatini, soliq bazasini, soliq chegirmalari berish qoidalarini va to'lov muddatlarini aniqlashda ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjud. MDH doirasida QQS stavkalarini unifikatsiyalashga (bir xillashtirish) erishilgan edi. Asosiy stavka 20 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga 10 % stavka va nolinchı stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan tovarlar ro'yxatida farq mavjud.

**Ma'lumki, tashqi savdo-sotiqa jarayonlarida QQS bo'yicha soliqqa tortishning ikki tamoyili mavjud:**

- ishlab chiqarilgan joyi asosida, ya'ni «tovarning kelib chiqish mamlakati» tamoyili;
- iste'mol qilish joyi asosida, ya'ni «tovar belgilangan mamlakatlar uchun» tamoyili.

MDH doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlar savdo-sotig'ini amalga oshirish uchun, Rossiya va Belorus ittifoqi davlatlar doirasidagi savdo-sotiordan tashqari, QQS «tovar belgilangan mamlakatlar uchun» tamoyili asosida undiriladi. Bu import tovarlar soliqqa tortilishini, eksport tovarlar esa soliqqa tortimasligini bildiradi. Aksizlar — egri soliqlarning turli ko'rinishidir. MDH mamlakatlarida aksiz osti tovarlarining stavka ro'yxatida sezilarli farqlar bor. Masalan, Qozog'istonda nafaqat tovarlar, balki qimor biznesi ham aksiz solig'iga tortiladi. Har bir alohida olingen mamlakatlarda ko'pchilik tovarlarga o'ziga xos aksiz stavkalari milliy valutada o'rnatilgan. Shuning uchun bu stavkalarni tenglashtirish alohida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Foya solig'i yoki yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i — har qanday mamlakat soliq tizimining asosiy qismidir. Qirg'izistonдан tashqari, Bojxona Ittifoqiga kiruvchi barcha mamlakatlarda soliq to'lovchilar bo'lib, barcha yuridik shaxslar va shu bilan birga chet el korxonalari hisoblanadilar. Qirg'izistonda faqat yuridik shaxslar — rezidentlar soliq to'laydilar;

Belorusda ular bilan bir qatorda qo'shma faoliyat shartnomasi a'zolari ham soliq to'laydilar. Rossiyada qo'shma faoliyatdan olingen foyda, sotilmagan tovarlar har bir shartnoma a'zosi uchun inobatga olinadi va umumiyl stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. MDH mamlakatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning haqiqiy foydasini yashirin holdan chiqib qonuniylashtirilish maqsadida tashkilot foydasidan olinadigan soliq stavkasini pasaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, Qirg'izistonda 10 %, Rossiyada 24 %, Qozog'iston, Tojikiston, Belorusda yuridik shaxslar foydasi 30 %, O'zbekistonda 2003-yildan boshlab 20 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Shunday qilib, soliq stavkalarida ham sezilarli farqlar saqlanadi. Shuni inobatga olish kerakki, ayrim faoliyat turlari bo'yicha olingen daromaddan soliq asosiy stavkadan farq qiladigan stavka bo'yicha olinadi. Masalan, Tojikistonda doimiy muassasasi bo'limgan norezident — yuridik shaxslar quyidagi stavkalar bo'yicha soliq to'laydilar: roylidan — 20 %, foiz va dividend ko'rinishidagi daromadlardan — 12 %, fraxtadan (kemada yuk tashish haqi, kira puli) — 6 %, xalqaro aloqalar va yuk tashishni amalga oshirishda ko'rsatilgan aloqa va transport xizmati sug'urta to'lovi daromadidan — 4 %.

Stavkalar miqdori soliq to'lovchilar kategoriyasiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, **Belorusda quyidagilar uchun asosiy stavka o'rniga pasaytirilgan stavkalar ko'zda tutilgan:**

- yillik balans foydasi 5000 minimal ish haqidan oshmaydigan, ishchilarning o'rtacha yillik soni ishlab chiqarishda — 200 kishigacha, fanda 100 kishigacha, qurilish va boqsha ishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida — 50 kishigacha, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan sohalarda — 25 kishigacha bo'lgan korxonalar uchun (chakana savdo bilan shug'ullanadiganlardan tashqari) — 15 %;
- agrosanoat ishlab chiqarish komplekslarini ishlab chiqarish — texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha olingen foydasidan — 10 %;
- agrosanoat ishlab chiqarish komplekslari obyektlarini qurish va ta'mirlashdan olingen foydasi — 7 %.

Mahalliy hukumat organlari mayda chakana savdo korxonalar uchun tovar ayirboshlashga, tovar assortimenti va savdo nuqtasi turiga ko'ra, foyda soliq'ining belgilangan summasini o'rnatadilar.

Foyda soliq'ining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan elementi soliqqa tortish obyekti. Belorusda soliqqa tortish obyekti — balans foydasi, Qozog'iston va Qirg'izistonda — umumiyl soliqqa tortiladigan daromad, ya'ni umumiyl yillik daromad va undan olingen chegirmalar farqi.

**Tojikistonda** — yalpi daromad va chegirmalar farqidan foyda soliq'i olinadi. Ushbu soliq bo'yicha soliqqa tortish manbayini aniqlash tartibidagi o'xshashlik bilan bir qatorda Qozog'iston, Qirg'iziston, va Tojikistonda chegirib tashlash lozim bo'lgan xarajatlar tarkibida ayrim farqlar bor. Bundan tashqari, Tojikistonda doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan norezidentlar korxonalar foydasini soliqqa tortish obyekti bo'lib to'lov manbayidagi chegirmsiz barcha daromadlar hisoblanadi.

Bojxona ittifoqi doirasidagi ancha unifikatsiyalashgan soliq — yuridik shaxslarning mol-mulk solig'idir. U Qirgizistondan tashqari barcha MDH mamlakatlarda undiriladi. Soliq to'lovchilar bo'lib barcha korxona va tashkilotlar hisoblanadi. Soliq stavkasi ancha past bo'lib, Qozog'istonda — 1 % ni, Tojikistonda — 0,5 % ni, Belorusda — 1 % ni, Rossiyada — 2 % ni tashkil qiladi. Mahalliy hukumat tashkilotlari shu stavka atrofida aniq stavka miqdorini belgilaydilar. Soliq manbayini aniqlashda, imtiyozlar va to'lov muddatlarini aniqlash tartibida ham ayrim farqlar bor.

Yagona Soliq Kodeksining qabul qilinishi MDH mamlakatlardagi soliq munosabatlarini uyg'unlashtirish yo'lidagi yana bir jiddiy qadam hisoblanadi. Maxsus soliq tartiblarini (rejimlarini) qo'llash mumkinligi ko'zda tutilmoqda.

## 2. Rossiya Federatsiyasining soliq tizimi

Rossiya soliq organlari tuzilishining asosiy tashkilotlarini 28.12.91-y. «RF dagi soliq tizimi asoslarini to'g'risida»gi Qonun belgiladi (01.01.92-y. dan joriy qilingan). U budget tizimiga keluvchi soliqlar, pul yig'imlari, bojlar va boshqa to'lovlar ro'yxatini belgiladi, shuningdek, soliq to'lovchilar, ularning huquqlari va majburiyatlarini hamda soliq idoralari, ularning huquqlari va majburiyatlarini aniqlaydi. Soliqlar, pul yig'imlari, bojlar va boshqa to'lovlar, shuningdek, soliq to'lovchilarga imtiyozlarni belgilash yoki bekor qilish hukumatning yuqori huquqiy tashkilotlari tomonidan va yuqorida ko'rsatilgan qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasidagi **soliq tizimida soliqlar** quyidagi 3 turga bo'linadi:

- federal soliqlar;
- respublika tarkibiga kiruvchi respublikalardan pul yig'imlari;
- hukumatning mahalliy tashkilotlari tomonidan RF va uning tarkibiga kiruvchi respublikalarning qonuniyatlariga muvofiq belgilanuvchi mahalliy soliqlar va pul yig'imlari.

**Federal soliqlarga** quyidagilar kiradi:

- qo'shimcha qiyomat solig'i;
- tovarlarning alohida guruhlari va turlariga aksiz solig'i;
- banklarning daromad solig'i;
- sug'urta faoliyatidan tushgan daromadlardan olinadigan soliq;
- banklar va ularning shoxobchalarini ro'yxatga olish uchun pul yig'imi;
- qimmatbaho, qog'ozlardan olinadigan soliq;
- bojxona bojlari;
- xomashyo — material manbayini tiklash uchun RF budgetidan tashqari maxsus fondga kiritiluvchi to'lovlar;
- tabiiy zaxiralardan foydalanish uchun to'lovlar;
- jismoniy shaxslarning daromad solig'i;
- korxonalarining daromad solig'i;

- yo'l fondlarini tashkil etuvchi manba bo'lib xizmat qiluvchi soliqlar;
- tamg'a pul yig'imi;
- davlat boji;
- vorislik va hadya tartibida boshqa shaxslarga o'tish mulkiga soliq;
- «Rossiya», «Rossiya Federatsiyasi» nomlari va shu asosda tashkil topuvchi so'zlar va so'z birikmalarini ishlatish uchun pul yig'imi;
- korxonalarga transport solig'i.

Federal soliqlar (shu jumladan, stavkalarining miqdorlari), soliqqa tortilish obyektlari, soliq to'lovchilar va soliqlarning budgetga yoki budgetdan tashqari fondlarga kiritish tartibi RF qonuniyat hujjatlari bo'yicha belgilanadi va federatsiyaning butun hududida olinadi. Barcha respublika soliqlari umumiyligi majburiydir.

Rossiyada soliq tizimi idoraviy tegishliligi, mulkchilik turlari va korxonaning tashkiliy-xo'jalik turidan qat'i nazar, barcha tadbirkorlar va korxonalar uchun yagona tamoyillar asosida tashkil topadi. **Asosiy tamoyillar quydagilardir:**

- soliqqa tortishning bir maromda keskinligi;
- soliqqa tortishning bir martaligi, ikki marta soliqqa tortishga yo'l qo'yilmasligi;
- barqarorlik, egiluvchanlik (o'zgaruvchanlik), soddalilik, qulaylilik (tushunarilik), aniqlilik;
- oldindan stavkalarni, soliq miqdorini hisoblash va to'lash tartibini belgilash.

**RF tarkibidagi respublikalar, o'lkalar va viloyatlar, avtonom viloyat, avtonom okruglarning soliqlariga quydagi soliqlar kiradi:**

- korxonalarning mulkiga soliq, soliq bo'yicha to'lov summalari baravar hissالarda RF tarkibidagi respublikalar, o'lkalar va viloyatlarning respublika, o'lka, viloyat budgetiga, avtonom viloyatning viloyat budgetiga, avtonom okruglarning okrug budgetiga va soliq to'lovchilarning turadigan joylaridagi tumanlarning tuman budgetiga, shaharlarning shahar budgetiga o'tkaziladigan soliqlari;
- o'rmon solig'i;
- korxonalar suv xo'jaligi tomonidan olinadigan suv uchun to'lov;
- tabiiy zaxiralar uchun respublika to'lovlar.

Soliqlar RF qonuniyat hujjatlari bilan belgilanadi va uning barcha hududlarida olinadi. Bunda aniq stavkalar agar RF qonun hujjatlari bilan boshqacha belgilanmagan bo'lsa, RF tarkibidagi respublikalar qonunlari yoki o'lkalar, avtonom viloyatlar, avtonom okruglarning davlat tashkilotlarining qarorlari bilan belgilanadi.

**Mahalliy soliqlarga quydagilar kiradi:**

- jismoniy shaxslardan mulk solig'i. Soliqlar bo'yicha to'lovlar summasi soliq obyektining turar joyida (ro'yxatga olingan) mahalliy budgetga kiritiladi;
- yer solig'i — bu soliq bo'yicha tushumlarni tegishli budgetga kiritish yer to'g'risidagi qonuniyat bo'yicha belgilanadi;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan ro'yxatga olish to'lovleri, yig'im summasi ularning ro'yxatga olinish joylaridagi budgetga kiritiladi;

- kurort joylarida ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlarning qurilishiga soliq;
- kurort uchun pul yig'implari;
- savdo huquqi uchun pul yig'implari: pul yig'implari hokimiyatning tuman, shahar, jamoat, qishloq ijroiya tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Pul yig'implari bir martalik talon yoki vaqtinchalik patent olish yo'li bilan to'lanadi va tegishli budgetga butunlay to'lanadi;

- fuqarolardan va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda militsiyani saqlab turish, hududlarni obo-donlashtirish va boshqa maqsadlarda olinuvchi maqsadli pul yig'implari. Stavkalar davlat hokimiyatlarining tegishli tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslardan olinuvchi pul yig'implarining yillik stavkalari aniq chegaralanishga ega bo'ladi;

- reklamaga soliq: o'z mahsulotlarini reklama xizmatlari narxining 5 % dan oshmaydigan stavka bo'yicha reklama qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydi;

- avtomobil, hisoblash mashinalari va shaxsiy kompyuterlarni olib-sotish solig'i;

- it egalaridan pul yig'imi. Shaharlarda iti bor (xizmat itlaridan tashqari) jismoniy shaxslardan qonuniyat bilan belgilangan eng kam oylik maoshning 1/7 hissasidan ko'p bo'lmagan miqdorda pul yig'iladi;

- aroq-vino mahsulotlari bilan savdo qilish uchun litsenziya pul yig'imi. Aholiga aroq-vino mahsulotlarini sotuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan pul yig'iladi;

- mahalliy auksion va lotoreya o'yinlari o'tkazish huquqi uchun litsenziya pul yig'imi. Bularning tashkilotchilaridan auksionga qo'yilgan tovarining narxi yoki chiqarilgan lotoreya biletlarining summasining 10 % dan oshmaydigan miqdorda pul yig'iladi;

- kvartiraga order berish uchun pul yig'implari. Pul yig'implari jismoniy shaxslar alohida kvartira olgan vaqtida turar joyning umumiy maydoni va sifatidan kelib chiqqan holda qonun bilan belgilangan eng kam oylik maoshning 3/4 hissasidan ko'p bo'lmagan miqdorda pul yig'iladi;

- avtotransportni maxsus joyga qo'yish uchun pul yig'implari. Pul yig'implarini jismoniy va yuridik shaxslar avtomashinalarni maxsus jihozlangan joylarga qo'yish uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan miqdorlarda to'laydilar;

- mahalliy timsollardan foydalanish huquqi uchun pul yig'implari. Mahsulotlarda mahalliy timsollar (tamg'a, shahar ko'rinishlari va boshqalar) qo'llanuvchi ishlab chiqaruvchilar sotiluvchi mahsulotlar narxining 0,5 % dan oshmaydigan miqdorda pul to'laydilar;

• otchoparlarda ishtirok etish uchun pul yig‘imlari. O‘z otlarini tijorat maqsadlarida o‘tkaziladigan musobaqlarda qatnashtiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan miqdorlarda pul to‘laydilar;

• poygada yutuq uchun pul yig‘imlari. Pul yig‘imlarini otchopar poyga o‘yinida yutuq olgan shaxslar yutuq summasining 5 % dan ko‘p bo‘limgan miqdorda to‘laydilar;

• otchoparda poyga o‘yinida ishtirok etuvchilardan pul yig‘imi. Pul yig‘imlari o‘yinda ishtirok etish uchun belgilangan to‘lovga foizli ustama ko‘rinishida to‘lov summasining 5 % dan ko‘p bo‘limgan miqdorda to‘lanadi;

• birjalarda amalga oshiriladigan oldi-sotdi uchun pul yig‘imlari, qimmatbaho qog‘ozlar to‘g‘risidagi hujatlarda ko‘zda tutilgan oldi-sotdilar bundan istisno;

• kino va telesuratga tushirish uchun pul yig‘imlari. Pul yig‘imlarini mahalliy boshqaruvi organlaridan tashkiliy tadbirlarni talab etiluvchi suraga tushiruvchi tijorat kino va teletashkilotlar mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilangan miqdorlarda to‘laydilar;

• aholi joylashgan hududlarni tozalash uchun pul yig‘imlari. Pul yig‘imlarini mahalliy hokimiyatlar belgilagan miqdorlarda yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydilar;

• turar joy fondi va ijtimoiy-madaniy sohadagi obyektlarni saqlash solig‘i.

Mahalliy soliqlarning ko‘philigi RF qonuniy hujatlari bilan belgilanadi va uning barcha hududlarida olinadi. Soliqlarning aniq stavkalari respublikalarning qonuniy hujatlari yoki o‘lkalar, viloyatlar va tumanlarning davlat hukumat tashkilotlarining qarorlari bilan belgilanadi. Mahalliy soliqlarning ayrimlari hududi va shahar hokimiyati tashkilotlari tomonidan belgilanishi mumkin va mahalliy budgetlarga kiritiladi.

Soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi va to‘lanishi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasida bo‘ladi. Birinchi navbatda, barcha mulkiy soliqlar va bojlar to‘lanadi, ularning summasi soliqqa tortiluvchi daromad yoki soliqqa tortiluvchining foydasi hisobidan to‘lanadi. Undan keyin mahalliy daromad soliqlari to‘lanib, undan qolgan summadan barcha qolgan soliqlar hisoblab chiqariladi va to‘lanadi.

**Shaxsiy daromad solig‘i soliq to‘lovchi** — jismoniy shaxsning daromadidan (odatda, yillik) olinadi. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri olinadigan soliqlarning asosiy turlaridan biridir. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo‘yicha mavjud tartib Rossiya Federatsiyasining 1991-il 7-dekabr «Jismoniy shaxslardan daromad solig‘i olish to‘g‘risida»gi Qonuni bilan belgilanadi. Daromad solig‘ini to‘lovchilar: Rossiya Federatsiyasida doimiy turar joyi bor yoki yo‘q jismoniy shaxslardir, shu jumladan, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo‘q shaxslar. Jismoniy shaxslardan soliq olish obyekti joriy yil davomida olinan daromadining yig‘indisidir.

Soliqdan ozod etiluvchi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati qonun bilan belgilangan. Bu ro‘yxat Rossiya Federatsiyasi hududida yagona hisoblanadi. Ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan xalq ta’limi sohasidagi ishlab chiqarish va xizmatlar; kasallar va juda keksalarni parvarish qilish, dafn byurolarining xizmatlari, madaniyat va san‘at mussasalari, diniy birlashmalar, teatr-tomosha, sport va boshqa ko‘ngil ochish tadbirlari, shuningdek, davlat hisobidan bajariluvchi ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyiha ishlari hamda xalq ta’limi muassasalari tomonidan bajariluvchi xo‘jalik shartnomasi bo‘yicha ishlar QQS ni to‘lashdan ozod etiladi.

Qo‘shimcha qiymat solig‘ining stavkasi 20 % gacha qilib belgilangan.

Aksiz egri soliq bo‘lib, sotib oluvchi oladigan tovar narxiga qo‘shildi. Aksiz solig‘i, qo‘shimcha qiymat solig‘i kabi oborot va sotish soliqlari bekor qilingach, 1992-yil 1-yanvardan joriy qilingan.

**Aksizlarni to‘lovchilar** — bu mulkchilik shakllari va qaysi tashkilotga tegishliligidan qat‘i nazar, qonunda ko‘rsatilgan tovarlarni sotuvchi RF hududidagi barcha korxonalar va tashkilotlardir.

Soliqqa tortiluvchi obyektlar — bu aksiz osti tovarlarni o‘zi ishlab chiqargan va aksiz hisobiga kiritilgan sotilish narxлari bo‘yicha sotiladigan tovarlarning narxidir. Bunday aksiz to‘lanishi lozim bo‘lgan tovarlar hisobiga aroq-vino mahsulotlari, etil sperti, pivo, tamaki mahsulotlari, yengil avtomashinalar, 25 tonnagacha hajmli yuk avtomashinalari, zargarlik mahsulotlari, gayhar, qandillar, gilamlar va gilam mahsulotlari, mo‘yna mahsulotlari, shuningdek, asl teridan ishlangan kiyimlar kiradi. Aksiz summasi qo‘shimcha qiymat solig‘i manbayida hisobga olinadi. Aksiz solig‘i tovar turiga qarab summada yoki foiz hisobida undiriladi.

Korxona mulk solig‘i stavkalari ularning faoliyatiga qarab belgilanadi. Ammo korxonaning mulkiga soliq stavkasining oxirgi (yuqori) miqdorlari soliqqa tortiluvchi manbayining 2 % dan oshmasligi lozim. Alovida korxonalar uchun soliq stavkasini belgilash mumkin emas. Hisoblanadigan summa korxona faoliyatining moliyaviy natijalariga kiritish bilan (respublika, o‘lka, viloyat) budgetga birinchi navbatda to‘lanishi majburiydir.

Jismoniy shaxslarning mulkiga soliq to‘lovchilarga Rossiya fuqarolari, RF hududida soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan aniq mulkka ega bo‘lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar kiradi.

Ijtimoiy badallari (ijtimoiy soliqlar) korxonalarning ijtimoiy ta’minlash badallari va ish haqi hamda ish kuchi soliqlarini o‘z ichiga oladi. Ular qisman xodimlarning o‘zlarini tomonidan va qisman ish beruvchi tomonidan amalga oshiriluvchi to‘lovlardan iboratdir.

### 3. Belorus Respublikasi soliq tizimi

Belorus Respublikasi soliq tizimi asoslari 1991-yil 20-dekabrdagi 21323-XII — sonli «Belorus Respublikasi budgetiga undiriladigan soliqlar va yig‘imlar haqida»gi (qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar bilan) Qonun bilan

aniqlangan. Ushbu qonunda ko'zda tutilgan soliq va yig'imlardan tashqari respublika budgetiga qonunchilik tomonidan o'rnatilgan soliqdan tashqari ham to'lovlar kelib tushadi. Soliqlar va yig'imlarni mahalliy budgetlar hisobiga yozish «Belorus Respublikasida mahalliy va o'z-o'zini boshqarish haqida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Umum davlat soliqlaridan mahalliy budgetlar hisobiga o'tkazish miqdorlari har yili budget tasdiqlanganda Belorus Respublikasi qonuni bilan o'rnatiladi. Soliqqa tortish obyektlari, to'lov tartibi, stavkalari hamda imtiyozlar har bir soliq va yig'im turi bo'yicha respublika soliq qonunchiligining maxsus aktlari bilan ko'zda tutiladi.

Belorus Respublikasi soliq tizimi 26 ta soliq va boshqa to'lovlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ayrim soliqlar bir nechta mustaqil to'lovlar turidan tashkil topgan. Masalan, yo'l jamg'armasiga to'lovlar 7 xil turli soliqlarni, yig'imlar va chegirmalarni o'z ichiga oladi hamda ularning har biri o'z soliq manbayi bo'yicha hisob-kitob uslubiga ega. Belorus Respublikasi soliq tizimidagi muhim soliq turlaridan biri QQS hisoblanadi. EIX mamlakatlarida budgetga tushadigan tushumlarning jami miqdorining o'rtacha 10—20 % QQS ulushiga to'g'ri kelsa, Belorusda bu miqdor 25 % dan ortiqroqni tashkil qiladi. QQSni hisoblash tartibi Belorusda ham xuddi Rossiyadagi kabitidir. Asosiy stavka — 20 %, shu bilan birga 10 % va nolinchi foizli stavkalar ham qo'llaniladi. 10 % li stavka bo'yicha respublika hududida chorvachilik mahsulotlari, o'simlikshunoslik, baliqchilik, oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar uchun mahsulotlar sotilganda; sartaroshxona, ximhistka xizmatlari, kiyim-kechak, oyoq-kiyim, soatlar, murakkab uy-ro'zg'or texnikasi va yana boshqa ayrim tovar va xizmatlar soliqqa tortiladi. Nol foizli stavka eksport qilinadigan mahsulotlarga (Rossiyaga eksport qilishdan tashqari), qurilish ishlariga, transport xizmatlariga qo'llaniladi.

Aksizlar bo'yicha soliqqa tortiladigan obyektlarning soliq manbayi, aksiz osti tovarlar ro'yxati Belorus va Rossiyada qariyb bir-biriga mos keladi. Belorusdagi aksizlarni hisoblash xususiyatlari shundaki, unda Rossiyadagi kabi nafaqat maxsus stavkalar, balki umumlashtirilgan stavkalar ham qo'llaniladi. Buning ustiga ma'lum tovarlar turiga maxsus stavkalar milliy valutadagina emas, balki yevroda ham o'rnatilgan. Masalan, quyidagi aksiz stavkalari mavjud: ko'piklanadigan va shampan vinosiga 1 litrga 60 Belorus rubli, mikroavtobuslar va yengil avtomobilarga — 10 %, neft — 1 tonnasiga 16,6 yevro, dizel yoqilg'isining 1 tonnasiga 50 belorus rubli va hokazo.

Korxonalar foydasidan olinadigan soliq 30 % li stavka bo'yicha undiriladi. Dividendlar va yuridik shaxslarning unga tenglashgan daromadi 15 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi, bunda soliq daromad to'laydigan manba da saqlanib qoladi. Foya solig'i bo'yicha ko'plab imtiyozlar belgilangan. Xususan, nogironlar va nafaqaxo'rilar mehnatidan foydalanadigan tashkilot foydasi soliqqa tortilmaydi (ammo savdo-soti, va vositachilik faoliyatini bundan mustasno).

Qishloq xo'jalik korxonalarining yetishtirgan o'simlik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik mahsulotlarini sotishdan olgan foydasidan soliq olinmaydi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlari, yong'inga qarshi va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari uchun ishlatilgan bo'lsa, soliqqa tortiladigan foya foyda solig'i summasiga kamayadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari Belorusda va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha — soliq rezidentlari va Belorusdagi manbalaridan olingan soliq rezidentlari bo'lmagan shaxslar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib jismoniy shaxslarning pul va natura shaklidagi jami daromadi hisoblanadi. Soliqqa tortilmaydigan daromadlar ro'yxati va soliq chegirmalari qonunchilikda ko'zda tutilgan. **Soliq chegirmalari** quyidagi miqdorlarda ko'zda tutilgan:

- ish haqining eng kam miqdori;
- bir eng kam ish haqi miqdorida ishchining o'ziga;
- ish haqining eng kam miqdorining 2 barobarida har bir bola va boqimandaga;
- ish haqining eng kam miqdorining 10 barobarida jismoniy shaxslarning alohida toifalari uchun.

Soliq bo'yicha progressiv soliq stavkasi ko'zda tutilgan, u daromadlarning 5 ta aylanmasiga va ularga mos stavkalarga (9, 15, 20, 25, 30 %) ega. 15 % miqdordagi soliq stavkasi quyidagi daromad turlari uchun o'rnatilgan: aksiyalar bo'yicha dividendlar, yuridik shaxslarni tugatish va qayta tashkil qilish natijasidagi korxona faoliyatiga o'z hissasi bilan qatnashishidan olgan daromad. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar soliq imtiyozi va soliq chegirmalarisiz 20 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Alohida faoliyat turi daromadlaridan olinadigan soliq, ya'ni banklar daromadidan, sug'urta va qayta sug'urta qiluvchi tashkilotlar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan 30 % stavka bo'yicha soliq undiriladi; boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlar operatsiyasidan olgan daromadlaridan olinadigan soliq stavkasi — 40 %.

Respublikada alohida toifadagi soliq to'lovchilar uchun maxsus soliq tartiblari ko'zda tutilgan. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini qo'llaydigan tashkilotlar va yakka tadbirkorlar, yalpi tushumdan 10 % miqdorida soliq to'laydilar. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishturuvchilar yalpi tushumdan 5 % miqdoridagi yagona soliq to'loviga o'tish huquqiga egalar.

Mamlakat qonunchiligi tomonidan ko'plab **mahalliy soliqlar** o'rnatilgan:

- alohida ruxsatnomalar uchun yig'im: avtotransportlar vositalarining to'xtash joylarida yig'iladigan yig'im; baliqchilik va ovchilik yig'imlari, mahalliy ramzlardan foydalanish huquqi uchun yig'im, savdo-soti bilan shug'ullanish huquqi yig'imi, it egalaridan yig'iladigan yig'im, auksionlar o'tkazish huquqi uchun yig'im, kurort yig'imi, kurort joylarida qurilish qilish uchun yig'im;

- reklama solig'i;
- maqsadli yig'imlar: transport yig'imi, shahar (tuman) infratuzilmasini ta'minlash va rivojlantirish yig'imlari;
- yovvoyi o'simliklar, qo'ziqorinlar, shifobaxsh o'simliklarni tayyorlash uchun yig'im;
- chakana savdo tarmog'ida tovarlarni sotishdan olinadigan soliq;
- mehmonxonalar, restoranlar, barlar, qahvaxonalar xizmatlari uchun yig'im.

Mahalliy tashkilotlarning soliqqa tortish sohasidagi vakolatlari Belorusda va Rossiyada farq qiladi. Masalan, Belorusda hukumatning mahalliy tashkilotlari stavkalarni nafaqat pasaytirish, balki oshirish, ularning budjeti hisobiga o'tkaziladigan alohida soliqlar bo'yicha yakka tartibda imtiyozlar berish huquqiga egalar. Muhim tomoni shundaki, taklif qilinayotgan o'zgarishlar QQS, foyda solig'i, aksiz yig'imlari, mol-mulk va resursli soliqlar hamda yig'imlar kabi soliqqa tortishning maxsus qonun aktlarida ko'zda tutilgan to'lovarga ta'sir qilmaydi.

#### **4. Ukraina Respublikasi soliq tizimi**

Ukraina qonunlari o'rnatgan tartibda budgetlar va maqsadli davlat fondlariga undiriladigan soliqlar va yig'imlar majmuyi mamlakatning soliq tizimini tashkil qiladi. Ukrainada 17 ta umum davlat, 16 ta mahalliy soliqlar va yig'imlar undiriladi. QQS 1992-yilda kiritilgan bo'lib, uning ulushi barcha soliq tushumlarining 60 % ni tashkil qiladi. Ko'pchilik mamlakatlardan farqli, QQS unifikatsiya qilingan stavka bo'yicha undiriladi, shuning uchun bu soliq bo'yicha ko'plab imtiyozlar ko'zda tutilgan. Eksportga yuklangan mahsulotning qiyamati soliqqa tortish obyekti bo'lib hisoblanadi. Bunda QQSning to'langan miqdori korxona hisobiga kelib tushgan tushumdan keyin qoplanadi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq bo'yicha to'lovchilar doirasi, hisob-kitob uslubi xuddi Rossiyadagi kabidir. Qabul qilingan tartibga asosan, tamg'a solig'i ham umum davlat soliqlariga kiradi. Uning to'lovchilari xususiy mulk shaklidan qat'i nazar, soliqqa tortish obyekti bo'lib, aniqlangan hujjatlarni va markalashni amalga oshiradigan barcha xo'jalik faoliyatini yuritadigan subyektlar hisoblanadilar. Ijro etuvchi hokimiyat tashkilotlari tomonidan beriladigan hujjatlardan tashqari barcha xo'jalik shartnomalari, veksellar markalashtirilishi lozim. Tamg'a yig'imi stavkasi ustav fondi miqdoriga, shartnomaga va veksellar bo'yicha to'lov miqdorlari summasiga bog'liq holda belgilanadi. Tamg'a yig'imi markalari jamg'arma banklarining boshqarmalari va uning hududiy boshqarma va bo'limlari orqali soliladi.

Qishloq xo'jalik tovarlari va baliq mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar yer solig'ini teng ulushlarda 15-avgust va 15-noyabrgacha, qolgan to'lovchilar — hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar to'laydilar.

Suv uchun to'lov suv resurslaridan maxsus ishlar uchun, suvdan energetika ehtiyojlari uchun foydalanganligi uchun, suvni xususiy ishlab chiqarish

ehtiyojlari uchun ishlatgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan barcha subyektlar tomonidan to'lanadi. To'lov me'yori 1 m kub uchun absolut miqdorda aniq daryolar va basseynlari bo'yicha darajalangan holda Ukraina Vazirlar Mahkamasи qarorlari bo'yicha tasdiqlanadi. Belgilangan me'yorlarga quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi: uy-joy va kommunal xo'jalik korxonalar, hovuzlari va ko'lli xo'jaliklar uchun — 0,1 %, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilar uchun — 0,2 %, issiqlik va atom elektr stansiyalari uchun — 0,5 %, guruch yetishtiruvchilar uchun — 0,8 %.

Barcha daryolar suv resurslaridan maxsus foydalanganlik uchun gidroelektrostansiyalarning me'yoriy to'lovi, turbinadan o'tgan har 100 m kub suv uchun hisoblanadi. Limitdan yuqori darajada suvdan foydalanganlik uchun 5 marotaba ortiq to'lov undiriladi. To'lovning haqiqiy summasi har chorakda foydalilanilgan suvning haqiqiy hajmi me'yorli imtiyozlardan keilib chiqqan holda aniqlanadi. To'lov budgetga hisobot choragidan keyingi oyning 20-kuniga qadar to'lanadi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimi o'z ichiga 2 ta soliq va 14 ta yig'imi oladi. Kommunal soliq va quyidagi yig'imlar majburiy bo'lib hisoblanadi: savdo-sotiq va xizmatlar doirasi obyektlarini ko'chirishga ruxsat berishdan, bozor, kvartiraga order berishdan, it egalaridan olinadigan yig'imlar. Qolgan soliqlar mahalliy tashkilotlar ixtiyoriga bog'liq holda ma'lum hududlarda joriy qilinadi.

Ko'pchilik mahalliy soliqlarning tuzilishi, hisob-kitob va undirish tartibiga ko'ra, Rossiya soliq tizimiga o'xshashi bilan birga, o'ziga xos soliqlar ham mavjud. Masalan, kommunal soliq.

Kommunal soliq to'lovchilari bo'lib budget tashkilotlari, qishloq xo'jalik va rejali dotatsiyali korxonalardan tashqari barcha yuridik shaxslar hisoblanadilar. Soliqning chegaraviy miqdori yillik ish haqi fondining 10 % miqdorida belgilangan.

Avtotransportda chet elga chiqmoqchi bo'lgan yuridik shaxslardan chegaroldi hududidan chet elga chiqish uchun avtotransportda o'tganligi sababli yig'im olinadi. Ukrainada yuridik shaxslar va fuqarolar uchun soliq stavkasing chegaraviy miqdori fuqarolar daromadlari soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorining yarmini tashkil qiladi, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari uchun esa 5 dollar dan 50 dollar gacha yig'im undiriladi. Aniq stavkalar avtomashina markasi va ot kuchi quvvatiga bog'liqdir.

Bozor yig'imi bozorlarda ochiq peshtaxtalarda, avtomashinalarda, mototsikllarda, qo'l aravachalarda vaqtinchalik do'konlarda tovar savdosotig'i bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Bu yig'im alohida binoga ega bo'lgan savdo-sotiq statsionar punktlaridan, umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinmaydi. Soliq stavkasi mahalliy hukumat tashkilotlari tomonidan quyidagi chegaralarda o'rnatiladi: yuridik shaxslar uchun 3 minimal ish haqidan ortiq bo'Imagan; fuqarolar uchun minimal ish haqidan 20 % dan ortiq bo'Imagan. Mehmonxonada yashovchilar mehmonxona yig'imi to'lovchilar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti — qo'shimcha xizmatlarsiz ijara olingan xonaning bir

kunlik qiymati hisoblanadi. Stavka ijaraga olingan xonaning bir kunlik qiymatining 20 % dan ortiq bo'Imagan miqdorida belgilanadi.

Ukraina qonunchiligi Ukraina davlat budgetiga kiritiladigan maqsadli fondlariga chegirmalarni ham ko'zda tutadi (nafaqa fondi va ijtimoiy sug'urta fondidan tashqari).

Avtomashinalardan foydalanib, olgan daromadlaridan soliq to'lovchilar bo'lib, mulkka egalik shaklidan qat'i nazar, yuk tashishni amalga oshiradi-gan avtotransport tashkilotlari hamda to'lov tarifi bo'yicha yuk tashishni amalga oshiradigan har qanday boshqa tashkilotlar hisoblanadilar. Av-totransportdan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanadigan tashkilotlarga ajratmalarни amalga oshirmaydilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, QQSsiz, avtomashinadan foydalanib, olingan daromad hisoblanadi. Stavka 2 % miqdorida belgilangan. Yig'im tashish ta'rifiiga kiritiladi.

Ukraina avtomobil yo'llaridan o'tganligi uchun yig'im, chet el davlatlari transport vositalari egalaridan Ukraina bojxona chegaralaridan o'tayotganda, Ukraina milliy banki tomonidan belgilanadigan valutada undiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, shartnomaning yetkazib berish bazisli shartiga ko'ra, ushbu yig'im Ukraina korxonasi tomonidan ham to'lanishi mumkin. Yig'im stavkasi transport vositasi turi, uning quvvati va yuk ko'tarish qobiliyatiga ko'ra belgilangan. Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan yig'imni transport vositasining og'irligi va kattaligi, o'rnatilgan me'yorlaridan oshadigan Ukraina rezidentlari ham to'laydilar.

Barcha tashkilotlar, mulkka egalik qilish shaklidan qat'i nazar, Ukraina qonunchiligiga asosan nogironlarni ish bilan ta'minlash uchun ish joylari yaratishlari kerak. Mahalliy hukumat tashkilotlari bunday ishchi o'rinalarining umumiy ishchilar sonining 4 % dan kam bo'Imagan miqdorida me'yorlarni belgilaydilar. Agar tashkilotlar belgilangan me'yorlar bo'yicha ishchi o'rinalarini yaratmasalar, ular kasbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun aytib o'tilgan fondlarga mablag'lar o'tkazishga majburlar. Ajratmalar miqdori nogironlarni ish bilan ta'minlash uchun yaratilmagan har bir ishchi o'rni uchun 1 ta ishchining o'rtacha yillik ish haqi miqdorida belgilangan. Ajratmalar summasi to'lovchining yalpi xarajatlari tarkibiga kirmaydi, ya'ni korxonaning foydasi hisobidan to'lanadi.

Davlat innovatsion fondi yig‘imi to‘lovchilari bo‘lib, shaxsiy mulk shakliga bog‘liq bo‘limgan holda, barcha tadbirkorlik faoliyati subyektlari hisoblanadilar. Ushbu yig‘im QQS va aksiz yig‘imi chegirilgan holda sotilgan mahsulot (amalga oshirilgan ish, xizmat) qiymatining 1 % miqdorida to‘lanadi. O‘tkazilgan yig‘im summasi korxonaning valpi xarajatlariiga kiradi.

## **5. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi**

Qozog‘istonda davlat budgetini tartibga soluvchi manbalar hisoblangan umum davlat soliqlari va mahalliy budgetlarning daromad manbayi bo‘lgan mahalliy soliqlar mavjud.

Qozog'iston Respublikasi soliq tizimining asosiy soliqlaridan biri QQS hisoblanadi. QQSni hisob-kitob qilishning umumiy tartibi ilg'or G'arbiy Yevropa mamlakatlarining tajribasidan o'zlashtirilgan. Soliqqa tortish va soliq manbayi Rossiyadagi kabi aniqlanadi. QQSni to'lovchilar barcha yuridik shaxslar va doimiy tashkilotlar orqali faoliyat yuritadigan Qozog'iston Respublikasi norezidentlari; yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshradigan jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Yuridik shaxs bo'linmalari Qozog'iston Respublikasi Davlat Daromadlari vazirligining ruxsatiga asosan QQSni mustaqil to'lashlari mumkin. Soliq to'lovchilar uchun soliq to'lash tartibi katta ahamiyatga ega. Qozog'istonda sotib olingan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha QQS xaridorlar tomonidan to'lanadigan to'lovga bog'liq bo'limgan holda chegiriladi. Soliq manbayini aniqlashdagi xususiyatlarni ham aytib o'tish lozim, jumladan, aksiz osti tovarlar bo'yicha aksiz summasi soliq manbayiga kiritilmaydi. Bundan tashqari import qilinadigan tovarlar soliq manbayi bo'lib, faqat tovarlar va transport vositalarining bojxona qiymati kiradi. Bu esa bir marta soliqqa tortish tamoviliga mos keladi.

QQSning asosiy stavkasi soliqqa tortiladigan oborotdan 20 % miqdorida belgilangan, 10 % miqdoridagi pasaytirilgan stavka esa, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, jonli og'irlikdagi chorva va parrandalar, bolalar va diabetli oziqlanish mahsulotlari, maxsus ro'yxat bo'yicha omuxta yem uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, eksport qilinadigan tovarlar, yo'lovchilar, tovarlar, hayvonlar, bagaj va pochtani xalqaro tashish nolinchi stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilari Qozog'iston Respublikasi Milliy bankidan tashqari barcha yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, shu bilan birga yuridik shaxslar — norezidentlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar hisoblanadilar. Soliqqa tortish obyekti bo'lib, umumiy yillik daromad va tegishli chegirmalar orasida bo'lgan farq soliqqa tortiladigan daromad hisoblanadi. Soliq to'lovchi — rezidentning umumiylar daromadi Qozog'istonda va undan tashqarida olingan daromadlardan tashkil topadi, norezidentlarning umumiylar daromadiga esa faqat Qozog'iston hududida olingan daromadlar kiradi.

**Umumiy daromadga quyidagi faoliyatdan olingan daromadlar kiradi:**

- tadbirkorlik faoliyatidan olingen daromadlar;
  - ish haqi va nafaqa to'lovlari ko'rinishida olinadigan daromadlar;
  - jismoniy shaxslarning mol-mulkdan olgan daromadi.

**Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarga quyidagilar kirdi:**

- mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan, yuklab jo'natilgan mahsulot uchun, bajarilgan ishlar ko'rsatilgan xizmatlar uchun barcha pul va boshqa mablag'lar, barcha boshqa operasiyalar uchun olingan yoki olinadigan daromadlar, shu jumladan, o'zaro hisob-kitoblar tartibida uchinchi shaxslarga yo'naltirilgan yoki to'g'ri va egri xarajatlarni qoplash uchun;

• binolar va qurilmalarni sotishdan olingen qo'shimcha daromadlar hamda inflatsiyaga qarab, amortizatsiya qilinmaydigan aktivlarni sotishdan olingen daromadlar;

• sotuvdan tashqari olingen daromadlar — dividendlar, foizlar bo'yicha daromadlar, qaytarmaslik sharti bilan olingen pul mablag'lari va mol-mulk, yuridik shaxslarga berilgan subsidiyalar (davlat budgetidan berilgan subsidiyalar bundan mustasno), mol-mulkni ijaraga berishdan olingen daromadlar, tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'yish yoki tugatish uchun berilgan rozilikdan olingen daromadlar, qarzlarni kechishdan olingen daromadlar, qoplanadigan chegirmalar va ayrim boshqa daromadlar.

Ish haqi ko'rinishidagi olinadigan daromadlarga jismoniy shaxsning yollanib ishlagandagi barcha daromadlari; korxona ishchilariga sotiladigan xizmatlar yoki tovarlar qiymatining, ushbu tovar yoki xizmatning haqiqiy bahosi yoki tannarxi orasidagi manfiy musbatdan paydo bo'lgan farq yoki daromad; ish beruvchi tomonidan ishchi foydasiga qarzlarni kechishdan olingen daromad; ish beruvchi tomonidan o'z ishchisining sug'urta qilinishi; ish beruvchi tomonidan o'z ishchisining xarajatlari qoplanishi, qaysiki, ishchi uchun bu to'g'ri yoki egori daromad hisoblanadi.

Umumiy ishchilar sonining 30 % dan kam bo'Imagan miqdorini nogironlar tashkil qilgan ishlab chiqarish korxonalarining umumiy yillik daromadi, soliqqa tortish maqsadida ikki barobarga kamayadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari daromad solig'iga tortilmaydi: davlat nafaqlari, stipendiyalar, kasallik varaqasi bo'yicha to'lovlar, bolalar va boqimandalarga alimentlar, bir jismoniy shaxsdan ikkinchi jismoniy shaxsga sovg'a yoki meros hamda gumanitar yordam sifatida olingen mulk qiymati, budgetdan berilgan moddiy yordam.

Yuridik shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi 30 % stavka bilan soliqqa tortiladi. Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasnodir. Ular bevosita yerdan foydalangan holda topgan daromadlaridan 10 % stavka bo'yicha soliq to'laydilar. Yuridik va jismoniy shaxslarga to'lanadigan foizlar, dividendlar, to'lov manbayining o'zida 15 % stavka bo'yicha soliqqa tortiladi va qaytib soliqqa tortilmaydi. **Doimiy tashkilotlar bilan bog'liq bo'Imagan norezidentlarning Qozog'istonidagi manbalardan olingen daromadi, to'lov manbayida quyidagi stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi:**

- dividendlar va foizlar — 15 %;
- sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lanadigan sug'urta to'lovlar;
- Qozog'iston va boshqa davlat orasidagi xalqaro aloqa yoki yuk tashishning telekommunikatsion va transport xizmatlari — 5 %;
- royligi, boshqaruv xizmatlar ko'rsatishdan olingen daromadlar, konsultatsiya xizmatlari, ijaradan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar — 20 %.

Jismoniy shaxslarning umumiy soliqqa tortiladigan daromadi maxsus jadval bo'yicha daromad miqdoriga bog'liq holda tabaqlashtirilgan stavkalar bo'yicha soliqqa tortiladi.

Aksiz solig'iga nafaqt Qozog'iston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar, balki import tovarlar va qimor o'yinlari ham tortiladi. Aksiz osti tovarlar ro'yxati ichki ishlab chiqarish uchun ham, import tovarlar uchun ham bir xil, ammoy Rossiyanadan farqli ancha tovarlar doirasini o'z ichiga oladi. Aniq stavkalar respublika hukumati tomonidan belgilanadi. Bunda qat'iy va foizli stavkalar bir-biridan farq qiladi.

Agar aksiz osti mahsulot Qozog'iston hududida aksiz solig'iga tortilgan xomashyodan ishlab chiqarilsa, sotiladigan mahsulotga belgilangan aksiz solig'i miqdori xomashyodan olingen aksiz summasiga kamayadi. To'lov muddatlari aksiz osti tovarlar turiga bog'liq. Bunda soliq to'lovchi hisoblash uslubi yoki xazina uslubi bo'yicha sotish vaqtini mustaqil aniqlaydi. Etil spirti, aroq, spirtli ichimliklar, sok va balzamlar, vino, konyak, shampman vinosi, pivo uchun aksiz solig'i ushbu tovarlar sotilgan kundan keyingi uch kun orasida budgetga to'lanishi shart.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish shartnomalarning asosiy turlaridan kelib chiqqan holda ikki turga bo'linadi. Birinchi tur yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning Qozog'iston qonunchiligi hujjalarda belgilangan barcha turdag'i soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lashni ko'zda tutadi. Ikkinci tur yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning mahsulot taqsimlanishi bo'yicha Qozog'iston Respublikasi ulushini hamda quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlarini to'lashni nazarda tutadi: yuridik shaxslarning daromad solig'i, chet el yuridik shaxsi hisoblangan doimiy muassasa daromadi, QQS, royligi, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yig'im, alohida faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun beriladigan huquqlar uchun yig'im va boshqa majburiy to'lovlar.

Soliq qonunchiligining takomillashuvi — Qozog'iston iqtisodini isloq qilishning dolzarb yo'nalişlaridan biridir.

## 6. Ozarbayjon Respublikasi soliq tizimi

Ozarbayjon Respublikasi hukumati iqtisodiy islohotlar dasturini qabul qildi. Unga asosan 2—3 yil ichida budjet defitsitini keskin qisqarishini ko'zda tutgan monetar siyosatni amalga oshirish, soliqqa tortishning yuqori stavkalarini, davlat xarajatlarini va pul emissiyasini qisqartirish, qarzlar bo'yicha foiz stavkalarining ko'payishi rejalashtirildi. Ushbu choralarining amalga oshishi inflatsiya darajasining pasayishiga olib keldi.

Mahalliy soliqlar Soliq Kodeksiiga asosan va mahalliy hokimiyat qarorlari bo'yicha belgilanadigan mahalliy hokimiyatlar hududlarida to'lanadigan soliqlardir.

### Davlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- jismoniy shaxslar daromad solig'i;
- yuridik shaxslar foya solig'i (mahalliy hokimiyatlar mulki bo'lgan korxona, tashkilotlardan tashqari);

- qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- aksizlar;
- yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- yo'l solig'i;
- yer osti boyliklari daromadidan olinadigan soliq.

**Avtonom respublika soliqlariga yo'l solig'idan tashqari yuqorida sanab o'tilgan barcha soliqlar kiradi. Mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:**

- jismoniy shaxslar yer solig'i;
- jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i;
- mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish materiallari boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mahalliy mulkka ega bo'lgan korxona va tashkilotlarning foya solig'i;
- soddalashtirilgan tizim bo'yicha undiriladigan soliq.

Davlat soliqlarining qat'iy stavkalarini Ozarbayjon Respublikasi Soliq Kodeksi belgilaydi. Har bir alohida yilda qo'llaniladigan davlat soliqlari stavkalari, «Ozarbayjon Respublikasi davlat budgeti haqida»gi Qonun qabul qilinganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin, ammo Soliq Kodeksi belgilagan chegaraga amal qilinadi.

Ozarbayjon Respublikasida alohida soliq tartiblari qo'llanilishi mavjud bo'lib, bu ma'noda maxsus soliqlarning hisoblanishi va to'lanishi tushuniladi, bunda Soliq Kodeksida ko'rsatilmagan soliqlarning belgilanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Budgetning daromad bazasining shakllanilishida foya solig'i, QQS, aksizlar, jismoniy shaxslar daromad solig'i va boshqa soliqlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ozarbayjon Respublikasida foya solig'ini to'lovchilar — rezident va norezident — korxonalar hisoblanadilar. Rezident — korxona uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib, uning foydasi hisoblanadi. O'zining doimiy vakilligi orqali Ozarbayjon Respublikasida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan norezident — korxona, Ozarbayjon Respublikasi hududidagi manbadan olayotgan yalpi daromadi summasiga teng bo'lgan foydasidan soliq to'laydi.

Agar ishlab chiqarish korxonalari jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lsa va jami ishchilarining 50 % ni nogironlar tashkil qilsa, undan olinadigan foya solig'inining stavkasi 50 % ga kamayadi.

Yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar chorak tugagandan so'ng 15 kun ichida budgetga joriy to'lovlarni to'lashlari shart. Mahalliy hokimiyatlar ixtiyorida bo'lgan korxona va tashkilotlar daromad solig'ini mahalliy budget hisobiga o'tkazadilar, 2005-yilda esa 27 % miqdorida stavka qabul qilindi.

QQS Ozarbayjon Respublikasi hududida ishlab chiqarish jarayonida, tovar aylanmasida, bajarilgan ishlar yoki xizmat ko'rsatishda qo'shilgan qiymatning o'sish qismining budgetda saqlab qolish shakli hamda Ozarbayjon Respublikasi hududiga kiritilgan barcha soliqqa tortiladigan tovarlar qiyomatining bir qismidir. QQS to'lovchisi ro'yxatdan o'tgan yoki ushbu soliqni

to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tishi lozim bo'lgan shaxs hisoblanadi. Ro'yxatga olish kuchga kirgan paytdan boshlab, ro'yxatga olingan shaxs soliq to'lovchiga aylanadi. Bundan tashqari Ozarbayjon Respublikasida soliqqa tortiladigan importni amalga oshiradigan barcha shaxslar, ushbu tovarlar importi bo'yicha QQS to'lovchilari hisoblanadilar.

2005-yil boshidan esa 18 % qilib belgilandi.

Aksiz osti tovarlariga oziq-ovqat spirti, xamirturush, pivo va barcha spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va neft mahsulotlari kiradi. Aksiz stavkalari Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ozarbayjon Respublikasida aksiz osti tovarlarni ishlab chiquvchi yoki importni amalga oshiruvchi barcha korxonalar va jismoniy shaxslar hamda bevosita yoki pudratchilar orqali Ozarbayjon Respublikasidan tashqarida aksiz osti tovarlarini ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarish joyida soliq to'lovchi sifatida hisobda bo'lmagan Ozarbayjon Respublikasi rezidentlari aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanadilar.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lovchilar: rezident va norezident jismoniy shaxslardir. Rezidentlarning daromadi bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt soliq yilidagi jami daromadlar bilan ushbu davrdagi soliq kodeksida belgilangan chegirmalar o'rtaсидаги farq bilan aniqlanadi. O'zining doimiy vakilligi orqali Ozarbayjon Respublikasida faoliyat yuritayotgan norezident — daromadlardan daromad solig'i to'lovchilar hisoblanadilar. Soliqqa tortiladigan daromad deganda, ma'lum bir ish davomida doimiy vakillik bilan bog'liq ravishda Ozarbayjon Respublikasi hududidagi manbalardan olingan jami daromad bilan ushbu davr ichidagi xarajatlar farqi tushuniladi. O'z faoliyati, mahsulot sotishi, mulkini ijara berish natijasida daromad oladigan norezident — jismoniy shaxs joriy yil davomida Ozarbayjon Respublikasi manbalardan olingan va Soliq Kodeksida ko'zda tutilgan chegirmalar summasiga kamaytirilgan daromad solig'i to'lovchisi hisoblanadi.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar quyidagilar: joriy yilning birinchi yanvarida soliqqa tortiladigan obyekt bo'lgan jismoniy shaxslar, rezidentlar va norezidentlar hamda korxonalar, Ozarbayjon Respublikasi hududida o'zining doimiy vakilligi orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan norezident korxonalar. Soliqqa tortish obyektiga quyidagilar kiradi: Ozarbayjon Respublikasi hududida joylashgan va jismoniy shaxslarning xususiy mulki hisoblangan binolar hamda jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar, qayerda joylashganligi va undan foydalaniladimiyo'qmi, bundan qat'i nazar, suv va havo transporti qiymati, korxona balansida bo'lgan avtotransport vositalari qiymati.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini belgilangan stavkalar bo'yicha quyidagi tartibda to'laydilar: ularning xususiy mulki bo'lgan binolarning inventarizatsiya qiymatidan — bu qiymat oylik daromadning soliqqa tortilmaydigan qismidan 300 barobardagi miqdorida oshmasa, soliqdan ozod etiladi, aks holda 0,1 % miqdordagi stavka bo'yicha soliqqa tortiladi; havo

va suv vositalari transporti uchun: suv va havo transporti dvigateli hajmi ning har bir kub sm uchun — soliqqa tortilmaydigan oylik daromadning 0,2 % miqdorida; dvigateli bo‘lмаган suv va havo transporti uchun — ularning bozor qiymatining 1 % miqdorida. Korxonalar mol-mulk solig‘ining asosiy vositalar qiymatidan 1 % stavka bo‘yicha to‘laydilar.

Binolarga solinadigan soliq Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlanadigan, ularning inventar qiymati bo‘yicha ma‘lumotlarga asosan har yili 1-yanvar holati bo‘yicha hisoblanadi. Joriy yil uchun soliq summasi teng ulushlarda 15-avgust va 15-noyabrdagi to‘lanadi.

Yer solig‘i, yer egalari va foydalanuvchilarning xo‘jalik faoliyati natijasidan qat‘i nazar, yer joylarining kattaligi uchun doimiy har yili to‘lanadigan to‘lov sifatida qaraladi. Rezident va nerezident jismoniy shaxslar hamda korxonalar yer joylariga egalik huquqiga ega bo‘lgan, mahalliy hokimiyatlarning jismoniy shaxslari bir oy ichida soliq tashkilotlaridan ro‘yxatdan o‘tishi shart.

Ozarbayjon Respublikasi hududida yer joylariga ega bo‘lgan yoki foydalanadigan quyidagi rezident va nerezident shaxslar yer solig‘i to‘lovchilari hisoblanadilar: rezident va nerezident jismoniy shaxslar; rezident — korxonalar; sho‘ba korxonalar va bo‘linmalari; Ozarbayjon Respublikasi hududida o‘zining doimiy vakilligi orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan nerezident korxonalar.

Yer solig‘i yerga egalik qilish va foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida belgilanganadi. Korxona har yili, yer joylari kattaligi va soliq stavkasidan kelib chiqqan holda yer solig‘ini hisoblaydilar va 15-mayga qadar bu hisobotlarni soliq tashkilotlariga taqdim etadilar. Jismoniy shaxslar yer solig‘ini hisoblash tegishli tashkilotlar tomonidan har yili 1-iyulga qadar hisob-kitob qilinib, soliq to‘lovchilarga bu haqda xabarnoma birinchi avgustga qadar taqdim etiladi. Yer solig‘i teng ulushlarga budgetga 15-avgust va 15-noyabrga qadar to‘lanadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq Ozarbayjon Respublikasi hududida va Ozarbayjon Respublikasiga tegishli Kaspiy dengizi ostida joylashgan foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun undiriladi. Ushbu soliqni foydali qazilmalarni qazib oladigan quyidagi shaxslar to‘laydilar; rezident va nerezident jismoniy shaxslar; rezident — korxonalar; ko‘rsatilgan korxonalarning mustaqil balans va hisob raqamiga ega bo‘lgan filiallari; Ozarbayjon Respublikasi hududida doimiy vakilligi orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan nerezident korxonalar. Soliqqa tortish obyekti Ozarbayjon Respublikasi hududidagi yerlardan qazib olinadigan foydali qazilmalar hisoblanadi.

Davlat bojlari quyidagi hollarda undiriladi: sudga da’vo arizasi berilgan, notarial jarayonlar o‘tkazilganda, fuqarolik holati bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishda, chet elga chiqishni rasmiylashtirishda hamda taklifnomalar, shaxsniga tasdiqlovchi guvohnomalar olishda, fuqarolikni qabul qilish va undan chi-

qishda, patentlar berilganda, ov qilishga ruxsat berilganda, yuridik shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazganda va qayta ro‘yxatdan o‘tkazganda, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziya berilganda hamda qimmatli qog‘ozlar emissiyasi prospektini ro‘yxatdan o‘tkazishda. Boj stavklari Ozarbayjon Respublikasi hukumatining maxsus qarorlari bilan aniqlanadi. Alovida boj turlari uchun ayrim imtiyozlar ko‘rsatiilgan. Jumladan, ish haqi va ishga joylashish bo‘yicha da’vo arizalari berilganda, moddiy zararni qoplashda va boshqa holatlarda. Bir martalik bojlar soliq to‘lovchiga tegishli patta berilganda naqd pulda undiriladi. Barcha bojlar miqdori daromad solig‘iga tortilmaydigan minimal oylik ish haqi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ozarbayjonda davlat nafaqa jamg‘armasi faoliyat ko‘rsatib, uning mablag‘lari nafaqa va boshqa davlat nafaqalarini to‘lash uchun yo‘naltirilgan. Bundan tashqari nafaqa fondidan aholining alohida guruhlari uchun turli nafaqalar va kompensatsiyalar to‘lanadi. Fond mablag‘lari ijtimoiy sug‘urta solig‘i va davlat budgeti mablag‘lari hisobidan tashkil topadi. 1993-yilgacha ijtimoiy sug‘urta solig‘i stavkasi ish haqi fondining — 40 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 1993-yildan boshlab — 35 %, 2000-yilda — 33 %, 2001-yildan boshlab esa — 30 % ni tashkil qiladi.

### Nazorat savollari:

1. MDH davlatlarida soliq munosabatlarining uyg‘unlashuvi va soliq islohotlaridagi rivojlanishlarning asosiy omillari nimalardan iborat?
2. Davlat budgetida soliqlar o‘rnini qanday?
3. Soliq tizimi qanday tadbirkorlarni rag‘batlantiradi?
4. Rossiya soliq tizimida qanday kamchiliklar bor?
5. Soliqlar to‘lash miqdori qanday bo‘lishi kerak?
6. Soliqlar tizimi islohotlariga nimalar kiradi?
7. Rossiya soliq tizimi tuzilishi tamoyillar?
8. Rossiya iqtisodidagi soliqlarning guruhlanishi qanday?
9. Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi qanday tuzilgan?
10. Ukraina soliq tizimi qanday tuzilgan?

10-bob.

## O'ZBEKISTON AMALIYOTIDAGI SOLIOLAR

#### **1. O‘zbekiston amaliyotida joriy qilingan soliq turlari**

Bir xil mohiyatga ega va o‘zaro munosabatda bog‘liq bo‘lib, markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisiga **soliqlar tizimi** deb ataladi. Bu ta’rifda soliq va yig‘imlar yagona mohiyat, ya’ni «majburiy xarakterga ega bo‘lgan munosabat» hamda ularning bir-biri bilan bog‘liqligi va nihoyat, budgetga tushishligini ko‘rsatadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya’ni davlatning budgetdan tashqari fondlariga (nafaqa, ijtimoiy sug‘urta, bandlik, yo‘l fondlari va boshqalar) to‘lovlarni ham majburiylik nuqtayi nazaridan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5—8-moddalariga binoan, soliqlar tizimi quyidagi tarkibga ega bo‘lib, unga keyingi o‘zgartirishlar ham kiritilgan.

## O‘zbekistonda soliqlar tizimi tarkibi

Umum davlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va yig'imirlar
1. Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq.	1. Mol-mulk solig'i.
2. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq.	2. Yer solig'i.
3. Qo'shilgan qiymat solig'i.	3. Yagona soliq.
4. Aksiz solig'i.	4. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
5. Yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i.	5. Jismoniy shaxslardan iste'mol solig'i.
6. Ekologiya solig'i.	6. Jismoniy shaxslar chetdan tovarlar olib kelganligi uchun yagona bojxona to'lovi.
7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.	7. Savdo huquq yig'imi, shu jumladan alohida tovarlar turlarini sotish litsenziya yig'imi.
8. Savdo va umumiyligi ovqatlanish tashkilotlaridan yalpi daromad solig'i.	8. Ishbilarmonlik bilan shug'ullanuvchi huquqiy hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi.
9. Bojxona boji.	9. Boshqa to'lovlar.
10. Davlat to'lovlar.	
11. Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi.	
12. Boshqa daromadlar.	

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda Soliq Kodeksida 8 ta umum-davlat (respublika) soliqlari va 5 ta mahalliy soliqlar ko‘rsatilgan. O‘zgartirishlar bilan ularning soni yig‘imlari ham qo‘shib ko‘rsatilgan. Soliq va yig‘imlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, oqibat natijasida ular huquqiy va

jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig‘imlarning jami yig‘indisi summasi nisbati bilan soliq og‘irligini yalpi ichki mahsulotga aniqlash mumkin.

Soliqlarni obyekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhash. Soliqlarni guruhash iqtisodiyotga ijobiyligi va salbiy ta'sirlarni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
  2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
  3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.
  4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.
  5. Eksport va import operatsiyalaridan olinadigan soliqlar.
  6. Ish haqi daromadidan olinadigan soliqlar.
  7. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan qat'iy belgilangan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solg'i, aksiz solg'i, bojxona va yer osti boyliklar qiymatidan olinadigan soliqlarni kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligidan bo'yicha ilgarigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'chanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.


Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga) va jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivoilantirish solig'i ham kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to‘g‘ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. To‘g‘ri soliqlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya‘ni soliqni huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladi. To‘g‘ri, soliq yukini boshqalarga ortish holati bu yerda bo‘lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to‘lanadigan barcha mulk soliglari kiradi.

To‘g’ri soliqlardan to‘g’ridan to‘g’ri daromaddan soliq to‘langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko‘p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari ko‘paytirlsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak, bu guruh soliqlarning stavkalari to‘g’ridan to‘g’ri bozor iqtisodi-yoti bilan chambarchas bog‘langandir.

Subvensiya yoki subsidiya uslublari esa mahalliy hukumatlarning respublika hukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o‘z hududlaridagi soliqlar to‘liq undirilishi qiziqtirmaydi, ulardagi boqibeg‘amlik fasilatini kuchaytiradi. Mahalliy hukumatlar o‘z xohishlaricha soliq va yig‘imlar kiritish huquqiga ega emas.

Soliq turlari O'zR «Soliq Kodeksi»da belgilangan turlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:



Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig'i, bojxona boji, yer osti boyliklaridan foydalanish soliqlari kiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisining stavkasini oshrishni talab etadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ular ijtimoiy masalalarni — maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'imlar ularning budget xarajatlarining 30—40 % ni qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtarda mahalliy budgetlar daromadlari salmog'ini 50—60 % ga yetkazish kabi hukumat qarorlari mavjud. Mahalliy budgetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Mahalliy budgetlarning soliq va yig'imlari kam bo'lganligidan bu budgetlarning daromad va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda ilgari ko'rsatganimizdek, hududdan tushadigan soliqlardan ajratmalar beriladi (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amaliyotda shu soliqlardan mahalliy budgetlarga ular budgetini barqarorlashtirish uchun 100 % gacha ajratma bermasdan turib subvensiya (maqsadli yordam) berish hollari uchraydi. Vaholani, mahalliy hukumatlarni o'z hududlaridan tushadigan soliqlarni undirishga qiziqtirish uchun 100 % gacha ajratmalar berish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida 14 xil soliq va 4

ta yig'im Soliq Kodeksi asosida amalda mavjud. Soliq tushumi davlat budgeti va mahalliy budgetning daromad qismiga tushadigan mablag'.

#### O'zR bo'yicha barcha soliqlardan umumiy tushum salmog'i quyidagi jadvalda ifodalangan:

Budgetga tushadigan asosiy soliq va to'lovlar <sup>1</sup>	Salmog'i, %			
	1995-y.	1998-y.	2000-y.	2004-y.
Jami tushumlar	100	100	100	100
Bevosita soliqlar	46,3	41,7	41,2	41,9
Bilvosita soliqlar	42,7	45,0	46,0	45,9
Resurs to'lovlar va mol-mulk soliqlari	11,0	13,4	12,8	12,2

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining daromad qismida bilvosita soliqlar 85 % dan ortiq qismini tashkil qilar ekan.

Bilvosita soliqlar — narx yoki tarifga ustama ko'rinishda belgilanadigan tovar va xizmatlardan olinadigan soliqlar. Bilvosita soliqlarga tovari sotish narxida to'lanadigan yoki tarifga kiritilgan, tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar kiradi, ya'ni bilvosita soliqlarning pirovard to'lovchisi bo'lib tovar iste'molchisi maydonga chiqadi, uning zimmasiga soliq narxda ko'zda tutilgan ustamalar orqali yuklanadi.

Bilvosita soliqlar bevosita soliqlardan farq qilib, to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bog'lanmaydi. Odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatuvchi sartaroshxonalar, kimyoiy tozalash shoxobchalari, avtotransport xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar va hokazo soliq solish obyekti hisoblanadi. Bilvosita soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni oshib boryapti.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab turadi. Biroq, bu soliqlar mehnatkashlarning real daromadlarini pasaytiradi. Korxonalarda bevosita soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni oshirib, tovarlar mo'l-ko'lligini ta'minlashi kerak.

#### Bilvosita soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi:

- Qo'shilgan qiymat solig'i.
- Aksiz solig'i.
- Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganliklari uchun olinadigan soliq.

Bevosita soliqlar:	
Yuridik shaxslardan olinadigan soliq turlari:	Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq turlari:
1. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
2. Yer solig'i	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im

<sup>1</sup> Davlat markazi statistika ko'rsatkichlariga asosan hisoblangan.

3.	Mol-mulk solig'i	Tadbirkorlik faoliyatida olgan daromad solig'i
4.	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	Qat'iy belgilangan daromaddan soliq
5.	Ekologiya solig'i	Iste'mol solig'i: benzin va dizel yoqilig'isidan
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Mol-mulk solig'i
7.	Infratuzilmani rivojlantirish solig'i	Yer solig'i
8.	Yagona yer solig'i	Mahalliy yigimlar
9.	Yagona soliq	Yagona bojxona to'lovi
10.	Yalpi tushumdan yagona soliq	Litsenziya yigimi

Bevosita soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. Bevosita soliq yukini boshqalarga ortish holati bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi. Bevosita soliqlardan to'g'ridan to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlarni stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi.

Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojanishni susaytiradi. Demak, bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'lanandir.

Bevosita va bilvosita soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Umumiyligi soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisining stavkasini oshirishni talab etadi.

**Bevosita soliqlar** — xo'jalikning moliyaviy faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi majburiy to'lovlar. **Bevosita soliqlarning** bilvosita olinadigan soliqlardan farqi shundaki, soliq qiymati mahsulot yoki xizmat bahosiga qo'shilmaydi, soliq to'lovchining daromadi, foydasi yoki pul tushumanidan olinadi.

O'zbekiston Respublikasidagi amaliyotda joriy qilingan bevosita soliq turlari.

Bevosita soliqlar har yili qaytdan ko'rilib, ularning stavkasi, soliq obyekti, soliq bazalari o'zgartirib turiladi.

Budjet balansini saqlash muammolari bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarning asosiyalaridan biri budjetning daromad qismini soliqlar orqali shakllantirishdir.

Ushbu me'yordagi jismoniy shaxslarga tovarlarni kamaytirilgan qiymat bo'yicha sotish yoki xomashyo va materiallarni tannarxidan oshiq qiymatlarda xarid qilish yo'li bilan soliq to'lashdan qochishning oldini olishga imkon yaratadi (jadvalga qarang).

### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha soliqlar va yig'imlardan tushgan tushumning 1998—2004-yillardagi o'zgarishi<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	1998-y.	1999-y.	2000-y.	2004-y.
Jami tushumlar, o'tgan yilga nisbatan foizlarda	100,0	143,6	136,1	133,3
Shu jumladan, jami tushumga nisbatan:				
Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i	21,8	17,8	16,4	14,8
Kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq	1,0	1,7	2,4	2,9
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	13,4	14,8	14,5	16,8
Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatlaridan olinadigan daromadlariga solinadigan daromad solig'i	1,4	1,8	2,3	2,8
Qo'shilgan qiymat solig'i	30,5	23,9	23,7	24,8
Aksiz solig'i	14,4	22,2	22,7	19,9
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3,0	3,0	3,2	3,3
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0,5	0,7	0,7	0,7
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	4,0	4,1	3,4	3,3
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	0,7	0,7	0,6	0,6
Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	1,6	1,3	1,4	0,9
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,6	0,5	0,6	0,5
Ekologiya solig'i	2,9	2,5	2,5	2,8
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	1,4	1,2	1,4	1,7
Boshqa soliqlar va yig'imlar	2,8	4,0	4,4	4,1

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, soliq tushumi 133,3 % ga o'sayapti, budjetning daromad qismini mablag' bilan to'ldirayapti.

Umum davlat va mahalliy soliqlar davlat budjetining asosiy manbalari hisoblanadi. Soliq tushumlari hisobidan respublika budjetining 95 % dan ko'proq daromadlari shakllanadi. Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini soliq to'lovlar evaziga shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Iqtisodiyot erkinlashgan sari xo'jalik subyektlarining faoliyati davlat tasarrufidan chetlasha boshlaydi. Natijada hukumat ko'rsatmalari bilan xo'jalik subyektlari faoliyatiga aralashish o'z kuchini yo'qota boradi.

Ustav fondida chet el sarmoyasining 50 % va undan ko'pini tashkil etadigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari — ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltirilgan daromadi (foydasи), O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilmay loyihalarga kapital mablag'lar sarflaydigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari, ro'yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran dastlabki yetti yil davomida, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlashga (uzum va mevalardan vinolar, o'tkir ichimliklar tayyor-

<sup>1</sup> Statistika ma'lumotiga asosan hisoblangan (Узбекистан в цифрах, Ташкент, Узбекистан, 2005 г.).

lashdan tashqari), xalq iste'moli tovarlari va binokorlik materiallari, tibbiyot asbob-uskunalarli ishlab chiqarishga, ikkilamchi xomashyo va maishiy chiqindilarni tayyorlash hamda qayta ishslashga ixtisoslashgan, ustav fondaqagi chet el kapitali 30 % dan ortiq bo'lgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar ro'yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran ikki yil davomida soliqlardan ozod etilgan.

Ana shu chet el investitsiyalariga asoslangan ishlab chiqarishni soliqqa tortish munosabatlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish tizimida soliq to'lovchilarning manfaatlari davlat manfaatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi, soliqarning iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi muvofiqlashtirish funksiyasidan samarali foydalaniyatganligini anglatadi.

Jami budjet daromadlari	100 %
To'g'ri soliqlar	19,1 %
Egri soliqlar	43,7 %
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlar	6,9 %
Infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar	1,1 %
Maqsadli jamg'armalar daromadlari	26,2 %
Jismoniy shaxslardan avtotransport vositalari uchun sotib olingan yonilg'i uchun soliq	0,9 %
Boshqa daromadlar	2,1 %

O'zbekiston bo'yicha soliq tushumlarining tarkibini 2004-yilga tahlil qilsak, (jadvalga qarang) umumiyligi tushumning aksariyat qismini to'g'ri soliqlar tashkil qilgan.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, soliq tushumi tarkibida to'g'ri soliqlar asosiy solmoqqa ega.


**To'g'ri soliqlarga:** Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i; Jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq; Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq; Sod-dalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalananuvchi kichik korxonalarning yagona solig'i.

**Egri soliqlarga:** Qo'shilgan qiymat solig'i; Aksiz solig'i; Bojxona bojlar; Tovar olib kirganligi uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan yig'im.

**Resurs soliqlari:** Mol-mulk solig'i; Yer solig'i; Yer osti foydali qazilmalaridan foydalanganlik uchun soliq; Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; Ekologiya solig'i.

**Maqsadli jamg'armalarga:** Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi; Yo'l jamg'armasi; Ish bilan ta'minlash jamg'armasi; Davlat Mulk qo'mitasining maxsus schoti.

O'zbekistonda joriy qilingan soliq tizimi rivojlanishini o'sayotgan daraxt sifatida quydagicha ifodalash mumkin (chizmaga qarang), uning resurslariga iqtisodiyot va huquq bilimlari kiradi.



**O'zbekiston amaliyotida joriy qilingan saliqlar, ularni guruhlari va asosiy soliq ko'ssatgichlari o'sayotgan soliq sifatida chizmada biz tomonidan birinchi marta berilgan.**

Soliqqa tortish mehanizmining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari, hayotiy ehtiyojlarining moliyaviy manbayi bo'lgan davlat budjeti daromadlarining shakllanishida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining mo'hiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Davlat budgetiga tushgan jami soliq tushumlarida soliq turlarining salmog'ini tahlil qilsak, davlat budgetining aksariyat qismini soliq tushumlari tashkil qilgan (jadvalga qarang).

**2004-yilda O'zbekiston Respublikasi budjetiga tushgan jami soliqlar tarkibi, %**

Davlat budgetiga tushgan jami soliqlar	100 %
To'g'ri soliqlar	25,8
Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i	9,2
Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan daromad solig'i	12,1
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq	2,3

	davomi
Soddalashtirilgan soliq tizimidan foydalanuvchi kichik korxonalarining yagona solig'i	2,2
Egri soliqlar	59,2
Qo'shilgan qiymat solig'i	28,6
Aksiz solig'i	26,9
Bojxona bojlari	1,7
Tovar olib kirgani uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar	2,0
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlar	9,3
Mol-mulk solig'i	3,1
Yer solig'i	2,6
Yer osti foydali qazilmalaridan foydalanganlik uchun soliq	0,9
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,4
Ekologiya solig'i	2,4
Infratuzilmani rivojlantirish solig'i	1,6
Jismoniy shaxslardan avtotransport vositalariga sotib olgan yonilg'i uchun soliq	0,9
Boshqa daromadlar	2,9

Soliqqa tortish tamoyillari davlat soliq siyosatini ro'yobga chiqarish qonunchiligiga asoslanib, bozor iqtisodiy munosabatlarining va O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi hududida amalga kiritilgan umum davlat, mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha amal qiladigan soliqqa tortish tamoyillari andozalari standartlariga muvofiqlash tirilgan. Ya'ni bu tamoyillar mamlakatimizda erkin va farovon turmush, demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan. Lekin shu bilan bir qatorda soliqqa tortish mexanizmining mumtoz tamoyillari borki, bu asosiy qoidalar jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarining falsafiy negizlaridan kelib chiqadi.

#### Soliqdan tushgan mablag'ning sarflangan tarkibi (2004-yilgi)

Davlat budgetiga tushgan jami soliqlar	100 %
Ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari	40,3
a) Maorif	28,1
b) Sog'ligni saqlash va sport	9,8
d) Ilm-fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari	2,0
e) Ijtimoiy ta'minot	0,4
Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari uchun xarajatlari	7,5
a) Ko'p bolalik oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar berish	5,9
b) Ijtimoiy muhofaza uchun budjet dotatsiyasi	1,5
Iqtisodiy rivojlanish xarajatlari	8,6
Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	14,4
Davlat hokimiyyati, boshqaruv organlari va sud organlari xarajatlari	2,0
Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish xarajatlari	0,5
Vazilar Mahkamasining zaxira jamg'armasi	1,1
Boshqa xarajatlari	25,5

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, soliq tushumlarining aksariyat qismi bevosita soliqlar hisoblanadi. Bu soliqlar to'g'ri soliqlar deb ham yuritiladi va

xo'jalik yurituvchi shaxslarning moliyaviy holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan soliqlarga aytildi. Soliq tushumining 40,3 % ijtimoiy-madaniy tadbirlarga sarflanayapti.

O'zbekiston Respublikasining davlat budgetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxs soliqlari va boshqa to'lovlar tashkil etadi. **Yuridik shaxslar respublika (umum davlat) budgetiga quyidagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar:**

- yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga soliq);
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- ekologiya solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- savdo va umumiyoq ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq;

- bojxona boji;
- davlat boji;
- qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- DAN yig'imi;
- jarimalar;
- boshqa to'lovlar.

**Yuridik shaxslar mahalliy budgetlarga quyidagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar:**

- kichik biznesning yagona solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- savdo huquqini olish yig'imi;
- alohida tovarlarni sotish uchun litsenziya yig'imi;
- tadbirdorlik faoliyati bilan qayta shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- dehqon bozorida bir yo'la yig'imi;
- qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i;
- noqishloq xo'jalik tashkilotlari uchun yer solig'i;
- boshqa to'lovlar.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta, biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralaridan, hokimiylatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart, har bir yuridik shaxsga identifikatsion raqam beriladi.

Yuridik shaxs bo'lib mulkka ega bo'lishlik, bordi-yu, soliqdan yoki boshqa subyektlardan qarzdor bo'lib qolsa, boshqa choralar ko'rilinganda yetarli bo'limasa, ana shu mulklarini sotib (sud qaroriga asosan), soliqdan qutulish imkoniyati yaratiladi.

Yuridik shaxslarning budgetlarga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari budget daromadlari ning asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rindi.

#### O'zbekiston Respublikasi davlat budgetida soliqlarning tutgan salmog'i

Soliqlar nomi	1996-y.	2000-y.	2004-y.
Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq	25,8	13,5	8,6
Kichik biznesning yagona solig'i	—	—	3
Mol-mulk solig'i	1,5	2,8	2,3
Yer solig'i	3,5	4,0	2,6
Yer osti boyliklari uchun soliq	0,6	1,2	1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	—	—	0,3
Qo'shilgan qiymat solig'i	17,7	29,7	27,9
Aksiz solig'i	20,0	18,6	26,4
Bojxona boji	1,6	1,3	1,9
Boshqa soliqlar va yig'imlar (infrastruktura solig'i)	—	—	2
Jami	80	75	76

Yuqorida jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, yuridik shaxslar soliqlari ichida egri soliqlar salmog'i ortib borishi tendensiyasiga ega, to'g'ri soliqlar salmog'i esa pasayib borish yo'nalishidadir. Bunday holat mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hissasiga tushadigan soliq yukini kamaytirib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytiradi. Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib, muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'lib, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Soliq to'lovchilarning o'sishi soliq to'lovchilar sonining ko'payganligi hisobiga sodir bo'ladi.

#### 2. Yuridik shaxslardan undiriladigan foya (daromad) solig'i

Yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga) soliq — bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar daromadi (foydasiga) bir qismining budgetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.

Yuridik shaxslarning to'laydigan soliqlari ichida ularning daromadi (foydasiga) soliq budget daromadlari tarkibida katta o'rinn egallaydi. Bu soliq to'g'ri soliq bo'lganligi uchun xo'jalik subyektlarining to'g'ridan to'g'ri moliyaiviy ahvoli bilan bog'liq, unga ta'sir etadi. Shuning uchun bu soliq salmog'ini davlat yildan yilga kamaytirish siyosatini olib bormoqda. Masalan, 1996—1998-yillarda 21—25 % larni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yildan boshlab 8—9,3 % ni 2005-yilda esa 8,6 % bo'lishi kutilmoqda.

Soliq kodeksi bo'yicha daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslariga bu soliqlarning to'lovchilari bo'ladi. Ammo, jami daromad, ulardan chegirib tashlanadigan chiqimlar Soliq Kodeksiga kiritilgan bo'lsa ham, ularni aniqlashni Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi o'zining 1999-yil 5-fevral 54-son qarori bilan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish hisoboti» to'g'risidagi Nizomni qabul qilgan. Jami daromad va soliqlarga tortiladigan daromad ham shu Nizom bilan belgilanadi.

Daromad (foyda)ga soliq to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqlarga tortiladigan daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Moliya yili bizning respublikamizda kalender yiliga mos tushadi. Ammo hamma yuridik shaxslar ham bu soliqlini to'layvermaydi. Kichik korxonalar, savdo tashkilotlari, gramplastinkalar ishlab chiqib, sotuvchi tashkilotlar, yagona soliq to'lovchi chakana savdo korxonalari (kichik va mikrofirmalar), yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqlini to'lamaydilar. Ular o'zlarini uchun ixchamlashtirilgan soliqlini to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirdorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqlini to'lamaydilar.

Soliqlarga tortish maqsadida daromad (foyda)ga soliq to'lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylasib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga identifikatsion raqam beriladi. Uning mazmuni tartib raqamiga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan daromad (foyda) solig'iga tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari esa faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqlarga tortiladilar.

Daromad (foyda)ga soliq to'lovchilarni to'liq tushunish uchun ularni iqtisodiyot sohalari bo'yicha ham soliq to'lovchilar bo'lishligini inobatga olish zarur. Masalan, sanoat, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi va boshqalar kiradi.

**Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq to'lovchilar bo'lishi uchun quyidagi sharflarga javob berishi kerak:**

- biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olishi;
- o'zining mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo'lishi;
- hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi sharfi.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar shu shartlarga javob bersagina daromadga (foyda) soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingen) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingen mablag'lar kiradi. Demak, olingen kreditlar jami daromadga kirmaydi.

#### Jami daromadga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum. Unga ortilgan mahsulot qiymatini to'lash uchun hisoblashish hujjatlarda ko'rsatilgan summa; buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlardalolatnomalarida ko'rsatilgan summalar; ko'rsatilgan xizmatning bajarilganligini tasdiqlovchi summalar kiradi. Vositachilik faoliyatidan (komission taqdirlash) daromad oluvchi tashkilotlar uchun tushum hamma bitimlar bo'yicha komission taqdirlash (fozlar) summalarini hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi.

Soliqqa tortish maqsadida asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan daromadni aniqlashda shu fondlar mulklarni sotish bahosi va qoldiq summasi o'rtaisdagi farq (oshishi) hisobga olinadi. Bu yerda qoldiq qiymat hamma asosiy fondlar, moddiy aktivlar, kam qiymatli va tez buziladigan predmetlarga ham qo'llaniladi. Asosiy fondlar bepul berilganda berayotgan shaxsning aktivlar qiymati o'sha vaqtdagi tashkil topgan xarajatlar bilan, mulklarni oluvchining daromadi esa kirim qilingan qoldiq qiymat bilan, lekin bergen shaxsning tannarx qiymatidan kam bo'limgan holda qabul qilinadi.

3. Fozlar va dividendlar turida olingen daromadlar.

4. Bepul olingen mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'lsa, daromad bo'lmaydi. Tizim deyilganda vazirliklar, konsernlar, trestlar va shu kabilar ichidagi harakatlar tushuniladi.

5. Mulklarni ijara berishdan daromadlar. Ammo amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar lizing shartnomasi bo'yicha ijara berilsa, soliqqa tortish maqsadida mulknini sotib olgan hisoblanadi.

6. Royalty-intelektual mulklarning huquqidan daromadlar, mualliflik haqlari, patentlari, chizmalar tovar belgilari, yangi modellardan daromadlar kiradi.

7. Bepul moliyaviy yordam (budget mablag'laridan tashqari).

8. Kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan daromadlar, agar so'rov muddati tugagan bo'lsa. Umumiy so'rov muddati yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan.

9. Ilgari chegirma qilingan qarzlar, zararlar va umidsiz qarzlarning tushishidan olingen summalar.

10. Valuta schot bo'yicha ijobiy kurs farqlari.

11. Favqulodda daromadlar.

12. Har xil daromadlar.

13. Tovar moddiy boyliklarni qayta baholashdan qo'shimcha summarlar soliqqa tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilishi bilan qo'shib beriladi.

Korxonalar (tashkilotlar) mahsulotlarini haqiqiy tannarx bahosidan past sotgandagi zararlar soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydi.

Ichki bozordan past bahoda o'z mahsulot (ish, xizmat)larini erkin almashtiriladigan valutada sotuvchi korxonalar uchun soliqqa tortiladigan baza eksport mahsulotini sotishning haqiqiy bahosidan kelib chiqib hisobga olinadi.

Umumiy vazifalarni hal qilish uchun Ustav fondiga badallar, paylar va boshqa maqsadli qo'yilmalar yuridik shaxsning daromadiga kirmaydi va soliqqa tortilmaydi.

**Daromad va yalpi foyda ko'rsatkichlarini aniqlashda Soliq Kodeksida berilgan uslub quyidagi bosqichlardan iborat:**

1. **Yalpi foyda** — sotishdan olingen yalpi foyda bilan ishlab chiqarish tannarxi o'rtaisdagi mablag':

$$F_1 = Q - V,$$

Bunda:

$F_1$  — yalpi foyda;

$Q$  — sotishdan olingen sof daromad;

$V$  — sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi.

2. **Asosiy foyda** — bu:

$$F_2 = F_1 - D - B_1 - B_2,$$

$F_2$  — asosiy faoliyatdan olingen foyda;

$F_1$  — yalpi foyda;

$D$  — davr xarajatlari;

$B_1$  — asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromad;

$B_2$  — asosiy faoliyatdan ko'rigan boshqa zararlar.

3. **Xo'jalik foydasi:**

$$F_3 = F_2 + M_1 - M_2,$$

$F_3$  — umumxo'jalik faoliyatidan olingen foyda;

$M_1$  — moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar;

$M_2$  — moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. **Hisob foyda** (soliq to'langunga qadar olingen foyda):

$$F_4 = F_3 + F_1 - F_2,$$

$F_4$  — hisob foyda (soliq to'languncha olingen foyda);

$F_1$  — favqulodda vaziyatlarda olingen foyda;

$F_2$  — favqulodda vaziyatlardan ko'rigan zarar.

## 5. Sof foyda:

$$F_5 = F_4 - (W_1 + W_2),$$

$F_5$  — sof foyda;

$W_1$  — daromad (foyda)dan to'lanadigan soliq;

$W_2$  — boshqa soliqlar va to'lovlar.

Xo'jalik faoliyati natijalarining yuqoridagi tartibdagi uslublarini qo'llash zarur. Bu formulalarga asosan foyda va daromad ko'rsatkichlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yuqori chegara stavkasi 1998-yilda 36 % dan 2001-yilda 26 % ga tushgan. 2002-yilda esa 24 %, 2005-yildan boshlab 15 % qilib belgilangan.

### 2005-yilning yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq stavkalari

Nº	To'lovchilar	Soliqqa tortiladigan daromadga, %
1	Yuridik shaxslar (2-4-punktlardagidan tashqari)	15
2	Lotoreya o'yinlari o'tkazish, auksionlar va o'yin uylari, ommaviy-tomosha tadbirleri, gastrol-konsert faoliyatiga litsenziysi birlarning olgan daromadlari bo'yicha yuridik shaxslar, norezidentlarni ham qo'shib	35
3	Ustav fondida 50% va undan ko'p hissasi bor chet el investitsiyasi bilan birga ishlovchi ishlab chiqarish korxonalari ustav fondining miqdori quyidagi ekvivalentga mos kelsa: 1 mln AQSH dollarri va oshig'i	13
4	Bolalar assortimenti tovarlari, ayollar gigienasi mahsulotlari, badiiy hunarmandchilik buyumlari va bolalar qo'g'irchoqlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar	10
5	Erkin aimashtiriladigan valutada o'zining tovar (ish, xizmati) eksport qilish hissasi eksport qiluvchi korxonalar uchun quyidagicha bo'sa: Sotish hajmining: 15 % dan 30 % gacha 30 % va undan yuqori	Stavka 30 % ga pasaytiriladi Stavka 50 % ga pasaytiriladi

Norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 10 % miqdorida daromadga (foyda) soliq undiriladi.

**Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'Imagan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmsiz daromad manbayida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:**

	Foiz
Dividendlar va foizlardan	15
Sug'urta mukofotlari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash xavf-xatari to'lovlar	10
O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxta daromadi)	6
Royalti, ijara daromadlari, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar	20

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlar to'lov manbayida 15 % li stavka bilan soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb aksiyalardan va boshqa xo'jaliklar subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlar tushuniladi.

**Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini hisoblash tartibi quyidagi shaklda bajariladi. Birinchi navbatda, yuridik shaxslarning daromadi aniqlanadi:**

$$D_{(F)} = \{(J_D - (A + I + SBK)) \cdot St\} / 100.$$

Bu yerda:  $D_{(F)}$  — yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i;

$J_D$  — jami daromad;

$A$  — soliq qonunchiigida ko'zda tutilgan chegirmalar;

$I$  — soliq imtiyozlari;

$SBK$  — soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish summasi;

$St$  — soliq stavkasi.

Yuridik shaxslar tomonidan budgetga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq summasi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi va hisobotiga asosan mustaqil ravishda hisoblanadi. Barcha soliq to'lovchilar budgetga to'lanadigan soliqlarning joriy to'lovlari amalga oshiradilar.

Joriy to'lovlar daromad (foyda)dan olinadigan soliqning yil choragi summasining oltidan bir qismi miqdorida teng ulushlarda har oyning 10 (o'ninch) va 25 (yigirma beshinch) va keyingi oyning 5-sanalaridan kechiktirmasdan to'lanadi. Hisobot yil choragida mahsulotlarni sotishdan eng kam ish haqining 250 barobari miqdorida daromad (foyda)ga ega bo'lgan korxonalar, shuningdek, qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarishning mavsumiy tusdaligini hisobga olib, yil boshidan o'sib boruvchi yakunga ko'ra har yil choragida budgetga to'laydilar.

Daromad (foyda) solig'i to'lovchilar o'zлari ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan shaklda chorak yakunidan so'ng keyingi oyning 15-sanasigacha, yil yakuni bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobotlar taqdim etish uchun belgilangan vaqtida taqdim etadilar.

Soliq to'lovchilar yilning birinchi choragi, yarim yillik, to'qqiz oylik va yil yakuni bo'yicha, yil boshidan boshlab o'sib boruvchi tartibda daromadlar (foyda) solig'i summasini mustaqil ravishda hisoblab boradilar. Daromadlar (foyda) solig'inining yil davomida to'langan summalarini soliq to'lovchiga tegishli hisobot yili uchun hisoblangan soliq miqdorida inobatga olinadi.

Amalda olingan daromad (foyda) asosida hisoblangan soliq summasi yil choragi va yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 (besh) kun muddat ichida to'lanadi. Bunda to'langan joriy to'lovlar summalarini tegishli davr uchun hisoblangan soliq summasidan chegirib tashlanadi.

### 3. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

Yuridik shaxslar mol-mulkidan to'lanadigan soliq<sup>1</sup> to'lavchilar soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar korxonalar mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi. Xo'jalik tasarrufida yoki operativ boshqaruvida mol-mulki bo'lgan ham o'z majburiyatlar bo'yicha javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan ularning alohida bo'limmalar tushuniladi. Yagona soliqni to'laydigan kichik korxonalar mol-mulk solig'ini to'lamaydilar.

**Soliq solish obyekti.** Korxona balansida turgan asosiy vositlarning, shu jumladan, lizing shartnomasi bo'yicha xarid qilganlarining va nomoddiy aktivlarining, eskirganlik chegaralanmasdan, o'rtacha yillik qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi.

**Soliq stavkalari.** Korxonalar mol-mulkiga 3,5 % li stavka bo'yicha soliq solinadi. Korxona va tashkilotlar me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan va foydalanimagan uskuna uchun mol-mulk solig'ini ikki baravarlik stavka bo'yicha to'laydilar.

**Soliqqa doir imtiozlar.** Mol-mulk solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: notijorat tashkilotlarning mol-mulki, tadbirdorlik faoliyati uchun foydalanimadan mol-mulk bundan mustasno.

**Hisob-kitobni taqdim etish muddati.** Hisob-kitob har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan 1-chorak, 1-yarim yil, 9 oy, yil uchun balanslarni taqdim etishga belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

**Soliqni to'lash muddati.** Budgetga joriy to'lovlarini to'lash har bir oyning 20-kunidan kechiktirmay soliq yillik summasining 0,5 qismi miqdorida amalga oshiriladi.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib xo'jalik yuritishda, mulkchilikda yoki operativ tarzdagi boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlariga shu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan hamma turdagি korxonalar hisoblanadi.

Korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, joylardagi mahalliy budgetlar daromad qismini shakllantiradi. Undirilgan ana shu soliq summasi teng ulushlarda mahalliy budgetlarga o'tkaziladi. Hozir mutaxassislar mol-mulk solig'i va shu kabi resurs to'lovlarini anchagini oshirish va foya (daromad)ga soliq yukini kamayirish maqsadga muvofiq deb ta'kidlashmoqda.

**Mamlakatimizda mazkur soliqni joriy etish quyidagi maqsadlarda ko'zda tutilgan edi:**

**Birinchidan,** korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanimayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishni uyg'otish.

<sup>1</sup> Soliq 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O'zR Soliq Kodeksining VI bo'limiga va O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 26-dekabrda 381-ton bilan ro'yxtarga olingen, O'zR Moliya vazirligi va DSQning 1997-yil 10-noyabrdagi 34/97-90-ton «Korxonalar mol-mulkidan soliqni hisoblash va budgetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasiga asosan undiriladi.

**Ikkinchidan,** xo'jalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish.

Mol-mulk solig'i moliyaviy nuqtayi nazaridan rag'batlantiruvchilik va nazorat qilish mahalliy budgetlarni to'ldirish nuqtayi nazridan esa fiskal vazifalarni bajaradi.

Mol-mulk solig'i yuqorida bayon qilinganlardan tashqari, mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali ta'sir qiladi. Turli sabablarga ko'ra, daromadlarning bir qismi har doim daromad solig'iga tortilishdan «qochib qoladi». Ammo moddiy boylikka aylangach, mol-mulk solig'iga tortilmasdan iloji yo'q. Sarmoyalarni soliqqa tortish ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi, ortiqcha zaxiralardan holi bo'lishga rag'bat bo'lib xizmat qiladi va o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorining tashkil topishini jadallashtiradi.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi bu — yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirot etuvchi elementlar majmuyi hisoblanadi. Bu majmua: soliq subyekti, soliq obyekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiozları, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Hozirgi paytda yuridik shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortish mexanizmida mavjud bo'lgan muammolar, avvalo, soliqqa tortish obyektini aniqlash tartibi va soliq stavkasi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, 2001-yil 1-yanvar holati bo'yicha asosiy vositalarni qayta baholashning amalga oshirilishi bu muammolarni yanada murakkablashtiradi. Shuningdek, huquqiy-me'yoriy hujjatlarda bayon qilingan qoidalar amaldagi holatlarga unchalik mos kelmayapti. Shu boisdan birinchi muammo soliqqa tortiladigan obyekt tarkibini aniqlash bilan bog'liq bo'lib u Soliq Kodeksida ham 381-tonli «Yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va budgetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaga asosan, soliqqa tortiladigan obyekt deyilganda korxonalar balansida bo'lgan asosiy vositalar, shu jumladan, lizing shartnomasiga ko'ra sotib olingan vositalar va nomoddiy aktivlarning eski chegirib tashlanmagan o'rtacha yillik qiymati nazarda tutiladi. Soliqqa tortiladigan obyekt korxona mol-mulkining qiymatagi ifodasi bo'lib, shu korxonaning balansida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha olingan mol-mulkarning majmuyini tashkil etuvchi balans qiymatidan iboratdir.

Agar ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi qoidalarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda soliqqa tortishdagi kamchiliklarni kuzatish mumkin. Fikrimizcha, yuridik shaxslar mol-mulki soliqqa tortiladigan obyekt sifatida, asosiy vositalarning o'rtacha yillik balansi qiymatini hisoblash jarayonida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan eskirish summasi chegirilganidan keyin qolgan qoldiq qiymati bo'yicha hisoblanishi lozim. Chunki korxonalar asosiy vositalari ekspluatatsiya jarayonida o'zining boshlang'ich sifatini yo'qotib, ham jismoniy, ham ma'naviy tomonidan

eskiradi. Shu tufayli, ularning amaldagi haqiqiy qiymati eskirish darajasiga muvofiq uning miqdoriga nisbatan kamayadi. Rossiyalik iqtisodchi-moliyachi olimlar ko'pgina korxonalarda asosiy fondlarning eskirish darajasi 70—90 % ni tashkil etmoqda, deb ta'kidlamoqdalar.

Soliqni hisoblashda eskirish summasini soliqqa tortiladigan mol-mulk obyekti qiymatidan chegirish lozim. Chunki, asosiy fondlarni yangilash va qayta rekonstruksiya qilishga safarbar qilinadigan mablag'lar soliqqa tortiladigan doiradan tashqarida bo'lishi lozim. Aks holda, korxonalarda asosiy fondlarning texnologik yangilanish sikli buzilishi va oqibatida asosiy fondlarning to'liq yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilaridir.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan, mustaqil balans va hisobkitob varag'iga ega alohida bo'linmalar tushuniladi.

Soliq solishning alohida tartibi o'matilgan ayrim toifadagi to'lovchilarga yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solg'i tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'uilansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur.

Yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'lib asosiy vositalar (qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yerning qiymati bundan mustasno) va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shuningdek, belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati hisoblanadi. Soliq solish obyekti bo'lib, shuningdek, me'yordagi muddatlarda o'matilmagan uskunalarning qiymati hisoblanadi.

**Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarning ijerasi lizing hisoblanadi:**

- ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining 80 % dan oshsa;
- ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugashi bo'yicha belgilananadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa;
- ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijaraning tugashida ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;
- to'lovlarining joriy summasi butun ijara davri uchun ijara olinadigan vositalar qiymatining 90 % dan oshsa.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining 1-yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning 1-yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo'shishdan olingan summani hamda hisobot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo'lishdan olingan son sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{O'rtacha yillik qoldiq qiymat} = \frac{\frac{1-\text{yanvarga}}{2} + 1-\text{fevralga} + 1-\text{dekabrga} + \dots + \frac{1-\text{yanvarga}}{2}}{12}$$

Hisobot davriga soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati hisobot davri oyining birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini, hisobot davridan keyingi birinchi oyning birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini va hisobot davri qolgan barcha oylari birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymatini qo'shishdan olingan summani 12 ga bo'lishdan olingan summa sifatida aniqlanadi.

Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblab chiqarishda kiritish oyi to'liq oy deb qabul qilinadi, agar mol-mulk oyning ikkinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, o'rtacha yillik qoldiq qiymat amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kunidan boshab hisoblanadi.

#### 4. Qishloq xo'jaligi korxonalari uchun yagona yer solig'i

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmish qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun boj to'lov, davlat boji, litsenziya yig'imlari, budgetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek, alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalinish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir.

**Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy etilishi bilan ular quyidagi soliq va yig'imlarni to'lashdan ozod etiladi:**

- daromad (foydag) solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- alkogolsiz ichimliklar va meva sharbatlarga aksiz solig'i;
- ekologiya solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer solig'i;
- yer ostidan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig'i;
- boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Ushbu tadbirning ishga solinishi xo'jaliklarni yordamchi kasb-korlar va ishlab chiqishlarni rivojlantirishga undashi kerak, chunki bunday faoliyat natijasida olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

<sup>1</sup> Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrdagi 539-son qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining budgetga to'lovlar ixchamlashdirildi va yagona yer solig'i to'lash ular uchun joriy etildi.

### **Yagona yer solig'i to'lash tartibi quyidagilarga tegishli bo'lmaydi:**

1. O'rmonchilik, ovinchlik xo'jaliklari.
2. Ilmiy tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba eksperimenti va o'quv-tajriba xo'jaliklariga.
3. Mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga.
4. Dehqon xo'jaliklariga.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.

Bu yuridik shaxslar qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish bilan birga boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar o'z ixtiyoriga ko'ra budjetga kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliqni yoki qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan yagona yer solig'ini to'laydilar.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijara ga berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yerlari maydonlari, ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, yer xaritalari, tekshiruv materiallari va boshqa yer-kadastr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar ya shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarining tuzatish koefitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan xo'jaliklar uchun soliqqa tortishning amaldagi tartibi saqlanib qoladi, ya'ni ular oldingidek barcha belgilangan soliqlarni, shu jumladan, yer solig'ini to'lashadi.

Yagona yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar.

#### **Bu soliqdan imtiyozlar ham ikki turli bo'ladi:**

- A. Soliq solinmaydigan yer uchastkalari.
- B. Soliq to'lashdan ozod etilgan yuridik shaxslar.

#### **Soliq solinmaydigan yer maydonlariga:**

1. Qishloq aholi punktlarining umumiyl foydalanishdagi yerlari. Bular aholi punktlari hududidagi maydonlar, ko'chalar, o'tish yo'llari, yo'llar, sug'orish tarmog'i va shu kabi obyektlar, shuningdek, xo'jalikdagi qabristonlar.

2. Ixota daraxtlari ekilgan maydonlar.

3. Sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalar, suv havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiyasog'lomlashtirish majmualari hamda xalq ta'limi, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari band qilgan yerlar.

4. Yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holati yaxshilanishi jarayonidagi sug'oriladigan yerlar, loyihada nazarda tutilgan muddatda, lekin ishlar boshlangandan e'tiboran besh yilga.

5. Yangi o'tqazilgan bog'lar va tokzorlar band qilgan maydonlar, ular meva bera boshlaydigan muddatgacha, ularning maydonlari ana shu bog'lar va tokzorlar o'tqazilgan oydan boshlab soliq solinadigan bazadan chiqariladi.

6. Yangidan tut daraxtlari o'tqazilgan maydonlar, ularning maydonlari tutlar o'tqazilgan oydan boshlab uch yillik muddatga soliq solinadigan bazadan chiqariladi.

7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar.

#### **Soliq to'lashdan ozod etiladigan yuridik shaxslarga quyidagilar kiradi:**

1. Yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab ikki yil muddatga.

2. Daromad (foyda) solig'i va yer solig'ini to'lashdan ozod qilingan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.

Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.

Yagona yer solig'ini uning to'lovchilari tomonidan mustaqil ravishda yerlarning maydoni, bazaviy stavkalari va tuzatish koefitsiyentlari asosida hisoblab chiqiladi. Qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega yerlardagi yer maydonlari yer tuzish xizmati o'tkazadigan yer hisobi ma'lumotlari, yerlarni ro'yxatdan o'tkazish va qishloq xo'jalik ekinlari hamda yerlarni maxsus asboblar yordamida o'Ichash materiallari asosida tasdiqlangan bo'lishi lozim.

**Yerlarning har bir turi bo'yicha yer solig'i summasi quyidagi formulaga ko'ra belgilanadi:**

$$H = Szu \cdot Sb \cdot Kp$$

Bu yerda: N — yagona yer solig'ining summasi, so'mlarda;

Szu — yer uchastkasining maydoni, ga da;

Sb — hektar uchun soliqning bazaviy stavkasi, so'mlarda;

Kp — tuzatish koefitsiyenti.

Yerlarning har biri (sug'oriladigan yerlar, lalmi yerlar, pichanzorlar, yaylovlari va boshqalar) uchun tegishli bazaviy stavkalari va tuzatish koefitsiyentlari qo'llaniladi, ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda to'lovchilarga yetkaziladi. Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari bo'yicha bazaviy stavkalari sifatida tegishli tuman va shahar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Lalmi yerlar, pichanzorlar va yaylovlari bo'yicha bazaviy stavkalari sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan boshqa

yerlar bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug'oriladigan yerlari bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan), haqi to'lab qaytarib olinan, sotilgan tarzda soliqning undirilishi yer uchastkasi tortib olinan (kamaytirilgan), haqi to'lab qaytib olinan, sotilgan oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilanganda ular bunday huquq vujudga kelgan oydan boshlab to'lamaydilar.

Imtiyozlarga ega bo'lish huquqi to'xtatilganda, bunday huquq to'xtatilgandan keyingi oydan boshlab yer solig'i to'lashga boshlaydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar yagona yer solig'i summasini Vazirlar Mahkamasi belgilagan stavkalarda hisoblab chiqadilar va o'zlar joylashgan soliq inspeksiyalariga (aksariyat) soliq hisobini joriy yilning 1-fevraliga qadar taqdim etadilar.

#### **Yagona yer solig'i bir yilda uch marta to'lanadigan bo'ldi.**

- 1-iyulgacha yillik soliq summasining 20 % miqdorida;
- 1-sentabrgacha yillik soliq summasining 30 % miqdorida;
- 1-dekabrgacha qolgan soliq summasi to'lanadi.

Yagona yer solig'inining hisoblangan summasi korxonaning davr xaratlariga kiritiladi.

Hisoblangan soliq 68-schotning «Yer solig'i hisob varag'i» kreditida va 26-schotning «Davr xarajati» debetida ko'rsatiladi. Soliq butjetga o'tkazilganda 68-schot debetlanadi va 51 «hisob-kitob varag'i» kreditlanadi.

### **5. Yagona yer solig'i**

Yerga haq to'lash shakllari yer solig'i, ijara haqi hisoblanadi. Yagona yer solig'inining joriy etilishi yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining pirovard mehnati natalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solish tizimini soddalashtirishga da'vat etilgan.<sup>1</sup> Yer solig'i stavkalari yer uchastkalari maqsadi, foydalanishi, joylashishiga qarab tabaqlashtiriladi.

**Soliq to'lovchilar.** O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar hisoblanadi. Yagona yer solig'ini<sup>1</sup> qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari), fer-

<sup>1</sup> 1999-yilda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solish tizimida tubdan o'zgarish ro'berdi. O'zR Prezidentining «Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida» 1998-yil 19-oktabrdagi Farmoni bilan 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy etildi.

mer xo'jaliklari, agrofirmalar va boshqa tovar ishlab chiqaruvchilar to'laydilar, bundan dehqon xo'jaliklari mustasno.

**Soliq solish obyekti** — yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan.

**Soliq stavkalari.** Yer solig'i stavkalari O'zR VM tomonidan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zR Moliya vazirligi va DSQ tomonidan umumiy belgilangan tartibda yetkaziladi.

**Soliqqa doir imtiyozlar.** Quyidagilar soliq olinmaydigan yer uchastkalar hisoblanadi: shahar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohil bo'yları, ariq tarmoqlari, qabristonlar va h. k.).

**Hisob-kitobni taqdim etish muddati.** Yer solig'i yuridik shaxslar tomonidan har yili 1-yanvargacha bo'lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va unga doir hisob-kitoblar yer uchastkasi joylashgan hududagi soliq organiga joriy yilning 1-fevraligacha taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini hisoblash davlat soliq inspeksiylari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomalarini jismoniy shaxslarga davlat soliq inspeksiyalari tomonidan har yili, joriy yilning 1-mayidan kechiktirmay topshiriladi.

**Soliq to'lash muddati.** Yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari) soliqni har chorakda, chorakning ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda to'lanadi.

### **6. Aksiz solig'i**

**«Aksiz» so'zi inglizcha excise** — «kesib qo'yish», fransuzcha accise, lotincha accidere so'zlaridan olinan bo'lib, tarjima qilinganda «kesib olish, to'sib qo'yish» ma'nosini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidida aksiz solig'iga quyidagicha izoh berilgan: «aksiz solig'i sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, egri soliq sifatida budjetga o'tkaziladigan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir. Bizning fikrimizcha, aksiz solig'i sof daromadning emas, balki yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga yo'naltirish shaklidir.

Aksiz solig'i aksariyat xalq iste'mol mollari uchun keng ma'noda, birinchi navbatda, zarur bo'lmaydigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Respublika ichki ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qiluvchi richag sifatida chetdan olib kelinadigan ayrim mahsulotlarga nisbatan iqtisodiy usullarni qo'llash maqsadga muvofigdir.

**Dunyo iqtisodiyoti amaliyotida import qilinadigan quyidagi tovarlarga nisbatan aksiz solig'i qo'llaniladi. Bular:**

- neft va neft mahsulotlari;
- qand va tuzlar;

- tamaki mahsulotlari;
- transport vositalari;
- gilamlar;
- alkogolli ichimliklar;
- video va audioapparatlar;
- qimmatbaho buyumlar va shunga o'xshash boshqa tovarlar.

Aksiz markasi joriy qilingan tovarlar olib kelishda aksiz solig'i to'lovchilar aksiz markasini sotib olishda, kontrakt qiymatidan hisoblangan soliqni 100 % miqdorida to'laydilar, mablag'lar respublika budgetiga yozib qo'yiladi.

Aksiz markasi joriy qilingan tovarlarni olib kelishda aksiz solig'inining miqdori bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i summasidan tashqari to'lanadi.

#### Aksiz solig'ini hisoblash yuzasidan uslubiy namuna

Tovarning nomi	Mahsulot birligi uchun narxi, AQSH doll.	1 mln dona uchun bojxona qiymati	Aksiz stavkalari va summasi		
			Oborot	Stavka	Summa
Filtrli sigaretalar	2	25,0 ming AQSH doll.			
Kurs 1:700		17500 ming so'm *	35000 ming so'm ***	50 % **	17500 ming so'm ****

\*) bojxona qiymatiga tashish, yuklash, yuklab tushirish, qayta yuklash va qayta tushirish xarajatlari, sug'ura summasi va hokazolar kiritilgan.

\*\*) stavka aksizni o'z ichiga oladigan narxga, ya'ni soliq solinadigan manbara nisbatan qo'llanadi.

\*\*\*) soliq solinadigan manba =  $(17500 \times 100) / (100 - 50) = 35000$  so'm.

\*\*\*\*) aksiz summasi =  $35000 \times 50 : 100 = 17500$  so'm.

Belgilangan tovarlar uchun aksiz solig'i bojxona xizmati tomonidan «so'm» hisobida undiriladi va respublika budgetiga o'tkaziladi.

Olib kirilayotgan tovarlar uchun aksiz solig'i BYUD to'ldirilishidan oldin yoki to'ldirilayotgan vaqtida to'lanadi.

Olib kelinayotgan tovarlardan budgetga tushayotgan aksiz solig'i tushumlari hisoboti va nazorati O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash boshqa bojxona to'lovlarini to'lashdan oldin yoki u bilan bir vaqtida amalga oshiriladi. To'ldirilgan BYUD bilan birga taqdim etilgan, to'lashga qabul qilinganligi to'g'risida bank belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi to'lovchi tomonidan aksiz solig'i to'langanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarga aksiz solig'ining summasi respublika budgetiga (26-bo'limning 11-paragrafi) kirim qilinadi.

Aksiz solig'i joriy etilgan va marka yopishtirilishi shart bo'lgan tovarlarni olib kirayotgan va aksiz solig'i to'lovchilar bojxona qiymati asosida hisoblangan aksiz solig'ining 100 % ni respublika budgetiga aksiz markalarini sotib olayotgan davrda to'laydilar.

Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz tovarlari uchun to'lanadigan aksiz solig'i qiymatiga kirmaydi.

Shuning uchun aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'idan tashqari alohida to'lanadi.

Respublika hududiga olib kelinayotgan tovarlardan undiriladigan aksiz soliqlari to'lov kodi «27» raqami bilan belgilangan bo'lsa, respublika hududidan olib chiqib ketilayotgan va reeksport qilinayotgan tovarlardan undiriladigan aksiz soliqlarining to'lov kodi «28» raqami bilan belgilangan va BYUDlarda aynan shu raqamlar bilan aksiz solig'i undirilganligi ko'rsatiladi.

DBQ hududiy boshqarmalarining qaroriga asosan to'lovchiga aksiz solig'ini to'lash, bojxona rasmiylashtiriluvni kunidan boshlab 2 oygacha aksiz solig'ini to'lashni bo'lib-bo'lib yoki uzaytirilgan holda to'lash mumkin.

Aksiz solig'ining to'g'ri hisoblanganligi va o'z vaqtida to'lash javobgarligi to'lovchilarga hamda deklarantlarga yuklanadi. Bojxona xizmatlari tomonidan budget oldida aksiz solig'ini to'lash majburiyatini bajarmagan to'lovchilardan belgilangan aksiz solig'i qiymatini va to'lovni kechiktirgan kun uchun 0,07 % pena undiriladi.

To'lovchilar ortiqcha to'langan yoki undirilgan aksiz solig'i summasini to'langan yoki undirilgan kundan boshlab 1 yil mobaynida talab qilishlari mumkin. Demak, aksiz solig'i deganda korxona mahsulotlari va xizmatlari bahosi ustiga yoki tarifiga ustama shaklda to'g'ridan to'g'ri kiritiluvchi egri soliq turi tushuniladi. Aksizlar sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar bahosi ustiga ustama shaklda qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi bo'lib iste'molchi hisoblanadi.

**Aksiz solig'ining mohiyatini ochishda u bajaradigan vazifalarni bilish muhimdir. Shu jihatdan uning quyidagi vazifalarini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz:**

**birinchidan**, mamlakat budgetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlari yuzaga keladi. Fransuz iqtisodchisi F. Demezon ta'biri bilan aytganda: «aksizning o'zi barcha boshqa soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir»;

**ikkinchidan**, aksiz osti tovarlari iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy o'sish doirasini boshqarishda aksizosti tovarlar ro'yxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifning egiluvchanligini ta'minlaydi;

**uchinchidan**, davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalilanadi;

**to'rtinchidan**, aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o'taydi; **beshinchidan**, aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi. Chunki aksiz solig'i asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo'llaniladi, bunday tovarlarning asosiy iste'molchilar boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

**Aksiz solig'i summasini hisob-kitob qilish uchun quyidagi formula bo'yicha shartnomaviy (erkin) narx (aksiz bilan) aniqlanadi:**

$$O = (S \cdot 100) / 100 - A,$$

Bu yerda: O — o'z ichiga aksiz solig'ini olgan shartnomaviy (erkin) narx, QQSsiz;

S — korxonaning hisob-kitob qiladigan (ulgurji) narxi (me'yorlar bo'yicha xarajatlar va foyda me'yori);

A — aksiz solig'i stavgasi.

**Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:**

$$O \cdot A / 100.$$

Mahsulot birligiga so'mda aksiz solig'ini hisob-kitob qilish bo'yicha shartli misol:

(aksiz solig'i stavgasi 77 % bo'lgan 1 t tozalangan, dezodoratsiya qilinagan o'simlik yog'i misolida)

Nº		Summa
1.	Mahsulot birligining tannarxi	84010,8 so'm
2.	Zaruriy foyda	21684,1 so'm
3.	Hisob-kitob (ulgurji) narxi (1-satr + 2-satr)	105694,9 so'm
4.	Aksiz solig'i qo'shilgan holda mahsulot narxi (QQSsiz) (3-satr × 100/100 - 77 aksiz stavgasi).	459543 so'm
4a.	Shu jumladan, aksiz solig'i summasi	353848,1 so'm
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i	91909 so'm
6.	Korxonaning aksiz va QQS bilan birga hisoblangan shartnomaviy (erkin) narxi (4-satr + 5-satr)	551452 so'm

Aksiz solig'i ham QQS singari bilvosita soliqlarga kiradi va tovar narxiga kiritiladi<sup>1</sup>. Respublikadan tashqariga eksport qilinadigan, bojsiz savdo qiladigan do'konlar, ko'rgazmalar o'tkazilishi tranzit bo'yicha respublika hududiga olib kelinadigan va olib chiqish uchun mo'ljallangan. Aksiz solig'ini oladigan shartnomaviy narx asosida aksiz solig'i stavgasi<sup>2</sup> ishlataladi.

<sup>1</sup> 1996-yil 1-oktobrdan boshlab O'zRda uning hududida ishlab chiqarilgan bu yerga olib kelinadigan tamaki mahsulotlari va alkogollu ichimliklarga (pivotan tashqari) belgilangan namunadagi aksiz markalarini majburiy yopishtirish joriy etildi va ularni aksiz markalarisiz olib kelish, tashish, saqlash va sotish taqiqlandi.

<sup>2</sup> Mazkur soliq 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O'zR Soliq Kodeksining V bo'limiga va O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 19-dekabrdan 379-son bilan ro'yxatga olingan, O'zR Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining 1997-yil 19-noyabridagi 36/97—96-son «O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha yuridik shaxslarning aksiz solig'ini hisoblashi va budgetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasiga asosan undiriladi.

Aksiz solig'ini qo'llashda mamlakat ichida ishlab chiqarilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotlar hamda chetga olib chiqarilayotgan mahsulotlar uchun uning stavkalarini tenglashtirish maqsadga muvofiqdir.

## 7. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)

**Soliq to'lovchilar.** Hisobga turgan yoki hisobga turishi shart bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar qo'shigan qiymat solig'ini to'lovchilar hisoblanadi, bundan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar mustasno.

**Soliq solish obyekti.** Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etilgan, o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlataladigan va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga ko'ra belgilanadigan oborotdan tashqari tovar (ish, xizmat)larning sotilishiga doir oborotlar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborot hisoblanadi.

**Soliq stavkalari.** Soliq stavkasi hajmi va soliq imtiyozlarining tartibi kelguvsisi moliya yili uchun budgetni tasdiqlash chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan aniqlashtirilishi mumkin.

**Soliq bo'yicha imtiyozlar.** Qo'shimcha qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

- sug'urta qilish va qayta sug'urta qilishga doir operatsiyalar, shu jumladan, sug'urta bo'yicha vositachilar va agentlar amalga oshiradigan bunday operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar;
- ssudalarning berilishi va o'tkazilishi;
- pullik omonatlar, joriy hisob varaqlar, to'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlarga tegishli operatsiyalar;
- xorijiy valutalar va qonuniy to'lov vositalari bo'lgan pullar muomasiga tegishli operatsiyalar, numizmatik maqsadlarda foydalilaniladiganlidan tashqari.

**Hisobotni taqdim etish muddati.** Hisobot oyiga keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddati (15-fevalda).

Yangi tashkil etilgan korxonalar, shuningdek, ilgari to'lovchi bo'lmagan korxonalar soliqni faoliyatning dastlabki oyi uchun haqiqiy oborotdan kelib chiqib to'laydilar. Faoliyatning keyingi oylarida qo'shimcha qiymat solig'i umumiy belgilangan tartibda hisoblanadi va to'lanadi.

**Soliqni to'lash muddati.** Hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay.

Soliq bo'yicha o'tgan oy uchun to'lov summasi eng kam ish haqining ellik baravari miqdoridan oshgan korxonalar oxirgi oylik hisob-kitobga ko'ra budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasining uchdan bir qismi miqdorida o'n kunlik to'lovlarni to'laydilar (oyning 15, 25-kunlari va navbatdag'i oyning 5-kuni), qayta hisob-kitoblar sotish bo'yicha amaldagi oborotlardan kelib, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, ishlar va xizmatlar ustiga qo'yilganligi uchun egri soliqlar qatoriga kiradi. Bunday qaraganda uning to'lovchilar mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmadek tuyuladi. Ana shu korxonalar huquqiy soliq to'lovchilar bo'ladilar. Soliq idoralari soliqni o'z vaqtida va to'liq budgetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida esa mazkur korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shimcha qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, soliqning haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalaridir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga yetib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi.

Amaliyotda O'zbekiston Respublikasining soliqlar haqidagi qonunlariга binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala xarajatlari (masalan, materiallar, xomashyo, butlovchi buyumlar, yoqilg'ini yetkazib bergen ta'minotchilarga to'langan haq)ga qo'shiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lanishi lozim bo'lgan qo'shimcha qiymat solig'i summasi o'rtaqidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi.

QQS qo'llanilib boshlangan vaqtidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati budgetining asosiy manbalaridan biri bo'lib qoldi.

O'tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992-yilda amal qilgan 30 % dan 1997-yilga kelib 18 % gacha tushirildi va 1998-yildan boshlab 20 % qilib belgilanib, ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi.

Xalqaro amaliyotga ko'ra QQSning budgetga to'lanadigan summasini aniqlash 3 ta har xil usul bilan aniqlanadi:

#### **Hisobdan chiqarish usuli.**

Ushbu usulga ko'ra korxona budgetga to'laydigan qo'shimcha qiymat solig'i summasini sotib olingen tovarlar qiymatini sotgan tovarlar qiymatidan chiqarib tashlab farqni aniqlaydi va bu farqqa soliq stavkasini ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

#### **Hisobga olish usuli.**

Hisobga olish usuli yoki schet-faktura usuli Yevropa birligiga kiruvchi barcha davlatlarda va qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan boshqa ko'pgina davlatlarda qo'llanib kelinmoqda.

Ushbu usulga ko'ra korxona budgetga to'laydigan qo'shimcha qiymat solig'i summasini sotib olingen tovarlar (xizmatlar) uchun to'langan soliq summasini sotilgan tovarlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq summasidan chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlaydi.

#### **Yig'ish usuli.**

Ushbu usulga ko'ra korxona budgetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini yangidan hosil qilingan qiymatlar komponentlari, ish haqqi, ijara haqqi, foizlar va sof foydalarni yig'ib, hosil bo'lgan summani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

**Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:**

$$Sqqs = (S_b + B_b + A_c) \times S/100,$$

Bu yerda: Sqqs — qo'shimcha qiymat solig'i summasi;

$S_b$  — import qilinadigan tovarning bojxona qiymati;

$B_b$  — bojxona boji summasi;

$A_c$  — aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi;

$S$  — qo'shimcha qiymat solig'ining foizlardagi stavkasi.

QQSni respublika budgetiga o'tkazish tartibi.

Qo'shimcha qiymat solig'ining to'langan summalar hududiy bojxona organlarining depozit hisob varaqlariga kirish qilinib, keyin ular respublika budgetining daromadiga qayd etilishi kerak.

Bunda, shu jumladan, qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha hisoblab yozilgan bo'nak to'lovlari summalarini to'lovchi tomonidan hududiy bojxona organlarining depozit hisob varaqlariga kirish qilinishi kerak. Ko'rsatilgan summalar yuk kelishiga qarab tuzatiladi, so'ngra ular respublika budgetining daromadiga qayd etiladi.

QQS bo'yicha hisobga turgan xo'jalik subyekti ishlab chiqarish yoki muomala jarayonida u tomonidan qo'shilgan qiymatidan QQS to'laydi. Natijada bir marotaba soliqqa tortilgan qo'shimcha qiymat qayta soliqqa tortilmaydi, ya'ni o'sib boruvchi yakun bo'yicha qo'shilib ketish effekti yuzaga kelmaydi. **Oxir-oqibatda muomala jarayonida vujudga kelgan qo'shimcha qiymatlar summasi iste'mol qiymat bilan soliq summasi o'rtaqidagi manfiy farqqa teng bo'ladi:**

$$S_{qq} = I_q - QQS,$$

bu yerda:  $S_{qq}$  — ishlab chiqarish muomala jarayonida qo'shilgan qiymatlar summasi;

$I_q$  — iste'mol qiymati;

QQS — qo'shimcha soliq summasi.

Agar QQSdan ozod qilish va «0» darajali stavka qo'llanilmasa, QQS narx buzilishlariga ham olib kelmaydi. Demak, agar QQS barcha ishlab chiqarish muomala subyektlariga qo'llanilsa, uning iqtisodiyot strukturasiga ham ta'siri minimal bo'ladi.

**O'zbekistonda QQS ning 20 % li hamda «0» darajali stavkalari tatbiq etilgan. Standart 20 % li stavkani qo'llash quyidagi argumentlarga asoslanadi:**

- birinchidan, QQSning xuddi shunday stavkasi MDHning barcha mamlakatlarida qo'llanilmoqda, «QQS» stavkasi darajalarini yaqinlashtirish o'zaro savdoga qulay sharoit yaratadi;

- ikkinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek mazkur stavka qo'llanilganida QQS bo'yicha tushum bozor iqtisodiyoti sharoitidagi rivojlangan mamlakatlarning ushbu manba uchun tushumlariga mos holda budget daromadlarining deyarli 30 % ni tashkil etadi;

- uchinchidan, ushbu stavka qo'llanilganida har yili 1–2 % punktga pasayib borayotgan foyda solig'idan tushum o'rnnini bosishi mumkin.

QQS hisoblashning belgilangan tartibiga muvofiq moddiy resurslarni xarid qilishda to'langan soliq summasi hisobga olinadi, ya'ni QQSning umumiyligi summasidan chegirib tashlanadi. Qayta hisoblash natijasida QQS ortiqcha to'langanligi aniqlansa, manfiy saldo sifatida aks ettiradigan soliq summasi hisobot davridan keyingi davrga hisobga o'tkaziladi.

QQSni amalda qo'llashda uning varianti, tamoyili va hisoblash usulini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, QQSni loyihalashda — uning stavkalari soni QQSdan ozod qilish masshtablari, «0» darajali stavka bo'yicha soliqqa tortish, davlat va QQSdan ozod qilingan xo'jalik subyektlarining o'zaro munosabatlari kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Mahsulot va xizmat yetkazib beruvchilarning barchasi yo QQSga tortiladi, yoki undan ozod etiladi. Ayrim turdag'i korxonalar uchun esa soliq solishning o'zgacha tartibi qo'llaniladi, ya'ni ularga QQS o'rniq qonun hujjatlariga muvofiq boshqa soliqlar qo'llaniladi. Bunday korxonalar toifasiga yagona soliq to'lovchi kichik korxonalar, yalpi daromad solig'i hamda mulk solig'i to'lovchi savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari kiradi.

Shuni e'tirof etish lozimki, QQSdan ozod qilish yoki uni boshqa soliqlar bilan almashtirish QQS to'lash majburiyatlaridan to'la ozod bo'lishni anglatmaydi. Ya'ni xarid qilinayotgan resurslar bo'yicha QQS to'lanadi va faqatgina ular tomonidan qo'shilgan qiymat QQSdan ozod qilinadi. Demak, korxonalar ishlab chiqarish resurslari, ya'ni xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektroenergiya, shuningdek, ishlab chiqarishning barcha vositalari, ya'ni bino inshootlari qurilmalar va uskunalarini xarid qilganlarida xarid qilish qiymatida qo'shilgan qiymat solig'i to'laydilar.

Har bir tovar ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi, ish bajaruvchi) ishlab chiqarish jarayonida u tomonidan qo'shilgan qiymatdan soliq to'laydi. Moddiy resurslarni xarid qilishda to'langan soliq summasi mahsulot qiymatiga kiritilmaydi, balki iste'molchiga sotilgan tovar (xizmat)ga hisoblangan soliq summasidan chiqarib tashlanadi, shuning uchun korxona ma'lum shakl me'yorini hisoblab, uni mahsulot realizatsiyasidan olishi mumkin.

#### Ishlab chiqarish bosqichlarida QQSni undirish ketma-ketligi

Ko'rsatkichlar	Korxona A (ishlab chiqaruvchi)	Korxona B (ta'minot)	Korxona D (iste'molchi)	Umumiyligi
				summa
Realizatsiya qiymati	3000	3600	1200	18600
Korxona foydasi	750 (33 %)	150 (33 %)	2800 (33 %)	—
Realizatsiya bo'yicha QQS	600	720	2400	3720
Resurslar qiymati	900	3000	3600	7500
Resurslar bo'yicha QQS	180	600	720	1500
Budgetga QQS	420	120	1680	2220

Soliqni bu tartibda hisoblash bir xil stavka qo'llangan taqdirda korxonaning daromad olishiga ta'sir ko'rsatmaydi hamda belgilangan stavka doirasida QQSni budgetga undirilishini ta'minlaydi.

Kredit usulida QQS hisoblash tizimi yana bir muhim ahamiyatga ega. Budgetga tushayotgan QQS hajmi sezilarli darajada hisobga olish usulining qaysi turini qo'llashga ham bog'liq. **Hisobga olish usulining 3 turi mayjud:**

- Yetkazib berish yoki hisoblash usuli. Bunda QQS hisoblash va to'lash majburiyatlari ham xaridor, ham sotuvchi uchun mahsulotni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatilganida vujudga keladi.

- To'lov yoki kassa usuli.

- Gibrildi usul. Bunda sotilgan mahsulot uchun uni yetkazib berganda QQS hisoblash va uni undirib olish, mahsulot sotib olishda esa sotib olinayotgan mahsulot uchun haq to'lash paytida QQS hisoblash va undirishga aytildi.

O'zbekistonda 1998-yildan buyon soliq hisoblash va to'lashning yetkazib berish usuli qo'llaniladi. Ya'ni QQS yuklab jo'natilgan mahsulot uchun to'lanadi.

Asosiy vositalarning realizatsiya qilinishi hamda vositachilik va lizing xizmatlarini ko'rsatishda QQSni hisoblash tartibi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni realizatsiya qilishda ularni tekinga yoki qisman to'lov bilan berishda soliq solish obyekti bo'lib realizatsiya qiymati va qoldiq qiymati o'rtasidagi farq hisoblanadi. Agar asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati bo'yicha sotilsa, u holda QQS undirilmaydi.

Asosiy vositalarni olib sotish bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun QQS solishning umumiyligi belgilangan tartibi qo'llaniladi.

QQSning principial afzalligi bu uning ham tashqi, ham ichki savdoga neytralligidir. Ya'ni kaskad solig'ini qo'llashda narx buzilishlarini bartaraf etish xususiyatlariga ega. QQS qo'llanilganida ishlab chiqarish va taqsimlash jarayoni bosqichlarning har bir ishtirokchisi o'zining ishlab chiqarilgan mahsulotlari bo'yicha soliq majburiyatlarini hisob-kitob qilganida ishlab chiqarish resurslarini xarid qilishda to'langan QQS summasini hisobga o'tkazadi.

Natijada konkret tovarning yakuniy qiymatidagi QQS ulushi bosib o'tilgan bosqichning sonidan qa'ti nazar, bir xil bo'ladi.

Bunda mahsulot qiymati tarkibidagi soliq hajmini aniqlash va hisobga olish imkoniyati tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, eksport-import munosabatlarda muhim ahamiyatga ega.

#### Xalqaro savdoda QQS ikki tamoyilga asosan qo'llaniladi:

1. Mahsulot kelib chiqishiga.

2. Mo'ljallanishiga.

Birinchi tamoyilga asosan mamlakat ichida ishlab chiqarilgan barcha soliqqa tortiladigan mahsulot va xizmatlar (eksport) soliqqa tortiladi.

Ikkinci tamoyilga asosan mamlakatda iste'mol qilinayotgan mahsulot va xizmatlar (import) qiymati soliqqa tortiladi.

O'zbekistonda MDH davlatlari hamda boshqa davlatlar bilan savdo munosabatlari amalga oshirilganida QQSning import tamoyili qo'llaniladi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq tovar (ishlar xizmatlar) ning erkin almashtiriladigan valutaga eksporti hamda MDH mamlakatlariga yetkazib berishlar «0» darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

QQSdan ozod qilishda ishlab chiqaruvchi soliqni budgetga to'lashdan ozod etilsa, xarid qilinayotgan resurslar va tovarlar narxi tarkibida hisoblangan QQS summasini to'lashi lozim. Shuningdek, bunday ishlab chiqaruvchi QQSni hisobga olish imkoniyatiga ham ega emas, chunki iste'molchiga sotilayotgan mahsulotga QQS hisoblanmaydi.

QQSdan ozod etilgan mahsulotni xarid qiluvchi (QQS to'lovchi) esa bunday mahsulotdan xomashyo sifatida foydalaniib, tovar ishlab chiqaruvchi bo'lib, o'z mahsulotini realizatsiya qilishda soliq kreditidan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi.

Soliq krediti deganda to'lanayotgan soliq summasini oldingi to'lov hisobidan kamaytirish tushuniladi.

Bunday ishlab chiqaruvchiga soliqni realizatsiya qilinayotgan mahsulotga hisoblangan soliq summasi bilan xomashyo va resurslar qiymatidan to'langan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida emas, balki realizatsiya bo'yicha oborotdan to'lashiga to'g'ri keladi. Ya'ni QQS solish rejimi zanjiriga QQS to'lashdan ozod etilgan zveno qo'shilsa, qo'shilgan qiymatning bir qismi takroran soliqqa tortiladi hamda soliqning butun og'irligi ozod etilgan zvenodan keyingi subyektga tushadi. Demak, QQSdan imtiyozlar soni qancha ko'p bo'lsa, qo'shilgan qiymat belgilangan stawkalardan yuqoriqo stawkalarda hamda takroran soliqqa tortilishi ehtimoli oshadi.

Mazkur yo'rqnomalarga<sup>1</sup> Qonun hujjatlari bilan tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, ushbu o'zgartirishlar kurs ishida hisobga oolingan.

Soliq Kodeksining 73-moddasiga muvofiq QQS 20 % li stavka bo'yicha to'lanadi. **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining 1997-yil 5-dekabrdagi 41/97—105-son Yo'rqnomasiga muvofiq iste'molchilaridan olinadigan QQS quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:**

<sup>1</sup> Xususan, Soliq Kodeksining 4-bo'limi (19-bob 65-moddasidan 23-bob 79-moddasiga) QQSga hamda 5-bo'limi (24-bob 80-moddadan 26-bob 88-moddasigacha) aksiz solig'iga bag'ishlangan. Hozirgi kunda respublikamizda QQS bo'yicha: O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 29-dekabrdagi 383-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zR Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining 1997-yil 5-dekabrdagi «Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha QQS hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida»gi 41/97-105-son yo'rqnoması; O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 6-noyabr 520-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlariga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash tartibi to'g'risida»gi yo'rqnoma amal qilmoqda. Aksiz solig'i bo'yicha: O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1997-yil 19-dekabrdagi 379-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan aksiz solig»ni hisoblash va undirish tartibi to'g'risida»gi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining 1997-yil 19-noyabrdagi 36/97—96-son yo'rqnoması; O'zR Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 23-sentabrdagi 821-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kirladigan, shuningdek, olib chiqiladigan ayrim turdag'i tovarlar uchun aksiz solig'ini to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'rqnomalari amal qilmoqda.

$$S_{qqs} = O_{ob} \cdot N : 100$$

Bu yerda:  $S_{qqs}$  — iste'molchilaridan olinadigan soliq summasi;  $O_{ob}$  — soliq solinadigan oborot;  $N$  — QQS stavkasi.

**Tovarlar (ishlar xizmatlarni) o'z ichiga QQSni oladigan narxlar va tariflar bo'yicha sotganda soliq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:**

$$S_{qqs} = Ct \cdot N / (N + 100)$$

Bu yerda:  $St$  — QQSni hisobga olganda tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

**QQS quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:**

$$S_{qqs} = (St + Pip + As) \cdot N / 100$$

Bu yerda:  $S_{qqs}$  — QQS summasi;

$St$  — import qilinayotgan tovar, ish, xizmatlarning boj qiymati;

$Pip$  — bojxona to'lovi qiymati;

$As$  — aksiz solig'i summasi;

$N$  — QQS stavkasi.

Soliq Kodeksining 75-moddasiga muvofiq hisobga o'tkaziladigan QQS summasi amalda kelib tushgan, shu jumladan, import qilinayotgan hisobot davrida tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlariga qaratildigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun taqdim etilgan hisob varaq-fakturalar bo'yicha to'lashi kerak bo'lgan soliq summasidir. O'z ehtiyojlari uchun foydalilanadigan, xarid qilinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha soliq summasi hisobga olinmaydi.

Bevosita aholiga pulli xizmatlar (ishlar, xizmatlar) ko'rsatadigan korxonalar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilganda kassa cheki yoki xizmatlar ko'rsatilgani (ishlar bajarilgani) faktini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar hisob varaq-faktura hisoblanadi.

O'z mahsulotini uzlusiz yetkazib berishini ta'minlaydigan korxonalar bo'yicha hisob varaq-fakturalar iste'molchilarga hisob varaqni rasmiy lashitish bilan bir vaqtida, lekin oyiga ko'pi bilan bir marta tuziladi. Bunda hisob varaq-fakturalar mahsulot sotilgan hisobot davrida tuziladi.

## 8. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar (105-m). Bu soliqni yagona soliq to'lovchi kichik biznes korxonalari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq

<sup>1</sup> QQS O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasining 1997-yil 26-dekabrdagi 47/97—117-son yo'rqnomasiga muvofiq.

xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda savdo va umumiy ovqatlanish, gramplastinkalar, kassetalar va disketlar sotuvchi korxonalar, qat'iy stavkada soliq to'lovchi yuridik shaxslar ham to'lamaydilar.

Soliqqa tortish maqsadida «yer osti» tushunchasiga yer qa'rining tuproq qismidan pastda joylashgan qismi tushuniladi. Yer qa'ri bo'laman joylarda suv yuzasidan past qismi va geologik izlanuv yoki egallash imkoniyatiga ega bo'lgan suv havzalari yoki oqimlarining tagi (tubi) hisoblanadi.

Agar tarkibida rangli, nodir, qora metallar va boshqa mineral xomash-yoni qazib oluvchi korxona uni qayta ishlashga ikkinchi korxonaga bersa, soliq to'lovchi bo'lib tayyor mahsulotni sotuvchi korxona hisoblanadi. Massalan, mis qazib oluchi korxona rudani Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga berdi. Kombinat tayyor mahsulot qilib sotadi. Bu yerda kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi. Agar qazib olingen rudani respublikadan tashqariga chiqarsa, soliq to'lovchi bo'lib ruda qazib olgan korxona hisoblanadi.

#### **Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq obyektiqa quyidagilar kiradi:**

- foydali qazilmalar (shu jumladan, qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) qazib olish hajmi;
- texnogen hosilalarining (mineral xomashyo qazib olish va ularni qayta ishlash chiqindilarning) hajmi;
- to'plangan rangli toshlar, paleontologiya qoldiqlari va boshqa geologik kolleksiya materiallarining hisobga olingen qiymatidir. Bular ichida asosiysi foydali qazilmalar bo'lib, energiya beruvchilar (gaz, neft, ko'mir va b.) rangli va noyob metallar, nodir metallar (oltin, kumush), temir, tog'-kimyo mahsulotlari va boshqalar kiradi.

Soliq obyektlarining turlari va soliq stavkalarini har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yangi yil budgetini tasdiqlayotganda belgilab, Oliy Majlis muhokamasidan o'tkazadi.

#### **O'zbekistonda 2005-yil uchun belgilangan soliq stavkaları:**

- foydali qazilmalar hajmiga nisbatan foizlarda belgilangan. Albatta, bu yerda hajm qiymati chiqariladi. 2005-yildan boshlab foydali qazilmalar tarkibiga xomashyo ishlab chiqarish uchun qo'llanadigan bazalt kiritildi;
- texnogen hosilalaridan foydalanganlik huquqi uchun esa asosiy qazilma boylik stavkasiga nisbatan 30 % qilib belgilangan;
- rangli toshlar, paleontologiya qoldiqlari yig'ish uchun esa ularning hisoblangan qiymatidan 5 % qilib belgilangan.

#### **Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashdan quyidagilar ozod etiladi:**

- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganuvchi shaxslar;
- geologiya, minerologiya va boshqa alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ishlar olib boruvchi shaxslar;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar qazib olishni o'zlariga berilgan yer uchastkalari doirasida xo'jalik va maishiy ehtiyojlar uchun belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yer egalari va yerdan foydaluvchilar;

- yuridik shaxslar balansida bo'lgan va ular tomonidan tadbirkorlik faolitida foydalanimayotgan fuqarolik va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarga yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq solinmaydi.

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq hisobini o'sib boruvchi yakun bilan mustaqil hisoblaydilar va o'zlarini joylashgan hududdagi soliq idoralariiga moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda topshiradilar.

Soliq hisobi foydali qazilmalar qazib organlik va texnogen hosilalaridan foydalanganlik uchun yilning har choragi va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarini qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay soliq hisobini taqdim etadilar va to'laydilar.

#### **Soliq to'lash muddatlari:**

- foydali qazilmalar qazib olish va texnogen hosilalaridan foydalanganlik uchun har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 20-kunigacha to'laydilar;
- qolgan holatlarda yilning har choragida choraklik va yillik hisobotlar topshirish muddatida to'lanadi.

Choraklik va yillik muddatlar tugashi bilan soliq hisobi tuziladi.

## **9. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i**

Soliq to'lovchilar tarkibiga tadbirkorlik bilan shug'ullanmaydigan notijorat tashkilotlari, yagona soliq to'lovchilar, yagona yer solig'i to'lovchilar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda hukumat qarori bilan hamma soliqlardan ozod bo'lganlar kirmaydi.

Bu soliq to'lovchilar bo'lib tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el investitsiyasi bilan shigillanadiganlar hisoblanadi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i obyekti bo'lib hamma soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng korxonada qolgan sof foyda hisoblanadi.

Har chorak ichidagi oylarda korxonalar joriy to'lov to'laydilar. Bu to'lov summasini aniqlash uchun avvalgi chorakdagagi haqiqiy hisoblangan summadan kelib chiqib to'lanadi. Joriy to'lovlar har oyning 25-sanasidan kechiktirmay choraklik soliq summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lab boriladi.

Soliq hisobi soliq idoralariiga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar topshirilgan kundan kechiktirmay topshiriladi. Soliq hisobi haqiqiy ahvoldan kelib chiqib tuzilari va natija aniqlanadi.

Yo'riqnomalar soliq solishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va budgetga infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq to'lashlari lozim.

Faoliyatning asosiy turi bo'yicha yalpi daromad solig'ini to'lovchi savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalariga, grammoplastinkalar, audio va videokassetalar, lazerli disklarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, yozish, **ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga**:

- yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga;
- qat'iy soliq to'lash belgilangan tadbirkorlik faoliyatining turlariniga na amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga.

Yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslar infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchi hisoblanadilar.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi soliq solish obyekting 8 foizi miqdorida belgilangan.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini budget mablag'lari hisobiga moliyalashga bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirayotgan korxonalar uchun infratuzilmani rivojlantirish solig'i quyidagi tartibda to'lanadi.

O'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy infratuzilma obyektlarini (sog'liqni saqlash, bolalarning maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari va umumiyligi ta'lim muktablarini) tutib turmaydigan barcha korxonalar uchun soliq stavkasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

Budget mablag'lari hisobiga moliyalashning hissasi xarajatlarning umumiyligi miqdoridafoizlarda 100 % ni tashkil etgan taqdirda, ya'ni davlat hokimiyati organlari balansiga topshirilayotgan obyektlar butunlay budget mablag'lari hisobiga moliyalanadigan bo'lsa, infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi bunday korxonalar uchun mazkur mintaqaga uchun belgilangan stavka miqdorida belgilanadi.

Davlat mablag'lari hisobiga moliyalashning hissasi xarajatlarning umumiyligi miqdoridafoizlarda 100 % dan kamni tashkil etgan taqdirda, ya'ni xarajatlarning bir qismi korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalansa, to'lovchilar uchun topshiriladigan ijtimoiy obyektlarni ulushbay moliyalash miqdoriga bog'liq holda tabaqaletshtirilgan stavkalar belgilanadi.

#### **Tabaqaletshtirilgan stavkalarni belgilash uchun quyidagilarni belgilab olish lozim:**

- a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-sentabrda «Idoralarga qarashli ijtimoiy soha obyektlarini joylardagi davlat hokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida» 453-sont qarorining 1—3-sont ilovalariga binoan, budgetdan moliyalashning hissasidan kelib chiqib, topshirilayotgan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini o'z mablag'lari hisobiga tutib turish xarajatlari summasini;
- b) o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlarni amalga oshiruvchi korxonalar uchun soliq solish bazasini, u quyidagi formulaga ko'ra belgilanadi:

$$R=Sf + His + S,$$

bu yerda: **Sf** — barcha soliqlar to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (sof foyda);

**His** — o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha tutib turish xarajatlari;

**S** — daromad (foyda) solig'ining hisob-kitob qilingan summasi, u daromad (foyda) solig'ining belgilangan stavkasidan va o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlari summasidan kelib chiqib hisoblanadi (**His** x daromad (foyda) solig'i stavkasi: 100);

d) mazkur bandning «b» kichik bandiga muvofiq hisob-kitob qilingan soliq solish bazasidan kelib chiqib, mazkur mintaqaga uchun belgilangan stavka bo'yicha infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini.

Agar xarajatlar summasi (mazkur bandning «a» kichik bandi) infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasidan (mazkur bandning «d» kichik bandi) oshib ketsa, korxona infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lamaydi.

Agar xarajatlar summasi (mazkur bandning «a» kichik bandi) infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasidan (mazkur bandning «d» kichik bandi) kam bo'lsa, korxona infratuzilmani rivojlantirish solig'ini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish solig'ining summasi bilan ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish xarajatlari o'rtaisdagi farq sifatida belgilaydi.

Chorak davomida barcha to'lovchilar infratuzilmani rivojlantirish solig'ining budgetga joriy to'lovlarini amalga oshiradilar. Joriy to'lovlarini hisoblash va to'lash uchun soliq to'lovchilar avvalgi chorak uchun hisob-kitob bo'yicha haqiqatda hisoblab yozilgan infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasidan kelib chiqadilar.

Joriy to'lovlar har bir oyning 25-kunidan kechiktirmay, soliq choraklik summasining uchdan bir qismi hajmida amalga oshiriladi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga haqiqatda shakllangan soliq solish bazasidan kelib chiqib, mazkur Yo'riqnomasi ilovasiga ko'ra shaklda o'sib boruvchi yakun bilan, choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish muddatlarida taqdim etiladi.

Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini to'lovchilar budgetga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun davomida to'laydilar.

Byudjet bilan hisob-kitoblar buxgalteriya hisobi budgetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisob varag'i bo'yicha yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblangan soliq budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag'i krediti va soliqlar hamda yig'imgilarni to'lash uchun foydani ishlatishni hisobga olish hisob varag'i debeti bo'yicha aks ettiriladi.

O'tkazilgan soliq summalarini budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag'i debeti va pul mablag'larni hisobga olish hisob varag'i krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i mahalliy budgetga to'lanadi.

Yo'riqnomani buzganlik uchun infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Yo'riqnomaga rioya etilishi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari zimmasiga yuklanadi.

## 10. Ekologiya solig'i

Ekologiya solig'i to'lovchilar bo'lib tovarlar ishlab chiqaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi, ishlar bajaruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, yagona soliq to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish hamda gramplastinkalar (videokassetalar, lazer disklari) ishlab chiqaruvchi korxonalar bu soliqni to'lamaydilar. Qat'iy stavkada soliq to'lash belgilangan faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar ham to'lamaydilar.

Ekologiya solig'i bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi (muomala xarajatlari, davr xarajatlari) hisoblanadi. Banklar va sug'urta idoralarida esa jami xarajatlarsolinqqa tortish maqsadida ishlab chiqarish tannarxi deb ataladi.

Muomala xarajatlari soliqqa tortish obyekti bo'lib, vositachilik, ta'minov, tayyorlov tashkilotlarida ishlataladi.

### Soliqqa tortish maqsadida muomala xarajatlari quyidagilar kiradi:

- sotish xarajatlari (mulk solig'i, respublika yo'l fondiga ajratma va 0,7 % nafaqa fondiga ajratmalardan tashqari);
- ma'muriy boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlari kiradi.

Bu xarajatlars 26-hisob varaqda — «Davr xarajatlari»da olib boriladi.

Soliqqa tortish maqsadida mahsulot (ish, xizmat)ning to'liq tannarxi tu-shunchasiga xo'jalik ichki oborotidan tashqari ishlab chiqarish xarajatlari hisobi olib boruvchi schyotlar («Asosiy ishlab chiqarish» 23-hisob varaq chetga xizmat ko'rsatish qismi)da hisobga olinuvchi yalpi xarajatlarsummasi olinadi.

Banklar va sug'urta tashkilotlari ekologiya solig'i obyektini ko'rsatilgan xizmatlarning yalpi xarajatlari bo'yicha hisoblaydilar<sup>2</sup>.

Ekologiya solig'i ishlab chiqarish tannarxi va muomala xarajatlari hamda davr xarajatlari nisbatan 1 foizda belgilanadi. Bu yerda obyektdan budjetga soliq to'lovlar, davlat maqsadli fondlariga ajratmalar summasi che-girib tashlanadi.

### Soliqdan quyidagilar ozod etiladi:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va O'zbekiston chernobilchilar assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilar

<sup>1</sup> Ekologiya solig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 27-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 1997-yilgi Davlat budjeti munosabati bilan soliq islohotini chuqurlashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga binoan 1997-yil 1-yanvardan joriy etilgan. Mazkur Farmonda ushbu soliqning bir foiz miqdoridagi stavkasi ham belgilab berilgan edi.

<sup>2</sup> Asos: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlagan «Tijorat banklari schot rejalaridagi sметанинг 5-bo'limi», «Foiz xarajatlari», 1996-yil, 13-noyabr, 290-sonli xati.

umumiy sonining 50 % ni nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar. Savdo, vositachilik, ta'minot, sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga bu imtiyoz tegishli emas;

- maktabgacha ta'lim nodavlat muassasalari ro'yxatdan o'tgan paytdan e'tiboran uch yil muddatga, basharti ular bo'shatib olinayotgan mablag'larni moddiy-teknika negizini mustahkamlashga, asbob-uskuna, jihozlar, didaktik material, bolalar adabiyoti olishga sarflasa;

- gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar.

Soliq to'lovchilar ekologiya solig'ini soliq obyekti va stavkasidan kelib chiqib, mustaqil hisoblab chiqadilar.

Ekologiya solig'i bo'yicha soliq hisobi yil choraklari va yilga o'sib boruvchi yakun bilan tuziladi va shu davrlardagi moliyaviy hisobotlar taqdim etilgan paytdan kechiktirmay soliq idoralariga topshiriladi.

## 11. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv mamlakatning asosiy boyligi hisoblanib, undan samarali foydalangan haqida prezidentimiz o'z nutqlarida bir necha bor takrorlaganlar<sup>1</sup>.

Iqtisodiy ta'sir ko'rsatish choralar yordamida respublikada yer osti va yer usti suvlaridan oqilona foydalananish va buni tartibga solish maqsadida joriy etildi.

**Soliqni to'lovchilar.** O'z faoliyatida suvdan foydalananuvchi yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar hisoblanadi.

**Soliq solish obyekti.** Ishlab chiqarish va texnika ehtiyojlari uchun yer usti va yer osti manbalaridan foydalilanigan suv resurslarining butun hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

**Soliq stavkalari.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi O'zR VM belgilaydi (1 kub.m/tiyin).

	Yer osti manbalaridan olingen suv resurslari hajmi	Yer osti manbalaridan olingen suv resurslari hajmi
Sanoat korxonalar	640,0	820,0
Elektr stansiyalari	183,0	273,0
Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalar	351,0	455,0
Iqtisodiyot boshqa tarmoqlari korxonalar	31,0	39,0

**Soliqqa doir imtiyozlar.** Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etiladi: notijorat tashkilotlar, suv resurslari

<sup>1</sup> 1998-yil 1-yanvaridan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining X bo'limiga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 1997-yil 30-dekabrida 384-son bilan ro'yxatga olingen, O'zR Moliya vazirligi va DSQning 1997-yil 28-noyabridagi 38/97-100-son «Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomasiga asosan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

dan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchilardan tashqari. Ana shu faoliyat uchun foydalanilgan suv hajmidan kelib chiqib.

Suvdan foydalanishni imkoniyat darajasida tejash maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kiritilgan. Suv resurslaridan foydalanish solig'i to'lovchilari bo'lib, o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solishning alohida tartibi o'matilgan to'lovchilarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'matilgan to'lovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak. Yer osti va yer usti manbalaridan ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarda foydalanishga olingan suv resurslari hajmi, ya'ni yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan suv resurslarining jami hajmi, iste'mol xarakteri va maqsadlaridan qat'i nazar, soliqqa tortiladi.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, ariqlar va boshqa yer usti manbalari kiradi.

Yer osti manbalariga: artezian quduqlari va skvajinalari, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari kiradi.

O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir.

Suvdan foydalanish joyida yuridik shaxslar, davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Yer osti va yer usti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslarining hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yer osti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar.

Yer osti manbalariga esa artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmoqlari kiradi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalananidan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek, ilmiy tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

#### **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:**

- notijorat tashkilotlari, ana shu faoliyatda ishlatilgan suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchilardan tashqari.

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlari deganda quyidagilar tu-shuniladi:

- faqat davlat budgeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, xarajatlarni qoplash uchun belgilangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

- xayriya birlashmalar, uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va tashkil etmaydigan) dan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda 1 ga sug'oriladigan yerga sarflangan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

#### **Soliq bo'yicha hisob-kitoblar:**

- yuridik shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan amalga oshiriladi va davlat soliq xizmati organlariga chorak va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish muddati uchun belgilangan muddatlarda Yo'riqnomaga ilova qilingan shaklda taqdim etiladi;

- jismoniy shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan mustaqil amalga oshiriladi va davlat soliq xizmati organlariga shu soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda (hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha) mazkur Yo'riqnomaga ilova qilingan shaklda taqdim etiladi.

Dehqon xo'jaliklariga (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash to'g'risida to'lov xabarnomalari davlat soliq xizmati organlari tomonidan joriy yilning 1-mayidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Suvni markazlashtirilgan suv quvuri tarmog'idan oladigan yuridik shaxslar «Oqavasuv» tizimi korxonalar bilan solishtirish jarayonida olingan suv hajmini aniqlashtirish chog'ida suv hajmidagi farqni solishtirish amalga oshirilgan davr uchun hisob-kitoblarda aks ettiradilar.

#### **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lanadi:**

- yuridik shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan — har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) — har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha.

Chorak uchun suv resurslaridan foydalanganlik solig'inining umumiy summasi eng kam ish haqining ellik baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar soliqni chorakda bir marotaba, choraklik moli-yaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda to'laydilar.

Soliq to'lovchilar (qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari) joriy yilning 15-yanvariga qadar suvdan foydalangan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliqni belgilangan limitdan kelib chiqib yoki suv yetkazib berish shartnomasiga ko'ra har oyda yoki har chorakda to'lashlari to'g'risida bildiruvnoma yuboradilar.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalarini va dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yilda bir marta — hisobot yilining 15-dekabriga aqdar to'laydilar.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydalangan suv hajmini olingen sunning umumiy hajmidan chiqarib tashlaydilar, bunda 1 hektar sug'oriladigan yerni sug'orishga suv sarfining umuman xo'jalik bo'yicha o'rtacha miqdoridan kelib chiqiladi (boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning sug'oriladigan yerlari ham kiradi).

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summalarini to'langan taqdirda, soliqlar, yig'imlarning boshqa turlari bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasi bo'yicha o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga e'tiborga olinadi.

Suv yer osti va yuzadagi manbalardan kelib tushadigan suv quvurlari tarmog'ida suvdan foydalanganlarga soliq manbalar bo'yicha belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblanadi. Shahar va tumanlarning davlat soliq xizmati organlari suv yetkazib beruvchi korxonalaridan suv quvurlari tarmog'iga yuzadagi va yer osti manbalardan kelib tushadigan suv hajmlari nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishlari va mazkur ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga yetkazishlari kerak.

Baliq xo'jaliklari suvni ma'lum suv manbayidan (kanal, daryo) oladigan va suvni ana shu suv manbayiga tashlaydigan hollarda, qishloq va suv xo'jaligi organlari tomonidan beriladigan ma'lumotnomasi olingen suv hajmidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish paytdida ana shu manbaga tashlanadigan sunning hajmi chiqarib tashlanadi. Baliq xo'jaliklari tomonidan olingen suv kollektor-zovur tarmog'iga tashlangan taqdirda soliq butun olingen suv hajmi uchun to'lanadi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolarning bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijara topshirilganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni «Suvqava» tizimi korxonalar yoki suv xo'jaligi organlari, yoxud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnomasi tuzgan ijara beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijara olgan va o'zlar suv yetkazib berish to'g'risida shartnomasi tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar.

Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalilaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalilaniladigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlarni bajariladigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarni bajarish chog'ida qurilish paytdida foydalilaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'i nazar, issiq suv va bug'uzatuchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yer osti manbalaridan ishlab chiqarish hamda texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

**Soliqni hisobga olish tartibi.** Yuridik shaxslarning budget bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarining buxgalteriya hisobi budgetga to'lovlar bo'yicha (turlari bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisob varag'ida yuritiladi.

**Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:**

- davr xarajatlarini hisobga olish hisob varag'i debeti;
- budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag'i krediti.

**Budgetga o'tkazilgan soliq summalarini quyidagicha aks ettiriladi:**

- budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag'i debeti;
- pul mablag'larini hisobga olish hisob varag'i krediti.

Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdon shaxslarning harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## 12. Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 620-qaroriga asosan (14.07.05) yagona soliq to'lovchilarga «yagona soliq» stavkasi (ayrim yig'imlarni o'z ichiga olgan) joriy qilindi.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari ixchamlashgan soliq tizimiga o'tishga ruxsat berishlik ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>1</sup>.

Ixchamlashgan soliq tizimining ahamiyati kattadir. Bular, *birinchidan*, bozorni tezda tovarlar va xizmatlar bilan boyitish imkonini beradi, *ikkinchidan*, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rnlari ochishga yordam

<sup>1</sup> Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash ixtiyoriyidir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni yoqlash to'g'risida»gi qaroridan kelib chiqiladi (1998-yil 15-aprel 159-son).

beradi, ***uchinchidan***, ular faoliyatini tashkil qilishni ixchamlashtiradi, ***to'rtinchidan***, soliq hisoblari va hisobotlari sonini kamaytiradi, soliq hisoblash xodimlari ishini osonlashtiradi, chunki ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalari o'miga yagona soliq (aksiz osti tovarlari bo'lsa — aksiz) to'laydi. Ko'p martali bo'nak to'lovlardan umuman bo'lmaydi. Demak, boqimanda ham bo'lmashligi lozim.

Agar kichik korxonalar aksiz osti tovarlari ishlab chiqarsalar, unda aksiz solig'ini ham to'laydilar.

Soliq hisobi oddiy bo'lib, atigi 6 ko'rsatkichdan iborat.

***Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to'lovlarini to'lash tartibi saqlanib qolgan:***

- Aksiz solig'i.
- Bojxona to'lovlar.
- Davlat boji.
- Budgetdan tashqari fondlarga to'lovlar: nafaqa fondi, bandlik, yo'l fondlari va boshq.
- Birja bitimlari yig'imi.
- Maxsus tovarlarni sotish huquqini olish litsenziya yig'imi.
- Savdo qilish huquqini olish yig'imi.

Kichik biznes korxonalari qatoriga o'tishning yagona mezonibor. U ham bo'lsa, ulardagisi ishlovchilar sonidir. 2002-yildan boshlab, filial va bo'linmalarda xodimlar ham ishlovchilar soniga qo'shiladigan bo'ldi.

***Kichik biznes maqomini olishning quyidagi me'yorlari belgilangan mikrofirmalarda:***

- ishlab chiqarish sohalari uchun — 10 kishigacha;
- xarid qilish, ta'minlash sotish korxonalari, xizmat ko'rsatish va noishlab chiqarish sohalari uchun — 5 kishigacha.

kichik korxonalarda:

- sanoatda — 40 kishigacha;
- qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida — 20 kishigacha;
- fan, ilmiy xizmat qilish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida — 10 kishigacha ishlovchisi bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagisi Farmoniga asosan 2004-yilning 1-yanvardidan kichik tadbirkorlik (biznes) ***subyektlari toifasiga quyidagilar kirishi belgilandi***:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmasligi tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiyoq ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

***Quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlar soni:***

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati — 100 kishidan;

• mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari — 50 kishidan;

• fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiyoq ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmasligi lozim.

Soddalashtirilgan soliq, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar (keyingi o'rnlarda mikrofirmalar va korxonalar deyiladi) uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibini belgilaydi.

Soddalashtirilgan soliqning amal qilish dasturiy vositalar ishlab chiqarishga, kompyuter texnikasi va dasturiy vositalarga servis xizmati ko'rsatishga, kompyuter texnikasida va axborot texnologiyalari bilan ishlashga o'qitishga ixtisoslashayotgan tashkilotlarga (xodimlar sonidan qat'i nazar) ham tatbiq etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashirilgan tizimi O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksida nazarda tutilgan amaldagi soliqqa tortish tizimi bilan bir qatorda qo'llaniladi.

Soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi ixtiyoriy ravishda mikrofirmalar va kichik korxonalarga mazkur tartibga muvofiq taqdim etiladi, soliq solishning alohida tartibi belgilangan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi umum davlat soliqlari yig'indisi, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari joriy etadigan, quyida ko'rsatilgan yig'implardan tashqari, mahalliy soliqlar va yig'implar o'rniga yagona soliqning to'lanishini nazarda tutadi:

- savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun yig'im, shu jumladan, tovarlarning alohida turlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun litsenziya yig'implari;
- yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im;
- avtotransportni qo'yanlik uchun yig'im.

Yagona soliqni to'lovchi bo'lgan korxonalar sotib olingan tovar qiymatida to'languan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ishlab chiqarish xarajatlari (muomala chiqimlari)ga hisobdan chiqaradi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun aksiz solig'i, davlat poshlinalari, litsenziya yig'implari, budgetdan tashqari fondlarga ajratmalarni to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolnadi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan korxona umumiyligi belgilangan tartibda yoki soddalashtirilgan shakl bo'yicha hisob yuritish huquqiga ega. Buxgalteriya hisobotlarining boshlang'ich hujjatlari va daromadlar hamda xarajatlarni hisobga olish daftari yuritilishining soddalashirilgan shakli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

Korxonalar soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi uchun ular ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yil choragi boshlanguniga qadar bir oy qolishidan kechiktirmasdan yozma ariza berishi zarur. Bunda yuqorida nazarda tutilgan shartlarga rioya qilinishi lozim.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishda korxonalarining bundan oldingi davr uchun o'sha davrda amal qilib turgan soliqqa tortish tizimi asosida soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar saqlab qolinadi.

Korxonaning soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi haqidagi qaror yoki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi tomonidan korxonaning ariza bergen kunidan boshlab o'n kun davomida chiqariladi.

Hisobni soddalashtirilgan shakl bo'yicha yuritishga o'tishga qaror qilgan korxona arizasi qondirilganidan so'ng, davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakliga ko'ra, xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Davlat soliq xizmati organi xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarining birinchi sahifasida ariza imzolangan sanani qayd qiladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftariga O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlariga binoan belgilangan hisobot bilan muomala qilish qoidalari tegishli bo'ladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimining qo'llanishidan voz kechish va soliqqa tortishning belgilanmagan tizimiga qaytish navbatdagi taqvimiy yil boshidan boshlab davlat soliq xizmati organiga tegishli arizani taqvimiy yil tugallanishiga 15 kun qolishidan kechiktirmasdan berilgani holda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organining soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishni rad qilish haqidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Yagona soliqni to'lashdan soliqqa tortishning bundan oldingi tizimiga o'tish yil davomida amalga oshirilmaydi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qonunlarda belgilangan mezonlarga binoan mikrofirmalar va kichik korxonalarga kiradigan yuridik shaxslarga tegishli bo'ladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi uchun faoliyat turi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi belgilagan kod bo'yicha aniqlanadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar xodimlari sonini belgilashda, shuningdek, pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdag'i boshqa shartnomalar bo'yicha ishlovchilar ham hisobga olinadi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi va nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston Chernobilchilar» uyushmasining mulki bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941—1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyatini bilan shug'ullanuvchi korxonalarga joriy etilmaydi.

Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiradigan yagona soliqni to'lovchilar faoliyatning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish obyekting alohida hisobi yuritishi va muayyan faoliyat turining soliq solinadigan obyekti va unga muvofiq keladigan yagona soliq stavkasi asosida yagona soliqning hisob-kitobini amalga oshirishi kerak.

Aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar aksiz solig'ini O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksida belgilangan tartibda to'laganlari taqdirda soddalashtirilgan soliq solish tizimiga o'tishlari mumkin.

**Quyidagilar yagona soliqqa tortish obyektlari (soliq solinadigan oborot) hisoblanadi:**

- savdo (xarid qilish, vositachilik, ulgurji-sotish, ta'minot) korxonalarini uchun — yalpi daromad;
- xarid qiluvchi, ta'minot-sotish korxonalarini uchun yalpi tushum.

Bunda qurilish, qurilish-montaj, tuzatish-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solish obyekti hisoblanadi.

**Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- tovar (ish, xizmat) larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum summasi;
- sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar;
- o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashiriladigan valutaga eksport qilishdan olingan tushum summalarini yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi. Mazkur qoida savdo-vositachilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoxud xomashyo tovarlarni — paxta tolasi, paxta kalavasi, lint, neft, neft mahsulotlari, rangli va qora metallarni erkin almashiriladigan valutaga eksport qilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga joriy qilinmaydi.

**Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:**

- tovarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtaсидаги farq;
- moliyaviy faoliyatdan daromadlar va O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar.

Yagona soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda soliq solinadigan oborot va tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblab chiqiladi.

Yagona soliq bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga yil choragilik va yillik hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Yagona soliq budgetga yilning har choragida o'sib boruvchi yakun bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan to'lanadi.

Yagona soliq summasi mahalliy budgetga o'tkaziladi.

To'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Yagona soliq to'lovchilari bo'lib, korxonada ishlovchilar soni cheklangan me'yordan oshmagan yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunga hamma sohalarda

faoliyat ko'rsatuvchi har xil mulk shaklidagi korxonalar kiradi. Demak, kichik korxona me'yori faqat ishlovchilar sonigagina qaralib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va daromad olish darajasi e'tiborga olinmagan. Shu yerdan ko'rinish turibdiki, davlat ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar, xizmatlar bajaruvchi kichik korxonalarini har tomonlama rag'batlantirishni mo'ljallaydi. Faoliyat turi xilma-xil bo'lsa ham yagona soliq to'laydilar.

Yagona soliq to'lovchi korxonalar sotib olingan tovarlar va xomash-yolar tarkibida to'langan QQS summasini shu tovarlar va xomashyo tarkibiga kiritadi (konsignatsion tovarlar bo'yicha davr xarajatiga olib boradi). Mahsulot yetkazuvchilarga ish va xizmat bilan birga to'langan QQS summasi shu ishlar, xizmatlar qiymatiga kiritiladi.

Yagona soliq to'lovchilar, bordi-yu, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarini ijaraq bersalar, unda shu aktivlar qiymatidan mol-mulk solig'ini umumiyl tartibda to'laydilar.

Korxonada ishlovchilar soniga shartnoma bo'yicha ishlovchilar, fuqaro-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlovchilar hamda yuridik shaxs maqomini olmagan filial va vakolatxonalarda ishlovchilar soni ham qo'shiladi.

Ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab, ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qaror qilgan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan joydag'i soliq inspeksiyasiga yozma ariza beradilar. Bu yerda ixchamlashtirilgan soliqqa o'tishga ruxsat olish kerak bo'lmaydi.

Korxonada ishlovchilar sonidan 50 % ni 1941—1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari, nogironlar birlashmasi «Nuroniy» va «O'zbekiston Chernobilchilar» uyushmasi mulkida bo'lgan nogironlar tashkil etsa, yagona soliq to'lashdan ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 610-sun Qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar tushumi:

- iste'mol tovarlari ishlab chiqarish-fizik hajmi o'sish hisobiga olinsa, yagona soliqdan ozod etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadigan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan summasini oldindan to'lab boradilar.

#### **2005-yil uchun mikrofirmalar va kichik korxonalarga 1-iyuldan boshlab quyidagi yagona soliq stavkalari belgilangan:**

Nº	Ko'rsatkichlar	Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish hajmiga nisbatan, foizlarda
1.	Xarid, ta'minot-sotuv korxonalar, brokerlik firmalari	30 (yalpi daromaddan)
2.	Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar	50
3.	Gastrol-konserst bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lg'an yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, norezidentlarni jaib etish yo'lli bilan ommaviy tomosha tadbiralarini tashkil etishdan daromad oluvchi korxonalar	35

davomi	
4.	Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalar
5.	Iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi korxonalar
6.	Lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etuvchi yuridik shaxslar

Yagona soliq to'lashga o'tishni istagan korxonalar chorak boshlanishidan bir oy oldin ro'yxatdan o'tgan soliq idoralari yozma ravishda ariza berishlari kerak.

Korxonalarini yagona soliqqa o'tkazish to'g'risida yoki asoslangan tarzda uni rad etish to'g'risidagi qaror soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi. Yangi tuzilgan korxonalar uchun ruxsat olish talab etilmaydi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarining yagona solig'i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda to'lanadi. Bo'nak to'lovlar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchilar yagona soliqni to'g'ri, to'liq hisoblash va budgetga o'tkazish javobgarligini soliq qonunchiligi bo'yicha oladilar.

Yalpi daromadni yoki tushumni kamaytirish soliq obyektini yashirish (kamaytirish) deb qaraladi va tegishli moliyaviy jazolarga tortiladi.

#### **13. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini uchun yalpi tushumdan yagona soliq**

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ining nazariy asoslari haqida so'z yuritishdan oldin soliqlar nazariyasi — o'zi nima degan savolga javob berish lozim<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 30-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» 1034-soni Farmoniga binoan 1995-yil 1-yanvardan boshlab mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini foyda va qo'shimcha qiymat solig'i o'rniga yalpi daromad solig'ini to'lovleri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-apreldagi 153-sun bilan qabul qilingan «Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalariga soliq solish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadga solinadigan soliq bo'yicha budget bilan hisob-kitob qilish tartibi belgilab berildi.

Ushbu, yalpi daromad solig'i bo'yicha qabul qilingan 153-sun qarorga 1999-yil 14-yanvardagi 20-sun qarori bilan kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq holda «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va budget parametrlari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 30-dekabrdagi 490-soni qaroriga muvofiq savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini daromad (foyda) solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, boshqa soliqlar va soliqlar (bundan mulk solig'i mustasno) o'rniga budgetga yalpi daromad solig'ini to'laydilar.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini to'laydigan yalpi daromad solig'ini — davlat soliq xizmati organlarining nazarat qilishi haqida Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-apreldagi 153-sun qarorida shunday deyilgan: «Soliqlar haqidagi qonunlarning to'g'ri qo'llanilishi ustidan nazarat qilish O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yalpi daromad solig'i maxsus yo'riqnomaga asosan undiriladi. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini quyidagi soliq va yigimlar turlarini to'lashdan ozod etiladi: ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq, yer solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar.

#### Ayni vaqtida ular quyidagilarni to'laydilar:

- yalpi daromad solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- bojxona to'lovlar;
- davlat bojlari;
- litsenziya yig'imlari;
- budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar.

**Soliq to'lovchilar.** Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar. Yalpi daromad solig'i to'lovchisini belgilash uchun asosan mezon davlat statistika organining ro'yxat varaqasida ko'rsatilgan korxonaning faoliyat kodi hisoblanadi.

**Soliq solish obyekti** — korxonaning yalpi daromadi. Yalpi daromad tarkibiga kiritiladi:

- sotilgan tovarlarning xarid va sotish qiymatlari o'rtasidagi farq;
- operatsion daromadlar, tushumlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha daromad va xarajatlar (saldo);
- favqulodda daromadlar.

Soliq stavkalari:

- korxonaning faoliyat turiga (ulgurji savdo, chakana savdo, umumiyl ovqatlanish);
  - korxona joylashgan yerga (shahar, qishloq, olisdagi va tog'lik joylar);
  - yalpi daromadning tovar oborotiga nisbati sifatida aniqlanadigan korxonaning daromad olish darajasiga bog'liq holda belgilanadi.

Bir necha faoliyat turini (ulgurji savdo, chakana savdo, umumiyl ovqatlanish) amalga oshiradigan korxonalar tegishli faoliyat turlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydilar. Faoliyat ayrim turlari bo'yicha mustaqil hisob yuritilmagan taqdirda, korxonalar korxona amalga oshirayotgan faoliyat turlariga belgilangan eng yuqori stavkalar bo'yicha soliq to'laydilar.

**Soliq bo'yicha imtiyozlar.** Yalpi daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar nazarda tutilmagan.

**Hisob-kitobni taqdim etish muddati.** Yalpi daromad solig'i bo'yicha hisob-kitob har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

**Soliqni to'lash muddati.** Hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay.

**Yuridik shaxslarning (shu jumladan, norezidentlarning) soliq organida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlashi quyidagicha miqdorda jarima solinishiga olib keladi:**

• agar faoliyat o'ttiz kungacha amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ish haqining ellik barobari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olingan daromad (foyda)ning o'n foizidan kam bo'limgan miqdorda;

• agar faoliyat o'ttiz kundan ortiq muddatda amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ish haqining yuz barobari miqdorida, lekin bunday faoliyat natijasida olingan daromad (foyda)ning ellik foizidan kam bo'limgan miqdorda.

Savdo va umumiyl ovqatlanishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslarning soliq organi ro'yxatidan o'tishdan bo'yin tovashi eng kam ish haqining besh barobari miqdorida jarima solishga olib keladi.

Daromad (foyda) yashirilgan taqdirda soliq to'lovchidan, shu jumladan, savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalaridan yashirilgan daromad (foyda)ning butun summasi va ana shu summa miqdorida jarima undiriladi. Soliq solinadigan boshqa obyektlar yashirilgan taqdirda soliq to'lovidan yashirilgan soliq solish obyekti uchun olinadigan soliq summasi va ana shuncha miqdorda soliq undiriladi. Soliq to'lovi yuqoridagi xatti-harakatlarni moliyaviy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil ichida takroran sodir etgan taqdirda undan tegishli summa va ana shu summaning ikki barobari miqdorida jarima undiriladi.

Deklaratsiya va hisobotlar o'z vaqtida hamda belgilanmagan shaklda taqdim etilsa, soliq to'lovchi o'tkazilgan har bir kun uchun tegishli summaning 1 % miqdorida, biroq ilgari hisoblab chiqarilgan to'lovlar chiqarib tashlangan holda va tegishli to'lov summasining 10 % dan ko'p bo'limgan miqdorida jarima to'laydi.

Buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki uning belgilangan tartibini soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblarning buzilishiga olib keladigan tarzda buzgan holda yuritganlik uchun soliq to'lovchidan qo'shimcha hisoblab chiqarilgan summaning o'n foizi miqdorida jarima undiriladi.

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz shug'ullaniganlik uchun shu faoliyatdan olingan butun daromad (foyda) va ana shu miqdorda jarima undiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar hisob-kitobda aks ettirmagan holda tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) realizatsiya qilish operatsiyalarini o'tkazganlik uchun ulardan ana shu tovarlar (ish, xizmatlar) qiymati miqdorida jarima undiriladi.

Soliqlar va yig'imlar bo'yicha to'lov mudati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,07 % miqdorida pena undiriladi, to'lov kuni ham shunga kiradi. Pena undirish soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

Tovarlar (ish xizmat) realizatsiya qilinayotganda hisob varaq-fakturalari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchidan sotilgan tovar (ish, xizmat) lar qiymatining 10 foiz miqdorida jarima undiriladi.

Soliq organlari soliq to'lovchilarga, shu jumladan, umumiyl ovqatlanish korxonalariga nisbatan moliyaviy jazo qo'llash bilan bir qatorda,

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, ma’muriy jazo choralarini faqatgina «Ma’muriy javobgarlik kodeksi» (MJK) doirasidagi jarimlar undirish orqali qo‘llaydilar. **Hukumat organlarining qarorlari bilan davlat soliq organlari ixtiyoriga berilgan ishlar ma’muriy huquqbuzarlik obyektlari hisoblanadi.** Ular:

- soliq solish;
- savdo va xizmatlar ko‘rsatish;
- tadbirkorlik faoliyati obyektlaridir.

Demak, davlat soliq organlariga tegishli ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning yuqoridagi 3 guruhini ajratib ko‘rsaish mumkin ekan.

Soliq solish (1-guruh) borasidagi ma’muriy huquqbuzarlik «MJK»ning 174—175-moddalarida keltirib o‘tilgan. Soliqlar va boshqa to‘lovlardan bo‘yin tov lash «MJK»ning 174-moddasiga ko‘ra jazolanadi.

Ya’ni, agar soliq to‘lovchilar soliq, olinadigan daromad (foyda)ni yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish yoxud soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlasalar eng kam ish haqining — fuqarolarga 3—5 barobarida, mansabdar shaxslarga 5—7 barobar miqdorida jarima undiriladi.

Ushbu moddaning 1-qismida ko‘zda tutilgan huquqbuzarlik soliq va boshqa majburiy to‘lovlar ko‘rinishida belgilangan summalarini budgetga o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan rasmiy hujjatlarda soliq solish obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettermaslik yoki noto‘liq aks ettishda namoyon bo‘ladi. Soliq solinadigan summaning yashirilish holatida yashirilgan summaning miqdori alohida ahamiyat kasb etadi, zero ushbu summa eng kam ish haqining o‘nta miqdoridan oshmaganda ma’muriy javobgarlik yuzaga keladi. Huquqbuzarlik obyekti bo‘lib esa, ham fuqarolar, ham korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdar shaxslari hisoblanadi.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarining soliq va boshqa to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tov lash «Jamiyat kodeksi»ning 184-moddasiga muvofiq quyidagi jinoiy javobgarlikka tortildilar:

Daromad (yalpi daromad, foyda) yoki soliq to‘lanadigan boshqa obyektlarini qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig‘imlarni, boj va boshqa to‘lovlarini to‘lashdan qasddan bo‘yin tov lash, **bojlar to‘lanmagan summa ancha miqdorni tashkil qilsa:**

a) eng kam oylik ish haqining oylik barobari miqdorida jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud mol-mulk musodara qilinib, yoki musodara qilinmay 6 oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ushbu qilmishlar agar takroran yirik miqdorda sodir etilgan bo‘lsa:

b) eng kam oylik ish haqining ellik barobaridan 75 barobarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud mol-mulk musodara qilinib, yoki musodara qilinmay 3-yilgacha ozodliklan mahrum qilish bilan jazolanadi. Xuddi shunday qilmishlar alohida yirik hajmda sodir etilgan bo‘lsa;

d) eng kam oylik ish haqining 75 barobaridan 100 barobarigacha miqdorda jarima yoki mol-mulk musodara qilinib, yoki musodara qilinmay uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqoridagi ayrib o‘tilgan huquqbuzarliklar aniqlanganda, birlgilidagi tekshiruv yakunlari bo‘yicha yagona dalolatnomha tuziladi, unga bir tomonidan tekshiruvchi xodimlar va boshqa tomonidan tekshirilayotgan korxona, muassasa, tashkilot rahbarlari va bosh hisobchisi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs imzo chekadi.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalaridan undiriladigan yalpi daromad solig‘ining nazariy asoslari haqida yakuniy fikrlar quyidagicha.

**Demak, yalpi daromad solig‘ining mohiyati** — bu shundan iboratki, savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini budjetga mol-mulk solig‘idan tashqari barcha turli xil soliqlar o‘rniga 1 ta va oyda bir marta yalpi daromaddan soliq to‘laydilar.

Yalpi daromad solig‘ining tabiat o‘z ichiga — ushbu soliqning joriy qilinishdagi holatidan tortib, uni takomillashtirish borasida hozircha qilingan barcha chora-tadbirlar majmuyini oladi.

Yalpi daromad solig‘ini joriy qilishning ahamiyati deganda, bu soliqni qo‘llash iqtisodiyotga yoki ana shu soliqni to‘lovchi korxonalar faoliyatiga qay darajada ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi tushuniladi.

**Kichik biznes** — jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo‘tadillashtirishga yordam beradigan o‘rta tadbirkorlar sinfining paydo bo‘lishi demakdir. Bu respublika bozorini zarur iste’mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu yalpi ish o‘rinlaridir. Shuni hamisha nazarda tutish kerakki, faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobotigagina g‘oyat keskin muammoni — aholining (ayniqsa, ortiqcha mehnat zaxiralari mayjud bo‘lgan qishloq joylar va min-taqalarda) ish bilan bandligini ta‘minlash vazifasini hal qilishga qodir bo‘lamiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda savdoning xoh u ulgurji, xoh chakana turi bo‘lmasin, uning iqtisodiyotdagii o‘rn beqiyos. Chunki faqat savdo korxonalarini orqaligina barcha iste’mol tovarlari iste’molchilarga yetib boradi. Bu yerda savdo korxonalarini xuddi ishlab chiqaruvchi va xaridor o‘rtasidagi vositachi vazifasini bajaradi.

Yalpi daromadga soliq to‘lovchilar hamma savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarini, chet el investitsiyasi bilan tuzilgan qo‘shma va umumiyl ovqatlanish korxonalaridir. Yalpi daromadga soliq obyekti bo‘lib korxonaning yalpi daromadi hisoblanadi. Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

#### Daromadlar:

- a) sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish qiymati o‘rtasidagi farq;
- b) operatsion daromadlar;
- d) moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari qiymati qoldig‘i;
- e) favqulodda daromadlar;

#### Tiklanadigan xarajatlar:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob stavkalari atrofida va undan ortiq to‘langan ssudalar va qarzlar foizi;

b) qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar. To'lov manbayida soliqqa tortilgan dividendlar va foizlar yalpi daromaddan chegirib tashlanadi.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini o'zlarining dividendlari va foizlari (bankka kredit foizidan tashqari) umumiyl belgilangan tartib bo'yicha soliqqa tortiladi. Bank kreditining foizi to'lanayotganda soliq solinmaydi. Ularning foizi bankning daromadlariga qo'shilib soliqqa tortiladi.

Quyida biz yalpi daromad solig'inining 2005-yildagi stavkalarini keltiramiz.

#### **Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadiga 2005-yildan boshlab belgilangan soliq stavkalari**

To'lovchilar	Quyidagi hududlarda joylashgan korxonalar uchun soliq stavkalari (yalpi daromadga nisbatan foizda)		
	Toshkent shahri va shaharlarda	Qishloq joylarda	Borish qiyin bo'lgan tog'li tumanlarda
Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini	20	18	16
Ulardan: Umumta'lim maktablariga, maktabs-internatlarga, o'rta-maxsus, kasb-hunar va oily o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi umumiyl ovqatlanish korxonalarini	16	14	12

#### **Demak, yuqorida jadvaldan ko'rindiki, agar korxona savdo va umumiyl ovqatlanish faoliyati bilan shug'ullansa:**

- a) shahar joylarda 20 %;
- b) qishloq joylarda 18 %;
- d) uzoq va tog'li tumanlarda 12 % stavkada soliq to'lagan.

Agar korxona mulki oyning birinchi yarmida ishga tushirilsa, o'rtacha oylik qiymati belgilanayotganda to'liq oy deb qabul qilinadi, agar mulk oyning ikkinchi yarmida ishga tushurilsa, uning qiymati keyingi oyning boshida bo'lgan mulklarning qiymatiga aniqlanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, «Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini» yalpi daromad solig'i bilan birgalikda mol-mulk solig'inining ham to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Ular ham boshqa yuridik shaxslar kabi umumiyl tartibda ushbu soliqni to'laydilar. Chunki mol-mulk solig'inining to'lovchilari bo'lib o'z mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini balansida bo'lgan eskirish hisobiga olinmagan o'rtacha yillik asosiy vositalar, lizing shartnomasi bo'yicha sotib olingan vositalar, moddiy aktivlar hamda muddatida ishga tushurilmagan mulklar qiymati soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Korxona mulklarning o'rtacha qiymati yil boshi va oxiridagi qiymatlarning yarim va yil ichida har bir oyning boshida bo'lgan qiymatlarini qo'shib, 12 ga bo'lish bilan aniqlanadi:

$$O'rtacha yillik qiymat = \frac{\frac{1\text{-yanvar}}{2} + 1\text{-fevral} + 1\text{-mart} + \dots + \frac{1\text{-yanvar}}{2}}{12}$$

shakli bilan aniqlanadi.

**Soliq to'laydigan bazani aniqlash uchun buxgalteriya balansining aktivididan quyidagi schotlar olinadi:**

- 01 — Asosiy vositalar.
- 03 — Uzoq muddatli ijaraga berilgan mulklar (m).
- 04 — Nomoddiy aktivlar.

Soliqqa tortiladigan baza savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini balansida bo'lgan uy-joy, kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlari, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlarida va o't o'chirish xavfsizligi uchun foydalilaniladigan obyektlar ushbu mulklar qiymatiga kamaytiriladi. Soliq hisobini soliq to'lovchilar tuzadilar va soliq idoralariга hisobotlar hamda balanslar topshirish kunida topshiradilar. Korxonalar joriy to'lovlar summasini mustaqil ravishda o'zlar hisobot davrdagi mulklarning o'rtacha oylik qiymatlari va soliq stavkasiga qarab belgilaydilar. Soliq summasi davr xarajati tarkibiga kiradi. Budgetga joriy to'lovlar summasini har oyning 20-sanasidan kechiktirmay yillik summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida to'lanadi. Hisobot chiqarilgan qo'shimcha soliq summalari hisobot taqdim etilgan kundan e'tiboran 5 kun ichida to'lanadi. Ortiqcha to'langan summa kelgusi to'lovlarga o'tkaziladi yoki boshqa to'lovlardan qarz bo'limasa, korxonaning yozma arizasiga binoan 3 kun ichida unga qaytariladi.

Yagona soliqli to'lashga o'tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to'lovlarini to'lash tarkibi saqlanib qolingga: aksiz solig'i, boj to'lovlar, davlat boji, budgetdan tashqari foydalarga to'lovlar, birja bitimlar yig'imi, maxsus tovarlarni sotish uchun litsenziya yig'imi, transport turar joy yig'imi, otchoparda poya va yutuq olish yig'implari.

Yagona soliq to'lashga o'tishni istagan savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini chorak boshlanishidan bir oy oldin ro'yxatdan o'tgan soliq idoralariga yozma ariza berishlari kerak.

Korxonalarini yagona soliqqa o'tkazish to'g'risida yoki asoslangan tarzda undan bosh tortish to'g'risidagi qaror soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshirilishi lozim.

Yagona soliq yoki yalpi daromad solig'inining afzallik va kamchilik tomonlarini aytadigan bo'lsak, agar savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarining balansidagi mulknning qiymati yuqori bo'lsa, uning yagona soliq to'lashga o'tganlari ma'kulroq. Chunki yagona soliqqa o'tkazilgandan keyin mol-mulk solig'inini to'laydilar. Yagona soliq tizimining ahamiyati juda katta.

Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq tizimi islohot jarayonining tarkibiy qismi, uning

ichki harakatlantiruvchi omili bo‘lgani holda, iqtisodiy islohot maqsadlari eng ko‘p darajada muvofiq kelishi shart.

Soliq tizimini takomillashtirishga asos qilib olingan bosh tamoyil — korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir.

Demak, soliq solish ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, uning natijasida davlat va mahalliy budgetlar yetarli manbaga ega bo‘lishi hamda undan mamlakat milliy iqtisodiyotining hamma sohalarida foydalanish imkoniyati yaratilishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va xarajatlarni kamaytirishga erishilishini ta‘minlash lozim. Soliq solish yo‘li bilan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turishning asosiy mohiyati shundaki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan korxonalardan soliq ko‘prog olinib, iqtisodiy nochor korxonalarga soliqlardan yengilliklar berilib, iqtisodiyotda umumiy o‘sish ta‘minlashishi kerak.

Savdo va umumiyy ovqatlanish korxoanlaridan olinadigan yalpi daromad solig‘i stavkalarini kamaytirish lozim. Chunki ushbu faoliyat bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmay yakka tartibda shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qulay soliq muhiti yaratilgan. «Savdo va umumiyy ovqatlanish» korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig‘i stavkalarining yuqoriligi natijasida ularning raqobatga bardosh berishi qiyinlashadi.

#### 14. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘limganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga bo‘lingan. Davlat budgeti daromadlarining 80 % dan ko‘prog‘ini yuridik shaxslar to‘laydi. Jismoniy shaxslarning soliq va yig‘imlari esa qariyb budget daromadining 20 % ga yaqinini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsnинг to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z daromadidan olinadi, soliqlar va yig‘imlar asosan naqd pul to‘lash yo‘li bilan budgetga o‘tkaziladi.

Shunday ekan, bu yerda soliq to‘lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri pul munosabati mavjud.

Shuning uchun jismoniy shaxslar soliqlarini undiruvchi o‘ta madaniyatli, shirin so‘z bo‘lishi bilan birga jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash, undirish tartib-qoidalarini, soliq qonunchiligini chuqur bilishi kerak. Shu shartlar bajarilgan taqdirda budgetga jismoniy shaxslardan me‘yordagi daromadlarning to‘liq tushish imkoniyati yaratiladi. Soliqchi nozirning qo‘polligi, soliq qonunchiligini tushuntira olmasligi budgetga mo‘ljallangan summadagi soliqlarning kelib tushmasligiga olib kelishi mumkin.

**Jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash asosan 2 yo‘l bilan olib boriladi:**

- daromad to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan hisoblanadi;

• soliq xizmati idoralari tomonidan hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga xo‘jalik mehnat shartnomasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalari bo‘yicha ish haqi, mukofot va boshqa qator daromadlar to‘lovchi korxona, tashkilot, muassasa soliqlarni to‘liq, to‘g‘ri hisoblash va o‘z vaqtida budgetga o‘tkazib berish javobgarligini o‘z zimmalariga oladilar. Fuqarolarning olgan daromadlari to‘g‘risida soliq idoralariga, fuqaroga bildirish va ma‘lumotnomalar yozib berish vazifasi ham yuridik shaxslarga yuklatilgan.

Jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqarida qo‘shimcha daromad olganda va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchanda olingan daromadlar hamda qilingan xarajatlar ko‘rsatilgan soliq deklaratsiyalarini soliq idoralariga taqdim etadilar.

Shu hujjatlar va o‘zlaridagi bor ma‘lumotlar, tekshiruv dalolatnomalari asosida soliq idoralari jismoniy shaxslar uchun soliq hisobini tuzib, ularga soliq summasi ko‘rsatilgan xabarnomani yuboradilar. Bulardan tashqari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar qayd qilingan daromad solig‘i to‘laydilar.

Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, transport soliqlarini ham soliq idoralari har yili hisoblab chiqib, jismoniy shaxslarga xabarnoma orqali yetkazadilar. Xabarnoma olgan jismoniy shaxslar unda ko‘rsatilgan muddatda barcha soliq va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘lashga majburidirlar. Shu yerda fuqarolardan olinadigan biror-bir soliq hisoblanmay qolsa, soliq idoralari javob beradi.

Soliqlar va yig‘imlar o‘z vaqtida to‘lanmaganda «boqimanda» deb ataladi. Ana shu boqimanda summasiga har bir to‘lanmagan kun uchun 0,15 % pena soliq summasiga qo‘shib, qat‘iy tarzda budgetga to‘lanadi.

Moliya yilda soliqqa tortiladigan daromadi bo‘lgan har qanday jismoniy shaxs daromadiga qarab soliq to‘lovchilar bo‘lib hisoblanadi. Bu yerda jismoniy shaxslar tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet mamlakatlari fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar kiradi.

Soliqqa tortiladigan daromad tushunchasiga jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligi bo‘yicha ko‘rsatilgan chegarmalarni chiqarib tashlagandan so‘ng qolgan qoldiq hisoblanadi.

Soliqqa tortiladigan daromad — rezidentlar va norezidentlar daromadiga bo‘linadi.

Boshlanayotgan yoki tugayotgan moliya yilda 12 oy mobaynida O‘zbekiston Respublikasi rezidenti deb ataladi. Shu ko‘rsatilgan muddatdan kam vaqt yashagan jismoniy shaxslar norezident deb ataladi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti — jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasida manbayi bo‘lgan va undan tashqarida olgan daromadlari bo‘yicha daromad solig‘iga tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan soliq summasi O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lash paytida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro qonunlariga binoan hisobga olinadi. O‘zbekiston Respublikasi norezidenti faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida olgan daromadidan soliq to‘laydi.

Hisobga olinayotgan soliq summasi miqdori O'zbekiston Respublikasida harakatda bo'lgan soliq stavkasida hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadga solig'i summasidan oshib ketmasligi kerak.

Soliq obyekti bo'lib yillik jami daromad bilan soliq qonunchiligi bo'yicha chegirilib tashlanadigan chegirmalar orasidagi farq sifatida aniqlangan miqdor soliqqa tortiladigan daromad hisoblanadi. Demak, **soliqqa tortiladigan daromad** — bu jami daromaddan chegirmalar va soliqqa tortilmaydigan daromadlarni chiqarib tashlangandagi summasidir.

Bu yerda eng muhim narsa jismoniy shaxsning jami daromadi tarkibini to'g'ri aniqlashdir.

Jismoniy shaxsning yillik daromadi pulda (natura) yoki boshqa olin-gan, yoki olinishi kerak bo'lgan, bepul olingen pul mablag'laridir.

#### **Bular uch guruhg'a bo'linadi:**

1. Mehnat haqi tariqasida olingen daromadlar.
2. Jismoniy shaxsning mulkiy daromadlari.
3. Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari.

Jismoniy shaxsning mehnat haqi tariqasida olgan daromadlariga mehnat shartnomasi bo'yicha ishlardan va fuqaroning huquqiy xarakterga ega bo'lgan shartnomalar bo'yicha olgan daromadlari kiradi.

**Jismoniy shaxsning mehnat haqi tariqasida olgan daromadlariga yu-qoridagilardan tashqari quyidagilar kiradi:**

1) ishlovchilarga sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati bilan shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi yoki sotib olish bahosi o'rtasidagi manfiy farqi;

2) ish beruvchi yuridik shaxsning xodimlarning faoliyati bilan bog'liq bo'Imagan xarajatlarni qoplash summalar;

3) ish beruvchi tomonidan ishchining korxonadan qarz bo'lgan summasini hisobdan chiqarish — kechib yuborish;

4) ish beruvchining o'z xodimlari solig'ini va hayotining ixtiyoriy sug'urtasi badallarini to'lash xarajatlari;

5) ish beruvchi tomonidan jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan to'lovlarini to'lab yuborgan summalar;

6) ish beruvchining o'z xodimlariiga to'g'ridan to'g'ri yoki egri yo'il bilan daromadlarini tashkil etuvchi xarajatlari. Bunday xarajatlarga yuridik shaxs tomonidan qilingan kommunal xizmat to'lovleri, davlat nafaqalariga ustama nafaqa berish, yo'il chiptalari qiymati, oziq-ovqatga qo'shimcha to'lovlar, ro'znama va oynomalar uchun to'lab yuborish, turistik yo'llanmalar, sport klublari abonentlari to'lovleri kiradi.

Jami daromadga ishlovchining Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yordagi safar summalarini kirmaydi. Me'yordan ortiq safar xarajatlarining ma'lum qismi jismoniy shaxsning jami daromadiga qo'shiladi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan jami daromadlariga qonunlarda ruxsat etilgan, o'zining mulkiy javobgarligi asosida daromad olish maqsadida ko'rsatilgan aktiv faoliyatidan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan hamma tushumlar kiradi.

Jismoniy shaxs moliya yilda olgan daromadidan har bir ishlagan oy uchun jami daromadidan bir minimal ish haqi miqdorida chegirma olish huquqiga ega. Bu holat doimiy ish joyiga ega bo'lgan ishchi va xizmatchilarga va doimiy ish joyiga ega bo'Imagan tadbirkorlarga tegishlidir. Eng kam ish haqi — soliqqa tortilmaydigan minimum — ishlovchiga shu summa hisobidan eng minimal xarajatlarni qoplash imkonini berishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati bian shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini aniqlashda ularning tadbirkorlikdan olgan yalpi daromadidan shu daromadni olish uchun xarajat qilingan majburiy to'lovlar, sarflar va ajratmalar chegirib tashlanadi.

Yalpi daromaddan chegirilib tashlanadigan majburiy to'lovlar, xarajatlar va ajratmalar kabi xarajatlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati yalpi daromadidan jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'moli uchun zarur bo'lgan xarajatlar chegirilmaydi. Jami daromaddan moliyaviy jazo va penalar ham chegirilmaydi.

**Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan imtiyozlar uch yo'nalishda beriladi:**

- Soliqqa tortiladigan daromadga qo'shilmaydigan daromadlar.
- Soliqdan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslar.
- Soliqdan har bir to'liq oyga to'rt karrali minimal ish haqi miqdorida ozod etilish.

**Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari tarkibiga quyidagi daromadlar (soliqqa tortilmaydigan daromadlar) qo'shilmaydi:**

a) davlat ijtimoiy sug'urtasi va ijtimoiy ta'minoti nafaqalari, ishsizlik nafaqasi, tug'ish va homiladorlik nafaqasi, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qtogdagani (shu jumladan, kasal oila a'zolarini parvarish qilish nafaqasi) nafaqalar bundan mutasno. Jismoniy shaxslar hamda mehr-shafqat va ekologik fondlar hisobidan beriladigan pul va naturadagi yordam summarli;

b) olingen alimentlar;

d) oliy o'quv yurtlari talabalariga, o'rtalik maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari o'quvchilariga, ularning bazasida tashkil etilgan va o'rta diniy bilim yurtlari talabalariga shu o'quv yurtlari tomonidan beriladigan stipendiylar hamda muruvvat va ekologik fondlar tomonidan ta'sis etilgan stipendiylar;

e) kasb-hunar texnika bilim yurtlari va ular bazasida tashkil etilgan biznes maktablari tomonidan o'quvchilarning bajarilgan ishlari uchun to'langan to'lovlar;

f) davlat nafaqalari va ularga ustamalar;

g) qon topshirganlik uchun topshiruvchilarga beriladigan summalar, donorlikning boshqa turlari uchun berilgan summalar, ona suti topshirganlik uchun hamda tibbiyot xodimlariga qon yig'ganlik uchun to'lanadigan summalar;

yo h) mayib bo'lib qolish va sog'liqqa keltirilgan boshqa jarohatlar uchun tovon sifatida olingen summalar hamda boquvchisini yo'qotganligi uchun olgan summalar;

i) fuqarolarning xorijda ishlashga yuborilishi munosabati bilan davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlaridan chet el valutasida oladigan ish haqi summalar va boshqa summalar — qonun hujjalarda belgilangan summalar doirasida;

j) jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi asosida o'zlariga qarashli bo'lgan mol-mulkini sotish natijasida oladigan summalar, tadbirkorlik faoliyati doirasida mol-mulk sotishdan olingen daromadlar bundan mustasno.

Ko'rsatilgan jismoniy shaxslarga ularning tovarlari uchun to'langan summalar haqida yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el yuridik shaxslari o'zlarini joylashgan hudud soliq idoralariga har chorakda xabar berishlari zarur. Ularni daromad solig'iga tortish masalasi davlat soliq idoralari tomonidan qilingan operatsiyalarning xarakteri va hajmiga qarab jami daromad summasini hisobga olib hal qilinadi;

k) fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaligida yetishtirgan qoramol, quyon, nutriya, baliq, parrandalarni ham tirik holatda, ham ularni so'yib mahsulotlarini qayta ishlagan holatda, shuningdek, asalarichilik mahsulotlarini va bunday xo'jalikda yetishtirilgan tabiiy yoki qayta ishlangan dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlari summasi hisobga olinadi. Fuqaroda shaxsiy yordamchi xo'jalik mavjudligi mahalliy davlat boshqarish organlarining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanadi;

l) bir yil mobaynida yuridik shaxslardan olingen eng kam ish haqi miqdorining olti baravarigcha bo'lgan summadagi qimmatli sovg'alar, shuningdek, xalqaro hamda respublika tanlov va musobaqalarida olingen sovrin buyumlar qiymatining summasi;

m) meros qilib qoldirish va hadya qilish natijasida olingen summalar va mol-mulk qiymati, fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflarining merosxo'rлari (huquqiy vorislari) oladigan mualliflik haqi summalaribundan mustasno;

n) davlat zayomlarining obligatsiyalari va lotoreyalar bo'yicha yutuqlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

o) bir yil mobaynida berilgan moddiy yordam summalar;

1) tabiiy ofatlar, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan berilgan moddiy yordam summalar — to'laligicha;

2) vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zolari vafot etganchi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalar — eng kam ish haqining o'n baravarigacha miqdorda;

3) boshqa hollarda eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

p) banklardagi omonatlar va davlat xazina majburiyatlar bo'yicha foizlar va yutuqlar;

q) fuqarolarning ish haqi va soliq solinadigan boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olishi, xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olish «Uyjoyjam'armabank»ning shaxsi ko'rsatilgan uyjoy obligatsiyalarini xarid qilishga va shu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga yo'naltirilgan summalar, shuningdek, aksiyalar bo'yicha olingen hamda dividend to'lagan aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini sotib olishga yo'naltirilgan dividendlar. Mazkur mol-mulk sotilganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiylashtirilgan asoslarda soliq solinadi;

r) patent egasi bo'lgan jismoniy shaxsning (litsenziarning) sanoatdagi mulkiy obyektlarda o'zi ishlab chiqarishida foydalanishidan yoki foydalanish boshlagan sanadan e'tiboran amal qilishi muddati doirasida ularga litsenziyalari sotishdan, shuningdek, litsenziyarning sanoat mulki obyektlaridan foydalana boshlagan sanadan e'tiboran ushbu foydalanishdan olgan summasi:

• ixtiolar va seleksiya yutug'idan patent bo'yicha — besh yil davomida;

• ixtiolaridan dastlabki patent bo'yicha foydalanishda — uch yil davomida;

• seleksiya yutug'idan guvohnoma bo'yicha — uch yil davomida;

• sanoat namunasidan patent bo'yicha — uch yil davomida;

• sanoat namunasidan dastlabki patent bo'yicha — ikki yil davomida;

• foydali modeldan guvohnoma bo'yicha — ikki yil davomida soliq to'lashdan ozod etiladi;

s) bolalar lagerlari va boshqa sog'lomlashtirish lagerlariga, ota-onalarining bolalari bilan dam olishga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort muassasalariga borish uchun bolalar va o'smirlarga beriladigan yo'llanmalar qiyamatini, shuningdek, o'z xodimlarining ambulatoriya yoki statsionar tibbiy xizmatidan foydalanish qiyamatini to'liq yoki qisman kompensatsiyalash tarbida yuridik shaxslar o'z xodimlariga yoki ular uchun to'lagan summalar.

Ko'rsatib o'tilgan to'lovlar jumlasiga nogironlarning sog'lomlashtirish va sanatoriy-kurort muassasalariga berilgan yo'llanmalar qiyamatini, davolanish va tibbiy xizmatidan foydalanish, nogironlikning oldini olish maqsadida texnika vositalari sotib olish uchun hamda nogironlarning salomatligini tiklash uchun qilingan xarajatlarini to'liq yoki qisman to'lash tartibida yuridik shaxslar to'lagan summalar ham kiradi;

t) amaldagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan me'yorlar doirasidagi tovon to'lovlar, mehnat shartnomasini bekor qilish paytida foydalanilmagan ta'til uchun beriladigan tovonlar bundan mustasno.

**Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqdan quyidagi shaxslar to'liq ozod etiladi:**

1. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a'zolari hamda konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlarini bilan birga yashaydigan oila a'zolari; agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlardan tashqari barcha daromadlari bo'yicha.

2. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassalarining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zlar bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'luman daromadlardan tashqari barcha daromadlari bo'yicha.

3. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlari tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha.

4. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha.

5. Hukumatga qarashli bo'luman xalqaro tashkilotlarning mansabдор shaxslari, agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa, ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha.

6. Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda Vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, Ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, shuningdek, o'quv yoki sinov yig'ilishlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifasini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lov summlari bo'yicha soliq to'lashdan to'laligicha ozoddirlar.

**Chet ellik jismoniy shaxslar** — rezidentlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari soliqqa tortiladi.

Chet ellik jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortilayotganda O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha, biroq O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlari e'tiborga olinadi.

**Chet ellik jismoniy shaxslar** — norezidentlar to'lov amalga oshgan joydan qat'i nazar, faqat O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olgan daromadlaridan soliqqa tortiladilar.

Soliqqa tortish maqsadida chet ellik jismoniy shaxslar — norezidentlar ikki guruhga bo'linadi: doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatayotgan va doimiy muassasa bilan aloqasi bo'luman norezidentlar.

Soliqqa tortish maqsadida doimiy muassasa tushunchasiga O'zbekiston Respublikasida daromad topish uchun har qanday yuridik shaxslar orqali, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida vakolatlik vazifasini bajaruvchi orqali faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxs — norezident doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston

Respublikasidagi manbalardan jismoniy shaxs daromadiga soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi va bunda ular O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha chegirmalar olish huquqiga ega bo'ladilar.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'imlarni undirish tegishli chet davlatlarda O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishni nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Soliq deklaratsiyasini har xil toifadagi jismoniy shaxslar taqdim etadilar. Yillik jami daromad to'g'risidagi deklaratsiyani quyidagilar soliq idoralariga topshirishga majburdirlar.

Asosiy ish joyidan tashqarida (O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan va undan tashqarida) daromad oluvchi jismoniy shaxslar. Agar asosiy ish joyida va undan tashqarida ishlab topgan daromadlari uch karrali minimal ish haqi miqdoridan oshmasa, bunday jismoniy shaxslar deklaratsiya topshirmaydilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar — rezidentlar deklaratsiya topshirmaydilar.

Yillik jami daromad to'g'risidagi deklaratsiya jismoniy shaxslar tomonidan o'zlar yashab turgan tuman soliq inspeksiyalariga quyidagi muddatlarda topshiriladi: asosiy ish joyidan tashqarida daromad oluvchi jismoniy shaxs — rezidentlar tomonidan hisobot yilidan keyin yilning 1-apreliдан kechiktirmay tegishli shaklda taqdim etadilar.

**Kutilayotgan daromadlar to'g'risida chet ellik jismoniy shaxslar** — rezidentlar tomonidan amalga oshirilayotgan kalendar yilda va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketayotganda haqiqiy olingan daromad to'g'risida ketish oldidan bir oy qolganda tamomila deklaratsiyani hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha kechiktirmay tegishli shaklda taqdim etishadi.

Yuridik shxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxs — shunday daromadlar paydo bo'lgan oydan keyingi oyning 5-sanasigacha deklaratsiyani taqdim etadilar. Hisobot yili tugashi bilan keyingi yilning 15-sanasigacha yil bo'yicha olgan jami daromad to'g'risida deklaratsiya topshiradi.

Agar jismoniy shaxslar o'z tadbirkorlik faoliyatlarini to'xtatgan bo'lsalar, soliq inspeksiyalari soliq to'lovchilardan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani kam davrga ham taqdim etish to'g'risida yozma bildirish berib, talab qilib olishlari mumkin. Unda qachon, qaysi muddatga va nima sababdan yillik jami daromad hamda qilingan chegirmalar to'g'risida deklaratsiya topshirish ko'rsatilgan bo'ladi.

Belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini to'xtatishga qaror qilgan soliq to'lovchi jismoniy shaxs o'n besh kun ichida bu to'g'rida soliq inspeksiyasiga yozma xabar berishi kerak.

O'z tadbirkorlik faoliyatini to'xtatishga qaror qilgan jismoniy shaxs o'n besh kun ichida soliq inspeksiyasiga yillik daromad to'g'risida belgilangan shaklda deklaratsiya taqdim etadi.

Daromadga soliqni to'lash muddati jismoniy shaxsnинг qanday faoliyat ko'rsatishiga bog'liq:

- deklaratsiya orqali to'lash yoki yuridik shaxslardagi doimiy ish faoliyati uchun to'lash.

#### **Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lash ularning taqdim etgan deklaratsiyalariga qarab quyidagi muddatlarda to'lanadi:**

1. Asosiy ish joyidan tashqarida daromad oluvchi jismoniy shaxs — rezidentlar tomonidan hisobot yildan keyingi yilning 1-iyunigacha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotiga qarab, agar yil mobaynida soliq qayta hisoblanmasa, soliq idoralari deklaratsiya topshirigan dan boshlab bir oy ichida to'lanadi.

2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar o'tgan yil uchun hisoblangan soliq summasiga qarab, har chorakda yillik soliq summasining 25 % miqdorida 15-mart, 15-may, 15-avgust va 15-dekabrda kechiktirmay soliqni to'laydilar, birinchi marta soliqqa tortilayotgan soliq to'lovchilar soliq idoralari tomonidan ularga joriy yil uchun bergen dastlabki daromad bo'yicha 25 % dan to'lab boradilar, yil tugashi bilan yillik soliq summasi haqiqiy olingan daromadga qarab hisoblab chiqiladi. Yillik haqiqiy daromaddan hisoblangan soliq summasi farqi kelgusi yilning 15-martidan kechiktirmay to'lanadi, daromad manbayi tugab qolgan taqdirda — 15 kun ichida to'lanadi.

#### **Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq daromad manbayida ushlangan hollarda soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:**

1. Yuridik shaxslar fuqarolarga daromadini to'layotganda undan ushlanadigan soliq summasini pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim qilgan vaqtning o'zida budjetga o'tkazadi.

2. Bankda schoti bo'limgan yuridik shaxslar hamda sotgan mahsuloti, xizmatidan, sotishdagi tushum hisobidan to'lov to'laganlar to'lov amalga oshgandan keyin oyning besh kuni ichida jismoniy shaxslardan ushlangan soliq summasini budgetga o'tkazadilar. Natural to'lovlar bo'yicha ham yuqoridagiga o'xhash tartib joriy etilgan.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lash kuni yuridik shaxsnинг hisob schotidan mablag'ni chiqargan kun hisoblanadi, jismoniy shaxslar uchun soliqni to'lagan kun bo'lib, mablag'ni kredit muassasasi kassasiga topshirgan kun hisoblanadi. Hisob schoti bor jismoniy shaxsnинг soliq to'lagan kun bo'lib, shu schotdan mablag'ni chiqargan kun hisoblanadi.

Soliq idoralari tomonidan hisoblangan soliqni to'lash kuni bo'lib, soliq idorasini tomonidan yozilgan to'lov xabarnomasida belgilangan kun bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq summasini yil mobaynida to'lagan summasi tegishli hisobot yilidagi to'lashi lozim bo'lgan soliq summasidan chegirib tashlanadi, ya'ni hisobga olinadi.

Chet ellik jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi qatnashgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga binoan O'zbekistonda to'lanadigan solqlardan qisman yoki to'liq ozod bo'lish huquqiga ega, buning uchun ular belgilangan shaklda ariza yozishlari lozim.

Uch nusxadagi ariza O'zbekiston Respublikasidagi daromad to'langan joydagи soliq organiga topshiriladi. Soliq inspeksiyasi arizaning xalqaro shartnoma va bitimlarga mosligini tekshirib, tegishli belgilar qo'yib, ikki nusxasini ariza beruvchiga qaytaradi.

Shu nusxalarning birini ariza beruvchi O'zbekiston Respublikasidaunga daromad to'lagan korxona, tashkilot, muassasaga topshiradi. Shu asosda to'liq yoki qisman O'zbekistonda to'langan soliqdan jismoniy shaxs ozod qilinadi.

Yillik jami daromad to'g'risidagi deklaratsiya to'rt bo'limdan iboratdir. Birinchi bo'lim eng asosiy bo'lim bo'lib, u olingan daromadlar va ushlangan solqlar to'g'risidagi to'rt bo'limdan iborat.

Deklaratsiyaning birinchi bo'limi fuqarolarning 1-yil davomida olgan hamma daromadlari, shu daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlari hamda shu daromadlardan daromad manbayida ushlangan solqlar yoki bo'nak to'langan solqlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar daromadlarning olingan joyi va daromadlar turiga qarab tegishli jadvallarga joylashtiriladi.

Deklaratsiyaning ikkinchi bo'limi daromadlar to'g'risida ma'lumot beruvchi fuqaroning chegirmalar, imtiyozlar bo'yicha olishini ko'rsatuvchi huquqlarini bildiradi.

Deklaratsiyaning uchinchi bo'limida fuqaroning hisobot yili davrida olgan haqiqiy soliqqa tortiladigan daromadi va soliq to'lovchi kelgusi yili olishi mumkin bo'lgan soliqqa tortiladigan daromadi ko'rsatiladi.

Deklaratsiyaning to'rtinchi bo'limida yillik jami daromaddan soliq hisobi keltiriladi.

Deklaratsiya shaklini soliq to'lovchi soliq idorasidan bepul olib o'zi to'lg'azadi. Soliq nozirlari deklaratsiya noto'g'ri to'lg'izilgan bo'lsa, uni tuzatish huquqiga egadir.

Birinchi bo'limda soliq to'lovchilar o'zining ismi, familiyasini, doimiy yashash manzilini, ish va uy telefonlari raqamlarini ko'rsatishi zarur. Agar hisobot davrida manzilgohi o'zgarsa, unda deklaratsiyada avvalgi va keyingi turar joylari manzillarini ko'rsatadi.

Deklaratsiyaning birinchi bo'limi birinchi punktida soliq to'lovchining asosiy ish joyidan olgan daromadlari va daromad olgan joyida to'lagan solqlar ko'rsatiladi. Qaysi korxona, tashkilot va muassasa daromad to'lasa, o'sha joy daromad to'langan joy deb hisoblanadi.

Soliq hisobini, deklaratsiyadagi ma'lumotlar asoslanganligini ko'rib, soliq noziri deklaratsiya taqdim qilingan kunning o'zidayoq tekshirib, natijasini tasdiqlab beradi.

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi. Demak, jismoniy shaxslar mol-mulk soliq obyekti bo'ladi. **Soliqqa tortiladigan obyekt ikki guruhg'a bo'linadi:**

1. Jismoniy shaxslarning uy-joylari, kvartrilar, chorborg' va bog' uylar, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar qiymati (inventar qiymati).

2. Jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan avtomobil, motorli qayiqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari dvigatellarining quvvati soliq solish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Soliq stavkasi har yili kelgusi moliya yiliga O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Mulkarni baholash idoralari tomonidan baholanmagan bo'lsa, Toshkent shahri va viloyatlari markazlari uchun 1800,0 ming so'm va boshqa shaharlar va qishloq joylari uchun 800,0 ming so'm qilib shartli qiymat belgilangan. Bu summadan 0,5% stavkada soliq undiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Mol-mulk solig'idan imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan kishilar soliq xizmati organlariga kerakli hujjatlarni taqdim etadilar:**

1. Imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha mol-mulk solig'i har yili 1-yanvardagi holati yuzasidan communal xizmat ko'rsatgan idoralari beradigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida, ma'lumotlar bo'lgan taqdirda esa — mazkur obyektlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'ygan summa atrofida soliqqa tortiladi.

2. Transport vositalariga solinadigan mol-mulk solig'i davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi tegishli idoralarning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqiladi. Bunday idoraga DAN xizmati idorasi va «O'zbekiston havo yo'llari» kompaniyasi kiradi.

Imoratlar, binolar va inshootlar bir qancha mulkdorlarga tegishli umumiyy hissali mulk egalari bo'lganda soliq har bir mulkdorning imoratlari, binolar va inshootlardagi hissasiga qarab hisoblanadi.

Yangi qurilgan yoki sotib olingan mulklar bo'yicha soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Yangi sotib olingan transport vositalari bo'yicha mol-mulk solig'i sotib olingan oyidan keyingi oydan hisoblanadi.

Davlat avtomobil nazorati tomonidan hisobdan chiqarilgan avtomobil va mototsikllar bo'yicha soliq hisoblanilmaydi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulordan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendor yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1-yanvaridan

bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa mulk huquqini qo'lg'a kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga soliq organlari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi. To'lov xabarnomasi yozilmasdan mol-mulk solig'i to'lanmay qolsa, fuqarolar aybdor emas, bu soliq idorasining kamchiligi bo'ladi. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini teng ulushlarda yiliga ikki muddatda to'laydi: 15-iyun va 15-dekabrdan kechiktirmay soliq to'lanishi kerak.

Har yili 1-yanvar holatiga soliq to'lovchilarni hisobga olish sug'urta idoralari, kommunal xo'jalik organlari va «O'zbekiston havo yo'llari» kompaniyasi ma'lumotlariga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston soliq qonunchiligidagi yerlar o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishda degan tushunchalarga ega. Amaliyotda esa jismoniy shaxslar yerlari, tomorqa yerlari va qo'shimcha tashqaridan olingan yerlarga bo'linadi.

O'z mulkida, egaligida va foydalanishda yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadi.

Yer solig'i to'lovchilarini har yili yil boshida soliq idoralari hisobga olib boradilar. Jismoniy shaxslar uchun soliq solish obyekti yer uchastkalarini hisoblanadi. **Bunday uchastkalar quyidagicha xilma-xil obyektlarga ega:**

- 1) turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

- 2) yakka tartibda uy-joy qurilish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yerlar;

- 3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchilagini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;

- 4) xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlari;

- 5) meros bo'yicha hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqiga ega bo'lgan yerlar;

- 6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

- 7) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari yer solig'ining obyektlaridir.

Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash uchun soliq idoralari shahar, tuman yer fondi ma'lumotlari, hokimliklarning qarorlari asosida hamda uyma-uy yurib tekshirish o'tkazish natijasida yer uchastkalari maydonini aniqlab chiqadilar.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to'lov xabarnomasi yoziladi. Yer solig'ini to'lash

to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi har yili soliq idoralari tomonidan 1-maydan kechiktirilmay jismoniy shaxslarga yetkaziladi va u jismoniy shaxslarga shaxsan topshirilishi lozim.

Jismoniy shaxslar yer solig‘ini joriy yilning 1-noyabriga qadar to‘lashlari kerak. Aks holda, soliqdan boqimanda paydo bo‘ladi va qo‘sishmcha soliqdan tashqari, pena ham to‘lashga to‘g‘ri keladi.

Soliq o‘tgan yillarda undirilmagan bo‘lsa, soliq idoralari avvalgi uch yil uchun soliq hisoblab undirib olishga haqli. O‘tgan yillar uchun undirilmagan soliq summasiga pena hisoblanmaydi.

### **15. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati va undan olingan daromadlarni soliqqa tortish**

Tadbirkor jismoniy shaxslar, ularni soliqqa tortish zarurati va xususiyatlari mavjud. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib daromad oluvchi jismoniy shaxslar soliq to‘lovchi sifatida soni jihatdan respublikada eng ko‘pchilikni tashkil qiluvchi xo‘jalik subyektlari hisoblanadi.

Tadbirkorlik — xo‘jalik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi 2000-yil 25-maydagi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarasi asosida tartibga solinadi. Bu Qonun fuqorolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlari hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatining erkinligi shundan iboratki, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik mavjudligi faktidan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlari hamda qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) dehqon va fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga, shu jumladan, ularning agrotexnika usullarini, yetishtiriladigan mahsulot turini tanlashiga, ana shu mahsulotning bahosini hamda realizatsiya qilish yo‘nalishini belgilash ishlariga aralashish taqiqlangan.

#### **Davlat boshqaruv organlari tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida:**

- tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rivoja etilishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi ustida.

dan monitoringni, mavjud muammolarni o‘rganishni hamda tadbirkorlikning huquqiy kafolatlari mustahkamlashga qaratilgan normativ hujjalarni takomillashtirish ishlarini amalga oshiradi;

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlaydi;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlariga moliyaviy, moddiy-texnika va axborot resurslaridan erkin foydalanishda ko‘maklashadi;
- tadbirkorlik faoliyati subyektlariga o‘z mahsulotlarini tashqi va ichki bozorlarda realizatsiya qilishda ko‘maklashadi;

- tadbirkorlik faoliyati subyektlari o‘rtasida axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, sug‘urta va boshqa xil xizmatlar tizimi rivojlantirilishini tashkil etadi;

- tadbirkorlik faoliyati subyektlariga kadrlarni tayyorlashda, qayta tayyorlashda va ularning malakasini oshirishda ko‘maklashadi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi qonun normalari bilan tartibga solinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini tashkil qiluvchi daromadlari ichida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar markaziy o‘rinni egallaydi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, daromad to‘lovchilar rezidentlik tamoyili asosida soliqqa tortiladi. Faqatgina O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan o‘n ikki oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekstonda turgan jismoniy shaxs soliq munosabatlari bo‘yicha to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Ana shu rezidentlik talabiga javob bermaydigan tadbirkor jismoniy shaxslar chegaralangan doirada soliq javobgarligiga ega, ya’ni faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘rsatgan faoliyati bo‘yicha olgan daromadlaridan soliq to‘laydilar.

#### **O‘zbekiston Respublikasida tadbirkor jismoniy shaxslarning daromadlari quyidagi tartibda soliqqa tortiladi:**

- O‘zbekiston Respublikasi rezidenti tadbirkorlik faoliyatini qayerda amalga oshirganligidan qat‘i nazar, soliq to‘lovchi hisoblanadi;

- O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad uning subyektlari qaysi millatga mansubligidan va yuridik mavqeysidan qat‘i nazar, soliqqa tortiladi;

- tadbirkor jismoniy shaxs o‘z faoliyati natijasida pul, natura yoki moddiy manfaat shaklida olgan daromadlari, umumiy tartibda, daromad sifatida soliqqa tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad bo‘yicha to‘langan daromad solig‘i summalar O‘zbekiston Respublikasida soliqqa tortilishda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq inobatga olinadi, lekin shu shart bilanki, hisobga olinadigan summalar miqdori tadbirkorni O‘zbekiston Respublikasida amal

qilayotgan stavkalar bo'yicha daromad solig'iga tortilgan summasidan oshmasligi lozim.

#### **Hozirgi paytda respublika soliq tizimida jismoniy shaxs maqomidagi tadbirkorlikning 13 ta asosiy toifalari mayjud:**

1. Shaxsiy avtotransport vositalarida aholiga xizmat ko'rsatish.
2. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish.
3. Chorva mollarini so'yib sotish.
4. Dallolchilik.
5. Avtotransport vositalarini ta'mirlash.
6. Savdo-sotiqlash.
7. Ijaraga olingan avtotransport vositalarida aholiga xizmat ko'rsatish.
8. Qurilish, ta'mirlash va pardozlash ishlari.
9. Milliy taomlarni tayyorlab sotish.
10. Non mahsulotlarini tayyorlab sotish.
11. Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish va sotish.
12. San'at sohasida xizmat ko'rsatish.
13. Yerni ijaraga olish.

#### **Tadbirkorlikning ana shu turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatish uchun xo'jalik subyektlariga ikki xil ko'rinishda ishni tashkil qilish huquqi berilgan:**

- yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanib daromad topish;
- bir necha yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulanuvchilarining birlashgan holda faoliyat tashkil etib daromad topish.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlik yakka tartibdagagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish yoki undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikda erxotinning umumiyligi mol-mulk negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirishlari mumkin. Umumiy oilaga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda, uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirilishi oilaning voyaga yetgan boshqa a'zolarining notariyal tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar faqat yakka tartibdagagi tadbirkorlik tariqasida davlat ro'yxatidan o'tganlardan keyin ular birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat ishtirokchilari bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariaga o'tish davrida va uni iqtisodiyotni barqarorlashtirish jarayonida soliq turlariga e'tibor bilan qarash, uni davr talablariga mos ravishda prognozlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Bu vazifalarni tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tarkibi va daromadlarni inobatga olgan holda va «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab

chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini ko'rib chiqamiz.

Qishloq xo'jalik ekinzorlaridan foydalaniш samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning pirovard mehnat natijalardan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va bir xil qilish maqsadida 1999-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy etildi.

Yagona yer solig'i amaldagi barcha umum davlat soliqlari va ular uchun belgilangan mahalliy soliqlari va yig'imlarni to'lash o'rniga joriy etilgan bo'lib, yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lmiss qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun boj to'lovi, davlat boji litsenziya yig'imlari budgetdan tashqari jamg'arammlariga ajratmalar to'lashning amaldagi tartibi saqlanib qolgan.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, shuningdek, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadilar. Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanshga yoki ijaraga berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi.

Yagona yer solig'i miqdori yer maydonining qayerda joylashganligiga, sifati (ball-baniteti) va suv bilan ta'minlanganligini hisobga oluvchi bazavoy stavkalar hamda tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bu soliq miqdori xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liq bo'lmaydi va u mahalliy budgetga o'tkaziladi.

Mulkchilikning barcha shakllaridagi kichik korxonalar uchun yagona soliq stavkasining joriy etilishi ularning rivojlanishi va o'zgarishini, soliqqa tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlarni, mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini, narxlar indeksini, yalpi daromadni, mehnatga haq to'lash darajasini, jismoniy shaxslar tarkibi va daromadlarini chuqur o'rgangan holda amalga oshirilishi talab etiladi.

Hammamizga ma'lumki, soliqlar davlat moliya va pul siyosatida asosiy o'rinnlardan birini egallaydi. Soliqlar jismoniy va yuridik shaxslardan olinadi. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i budget bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar, ayrim tarmoqlar, yuridik shaxslarning birlashmalari budget bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin deyilgan.

#### **Rezidentlar va norezidentlarning soliq solinadigan daromadi (foydas)**

##### **14-moddada:**

- O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxs, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan, bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi;

- O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyat manbalari oлган daromadlari (foydalari) bo'yicha soliq solinadi;

- O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'Imagan yuridik shaxslarga O'zbekiston hududidagi faoliyatidan oлган daromadlari (foydalari) bo'yicha soliq solinadi deb qayd qilingan.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan daromad (foyda) soliqning hisobga olinishi 15-moddada quyidagicha ko'rsatilgan «O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan daromad (foyda) solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash vaqtida O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Bundan tashqari, hisobga olinadigan summa miqdori O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad (foyda) solig'i summasidan ortiq bo'lmasligi kerak. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'inining solish obyekti to'g'risida quyidagilar, jami daromad bilan ushbu Kodeksga muvofiq belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda) solig'i obyektidir».

Nizom fondiga qo'shilgan, umumiy vazifalarni hal etish uchun birlashtirilgan badallar, paylar va aniq maqsadga qaratilgan boshqa moliyaviy mablag'lar (kapital) ana shu vazifalarni hal etish uchun daromadlar hisoblanmaydi va soliq solish obyekti bo'lmaydi. Ushbu ma'lumotlar 16-moddada aytib o'tilgan.

Soliq kodeksining 5-bobi 17-moddasida jami daromadning tarkibi ko'rsatilgan va jami jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs bo'lishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga oлган pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi. Bunday **daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:**

- tovarlar (ishlarni, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan keladigan tu-shum;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan keladigan daromad;
- foizlar ko'rinishidagi daromadlar;
- dividendlar;
- tekinga olingan mol-mulk;
- mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromad;
- roylati;
- tekin moliyaviy yordam (davlat budgetidan berilgan subsidilar undan mustasno);
- davomli muddatda o'tkazib borilgan kreditorlik va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- ilgari chegirib tashlangan xarajatlар, zararlar yoki shubhali qarzlar-ning, o'rnnini qoplash tariqasida olingan daromadlar;
- valuta hisob varaqalaridagi kurs bo'yicha musbat farq;

- favqulodda daromadlar;

- boshqa daromadlar.

Kodeksning 18-moddasida o'zaro aloqador yuridik shaxslarning soliq solinadigan daromadiga (foydasiga) o'zgartirish kiritish to'g'risida: agar o'zaro aloqador yuridik shaxslar tijorat va moliyaviy munosabatlarda mustaqil yuridik shaxslar o'rtasida qo'llanishi mumkin bo'lgan narxlardan farq qiladigan narxlarni qo'llasalar, soliq to'lovchining daromadi (foyda) soliq solish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda narxlarda vu-judga kelgan farq teng miqdorda o'zgartirilishi mumkin. **O'zaro aloqador yuridik shaxslar quyidagilar:**

- xorijiy davlatlarning yuridik shaxslari va ularning O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan sho'ba korxonalar;

- O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar hamda ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan sho'ba korxonalar;

- ayni bir yuridik yoki jismoniy shaxslar muassasalari bo'lgan O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarning yuridik shaxslari.

Kodeksning 6-bobida chegirmalar va zararlar to'g'risida bayon etilgan. 19-moddada «Jami daromaddan chegirmalar sarlavhasida chegirmalar ko'rsatilgan, bular:

- soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromadning quyidagi chegirmalari amalgaga oshiriladi:

Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq, shuningdek, bojxona bojlari summalar.

Banklarning va boshqa moliya kredit tashkilotlarining qisqa muddatli kreditlari bo'yicha foiz to'lovlar uchun soliq, shuningdek, bojxona bojlari summalar.

**Xodimlarga ish xaqi to'lash bo'yicha xarajatlari** (banklar sug'urta tashkilatlari, videosalonlar, videoko'rsatuv, video va audio yozuv punktlari, aukcionlar, kazino, pul yutug'i qo'yilgan o'yin avtomatlari, davlatga qarashli bo'Imagan organlar tomonidan o'tkaziladigan lotoreya o'yinlari hamda ommaviy konsert-tomosha tadbirlarining xarajatlari bundan mustasnodir):

- Belgilangan tartibda kreditlardagi renta to'lovlarining summasi ijara haqi (lizing to'lovlar);

- Asosiy vositalarni ta'minlash xarajatlari;
- Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko'rsatgan xizmatlarining qiymati;

- Majburiy sug'urta to'lovlar bo'yicha o'tkazilayotgan qonun hujjaliga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;

- Mahsulotlarni sertifikatlash ishlariha haq to'lash xarajatlari summalar;
- Qonun hujjaliga muvofiq normalar bo'yicha xizmat safari xarajatlari summalar;

- Qonun hujjalari muvofiq normalar bo'yicha vakillik maqsadlaridagi xarajatlar summalar;
- Qonun hujjalari muvofiq normalar bo'yicha reklama xarajatlar summalar;
- Qonun hujjalarda belgilangan normalar doirasida kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash uchun xarajatlar summalar.

Soliq to'lovchi balansidagi sog'lijni saqlash obyektlari, qariyalar va nogaaronlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari, uyjoy fondini saqlashga mahalliy davlat hokimiyati organlari tasdiqlagan normativlarga muvofiq qilinadigan xarajatlar summalar, shuningdek, soliq to'lovchilari sanab o'tilgan muassasalarni saqlashda ulush qo'shib qatnashib, ana shu maqsadlar uchun qiladigan xarajatlar summalar.

Qonun hujjalarda belgilab qo'yildigan boshqa majburiy to'lovlar.

**Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar va majburiy to'lovlardan tashqari quyidagi xarajatlar va ajratmalar ham jami daromaddan chegirib tashlanishi lozim:**

1) banklar bo'yicha:

- kredit resurslari uchun to'lovlar, operatsiya xarajatlari, pul mablag'lari va boyliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;
- mijozlarning hisob varaqlari, shu jumladan, jismoniy shaxslarning omonatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar;
- tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zaxira hisobidan o'chirilgan umidsiz ssuda summalar;

2) sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

- qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha berilgan to'lov summalar;
- amal qilish hisobot yili oxirigacha tugamagan sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lov summalar.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari, majburiyatlar, ularni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash tartibi belgilangan. Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, mustaqil ravishda ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, mahsulot yetkazib beruvchilarini va o'z mahsuloti (ishlari, xizmatlari)ning iste'molchilarini tanlash huquqi berilgan.

Tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyd) olish va uni o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish, o'z mahsulotini (ishlari, xizmatlari), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor konyukturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha yoki shartnomma asosida realizatsiya qilish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'zlarini tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishlari, yollash asosida jaib etilgan xodimlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilishlari, xavfsizlik, ekologiya, sanitariya, gigiyena va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etishlari, realizatsiya qilinadigan tovarlar uchun sertifikatlarga ega bo'lishlari lozim.

Manzilgohi va boshqa rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida tegishli davlat organlarini o'z vaqtida xabardor qilishlari, buxgalteriya va statistika hisobi qonun hujjalari talablariga muvofiq yuritishlari shart.

Tadbirkorlik subyektlari o'z huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida qonunga muvofiq uyushmalar (ittifoqlar) va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin.

Yakka tartibdagagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish jismoniy shaxs ariza bergen paytdan boshlab uch kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim. Jismoniy shaxs ro'yxatdan o'tkazilganlik yig'imi bank muassasalari yoki aholidan to'lovlarini qabul qiluvchi boshqa kredit tashkilotlariga to'lanadi. Ro'yxatdan o'tkazilganlik yig'imi stavkasining eng yuqori miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ro'yxatdan o'tkazilganlik yig'imi miqdorlari va uni to'lash bo'yicha imtiyozlar berish mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

Yakka tartibdagagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin qonun hujjalarda belgilangan tartibda soliq organlarida va O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi (2001-yilgacha Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida bo'lgan) huzuridagi Pensiya jamg'armasi organlarida hisobga turishi shart. Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi hisobga qo'yish uchun asos bo'ladi.

Litsenziyalash lozim bo'lgan tadbirkorlik faoliyatining turlari qonun bilan belgilangan. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Tadbirkorlik faoliyatining mulkiy asosi, ularni kreditlash va sug'urta qilish.** Tadbirkorlik faoliyati tadbirkorlik subyektlarining o'z mol-mulkleri asosida va (yoki) jaib etilgan mol-mulk asosida amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirilishiga asos va vosita bo'lgan mol-mulk, shu jumladan, mulkiy huquqlar qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda huquqlarning belgilanishi, o'zgartirilishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq oldi-sotdi, garov, ijara va boshqa bitimlar obyekti bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini kreditlash qonun hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyati subyektiga kredit berilayotganda bank muassasalari, boshqa kredit yoki sug'urta tashkilotlari kafil bo'lishlari mumkin. To'lovga qobiliyatli yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjalarda belgilangan tartibda kafil bo'lishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati subyekti kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash jarayonida o'z mol-mulkidan, shu jumladan, ashyolari va mulkiy huquqlaridan, shuningdek, o'zi olgan kreditni to'lay olmaslik xavfi tug'ilganda sug'urta to'g'risidagi qonun hujjalardan foydalanishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlari qonun hujjalarda nazarda tutilgan holarda imtiyozli kreditlash huquqiga ega.

**Tadbirkorlik faoliyatidan olingen daromadni soliqqa tortish tartiblari.** Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati natijasida olgan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Soliq Kodeksining 51-moddasida jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadni aniqlash quyidagi tartibda belgilangan. Ya'ni tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar realizatsiyasidan, daromad olish maqsadida tavakkal qilib, tadbirkor o'z mulkiy javobgarligi kafolatligida yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanib yoki boshqa qonun bilan taqiqlanmagan faoliyat natijasida topgan daromadlari soliqqa tortiladigan yalpi daromad hisoblanadi.

Soliq Kodeksining 52-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromad tarkibidagi soliq solinadigan daromad miqdorini aniqlash uchun mazkur yalpi daromaddan tadbirkorning ish faoliyati bilan bog'liq xarajatlari, majburiy to'lovlari, chiqimlari va ajratmalar chegirib tashlanadi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanishi lozim bo'lgan xarajatlari; majburiy to'lovlari, chiqimlari va ajratmalarini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'mol bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari tadbirkorlik faoliyatidan yalpi daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Soliq Kodeksining 53-moddasiga muvofiq moliyaviy jazo choralarini va hisoblangan penalar summalarini jami daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Yalpi daromad hamda daromad qilish bilan bog'liq bo'lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlari o'rtaqsidagi tafovut soliq undiriladigan daromad hisoblanadi. Tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda soliq organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish materiallarida ko'rsatilgan xarajatlari yoki mana shunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga soliq solishda hisobga olingen xarajatlari qabul qilinadi.

Soliqqa tortiladigan daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlari, ya'ni ishlab chiqarish foydalarini to'liq qayta tiklash uchun amortizatsiya ajratmalar, ijara to'lov, ro'yxatdan o'tkazilganlik uchun yig'im, davlat ijtimoiy sug'urtasiga ajratmalar, mol-mulkni majburiy sug'urta qilish to'lovlari, banklarning qisqa muddatli kreditlariga to'langan foiz (muddati o'tib ketgan va muddati uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlardan tashqari), shuningdek, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlashning barcha turлari bo'yicha xarajatlari summasi yalpi daromaddan chegirib tashlangandan qolgan daromad summasi soliqqa tortiladigan daromad bo'ladi.

Yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkor jismoniy shaxslarning daromadlari ikki xil usulda soliqqa tortiladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxs tomonidan uning daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi deklaratsiya asosida belgilangan stavkalarda soliq hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingen yillik daromadni soliqqa tortishda eng kam ish haqi miqdorining oyma-oy summasi qo'shilib borish tarzida hisoblanadi.

Hissadorlik jamiyatlari tomonidan jismoniy shaxslarga to'langan dividendlar va foizlar hisobida to'langan daromadlar summasidan soliqlar to'lov manbayida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan stavkada undirilib, davlat budgetiga o'tkaziladi. Masalan, 2001-yil uchun soliq stavkasi 15 % miqdorida belgilangan.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs olingen daromadlar va qilingan xarajatlari to'g'risidagi deklaratsiyani belgilangan tartibda quyidagi **muddatlarda** taqdim etadi:

- shunday daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy o'tganidan keyin 5 kun ichida;
- hisobot yilidan keyingi yilning 15-yanvarigacha.

O'zbekiston Respublikasidagi jismoniy shaxs biror sabab bilan tadbirkorlik faoliyatini to'xtatganda soliq organi yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan soliq to'lovchidan faoliyat ko'rsatilgan davr uchun hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar hamda daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirishni talab qiladi.

Bu xabarnomada faoliyatning to'xtatishi sabablari, qachon va qaysi davr uchun jami olingen daromadlar, chegirmalar va qilingan xarajatlari to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etilishi, shuningdek, shu davr uchun hisobotlar va soliq bo'yicha hisob-kitoblar topshirilishi ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxsning tadbirkolik faoliyatini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda soliq to'lovchi 5 kunlik muddat ichida bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi va 15 kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar hamda daromadlar haqidagi deklaratsiyani taqdim etishi shart.

Hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar hamda daromadlar haqidagi deklaratsiyalar qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va tartibda taqdim etiladi.

Daromad solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibiga faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tegishli o'zgartirishlar kiritishi mumkin<sup>1</sup>.

Unga asosan jismoniy shaxslar tomonidan daromad olish (savdo-sotiq, xizmatlar) bilan bog'liq bir martalik operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida mahalliy hokimiyat idoralarida qayd qilinmasdan yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar sifatida soliq idoralariga daromadlar haqida bir martalik deklaratsiyalarni taqdim etish huquqi berilgan.

Bunda mo'ljallanayotgan daromad ko'rsatilgan holda o'tkazilayotgan operatsiya haqida operatsiya bajarilishiga qadar bir martalik deklaratsiya soliq idorasiga taqdim etiladi. Uning asosida soliq idorasi tegishli daromad solig'i summasini hisoblab chiqaradi va fuqaroga ushbu summani to'lash uchun to'lov xabarnomasini taqdim etadi.

<sup>1</sup> Xuddi shunday o'zgartirishlardan biri bir martalik deklaratsiyalarni taqdim etish tartibidir. Bu tartiblardan biri 1997-yil 4-noyabrda respublika Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan 04-01-02/489 va 97-87-sonli raqam bilan qayd etilgan tartibdir.

Jismoniy shaxs hisoblangan soliq summasini to'lagandan so'ng (soliqni to'laganlik haqida kvitansiya taqdim etganda) unga deklaratsiyaning bir nusxasi topshiriladi.

Bir martalik deklaratsiyalar soliq idorasiga jismoniy shaxs tomonidan uning yashash yoki operatsiyalarni amalga oshirish joyi bo'yicha taqdim etiladi.

Bir martalik deklaratsiya blanklari soliq idorasi tomonidan bepul beriladi va u ikki tomoni ham to'ldiriladigan bir varaqdan iborat bo'ladi.

Bir martalik deklaratsiya yashash joyi bo'yicha taqdim etilganda 2 nusxada (bittasi DSI, bittasi tadbirkor uchun), operatsiyani amalga oshirish joyida taqdim etilganda esa 3 nusxada (ikkiasi DSI, bittasi tadbirkor uchun) tuziladi.

Faoliyatni amalga oshirish joyida tuzilgan deklaratsiyaning bir nusxasi 10 kun muddat ichida jismoniy shaxsning yashash joyi bo'yicha DSI ga yuborilishi shart.

Deklaratsiyada ko'rsatilgan bir oylik aylanma (ish, xizmat)larning miqdori asosida davlat soliq idoralarining mansabdar shaxslari tomonidan ilova qilingan shaklda hisob-kitob tuziladi va soliq to'lovchiga yilning oxirigacha bo'lgan muddatga soliq to'lash uchun to'lov xabarnomasi beriladi.

Oy mobaynida savdo aylanmasi hisoblab berilgan, qat'iy belgilangan soliq summasidan oshgan taqdirda, tadbirkor keyingi davr (oy) uchun qat'iy belgilangan soliq summasini qayta ko'rib chiqishlarini so'rab davlat soliq idoralariga ariza topshirishi shart.

Xuddi shuningdek, soliq summasi haqiqiy aylanmaning miqdori kam bo'lganda ham ko'rib chiqilishini so'rab ariza berilishi mumkin.

Tadbirkorlarning haqiqiy aylanmasini hisob-kitob qilishda deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari soliq idoralarida mayjud bo'lgan tekshirish va kuzatish ma'lumotlari, shuningdek, korxona, tashkilot, muassasa va fuqarolar bergan ma'lumotlar ham e'tiborga olinadi.

Tadbirkor o'z faoliyatini biror muddatga turli sabab (oilaviy sharoit, kasallik, vaqtincha bir yerga ketish va boshqa)lar bilan vaqtincha to'xtatsa, u holda faoliyatni to'xtatgunga qadar vaqtincha faoliyatni to'xtatish to'g'risidagi arizani va qayd guvohnomasini davlat soliq idoralariga topshirishi shart.

Davlat soliq idoralariga topshirilgan deklaratsiyalar, arizalar kunning sanasi bilan qayd etilishi va kirim jurnaliga yozilishi shart.

Soliqni hisoblash bo'yicha soliq idoralarining mas'ul xodimlari deklaratsiyalarni soliq idorasi rahbari yoki uning muovini topshirig'i, yoki rezolutsiyasi bo'lgandagina qabul qilishlari va hisob-kitobni amalga oshirishlari kerak.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, daromadidan qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydigan jismoniy shaxslarga Respublika Soliq Kodeksi bilan tartibga solinadigan yalpi daromadni hisoblash va chegirmalarni qo'llash tartibi joriy etilmaydi.

Ushbu talablarga amal qilmagan tadbirkorlar amaldagi qonunlarga binoan javobgarlikka tortiladilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromad solig'i ni to'lash tartibi belgilagan.

Unga asosan tadbirkor yilning har choragida o'tgan yilgi daromadlar bo'yicha hisoblab chiqarilgan yillik soliq summasining 25 % ni, soliqni birinchi marta to'laydigan tadbirkor esa joriy yilda olish mo'ljallangan daromad bo'yicha soliq idorasi unga hisoblab bergan summaning 25 % ni to'laydi.

Yil mobaynida tadbirkorning daromadi ancha ko'paygan yoki kamaygan taqdirda soliq to'lovchi muddati kelmagan vaqt bo'yicha daromad solig'i summalarini qayta hisoblab chiqarishi mumkin.

Yil tugashi bilan yillik soliq summasi amalda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Ana shu summa bilan yil mobaynida to'langan summa o'rtasidagi farq keyingi yilning 15-martiga qadar undiriladi.

Tugagan daromad manbayi bo'yicha esa soliq 15 kunlik muddatda tadbirkordan undirilishi yoki qaytarib berilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari ularning turiga qarab soliqqa tortilishi sababli, ular har xil toifalarga bo'lingan. Lekin bu tartib faqat norezident jismoniy shaxslarga taalluqli. Tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan daromadlardan tashqari O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'Imagan, lekin O'zbekiston Respublikasidagi manbadan dividend, foizlar, tavakkalchilik sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari, royalti, ijara daromadlari, ko'rsatilgan xizmatdan tushgan daromad, amaliy maslahatlar uchun to'langan haqlardan quyidagi stavkalarda soliq undiriladi.

**Norezident jismoniy shaxslarning dividend, foizlar, tavakkalchilik sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari, royalti, ijara daromadlari, ko'rsatilgan xizmatdan tushgan darmadlaridan soliq stavkalari**

Dividendlar va foizlardan	15 %
Tavakkalchilik sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari	10 %
O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasidagi transport, telekomunikatsiya va aloqa xizmatlaridan tushgan daromadlar	6 %
Royalti, ijara daromadlari, ko'rsatilgan xizmatlardan tushgan daromad, amaliy maslahatlar uchun to'langan haqlar	20 %

**Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining 2005-yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budgetining istiqbollari to'g'risida»gi 610-sonli Qaroriga muvofiq tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy soliqni hisoblab chiqish va to'lash tartiblari belgilandi. **Quyidagi sohalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga qat'iy soliq to'lovchi huquqi berilgan:**

- sartaroshlik xizmati, jumladan, manikur, pedikur va kosmetik xizmatlarni ko'rsatish;
- bilyard;
- videokassetalar ijarasi, audio-video kassetalar savdosi sohasida xizmatlar ko'rsatish;
- turar joylarni ijaraga berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- umumi ovqatlanish;
- o'yin avtomatlarini, jumladan, pullik yutuq avtomatlarini ishlatish.

Soliq solish obyekti bo'lib, daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning aniq turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ya'ni jihozlangan joylar soni, ishlovchilar soni, egallangan maydon.

Masalan: tadbirkorlik subyekti sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha 4 ta jihozlangan joyga, kosmetik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha 2 ta, manikur va pedikur bo'yicha 2 ta joyga ega bo'lsa, soliq solish obyekti bo'lib, har bir jihozlangan joy hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarni hisobga olish tartibi yuqorida sanab o'tilgan faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar qat'iy soliq belgilangan to'lov muddatidan oldin ariza taqdim etish orqali qat'iy soliq to'lovchilar sifatida davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tishlari kerak. Bir vaqtning o'zida arizaga asosan hisob-kitob qilinadi.

Agar hisob-kitobda ko'rsatilgan fizik ko'rsatkichlar (soliq solish obyektlari) o'zgarsa, to'lovchilar o'zgargan sharoitda faoliyatni olib borishdan oldin davlat soliq xizmati organlariga o'zgargan hisob-kitobni taqdim etishlari kerak.

Davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlaridan qat'iy soliq to'lovchilari sifatida ro'yxatdan o'tishlari to'g'risidagi arizani olganlaridan so'ng, ushbu arizani bir ish kuni mobaynida ko'rib chiqishlari kerak.

Qat'iy soliqni hisoblab chiqish va to'lash tartibi qat'iy soliq to'lovlari belgilangan faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyktlari barcha umum-davlat soliqlari, shuningdek, davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan kiritiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlarning o'rniiga budgetga qat'iy soliq to'laydilar. **Quyidagilar bundan mustasno:**

- import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ga bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlari;
- davlat bojlari;
- litsenzion yig'imlar;
- budjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im.

Agar tadbirkorlar sanab o'tilgan bir nechta faoliyat turlarini amalga oshirsalar, qat'iy soliq har bir faoliyat turi bo'yicha alohida to'lanadi.

Agar jismoniy shaxslar ko'rsatib o'tilgan faoliyatlar bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullangan taqdirda, ular alohida hisob yuritishi hamda ushbu faoliyat turlari bo'yicha qonunchilikda soliq

to'lovchilarning mazkur toifalari uchun ko'zda tutilgan soliqlar va yig'imlarni to'lashlari kerak.

Qat'iy soliq stavkalarining bazaviy miqdorlari, fizik ko'rsatkichlari, shuningdek bazaviy stavkalarga to'g'rilovchi koeffitsiyentlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Qat'iy soliq stavkalarining aniq miqdorlari Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan amalga kiritiladi.

**Qat'iy soliqning miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:**

$$Fn = Fp \cdot S$$

Bu yerda,  $Fn$  — qat'iy soliq summasi;

$Fp$  — fizik ko'rsatkichlar (jihozlangan joylarning, ishlovchilarning umumi soni, umumi egallangan maydon);

$S$  — qat'iy soliq stavkasining Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan belgilangan miqdori.

**Qat'iy soliq har oya, hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan to'lanadi:**

**1. Hisoblangan qat'iy soliq summasi:**

- davr xarajatlari hisob varag'ining  $D$  — punktida;
- budjet bilan hisob-kitoblar hisob varag'ining  $K$  — punktida aks etiriladi.

**2. Qat'iy soliqning to'langan summasi:**

- budjet bilan hisob-kitoblar hisob varag'ining  $K$  — punktida.

**Eng kam ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlari soliqqa torishdan ozod etilgan tadbirkor jismoniy shaxslar:**

- «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi «Shuhrat» ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941—1945-yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoki shikastlanish tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek, pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar;

- xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, fuqarolar urushi va 1941—1945-yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovor operatsiyalarning qatnashchilari, 1941—1945-yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq tutqunlari;

- Leningrad qamali paytida 1941-yil 8-sentabrdan 1944-yil 27-yanvargacha bo'lgan davrda Leningrad shahrida ishlagan fuqarolar;

- Ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish va shikastlanish oqibatida nogiron bo'lib qolganlar;
  - bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari;
  - Qahramon onalar, o'n va undan ortiq bolasi bo'lgan onalar;
  - sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoxud shikastlanish oqibatida, yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari;
  - xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;
  - Chernobil AESdagi falokat oqibatida jabr ko'rgan shaxslar;
  - ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'imagan bolalari bor yolg'iz onalar;
  - ikki va undan ortiq bolasi bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqa olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;
  - bolaligidan nogiron bo'lgan va doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onasidan biri;
  - korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va o'quv yurtlari tomonidan qishloq xo'jalik ishlari yuborilgan fuqarolar — ushbu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari bo'yicha.
- Jismoniy shaxslarning imtiyozlarga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganida vujudga keladi.

## 16. Soliqlarning analitik buxgalteriya hisobi

Temir yo'l transportida faoliyat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar O'zR Vazirlar Mahkamasining 610-qaroriga asosan joriy qilingan aksariyat soliqlarni to'lashadi.

Temir yo'lda budjet bilan hisob-kitoblar auditining asosiy maqsadi soliq va yig'imlarning barcha turlari bo'yicha hisoblar to'g'ri tashkil etilishi, ularning to'liq va o'z vaqtida budjetga o'tkazilishi, soliq to'lovlarining kechiktirilishi sabablari va boqimandalar qaysi hisob varaqlariga o'tkazilganligi, mablag'lar o'z vaqtida o'tkazilmaganligiga aybdor shaxslarga nisbatan va yo'l qo'yilgan kamchiliklarning oldini olish uchun qanday chora ko'rganligini aniqlashdan iboratdir. Budjet bilan hisob-kitoblarni tekshirishda auditor xo'jalik yurituvchi subyektga soliq va yig'imlar noto'g'ri hisoblanishi hamda ular o'z vaqtida budjetga o'tkazilmaganligi uchun soliq idoralari tomonidan ko'rildigan jarima va boshqa choralar bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishga yordam berishi lozim.

Temir yo'lda budjet bilan hisob-kitoblar bo'yicha tekshiruvning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi: to'lov va yig'imlarning alohida turlari

bo'yicha ma'lumotlar va hisoblar, tegishli summalar budjetga o'tkazilganligi to'g'risidagi dastlabki hujjatlar ilova qilingan bank ko'chirmalari, soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar bo'yicha dalolatnomalar, buxgalteriya hisobi hisob varaqlari bo'yicha yozuvlar, jurnal-orderlar va hisob registrlarining boshqa turlari, bosh kitob, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va boshqalar.

### Soliq va yig'imlarning barcha turlari bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi:

- Ushbu hisoblar bo'yicha ichki nazorat tizimi holatini (test o'tkazish yo'li bilan baholash).
- Kuzatib borish, nusxa ko'chirish, hujjatlar va hisob registrlarini solish-tirish yo'li bilan soliqqa tortish bazasining to'g'ri belgilanganligini aniqlash.
- Kuzatib borish va nusxa ko'chirish yo'li bilan soliq va yig'imlar stavkasi to'g'ri qo'llanilganligini tekshirish.
- Kuzatib borish, me'yoriy hujjatlar bilan solishtirish, tekshirilgan subyekt xususiyatlarini o'rganish yo'li bilan soliq imtiyozlari to'g'ri qo'llanilganligini tekshirish.
- Kuzatib borish, dastlabki hujjatlarni o'rganish, arifmetik hisoblab chiqish yo'li bilan sotib olingan zaxiralalar bo'yicha QQS to'g'ri qoplanganligini tekshirish.
- To'lov hujjatlari, soliq bo'yicha hisoblarni o'rganish yo'li bilan soliq va yig'imlar bo'yicha to'lovlar to'liq va o'z vaqtida o'tkazilganligi, soliqlarni hisoblash bo'yicha ma'lumotlar to'g'ri tuzilganligini aniqlash.
- Soliqlar va yig'imlarning hisoblash va to'lash bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida to'g'ri aks etilganligini tekshirish.

Korxona qaysi soliq va yig'imlar bo'yicha budget bilan hisob-kitob qilayotganini aniqlash kerak. Soliq idoralari va boshqa nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv hujjatlari va yakunlar bilan tanishib chiqish lozim, zero, bu oldingi davrda yo'l qo'yilgan xatolar tavsifini aniqlash va chuqur tekshiruv uchun obyektlarni belgilash imkoniyatini yaratadi.

Foydadan soliq, QQS, mol-mulk, yer solig'i bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar va yo'l jamg'armasiga ajratmalar sinchkovlik bilan tekshiriladi, chunki bu to'lovlarining budjetga to'lanadigan barcha to'lovlar va yig'imlar tarkibidagi nisbati kattadir, shuningdek, soliq qonunchiligiga rioya qilmaslik (jarima, boqimandalik) o'rganib chiqiladi.

Auditor soliqlarni, ularning mablag'lariga, ya'ni foydasi, davr xarakatlariga, sotuvni kamaytirishga to'g'ri o'tkazilganligini tekshirishi lozim. Tekshiruv jarayonida soliqlar va yig'imlarning barcha turlari bo'yicha hisobot davrining oxirgi aylanmalar va qoldiq to'g'ri chiqarilganligi aniqlanadi. Buning uchun to'lovlarining har bir turi bo'yicha tahlili hisob ko'rsatkichlari, jurnal-orderlar va hisobning boshqa registrlari buxgalteriya balansi ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Tekshiruv vaqtida aniqlangan kamchilik va xatolar auditorning ishchi hujjatlarida va auditorlik hisobotlarida qayd etiladi.

Hozirgi kunda qaysi soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitob qilinayotganligini tekshirish va buxgalteriya hisobi schotlarda to‘g‘ri aks ettirilishi kerak.

### **1. Yuridik shaxslarning daromad solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi quyidagi schotlarda aks ettiriladi:**

Debet 9810 — «Foydadan hisoblangan va to‘langan soliqlar».

Kredit 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Soliq summalarining o‘tkazilishi:

Debet 6410 — «Budget to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **2. QQSni hisoblash tartibi va to‘lanishi.**

Material sotib olinganda QQS summasi:

Debet 4410 — «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar».

Kredit 6010 — «Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schotlar».

Hisobot oxirida QQS summasi 6410 — hisob varaq debetiga o‘tkaziladi:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 4410 — «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar».

Sotilgan mahsulot qiymatiga:

Debet-4010 — «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».

Kredit 9010 — «Realizatsiya» hisob varag‘i.

Debet-4010 — QQS hisoblanadi.

Kredit 6410.

QQS budgetga o‘tkazilganda:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **3. Aksiz solig‘i.**

Sotilgan mahsulot qiymatiga:

Debet 4010 — «Hisob-kitob schoti».

Kredit 9010 — «Tayyor mahsulotni sotishdan olingen daromad».

Aksiz solig‘i qiymatiga:

Debet 4010 — «Tayyor mahsulotni sotishdan olingen daromad».

Kredit 6410 — «Budget to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Aksiz solig‘i budgetga o‘tkazilganda:

Debet 6410 — «Budget to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **4. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi.**

Soliq summasi hisoblab chiqilgandan so‘ng har oyda:

Debet 9430 — «Boshqa operatsion xarajatlar» hisob varag‘i.

Kredit 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Budgetga o‘tkazilganda:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **5. Ekologiya solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi.**

Ekologiya solig‘ining hisoblangan summasi:

-ib Debet 9430 — «Boshqa operatsion xarajatlar».

Kredit 6410 — «Budget to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Soliqning to‘langan summasi:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.**

Soliq hisoblanganda:

Debet 9430 — «Boshqa operatsion xarajatlar».

Kredit 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Budgetga to‘langanda:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **7. Yer solig‘i.**

Soliq hisoblanganda:

Debet 9430 — «Boshqa operatsion xarajatlar».

Kredit 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

### **8. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.**

Soliq solinadigan bazani belgilash uchun buxgalteriya hisobining balans aktivida aks ettiriladigan quyidagi hisob varaqlar bo‘yicha summalar qabul qilinadi:

0110—0190 — «Asosiy vositalar».

0310 — «Uzoq muddatli ijara olingen asosiy vositalar».

0410 — «Nomoddiy aktivlar».

### **9. Mulk solig‘i hisoblanganda:**

Debet 9430 — «Boshqa operatsion xarajatlar».

Kredit 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Budgetga o‘tkazilganda:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **10. Infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.**

Soliq hisoblanganda:

Debet 9810 — «Foydadan hisoblangan va to‘lanadigan soliq».

Kredit 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Bu soliq budgetga to‘langanda:

Debet 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik».

Kredit 5110 — «Hisob-kitob» schoti.

### **11. Jismoniy shaxslarning solig‘ini hisoblash va buxgalteriyada hisoblash.**

Yangi schotlar rejasiga asosan, soliqlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitob-larning buxgalteriya hisobi 6410 — «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik hisobi» schotlarda olib boriladi. Bu schotda har bir soliq turiga alohida schot ochiladi. Bunda korxona o‘zi mustaqil tarzda subschot ochish huquqiga ega.

Jismoniy shaxslar ish haqidan olinadigan daromad solig‘ining buxgalteriya hisobi 6411 — «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

**bo'yicha qarzdorlik** schotida olib boriladi. Jismoniy shaxslar daromadi- dan soliqlarni ushlab qolish, budgetga o'tkazish va ish haqi fondi hisobidan ajratmalar bilan bog'liq buxgalteriya provodkasi keltiriladi.

### 1. Ish haqi hisoblandi:

D-t 9420 — «Mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar».

K-t 6710 — «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar».

### 2. Ish haqidan daromad solig'i ushlandi:

D-t 6710 — «Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob- kitob».

K-t 6411 — «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik».

### 3. Ish haqidan sug'urta to'lovi ushlandi:

D-t 6710 — «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar».

K-t 6520 — «Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar».

### 4. Ish haqidan ushlangan daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta to'lovlariga ajratmalar hisob-kitob schotidan to'lanadi.

D-t 6411 — «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik».

6520 — «Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar».

K-t 5010 — «Kassa».

### 5. Xodimlarga ish haqi berildi.

D-t 6410 — «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob».

K-t 5010 — «Kassa».

### 6. Vaqtida olinmagan ish haqi deponentga o'tkazildi:

D-t 6710 — «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar».

K-t 6720 — «Deponentlangan ish haqi».

### Yer solig'i

Yer solig'ining summasi ishlab chiqarish yoki davr xarajatlariga olib boriladi. Soliq summasi hisoblanganda quyidagi provodka beriladi.

D-t 2010 — «Asosiy ishlab chiqarish».

2510 — «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

K-t 6414 — «Yer solig'ini to'lash bo'yicha budgetga qarzdorlik».

Budgetga o'tkazilganda:

D-t 6414 — «Yer solig'i to'lash bo'yicha budgetga qarzdorlik».

K-t 5110 — «Hisob-kitob schoti».

### Mol-mulk solig'i

Ishlab chiqarish korxonalarining hisoblangan mol-mulk solig'i summasiga quyidagi provodka beriladi:

D-t 2510 — «Umum ishlab chiqarish xarajatlari».

K-t 5110 — «Hisob-kitob schoti».

### Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalariga yoqilg'i ishlataliganligi uchun undiriladigan soliqlar buxgalteriya hisobi:

### 1. Yoqilg'i sotib olindi:

D-t 2920 — «Tovarlar».

K-t 6010 — «Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar».

### 2. Yoqilg'ini jismoniy shaxslarga naqd pulga sotib, kassaga kirim qilingan moliyaviy jarayon buxgalteriya hisobida:

D-t 5010 — «Kassa».

K-t 9020 — «Tovarlarni sotishdan olingan daromad».

6410 — «Budgetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik».

### 3. Hisob davr oxirida hisoblangan daromad solig'i summasi moliyaviy natijalarga o'tkazildi:


K-t 9900 — «Yakuniy moliyaviy natija».

K-t 9810 — «Daromaddan foyda solig'ini to'lash».

Jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatidan (mulkni ijaraga berganligi, qimmatli qog'ozlardan olgan daromadi) kabi daromadlardan soliq ularning daromad solig'i kabi olinadi.

Tasdiqlangan buxgalteriya hisobining analitik va sintetik hisoblarining bog'liqligi quyidagi sxemadagi kabi amalga oshiriladi:


#### Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i



1. Ishlab chiqarish korxonalarida mol-mulk solig'i hisoblanadi.

2. Shu summa budgetga o'tkazildi.


#### Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i



1. Yer solig'i summasi hisoblanadi.


2. Shu summa budgetga o'tkazildi.

**Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalariqa  
yoqilg'i ishlatganlik uchun undiriladigan soliq**




1. Yoqilg'i ishlatganlik uchun undiriladigan soliqlar.
2. Yoqilg'i jismoniy shaxslarga naqd pulga sotilib, kassaga kirim qilin-gan moliyaviy jarayon.
3. Hisob davri oxirida hisoblangan daromad solig'i summasi moliyaviy natijalarga o'tkazildi.

**Jismoniy shaxslar daromadidan soliq**




1. Ish haqi hisoblandi.
2. Ish haqidan daromad solig'i ushlandi.
3. Ish haqidan sug'urta to'lovi ushlandi.
4. Ish haqidan ushlangan daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta to'lovlari-ja ajratmalar hisob-kitob schotidan to'landi.
5. Xodimlarga ish haqi berildi.
6. Vaqtincha olinmagan ish haqi deponentga o'tkazildi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i**




1. Yuridik shaxslarning daromad solig'i hisoblandi.
2. Soliq summasi budjetga o'tkazildi.

**QQSni hisoblash tartibi va to'lanishi**



1. Material sotib olinganda QQS summasi hisoblanishi.
2. Hisobot oxiridagi QQS summasi 6410-hisob varaqqa debetga o'tkazildi.
3. Sotilgan mahsueri qiymati.
4. QQS hisoblanadi.
5. QQS nini budjetga to'lanishi.

**Aksiz solig'i**



1. Sotilgan mahsulot qiymati.
2. Aksiz solig'i qiymati.
3. Aksiz solig'i budgetga o'tkazildi.

#### **Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq**

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9430 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Har oyda soliq summasi hisoblab chiqildi.
2. Ushbu soliqning budgetga to'lanishi.

#### **Ekologiya solig'ini hisoblash tartibi**

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9430 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Ekologiya solig'i hisoblanishi.
2. Soliqning budgetga o'tkazilishi.

#### **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9430 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblandi.
2. Budgetga o'tkazilishi.

#### **Mahalliy budgetga to'lanadigan soliq, yagona soliq**

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9810 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning hisoblanishi.
2. Shu soliqning budgetga o'tkazilishi.

#### **Yer solig'i**

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9430 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Yer solig'i hisoblanishi.
2. Budgetga o'tkazilishi.

#### **Yuridik shaxslarni mol-mulkiga soliq olgan soliqlar**

Soliq solinadigan bazani belgilash uchun buxgalteriya hisobiga balans aktivida aks ettiriladigan quyidagi hisob varaqlar bo'yicha summalar qabul qilinadi.

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9430 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Mulk solig'i hisoblanishi.
2. Mulk solig'ining budgetga to'lanishi.

#### **Infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash**

D-t 5110 K-t	D-t 6410 K-t	D-t 9810 K-t
X ————— (2) ————— X	X ————— (1) ————— X	

1. Bu soliqning hisoblanishi.
2. Soliqning budgetga to'lanishi.

Yangi analitik buxgalteriya hisobini to'g'ri olib borish faoliyat yurguzuvchi barcha yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lib, buxgalteriya hisob-

kitoblari natijalarini o'z vaqtida soliq inspeksiyasiga topshirish muddatlariga  
rioya qilish zarur.

### ***Oyatish uchun savollar:***

1. Kimlar jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilar bo'ladi? Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad nima?
2. Jismoniy shaxslarning jami daromadidan qanday chegirmalar beriladi?
3. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan imtiyozlar necha turdan iborat va ularning tarkibi qanday?
4. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari mavjud?
5. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lov manbayida ushslash tartibi qanday?
6. Jismoniy shaxslarning soliq deklaratsiyasini taqdim etishi va undan soliq to'lash tartibi qanday?
7. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lash muddatlari qachon amalga oshiriladi?

1. Jismoniy shaxslarning jami daromadidan qanday chegirmalar beriladi? Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad nima?

2. Jismoniy shaxslarning soliqdan imtiyozlar necha turdan iborat va ularning tarkibi qanday?

3. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari mavjud?

4. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lov manbayida ushslash tartibi qanday?

5. Jismoniy shaxslarning soliq deklaratsiyasini taqdim etishi va undan soliq to'lash tartibi qanday?

6. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lovchilar bo'ladi? Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad nima?

7. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lovchilar bo'ladi? Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad nima?

### **XULOSA**

Xalqaro soliq tizimi murakkab fan bo'lib, tez o'zgaruvchan va xalqaro iqtisodiy, siyosiy aloqalarga asosan muvosiqlashtirilishi zarur.

O'quv qo'llanmada soliq va bojsiz tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish huquqi va yo'llari, bojxonada tovar va xizmatlarni rasmiylashtirish, nazorat qilish, ekspertizadan o'tkazish, yuk tashuvchi avtomobil va vagonlarni rasmiylashtirib, boj to'lovlarini aniqlash usulublari yoritildi. Alovida bobda bojxona qiymatini aniqlash usullari va boj tushumiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini aniqlovchi iqtisodiy-matematik modellar turlari berildi.

Bozor munosabatlarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs davlatga soliq va boj to'lab, qolgan daromadini o'z maqsadi yo'lida sarflaydi. Bu esa faoliyat yurgizuvchi shaxslarning davlat oldidagi majburiyatlarini, huquqiy asoslarini mukammal bilishlarini taqozo qiladi. Chunki soliq va boj to'lovlarining amalda joriy qilinganligini bilmaslik soliq to'lovchilarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Shu sababli mazkur o'quv qo'llanmadagi berilgan bilimlar tarkibi talabalar uchun bozor munosabatlarida zarur bo'lgan birlamchi bilimlar toifasiga kiradi. Tadbirkor shaxslar soliq va bojxona huquqiy asoslarini yaxshi bilsalar o'z faoliyatlarini samarali davom ettira oladilar.

O'quv qo'llanmada amaldagi joriy qilingan soliq va boj to'lovlarini undirishning huquqiy asosları haqida so'z yuritilib, ularni aniqlash usullari, hisoblash hamda davlat budgetiga o'tqazish tartiblari va u mablag'lardan samarali foydalanish yo'llari berildi.

Bozor munosabatlarini shackllantirishda talab va taklif qonuning o'zgarishiga soliq va boj to'lovlarini ham salmoqli ta'sir qiladi. Ayrim holdarda boj va soliq stavkalari iqtisodiy o'sishning asosiy omili ham bo'lishi mumkin. Chunki notarif usullar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarib, umuman tovar kiritishni man etish mumkin.

Alovida boblarda soliq qonunchiligi, soliq organlari hamda mansabdor shaxslar huquqi, soliq noziri hamda soliq to'lovchilar huquqlari va majburiyatlarini yoritilgan. Bu esa talabalarga va amaliyotda faoliyat ko'rsatuvchi shaxslarga kerakli, eng zarur bilimlar hisoblanadi.

O'quv qo'llanmada eksport va import operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi shaxslardan alovida boj to'lovlarini undirish huquqlari hamda aksiz va QQSNI import tovarlarini olib kiruvchilardan undirish huquqlari berildi.

Bu huquqlar tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun, ayniqsa, ularning tovarlarni eksport va import qilish jarayonlarida asqotadi.

Talabalar uchun o'quv qo'llanmaning maxsus bo'limida transport vositalarida olib kirilayotgan va davlatimiz orqali olib o'tilayotgan tovarlarni nazorat qilish, rasmivylashtirish tadbirlari hamda huquqlari voritilgan.

O'quv qo'llanmada talabalar uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarning emas, hozirgi kunda foydalaniyatgan uslublar ham talqin qilindi.

Shuningdek, bozor munosabatlarda zarur bo'lgan asosiy mexanizmlardan — soliq, boj, yig'im va to'lov kabi elementlarning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mohivati tushunarli qilib voritildi.

Xulosa qilib aytganda, soliq va boj to'lovlari bozor munosabatlarini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi mehanizm bo'lib, respublikamizda bozor munosabatlari samaradorligini oshiradi.

Народната община националният съюз на българите в България и в чужбина е политическа партия, която съществува от 1990 г.

ADABIYOTLAR

ASOSIY ADABIYOTLAR

- ✓ 1. I. A. Karimov. «2005-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2006-yilda islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida», Xalq so'zi, 2005-yil, 18-fevral.

✓ 2. I. A. Karimov. O'zbekiston — iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., O'zbekiston, 1995, 269-b.

✓ 3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. Toshkent, Adolat, 2000.

✓ 4. «Организация таможенной службы в Республике Узбекистан (пособие для руководства в практической деятельности). Ташкент, 1996.

✓ 5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 290-son bilan 10.12.1996-yilda ro'yxatdan o'tgan «Xalqaro yuk tashish CARNET—TIR daftarchasi bilan foydalangan holda Xalqaro yuk tashish to'g'risidagi bojxona Konvensiyasini qo'llash tartibi haqida»gi Nizom.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasining «1975-yildagi Xalqaro yuk tashish Konvensiyasini qo'llash haqidagi Nizomni amalga kiritish to'g'risida»gi 20.08.1997-yildagi 27-sonli buyrug'i.

7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 875-son bilan 19.01.2000-yilda ro'yxatdan o'tgan «Bojxona nazorati ostida avtomobil transportida yuqlarni yetkazib berish tartibi» to'g'risidagi Yo'rqnoma.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasining «Bojxona nazorati ostida avtomobil transportida yuqlarni yetkazib berish tartibini amalga kiritish to'g'risida»gi 27.01.2000-yildagi 29-sonli buyrug'i.

9. Э. Т. Салихов. «Правовые основы международных грузовых перевозок». Ташкент, 1999.

## ASOSIY QARORLAR VA YO'RIQNOMALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Davlat Bojaxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 1997-yil 8-iyuldagい PF-1815 Farmoni.
  2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 1997-yil 30-iyuldagい 374-sonli Qarori.
  3. O'zbekiston Respublikasining Bojaxona Kodeksini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrdagi Qonuni.
  4. «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-oktabrdagi Qonuni.

5. «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2001-yildagi Qonuni.

6. O‘zbekiston Respublikasi «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari» to‘g‘risidagi Qonuni.

7. «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida eksport-import shartnomalarini qayd etish» Adliya vazirligining 21-dekabr 2000-yil 911-som tartibi.

8. «Ichki valuta bozorida almashuv kurslarini bir xillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 25-oktabr 422-som Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 610-Qarorlari, 2005-yil.

10. Закон Республики Узбекистан «О таможенном тарифе» от 29 августа 1997 г. № 470-1 с изменениями № 220-11 от 12.05.

11. Таможенный тариф Республики Узбекистан, Ташкент, «Мир экономики и права», 2001 г.

12. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан, Ташкент, «Мир экономики и права», 2001 г.

#### QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

- ✓ 1. Международный опыт налогообложения, М., Наука, 2005.
- 2. В. Д. Андрианов. «Внешнеэкономические связи новых индустриальных стран» — М.: Наука, 1998. Стр. 232.
- 3. Ф. Х. Банаев. «Внешнеэкономические связи Узбекистана» — Т.: ФАН, 1998 год, Стр. 142.
- 4. А. М. Касимов, И. Н. Васькин. «Основные направления внешней политики Республики Узбекистан». Т.: Узбекистон, 1994. Стр. 112.
- 5. А. Ф. Расулов. А. К. Бедринцев, А. Г. Акилов. «Узбекистан: внешнеэкономическая деятельность интеграция в мирохозяйство — Т.: Узбекистон, 1996. Стр. 76.
- 6. Б. М. Турсунов. «Внешэкономическая деятельность и привлечение иностранных инвестиций (курс лекции)» — Т.: Узбекистон, 1995. Стр. 76.
- 7. Ф. А. Ахмедов. «Таможенное регулирование внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан — Т.: 2000. Стр. 211.
- 8. А. Д. Ершов. «Международные таможенные отношения». Санкт-Петербург. 2000. Стр. 204.
- 9. Международные экономические отношения. М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1997. Стр. 128.
- 10. Основы таможенного дела. Т.: Мир экономики и права, 1998.
- 11. Tashqi iqtisodiy faoliyat xususida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi (iqtisodiy huquqiy asoslarda) — Т.: Sharq 1995. 272-b.
- 12. Б. Н. Габричидзе. «Таможенное право». М.: Инфра. 1997. Стр. 367.
- ✓ 13. Р. А. Дернберг. Международное налогообложение. М., ЮНИТИ, 1997.
- ✓ 14. В. Й. Князев. Налоговые системы зарубежных стран. М., ЮНИТИ, 1997.
- 15. О. В. Мещерякова. Налоговые системы развитых стран мира. Справочник. М.: Фонд «Правовая культура», 1995.
- ✓ 16. Т. Ф. Юткина. «Налоги и налогообложение». М.: ИНФРА-М, 2001.

17. Международная экономика (Под ред. проф. А. Киреев), М., «Международные отношения», 2001.

18. Международный маркетинг (под ред. А. Васильева). М.: ЮНИТИ, 2000, Стр. 199.

19. Международный менеджмент (под ред. И. Покровский), М., Юрист, 2000, Стр. 224.

20. Международные финансы. М.: Финансы, 2001, Стр. 245.

21. Международный бизнес. М.: Юрист, 2001, Стр. 480.

22. В. Глухов. Налоги (теория и практика), Петербург, 1996, Стр. 317.

23. И. В. Горский. Экономический рост и налоги. Налоговое обозрение, 1999, № 1—2.

24. Д. Т. Черник. Налоги в рыночной экономике, М.: Финансы, ЮНИТИ, 1997, Стр. 380.

25. Д. Ю. Мельник. Налоговый менеджмент. М.: Фист, 2001, Стр. 452.

26. Soliq qonunchiligi asoslari. Т., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2000.

27. Л. Б. Хван. Налоговое право. Т., Консаудитинформ, 2001, Стр. 324.

28. T. Toshmurodov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Т., SBOA, 2001. 10-b.

✓ 29. T. Toshmurodov. Xalqaro soliq tizimi. Т., SBOA, 2002.

✓ 30. T. Toshmurodov. Soliq nazariysi. Т., SBOA, 2002, 64-bet.

✓ 31. T. Toshmurodov. Xalqaro soliq tizimi. Т., 2002, 65-bet.

✓ 32. Т. Ташмурамов. Налоговая система зарубежных стран, Ташкент, АНТО, 2001, 63.

33. T. Toshmurodov. Soliq va soliqqa tortish. Т., Mehnat, 2003, 301-bet.

34. T. Toshmurodov. Soliqlar: izohli lug‘at, Т., Mehnat, 2003, 187-bet.

35. T. Toshmurodov. Soliq nazariysi va tizimi. Т., «Bilim», 2004, 388 bet.

✓ 36. T. Toshmurodov. Bojxona va soliq asoslari, Т., «Bilim», 2005. 318-b.

#### RASMIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyati haqida» Qonuni (1991-yil 14-iyul).

2. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasida valutani tartibga solish haqida» Qonuni (1993-yil 7-may).

3. O‘zbekiston Respublikasining «Xalqaro valuta jamg‘armasi, Xalqaro rivojanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojanish assotsiatsiyasiga Xalqaro moliyaviy korporatsiyalar, Ko‘ptomonlama investitsion kafolatlash agentliklarida O‘zbekiston Respublikasining a‘zoligi haqida» Qonuni (1994-yil 4-may).

4. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyasi va chet el investorlari faoliyatilarini kafolatlash hususida» Qonuni (1994-yil 4-may).

5. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyasi haqida» Qonuni (1998-yil 30-aprel).

6. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investorlarining huquqlarini himoyalash chorralari va kafolatlari haqida» Qonuni (1998-yil 30-aprel).

#### CHET DAVLATLAR SOLIQ TIZIMIGA OID ADABIYOTLAR

1. International Economics, Oxford, UK, Cambridge, Blackwell, 2001, 420 p.

2. Asheghian Parvis, Instructor’s Manual to Company International Economics, Minneapolis» West Publishing Company 1999, 157 p.

3. GPA Review: Federal Taxation Florida: Total tape, 1999, 237p.  
 4. Hoffman, William N. West's Federal Taxation: 1998, Annue Addition: Comprehensive Volume-New York, West Public. Company, 1998, 1170 p.  
 5. Hulbaur, Gary Clyde. U.S. Taxation of International Income: Blueprint for Reform, Washington, 1998, 281.  
 6. Lecture Notes: Taxation in a Market Economy-Theory and Practice-With Special Reference to Economics in Transition, Inst. of Finance, 1998, 48 p.  
 7. McLure Charles. Tax Policy Lessons for LDS and Eastern Europe, San Francisco. Press-1992, 27 p.  
 8. Prentice Hall's Federal Taxation 1947: Comprehensive (Auth. K.E) Anderson, D (D. Bandy, N, and A. Ford. a.c.) Edit J. L. Kramer, T. R. Pope, L. C. Philips, New Jersey Prentice Hall, and 1999, 1140 p.  
 9. Rose Manfred and Wiseacre R. Taxation in a Market Economy Theory and Practice With Special Reference to Economics in Transition, 2001, 476 p.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>1-bob. Xalqaro soliq tizimini optimallashtirish nazariysi .....</b>	6
1. Xalqaro soliq tizimini optimallashtirish modellari .....	6
2. Soliq nazariyasini optimallashtirish evolutsiyasi .....	26
3. Soliqqa tortish bo'yicha iqtisodchi olimlarning nazariy fikrlari .....	34
<b>2-bob. Xalqaro soliq tizimi, modeli va mexanizmi .....</b>	42
1. Soliq modellarining elementlari .....	42
2. Soliq tizimi unsurlari .....	46
3. Soliq mexanizmining kuchi va mohiyati .....	49
4. Soliqqa tortish vazifalari, tamoyillari, usullari va funksiyalari .....	51
5. Soliqqa tortishning huquqiy asoslari .....	58
6. Soliq huquqining manbalari .....	59
<b>3-bob. Ikkiyoqlama soliqqa tortishni optimallashtirish .....</b>	76
1. Xalqaro soliq siyosati .....	76
2. Ikkiyoqlama soliqqa tortishni optimallashtirish yo'llari .....	78
3. Xorijiy shaxslar faoliyatini soliqqa tortish .....	80
4. Xalqaro iqtisodiy faoliyatdan olingan soliqni taqsimlash tartibi .....	83
<b>4-bob. Xalqaro savdadan olinadigan bojxona bojlari .....</b>	85
1. Boj mexanizmining elementlari .....	85
2. Bojxona bojlari va to'lovlar .....	88
3. Bojxona bojlarini hisoblash va undirish tartibi .....	94
4. Bojxona bojlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar .....	96
5. Xalqaro iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boj yordamida boshqarish .....	98
6. Xalqaro savdo shartnomalarini bojxonada rasmiylashtiruv tartibi ...	100
7. Bojxonada tovar va xizmatlarni rasmiylashtirish tartibi .....	104
8. Olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlash .....	112
<b>5-bob. Amerika davlatlarining soliq tizimi .....</b>	115
1. AQSH soliq tizimi .....	115
2. Kanadada soliq tizimi .....	123

<b>6-bob. Yevropa davlatlari soliq tizimi</b>	127	254
1. Germaniya Federativ Respublikasining soliq tizimi	127	255
2. Fransiya Respublikasida soliq tizimi	136	259
3. Avstriya Respublikasida soliq tizimi	141	265
4. Belgiyada soliq tizimi	144	272
5. Finlandiya Respublikasining soliq tizimi	148	284
6. Niderlandiya soliq tizimi	149	298
7. Norvegiya qirolligida soliq tizimi	152	309
8. Skandinaviya davlatlari va Danyia qirolligida soliq tizimi	154	311
9. Italiya soliq tizimi	156	
10. Ispaniya soliq tizimi	160	
11. Shvetsariya soliq tizimi	163	
12. Luksemburgda soliq tizimi	164	
13. Buyuk Britaniya soliq tizimi	166	
14. Irlandiya soliq tizimi	168	
15. Shvedsiya soliq tizimi	169	
16. Federativ va konfederativ davlatlar soliq tizimi xususiyatlari	173	
<b>7-bob. Osiyo davlatlarining soliq tizimi</b>	175	
1. Yaponiyada soliq tizimi	175	
2. Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimi	179	
3. Hindiston davlatining soliq tizimi	184	
<b>8-bob. Afrika davlatlarining soliq tizimi</b>	187	
1. Afrika soliq tizimi	187	
2. Misr Arab Respublikasi soliq tizimi	193	
<b>9-bob. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar soliq tizimi</b>	196	
1. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlardagi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari	196	
2. Rossiya Federatsiyasining soliq tizimi	199	
3. Belorus Respublikasi soliq tizimi	203	
4. Ukraina Respublikasi soliq tizimi	206	
5. Qozog'iston Respublikasi soliq tizimi	208	
6. Ozarbayjon Respublikasi soliq tizimi	211	
<b>10-bob. O'zbekiston amaliyotidagi soliqlar</b>	216	
1. O'zbekiston amaliyotida joriy qilingan soliq turlari	216	
2. Yuridik shaxslardan undiriladigan foya (daromad) solig'i	226	
3. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	232	
4. Qishloq xo'jaligi korxonalar uchun yagona yer solig'i	235	
5. Yagona yer solig'i	238	
6. Aksiz solig'i	239	
7. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)	243	
8. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	249	
9. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i	251	

XULOSA  
ADABIYOTLAR

*Tozabek Toshmurodovich Toshmurodov*

## SOLIQLAR VA XALQARO SOLIQ TIZIMI

(derslik)

Muharrir	<i>A. Ziyodov</i>
Badii muharrir	<i>J. Gurova</i>
Texnik muharrir	<i>T. Smirnova</i>
Musahhihlar	<i>G. Akromova, S. Abdunabiyeva</i>
Kompyuterda tavyorlovchi	<i>A. Yuldasheva</i>

Bosishga 23.11.05. y. da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90^1$ ,<sup>16</sup> «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 20,0. Nashr. t. 20,5. Adadi 1 500. 161-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ da sahifalanib, chop etildi.  
Toshkent, H. Boyqaro ko‘chasi, 41.